bilim sohalari kabi muhimdir. Ta'lim fanlari o'rtasida o'rnatilgan gorizontalar yangi o'quv dasturlari, o'quv materiallari ishlab chiqishga imkon beradi. Natijada, moslashuvchan sertifikatlash tizimlarini yaratib, talabalar bilim va ko'nikmalarini yaxshiroq tasniflash mumkin bo'ladi. Zamonaviy jamiyatning jadal rivojlanishi o'qituvchilar tarkibiga yangi talablarni qo'yadi. O'qituvchilar tarkibining sifati ta'lim tizimining eng muhim tarkibiy qismidir, chunki boshqa barcha tarkibiy qismlarning amalga oshirilishi u yoki bu ta'lim tizimi ta'minlanadigan kadrlarga bevosita bog'liqdir. O'qituvchining o'zi birinchi navbatda zamonaviy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi, interfaol texnologiyalarni o'zlashtirishi, o'zini takomillashtirishi va talabalar uchun namuna bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Yakubov U.S. Ilxamova Yo.S., Jumaniyazova M.Yu. "Iqtisodiyotda axborot komplekslari va texnologiyalari. Amaliy mashg'ulotlar olib borish uchun uslubiy qo'llanma.
2. Axborot xavfsizligi asoslari. I.M.Karimov umumiy tahriri ostida. Ma'ruzalar kursi.
3. Akademik S.S.G'ulomovning umumiy tahriri ostida A.A.Akayev, A.T.Kenjabayev, Yo.S.Ilxamova, M.Yu. Jumaniyazova Iqtisodiyotda axborot komplekslari va texnologiyalari (Darslik)
4. <http://fb.ru/article/145313/informatsionno-kommunikatsionnaya-tehnologiya-ikt-tehnologii>.

UO'K 373.51:004.78

MASOFAVIY TA'LIMNI MOODLE PLATFORMASIDA TASHKIL ETISH ORQALI SAMARALI NATIJALARGA ERISHISH

*Shaxobova Muqima Aliqambarovna,
Ilyasova Shaxnoza Shukrallayevna,*

*Toshkent shahar Sirg'ali tumani, 268-umumiy o'rta ta'lim maktabi Informatika va
axborot texnologiyalari fani o'qituvchilari, O'zbekiston Respublikasi
E-mails: muqima@bk.ru, shaxnozailyasova@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqola masofaviy ta'lim asosida o'qish faoliyatini tashkillashtirish va olib borishga qaratilgan. Masofaviy ta'lim tizimida o'quv materiallarini joylash, o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish va o'quvchilarni baholash haqida tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Masofaviy ta'lim, ta'lim samaradorligi, modulli tizim, onlayn o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish, o'quvchilarni baholashni onlayn tashkil etish.

UDC 373.51:004.78

ACHIEVING EFFECTIVE RESULTS THROUGH ORGANIZING DISTANCE LEARNING ON A MOODLE PLATFORM

*Shahobova Muqima Aliqambarovna,
Ilyasova Shaxnoza Shukrallayevna,*

*Teachers of Informatics and IT, secondary school No. 268,
Sergeli district of Tashkent city, Republic of Uzbekistan*

Brief abstract. This article focuses on the organization and conduct of distance learning activities. Recommendations are made on the placement of learning materials in the distance education system, the development of study assignments, and the assessment of students.

Keywords: Distance learning, education effectiveness, a modular system, development of online learning assignment, organization of online student assessment.

Kelajagini o'ylagan davlat, xalq, avvalo o'sib kelayotgan avlodning ma'naviy-ma'rifiy jihatdan yetuk, jismonan sog'lom, tafakkuri yuksak darajada bo'lishi to'g'risida qayg'uradi. Barcha say-harakatlarni shu ezgu-niyat va orzuga uyg'unlashtiradi. Zero, har qanday holatda ham bu ulug' tushunchalar o'zgarmas aksioma sifatida qolaveradi.

Biz uchun kutilmagan vaziyat – koronavirus tufayli vaqtincha joriy etilgan karantin holatida ham ertamiz egalariga asosiy diqqat-e'tibor qaratilgan.

Shu munosabat bilan ko'plab ta'lim muassasalari ham masofaviy ta'limga o'tishdi. Quyida masofaviy ta'limni MOODLE platformasi olib borilishida kuzatilayotgan jarayonlarning yutuq va kamchilari bilan tanishib o'tamiz.

Masofaviy ta'lim tizimi orqali ish boshlaganda, birinchi asosiy vazifa o'qituvchilarga o'z fanlari bo'yicha har bir mavzuga oid o'quv material va o'quv topshiriqlarini joylash yuklatiladi. Bunda o'qituvchilarga quyida keltirilgan yo'riqnomalarga ahamiyat berishlari tavsiya etiladi.

1. Tizimga mavzular bo'yicha o'quv materiallarini joylashda mavzu bo'yicha ko'p va ortiqcha ma'lumotlar kerak emas. Bunday holat tizimning ishlashiga ortiqcha yuklanish bilan bir qatorda o'quvchilarda tushunmovchiliklar ko'p bo'lishiga olib keladi. Videomashg'ulot yoki taqdimot ko'rinishidagi ma'lumotlar o'quvchilarga tushunarli bo'lib, samarali natija beradi. Videomashg'ulotlar joylanishining yana bir ijobiy tomoni shundaki, bunda o'quvchilar ko'z bilan ko'rib, quloq bilan eshitib, o'zlarini darsda o'tirgandek his qilishlari bilan bir qatorda, tizimga yuklanayotgan videomashg'ulot ortiqcha joy egallab, tizimga yuklanish tushushini oldini oladi. Chunki, videomashg'ulotlarning hajmi katta bo'lganligi sababli, faqat murojaat (ssilka) orqali yuklanadi. Bu esa o'z navbatida hafta yoki o'qish faoliyati davomida necha nafar o'quvchi ushbu videomashg'ulotga murojaat etganliklarini ham kuzatib borish imkonini beradi. O'quv materiallarining taqdimot yoki word, pdf shakllarida yuklanishi esa, ayni vaqtda internet tizimida ishlashda muammo bo'layotgan o'quvchilarga qulaylik yaratadi. Chunki, bunday ko'rinishdagi fayllar videomashg'ulotlardan ko'ra kamroq hajmga ega. (Ya'ni, foydalanuvchi imkoniyatidagi internetdan foydalana olish hajmiga qarab, o'zi tanlay oladi).

Demak, tizimga o'quv materiallarini joylashdagi asosiy tavsiya: 1 ta mavzu uchun joylangan word yoki pdf shaklidagi materiallar, taqdimot material va videomashg'ulotlar mazmunan bir xil, ya'ni mavzuga oid asosiy tushunchalarni tashkil etishi kerak. Zero, o'quvchi o'sha mazvuni o'rganish uchun mavzu asosida joylashgan ixtiyoriy materialdan foydalanganda, mavzuni tushuna olishi kerak. O'quv material mazmunining bir qismi word yoki pdf shaklidagi fayllarda, yana bir qismi taqdimot shaklidagi hujjatlarda, boshqa qismi esa, videomashg'ulotda joylanishi, ortiqcha ma'lumotlarning ko'payib ketishiga sababchi bo'lib, o'quvchilarda mavzuni o'rganishlarida tushunmovchiliklarga olib kelishi bilan bir qatorda, ortiqcha vaqt va ortiqcha sarf-harajat (tizimdagi ma'lumotlarni yuklab olish hisobiga) bo'lishiga olib keladi va aniq bir natijaga erishish samaradorligi kamayadi.

2. Tizimga o'quv topshiriqlarini joylashda quyidagilarga ahamiyat berish kerak:

➤ O'quv topshirig'ini o'quvchilar tomonidan word, pdf, taqdimot yoki boshqa shakllardagi fayllarda bajarib, tizimga qayta yuborish orqali topshirishi samarali natija emas. Bunda, birinchi navbatda, o'quvchilar tomonidan tizimga yuklanayotgan fayllar hajmi ko'payib ketib, tizim ishlashiga sal'biy ta'sir ko'rsatsa, ikkinchidan, o'quvchilar ham o'quv topshiriqlarini bajarishda aksariyati ko'chirmachilikka bo'ysunib qolishadi. Ya'ni, telegramm yoki boshqa internet imkonitalaridan foydalanib, vazifani bajargan o'quvchilarning o'z kursdoshlariga rad javobini bera olmasliklari sababli, mavzu bo'yicha tayyorlagan o'quv topshiriqlari javoblari guruhlar o'rtasida ommalashib ketadi. Bunday holatda esa, baholashda xaqqoniylik bo'lmaslik ehtimoli yuqori. O'qituvchidan esa, ortiqcha vaqt talab qiladi. O'quvchilarning javob varinatlarini tekshirishda ortiqcha vaqt sarflashi bilan bir qatorda, bir xillikdagi ishlarni tekshirish, o'qituvchining asab tizimiga sal'biy ta'sir ko'rsatadi. Asosiy javob varianti qaysi talaba tomonidan bajarilganligini farlolmay qoladi. Bir xil bajarilgan ishga har xil baho q'oyilishi esa, o'quvchilarda ziddiyatlar paydo bo'lishiga sababchi bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida o'quvchilarning o'qishga qiziqishlarini kamayishiga olib keladi.

➤ O'quv topshiriqlarini onlayn tarzda ishlab, natijasi shu vaqtning o'zida chiqadigan tarzda yuklatilishi maqsadga muvofiq. Bunda o'qituvchining ishlarni tekshirishga ortiqcha vaqti ketmaydi va baholashda aniqlik yuqoriroq bo'ladi;

➤ Test topshiriqlarini tuzishda aralash testlardan, ya'ni har bir talabaga turlicha testlar tushadigan dasturdan foydalanish samarali natija beradi. Chunki, bir xillikdagi testlarni ishlashda o'quvchilarning testni rasmga olib, tarqatish ehtimoli yuqori. Baholarning esa, keskin o'sib ketish holati kuzatiladi. Bunday holatda, o'quvchilarning o'qishga qiziqishi kamayadi.

3. Masofaviy ta'lim tizimida ishlash jarayonida parallel ravishda guruh o'quvchilari orasida telegrammdan guruh ochish samarali natija beradi. Bunda quyidagilarga ahamiyat berish kerak:

➤ Har bir guruhni alohidalashdan ko'ra barcha guruhlar uchun telegram guruhi bitta bo'lishi ko'proq natija beradi;

➤ Telegramm orqali muloqot olib borilganda, o'quvchilarning savollarini imkon qadar javobsiz qoldirish kerak emas. Har bir ochiq qolgan savol, o'quvchilar qiziqishini kamaytiradi;

➤ Tizimda borayotgan jarayonning holati, ya'ni o'quvchilarning aktivligi bo'yicha tez tez hisobot berib turish samarali natija beradi. Guruhlar o'rtasida o'zaro musobaqani, raqobatni shakllantiradi;

➤ Telegramm guruhida fandan tashqari har xil onlayn testlar o'tqazilib turilishi samarali natija beradi. Masalan, "Siz qanday muammolarga duch kelyapsiz?", "Masofaviy ta'limning qaysi tomonlari sizda qiziqish uyg'otmoqda?", "Baholaringiz vaqtida qo'yilmoqdam?", ...va.b

4. O'quvchilarning bajargan o'quv topshiriqlari bo'yicha baholari imkon qadar qisqa muddat ichida e'lon qilinishi foydadan holi emas.

Demak, masofaviy ta'lim orqali o'qish jaryoni samaradorligini oshirish va o'quvchilarni jalb qila olish biz o'qituvchilarning zimmasida. Zero, to'g'ri tashkil etilgan ta'lim, o'quvchilarning qiziqishini yanada oshirishga sababchi bo'lishini unutmashligimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-dekabrda, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi maktabda yoshlar bilan o'tkazgan suhbat matni. Ziyonet.net
2. Zarafshon gazetasi, 2020-yil 13-may, 53 (23.333)-son.

UO'K 378.046.4

BIOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARI MALAKASINI GLOBAL TARMOQLAR ORQALI OSHIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Niyozov Qahramon Adashaliyevich,

Namangan viloyati XTXQTMOHM katta o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Biologiya o'qituvchilarining malakasini oshirishda global tarmoqlarning ahamiyati hamda ushbu jarayonda yuzaga kelayotgan muammolar va ularning yechimlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: global tarmoq, bilim, ko'nikma, malaka, onlayn, malaka oshirish, kompetensiya, kasbiy kompetentlik.

UDC 378.046.4

RELEVANT ISSUES OF TRAINING THE BIOLOGY TEACHERS THROUGH GLOBAL SET

Niyozov Qahramon Adashaliyevich,

Senior lecturer, Namangan Regional Center for Retraining and Advanced Training of Public Educators, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. In this article, it is written about the importance of global network to improve biology teachers' professional competence and problems in this process and ways of solving them.

Keywords: wide area network, knowledge, ability, skills, online, in-service training, competence, professional competence.

Bugungi axborot maydonida global tarmoq o'rni va ahamiyati ortib bormoqda. Shu boisdan biologiya fani o'qituvchilari ham global tarmoq imkoniyatlaridan to'liq foydalanishni bilishlari dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Buning uchun avvalo pedagoglar global tarmoq haqida tushunchaga ega bo'lishlari, unda foydalana olishlari, kerakli ma'lumotlardan samarali foydalanish ko'nikmasini egallashlari kerak. Shu o'rinda global tarmoqlardan foydalanishda pedagoglar duch kelayotgan muammolar haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Nambiolog telegram kanalida o'tkazilgan "Siz ishlayotgan ta'lim muassasasi global tarmoq(internet)ga ulanganmi?" deb nomlangan so'rovnomada jami 3960 nafar kanal a'zolaridan faqat 717 nafari(18 foiz) ishtirok etgan. Bundan ko'rinib turibdiki pedagoglarimizda muloqotga kirishish, subyektlar bilan axborot almashinish, o'zini-o'zi boshqarish va shaxsiy rivojlantirish, axborotlarni to'plash, ularni qayta ishlash va obyektiv baholash kabi ko'nikmalar to'liq shakllanmagan.

Ushbu so'rovnomada olingan natijalarga ko'ra ishtirokchilarning 60 foizi(427 nafar) **Yo'q**, 32 foizi(233 nafar) **Ha**, 8 foizi(57 nafar) **ta'lim muassasamiz kompyuter xonasi bilan ta'minlanmagan** deb javob berishgan.

"**Axborot olishda qanday vosita siz uchun qulay deb hisoblaysiz?**" deb nomlangan so'rovnomada esa jami 4000 nafardan ortiq kanal a'zolaridan faqat 697 nafari (17 foiz) ishtirok etgan. Bundan ko'rinib turibdiki pedagoglarimizda muloqotga kirishish, subyektlar bilan axborot almashinish, o'zini-o'zi boshqarish va shaxsiy rivojlantirish, axborotlarni to'plash, ularni qayta ishlash va obyektiv baholash kabi ko'nikmalar to'liq shakllanmagan.

Ushbu so'rovnomada olingan natijalarga ko'ra ishtirokchilarning 82% foizi (570 nafar) **Telefon, Smartfon**, 18% foizi (127 nafar) **Kompyuter, Notebook**, deb javob berishgan.

Shu o'rinda **Sizda shaxsiy kompyuter (Noutbuk) mavjudmi?** deb nomlangan so'rovnomada jami 3960 nafardan ortiq kanal a'zolaridan faqat 630 nafari (16 foiz) ishtirok etgan. Ishtirokchilarning 26% foizi (166 nafar) **Noutbuk bor internetga ulanmagan**, 20% foizi (129 nafar) **Kompyuter bor internetga**

ulanmagan, 17% foizi (109 nafar) **Mavjud emas**, 17% foizi (104 nafar) **Noutbuk bor, internetga ulangan**, 7% foizi (46 nafar) **Kompyuter va Noutbuk bor internetga ulanmagan**, 6% foizi (40 nafar) **Kompyuter va Noutbuk bor internetga ulangan**, 6% foizi (36 nafar) **Kompyuter bor internetga ulangan** deb javob berishgan.

So'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning bergan javoblaridan ko'rinib turibdiki hozirgi kunda o'rtacha 82 foiz fan o'qituvchilari axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan to'liq foydalanish imkoniyatiga ega emaslar. Bu o'z navbatida pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirishdagi moddiy texnik to'siq hisoblanadi.

Onlayn ta'lim orqali biologiya fani o'qituvchilari malakasini oshirishdan ko'zlangan maqsad quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- fan o'qituvchilarning mustaqil va ijodiy ta'lim olishini ta'minlash;
- onlayn ustoz- shogird tizimini shakllantirish;
- fan bo'yicha kompetentlikni yanada oshirish;
- kompyuter savodxonligini oshirish;
- uzluksiz malaka oshirish imkoniyatini yaratish;
- o'qituvchilarning vaqti va xarajatlarini tejash.

Yuqoridagi maqsadlar asosida onlayn malaka oshirish tizimi orqali fanga oid yangiliklar bilan tezkor ta'minlash, onlayn muhitda do'stona munosabatlarni shakllantirish va fan o'qituvchilarini shaxsiy hamda kasbiy kompetentligini rivojlantirish kabi muhim vazifalarni omalga oshiriladi.

Onlayn malaka oshirish tizimini tashkil etishda quyidagi bosqichlar:

- ✓ elektron ta'lim resurslarini to'plash va yaratish;
- ✓ internet tarmog'ida sayt tashkil etish;
- ✓ ijtimoiy tarmoqlarda onlayn va offlayn malaka oshirish kursi kanali va guruhni yaratish;
- ✓ soha pedagoglari va metodistlarni jalb etish;
- ✓ tabaqlashtirilgan ta'lim muhitini yaratish;
- ✓ o'qituvchilar bilim, ko'nikma va malakalari nazoratini tashkil etish uchun materiallar yaratish;
- ✓ faoliyatga doir so'rovnomalar o'tkazish orqali onlayn ta'lim samaradorligini oshirib borish;
- ✓ faoliyatni rag'batlantiruvchi turli tanlovlarni tashkil etish.

Hozirgi kunda biologiya fani o'qituvchilari nafaqat o'quv va pedagogik jarayonlarni tashkil etish hamda boshqarishning innovatsion usullarini bilishi balki ularni yaratishi zarurligi ko'zga tashlanmoqda.

Yuqoridagi zaruriyatdan kelib chiqib, pedagogik kasbiy kompetentlikning quyidagi asosiy komponentlarini ko'rsatish mumkin:

- pedagogik mulohazalarni ifodalovchi reflektiv ko'nikmalar;
- pedagogik jarayonlarda subyektlarning bo'lajak xatti-harakatlarini va o'zaro munosabatlarini hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayoniga tayyorgarligini his etishni ifodalovchi oldindan ko'ra olish ko'nikmalari;
- pedagogik jarayonlarda vujudga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarda subyektlar faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish ko'nikmasi;
- pedagogik jarayonlarda vujudga kelgan turli vaziyatlarning qulay ta'limiy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishiga qarshi tura olish ko'nikmasi;
- pedagogik jarayonlarda qulay ta'limiy muhitni va subyektlarning reflektiv faoliyatini tashkil etish ko'nikmasi;
- kommunikativ kompetentlik hisoblangan, vaziyatlarga ko'ra subyektlar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga va ularning individual psixologik xususiyatlariga mos holda ta'sir ko'rsatish ko'nikmasi;
- muloqotga kirishish ko'nikmasi;
- subyektlar bilan axborot almashinish ko'nikmasi;
- o'zini-o'zi boshqarish va shaxsiy rivojlantirish ko'nikmasi;
- axborotlarni to'plash, ularni qayta ishlash va obyektiv baholash ko'nikmasi va h.k.¹²

Yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha ravishda bugungi zamon talablari asosida :

- ✓ ta'lim mazmunini o'zlashtirilishi asosida yangi va samarali innovatsion texnologiyalarni yaratish hamda joriy etish ko'nikmasi;
- ✓ zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalana olish ko'nikmasi;

¹² Турғунов С.Т., Данияров Б.Х., Отажонова Д.М. Ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини ривожлантиришда таълим муассасаси раҳбарларининг функционал вазифалари. – Тошкент: Сано-стандарт, 2011 .32-б.

- ✓ fanga oid elektron axborot vositalarini bilish va ulardan foydalana olish ko'nikmasi;
- ✓ elektron axborot vositalarini yarata olish va ulardan dars jarayonida samarali foydalanish ko'nikmalarini ham kiritish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, pedagoglar kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ta'lim muassasasining moddiy texnik bazasi hamda pedagoglarning axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirish ham onlayn ta'lim orqali o'qituvchilar malakasini uzluksiz oshirishning samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Chunonchi pedagoglar o'z kasbiy kompetentligidagi bo'shliqlarni to'ldirish va rivojlantirish jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishlari orqali ta'lim sifati hamda samaradorli ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Turg'unov S.T., Daniyarov B.X, Umaraliev M.A, Shodmonova Sh.S, Turg'unova Sh.M., Tojiboeva H.M. O'qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentligini rivojlantirish. – Toshkent: Sano-standart, 2012 y. 12-bet.

2. Niyozov Q.A., Uzluksiz malaka oshirish jarayonining pedagoglar kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi ahamiyati. “Malaka oshirish tizimi uzviyligini takomillashtirishda axborot xizmati: muammo va yechimlari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent VXTXQTMOI. 2016 y. 169-171 bet.

3. <https://t.me/nambiolog> telegram kanali.

UO'K 338.24.021.8

TA'LIM VA KADRLAR SALOHİYATI – RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILLARI SIFATIDA

*Xudayberdiyeva Ozoda Jurabayevna,
Namangan viloyati XTXQTMOHM o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi davrda raqamli iqtisodiyot, samarali texnologiyalar, raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun innovatsion g'oyalar shu bilan bir qatorda ta'lim tizimini chuqur bilimga ega kadrlar bilan ta'minlash masalalari haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, Blokcheyn texnologiyalari, ta'lim tizimi, axborotlashgan jamiyat, texnologiyalar, kommunikatsiyalar.

UDC 338.24.021.8

EDUCATION AND PERSONNEL COMPETENCE AS A KEY FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY

*Khudayberdieva Ozoda Jurabayevna,
Lecturer of Regional Center for Upgrading and In-Service Training of
Public Education Employees of Namangan, Republic of Uzbekistan*

Brief abstract. This article discusses the current issues of the digital economy, efficient technologies, innovative ideas for the further development of the digital economy, as well as the provision of the highly qualified specialists for the education system with in-depth knowledge.

Keywords: digital economy, Blockchain technologies, education system, information society, technologies, communications.

Hozirgi davrda raqamli iqtisodiyot va u bilan bog'liq bo'lgan bir qancha samarador texnologiyalar hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Huddi shuning uchun ham davlat va jamiyat taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida respublikamiz rahbariyati bir qancha muhim qarorlarni qabul qildi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2018-yil 28-dekabrda 2019-yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham mamlakatimizda raqamli iqtisodning rivojlanishi bo'yicha quyidagilarni aytib o'tdi: “Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida Yangilanishini ko'zda tutadigan “Raqamli iqtisodiyot milliy kontseptsiasi”ni ishlab chiqishimiz kerak.

Shu asosda “Raqamli O'zbekiston-2030” dasturini hayotga tadbiiq etishimiz zarur.

Raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga o'stirish, korruptsiyani keskin kamaytirish imkonini beradi. Nufuzli halqaro tashkilotlar o'tkazgan tahlillar ham buni tasdiqlamoqda. Shuning uchun Hukumatga ikki oy muddatda raqamli iqtisodiyotga o'tish bo'yicha “yo'l haritasi”ni ishlab chiqish topshiriladi. Bu borada axborot havfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish zarur”.

Undan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 -yil 19 -fevraldagi PF-5349 sonli "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonini ijro etish borasida shuningdek, respublikamizda raqamli iqtisodiyotni davlat boshqaruv tizimida zamonaviy axborot texnologiyalarni jadal rivojlantirish bo'yicha sharoitlar yaratish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 -yil 19 -fevraldagi PF-5349 sonli "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni havfsizligini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2018-yil 31-avgustda raqamli iqtisodiyotning maqsad va vazifalarini belgilab beradigan "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni joriy qilish va yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qaror qabul qildi, hamda O'zR Prezidentining PQ-3832 03.07.2018 dagi "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarini ham shu tadbirlar jumlasiga kiritish mumkin. Ushbu qaror bo'yicha quyidagilar raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish bo'yicha eng muhim vazifalar deb ko'rsatilgan:

- Investitsiya va tadbirkorlikni diversifikatsiya qilish uchun kriptoaktivlar aylanmasi sohasidagi faoliyatni, jumladan, smart kontrakt, konsalting, emissiya, ayriboshlash, saqlash, taqsimlash, boshqarish, sug'urtalash, kraud-funding (jamoaviy moliyalashtirish), shuningdek, blokcheyn texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirish.

- Blokcheyn texnologiyalarni ishlab chiqarish va ulardan foydalanish sohasida amaliy ish ko'nikmalariga ega bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlash.

- Raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish sohasida davlat organlari va tadbirkorlik subyektlarining yaqin hamkorligini ta'minlash.

- Kriptoaktivlar bo'yicha faoliyat va blokcheyn texnologiyalari sohasida halqaro va horijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni har tomonlama rivojlantirish va ishlab chiqarish sohasida faoliyat ko'rsatadigan yuqori malakali horijlik mutahassislarni jalb qilish.

- Horij tajribasini hisobga olgan holda blokcheyn texnologiyalarini joriy etish uchun huquqiy baza yaratish.

Qisqa va lo'nda qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot – bu jamiyat ne'matlarini ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlarida elektron hamda axborot-kommunikatsion texnologiyalarini keng joriy etishni ko'zda tutadigan insonning xo'jalik faoliyatini tadqiq etuvchi fandır. Raqamli iqtisodiyot atamasi ikki xil turli tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi.

Birinchiidan, raqamli iqtisodiyot – bu rivojlanishning zamonaviy bosqichi hisoblanib, u ijodiy mehnat va axborot ne'matlarining ustuvor o'rni bilan tavsiflanadi.

Ikkinchiidan, raqamli iqtisodiyot – bu o'ziga hos nazariya bo'lib, uning o'rganish obyekti, axborotlashgan jamiyat hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot nazariyasi o'z rivojlanishining boshlang'ich davridadir, chunki sivilizatsiyaning raqamli axborot bosqichiga o'tishi bir necha o'n yil avvalgina boshlangan.

"Raqamli iqtisodiyot" atamasi ilmiy amaliyotga ispaniyalik va Amerikalik sotsiolog, axborotlashgan jamiyatning yetakchi tadqiqotchisi **Manuel Kastels** tomonidan kiritilgan. Bu borada u o'zining "Axborot davri: iqtisod, jamiyat va madaniyat" nomli uch jildli monografiyasini chop etgan. Hozirgi vaqtga kelib, raqamli iqtisodiyot nazariyasi to'laligicha hali shakllanmagan va ko'pchilik iqtisodchilar tomonidan keng miqyosda o'rganilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda hozirgi zamon "Yangi raqamli iqtisodiyoti" turli xil atamalar bilan nomlanadi.

Raqamli iqtisodiyot haqida so'z borar ekan, axborotlashgan jamiyatga ta'rif berib o'tish o'rinlidir. Axborotlashgan jamiyat deb, unda faoliyat yuritayotgan kishilarning ko'p qismi axborotni, ayniqsa, uning eng oliy shakli bo'lgan bilimlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va sotish bilan band bo'lgan jamiyatga aytiladi. Jamiyat va iqtisodiyot rivojlanishining bu bosqichiga jamiyat hayotida axborot, bilim va axborot texnologiyalari ahamiyatining yanada oshishi xosdir.

Raqamli iqtisodiyotda inson faoliyatining asosiy sohalari samarali rivojlanishining muhim sharti unga mos keluvchi institutsional muhit shakllantirish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish Dasturida kadrlar va ta'lim tizimi raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun sharoitlar yaratiladigan asosiy institutlar qatoriga kiritilishi va unga alohida bo'lim bag'ishlanishi kerak. Dasturda kadrlar va ta'lim bilan bog'liq quyidagi asosiy yo'nalishlar belgilab berilishi lozim:

- raqamli iqtisodiyot kadrlari tayyorlash uchun asosiy sharoitlar yaratish;
- raqamli iqtisodiyotni chuqur bilimga ega kadrlar bilan ta'minlashi lozim bo'lgan ta'lim tizimini yanada takomillashtirish;

- raqamli iqtisodiyot uchun kerakli bo'lgan oliy malakali mutaxassislarni o'rta va oliy ta'lim muassasalarida tayyorlashni yo'lga qo'yish;
- raqamli iqtisodiyot uchun kerakli bo'lgan o'zbek tilidagi zamonaviy ilmiy va amaliy adabiyotlar yaratishni ko'zda tutish;
- raqamli iqtisodiyot talablariga tayanishi lozim bo'lgan mehnat bozorini tashkil qilish mexanizmlarini ishlab chiqish;
- zarur chuqur bilimga ega bo'lish dasturchilar va texnik xodimlarni tayyorlashni yo'lga qo'yish;
- kadrlarning O'zbekiston raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ishtirokini moliyalashtirish va motivatsiyalash tizimini yaratish.

Ta'lim tizimi mehnat bozorning hozirgi holatiga ham, uning raqamli texnologiyalar joriy qilinishi bilan bog'liq o'zgarishiga ham yo'naltirilishi lozim ekanligini hisobga olib, kadrlar bilan bog'liq muammolarni har bir kadrlar salohiyatining raqamli iqtisodiyotdagi o'rni ko'rib chiqishdan, shuningdek, mehnat bozorini tahlil qilishdan boshlaymiz.

Kadrlar salohiyati – raqamli iqtisodiyotning asosiy omili «O'zbekiston Respublikasi raqamli iqtisodiyoti Dasturi» (O'zRID), 2019-2022-yillarda O'zbekiston Respublikasida axborotlashgan jamiyatni rivojlantirish Strategiyasiga amal qilgan holda, raqamli iqtisodiyotning asosiy ishlab chiqarish omili raqamli shakldagi ma'lumotlar bo'lgan, fuqarolar va jamiyatning sifatli va ishonchli ma'lumotlar olishga ehtiyojlarini hisobga olgan holda axborot makoni shakllantirishga, O'zbekiston Respublikasi axborot infratuzilmasini rivojlantirishga, milliy axborot-telekommunikatsiya texnologiyalarini yaratish va qo'llashga, shuningdek, ijtimoiy va iqtisodiy sohalar uchun yangi texnologik asoslar shakllantirishga xizmat qiladigan raqamli xo'jalik yuritish faoliyatini ifodalashi lozim.

Shubhasizki, raqamli texnologiyalar kommunikatsiyalarga ketadigan vaqtni qisqartirish va barcha iqtisodiy jarayonlarni tezlatish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Mirziyoyev Sh.M. Мы все вместе построим демократическое и процветающее государство. Узбекистан. Т., «Узбекистан», 2016.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori «O strategii deystviy po dal'neyshemu razvitiyu RYz». 07.02.2017., № УП-4947.
3. G'ulomov S.S., Abdullayev A.M. Iqtisodiyotda zamonaviy axborot tizimlari va texnologiyalari. T.: Impress Media, 2018.

UO'K 004

O'QUVCHILARNING INFORMATIKA DARSLARIDA MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH SAMARADORLIGI

Olimov Abdurashid Farxodovich,

Namangan muhandislik qurilish instituti katta o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasi

E-mail: olimovfa977@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada talabalarning mustaqil ishi – dars samaradorligini oshirishning eng qulay va amaliy usullaridan biri bo'lib, u o'qituvchining rahbarligi va nazorati ostida amalga oshiriladigan, ammo uning ishtirokisiz amalga oshiriladigan ma'rifiy faoliyatdir. Ularning to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etishi hamda darslardan tashqari mashg'ulotlarda o'qituvchi va talabalarning maqsadli o'zaro ta'siri tufayli bu yanada yaxshilanadi.

Kalit so'zlar: AKT, mustaqil ish, loyiha, loyihaviy faoliyat, innovatsiya, yuqori texnologiyalar.

UDC 004

EFFICIENCY OF ORGANIZING INDEPENDENT WORK OF STUDENTS IN THE CLASSES OF COMPUTER SCIENCES

Olimov Abdurashid Farkhodovich,

Senior Lecturer of Namangan Institute of Civil Engineering, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. The independent work of students in the article is one of the most convenient and practical ways to increase the effectiveness of the lesson, it is an educational activity that is carried out under the guidance and supervision of the teacher, but without his participation. This is further enhanced by their direct participation and the purposeful interaction of teacher and students in extracurricular activities.

Keywords: ICT, independent work, project, project activity, innovation, high technologies.

O'quvchilarning mustaqil ishi – bu dars samaradorligini oshirishning eng qulay va amaliy usullaridan biri bo'lib, bu o'qituvchining rahbarligi va nazorati ostida, lekin uning bevosita ishtirokisiz amalga oshiriladigan bilim, ma'rifiy faoliyatdir.

O'quv dasturlarida darsdan tashqari ishlar ulushining ko'payishi talabalarning mustaqil ishlarini kompetentsiya va amaliy yo'nalish printsiplari asosida tashkil etish usullarini ishlab chiqish vazifasini dolzarblashtiradi.

Ko'pgina zamonaviy tadqiqotchilar tadqiqot va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish mustaqil ishning asosiy maqsadi sifatida belgilaydilar; kognitiv qobiliyat va faoliyatni rivojlantirish, mustaqil fikrlashni shakllantirish, o'z-o'zini rivojlantirish, o'zini takomillashtirish va o'zini o'zi tashkil etish qobiliyati; tadqiqotning xarakteriga ega bo'lgan oddiy ish turlaridan ancha qiyiniga o'tish; mustaqil ish jarayonida fanning pozitsiyasini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarning shaxsiy kasbiy rivojlanishi. Mustaqil faoliyatning asosiy belgisi talabaning o'qituvchining yordamisiz ishlashi bilan emas, balki o'quvchining har bir harakati uni tan olishi va o'zi oldiga qo'ygan maqsadga erishishi bilan belgilanadi.

O'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishning asosiy vazifasi nazariy ishlarni tizimlashtirish va mustahkamlashdir, bilim va amaliy ko'nikmalar, olingan bilimlarni kasbiy muammolarni hal qilishda qo'llash qobiliyatini shakllantirish, o'z-o'zini tarbiyalash va o'zini rivojlantirish sohasidagi vakolatlarni shakllantirish hamda O'quvchilarning mustaqil ishlarini boshqarish o'qituvchidan uni tashkil etish shakllari va usullarini tanlashni, metodik tavsiyalarni ishlab chiqishni, nazorat va nazorat tizimini o'ylab topishni, mezonlarni ishlab chiqishni va natijalarni baholash vositalarini ishlab chiqishni talab qiladi. Mustaqil ishlarni pedagogik qo'llab-quvvatlash birinchi navbatda o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojining paydo bo'lishi va rivojlanishi, ta'lim va kasbiy muammolarni hal qilishda faollik va mustaqillik istagi paydo bo'lishidan iborat.

Shaxsiy kompyuterlardan tobora keng foydalanishda o'quvchilarning mustaqil ishi o'quv jarayonida alohida ahamiyatga ega.

Internet ta'lim vositasi sifatida. Bu taqdim etilayotgan ta'lim xizmatlarining xilma-xilligi bilan bog'liq; ta'limni boshqa faoliyat bilan birlashtirish imkoniyati; individual ravishda o'qish sur'ati va yo'nalishini tanlash imkoniyati; qulay axborot va o'quv-ilmiy ta'lim muhitini yaratish; axborot texnologiyalaridan foydalangan holda elektron ta'lim resurslarini shakllantirish.

"Informatika" fanidan mustaqil ishni tashkil etish barcha turdagi darslarda mumkin: bilimlarni shakllantirish darsi, bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish darsi, bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish bo'yicha dars, bilimlarni, qobiliyatlarni, ko'nikmalarni nazorat qilish darsi (darslarning klassik tipologiyasiga ko'ra) va darsdan tashqari mashg'ulotlar.

Mustaqil ishlarni tashkil qilishda o'quv mashg'ulotlarining yagona tushunchasi va mantiqlari bilan birlashtirilgan o'quv vazifalarining izchil tizimini yaratishga alohida e'tibor beriladi. Ularning ajralib turadigan xususiyati qiziqarli tarkib, sodda va samarali yechim, qo'llaniladigan texnologik va algoritmik texnikaning keng doirasi, boshqa sohalaridagi bilimlarga minimal talablar va yechimni hayotiy taqqoslash bilan tasvirlash qobiliyatidir.

Yangi bilimlarni shakllantirish darsida elektron darsliklar, multimedia taqdimotlari va o'quv dasturlari bilan ishlashda mustaqil ishlar tashkil etiladi. Bu ishda eng samaralisi bu differentsial yondashuvdan foydalangan holda qidiruv faoliyatini tashkil etishdir. Bu har bir talabaning mustaqil ravishda bilim olish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi; mustaqillik, tashkilotchilik, maqsadlarga erishishdagi qat'iyatlilik, mas'uliyatni rivojlantirish. Har bir o'quvchining tayyorgarligi va qobiliyatiga mos individual xususiyatlarini hisobga olgan holda talabaga kerakli darajada yordam ko'rsatishga imkon beradi. Mustaqil ish jarayonida talabalar o'z-o'zini hurmat qilish qobiliyatini rivojlantiradilar, tanqidiylikni, aks ettirishni oshiradilar.

Sinf mustaqil ishini tashkil etishning eng ko'p ishlatiladigan shakllari individual, guruh va frontaldir. Ulardan foydalanish samaradorligi ushbu shakllarning kombinatsiyasi bilan ortadi. O'quvchining mustaqil ishlarini tashkil qilishning asosiy texnologiyalaridan biri bu

AKT faoliyati. Darsda, kelajakdagi loyihaning mavzusini aniqlaganidan so'ng, talabalar maqsad, vazifalarni shakllantirishadi, materialni mustaqil ravishda tanlab olishadi va tegishli kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda chizishadi. O'qituvchi maslahatchi va yordamchi sifatida ishlaydi. O'quvchining olingan hisob-kitoblar uchun rasmiy materiallarni yaratish texnologiyasini mustaqil ravishda o'zlashtiradilar, eng mos keladigan grafik va diagrammalarni aniqlaydilar.

Loyihaviy faoliyatni tashkil qilishning umumiy g'oyasi nazariy informatika va axborot texnologiyalarini bilish talab etiladigan qiziqarli professional vazifaga echim topishdir. Loyihalarni amalga oshirish va dizayni o'quvchidan turli xil dasturlar bilan ishlash qobiliyatini talab qiladi, Loyihaning metodologiyasi- bu kompyuter savodxonligi, o'quvchilarning ichki motivatsiyasi, ularning mustaqillik, bag'rikenglik, shuningdek, umuman intellektual rivojlanish darajasini sezilarli darajada oshirgan samarali texnologiya.

Sinfdan tashqari mustaqil ish – sinfdagi mustaqil ishlarga qo‘shimcha. Uning maxsus funktsiyalari – mustaqil ravishda o‘rganish, vazifa va ish vositalarini aniqlash, faoliyatingizni rejalashtirish qobiliyatidir. U o‘quvchining fikrlash, irodasi va xarakterini rivojlantiradi. Uning asosiy maqsadi darsda olingan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash, ko‘nikmalarni rivojlantirish, yangi materialni o‘rganish.

Informatika darsida talabalarning mustaqil ishlaridan optimal foydalanish bilim va ko‘nikmalarni muvaffaqiyatli shakllantirishga va bo‘lajak mutaxassisni tarbiyalashga yordam beradi. Mustaqil ishlarining har xil turlaridan foydalanish o‘qituvchiga o‘quvchining bilim darajasini oshirishga, kognitiv faollikni oshirishga, yangi materialni o‘rganishda ham o‘quvchilar bilan ishlashni diversifikatsiyalashga va o‘rganilgan narsalarni mustahkamlashga yordam beradi.

Mustaqil ish zamonaviy ta‘lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, uning ahamiyati so‘nggi paytlarda tobora ortib borayotir.

O‘qituvchilar oldida o‘uvchlarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini egallashlari uchun sharoit yaratish vazifasi turibdi.

O‘qituvchilarning pedagogik faoliyati o‘quvchining mustaqil ishlarini tashkil etish shakllari va usullarini uni amalga oshirish sifati va mavjud o‘quv materiallarini monitoring qilish tizimi asosida optimallashtirishni ta‘minlashi kerak.

"Informatika" o‘quv fanidan o‘quv jarayonida mustaqil ishlarni tashkil etish bo‘yicha olingan natijalar, amaliy ishlarni bajarish uchun uslubiy tavsiyalar, har xil sinfdan tashqari mustaqil ishlarni bajarish bo‘yicha talabalar uchun ko‘rsatmalar, elektron prezentatsiyalar, matnli va ko‘rgazmali ma‘ruza materiallari. ammo fanning barcha bo‘limlarida tasviriy materiallar. Talabalarning mustaqil ishlarini nazorat qilish shakllari sifatida yozma va og‘zaki so‘rovlar, hisoblash va grafik ishlari, kompyuter testlari qo‘llaniladi.

"Informatika" fani uchun ishlab chiqilgan o‘quv materiallaridan foydalanish o‘quvchilarning darsdan tashqari mustaqil ishlarining samaradorligini, shu jumladan ularning mustaqil ravishda bilim olishga va umumiy va kasbiy vakolatlarni shakllantirishga tayyorligini oshirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Волков Ю. Книга самостоятельной работы. ISBN 978-5-406-05385-0. 2016 год.
2. Батыршина А.Р. Технология организации самостоятельной работы. Информатика и образование.- 2007.- N 6.- С. 30-33.
3. Вайсеров, З.В. Организация самостоятельной работы. Высшее образование в России – 2008.- № 9. – С. 82-84.

УДК 373.3:004.9

ДИСТАНЦИОННЫЕ УРОКИ ВО ВРЕМЯ ПАНДЕМИИ: МНЕНИЯ УЧЕНИКОВ, ПЕДАГОГОВ И РОДИТЕЛЕЙ

Туйчиева Рохила Маматовна,

Средняя общеобразовательная школа № 54 г. Намангана, Республика Узбекистан

E-mail: tuychieva72@bk.ru

Аннотация. Данная статья посвящена изучению вопроса перспективности дистанционного обучения в начальной школе. В статье ставится задача выяснить, актуально ли дистанционное обучение для детей младшего школьного возраста, решение проблем тех ребят, которые по разным причинам не могут посещать обычные школы; недостатки и достоинства дистанционного метода обучения в начальной школе и выводы о перспективности данного направления.

Ключевые слова: интернет, телеграмм, телевидение, домашнее задание, гаджеты, дистанционное обучение.

UDC 373.3:004.9

DISTANCE LESSONS DURING A PANDEMIC: OPINIONS OF STUDENTS, TEACHERS AND PARENTS

Tuychieva Rohila Mamatovna,

Secondary school No.54, Namangan city, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. This article is devoted to the study of the prospects of distance learning in primary school. The task of the article is to find out whether distance learning is relevant for primary school children, solving the problems of those children who, for various reasons, cannot attend regular schools; the disadvantages and advantages of the distance learning method in elementary school and conclusions about the prospects of this area.

Keywords: Internet, telegram, television, homework, gadgets, distance learning.

В марте этого года Узбекистане в связи со сложной эпидемиологической обстановкой школьники и студенты отправлены на каникулы и дистанционное обучение. Как проходит этот процесс, какие есть нюансы и сложности. В этой статье мы об этом и о другом расскажем.



COVID-19 ОТВЕТНЫЕ ДЕЙСТВИЯ

Настоящие герои, которые, невзирая на все тяготы с детьми, стойко сражаются не только с дистанционной работой, но и с обучением. Днём они работают, а вечером – проверяют домашние задания ребёнка. Крики, слёзы, мокрые тетради и помятые учебники. Примерно так представляют себе типичный день родители на самоизоляции, взрослые и школьники. Если серьезно, то мамы и папы тоже переживают сильный стресс во время карантина. Однако

есть и исключения.

После того, как в Ташкенте был выявлен случай первого заболевшего коронавирусом, школы и вузы Узбекистана перешли в режим дистанционного обучения. Вот уже 2 месяца все мы работаем на удалёнке.

Новизна с издержками. Дистанционное обучение вначале была воспринята школьниками и их родителями даже очень хорошо.

Это было как что-то новое. Но также нужно отметить, что многие из родителей были в шоке. Что делать, как быть, они не знали. На первой неделе ребята делали задания, которые мы, педагоги, скидывали в группу родителей в Telegram. Ученики выполняли задания и отправляли фотоотчеты, а мы их проверяли.

Но к началу второй недели многие родители начали просить учителя о проведении онлайн уроков. Но в последние дни некоторые ученики, кто интенсивно работал поначалу, снизили темп. Впрочем, были и те, кто весь этот период толком не работал. Это объясняется тем, что родители школьников немного подустали от нагрузки, потому что каждый урок теперь объясняет родитель, а не учитель.

Тройная нагрузка. Учителя не отрицают, что дистанционная работа не такая уж и легкая, как кажется на первый взгляд. Плюсы в том, что для педагогов это стало как бы освоением новых электронных возможностей, они научились увереннее пользоваться гаджетами, узнали что-то новое, но также ощутили тройную нагрузку. Например, при проверке домашних заданий.

Теперь нужно каждую работу копировать, проверять, потом заново отправлять. То есть проверка домашней работы каждого ученика превратилась в тройную работу. Глаза слезится начали.

Еще одна трудность – ограниченные возможности контроля за учениками, если нет возможности провести онлайн урок. К примеру, если раньше, учитель с приходом в класс, объявляя результаты домашней работы, фронтально опрашивал присутствующих и время экономилось, то на дистанционной учебе приходится с каждым ребенком работать индивидуально.

С подачей материала по признанию педагога очень помогало телевидение и транслировало программу для первых и вторых классов.

Также на сайте Министерства народного образования был обнаружен список онлайн-ресурсов, где можно найти готовые уроки учителей, заслуженных педагогов республики со всех регионов.

Как мотивировать родителей и учеников. Учителя уверены, что главное в этом процессе – заинтересовать самих школьников и их родителей.

Многое зависит от мировоззрения родителей ребенка, от их отношения к его образованию в целом. У нас есть такие родители, которые вообще махнули рукой на воспитание своего чада, они на связь вообще не выходят. Вы представляете, две недели их сын или дочь не учится, домашнее задание не выполняет, уроки не делает, а учитель не может с ним связаться. Таких учеников у нас много. В классе 30 с лишним человек, а работают всего 10 родителей.

Но все понимают, главное в такой ситуации — здоровье, а временные меры можно переждать.

Нагрузка возросла и у родителей – они в панике, много путаются, ведь теперь им приходится по всем предметам объяснять ребенку. В такой ситуации позитивная мотивация школьника – это половина успеха.

Важно заинтересовать ребенка, чтобы учебный процесс не стал для него поводом для протеста и внутреннего сопротивления.

В то же время в условиях онлайн-обучения нет смысла перегружать ребенка. Тем более, в городских условиях. Школьник и так находится в четырех стенах, ему сейчас нельзя выходить на

улицу, и это тоже наносит свой отпечаток. Эффект от дистанционного обучения, безусловно, есть, хотя с полноценным учебным процессом не сравнить.

Нельзя сказать, что это совсем бесполезно. Человечество общается посредством гаджетов, дети получают знания — это уже благо. К тому же, люди научились использовать свои гаджеты правильно, фильтровать информацию.

Дистанционное обучение во время карантина дает хорошую возможность не останавливаться в своем интеллектуальном, духовном развитии, даже постоянно оставаясь дома.

Дистанционка не для всех. К сожалению, пока не все родители могут позволить удаленное обучение для своих детей.

Пока это проблематично, потому что этими ресурсами пока могут воспользоваться только те ученики, родители которых обеспечены ноутбуками или домашним интернетом.

Единственный выход педагог видит в человеческом отношении. Например, попросить обеспеченных родителей на время онлайн-урока дать возможность соседскому ребенку поучаствовать в процессе.

Основываясь на всем вышесказанном, можно сделать выводы о перспективности дистанционного обучения в начальной школе. С каждым годом интерактивных методов коммуникации появляется все больше и, следовательно, будет наблюдаться и прогресс данного способа. Большое количество исследований и практик также должно привести к тому, что недостатки дистанционного обучения в начальной школе будут минимальными, зато его положительные стороны послужат решением множества актуальных сегодня проблем.

С одной стороны, дистанционное обучение требует специфических навыков: ставить цель, планировать свою работу, выделять главное, отслеживать результаты, оценивать результаты. Этими навыками дети еще не владеют. Поэтому в процессе обучения необходима постоянная помощь наставника, который обучал бы базовым способам учебной работы и сопровождал индивидуальный образовательный маршрут. Это не обязательно учитель. В этой роли могут выступать и родители, которые заинтересованы в успехах ребенка.

Следующей трудностью является то, что это процесс трудоемкий для учителя. Он требует больших затрат времени, более тщательной подготовки, личную заинтересованность.

Использование сетевых дистанционных образовательных технологий (ДОТ) в учебном процессе начальной школы позволяет сделать процесс обучения более продуктивным. Во время урока учителю затруднительно полностью изложить материал по теме, главная причина – нехватка времени. Но благодаря применению ДОТ, младшие школьники могут дополнить и проверить свои знания по теме предмета: отправить выполненное домашнее задание на проверку, пройти обучающее тестирование, обсудить на форуме интересующие темы, принять участие в различных сетевых инициативах (проекты, конкурсы, игры и т.д.).

Таким образом, младшие школьники всегда включены в образовательный процесс, даже если пропустили урок.

Сетевая поддержка выполнения домашних заданий является эффективной формой работы с целью ликвидации пробелов в навыках и умениях младших школьников или углублении их знаний по изучаемым учебным темам. Поддержка домашней работы, построенная на использовании ДОТ.

В основе построения стандарта, в целом, лежит системно-деятельностный подход, который предполагает разнообразие индивидуальных образовательных траекторий и ценностей индивидуального развития каждого обучающегося, обеспечивающих рост творческого потенциала, познавательных мотивов, обогащения форм учебного сотрудничества и расширение зоны ближайшего развития. И я считаю, что дистанционные формы обучения в скором времени станут просто необходимостью.

К сожалению, говоря о дистанционном обучении в начальной школе, нельзя не сказать о недостатках этого метода. Основной из них заключается в том, что такой способ получения знаний подходит далеко не всем детям. Он требует определенной ответственности и само-мотивации, а их недостаток наблюдается у большинства школьников 1-4 класса. К счастью, эта проблема решается жестким контролем со стороны родителей. Еще один минус – необходимость качественных интерактивных средств коммуникации (компьютеров, скоростного интернета и т.п.). К сожалению, доступны они далеко не всегда и не всем. Третьим же недостатком можно считать нестандартность данного подхода, что может вызвать определенные сложности у детей младшего школьного возраста [Е.А.Федорова].

Таким образом, подводя итоги, можно сказать, что эффективность онлайн-образования имеет две стороны и не может расцениваться однозначно. Электронное обучение находится в процессе

стремительного развития и обладает массой преимуществ. Недостатков также хватает, хотя их можно найти и в традиционных методах. Современный уклад жизни требует специалистов готовых учиться постоянно. Поэтому дистанционные формы не потеряют привлекательности. Дистанционное обучение неизбежно заставит вас сражаться с самым суровым противником — собственной ленью.

Список литературы/References

1. Ершова Н.Ю., Назаров А.И. Реализация основных принципов организации учебной деятельности в системе сетевого обучения // Дистанционное и виртуальное обучение.- № 10, 2013.
2. Абдуллаев С.Г. Оценка эффективности системы дистанционного обучения // Дистанционное и виртуальное обучение.- № 1, 2007.
3. Никитин А.Б., Синегал В.С., Сороцкий В.А., Цикин И.А. Интерактивные информационные технологии на основе Web-серверов и систем компьютерной видеоконференцсвязи. \ДО.-№1, 1998.
4. Тихомиров В.П. ДО: история, экономика, тенденции. //Дистанционное обучение.-№2, 1997.
5. Домрачев В.Г. Дистанционное обучение: возможности и перспективы // Высш. образ. в России, -№ 3, 1994.

УДК 378.147

О ДИСТАНЦИОННОМ ОБРАЗОВАНИИ

*Атаева Гульсина Исраиловна,
старший преподаватель, Бухарский государственный университет
Акабилова Лола Хусейновна,
Камалова Фируза Рахматовна,
ассистенты Бухарского инженерно-технологического института,
г.Бухара, Республика Узбекистан. E-mail: ellas_10@mail.ru*

Аннотация. В статье рассматривается дистанционное образование в сочетании с традиционными формами обучения. Повышение учебного процесса открывают перед обучающимся широкие возможности по использованию разнообразных источников информации.

Ключевые слова: учебный процесс, технология, электронная версия, студент.

UDC 378.147

ABOUT DISTANCE EDUCATION

*Ataeva Gulsina Israilovna,
Senior lecturer of Bukhara State University
Akabirova Lola Huseynovna,
Kamalova Firuza Rakhmatovna,
Lecturers of Bukhara Engineering and Technology Institute, Bukhara, Uzbekistan*

Brief abstract. The article considers distance education in combination with traditional forms of education. Improvement of the educational process opens up opportunities for students to use a variety of sources of information.

Key words: educational process, technology, electronic version, student, education.

Hozirgi kunda PISA xalqaro baholash dasturida qariyb 80 dan ortiq davlatlar ishtirok etmoqda. Tadqiqotning har uch yilda bir marotaba o'tkazilishi esa davlatlarga o'z ta'lim tizimida kelajakda erishish ko'zda tutilgan asosiy maqsadlarni aniqlab olishga imkon yaratadi.

PISA o'quvchilarning o'qish (matnini tushunish), matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholash bilan bir qatorda ularning ta'lim olishga qiziqishlari, o'zlari haqida ma'lumot va ularning ta'lim strategiyasi haqidagi fikrlarini so'raydi.

Insoniyat oziq-ovqat ta'minoti, kasalliklarning tarqalishi, energiya ishlab chiqarish va iqlim o'zgarishi kabi yirik muammolarga duch kelgan bir davrda tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik milliy hamda xalqaro darajada katta ahamiyat kasb etmoqda. Bunday muammolarni bartaraf etishda texnologiyalar va ilmfan yutuqlaridan foydalanish katta ahamiyatga ega. Yevropa Komissiyasi tomonidan bildirilgan fikrga ko'ra, agar yoshlar tabiiy fanlardan ma'lum darajada xabardor bo'lishmasa, yechimi fan va texnologiyalar bilan bog'liq bo'lgan siyosiy hamda etnik muammolar ilmiy munozaralar mavzusi bo'la olmaydi. Bundan tashqari, bu barchani tabiiy fanlardan mutaxassis qilib tayyorlash degani emas, balki yoshlar o'zlarini o'rab turgan atrof-muhitga daxldor bo'lgan masalalar yuzasidan qaror qabul qilishlari hamda mutaxassislar o'rtasida olib boriladigan ilmiy munozaralarni tushunishlariga imkon beradi. Tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik deganda shaxsning tabiiy fanlarga oid g'oyalarni bilishi, faol fuqaro sifatida tabiiy fanlar bilan bog'liq muammolarni hal qila olishi tushuniladi [3, b. 12].

Tabiiy fanlar bo'yicha savodxon bo'lgan shaxs tabiiy fanlar va texnologiyalarga oid muammolarni ilmiy dalillarga asoslangan holda muhokama qilishda ishtirok eta oladi.

Tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik kompetensiyalari quyidagilar hisoblanadi:

- ✓ hodisalarni ilmiy jihatdan tushintirish;
- ✓ ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash;
- ✓ ma'lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish;

Yuqorida keltirilgan 3 ta kompetensiyani o'quvchilarimizda shakillantiradigan bo'lsak, hayotiy vaziyatlarda yechimi tabiiy fanlarga oid muammolarni hal qilishda farzandlarimiz mustaqil qarorlar qabul qila oladi. Shuningdek PISA da tabiiy fanlarga asoslangan topshiriqlarni bajarib, yaxshi natijalarni ko'rsatishadi. Chunki har bir PISA savoli biror ko'nikmani baholashga qaratilgan bo'ladi.

Ma'lumki, kompetensiya tayyor xolatda berilmaydi, balki o'quvchining o'zida mustaqil tarzda shakillanadi. Uni shakillanishi uchun esa biz pedagoglar o'quvchilarga to'g'ri yo'nalishli ta'lim bera olishimiz lozim.

Tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik kompetensiyalarini biologiya fanlari misolida uning ta'rifini va shakillantirish yo'llarini ko'rib chiqaylik.

Hodisalarni ilmiy jihatdan tushintirish-bunda o'quvchi egallagan bilimlari asosida tabiiy hodisa-jarayonlarni izohlay oladi. Masalan: "Odam nima uchun esnaydi?", "Nima sababdan inson tez va qisqa masofaga yugirganda muskullar achishib o'griydi?" kabi savollarga o'quvchi biologiya fanlaridan egallagan bilimlarini yodga olib, ulardan foydalanib javob berishga, jarayonni izohlashga harakat qiladi. Pedagog-o'qituvchilarimiz bu savollar javobini osongina o'quvchilarga aytishlari mumkin, lekin bu xolatda shakillangan kompetensiya o'quvchining emas o'qituvchining bo'ladi. Qachonki o'quvchilar jarayonni o'zlarida mustaqil tabiiy yo'nalishdagi fanlardan tegishli bilimlarni yodga olib, ulardan foydalansa, izohlovchi modellar va tasvirlarni anglasa va ulardan foydalansa, tegishli bashorat (prognoz) lar qilib va asoslansa, izohlovchi farazlarni taklif etisa, ilmiy bilishning jamiyat uchun amaliy ahamiyatini tushuntirish qobiliyatini namoyon etsa birinchi kompetensiya ko'nikmasi shakillangan bo'ladi.

Shuningdek, o'tilayotgan dars mashg'ulotlariga ham biroz noan'anaviy tarzda yondoshsak, mavzuni qiziqarli hayotiy savollar bilan bayon qilsak, kutilayotgan natija o'z samarasini beradi. Misol uchun 6-sinf biologiyaning botanika qismida "Urug', uning tuzilishi, nafas olishi" mavzulari bor. Aynan shu mavzularni o'tish chog'ida o'quvchilarga "Nima uchun qadimdan bobolarimiz, momolarimiz o'simlik mahsuloti bo'lgan urug'larini saqlashda qog'oz yoki matoli xaltalarda saqlashgan" degan savolni berib, javobini esa darsni o'zlashtirish moboynda o'ylab ko'rishlari, mustaqil fikrlarini bildirishlari so'ralsa va bu jarayon har bir dars mashg'ulotlarida takrorlab turilsa "*Hodisalarni ilmiy jihatdan tushintirish*" kompetensiyasini shakillantirib boramiz.

Ilmiy tadqiqotlarni loyihalash va baholash kompetensiyasi haqida gapirilganda "Qanday qilib maktab o'quvchisi ilmiy tadqiqotlarni loyihalashi va baholashi mumkin?" degan savol tug'iladi (keling ushbu savol javobini laboratoriya mashg'ulotlari misolida keltiraylik, chunki kelgusida tabiiy fanlar dars soatlarining 50% laboratoriya mashg'uloti tariqasida o'tilishi rejalashtirilmoqda). Bugungi kunda biz o'quvchilarning qo'llariga tayyor ishning borish jarayoni mavjud laboratoriya mashg'ulotlarini berib, ularni ma'lum qolipdan chiqmagan xolatda ishlashga o'rgatmoqdamiz. Bu vaziyatda o'quvchi tayyor ish bilan cheklanib, o'zi mustaqil loyihalash ishlarini amalga oshirmaydi. Bunda o'quvchilar laboratoriya mashg'ulotlarida o'zlarining olib borayotgan kichik ilmiy tadqiqotlarini tashkil etish jarayoni ketma-ketligini, ishning borishi loyihasini tuzib chiqishlari orqali loyihalash ishlarini amalga oshiradilar. Shuningdek, o'quvchilarimiz laboratoriya sharoitida tadqiqot ishlarini amalga oshirishda olimlarimiz tomonidan qo'llanilgan, taklif etilgan usullarni baholay olish qobiliyatini namoyon etishadi, ikkinchi kompetensiya shakillangan bo'lsa.

Ma'lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish kompetensiyasi. Agar o'quvchi 3-ko'nikmaga ega bo'lsa noodatiy turli ko'rinishdagi deylik: diagramma, grafik, jadval, rasmlar xolatdagi savol va topshiriqlarga javob bera oladi. Bunda o'quvchilar quyidagi qobiliyatlarni nomoyish etadilar: ma'lumotlarni tahlil va talqin qilish hamda tegishli xulosalar chiqarish; ilmiy dalil va nazariyalarga asoslangan mulohazalarni ilmiy bo'lmagan boshqa qarashlardan farqlay olish; ma'lum bir ko'rinishdagi ma'lumotlarni boshqa ko'rinishda ifodalash; ilmiy adabiyotlardan olingan matnlardagi faraz, dalil va xulosalarni aniqlash; turli manbalar (masalan, gazeta, jurnal, Internet) dan olingan ilmiy mulohaza va dalillarni baholash [3, b. 13-15].

Tabiiy fanlar bo'yicha uchinchi-ma'lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish kompetensiyasi o'quvchilarda shakillantiriladigan bo'lsa, ular hayotiy vaziyatlarda deylik savdo rastalaridan biror tovar harid qilishganda, jadval, grafik yoki diagramma ko'rinishida shu mahsulotga oid ma'lumotlarni talqin qila oladilar.

Afsuski, biz yuqorida sanab o'tgan uch kompetensiyadan faqat birinchisiga ko'proq urg'u berib dars jarayonini olib boramiz.

Agar biz yoshlarimiz hayotiy, muammoli vaziyatlarda o'zlari mustaqil hodisa va jarayonlarni tahlil va talqin qilishlarini, xalqaro baholash dasturida ishtirok etib yaxshi natijaga ega bo'lishni istasak har uchala kompetensiyaga urg'u bergan holda ta'lim jarayonini tashkil etishimiz lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5712-sonli Farmoni.
2. A.A. Ismailov, G.Tog'ayeva, S.Akbarova, D.Asqarova. "Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini baholash" metodik qo'llanma. T.: "Sharq", 2019-yil, 5-10 betlar.
3. А.Б.Раджиев, А.А.Исмаилов, Ж.П.Нарзиев, Х.П.Ахмедов, Г.О.Тоғаева. Ўқувчилар саводхонлигини баҳолаш бўйича халқаро тадқиқотлар дастури, қўлланма, Тошкент, 2019 йил.
4. www.tdi.uz – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi veb-sayti.
5. www.markaz.tdi.uz – Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi veb-sayti.

UO'K 373.1

O'QUVCHILARNING MATNNI O'QISH VA TUSHUNISH DARAJALARI SIFATINI BAHOLAB BERUVCHI PIRLS XALQARO TADQIQOTIDA BELGILANGAN MATN ME'ZONLARI

Rabbonayeva Dildora Tolipovna

Samarqand viloyati XTXQTMOHM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasida katta o'qituvchisi, Xalq ta'limi a'lochisi, O'zbekiston
Email: drabbanayeva@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi PIRLS xalqaro tadqiqotida qanday matnlar tanlab olinishi, matnlar uchun belgilangan mezonlar va matn xaritasi haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: PIRLS, o'quvchi, xalqaro, matn, xarita, baholash, ta'lim.

UDC 371.3

THE CRITERIAS ASSIGNED IN INTERNATIONAL RESEARCH PIRLS FOR ASSESSING PUPILS' READING SKILLS LEVEL

Rabbonayeva Dildora Tolipovna

Excellence in Public Education, Senior Lecturer of Department of Preschool, Primary and Special Education Methodology, Samarkand RCURPEE, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. This article talks about the international research PIRLS, which assesses the quality of reading and the level of understanding of primary school students, which texts will be selected, the assigned criteria and text cards.

Keywords: PIRLS, pupil, international, text, map, assessment, education.

Mushohada yuritmay turib, qancha ko'p o'qisangiz, shuncha ko'p bilayotganga o'xshayverasiz, agar o'qiyotganda qanchalik ko'p mushohada yuritsangiz, shu qadar oz narsa bilishingizni aniqlash his etasiz.

Volter

O'quvchilarning PISA, TIMSS, PIRLS, rahbar va pedagog kadrlarning TALIS kabi xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash, o'qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda ona tili, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha ta'lim sohasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda [2.4].

Men ushbu maqolamda PIRLS tadqiqoti va bu tadqiqotda qanday matnlar tanlab olinadi, matnlarga qanday me'zonlar belgilangan va ular qanday tahlil qilinadi shu masalalarga kengroq to'xtalmoqchiman.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study – Xalqaro o'qish savodxonligini o'rganishdagi yuksalish) – bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchilarning matnni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro dasturdir [2.6].

Badiiy asar matni ustida ishlashda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga kattalarning yordami zarur. Ta'lim va tarbiya jarayonida ustoz va murabbiylar o'quvchiga asarning badiiy-estetik ma'nolarini tushuntira olishlari juda muhimdir. O'qilgan asardan ma'naviy ozuqa ololgan o'quvchigina hayotning pastu-balandini anglab yetadi va kelajak hayotida bu bilim va tajribalari asqotadi.

O'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini tarkib toptirish, badiiy asar mazmuni bilan tanishish va uni tushuna olish bo'yicha PIRLS xalqaro dasturi ishlab chiqilgan. PIRLS tadqiqotining maqsadi matnlar bilan to'liq ishlash uchun zarur bo'lgan o'qish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Bu o'quvchi tomonidan kerakli ma'lumotlarni topish va tarqatish, matnning ma'lum qismi bo'yicha xulosalar chiqarish, asosiy belgilarning harakatlarini sharhlash, matn namunalari, muallif tomonidan ochib berilmagan ma'lumotlar va matn tuzilishini dastlabki tahlil qilish bilan tasdiqlash kabilardir.

PIRLS tadqiqotida ishlatiladigan matnlar uchun quyidagi mezonlar belgilangan:

1. Matn. Hajmi 1000 ta so'z gacha, o'qish savodxonligi darajasi past bo'lgan mamlakatlar uchun 400-500 ta so'z bo'lishi lozim.
2. Mavzu. Adabiy matnlar asosiy mavzuga ega bo'lib, u berilgan matndan tashqari o'quvchi tomonidan umumlashtiriladi. Axborotdan iborat bo'lgan matnlar o'quv materiallaridan olinmagan mavzuni yoritib berish kerak.
3. Til. Matnlar 40 dan ortiq tillarga tarjima qilinadi, shuning uchun tarjima qulay bo'lishi muhimdir. Metafora (taqqoslash) yoki epitet (sifatlash) kabi aniq ifodali tasvirlash so'zlari tanlanadi. Hech qanday so'zlashuvga oid leksika yoki sleng (jargon) ishlatilmaydi. Haddan ziyod ortiqcha texnik ifodalar olib tashlanadi.
4. Mazmuni. Matnning mazmuni 9-10 yoshdagi o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi kerak. Ayrim madaniyatlarga juda xos bo'lgan mavzulardan chetlanmoq kerak. Matn shu yoshdagi maktab o'quvchilari uchun qiziqarli va zavqli bo'lishi kerak. Yaxshi yozilgan va unchalik tanish bo'lmagan bo'lishi lozim.
5. Bog'liqlik va ketma-ketlik. Syujetning mantiqiy tuzilishiga rioya qilish muhimdir. Agar dialog ustunlik qilsa ma'lumotni birlashtirib, murakkab gaplarni qo'shish kerak. Axborotli matnda matnning strukturasi va ma'lumotning mantiqiy ketma-ketligini sarlavhalar, jadvallar, grafiklar kabi vizual elementlar bilan bog'liqligini kuzatish shartdir [1.3].

Matn xaritasi nima?

PIRLS tadqiqotida matn xaritasi mavjud bo'lib, u matnning dolzarbligini aniqlashga yordam beradi, masalan: u matnning yetarlicha mazmunli va tushunarligini aniqlaydi. Matndagi muhim g'oyalarni va ularning o'zaro munosabatlarini ko'rsatadi. Asosiy g'oyalar, ularning munosabatlarini va matnni yaratish bo'yicha vazifalarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratadi.

PIRLS tadqiqotida matn xaritasi quyidagi turlardan iborat:

Adabiy xarita – badiiy asarlarning strukturasi belgilaydi.

Janr – masalan: ertak, realistik adabiyot, fantastika va x.k.;

Mavzular, syujet, vaziyat, qahramonlar, mualliflik mahorati.

Axborot xaritasi – syujetsiz matnlardagi ma'lumotlarni qayd qiladi.

Turlar – masalan: ekspozitsiya, dalil, jarayon va x.k.

Asosiy g'oyalar, asosiy g'oyalarning isboti, tashkiliy shakllar, mualliflik mahorati.

Adabiy xarita. O'qish savodxonligini tekshirish bo'yicha vazifalar adabiy xarita yordamida beriladi.

Bunday vazifalar quyidagi qadamlarda belgilanadi:

- 1-qadam. Matn haqidagi asosiy ma'lumotni sanab berish (sarlavha, so'zlar soni, o'qish darajasi va janri).
- 2-qadam. Matnning mavzusini aniqlash va tasvirlab berish.
- 3-qadam. Vaziyatni aniqlash va ta'riflab berish, asosiy qahramonlarni sanash, ularning ismini, fazilatlarini va vazifalarini yoritish.
- 4-qadam. Asosiy syujet elementlarini aniqlash, bundan tashqari muammo va ziddiyatlarni yechimini topish.
- 5-qadam. Asosiy voqealarni va epizodlarni sanab berish.
- 6-qadam. Yozuvchi tomonidan qo'llanilgan tayanch iboralar va lug'atni, adabiy yoki ritorik uslublarni aniqlash va sanab berish [1.4].

O'quvchilarni badiiy asar ustida ishlashga o'rgatish ularda adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirish va o'stirish orqali ta'lim-tarbiya berishni nazarda tutadi. Asar matnini tahlil qilish muallif fikrini, hissiyoti va xulosalarini tushunishga yordam beradi, asarda ifoda etilgan voqealarga munosabat uyg'otadi [4.88].

O'qish savodxonligining asosi matnlar bilan to'liq ishlash uchun zarur bo'lgan o'qish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Bu o'quvchi tomonidan kerakli ma'lumotlarni topish va tarqatish, matnning ma'lum qismi bo'yicha xulosalar chiqarish, asosiy belgilarning harakatlarini sharhlash, matn namunalari va matn tuzilishini dastlabki tahlil qilish bilan tasdiqlash kabilardir.

Tadqiqotda o'quvchilarga asosan ikkita mustaqil topshiriq beraladi:

1. Ma'lumotni topish va darhol xulosalar chiqarish qobiliyatlari bo'yicha.

2. Muallif tomonidan to'g'ridan-to'g'ri ifoda etilmagan matn xabari tafsilotlarini integratsiyalash, bog'lanishlarni o'rnatish va ularni matnning umumiy g'oyasi bilan o'zaro bog'lash qobiliyatlari bo'yicha.

Quyida jahon bolalar adabiyotidan Hans Kristian Andersenning "Bolalar gurungi" hikoyasi uchun topshiriqlar tayyorlash namunasini ko'rib chiqamiz. Shuningdek, bu topshiriqlarni berishdan maqsad ham keltirilmoqda [3.186].

Tadqiqotda har bir ishtirokchiga ikkita: matnlar berilgan daftar va matn yuzasidan topshiriqlar tayyorlangan daftar beriladi. Har bir matnga 12-15 ta savol-topshiriqlar ilova qilinadi. Shuni inobatga olgan holda, ushbu hikoya uchun 15 ta topshiriq tayyorlandi.

1-topshiriq. Savdogar qaysi toifadagi kishilar bilan muomala qilardi?

Maqsad: Bu topshiriq o'quvchilarni matnda berilgan ma'lumotni topish va darhol xulosalar chiqarish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

2-topshiriq. Odamlar savdogar haqida nimalar deyishardi?

Maqsad: 4-sinf oqish darsligida berilgan matnning ushbu qismida odamlarning savdogar haqidagi fikrlari keltirilmagan, lekin hikoyani to'liq o'qigan kishilar yaxshi bilishadiki, odamlar savdogar haqida uning boyliklari ko'p ekanligini gapirishardi. Bu kabi topshiriqlar o'quvchilarni darsliklarda berilgan asarlarning davomini topib, o'qishga, kitobxonlik madaniyatini tarkib toptirishga o'rgatadi.

3-topshiriq. Tasavvur qiling siz kambag'al bolaning o'rnidasiz. Eshik ortida turib bolalar suhbatini eshitgandan so'ng qanday yo'l tutgan bo'ladingiz?

Maqsad: Bu kabi topshiriqlar o'quvchilarni uning ham fikriga qiziqayotganliklarini his etish bilan birga, kattalaradek fikrlashga, vaziyatga to'g'ri va oqlilona baho berishga o'rgatadi.

4-topshiriq. Quyidagi so'zlarga namunadagidek izoh bering.

Regsdaler – Daniyaning pul birligi bo'lgan.

Kaver-yunker – Nemischada "yosh zodagon" degan ma'noni anglatadi.

Gimnaziya, baqqol, aslzoda, chayqovchilik, dongdor, oqsuyaklar, kibr-havo.

Maqsad: Ushbu topshiriq o'quvchilarda o'zbek tiliga yangi kirib kelayotgan o'zlashtirma so'zlar yoki muomaladan chiqib ketayotgan so'zlar bilan tanishtirib, lug'at boyliklarini oshirishga xizmat qiladi.

5-topshiriq. Manmanlik va kamtarlik haqida maqollar yozing.

Maqsad: Bu topshiriq matn mazmuniga bog'liq bo'lib, muallif tomonidan to'g'ridan-to'g'ri ifoda etilmagan matn xabari tafsilotlarini integratsiyalash, bog'lanishlarni o'rnatish va ularni matnning umumiy g'oyasi bilan o'zaro bog'lash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

6-topshiriq. Hikoyadagi qizlarning otalariga bergan ta'riflarini yozing.

Maqsad: Ushbu topshiriq o'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllanishiga yordam beradi. O'qigan asarlarini ongli idrok etishga o'rgatadi.

7-topshiriq. Ushbu hikoyaning asosiy g'oyasi nima? Fikringizni izohlab bering.

Maqsad: Isbot, asos talab qilinadigan topshiriqlar o'quvchilarni aniq va asosli gapirishga o'rgatish bilan birga kelajakda maqsadli yashashga ham o'rgatadi. O'quvchilar asarning asosiy g'oyasini aniqlash orqali o'qigan yoki eshitganlaridan to'g'ri xulosa chiqarishga o'rganishadi.

8-topshiriq. Hikoyadan mashhur rassom Torvaldsennining bolaligida g'ururlanib aytgan gapini yozing.

Maqsad: Ushbu topshiriq o'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllanishiga yordam beradi.

9-topshiriq. Matndagi boy va kambag'al bolalarning imkoniyatlarini taqqoslang.

Maqsad: O'quvchilar asar qahramonlarining imkoniyatlarini aniqlash orqali insonlarni o'rganib, insonlardagi salbiy va ijobiy xislatlarni taqqoslash va farqlashga o'rganishadi.

10-topshiriq. Hikoya matnidagi foydalanib, quyidagicha izohli lug'at tuzing.

Shahar – bu joy nomi bo'lib, shahar aholisi, asosan, sanoat, savdo, shuningdek, xizmat ko'rsatish, boshqaruv, fan va madaniyat sohalarida band bo'lgan yirik aholi manzilgohidir. O'zbekistonda Toshkent, Samarqand, Buxoro, Namangan, Farg'ona kabi go'zal shaharlar bor.

Maqsad: Izohli lug'at tuzish topshirig'i, o'quvchilarni lug'at boyliklarni oshirib, atamalardan to'g'ri foydalanishga o'rgatadi. Adabiy-nutqiy kompetensiyani shakllanishiga yordam beradi.

11-topshiriq. "Unga qaraydigan xizmatkorlar uni shunday "kasalga" chalintirib qo'yishgan ekan" gapini qanday tushundingiz?

Maqsad: O'quvchi o'qiganlari yuzasidan, chuqur mulohaza yuritadi.

12-topshiriq. Buyuk yozuvchi va rassomlardan kimlarni bilasiz?

Maqsad: O'quvchilar tariximizni, milliy qadriyatlarimizni o'rganishda, hurmat qilishida bu kabi topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu kabi topshiriqlar o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

13-topshiriq. Sizningcha insonning kelajakda kim bo'lishi ota va onaga bog'liqmi? Fikringizni asoslang.

Maqsad: O‘z fikrlarini asoslash o‘rqli o‘quvchilar erkin fikrlashga o‘rganish bilan birga, har bir gapirgan gapini o‘ylab gapirishga, qiladigan ishini rejalashtirib olishga ham odatlanishadi.

14-topshiriq. Hikoya muallifi Hans Kristian Andersen hayoti va ijodi haqida nimalar bilasiz? Uning yana qaysi asarini sevib o‘qigansiz?

Maqsad: Bu kabi topshiriqlar o‘quvchilarni darslikdan tashqari qo‘shimcha adabiyotlar bilan ishlashga, internet ma‘lumotlaridan foydalanishga o‘rgatib, asar mualliflari bilan yaqindan tanishishlariga xizmat qiladi.

PIRLS tadqiqotlaridagi topshiriqlarda matn yuzasidan yangi ma‘lumotlar top‘lash orqali integratsiyalash jarayoni ham nazarda titiladi, shuning uchun yuqorida tayyorlangan topshiriqlar mazmuniga matnda keltirilmagan, lekin mazmunan matnga aloqador bo‘lgan topshiriqlar ham tayyorlandi.

Tilda har bir unsurning o‘z vazifasi, ma‘no doirasi, boshqa unsurlar, birliklar bilan bog‘lanish qonuniyatlari bor. Ana shu qonuniyatlardan mukammal boxabar bo‘lgan, so‘z sezgisi va mahorati yuksak yozuvchi betakror tasvir, kutilmagan, qiziqarli badiiy asar yaratadi. Shunda kitobxon asarning nafaqat g‘oyasi, balki go‘zal tilining asiriga aylanadi va xilma-xil badiiy-estetik ma‘nolar bilan jilolangan asarlardan zavq oladi.

O‘zbek tilshunosligida matn va u bilan bog‘liq muammolarni tadqiq etish borasida salmoqli yutuqlar qo‘lga kiritilgan deyish mumkin. Endigi vazifa ana shu yutuqlarni yanada mustahkamlash, matnning nazariy va amaliy ahamiyatini, inson kognitiv olamidagi rolini keng yoritish, boshlangi‘ch sinf o‘quvchilarini PIRLS tadqiqotlaridagi muvaffaqiyatlarini ta‘minlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Баранова В.Ю., Ковалева Г.С., Кузнецова М.И., Цукерман Г.А., Нурминская Н.В. Основные результаты международного исследования «Изучение качества чтения и понимания текста» Москва, 2007, 3-4 стр.
2. Rabbonayeva D. PIRLS tadqiqoti uchun topshiriqlar tayyorlash va ular ustida ishlash texnologiyasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma- Samarqand XTXQTMOHM, 2020.
3. Safo Matjon va b. “O‘qish kitobi”. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. Toshkent.: «Yangiyo‘l poligraf servis», 2017. 186-188 b.
4. Qosimova K. “Ona tili o‘qitish metodikasi”. Toshkent.: “Noshir”. 2009. 88-b.

UO‘K 373.31

XALQARO TADQIQOTLARDA BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING SAVODXONLIGINI BAHOLASH

Azizova Qizlarxon Mashrabovna

Andijon viloyati XTXQTMOHM katta o‘qituvchisi, O‘zbekiston Respublikasi

Annotatsiya. O‘quvchilar atrof-borliq to‘g‘risida xolis va ob‘yektiv tasavvurlarning shakllanishi uchun psixologik shart-sharoit bo‘lib, yoshlarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o‘stirish va erkin fikrlashni tarbiyalash muhimdir.

Kalit so‘zlar: baholash, mantiqiy, ilg‘or tajribalar, xalqaro standartlar, aqliy.

UDC 373.31

EVALUATION OF PRIMARY SCHOOL LITERACY IN INTERNATIONAL SURVEY

Azizova Qizlarxon Mashrabovna

Senior Lecturer, Andizhan Regional RCURPEE, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. It is a psychological condition for the formation of objective and objective perceptions of students about the environment, and it is important to develop the ability of young people to think independently and to think freely.

Key words: evaluation, logical, best practices, international standards, mental.

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo‘lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lgan yoshlarning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo‘lda xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

Ta‘lim sifati va samaradorligini oshirish yo‘lida xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Bu borada O‘zbekiston Respublikasida qo‘yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro

tadqiqotlarning tashkil etilishi to'g'risida hukumat qarorining qabul qilinishi Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishini misol sifatida keltirish mumkin. Qariyb 60 yildan ko'proq vaqt mobaynida IEA tashkiloti ta'limni qiyosiy o'rganish sohasida yetakchi tashkilot bo'lib kelmoqda. Mazkur tashkilot ta'lim tizimida davlat siyosati va amaliyotning ta'sirini chuqurroq o'rganish maqsadida ta'lim sohasida keng miqyosli tadqiqotlar olib boradi. Bu tadqiqotlar ta'lim jarayonlari va natijalarini ko'rib chiqib, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi o'zaro bog'liq omillarni qiyosiy tahlil qiladi. 1958-yildan buyon ushbu tashkilot ta'lim sohasiga oid ko'plab mavzular bo'yicha o'ttizdan ortiq qiyosiy tadqiqotlarini o'tkazdi. Jumladan, matematika va tabiiy fanlar (TIMSS), o'qish (PIRLS), fuqarolik va fuqarolik ta'limi (ICCS), kompyuter va axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonlik (ICILS) kabi yo'nalishlarda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari, umuman olganda ta'lim olish jarayonida erishgan yutuqlarini baholab kelmoqda.

IEA tashkiloti tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarning aksariyati o'quvchilarning akademik faoliyatini bir yoki bir nechta fanlardan yoki fanlararo uyg'unlik asosida baholashni o'z ichiga oladi, bu esa dunyo bo'yicha umumiy va har bir mamlakat kesimida ta'lim jarayonlarini chuqur tahlil qilishga yordam beradi.

O'quvchilarning erishgan yutuqlarini o'rganishda barcha o'quvchilardan emas, balki ushbu qatlamning vakillari sifatida tanlab olingan o'quvchilardan obyektiv testlarni o'tkazish orqali baholanadi. Shuningdek, maktab direktorlari, o'qituvchilar, o'quvchilar, hattoki ota-onalardan so'rovnomalarda o'tkazilib, maktabdagi ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, jumladan, maktab resurslari, o'quvchilarning ta'lim olishga oid qarashlari, o'qitish usullari hamda uy sharoitida o'quvchilarning bilim olishi qanchalik darajada qo'llab-quvvatlanayotganligiga doir qimmatli ma'lumotlar to'planadi.

Ushbu tadqiqotlar yuqori texnik va ilmiy talablar asosida o'tkaziladi. Shuningdek, o'rganilayotgan holatlarning xususiyatidan kelib chiqib, amaliy tadqiqotlar bilan birga kuzatuv kabi samarali usullardan ham foydalaniladi. Ushbu dasturning ko'p yillar davomida muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotganiga 2021-yilda 20 yil to'ladi.

PIRLS – boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnini o'qib tushunish darajasini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturidir. Boshqacha qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarining qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilash uchun ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma'lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir.

Shuningdek, PIRLS, yosh o'quvchilar tomonidan maktabda va maktabdan tashqarida ta'lim olishning katta qismini tashkil etuvchi, ya'ni badiiy tajriba orttirish, ma'lumot olish va undan foydalanish ko'nikmalarini baholash kabi ikkita keng qamrovli maqsadlarni ifodalaydi. Yana shuni aytish mumkinki, ushbu dastur zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o'zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi. Bunga misol sifatida, 2021-yilda o'tkaziladigan tadqiqotda o'quvchilarga birinchi marta raqamli formatdagi topshiriqlarni taqdim etishni rejalashtirganini aytish o'rinlidir. Raqamli formatga o'tish bilan birga, internet muhitida boshqariladigan PIRLS onlayn o'qishni kompyuterda baholash kabi o'zgarishlar ham ko'zda tutilgan.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish yo'lida PIRLS tadqiqotida muvaffaqiyatli ishtirok etish o'ziga xos o'rin tutadi. Shunday ekan, ta'lim sifatini baholash sohasidagi yangi xalqaro tadqiqot haqida xalq ta'limi tizimi xodimlari, o'qituvchilar hamda ushbu sohaga qiziquvchilar uchun ma'lumotlar yetkazib berish maqsadida «Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash» yuzasidan metodik yordamlar berib borilmoqda. PIRLS tadqiqoti, uning o'ziga xos xususiyatlari, nazorat-sinov materiallarining ishlab chiqilishi haqida umumiy ma'lumotlar berilgan. Shu bilan birga, PIRLS tadqiqotining topshiriqlaridan, ya'ni matnlar va savollaridan bir nechta namunalar hamda ularning baholash mezonlari keltirilgan.

Xalqaro baholash dasturi PIRLS (Progress In International Reading and Literacy Study) dunyoning turli mamlakatlari milliy ta'lim tizimida o'qish savodxonligi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va natijalarni qiyoslashga yo'naltirilgan.

Tadqiqotlar 2001, 2006, 2011, 2016-yillarda o'tkazilgan bo'lib, 2021-yil tadqiqotning beshinchi davriyligi hisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, 2021-yilda o'tkaziladigan tadqiqotlar 2001-yildan boshlab uzluksiz qatnashib kelayotgan davlatlarning 20 yil davomida erishgan yutuqlarini baholash imkonini beradi. Har besh yilda o'tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini xalqaro darajada baholaydi. Mazkur dastur IEA tashkilotining 4-sinf o'quvchilarini matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholaydigan TIMSS dasturini to'ldirishga yo'naltirilgan bo'lib, Boston kollejidagi TIMSS va PIRLS xalqaro o'quv markazi IEA tashkilotining Gamburq va Amsterdam shaharlaridagi idoralari bilan yaqindan hamkorlikda boshqariladi.

2016-yildan boshlab qo'shimcha tanlov asosida PIRLS tizimi joriy qilingan bo'lib, u o'quvchilarning onlayn o'qish savodxonligini baholashga mo'ljallangan. Internet o'quvchilar uchun ma'lumotlar olishning boshlang'ich yo'li hamda maktab fanlari doirasida izlanishlar olib borish uchun markaziy manba hisoblanadi.

Xalqaro baholash dasturi PIRLS (Progress In International Reading and Literacy Study) dunyoning turli mamlakatlari milliy ta'lim tizimida o'qish savodxonligi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va natijalarni qiyoslashga yo'naltirilgan.

Tadqiqotlar 2001, 2006, 2011, 2016-yillarda o'tkazilgan bo'lib, 2021-yil tadqiqotning beshinchi davriyligi hisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, 2021-yilda o'tkaziladigan tadqiqotlar 2001-yildan boshlab uzluksiz qatnashib kelayotgan davlatlarning 20 yil davomida erishgan yutuqlarini baholash imkonini beradi. Har besh yilda o'tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini xalqaro darajada baholaydi. Mazkur dastur IEA tashkilotining 4-sinf o'quvchilarini matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholaydigan TIMSS dasturini to'ldirishga yo'naltirilgan bo'lib, Boston kollejidagi TIMSS va PIRLS xalqaro o'quv markazi IEA tashkilotining Gamburg va Amsterdam shaharlaridagi idoralari bilan yaqindan hamkorlikda boshqariladi.

2016-yildan boshlab qo'shimcha tanlov asosida PIRLS tizimi joriy qilingan bo'lib, u o'quvchilarning onlayn o'qish savodxonligini baholashga mo'ljallangan. Internet o'quvchilar uchun ma'lumotlar olishning boshlang'ich yo'li hamda maktab fanlari doirasida izlanishlar olib borish uchun markaziy manba hisoblanadi.

Ta'lim tizimidagi barcha ta'lim-tarbiya muassasalaridagi yoshlarimizni mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish va erkin fikrlashni tarbiyalash jarayonida aqliy salohiyat bilan ma'naviy va ruhiy jihatdan ongini boyitish, ular ruhiyatida bo'shliqni faqat yaxshilik uchun, ezgu maqsadlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantirishdir. Ta'lim metodlari bilimlarni ijodiy o'zlashtirish va faoliyat yo'llari qonuniyatlariga asoslangan, ilmiy izlanishning asosiy jihatlarini o'zida jamlagan, o'qitish hamda o'qish metodlari, usullarini uyg'unlikda qamrab olgan didaktik tizimni o'zida aks ettiradi. U bilimlar asosini chuqur o'zlashtirishni ta'minlaydi, o'quvchining bilim olishdagi mustaqilligini, ijodiy qobiliyatini oshiradi, dunyoqarashini shakllantiradi, kengaytiradi. Bundan tashqari, ta'lim metodlari nafaqat o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stiradi, balki ularda shaxsiy sifatlarining shakllanishiga ham imkon yaratadi. Ta'lim metodlari o'quvchi faoliyatining bilimlarni o'zlashtirish va muammoli vaziyatni tahlil qilish yo'li bilan hal qiluvchi faoliyat turlarida, muammolar tashkil qilish va ularni yechishda o'z takliflari, asoslari, isbotlari, farazlarini ilgari surish bilan bog'liq alohida tizim. Bu aqliy faoliyat bilimlarni, yangi tushunchalarni o'qituvchining rahbarligida, ongli ravishda o'zlashtirishga, tafakkur mustaqilligini ta'minlash va faollashtirishga, shaxs shakllantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy tafakkurini shakllantirishda turli usullardan foydalaniladi. Ayniqsa, muammoli ta'lim metodi, interfaol o'yinlardan foydalanish katta samara beradi. O'quvchilar o'z ustilarida ishlash jarayonida ularning qobiliyati, iste'dodi rivojlanadi. Mustaqil ishlar o'quvchilarning aqliy imkoniyatlarini namoyon qilishga imkon beradigan, o'qituvchining bilvosita va bevosita ishtirokida, ammo bevosita yordamisiz nazariy-amaliy materiallar ustida bajariladigan tadqiqiy mazmunga ega bo'lgan vazifalar bo'lib, o'quvchilarning nafaqat bilim darajalarini, balki ularning o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo'llay bilishlarini, mustaqil va mantiqiy fikrlash darajalarini aniqlash va shakllantirish imkoniyatini beradigan ongli ilmiy faoliyatdir. Kichik yoshdagi bola idrokining o'tkiriligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, o'zining qiziquvchanligi, ishonuvchanligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurning yaqqolligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. Shaxs o'z fikrini bayon etishi, boshqalarni tushunishida tafakkur muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun tafakkurning turlari: mantiqiy, nazariy, amaliy, konvergent, divergent, produktiv, reproduktiv, ko'rgazmali harakat, ko'rgazmali obrazni bilish, tafakkur shakllari: tushuncha, hukm, xulosalarni bilish, tafakkur operatsiyalari: analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, mavhumlashtirishni bilish zarur. Mustaqil fikrlash – o'quvchilar atrof-borliq to'g'risida xolis va ob'yektiv tasavvurlarning shakllanishi uchun psixologik shart-sharoit bo'lib, yoshlarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish va erkin fikrlashni tarbiyalash muhimdir. Bolaning maktabga borishi uning psixologik rivojlanishi va shaxsning shakllanishidagi orni nihoyatda katta. Bola o'quv faoliyatida o'qituvchi rahbarligi ostida inson ongining turli asosiy shakllari mazmunini egallaydi va insoniy an'analar asosida harakat qilishni o'rganadi. O'quv faoliyatida bola o'z irodasini o'quv maqsadlariga erishish uchun mashq qildiradi. O'quv faoliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada rivojlanishini talab etgan holda, bola shaxsi rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi. Shunga ko'ra umumta'lim maktablarining vazifasi o'quvchilarni erkin, mustaqil fikrlashga, o'z fikrini asoslash va himoya qilishga o'rgatishdan iborat. Bu ishni boshlang'ich sinfdanoq boshlash maqsadga

muvofigidir. O'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantishda barcha predmetlarni o'rganish uchun darslarini innovatsion pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlar katta. Shu sababli bu darslarda o'quvchilarni fikrlashga o'rgatishga alohida e'tiborni qaratmoq lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. PIRLS 2021 Assessment Framework. Ina V.S. Mullis, Michael O.Martin. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education, Boston College. 2019. www.timssandpirls.bc.edu.
2. PIRLS 2016. Teacher Questionnaire. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA). 2015.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi veb-sayti: www.tdi.uz.
4. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi veb-sayti: www.markaz.tdi.uz.

UO'K 53.06

PIRLS MATNINI O'QISH VA TUSHUNISH BO'YICHA XALQARO BAHOLASH TIZIMI – BUGUNGI KUN TALABI

Boltayeva Zilola Safoyevna

*Buxoro viloyati XTXQTMOHM "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi, O'zbekiston
E-mail: boltayevazilola@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro loyihalarni amalga oshirish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etishi to'g'risida muhim ma'lumotlar berilgan va tegishli xulosalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: PIRLS, xalqaro baholash dasturi, bilim, ko'nikma, malaka.

UDC 53.06

PIRLS, INTERNATIONAL ASSESSMENT SYSTEM OF READING AND UNDERSTANDING THE TEXT IS TODAY'S DEMAND

Boltaeva Zilola Safoyevna

*Senior lecturer of Physics, Bukhara Regional In-Service and Retraining Center for Public Education
Employees, Republic of Uzbekistan*

Brief abstract. The article provides information about the importance of studying international experience in assessing the quality of education, a comprehensive comparative analysis of the existing system, close cooperation with international and foreign organizations, agencies, research institutes in the relevant field, the implementation of international projects to assess the quality of education, improving the appropriate national assessment system that meets today's requirements.

Keywords: PIRLS, International marking programme, knowledge, skills, qualification.

Respublikamizda rivojlangan davlatlarning ta'lim sohasidagi o'zgarish va o'sishlarni tahlil qilish, ularni solishtirish hamda ta'limda ilg'or innovatsiyalarni joriy etishga juda katta e'tibor qaratilmoqda va va jadal ravishda ta'limni barcha bo'g'in va bosqichlarida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Osiyo davlatlari, Singapur va Yaponiyada ta'limning quyi bosqichi bo'lgan boshlang'ich sinf bitiruvchilari orasida o'tkaziladigan Xalqaro baholash dasturlaridan biri, Xalqaro Ta'lim Tadqiqoti Assosiatstiyasi (IEA – International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan o'tkaziladigan PIRLS xalqaro baholash dasturi hisoblanadi.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) – matnini o'qish va tushunish sifati xalqaro o'rganish dasturi bo'lib, dunyoning turli mamlakatlardagi boshlang'ich maktab o'quvchilari tomonidan matnini o'qish va tushunishni, shuningdek, milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlash imkonini beradi. Tadqiqotlar davriy ravishda amalga oshiriladi – har besh yilda bir marta va hozirga qadar to'rt marta o'tkazilgan: 2001-yil (1), 2006-yil (2), 2011-yil (3) va 2016-yil (4), 2021-yil (5) da o'tkaziladigan ta'limning xalqaro PIRLS dasturida O'zbekiston ilk marotaba ishtirok etishi rejalashtirilgan hamda Xalqaro ta'lim tadqiqoti assosiatstiyasi bilan tegishli shartnomalar imzolangan.

PIRLS – matnini o‘qish va tushunish sifatini xalqaro o‘rganish dasturi ta’lim oluvchilarning to‘rtinchi sinf bilimlarini sinab ko‘radi, chunki u bolalarning rivojlanishida muhim bosqich bo‘lib hisoblanadigan boshlang‘ich sinfning bitiruvchi o‘quv yili bo‘lib, so‘ngra o‘quvchilar yuqori sinflarda o‘qishlarini davom ettirishlari kerak, bu esa keyingi ta’lim olishlarining vositasiga aylanadi. Ko‘pgina mamlakatlarda olti yoshga kirgan bolalar maktabga qamrab olinadi va o‘n yarim yoshli bolalar to‘rtinchi sinfga o‘qishadi. Ammo, Angliya, Yangi Zelandiya, Trinidad va Tobago davlatlarida, bolalar besh yoshdan boshlab ta’lim olishni boshlashadi, shuning uchun bu mamlakatlarda beshinchi sinf o‘quvchilari ishtirok etishadi. Shvesiya, Daniya va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida bolalar yetti yoshdan boshlab ta’limni boshlashadi hamda ushbu mamlakatlarning o‘quvchilari esa 10,7-10,9 yosh orasida 4-sinfda o‘qishadi. Barcha mamlakatlarda maktablarni tanlashda ushbu maktabdagi so‘ralgan 4-sinfda o‘qiydigan parallel o‘quvchilar sonini hisobga olgan holda mamlakatlardagi barcha maktablar ro‘yxatidan probabilistik uslub bilan tanlanadi. Tanlab olingan maktab o‘quvchilari PIRLS xalqaro baholash dasturining sinovlari va anketa so‘rovnomasida qatnashgan shuningdek, ushbu o‘quvchilarning ota-onalari, o‘qituvchilar va maktab ma‘muriyati vakillaridan ham anketa so‘rovnomasi o‘tkaziladi hamda ma‘lumotlar bazasiga kiritilib, mazkur mamlakatdagi boshlang‘iya ta’lim tizimi to‘g‘risidagi xulosalarga kelinadi.

Nima uchun boshlang‘ich sinfni bitiruvchilariga o‘qish savodxonligi muhim? Chunki ayni sinf va yoshda bolada matnni o‘qib bilishni emas o‘qib mazmunini tushunish, anglash jarayoni sodir bo‘ladi. Umumta’limni olishning ayni o‘qish savodxonligi davri boshlanadi. O‘rta maktabning ta’lim yutuqlari taqdiri aslida boshlang‘ich sinf bitiruvchilarining o‘qish savodxonligiga bog‘liqdir. Avvalo, bu ta’limning eng katta va eng kichik taxnologiyalanganligi natijasi – o‘rganish qobiliyatiga tegishlidir. Shuning uchun, PIRLS topshiriqlarida yangi ma‘lumotlarni diqqat bilan o‘rganish va batafsil tahlil qilish mantiqan to‘g‘ri keladi. PIRLS matnlari uchun individual savollar tahlil qilish bilan amalga oshiriladi. Tajribali mutaxassislar bilim sifati va pedagogik metodlarni xalqaro standartlarga mosligini taqqoslashadi. Eng muhimi, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari hamda barcha fan o‘qituvchilari har bir darsda foydalanish uchun asosiy matn bilan ishlash namunalari va tajribalarini o‘rganishadi. Faqat pedagogik jamoaning hamkorligida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini yuqori darajada saqlabgina qolmay, ta’limning keyingi bosqichlarida o‘qish savodxonligi ta’sirida ta’limni yuqori natijalariga erishishlari mumkin. Tadqiqotda qatnashuvchi mamlakatlarda o‘quvchilar o‘qish natijalarini yuqori darajada namoyish etadilar: O‘qish haqida ijobiy fikrlari mavjud bo‘lsa; O‘qish jarayonida o‘zlarining muvaffaqiyatlarini qadrlanib borilsa; O‘qish mashg‘ulotlarida, o‘qish jarayonida o‘zlarining ishtirokchiligini his etishsa. Sinovlarni bajarish uchun 80 daqiqa vaqt ajratiladi (tanaffus bilan birga).

O‘tkaziladigan PIRLS-2021 halqaro tadqiqotlarini O‘zbekistonda o‘tishi bo‘yicha donor qilib belgilangan Rossiya davlati misolida ko‘rib chiqamiz. Rossiya davlatida tadqiqotda ishtirok etish uchun tanlash jarayoni ikkita bosqichni o‘z ichiga oladi: hududlarni tanlash va maktablarni tanlash. PIRLS ta’lim sifatini monitoring qilishning asosiy talabi; turli xil vositalar yordamida subyektlarning namunalaridan turli vaqtlarda olingan natijalarning taqqoslanishini ta’minlashdan iborat. Ushbu talabni amalga oshirish uchun maxsus tadbirlar amalga oshiriladi. Misol uchun, taqqoslanadigan mezonlarni yaratish va olingan natijalarni taqqoslash uchun topshiriqlar va so‘rovnomalar yozishda avvalgi yillarda ishlatilgan topshiriqlar va savollar guruhlari kiritiladi. Tadqiqot jarayonlarini standartlashtirishga katta e’tibor berilmoqda. PIRLS tadqiqotlari xalqaro Markaz tomonidan ishlab chiqilgan yagona qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi. Tadqiqotning har bir bosqichi (namunalar, tarjimalar va moslashuvlar, test va so‘rovnomalar, tekshirish va ma‘lumotlarni qayta ishlash) xalqaro ekspertlar tomonidan nazorat qilinadi.

Agar uning tarixiga nazar solsak, PIRLS-2001 tadqiqotida 35 mamlakat ishtirok etganligini ma‘lumot sifatida aytib o‘tish mumkin. 2001-yil o‘tkazilgan xalqaro tadqiqot dasturida Rossiyaning 45 ta viloyatida joylashgan 206 ta maktabdan o‘quvchilar qatnashgan. Har bir maktab o‘quvchilari PIPLS dasturining sinovlari va anketa so‘rovnomasiga qatnashgan shuningdek, ushbu o‘quvchilarning ota-onalari, o‘qituvchilar va maktab ma‘muriyati vakillaridan ham anketa so‘rovnomasi o‘tkazilgan. PIRLS-2001 tadqiqotida jami 4093 ta boshlang‘ich sinf bitiruvchisi, 4050 nafar o‘quvchilarning ota-onalari, 206 nafar boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi va 206 nafar ishtirokchi maktab ma‘muriyati vakillari qamrab olingan. Vazifa sifatida topshiriqlarning 10 ta varianti taklif qilingan. Sinovlarda adabiy matn qo‘llanilgan: "Inverted sichqonchalar", "Bir loy parchasi", "Gulda gullar", "Qovoq zilzilani ogohlantiradi"; "Leonardo da Vinchi", "Antarktida" kabi mashhur ilmiy matnlar; va "Daryo bo‘ylab marshrutda" matnlari berilgan. Sinov topshiriqlarining barcha versiyalari bir xil tuzilishga va qiyinchilik darajasiga ega. Sinovning barcha variantlari ikki qismdan iborat bo‘lib, ularning har biriga 11 dan 14 tagacha savol topshiriqlari berilgan. Ish uchun 80 daqiqa, har bir qism uchun 40 daqiqadan vaqt ajratilgan.

PIRLS-2006 tadqiqotida 40 mamlakatdan 215 mingga yaqin o‘quvchi ishtirok etgan. PIRLS-2006 tadqiqotida Rossiya mamlakatining 45 mintaqasidagi 232 umumta’lim maktablaridan 4955 nafar

boshlang'ich sinf bitiruvchilari qatnashgan. Xalqaro ekspertlar tomonidan sinovlar uchun 10 ta matn (5 adabiy va 5 ta axborot) va 126 ta topshiriq tayyorlangan. Tadqiqot natijasida Rossiya, Gonkong va Singapur o'quvchilari eng yaxshi natijalarni ko'rsatgan. Rossiya davlati o'quvchilari birinchi o'rindagi ko'rsatgichga erishgan.

PIRLS-2011 tadqiqotida 45 mamlakatdan 325 mingga yaqin o'quvchi ishtirok etgan. Rossiya PIRLS-2011 tadqiqotida 42 hududidan 202 ta umumta'lim maktablari, 4461 nafar boshlang'ich sinf bitiruvchilari ishtirok etgan. 2011-yil ma'lumotlariga ko'ra, Gonkong, Rossiya, Finlyandiya va Singapur o'quvchilari o'qishni o'zlashtirishda eng muvaffaqiyatli qatnashgan. Ushbu mamlakatlarning to'rtinchi sinf o'quvchilari barcha ishtirokchi mamlakatlar o'rtasida eng yaxshi natijalarni ko'rsatgan. Yetakchi xalqaro ekspertlar tomonidan o'qish savodxonligini aniqlash tadqiqoti materiallari ishlab chiqiladi. Tadqiqot materiallarini tayyorlashda Rossiya davlati mutaxassislari ham ishtirok etishadi.

2016-yilda o'tkazilgan PIRLS tadqiqotida materiallar 16 variantda ishlangan bo'lib, ularning har biri bir xil qiyinchilik darajasiga ega bo'lgan. Har bir o'quvchiga ikkita ya'ni badiiy va ilmiy-ommabop matnlar va har bir matn uchun 12-17 ta topshiriqlar berilgan. PIRLS tadqiqotlari boshlang'ich sinf bitiruvchilarning monitoringi bo'lib hisoblanadi. PIRLS topshiriqlari xalqaro hamjamiyat jamoatchiligi tomonidan kitobni o'qiydigan o'quvchilar uchun eng yaxshi zamonaviy o'qish savodxonligi deb tan olingan.

Nima uchun aynan o'qish savodxonligi ta'lim tizimidagi yutuqlarning markaziy ko'rsatkichi sifatida tan olingan? Chunki matnlardan olingan ma'lumotlarni tushunish va ishlatish qobiliyati har bir bola taqdiriga va mamlakat farovonligiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Tadqiqotlar natijasida 11 yashar o'quvchiga o'qish savodxonligini juda yuqori darajada bo'lishi umumta'lim maktabini tugatgandan keyin ham ta'lim olishni davom ettirish ehtimolini kuchaytiradi. Tadqiqotlarda o'qish savodxonligini yaxshilanishi iqtisodiy o'sishga boshqa savodxonliklarga nisbatan ko'proq o'z ta'sirini ko'rsatishi aniqlangan. PIRLSga a'zo mamlakatlar besh yilda bir marotaba ta'lim olish natijalariga bog'liq bo'lgan, yaxshi o'ylangan ta'limda o'sish imkonini beruvchi strategik qarorlar qabul qilish imkonini yaratadigan ma'lumotlar bazasiga ega bo'lishadi. Qabul qilinadigan qarorlar ko'lamining farqi shundaki unda butun mamlakatning hamda har bir sinf o'quvchisiga o'z ta'sirini ko'rsatadigan darajada bo'ladi. Mana shunday qarorlar natijasida yoshlarning o'qish savodxonligi taqdiri hal qilinadi. Dasturning har bir (5 yillik) davriy o'tishida tadqiqotning tashkilotchilari topshiriqlar ma'lumotlar bazasini ayni zamon talablariga mos darajadagi dolzarb matnlar bilan moslashtirib borishadi. O'quvchilarning yosh psixologik rivojlanishi o'sib borayotganligini inobatga olib, bolaning ta'lim-tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga e'tibor qaratib boradi.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan 4-sinf o'quvchilari 2021-yilda mazkur xalqaro tadqiqotlar dasturiga ilk bor qatnashadi.

2019-2020-o'quv yilida O'zbekiston respublikasi bo'yicha 9942 ta maktab mavjud, shundan: shaharda 2709 ta, qishloq hududida 6644 ta, olis xududlarda 589 tasi joylashgan. Mazkur maktablarning 4 sinflarda 639 270 nafar o'quvchilar tahsil oladi, shundan: o'zbek tilida 544 942, rus tilida 67 540, qoraqalpoq tilida 13 641, tojik tilida 5590, qozoq tilida 5711, qirg'iz tilida 801, turkman tilida 1045 nafarni tashkil qiladi. Ta'lim oluvchilarning 309 924 nafari qiz bolalar 48.5 foizni, 329 346 nafari o'g'il bolalar esa 51.5 foizni tashkil qiladi.

PIRLS xalqaro baholash dasturining o'tkaziladigan sinovlarida Respublikamizning qaysi hududlari, qaysi maktablar, qaysi tilda ta'lim oluvchi, qaysi jinsdagi va qaysi o'quvchilar qatnashishi xalqaro ekspertlar tomonidan o'quvchilarning umumiy sonidan kelib chiqib belgilab olinadi. Xalqaro ta'lim tadqiqoti assosatsiyasi ekspertlari tomonidan milliy ta'lim tizimiga hozirgi davrga mos kerakli ma'lumotlar bazasiga bilan ta'minlanadi hamda xulosalardan kelib chiqib, boshlang'ich ta'lim tizimida keng islohotlar olib boriladi.

Foydalanilgan internet resurslari/Internet resources

1. <http://www.pirls.org/> PIRLS xalqaro tadqiqoti dasturi
2. <http://www.tdi.uz/uz> Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi
3. <http://markaz.tdi.uz/> Ta'lim sifatini baholashda xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi

UO'K 378.046.4

ANDRAGOGIK TA'LIMDA MEDIA VA AXBOROT SAVODXONLIGINI OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Kamalova Nilufar Ilxomovna

Buxoro viloyati XTXQTMOHM "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasida o'qituvchisi, O'zbekiston

E-mail: kamalova@inbox.uz

Annotatsiya. Maqolada media va axborot savodxonligining afzalliklari va pedagoglarning axborot savodxonligini oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Media va axborot savodxonligi, axborot texnologiyalari, taqdimot, media talim.

UDC 378.046.4

SPECIFIC FEATURES OF DEVELOPING MEDIA AND INFORMATION LITERACY IN ANDRAGOGICAL EDUCATION

Kamalova Nilufar Ilxomovna

Teacher of the department of exact and natural sciences, Bukhara Regional of Retraining and In-service Training of Public Education Employees, Uzbekistan

Brief abstract. The article provides information about the benefits of media and information literacy and the specifics of enhancing teachers' information literacy.

Keywords: Media and information literacy, ICT technology, presentation, media education.

Media va axborot savodxonligi ko‘nikmalarini o‘zlashtirish pedagoglarga – ta’lim muhitini boyitish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi va o‘qitish, o‘rganish yanada faol kechishiga ko‘maklashadi. An’anaviy malaka oshirish kurslarining “O‘quv jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash” moduli orqali ham ularning media hamda axborot savodxonligi oshirib boriladi. Bunda tinglovchilar androgogik ta’lim asosida o‘qitiladi. Androgogika – pedagogika fanining alohida yo‘nalishi bo‘lib, katta yoshdagirlarni o‘qitish va tarbiyalashning nazariy, amaliy muammolarini o‘rganadi.

Kattalar ta’limi – jamiyat tomonidan katta yoshli deb hisoblangan kishilarning o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish, bilimlarini oshirish, texnik va kasbiy mahoratini takomillashtirish yoki shaxsiy ehtiyojlari va jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun yangi yo‘nalishda qo‘llashni o‘rganishni maqsad qilgan rasmiy yoki boshqa shakldagi o‘qish jarayoni ekanligini bilamiz.

Tinglovchilarning media hamda axborot savodxonligini oshirishga qaratilgan ta’lim – maqsadli, asosli, yorqin, dinamik, qiziqarli, birlashtiruvchi, faol, ijodiy va zavqli bo‘lishi kerak.

Media va axborot savodligining afzalliklarini quyidagilar:

1. Media va axborot savodligini o‘qitish va o‘rganish jarayoni kelgusida o‘sib kelayotgan avlodga o‘z bilimlarini yetkazishi uchun pedagoglarni keng bilimlar bilan ta’minlaydi.

2. Media va axborot savodligi demokratik jamiyatda media va axborot kanallarining faoliyati haqida muhim bilimlar beradi, media va axborot xizmatlarining funksiyalari doirasidagi faoliyatini baholash hamda ushbu funksiyalarni amalga oshirish va asosiy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni tushunishni ta’minlaydi.

3. Media va axborot savodxonligiga ega bo‘lgan jamiyat erkin, mustaqil va turfa fikrli media va ochiq axborot tizimlarini rivojlantirishni rag‘batlantiradi.

Malaka oshirish tizimida media va axborot savodxonligini oshirishda andragogik ta’limni tashkil etishning qator omillarini hisobga olish talab etiladi:

– “auditoriyaning ijtimoiy portreti”ni oldindan to‘g‘ri ayta bilish, auditoriyadagi qatnashchilarning qiziqishlari, mavjud tajribasi, intellektual salohiyatini to‘g‘ri baholay olish [1]. Malaka oshirish tizimida pedagog-andragog darsga kirak ekan, u qaysi yo‘nalish tinglovchilariga dars o‘tishini hisobga olishi kerak. Chunki doimiy ravishda axborot texnologiyalari bilan shug‘ullanuvchi fan o‘qituvchilari (informatika, ingliz tili, matematika...) uchun mavzuni o‘tish sur‘ati tezroq, kundalik faoliyatida axborot texnologiyalarini kam qo‘llovchi tinglovchilar guruhi(texnologiya, musiqa, jismoniy tarbiya ...) uchun mavzuni o‘tish sur‘ati sekinroq amalga oshirilishi lozim.

– qatnashchilarning ehtiyojlariga asoslangan holda fan, soha va mavzuga oid axborot-ma’lumotnoma bazasini shakllantirish [1]. Fasilitator guruhning ehtiyojiga asoslangan holda o‘z faoliyatini olib borsagina tinglovchilarga motivatsiya uyg‘ota oladi. Masalan, Power Point dasturida amaliy mashg‘ulot bajarilganida, tinglovchilarning dars beradigan fanidan kelib chiqqan holda quyidagi ko‘rinishdagi slaydlarni tayyorlashni o‘rgatishi mumkin:

Ingliz tili yo‘nalishida. Bunda taqdimotda lug‘atlardan foydalanish, animatsion rasmlardan va multimedia elementlaridan foydalanish mumkin.

Matematika yo‘nalishi tinglovchilariga formulalar, geometrik shakllar qatnashgan taqdimotlar




tayyorlashni o'rgatish maqsadga muvofiq bo'ladi:

Uyga vazifani so'rash

- $14a^2b + 21ab^2$
- $75a^2b^2 + 15a^2b$
- $12p^3q^3 - 12p^2q^3$
- $3x^2y^3 - 6x^4y^2$



"Geometrik shakllarni tanlang va misollarni yeching"

$17a(5a + 6b - 2ab)$

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi tinglovchilari uchun ovoz effektlari, turli mult qahramonlar va yorqin rangli fonlar yordamida tayyorlangan taqdimotlar tayyorlash katta qiziqish uyg'otadi.



Buvi 14 kalava ipdan paypoq to'qidi. Har juft papoqqa 2 kalavadan ip ketdi. U 5 juft paypoqni nevaralariga sovg'a qildi. Buvida necha juft paypoq qoldi?

MUSTAQIL YECHING

1-qator	2-qator
600-90	500-90
370+30	240+60
18+16.8	28+18.9
740-(90+30)	420-(60+90)
360-(480-370)	570-(560-310)
83-3-3-7	96-3-4-8



Uyga vazifa
483-484-
misollar

Yuqoridagi kabi taqdimotlarni tuzishda guruhning AKT savodxonligi hisobga olish, agar guruh tinglovchilarining aksariyati kompyuterda ishlash ko'nikmalariga ega bo'lsa, unda animatsiyalarni vaqtga bog'lash, ketma-ketligini o'zgartirish, havolalar qo'yish, taqdimotni qo'shimcha sozlovlari bilan tanishtirish maqsadga muvofiq. Agar guruh tinglovchilarining AKT savodxonligi o'rtacha bo'lsa u holda bu guruhda taqdimotni loyilash va oddiy o'tish animatsiyalarini qo'llashni o'rgatish kifoya bo'ladi.

Media savodxonlikni rivojlantirishda o'qituvchi nafaqat o'z fanini balki, dars beradigan guruh fanidan ham bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi. Shu bilan birga taqdimotlarni tayyorlash uchun kerak bo'lgan vositalar (rasmli, animatsiyali, ovozli hamda videoli fayllar) majmuiga ega bo'lishi kerak.

– o'quv jarayonining tarkibiy tuzilishini to'g'ri belgilash, xususan, qatnashchilarning mehnat tajribasi, ijtimoiy va kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi o'qitishning innovatsion shakl, metod va vositalarini tanlash hamda hamkorlikdagi erkin-ijodiy ta'lim muhitini yaratish kerak.

Media va axborot kontentini ishlab chiqish ta'lim oluvchilar uchun amaliy vazifalarni o'rganish va bajarish jarayonida o'qishga to'liq kirishish imkonini beradi. Media mahsulotlarini yaratish jarayonida pedagoglar o'z g'oya va qarashlarini ifoda etgan holda, o'zligini namoyon qilish va ijodiy jarayonni o'rganishlari mumkin.

Masalan, ISpring dasturida online testlar tuzishda o'qituvchilarga ijodiy topshiriqlar berish mumkin. Bunda, o'quvchilarning nafaqat shu fanga oid bilimlarini baholash va mustahkamlash, balki ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan testlar tuzishni vazifa qilish mumkin. Bu bilan o'qituvchilarning mustaqil ishlashi ta'minlanib, ularning kreativliklarini rivojlantirish mumkin.

Pedagoglarning o'quvchilariga tanishtirayotgan media mahsulotlari qanchalik xilma-xil bo'lsa, media ta'lim shunchalik sermazzmun va chuqurroq bo'lib boradi.

Media va axborot borasida savodxonlikni rivojlantirishning eng yaxshi usuli – turli medialardan foydalanishdir, bunda ko'nikmalarni ortirishda avtomatik tarzda ko'p marotaba mediadan foydalanishning o'zi yetarli emas. Buning uchun qadriyatlar uchun kurashishga, ma'lum bir media resurs tanlash borasida o'ylashga o'rgata oladigan, o'quvchini ishonchli ma'lumot tomon yo'naltiradigan medialarning ommabopligi bilan bog'liq masalalar bo'yicha yordam bera oladigan o'qituvchi kerak [2].

Katta yoshdagi kishilarni axborot savodxonligini oshirishdagi eng katta afzalliklardan biri – bu ularning katta hajmdagi bilim va ko'nikmalarga egaligidir. Katta yoshdagi kishilarda ma'lum darajada biror-bir narsani o'rganish qobiliyati shakllangan bo'ladi, masalan, ularga qanday axborot kerakligini oldindan ayta olishadi, zaruriy ma'lumotlarni yozib olib, ularni umumlashtirishadi va h.k.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda pedagog andragog ta'lim oluvchilarda motivatsiya uyg'otib darslarni tashkil qilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

- Ishmuxammedov R., Mirsoliyeva M. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T., 2014.
- Namazov B., Fayziyeva M., Djalilov G. Media va axborot savodxonligi. Pedagoglar uchun metodik qo'llanma. – T., 2018.
- Змеев С.И. Основы Андрогогики: Учебное пособие для ВУЗов. – М.: «Флинта: Наука»б 1999.
- Ziyonet.uz materiallari.

UO'K 327.7

O'ZBEKISTONNING UMUMIY O'RTA TA'LIM SOHASIDAGI XALQARO HAMKORLIGI

Sadullayeva Vazira Ismatovna

Buxoro viloyati XTXQTMOHM Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi kafedrasida o'qituvchisi, O'zbekiston

E-mail: vazirasadullaeva85@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonning umumiy o'rta ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorligi, xalqaro iqtisodiy hamkorlik tashkiloti tomonidan o'tkaziladigan tadqiqotlar, PISAning asosiy vazifasi – a'zo mamlakatlarni ta'lim siyosatiga oid ma'lumotlar bilan ta'minlash, qarorlar qabul qilishda ularni qo'llab-quvvatlash, PISA va shu kabi xalqaro tadqiqotlarni o'tkazishga mas'ul bo'lgan alohida markaz tashkil etilganligi, O'zbekistonning 2021-yilda PISA xalqaro tadqiqotlarida muvaffaqiyatli ishtirok etishi va o'quvchilarning ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha ushbu dastur reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishdek ambitsioz maqsadlar yozilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro hamkorlik, xalqaro tadqiqot, PISA, TALIS, ta'lim, reyting, investitsiya, shartnoma.

UDC 327.7

THE INTERNATIONAL COOPERATION OF UZBEKISTAN IN THE SPHERE OF SECONDARY EDUCATION

Sadullaeva Vazira Ismatovna

Teacher of the Department of Methodology of Socio-Economic Sciences, Bukhara Regional In-Service and Retraining Center for Public Education Employees, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. The article discusses the issues of international cooperation of Uzbekistan in the field of secondary education, studies conducted by the international economic organization, the main tasks of PISA, providing member countries with information on educational policy and their support in decision-making, creation of a separate center responsible for conducting PISA studies and similar international studies, successful participation of Uzbekistan in PISA international studies in 2021 and getting into the top 30 leading countries in the ranking of educational achievements are mentioned.

Keywords: international cooperation, international studies, PISA, TALIS, education, ranking, investment, agreement.

O'zbekistonning umumiy o'rta ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorligini rivojlantirishga qaratilgan siyosati, ushbu yo'nalishga erishilgan yutuqlar va yangi imkoniyatlarini tushuntirishda "PISA va TALIS tadqiqotlari O'zbekistonga nima beradi?" – degan savolga javob topish zarur.

2020-yil mart oyida Xalqaro iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (OECD)ning ta'lim masalalari bo'yicha direktori Andreas Shlyayxerning O'zbekistonga tashrifi va OECD vakillari ishtirokida "PISA Launch in Uzbekistan" xalqaro forumini o'tkazish rejalashtirildi. Ushbu kelishuvga Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi vakillarining Fransiyaga xizmat safari doirasida Xalqaro iqtisodiy hamkorlik tashkiloti mutasaddilari bilan o'tkazgan muzokaralari davomida erishildi.

Mamlakatimiz 2021-yilda ilk marotaba PISA (15-16 yoshli o'quvchilar bilimini baholash bo'yicha xalqaro dastur) xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etadi. Xalqaro iqtisodiy hamkorlik tashkiloti tomonidan o'tkaziladigan tadqiqotlarda 90 ga yaqin davlat qatnashadi. Mazkur reyting natijalaridan kelib chiqib yurtimizning kelgusi rivojlanishiga baho beriladi. Uzoq muddatga xorijiy investitsiya kiritadigan yirik kompaniyalar tomonidan ushbu reyting natijalari inobatga olinishidan ham ushbu jarayon rivojlanayotgan mamlakatimiz uchun qay darajada muhim ekanini anglash mumkin.

Yurtimizda hukumat qarori bilan PISA va shu kabi xalqaro tadqiqotlarni o'tkazishga mas'ul bo'lgan alohida markaz tashkil etildi. O'zbekistonning 2021-yilda PISA xalqaro tadqiqotlarida muvaffaqiyatli ishtirok etishi va o'quvchilarning ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha ushbu dastur reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishdek ambitsioz maqsadlar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan qayd etildi¹³.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.

Xalqaro baholash tadqiqotlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish bo'yicha yetakchi davlatlar tajribasini o'rganish, tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, PISA tadqiqotida eng yuqori natijalarga erishib kelayotgan davlatlar (Finlandiya, Singapur, Estoniya, Janubiy Koreya)ning tajribasini o'rganish bo'yicha bildirilgan taklifni OECD vakillari to'liq qo'llab-quvvatladi va hamkorlar topish, ekspertlar yuborishda amaliy yordam berishga tayyorliklarini ma'lum qildi.

PISA loyihasi mas'ul xodimi Maykl Vord ushbu jarayonda O'zbekiston bilan doimiy ishlaydigan vakil etib belgilandi. Ushbu sohada tajribali mutaxassis hisoblangan Maykl Vord Ukraina uchun maslahatchilik qilmoqda. U ikki yil davomida, ya'ni PISA sinovlari o'tkazilib, natijalar tahlil qilinib, O'zbekiston rahbariyatiga taqdim etilgunga qadar yurtimizga doimiy tashrif buyurib turishi va mutaxassislarimiz bilan birga ishlashini ma'lum qildi.

Shuningdek, Xalqaro iqtisodiy hamkorlik tashkilotining TALIS (Teaching and Learning International Survey) xalqaro baholash tadqiqotlarida O'zbekistonning ilk ishtiroki yuzasidan kelishuv imzolash bo'yicha ham muzokaralar olib borildi.

TALIS o'qituvchilar faoliyati, ish sharoiti va maktabdagi ta'lim muhitini baholashga qaratilgan eng yirik xalqaro tadqiqot hisoblanadi. Uning maqsadi — ishtirokchi mamlakatlarga samarali o'qitish va o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan ta'lim siyosatini ishlab chiqishda yangi ustuvor yo'nalishlarni ko'rib chiqish va aniqlash imkonini beradigan ishonchli, dolzarb va qiyosiy ma'lumotlar taqdim etishdan iborat. Tadqiqotlar maktab o'qituvchilari va direktorlariga nafaqat milliy, balki xalqaro darajada o'z fikrini bildirish imkonini beradi.

Tadqiqotda 200 ta maktab, 4000 nafar o'qituvchi va 200 nafar maktab direktori ishtirok etadi. Ularni tanlash ham PISA tadqiqotlariga o'xshash bo'lib, qaysi bosqich o'qituvchilarini tanlash, nechta tilda so'rovnomalar o'tkazilishini belgilash OECD va davlat o'rtasida tuziladigan shartnomaga asosan ko'zda tutiladi. Ilgari TALIS tadqiqotlari har 5 yilda o'tkazilgan bo'lsa, endi 6 yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan. 2018-yilda o'tkazilgan TALIS xalqaro baholash tadqiqotlarida 48 ta davlat qatnashgan bo'lib, natijalari 2020-yili mart-aprel oylarida e'lon qilinadi¹⁴.

Ma'lumot uchun, Shanxayda TALIS–2013 natijalariga ko'ra muallimlar oylik maoshi 10 foiz oshirilgan. Avstraliyada o'qituvchilarning oliy ta'limdan keyingi tayyorgarligi bo'yicha yangi dasturlar joriy etilgan, professional standartlar yangilangan. Italiyada "Yaxshi maktab" loyihasi doirasida pedagoglar malakasini oshirish uchun qo'shimcha mablag' ajratilib, o'qituvchilarga haq to'lash tizimiga o'zgartirish kiritilgan. Bunda asosiy e'tibor o'qituvchilar faoliyati samaradorligiga qaratildi. Angliyada maktablar uchun 1 kun (yiliga 3 marta) davom etadigan "qisqa tekshiruvlar" joriy etilib, ushbu holat navbatdagi tadqiqotlarda pedagoglar tomonidan "yaxshi" deb baholangan.

O'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo'lib, uning natijalari asosida dunyo mamlakatlarini o'quv dasturlarida mavjud talablar doirasida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo'llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan. Shu bilan birga, bu hech qanday o'quv dasturini belgilamaydi, targ'ib qilmaydi va umumiy e'tirof etishni taqozo etmaydi.

PISA tadqiqoti Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), ya'ni Organization for Economic Cooperation and Development (OECD) tomonidan amalga oshiriladi. Tadqiqot ilk bora 2000-yil o'tkazilgan va 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi.

PISAning asosiy vazifasi a'zo mamlakatlarni ta'lim siyosatiga oid ma'lumotlar bilan ta'minlash, qarorlar qabul qilishda ularni qo'llab-quvvatlashdan iborat. Tadqiqotning har uch yilda o'tkazilishi esa mamlakatlarga siyosiy qarorlar va tegishli dasturlarning ta'sirini hisobga olish uchun ma'lumot va tahlillarni ichiga olgan holda o'z vaqtida axborot berish imkoniyatini yaratadi.

Shu bilan birga, mamlakatlar bu davr davomida o'z ta'lim tizimida kelajakda erishish ko'zda tutilgan maqsadlarni aniqlab olishiga imkon beradi¹⁵.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning umumiy o'rta ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorligi jamiyat taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarish borasida ilgari surilgan konseptual g'oyalar va xulosalarni hayotga tadbiq etish O'zbekistonda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga ko'maklashadi. O'zbekistonda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan xalqaro hamkorlik o'z samarasini bermoqda. Negaki ta'lim tizimida shaffof baholash tizimini joriy etish,

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-maydagi "Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-4342-son Qarori.

¹⁵ Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning – ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. T., O'zbekiston, 2019.

umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qish va ta'lim olish muhitini yanada yaxshilash pedagoglarning ish sharoitlarini yanada yaxshilash, ularning ijtimoiy himoyasini yuqori saviyada yo'lga qo'yish borasidagi ishlar yanada jonlandi.

Bularning hammasi xorijiy hamkorlik, xorijiy tajribalarni o'rganish asosida yuzaga keldi. Natijada O'zbekistonda jahon standartlariga javob beradigan, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga puxta zamin tayyorlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning – ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. T., O'zbekiston, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-maydagi "Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-4342-son Qarori.

UO'K 377:37.014.3

XALQARO BAHOLASH DASTURLARI (PISA, PIRLS, TIMMS, TALIS) – MATEMATIK SAVODHONLIKNI OSHIRISH ME'ZONI

Yunusova Gulshoda Nazihovna

PhD, NamDU "Amaliy matematika" kafedrasida dotsenti, O'zbekiston Respublikasi

E-mail: yunusova-gulshoda@mail.ru

Jo'raboyeva Nigora

NamDU "Amaliy matematika" yonalishi 4-kurs talabasi, O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya. Bu maqolada Pisa tetslarining mazmuni va ulardan foydalanish usullari yoritilgan. Testlarning ishlanishi mamalakatni bu sohada nechanchi o'rinni egallashini aniqlaydi hamda o'ziga xos sababli va hukmli tasnif beradi.

Kalit so'zlar: xalqaro baholash dasturlari (PIZA, PIRLS, TIMMS, TALIS), matematik savodxonlik.

UDC 377:37.014.3

INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS (PISA, PIRLS, TIMMS, TALIS) - CRITERIA FOR IMPROVING MATHEMATICAL LITERACY

Yunusova Gulshoda Nazihovna

PhD, associate professor of "Applied Mathematics", Namangan State University, Republic of Uzbekistan

Juraboyeva Nigora

4th year student in "Applied Mathematics", Namangan State University, Uzbekistan

Brief abstract. This article explains the content of Pisa tests and the reasons for their use. The development of the tests will determine the country's position in this area and provide a causal and judgmental classification.

Keywords: International assessment programs (PIZA, PIRLS, TIMMS, TALIS), mathematical literacy.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilish portalida Vazirlar Mahkamasining "Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan o'tkaziladigan PISA va TALIS xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish to'g'risida"gi qarori loyihasi e'lon qilindi¹⁶.



¹⁶ Youtube materiallaridan foydalanildi, O'zbekiston Respublikasida rashkil etilgan makaz ishlari va webinarlari materiallari o'rganildi.

Hujjat bilan Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Xalq ta'limi, Tashqi ishlar, Adliya, Innovatsion rivojlanish, Moliya va Iqtisodiyot vazirliklarining O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan o'tkaziladigan PISA va TALIS xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish to'g'risidagi hamda Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi qoshida ta'lim sifatini baholash bo'yicha "Xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazini tashkil etish bo'yicha bergan takliflariga rozilik berilishi mumkin. Quyidagilar Milliy markazning asosiy vazifalari va faoliyatining yo'nalishlari etib belgilanadi:

- xalqaro baholash dasturlari va tanlovlarini tashkil etish hamda muvofiqlashtirishda O'zbekiston Respublikasining milliy vakili sifatida ishtirok etish;
- o'quvchi-yoshlarining savodxonligini hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini rivojlantirish borasida davlat va nodavlat tashkilotlarining faoliyatini muvofiqlashtirilishini ta'minlash;
- ta'lim tizimida o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish;
- ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o'rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va bajarish, xalqaro ilmiy anjumanlar va Youtube materiallaridan foydalanildi, O'zbekiston Respublikasida tashkil etilgan makaz ishlari va webinarlari materiallari o'rganildi. Ta'lim sifatini baholash sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar o'tkazish¹⁷;

Xabaringiz bor, yurtimiz 2021-yilda ilk marotaba PISA, PIRLS xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etadi. Mazkur jarayonga munosib tayyorgarlik ko'rish maqsadida Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etilgan bo'lib, markaz tomonidan mamlakatimiz ta'lim sifatiga xalqaro darajada baho beriladigan mazkur sinovlarga munosib tayyorgarlik ko'rish bo'yicha rejali ishlar amalga oshirilmoqda¹⁸.



Pisa o'zi nima?- degan savolga avval javob beramiz.

PISA (*inglizcha - Programme for International Student Assessment*) – turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur. Bu dastur 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo'llanilgan. Bu dastur bo'yicha har uch yilda o'quvchilarning bilimini baholash maqsadida sinovlar o'tkaziladi. Hozirgi kungacha jami 7 marta (2000-, 2003-, 2006-, 2009-, 2012-, 2015- va 2018-yillar) PISA dasturi bo'yicha testlar o'tkazilgan bo'lib, keyingi sinovlar 2021-yilda bo'lishi rejalashtirilgan. Mamlakatimiz ham 2021-yildan bu dasturga qo'shilishga tayyorgarlik ko'rmoqda¹⁹.

¹⁷ Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi shlari youteb.com dan o'rganildi, tahlil etildi.

¹⁸ Internet manbalari

¹⁹ www.google.com habarlari



Bu 15 yoshli bolalarni real hayotdagi muammolarni maktabda olgan bilimlaridan qanday foydalanishlarini, qoʻllay bilishlarini aniqlaydigan va tahlil qilish va ularni kerakli tarzda rivojlantirishdir. PISA mamlakatlarda taʼlim qanday oʻrinda turishini boshqa mamlakatlar bilan qiyosiy oʻrnini belgilab beradi. 15 yoshli yoshlar aynan maktabdagi bilimlarga tayanib oʻzlarining biror yoʻnalishni tanlash arafasida turishadi, maktabda olgan bilimlarini ular qanday qoʻllay bilishlari esa eng muhim masalalardan biridir.



PISAni fandagi mavzularni oʻquvchilar toʻtiqush kabi yodlab olganlari kam qiziqtiradi. PISA bolalarning olgan bilimlaridan foydalanib, ularni taqqoslash, tahlil qilish va eng toʻgʻrisini aniqlash jarayonlar bilan qiziqadi. Dunyo boʻyicha bolalarning bilimlari qaysi oʻrinni egallaganliklarini aniqlashga yordam beradi. Pisa oʻqish, matematika, fan kabi sohalarni qamrab olinishini taʼmunlaydi.

Keling, matematika oʻid PISA dasturi masalalarining ayrimlari bilan tanishaylik. PISA platformasi 2021-yilda shu koʻrinishida paydo boʻladi.

Bunga oʻid matematik misollarni oʻquvchilarga tanishtirib borgan yahshidir. Matematikaga oʻid 13 yoshlik bolalarga “Plitka yotqizish masalasi”, 15 yoshli oʻquvchilarga “Daraja hossalarning goʻzalligi”, “Tomchi tushish tezligi”? “Qaysi mashina?” kabi masalalari birgalikda tahlil etilishi mumkin.

Masalan, “Daraja hossalarning goʻzalligi” masalasida, darajalar bilan bogʻliq mashqlarda bolalarga:

$8 \times 8 \times 8 \times 8 = 8^4$, $7 \times 7 \times 7 \times 7 \times 7 = 7^6$ qaysi biri katta? Kabi savol tushsa bola tahlil qilib topishi kerak. Bola taqqoslashni, fikr yuritishni toʻgʻri amalga oshirishni bilishi talab etiladi, nazariy va amaliy bilimlarini qoʻllay olishi tekshiriladi. Mashq bajarishda togʻri va notoʻgʻri misollarni belgilash talab etilishi mumkin.



Masalan, 8^{10} soni 8 dan necha marta katta? Degan savolga bola shoshilib 10 marta deb javob berishi mumkin. Aslida esa $8 \times 8 \times 8 \times 8 \times 8 \times 8 \times 8 \times 8 \times 8 \times 8 = 8^{10}$, bu yerda esa 8, U sonidan $8 \times 8 \times 8 \times 8 \times 8 \times 8 \times 8 \times 8 = 8^9$ marta kichikligini tushunish malakasini bolaga oʻqtrish zarur boʻladi, bu turli mashq va misollar yechib shakllantiriladi.



Keyin savollarni notog'ri yoki to'g'ri bo'lishi, bo'lmasligi va ba'zan noto'g'ri, ba'zan to'g'riligini belgilashga va savollarni echish amalga oshiriladi. Ularga to'g'ri javob topish kerak bo'ladi. Masalan, 4 ga bo'linadigan sonlar 2 ga ham bo'linadi. Chunki 2 soni 4 sonining bo'luvchisi. 9 ga bo'linadigan son 6 ga ham bo'linadi degan gap? Ba'zan to'g'ri, ba'zan noto'g'ri. Misol uchun 27-9ga bo'linadi, 6 ga bo'linmaydi. Keyingi mulohaza: Ikki sonning yig'indisi toq son bo'ladi. Bu mulohaza hech qachon to'g'ri bo'lmaydi. Undan tashqari boshqa mashqlarni ham bajarish kerak bo'ladi.


Bundan tashqari, matematikaga oid Pisa topshirig'i tuzilmasi matematik mazmun, model tushunchasi, foydalanish mumkin bo'lgan fazo va shakllar o'zgarish va munosabatlar bo'lishi mumkin. PISA 2021 platformasida matematik savollar, matematik miqdorlar, munosabatlar bo'lishi mumkin. Shaxsiy kontekst keyingi savolda kasbiy kontekstga o'tishi mumkin. Har bir savol kirish qismidan iborat bo'ladi.




Shakllarni bir-biriga solishtirish savollari ham bolaning topqirligiga bog'liq. Bolalar rasm, jadval, shemalar bilan ishlashni bilishlari zarur.




Plitka yig'ish masalasi. A va B plitkalaridan foydalanib plitka terish kerak bo'ladi. To'garak masjid'ulotlarida turli plitkalarini terishni talab etuvchi mashqlar, bolalarning solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish kabi tomonlarini rivojlanganligini aniqlashga yo'nalirilgan.




A va B plitkalaridan plitkani to'ldirish yoki terish masalasi amalga oshiriladi. Masala turli hil plitkalarni terilishini talab etib murakkablashtirilishi mumkin bo'ladi. Ranglar berib bu yerda plitkalarining ko'rinishi va turini ajratish mumkin bo'ladi.



A ko'rinishidagi plitkalarni ajratilgan bo'lsa, keyin bolalar B ko'rinishidagi plitkalarni ajratib plitkani ohirigacha manzarasini terib chiqishlari mumkin bo'ladi.



Bu Plitka terish masalasi asta-asta murakkablashib, plitkani ABC ko'rinishidagi plitkalaridan iborat kattaroq plitka orqali amalga oshirib, ularni plitka teradigan joydan topib, bolalar vazifani bajarishlari va kattaroq maydonga plitka terishlari kerak bo'ladi.



ABC sohalari bo'yicha belgilab turish mumkinligi aniqlanadi va teriladi, aks holda boshqa plitka rasmi tanlanib uning teriladigan joyga mosligini tekshiriladi. Pisa bo'yicha materiallarni o'rganib va ularni informatika, matematika o'qituvchisiga darsdan tashqari to'garak darslarida foydalanishni taklif qilamiz [1,2,3]. [1,2,3].

Adabiyotlarni o'rganib shunday xulosaga keldikki, PISA testlari, mashqlari o'quvchilarda o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha olingan bilimlarini hayotga tadbiq qilishlarini va ularni qo'llashni bilishlari, hamma mamlakatlarda tekshirilib, bolalar bilimlari qiyosiy taqqoslash orqali solishtirilib, reytingda nechanchi o'rinda turishini ko'rsatadi [1,2,3].

Shunday ekan, biz o'quvchilarni o'sha vaqtga yahshi tayyorlab borishimiz kerak bo'ladi, yani hozirda 14 yoshga kirganlar bilan shunday testlar ustida alohida to'garak ishlarini amalga oshirilishini tavsiya etamiz. Bu ko'rinishda testlar fan, ta'lim va matematikani bilish uchun omil sifatida foyda beradi va insoniyat taraqqiyoti uchun o'z hissasini qo'shadi. Bu bilan PISA testlari qaysi mamalakat kelajakda raqobatbardosh mamlakat bo'lishini aniqlab beradi.

Internet manbalari/Internet recourses

1. <https://www.innove.ee/wp-content/uploads/2019/02/Pisa2009-vene.pdf>
2. http://briop.ru/images/ACCYL/Методика/Задачи_на_грамотность_чтения.pdf
3. <https://rosuchebnik.ru/material/issledovaniya-pisa-2018-v-rossii/> .

UO'K 373.51:54.06

O'QUVCHILAR TABIIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA YOZGI TA'TILDA TASHKIL ETILADIGAN "ONLAYN-TO'GARAK" LARNING ROLI VA ULAR ORQALI TA'LIM SIFATINI YAXSHILASH

Raximova Soxilaxon Uzganovna

Namangan viloyati Uychi tumani 24-umumiy o'rta ta'lim maktabi I-toifali kimyo fani o'qituvchisi, Xalq ta'limi a'lochisi, O'zbekiston Respublikasi, E-mail: soxila0469raximova@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada o'quvchilar tabiiy savodxonligini oshirish orqali ta'lim sifatini yaxshilashda "Onlayn-to'garak"larning roli hamda unga doir "Savodxon o'quvchi" tanlovi, PISA test namunalari, video-savollar, o'quvchilarni erkin fikrlash qobiliyatini oshiruvchi mantiqiy savollar, "Muammoli topshiriq"li o'yinlar haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: "onlayn-kimyogar" to'garagi, "Savodxon o'quvchi" tanlovi, PISA test namunalari, video-savollar, mantiqiy savollar, onlayn-testlar, "Muammoli topshiriq"li o'yin.

UDC 373.51:54.06

THE ROLE OF "ONLINE CLUBS" AND IMPROVEMENT OF THE QUALITY OF EDUCATION BY THEIR HELP AT INCREASING NATURAL LITERACY OF STUDENTS DURING SUMMER HOLIDAYS

Rahimova Sohilaxon Uzganovna

Chemistry teacher of the 1st category, secondary school No.24, Excellence in Public Education, Uychi district, Namangan region, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. The article is said about the role of "online clubs" and improvement of the quality of education by their help during summer holidays at increasing natural literacy of students organizing actions like "Literate student" competition, PISA test samples, video questions, logical questions for increasing students' ability of independent thinking and problem-solving games related to the topic.

Keywords: “Online-chemist” circle, “Literate student” competition, PISA test samples, video questions, logical questions, online-tests, challenging task game.

Zamonaviy bilimlar sari keng yo‘l ochish, ta’limni takomillashtirishda pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning eng asosiy talablaridan biridir. O‘qituvchilar ta’lim jarayonida foydalanib kelingan an’anaviy usullardan voz kechib, o‘zining pedagogik mahorati, bilimini ishga solib zamonaviy pedtexnologiyani no’an’anaviy usullaridan foydalanib ta’lim sifati va o‘quvchilar bilim samaradorligini rivojlantirmoqda.

Hozirda interfaol mashgulotlarni olib borishda ma'lumki, interfaol usullar qo‘llanilmoqda. Kelgusida esa bu usullar ma'lum darajada interfaol texnologiyaga o‘z o‘tishi maqsadga muvofiq. Bu interfaol usul va texnologiya tushunchalarining o‘zaro farqini shunday ta’riflash mumkin. Interfaol ta’lim usuli har bir o‘qituvchi tamonidan mavjud vositalar va o‘z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bu o‘z o‘rnida har bir tizim xodimi, ayniqsa, o‘qituvchilar zimmasiga yanada yuksak mas’uliyat va vazifalarni yuklaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan (PF – 5712, 29.04.2019 y) “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” ishlab chiqildi. O‘zbekiston Respublikasi 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish maqsadi qo‘yilgan. Bu borada o‘quvchilarni tabiiy savodxonlik bo‘yicha bilimlarini oshirib borish biz o‘qituvchilarni oldiga bir qator vazifalarni qo‘yadi. Bugungi kundagi biz o‘qituvchilarning asosiy vazifasi o‘quvchilarni tabiiy savodxonligini oshirish bo‘yicha tayyorlab borishdan iborat.

Quyida kimyo fani misolida o‘quvchilarni yozgi ta’tilini mazmunli tashkil qilish hamda o‘quvchilar tabiiy savodxonligini oshirish maqsadida rejalashtirilgan **“Onlayn-kimyogar”** to‘garagining maqsad va vazifalari, shu o‘rinda olib borilayotgan ishlar hamda taklif va mulohazalar to‘g‘risida to‘xtalmoqchiman.

“Onlayn-kimyogar” to‘garagining maqsadi:

- O‘quvchilarni yozgi ta’tillarini mazmunli tashkil qilish, bo‘sh vaqtlaridan unumli foydalanishlariga yordam berish;

- O‘quvchilar tabiiy savodxonligini oshirib borish orqali PISA Xalqaro baholash dasturiga tayyorlab borish;

- O‘quvchilarni kimyo faniga qiziqtirish orqali kelgusidagi kimyo fanini o‘rgatishni osonlashtirish;

- O‘quvchilarni erkin fikrlash, kreativ yondashuv, ijodkorligini oshirish orqali ta’lim sifatini yaxshilash.

“Onlayn-kimyogar” to‘garagining vazifalari:

1. **“Onlayn-kimyogar”** to‘garagining ish rejasini tuzish.
2. O‘quvchilar telegram guruhini shakllantirish. Agar o‘quvchilar soni ko‘p bo‘lsa sinflar kesimida yoki, 7-8-sinflar, 9-10-sinflar uchun alohida kanallar ochish.

3. Imkon darajasida beriladigan topshiriqlarni qiziqarli tarzda berish.

4. Onlayn teledasturlardan unumli foydalanish.

5. Tabiiy savodxonlik bo‘yicha PISA testlar tuzish va ulardan mashg‘ulotlar davomida samarali foydalanish.

6. Turli tanlovlar tashkil qilish. Masalan, **“Savodxon o‘quvchi”** tanlovi.

7. **“Video-savol”** lardan unumli foydalanish.

8. **“Onlayn test”** lar tashkil qilish.

9. O‘quvchilar tabiiy savodxonligini oshirishga moslangan muammoli savol-javob o‘yinidan foydalanish.

10. Har doim o‘quvchilarni rag‘batlantirib borish.

Biz tashkil qiladigan to‘garagimiz orqali ta’limni uzviyligini ta’minlaymiz. Bu borada dastlabki ishlar boshlab yuborilgan. Har bir sinf telegram kanaliga **“Onlayn-kimyogar”** to‘garagi haqida e’lon berilgan bo‘lib, hozirda o‘quvchilar shu guruhga a’zo bo‘lish istagida murojaat qilmoqdalar.

“Savodxon o‘quvchi” tanlovining I-bosqichi boshlangan. Shu tanlovning dastlabki ko‘rinishidan lavhalar:

Diqqat tanlov!

Hurmatli o‘quvchilar! Bugundan boshlab, o‘quvchilarni ijodiy, ilmiy hamda tabiiy savodxonligini oshirib borish maqsadida **“Savodxon o‘quvchi”** tanlovi o‘tkaziladi. Sharti shuki, men topshiriqni, topishmoq yoki savolni she’riy tarzda beraman, siz ham javobni she’riy tarzda berasiz. Topshiriq har kuni erta tongda beriladi. Javoblar kechki soat 20.00. gacha qabul qilinadi. Javoblarga ball qo‘yib boriladi va ballar hozircha e’lon qilinmay turadi. Eng yuqori ball to‘plagan o‘quvchi g‘olib sanaladi. *Sovg‘asi hozircha sir.*

Kunlar	Diqqat tanlov! “Savodxon o‘quvchi”	
	O‘qituvchi savoli	O‘quvchi javobi
1-kun	Palag‘da tuxum hididan ko‘nglim bo‘lur behuzur, Nechun ona tovug‘im parvoyi-palak tuxum ustida yotur?	1-o‘quvchi: Mening ona tovug‘im hidni sezmas erta-kech, Cunki, hid bilish sezgisi rivojlanmagan hech.
2-kun	Uyg‘onib, ko‘zim tushdi subhidam, Atirgul bargiga qo‘nibdur shabnam. Tabiat ishig‘a loldurman bu dam, Qayoqdan kelgaydur gullarga shuncha nam?	Erta tongdan sayraydi bulbul, Derazam tagida chiroyli bir gul. Negadir u gulning ustida bor nam, Shudring emishki keyin bilsam. Shudring tushishin sababin aytay, Tunda bo‘lgan bug‘ menimcha shunday.
3-kun	Yashil barglar yorug‘da fotosintez qiladi, Kislorod hosil qilib, havoni to‘ldiradi. Ammo, qishda barg bo‘lmas, kislorod hosil bo‘lmas, Garchand shunday bo‘lsa-da, nega kislorod tugab qolmas?	Chunki bizda qish bo‘lsa, o‘zga yurtda yoz bo‘lar. O‘zga yurt o‘simligidan kislorod ham soz bo‘lar. Shamollar hisobiga kislorod yetib kelar, Shunga qishda ham kislorod yetarli bo‘lar.
4-kun	Plastmassadan yasalgan ikki idishni oldim, Biriga qaynoq suv quyib, biriga qizigan yog‘ soldim. Qaynoq suvli idishim, o‘zgarmadi, erimay, Yog‘li idish eridi, o‘zdan asar qoldirmay. Nega?	Suv qaynaydi yuz gradusda, Yog‘niki esa undan yuqori. Shu sababdan bo‘lsada, Erishi mumkin hatto rezinka. Yuqori gradusda yonar hatto yog‘ ham, Endi o‘ylab ko‘raylik!

Bunday usul bilan o‘quvchilarni tabiiy savodxonligini oshirish bilan birga ularni erkin fikrlashi, bilimi, ijod qilish uchun izlanishi orqali ko‘p narsa va hodisalarga e‘tiborini kuchaytirib boriladi. Bu usulning afzalligi shundaki, savolga javob topish uchun o‘quvchi izlansa, savol tuzish uchun o‘qituvchining o‘zi ham izlanadi, o‘z ustida ishlashga majbur bo‘ladi. Bu esa o‘qituvchiga ham, o‘quvchiga ham estetik zavq beradi. Bunga o‘z tajribam orqali amin bo‘ldim.

“Tabiiy savodxonlik” bo‘yicha PISA test namunalari.

1. Tilla taqinchoqlarni mis va oltin qotishmasidan tayyorlanadi. Ularga sonli proba qo‘yiladi. Nima sababdan tilla taqinchoqlarni sof oltindan yasalmaydi?

- A. Oltinni tejash uchun
- B. Oltin yumshoq bo‘lgani uchun
- C. Zargarlarning hiylasi
- D. Oltin bilan mis o‘xshash bo‘lgani uchun.

2. Nima uchun yodni aynan tuzga solinadi, suv yoki nonga qo‘shib iste‘mol qilmaymiz, axir ularni ham har kuni iste‘mol qilamizku?

- A. Aptekadagi yo‘d tarkibida spirt bor
- B. Yod non tarkibidagi kraxmal bilan reaksiyaga kirishib, ko‘k rangli modda hosil qiladi. Shuning uchun osh tuziga qo‘shiladi.
- C. Oz miqdorga suvga qo‘shib ichish mumkin
- D. Yod qimmat

3. Erta turib hamir qordim. Ancha vaqtdan so‘ng qaragam hamir oshib, hattoki tog‘oradan toshib ketibdi. Nega hamirdan spirt hidi kelmoqda?

- A. Achitqi solingani uchun
- B. Achitqida spirti bor
- C. Achitqidagi achitqi zamburug‘i tufayli un tarkibidagi kraxmal spirt va karbonat angidrid hosil qilgan.
- D. Tuz va yod borligi uchun

“Tabiiy savodxonlikni oshirish”ga doir “**video-savol**”lardan foydalanish katta samara beradi. Video-savolni tuzishda mahalliy sharoitdan kelib chiqilgan. Bu esa o‘quvchilarni erkin fikrini bayon etish imkonini beradi. Har bir javob inobatga olinadi.



Video-savol: Yog'lama bo'lib ketgan idishlarni kul qo'shib qaynatsam oson ketdi. Nega sovuq suvda bunday bo'lmadi. Sodali suvda qaynatsa ham bo'ladimi?

Video-savollarni tuzishda o'quvchilarning o'zlaridan foydalanish ham mumkin.



Video-savol: Gazsiz suv ichganimizda shirin mazaga ega bo'ladi, gazli suv ichganimizda nordon bo'ladi. Buning sababi nimada?

Laboratoriya tajribasini o'zimizdan kelib chiqib, video-darslardan olamiz.

TOPSHIRIQ: Laboratoriya tajribasi		Mantiqiy savol-javob		
	<p>2 ta paketdan birida osh tuzi, ikkinchisida soda bor. Ulardan ozginadan olib stakanlarga solinadi va distillangan suvda eritiladi. Probirkalarga quyib fenoltalein indikator yordamida tekshiriladi.</p>	T/r	Savollar	
				O'quvchilar fikri
		1	Natriy xloridning suvli eritmasi ishqoriy muhitga ega emas, nega natriy karbonatning suvli eritmasi ishqoriy muhitga ega?	

Quyidagi "Muammoli topshiriq"lardan ham foydalanish mumkin.

I BOSQICH SAVOLLAR	50
<p>Savol: Nima sababdan tarkibida 70% kraxmal bo'lgan bug'doydan sumalak qilinadi-yu, tarkibida 80% kraxmal bo'lgan sholidan qilinmaydi?</p>	
<p>Javob: Chunki, bug'doyning po'sti yupqa bo'lganligi uchun uni po'sti yo'q holatida undirish mumkin. Shu sababdan tarkibida 70% kraxmal bo'lgan bug'doydan sumalak qilinadi. Ammo tarkibida 80% kraxmal bo'lgan sholini po'sti qattiq bo'lib, agar uni archilgan holda suvga uzoq vaqt solinsa u unib ehiqish o'rniga achiydi. Shuning uchun undan sumalak qilinmaydi.</p>	

Taklif: Hozirgi sharoitda ana shunday usullardan foydalanib, o'quvchilarni tabiiy savodxonligi onlayn tarzda oshirish imkonimiz bor. Bunday topshiriqlarni tayyorlashda oila a'zolarimizdan, o'quvchilarni o'zlaridan ham foydalanishimiz mumkin. Bunga o'qituvchidan xohish va ozgina ijodkorlik talab etiladi. Bunday "Onlayn-to'garaklarni" barcha fanlarga qo'llasa bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, bunday interfaol mashg'ulotlarni tashkil etilishi oqituvchi va o'quvchi o'rtasida faollikni kuchayishiga olib keladi, o'tilayotgan mashg'ulotlarni, ta'lim sifatini va samaradorligini yanada oshishiga yordam beradi. Bunday usullarni ketma-ket qo'llanilsa, o'quvchilarda erkin fikrlash ko'nikmasi paydo bo'ladi, tabiiy savodxonligi ortib boradi. Tabiiy savodxonligi yuqori o'quvchi har qanday muammoni hal qila oladi hamda PISA xalqaro baholash dasturida ham yuqori natijalarga erisha oladi. Barcha fanlar kabi kimyo fanini o'qitishni yaxshilash, o'qitishga intilish yuzasidan bor imkoniyatlardan to'la qonli foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Mirziyoyev Sh.M. "Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir". T.:O'zbekiston, 2019.
2. Barkamol avlod orzusi. Tuzuvchilar: Qurbonov Sh., Saidov X., Axliddinov R. Toshkent. Sharq. 2000.
3. Masharipov S. Mutalibov A. Murodov E. Islomova H. Umumiy kimyo. 11-sinf uchun darslik. Toshkent. 2018-yil. 160 b, 58-60 betlar.
4. Ibrohimjon Asqarov, Kamoliddin G'opirov, Nozimjon To'xtoboyev. KIMYO. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik, Toshkent — «MITTiylUDUZ» — 2019. 208 b. 116-122, 134-135 betlar.
5. Ibrohimjon Asqarov, Kamoliddin G'opirov, Nozimjon To'xtoboyev. KIMYO. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik, Toshkent — «MITTiylUDUZ» — 2019. 208 b. 32-35, 53, 77-80, 137-139 betlar.
6. O. Mavlonov. BIOLOGIYA (ZOOLOGIYA) Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent – 2017. 208 b, 147-bet.

UO'K 37.014.256

UMUMTA'LIM MAKTABLARINING BOSHLANG'ICH SINFLARIDA XALQARO BAHOLASH DASTURINI TATBIQ ETISH

Ko'chqorova Muhabbat Saloydinovna

*Namangan viloyati Chust tumani 68-umumiy o'rta ta'lim maktabi
1-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasi*

Annotatsiya. Ushbu maqoladan umumta'lim muassasalarida sinfda, sinfdan tashqari to'garak mashg'ulotlari davomida o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish, berilgan topshiriqlarni bajarish orqali ularning ijodiy, mantiqiy, tanqidiy fikrlash va hayotiy muammolarni hal qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish, bu borada o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlarni aniqlashda foydalanish mumkin.

Tayanch so'zlar: PISA, matn, o'qish savodxonligi, ifodali o'qish, hikoya qilish, mustaqil fikrlash, baholash mezonlari, to'g'ri javob.

UDC 37.014.256

IMPLEMENTATION OF THE INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM IN PRIMARY CLASSES OF SECONDARY SCHOOLS

Kochkarova Muhabbat Saloydinovna

*Primary school teacher of 1st category of secondary school No.68, Chust district, Namangan region,
Republic of Uzbekistan*

Brief abstract. This article aims to improve students' reading literacy in the classroom, in extracurricular activities in general education institutions, to develop their creative, logical, critical thinking and problem-solving skills by completing assigned tasks that can be used to identify gaps in students' knowledge.

Keywords: PISA, text, reading literacy, expressive reading, storytelling, independent thinking, evaluation criteria, correct answer.

O'quvchilarning tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish malakalari va kompetensiyalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish, o'quvchilarning bilim darajasini baholashda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish bugungi uzluksiz ta'limning oldida turgan dolzarb vazifadir.

O'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro dastur –PISA;

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnini o'qib tushunish darajasini baholash xalqaro dasturi – PIRLS;

O'quvchilarning matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash dasturi –TIMSS;

Mazkur maqola PISA dasturining o'qish savodxonligi yo'nalishiga oid mavzuda tayyorlangan.

O'quvchilarni tushunib, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish, o'qish darslarida tarbiyaviy madsadlarni amalga oshirish maktabning barcha bosqichlarida ham muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining to'g'ri, tushunib va belgilangan me'yorda ifodali o'qish malakalari yaxshi rivojlansa, ta'limning keyingi bosqichlarida muvaffaqiyatlarga erishadilar.

Badiiy asarni ifodali o'qish va hikoya qilish o'sha asarning g'oyaviy mazmunini, badiiy xususiyatini ochishga yordam beradi. Maktabda ifodali o'qish, hikoya qilish mashg'ulotlarini to'g'ri yo'lga qo'yish va ularni yuqori saviyada o'tkazish o'qituvchidan puxta tayyorgarlik, mavjud tajribalardan ijodiy va samarali foydalanishni talab qiladi. Ifodali o'qish va hikoya qilish bilan o'quvchilar badiiy asarning g'oyaviy mazmunini yaxshi bilib oladilar va asar qahramonlari qiyofasi, harakatlari ularning ko'z o'ngida yaqqol namoyon bo'ladi.

O'qituvchi har bir matnni o'tishda uni o'zi yuksak badiiy mahorat bilan o'qishi lozim, chunki mahorat bilan o'qilgan matn o'quvchilar ko'z o'ngida hayot lavhalarini gavdalandiradi, ularga ma'naviy ozuqa beradi.

O'qituvchining ifodali o'qishi ko'rsatmalilikning eng asosiy ko'rinishidir.

Ifodali o'qishning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan ikki asosiy xususiyatga amal qilish lozim:

1) to'g'ri talaffuz me'yorlariga amal qilish;

2) o'qish vaqtida adabiy asarda ifoda etilgan his-tuyg'uni, yozuvchi yoki qahramonning ichki kechinmalarini, asarning mazmunini bera olish. Ifodali o'qish o'quvchini hayajonlantiradi, natijada ularda aybdorni jazolash, zaiflarni himoya qilish, ojizlarni dushmandan muhofaza qilish istaklari tug'iladi. O'quvchilar og'zaki nutqining ifodali, go'zal, ohangdor, ta'sirchan bo'lishiga yordam beradi.

Matn mazmunini hikoya qildirish o'quvchilar og'zaki nutqining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilarni mustaqil bilim olishga tayyorlash ishlari boshlang'ich sinflardan boshlanadi. Shuning uchun ham o'quv dasturlarida bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan. O'quvchilarni darsda mustaqil ishlashga odatlantirish katta ahamiyatga ega bo'lib, barcha o'quvchilar mustaqil ish bilan band bo'lganlarida o'qituvchi ayrim o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlab, ularga tegishli yordam berishi uchun imkoniyat paydo bo'ladi.

Aniqlangan bo'shliqlarni bartaraf qilishda o'quvchilarga alohida topshiriqlar berish natijasida xotirasi sust, og'zaki va yozma nutqi yaxshi rivojlanmagan bolalar ham yaxshi o'qiydigan tengdoshlariga tenglashib oladi. Sinfdoshlaridan tortinmaydi, tengdoshlari bilan bahsga kirishadi. Ularda mustaqil ishlash ko'nikmasi paydo bo'ladi. Jamoat ishlarida ham faolligi ortadi.

PISA – o'quvchilarning o'qish (matnni tushinish), matematika va tabiiy fanlardan savodxonlik darajalarini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo'lib, o'quvchilarning maktab davrida orttirgan bilim va ko'nikmalarini real hayotiy vaziyatlarda qay darajada qo'llay olishlarini aniqlashga mo'ljallangandir. Shuningdek, PISA dasturi o'quvchilarning ta'lim olishga bo'lgan munosabati va motivatsiyasi haqida qimmatli ma'lumotlarni to'plash bilan birga, ularda muammoni hal qila olish kabi ko'nikmalarni ham baholaydi.

PISA muayyan maktab o'quv dasturining ustunliguni emas, balki o'quvchilarning asosiy mavzularda bilim va ko'nikmalarini qo'llay olish qobiliyati, muammolarni tahlil qilish, sharhlash va samarali hal qilish, fikrlash va muloqot qilish imkoniyatlarini o'rganadi.

O'quvchilar maktabda o'rganishi lozim bo'lgan barcha bilimni to'liq o'zlashtira olmaydilar. Samarali o'rganuvchi bo'lish uchun nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki ular qanday va nima uchun o'rganilishi haqida xabardor bo'lishi lozim.

PISA tadqiqotida topshiriqlar savollarning murakkablik darajasidan kelib chiqqan holda, o'quvchilar tomonidan berilgan javoblarning to'liqligiga qarab, "javob to'liq qabul qilinadi", "javob qisman qabul qilinadi", "javob qabul qilinmaydi" mezonlari bo'yicha baholanadi.

4-sinf "O'QISH KITABI" darsligidagi Xondamirning "Tanbeh" hikoyasi asosida PISA topshiriqlarini qo'llaymiz.

TANBEH

Amir Alisher 1448-yili Hirotning Jome masjidini ta'mirlashga urinayotgan edi. Binoning yozuvlarini yozib berish Mirak naqqosh taxallusi bilan mashhur bo'lgan Said Ruhulloga topshirilgan edi. U beparvolik qilib, ishga kechikibroq qo'l urdi. Naqqoshlar unga qarab ish boshlolmay turdilar.

Ishboshilar Mirak naqqoshga nasihat ham, do'q-po'pisa ham qilib ko'rdilar. Lekin foydasi bo'lmadi. Ahvolni ulug' amirga arz qildilar. Amir qiziq bir tadbir ishlatdi. O'sha payt Mirak naqqosh Hirotni atrofidagi Saidravon qishlog'ida dam olayotgan edi. Amir Alisher Jalolliddin munshiyini chaqirtirib buyurdi:

- Said Ruhullo devoni oliyga besh ming dinor qaytarishi zazurligi haqida hujjat tayyorlang.

Maktub keltirilgach, amir Alisher Said Ruhullo tanimaydigan ikki navkarni chaqirtirib keltiribdi. Hujjatni ularning qo'lga topshirib buyurdi:

- Saidravon qishlog'iga boringlar, Mirak naqqoshni topib, qayd etilgan mablag'ni siyosat bilan talab qilinglar, o'zlarimizni esa shahzoda Faridun Husayn mirzoning navkarlari deb tanishtiringiz.

Navkarlar Saidravon qishlog'iga bordilar. Mirak naqqoshni topib, giribonidan oldilar va hujjatda ko'rsatilgan mablag'ni talab qildilar. Said Ruhullo hayrat dengiziga cho'mdi, so'ng vaziyatni hisobga olib, yalinib –yolvorishga tushdi:

- Hoy birodarlar, meni masjidi jomega olib boringlar, agar hoziroq ishga tushmasam har narsa bo'lay.

Navkarlar uning arz-dodini qabul qildilar. Said Ruhulloni Hirotga olib bordilar. Amir Alisher masjid qurilishi tepasida ekan. Naqqosh uning oyoqlariga yiqilib zorlandi:

- Kambag'allik nihoyasiga yetgan shunday bir paytda besh ming dinorni bandaning zimmasiga yozibdilar. Bandaga rahm qilib, shu qog'ozni qaytarib olish chorasini ko'rsalar, abadul abad ota-bobomning rahmatiga musharraf bo'lur edingiz.

Amir janoblari dedilar:

- Hujjatni qaytarish mushkul, shunday bo'lsa ham bir qadar uriinib ko'rurimiz. Faqat shu shart bilanki, siz ham o'n besh kun ichida ushbu muborak manzilning tashvishlaridan ko'nglimizni tinchitib qo'ysangiz.

Mirak naqqosh ulug' amirning shartini qabul qildi va mana bunday tilxat ham yozib berdi:

“Agar belgilangan muddatdan biror kun o'tkunday bo'lsa, banda mablag' xususida o'zini uzrsiz javobgar hisoblaydi”. Shudan keyin amir Alisher mulozimi Kamoliddin Husaynni chaqirtirib buyurdi:

- Mirak naqqoshni devonga olib boring, nima bo'lsa ham uning nomiga yozilgan hujjatning bekor qilinishiga ko'maklashing. Said Ruhillo xursand bo'ldi.

RIVOYAT YUZASIDAN SAVOLLAR

TANBEH

Xondamir

1-savol.

Naqqoshlar nega ish boshlolmay turdilar?

- A. Binoning yozuvlari yozilmagan edi.
- B. Bino bitmagan edi.
- C. Kun sovuq edi.
- D. Mablag' yetishmayotgan edi.

BAHOLASH MEZONI

Faoliyat: Ma'lumot topish.

Matn formati: Yaxlit.

Vaziyat: Jome masjidi qurilishida.

Javob to'liq qabul qilinadi: *A. Binoning yozuvlari yozilmagan edi.*

Javob qabul qilinmaydi: Boshqa javoblar.

2-savol.

Said Ruhullo ismi kimga tegishli?

- A. Alisher Navoiyga.
- B. Kamoliddin Husaynga.
- C. Mirak naqqoshga.
- D. Jaloliddin munshiyga.

BAHOLASH MEZONI

Faoliyat: Ma'lumotni topish.

Matn formati: Yaxlit.

Vaziyat: Jome masjidi qurilishida.

Javob to'liq qabul qilinadi: *C. Mirak naqqosh*

Javob qabul qilinmaydi: Boshqa javoblar.

3-savol.

Saidravon va Mirak naqqosh o'rtasidagi bog'liqlikni izohlang.

O'quvchilar javoblari tinglanadi.

BAHOLASH MEZONI

Faoliyat: Ma'lumot topish.

Matn formati: Yaxlit.

Vaziyat: Jome masjidi qurilishida.

Javob qabul qilinadi: *Mirak naqqosh Saidravon qishlog'ida dam olayotgan edi.*

Javob qabul qilinmaydi: Boshqa javoblar.

4-savol.

Siz Alisher Navoiy ko'rgan tadbirini qanday izohlaysiz?

Fikringizni bayon eting.

BAHOLASH MEZONI

Faoliyat: Ma'lumotni baholash.

Matn formati: Yaxlit.

Vaziyat: Jome masjidi qurilishida.

Javob to'liq qabul qilinadi: *Alisher Navoiy Said Ruhullo devoni oliyga besh ming dinor qaytarishi haqidagi hujjatni tayyorlaydi. Amirning jome masjid qurilishida Said Ruhulloga mas'uliyatni his qildirish edi.*

Javob qabul qilinmaydi: Boshqa javoblar.

5-savol.

Rivoyatdan Alisher Navoiyning qanday fazilatlarini bilib oldingiz?

BAHOLASH MEZONI

Faoliyat: Ma'lumotni topish.

Matn formati: Yaxlit.

Vaziyat: Jome masjidi qurilishida.

Javob to'liq qabul qilinadi: *Alisher Navoiyning tadbirkorligini, ishbilarmonligini, yaxshi davlat boshdaruvchisi ekanligini, odamlarning qalbiga yo'l topa olishligini...*

6-savol.

Rivoyatdan qanday xulosa chiqardingiz?

BAHOLASH MEZONI

Faoliyat: Ma'lumot topish.

Matn formati: Yaxlit.

Vaziyat: Jome masjidida.

Javob to'liq qabul qilinadi:- *Rivoyatdan o'zimga ishonib topshirilgan har qanday ishni o'z vaqtida mas'uliyat bilan bajarishni o'rgandim.*

Javob qabul qilinmaydi:- Yalqovlik tufayli boshqalarga zarar yetkazishim mumkinligini o'rgandim.

Matn yuzasidan o'quvchilar bilimini mustahkamlash maqsadida yuqoridagi kabi topshiriqlar berilishi mumkin.

Har bir mavzu bo'yicha berilgan topshiriqlar o'quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashga, o'z mulohazalarini erkin bayon etishga o'rgatadi.

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkilotlariga a'zo davlatlardagi nufuzli ta'lim va ilmiy markazlar, xalqaro hamda xorijiy tashkilotlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yish orqaqli PISA, PIRLS, TIMSS kabi baholash dasturlarida ishtirok etib, yuqori natijalarga erishayotgan va rivojlangan davlatlar tajribalarini o'rganish muhim.

Eng asosiysi, o'quvchilarimizning boshqa davlatlardagi tengdoshlaridan kam bo'lmasligi uchun biz o'qituvchilarni ham, ota-onalarni ham undashga xizmat qilishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash. *(Toshkent-2019-yil)*
2. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash.
3. Boshlang'ich oqish darslarining o'ziga xos xususiyatlari *(Toshkent-1992-yil)*.
4. Ifodali o'qish va hikoya qilish *(Karim Jo'rayev. 1968-yil)*.
5. "Boshlang'ich talim" jurnallari *(2017-yil 3-soni, 2017-yil 4-soni, 2018-yil 6-soni)*.
6. O'qish kitobi 4-sinf uchun darslik *(S.Matjonov va boshqalar. Toshkent 2013)*.

UO'K 371.3

**PIRLS TADQIQOTI UCHUN TOPSHIRIQLAR TAYYORLASH VA ULAR USTIDA ISHLASH
TEKNOLOGIYASI**

Rahmatova Gulirux

*Navoiy viloyati Xatirchi tumani 84-umumiy o'rta ta'lim maktabi
o'quv ishlari bo'yicha menejeri, O'zbekiston Respublikasi*

Annotatsiya. Maqolada PIRLS xalqaro tadqiqoti haqida ma'lumot berilgan bo'lib, PIRLS tadqiqoti uchun topshiriqlar tayyorlash va ular ustida ishlash texnologiyasi, o'quvchiga bu topshiriqni berishdan maqsad, shuningdek, topshiriqlarning namunaviy javoblari ham bayon etilgan.

Kalit so'zlar: PIRLS, xalqaro, tadqiqot, matn, baholash, boshlang'ich ta'lim, sifat, topshiriq.

Brief abstract. The article provides an overview of the international PIRLS study, technology of preparing and working on PIRLS research tasks, the purpose of the assignment to the learner, and the sample answers.

Keywords: PIRLS, international, study, text, to evaluate, elementary education, quality, task.

O‘zbekiston Respublikasi umumta’lim maktablarining ta’lim oluvchi yoshlari 2021-yildan boshlab Xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishadi. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabr kuni qabul qilgan “*Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida*”gi 997-sonli qaroriga asosan 15 yoshli o‘quvchilar PISA, 10 yoshli o‘quvchilar PIRLS, 4- va 8-sinf o‘quvchilari TIMSS xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etishi va bu borada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar belgilandi [1.1].

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study – Xalqaro o‘qish savodxonligini o‘rganishdagi yuksalish) – bu turli mamlakatlarda boshlang‘ich sinfda tahsil oluvchi o‘quvchilarning matnini o‘qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro dasturdir. Ushbu dastur har 5 yilda bir marta o‘tkazishga mo‘ljallangan[2.3].

PIRLS tadqiqotlariga 4-sinf o‘quvchilarining tanlanishi shu bilan e‘tiborliki, aynan o‘qishning to‘rtinchi yilida o‘quvchilar o‘qishning yuqori darajasiga ega bo‘lishi, ularning keyingi ta’limda bilimni egallash qobiliyatini shakllantirish va shu orqali hozirgi zamonga muvaffaqiyatli moslashuviga yordam beradi. Ko‘pchilik davlatlarda bolalar 6 yoshdan maktabda o‘qishni boshlashadi. Ammo Angliya va Yangi Zelandiyada ta’lim 5 yoshdan boshlanadi. Shuning uchun, loyihada o‘quvchilar 4-sinfdan emas 5-sinfdan ishtirok etishadi. O‘quvchilarning yoshi 10,5 yoshni tashkil etadi. Sharq mamlakatlarida bolalar 7 yoshdan o‘qishni boshlagani uchun 10,7-10,9 yoshdagi o‘quvchilar ishtirok etishadi.

PIRLS tadqiqotlari Xalqaro ta’lim institutlari assotsiatsiyasi (**IEA**) tomonidan muvofiqlashtiriladi. PIRLS loyihasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish qobiliyatini rivojlantirish darajasini aniqlash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar orasida yetakchi hisoblanib kelinmoqda[2.4].

PIRLS tadqiqotlari quyidagi muammolarni hal qilishga qaratilgan:

- ta’lim sohasidagi dunyo ustuvorliklarini aks ettiruvchi obyektiv o‘lchovlar va vositalarni ishlab chiqish;
- mamlakat o‘quv jarayonini tashkil etish samaradorligini qiyosiy baholash;
- tadqiqot natijalariga ta’sir ko‘rsatgan kontekstual omillarni aniqlash;
- xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan dalillarga asoslangan ma’lumotlarga ega bo‘lish.

O‘qish savodxonligining asosi matnlar bilan to‘liq ishlash uchun zarur bo‘lgan o‘qish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Bu o‘quvchi tomonidan kerakli ma’lumotlarni topish va tarqatish, matnning ma’lum qismi bo‘yicha xulosalar chiqarish, asosiy belgilarning harakatlarini sharhlash, matn namunalari va matn tuzilishini dastlabki tahlil qilish bilan tasdiqlash kabilardir.

Tadqiqotning har bir ishtirokchisiga matnlar va ular yuzasidan topshiriqlar berilgan daftar beriladi. Har bir matnga 12-15 ta savol-topshiriqlar ilova qilinadi.

Quyida PIRLS tadqiqoti uchun topshiriqlar tayyorlash va ular ustida ishlash yuzasidan uslubiy tavsiyalar berish maqsadida 2-sinf o‘qish kitobidan Shorasul Zunnunning “Nima eksang, shuni o‘lasan” hikoyasi uchun topshiriqlar tayyorlash va bu topshiriqlarning maqsad va vazifalari, ular ustida ishlash texnologiyasini ko‘rib chiqamiz. Shuningdek, topshiriqlarning namunaviy javoblari ham keltirilmoqda.

“Nima eksang, shuni o‘lasan” Shorasul Zunnun. [3. 93-94].

Bir yigit ko‘zlari xiralashgan qari otasini hurmat qilmasdi. Bir kuni chol bechora qo‘li titrab, osh suzib berilgan kosani tushirib sindirdi. Buni ko‘rgan kelini nordon so‘zlar aytib, ko‘nglini vayron qildi. Shundan keyin yigit otasini hovlining bir chekkasidagi zax uyga ko‘chirdi. Kelin esa eri bergan yog‘och kosada qaynotasiga ovqat bera boshladi. Bu kabi muomaladan otaning ko‘ngli ozor topib, o‘ksinib yig‘lardi. Besh yoshli nevarasi bilangina tasalli topar edi. Bola uning yoniga kelib o‘tirar, ma’sumona so‘zlari bilan kuldirib, qayg‘u-alamlarini yengillatardi. Bola bir kuni qo‘liga pichoq olib, yog‘ochni yo‘nib o‘tirardi. Shu paytda dadasi kelib qoldi. O‘g‘lini ko‘rib: “O‘g‘lim, nima qilyapsan?”-deb so‘radi. O‘g‘li yugurib kelib, dadasini quchoqlab oldi:

– Dadajon, siz buvamga yog‘och kosa keltirib bergan edingiz-ku, oyim o‘sha kosada buvamga ovqat beradilar. Men ham yog‘och kosa yasayapman, katta bo‘lganimda oyim bilan sizga shu kosada ovqat beraman.

O'g'lining bu so'zi yigitga qattiq ta'sir qildi. U ko'z yoshi qilib, otasining huzuriga kirdi, tiz cho'kib uzr so'radi. Darrov uni issiq xonaga ko'chirdi. Kelin ham qaynotasini hurmat qila boshladi. Ularning bu ishlaridan ota xursand bo'ldi.

Topshiriqlar

1-topshiriq: "Nima eksang, shuni o'rasan" jumlasini izohlang.

Javob: Bu jumla o'zbek xalq maqolidir. Bu maqolda nima eksang, ya'ni gul eksang, gul o'rasan, tikan eksang tikan o'rasan demoqchi. Yoki yaxshilik qilsang, yaxshilik ko'rasan, yomonlik qilsang, yomonlik ko'rasan, desa ham bo'ladi.

Maqsad: Ushbu topshiriq o'quvchilarda o'zbek xalq maqollarining mazmuni bilan kengroq tanishib borishlariga, lug'at boyliklarini oshirishga xizmat qiladi.

2-topshiriq: Rivoyat necha qismdan iborat? Har bir qismning qisqacha mazmunini yozing.

Javob: Rivoyat 4 qismdan iborat.

1. Yigit va uning xotini keksayib, ko'zlari xiralashib qolgan otasini hurmat qilmasdan, kosani sindirib qo'ygani uchun uni zax uyga ko'chirib, yog'och kosada ovqat bera boshladi.

2. Keksa ota besh yoshli nevarasi bilangina tasalli topar edi. Bola ham bobosini juda yaxshi ko'rar edi.

3. Bir kuni bolakay yog'och kosa yasab o'tirganida dadasi kelib qoladi va bola dadasiga: "Men ham yog'och kosa yasayapman, katta bo'lganimda oyim bilan sizga shu kosada ovqat beraman",- dedi.

4. O'g'lining bu ishi dadasini ko'zlarini ochdi va otasining oldiga kirib, uzr so'radi. Otaxonni issiq uyga olib o'tishdi. Otaxon juda xursand bo'ldi.

Maqsad: Rivoyatni qismga bo'lish orqali o'quvchilar har bir gapni to'g'ri analiz qilishga o'rganishadi, bayon yozish kompetensiyasi shakllanib boradi.

3-topshiriq: Matndagi bolakayga ta'rif bering.

Javob: Boboning nabirasi juda aqlli bola. Endigina besh yoshga kirishiga qaramasdan kelajakni ko'ra oladi. Ko'rgan-kechirganlarini to'g'ri tahlil qiladi, mustaqil qaror chiqara oladi.

Maqsad: Asar qahramonlariga ta'rif berish orqali insonlarni o'rganib, insonlardagi salbiy va ijobiy xislatlarni taqqoslash va farqlashga o'rganishadi.

4-topshiriq: Bolaning dadasi, otasini hurmat qilmasdan to'g'ri ish qildimi? Fikringizga 3 ta isbot keltiring.

Javob:

1. Yo'q, chunki ota-ona eng buyuk va mo'tabar zotlardir.

2. Ota-onamiz bizni kichikligimizdan oq yuvib, oq tarab, katta qilishadi.

3. Biz ham yillar o'tib, keksayganimizda bizga ham xuddi shunday muomala qilishilari mumkin.

Maqsad: Isbot, asos talab qilinadigan topshiriqlar o'quvchilarni aniq va asosli gapirishga o'rgatish bilan birga kelajakda maqsadli yashashga o'rgatadi.

5-topshiriq. Matnga yana qanday sarlovha qo'yish mumkin? Asoslang.

1-variant: "Bemehr o'g'il"

Asos: Chunki, bu matnda otaxonning o'g'li bemehr va bag'ritosh inson.

2-variant: "Mehribon nabira"

Asos: Chunki, bu matnda otaxonning nabirasi, mehribon va qalbi toza bola ekan. 3-variant: "Qaytar dunyo"

Asos: O'g'ilning otasiga qilgan munosabati, o'z o'g'lidani qaytdi.

Maqsad: Ushbu topshiriq o'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllanishiga yordam beradi. O'quvchi o'qiganlari yuzasidan, chuqur mulohaza yuritadi.

6-topshiriq: Test.

1. Kosani kim tushirib sindirdi?

A) O'g'il B) Chol D)Kelin

2. Cholga qanday kosada ovqat berishdi?

A) Yog'och kosada B) Sopol kosada D) Chinni kosada

3. Cholni ko'nglini kim ko'tardi?

A) O'g'li B) Kelini D) Nabirasi

7-topshiriq: Alisher Navoiyning quyidagi satrlarini mazmunini izohlang.

Boshni fido ayla, ato qoshiga,

Jismni qil sadqa ano boshig'a.....

Javob: Otalarimiz bizni yedirish, kiydirish uchun kunu-tun mehnat qiladi, uyimizning ustuni va boshidir. Shuning uchun ham otalar uchun boshimizni, borlig'imizni ham baxshida etsak arziydi. Onalarimiz esa, biz uchun o'z jismu-jonini xatarga qo'yib, bizni dunyoga keltiradilar, shuning uchun ham bor jismimiz, tanu-jonimizni baxshida qilsak arziydi.

8-topshiriq. Alisher Navoiyning ota-onalar haqidagi yana qanday misralarini bilasiz?

Javob: Onalarning oyog‘i ostidadur,
Ravzai jannat jinon bog‘i.
Ravza bog‘in visolin istar ersang,
Bo‘l, onalar oyog‘in tuprog‘i. [4. 2].

Maqsad: *Topshiriq buyuk ajdodlarimiz ijodi bilan tanishtirib, Alisher Navoiy ijodiga qiziqishlariga xizmat qiladi.*

9-topshiriq: Farzandning ota-onalari oldidagi 5 ta burchini yozing.

Javob:

1. Ota-ona keksayganda ehtiyot qilish, boqish, holidan xabar olish.
2. Ota-ona bemor bo‘lib qolsa davolatish.
3. Ota-onadan norozi bo‘lmaslik.
4. Bir ish boshlashdan oldin ota-onaning ruxsatini, duosini olish.
5. Ota-onaning biror orzu-niyatlari bo‘lsa, uni bajarish.

Maqsad: *Topshiriq o‘quvchilarga har bir insonning ota-ona, oila, mahalla, Vatan oldidagi burchini doimo his qilishi lozimligini o‘rgatadi.*

10-topshiriq: Ota-onaning farzandi oldidagi 5 ta eng muhim vazifasini yozing.

Javob:

1. Farzandiga yaxshi, chiroyli ism qo‘yish.
2. Farzandini ilimli qilish.
3. Farzandini yaxshi xulqli qilib tarbiyalash.
4. Farzandi voyaga yetguncha ehtiyot qilish, boqish, holidan xabar olish.
5. Farzandini uyli, oilali qilish.

11-topshiriq: Yog‘ochdan yasalgan kosa, piyola, qoshiqlarni ko‘rganmisiz? Bular haqida nimalar bilasiz?

Javob: Ming yillar ilgari ota-bobolarimiz yog‘ochdan idishlar yasashgan. Bundan 20-25 yillar avval ham keksa kishilar bunday idishlarni ishlatishgan, ammo hozir bozorlarda kamdan-kam uchraydi. Yog‘och idishlarning afzalliklari shundaki, chidamli, yengil, issiq emas, hidi yo‘q, ovqatning asl ta‘mini saqlab turadi.

Yog‘och o‘ymakorligida ota-bobolarimiz qadimda har xil yog‘ochlardan turli maqsadda foydalanib kelganlar. Yog‘och o‘ymakorlikda shumtol, eman, arg‘uvon, terak, chinor va boshqa daraxt yog‘ochlaridan keng foydalaniladi. Mamlakatimizda yog‘och o‘ymakorligi ustalari o‘z ishlari uchun eng yaxshi yong‘oq, qarag‘ay, chinor, tut, archa, terak, o‘rik kabi mahalliy daraxtlarning eng a‘lo navlarini ishlatadilar. [5. 38].

Maqsad: *O‘quvchilar tariximizni, milliy qadriyatlarimizni o‘rganishda, hurmat qilishida bu kabi topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu kabi topshiriqlar o‘quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi.*

PIRLS tadqiqoti biz uchun innovatsion dastur bo‘lganligi sababli, avvalo maktab darsliklaridagi matnlar bilan ishlash maqsadga muvofiq deb topdik.

PIRLSga qatnashish O‘zbekistonga boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida o‘qish qobiliyatlari darajasini mustaqil ravishda obyektiv baholash imkonini beradi. Bundan tashqari, O‘zbekiston ta‘limining ochiqligi va integratsiyalashuvi dunyoning yetakchi ta‘lim tizimlarining xalqaro hamjamiyatiga integratsiyalashuvini ta‘minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabr kuni qabul qilgan “Xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori.

2. Баранова В.Ю., Ковалева Г.С., Кузнецова М.И., Цукерман Г.А., Нурминская Н.В. ОСНОВНЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ МЕЖДУНАРОДНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ «Изучение качества чтения и понимания текста» Москва, 2007, 3-4 ст.

3. G‘afforova T., Nurullayeva Sh., Mirzahakimova Z. “O‘qish kitobi”. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. “Sharq”. 2016. 93-94 betlar.

4. Xurshid Davron kutubxonasi. Alisher Navoiy hikmatlari. 2017-yil, 1-2 betlar.

5. Sharipov Sh., Qo‘ysinov O., Abdullayeva Q. “Texnologiya” Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. “Sharq”. 2016. 38 – bet.

UO'K 37.012

TABIATSHUNOSLIK FANINI O'QITISHDA XALQARO BAHOLASH DASTURIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Majidova Muslima Pulatovna

Qo'ldasheva Mahmuda Nurmatjonovna

Namangan viloyati XTXQTMOHM o'qituvchilari, O'zbekiston Respublikasi

E-mail: mahmuda80@inbox.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, mamlakatimizda xalqaro baholash tizimini tashkil etish masalalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti o'rtasida Xalqaro talabalar bilimni baholash dasturi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar mazmuni, PISA dasturi haqida ma'lumotlar hamda uning yo'nalishlari, tabiatshunoslik fanini o'qitishda xalqaro baholash dasturidan foydalanish bo'yicha tavsiyalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro baholash dasturi, PISA dasturi, kreativ qobiliyat, tanqidiy fikrlash, loyihalash.

UDC 37.012

PECULIARITIES OF USING THE INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM IN TEACHING NATURAL SCIENCES

Majidova Muslima Pulatovna

Kuldasheva Mahmuda Nurmatjonovna

Lecturers of Regional Center for Retraining and In-Service Training of Public Education Employees of Namangan, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. This article describes the reforms in the education system, the organization of the international assessment system in our country, the content of the work between the State Inspectorate for Education Quality Control under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan and the Organization for International Cooperation and Development, PISA Information about the program and its directions, recommendations for the use of international assessment programs in teaching science.

Keywords: international assessment program, PISA program, creative ability, critical thinking, design.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim sifatini baholash bo'yicha yangicha zamonaviy monitoring tizimini xalqaro baholash dasturlari asosida aniqlash va qiyoslashga mo'ljallangan tizim shakllanmoqda. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizim bilan tahliliy va har tomonlama o'rganish, ma'lum yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro loyihalarni joriy qilish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim.

Shunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi.

Natijada, 2018-yil 12-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti o'rtasida Xalqaro talabalar bilimni baholash dasturida (Agreement for participation programme for international student assessment (PISA) 2021) ishtirok etish to'g'risida kelishuvga erishildi.

PISA (*inglizcha* - Programme for International Student Assessment) – turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur. Bu dastur 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo'llanilgan. Bu dastur bo'yicha har uch yilda o'quvchilarning bilimni baholash maqsadida sinovlar o'tkaziladi. Hozirgi kungacha jami 7 marta (2000-, 2003-, 2006-, 2009-, 2012-, 2015- va 2018-yillar) PISA dasturi bo'yicha testlar o'tkazilgan bo'lib, keyingi sinovlar 2021-yilda bo'lishi rejalashtirilgan. Mamlakatimiz ham 2021-yildan bu dasturga qo'shilishga tayyorgarlik ko'rmoqda.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur bo'lib, dasturning asosiy maqsadi – 15 yoshli o'quvchilarning o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajalarini turli xil testlar ko'rinishida baholashdan iboratdir. Ushbu loyihalar o'quvchi yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlashlariga, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish qobiliyatlariga baho berish va keyinchalik bu ko'nikmalarni hosil qilishga undashdir.

Ushbu dastur 1997-yilda joriy etilgan bo'lib, har uch yilda bir marta o'tkazib kelinadi, birinchi marta 2000-yilda o'tkazilgan bo'lib 43 ta mamlakatdan o'quvchi yoshlar o'z bilimlarini sinab ko'rishgan. Yillar kesimida oladigan bo'lsak 2003-yilda 41 ta mamlakatdan, 2006-yilda 55 ta mamlakatdan, 2009-yilda 75 ta mamlakatdan, 2012-yilda 65 ta mamlakatdan, 2015-yilda 71 ta mamlakatdan va 2018-yilda-78 ta mamlakatdan o'quvchi yoshlar ishtirok etgan.

Dastur mamlakatimizdagi jami 15 yoshli o'quvchi yoshlarning 3% ni qamrab oladi. Har 3 yilda bitta fan yunalishiga afzallik berilib, 2000-yilda ilk bor o'qish savodxonligiga urg'u berilgan holda o'tkazilgan. Demak, uch yilda bir marotaba o'tkazilishini inobatga oladigan bo'lsak 2021-yilda matematik savodxonlikka urg'u beriladi.

PISA testlari asosan 5 ta yo'nalish bo'yicha o'tkaziladi: O'qish, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy fanlar, hamkorlikda muammolarni hal qilish va moliyaviy savodxonlik yo'nalishlari. O'zbekiston 2021-yilda uch yo'nalish: O'qish, matematik savodxonlik va tabiiy-ilmiy fanlar yo'nalishlari bo'yicha testlarda qatnashishni rejalashtirgan.

Testlarda asosiy e'tibor o'quvchilarning mazkur yo'nalishlar bo'yicha eng asosiy tushunchalarni bilishi, bazaviy bilim va ko'nikmalarni egallagani, ulardan hayotiy vaziyatlarda foydalana olishiga qaratiladi! bu testlarda o'quvchilarning dars jarayonida aniq mavzular bo'yicha o'rgangan bilimlarini sinovdan o'tkazish nazarda tutilmagan!

PISA nazoratida to'rt xil sinov usulidan foydalaniladi:

Bir javobli testlar;

Bir nechta javobli testlar;

Qisqa yoki batafsil javob yoziladigan savollar;

Mavzu bo'yicha biror muammoning yechimi o'quvchi fikri (odatda bunday savollarda tekshiruvchida umumiy javoblar bo'ladi, o'quvchi javobi test tuzuvchi javobiga aynan mos kelishi talab qilinmaydi, o'quvchi ijodkorligi esa qo'llab quvvatlanadi).

Xususan, umumta'lim maktablarida tabiatshunoslik fanlarini o'qitishda PISA topshiriqlaridan foydalanish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqdik hamda sizlarga tavsiya qilamiz:

1. Archa o'simligidan ajralib chiqayotgan O₃ gazi Ozon tuynugini kengayishini to'xtatadimi?

Ha

Yo'q

2. O'zbek komusiy olimi Beruniyning tabiatga bag'ishlangan buyuk asarlarini aniqlang.

“Minerologiya”, “Geodeziya”,

“Tabiatda dorishunoslik”, “Tabiat”

“Hindiston”, “Dorishunoslik”

“Sayohatnoma”, “Yer tasviri”

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, PISA dasturi tadqiqotlari olib borish natijasida umumta'lim maktablari o'quvchilarida mavzu jarayonida berilgan ma'lumotlarni o'zaro taqqoslash va qiyoslash, dars jarayonida strategik qarorlar qabul qilishi va o'z navbatida maktablarimizda berilayotgan bilim saviyasi o'quvchi yoshlarimizni katta hayotda o'z yo'llarini topishida munosib xizmat qilishiga amaliy yordam ko'rsatilishida dastur amal vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Sh. Mirziyoyev «Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz» O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. 2017-yil.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda “Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori.

3. J.Xasanboyev, X.To'raqulov. “Pedagogika” (pedagogika nazariyasi, didaktika 2-qism) T.: 2011.

UDK 303.7

TIMSS XALQARO BAHOLASH DASTURI – TA'LIM TARAQQIYOTI MEZONI

Ro'ziyeva Dilfuza Mahammadovna

Namangan sh. 1-DIMI, 1-toifali biologiya o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasi

Mamadjanova Sayyora Ravshanbekovna

Namangan sh. 1-DIMI, 2-toifali kimyo fani o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqaro baholash dasturlari, jumladan, TIMSS Xalqaro baholash monitoring dasturi va uning afzalliklari, o'quvchilar bilimidagi samaradorlikni oshirishdagi o'rni haqida ma'lumotlar berilgan. Pedagoglarga amaliy yordam sifatida TIMSS topshiriqlarini tuzish bo'yicha ko'rsatmalar hamda na'munalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS.

TIMSS INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM- CRITERIA FOR EDUCATIONAL DEVELOPMENT

Ruziyeva Dilfuza Muhammadovna

Biology teacher of the 1st category, Namangan State Specialized Boarding School No.1, Uzbekistan

Mamadjanova Sayyora Ravshanbekovna

Chemistry teacher of the 2nd category, Namangan State Specialized Boarding School No.1, Uzbekistan

Brief abstract. This article provides information on the international assessment program, including the TIMSS International Assessment Monitor program and its benefits, and its role in improving the effectiveness of students' knowledge.

Keywords: PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS.

Hozirgi ilm-fan takomillashib borayotgan davrda o'quvchilar bilim samaradorligini ortishida xalqaro baholash dasturlari muhim o'rin egallamoqda. Xalqaro baholash dasturlarida PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS ta'lim taraqqiyotining me'zoni bo'lib hisoblanadi. Amaliyotda qo'llash bo'yicha xalqaro baholash dasturlaridan foydalanib, ular asosida topshiriqlar tuzishda aksariyat pedagoglarimizda tushunmovchiliklar kuzatilmoqda. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, mamlakatimiz o'quvchi yoshlarining xalqaro baholash dasturlaridan foydalangan holda bilim samaradorligini oshirishda pedagoglarning roli muhim ahamiyatga ega. Demak, har bir pedagog xalqaro baholash dasturlari haqida to'liq va to'g'ri ma'lumotlarga ega bo'lmog'i lozim.

TIMSS (Trends in Mathematics and Science Study) – maktabda matematika va tabiiy fanlarni o'qitish sifatini xalqaro monitoringi hisoblanadi. Ushbu tadqiqot 4 yilda bir marta o'tkazilib, turli davlatlardagi 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha egallagan bilim darajasi va sifatini tahlil qilish hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlashga yordam beradi. Qo'shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha berilayotgan ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni, o'quv muassasasi imkoniyati, pedagoglarning salohiyati o'rganiladi. Ushbu ma'lumotlar belgilangan fanlarni o'zlashtirish holatini ko'rsatishda asos bo'ladi. TIMSS dasturida har bir o'quvchining 4 yil davomida, ya'ni 4- va 8-sinflarda matematika va tabiiy fanlardan bilim samaradorligini alohida o'rganiladi va tahlil qilinadi. O'quvchilarning egallagan bilim va ko'nikma, malakasini umumiy ravishda tahlil qilish yurtimizdagi ta'lim sifati ko'rsatkichini aniqlab beradi. Buning uchun o'quv yili mobaynida har bir ta'lim muassasasida ichki va tashqi monitoring tashkillab boriladi. O'tkazilgan ichki va tashqi monitoring natijasiga ko'ra, eng na'munali ta'lim muassasalarining o'rni, pedagoglar bilim salohiyati va ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini aniqlash mumkin. TIMSS jarayoni ta'lim rivojini aniqlovchi asosiy omillardan biri bo'lgani uchun, Xalq ta'limi vazirligi ko'rsatmasiga binoan, umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash bo'yicha xalqaro dasturlarni amaliyotga tadbiiq etish maqsadida birinchi qadamlar tashlandi. Ta'lim muassasalarida o'quvchilarning egallagan bilimni xalqaro talab darajasiga javob bera olishini tahlil qilib borish uchun TIMSS xalqaro monitoring baholash dasturlarini ko'proq qo'llash bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan o'tkazilayotgan tashqi monitoring jarayonida ushbu xalqaro baholash materiallaridan qisman foydalanish orqali o'quvchilar xalqaro ta'lab darajasiga o'rgatib borilmoqda.

Quyida TIMSS asosida tuzilgan biologiya va kimyo fanlaridan topshiriqlardan na'munalar berilgan.

Kimyo fanidan TIMSS asosida tuzilgan topshiriqlar.


1. Agar kislorod (O_2) ozon (O_3)ga aylansa uning qaysi xossalari o'zgaradi, qaysi xossalari o'zgarmaydi? Javobingizni quyidagi jadvalning har bir qatorining tegishli ustuniga "x" belgisini qo'yib tasdiqlang.

Xossalari	O'zgaradi	O'zgarmaydi
Agregat holati		
Elektr o'tkazuvchanligi		
Massasi		

2. Yod, "quruq muz" qanday umumiy xossaga ega?

javoblar _____

3. Quyidagi moddaning grafik formulasidagi "X" qaysi elementlar bo'lishi mumkin va shu element valentligi nechaga teng?




javoblar _____

4. Agar yod sublimatlansa qaysi xossalari o'zgaradi va qaysi xossalari o'zgarmaydi? Quyidagi jadvalning har bir qatorining tegishli ustuniga "x" belgisini qo'ying.

5. Quyidagi moddalar: O_2 , K_2MnO_4 , H_2SO_4 , CO_2 , H_2O qanday umumiylikka ega?

javoblar _____

6. Vodородni olish uchun rux metali o'rniga quyidagi metallardan foydalanasizmi? "+" va "-" belgilari bilan jadvalning kerakli qatorini to'ldiring.



Metallar	Pb	Ag	Ca	Cu	Al
Ha\Yo'q					


Botir quyidagi jadvalda moddalarni ikkita guruhga ajratdi:

I guruh	II guruh
Kislorod	Suv
Xlor	Karbonat anhidrid
Oltinugurt	Sulfat kislota
Ozon	O'yuvchi natriy

Ushbu moddalarni guruhlarga ajratishda Botir quyidagilarning qaysi biridan foydalangan?

- Atomlar soni
 - Atomlar bir xil yoki turli bo'lishi
 - Agregat holati
 - Molekulyar yoki nomolekulyar
7. Rasmdagi uchala stakanga ham bir hil miqdordagi mis kuporosi solingan.

- stakanga 50 ml bo'lguncha suv quyildi.
- stakanga 100 ml bo'lguncha suv quyildi.
- stakanga suv quyilmadi.



Qaysi stakandagi eritma konsentrlangan eritma hisoblanadi?

javoblar _____

8. Kimyoviy reaksiyalar 4 turga bo'linadi: birikish, parchalanish, o'rin olish va almashinish. Madina reaksiya turlaridan biriga 4 ta misol yozdi:

- $2\text{KMnO}_4 = \text{K}_2\text{MnO}_4 + \text{MnO}_2 + \text{O}_2$
- $\text{CaO} + \text{CO}_2 = \text{CaCO}_3$
- $2\text{KNO}_3 = 2\text{KNO}_2 + \text{O}_2$
- $2\text{H}_2\text{O} = 2\text{H}_2 + \text{O}_2$

Yozgan reaksiyalaridan bittasi ortiqcha ekanligini anglab uni olib tashladi.

1-savol:

Madina qaysi reaksiyani olib tashladi?

javoblar _____

2-savol:

Madina bu reaksiyani nima uchun olib tashladi?

javoblar _____

9. Havoning tarkibi, asosan, azot, kislorod va ozroq karbonat angidrid gazlaridan tashkil topgan bo'lib, o'rtacha massasi 29 ga teng.

Qiziquvchan Jasur og'zida shar puflayotib quyidagi savollarni o'ylab qoldi?



1-savol: Nima uchun u puflagan shar uchmaydi?

- A. Shar ichidagi gaz havodan yengilligi uchun
- B. Shar ichidagi gaz havodan og'irligi uchun
- C. Shar ichida azot ko'payib ketgani uchun
- D. Shar ichida vodorod gazi bo'lmagani uchun

2-savol: Puflagan shari ichida qaysi gaz yig'ilgan?

- A. Azot
- B. Kislorod
- C. Karbonat angidrid
- D. Vodorod

3-savol: Sharni uchirish uchun qanday gazlardan foydalanish mumkin?

javoblar _____

Botirjon uy parrandalarini boqishga juda qiziqadi. Bir kuni tasodifan bitta tovuq jo'jasi suvga tushib ketdi, patlari ho'l bo'lib, tanasining sovib ketishi natijasida tezda halok bo'ldi. Botirjon juda hafa bo'ldi. Lekin uni bir savol o'ylantirdi: Axir g'ozlari kun bo'yi suvda yuradi. Nima uchun ularning patlari ho'l bo'lmaydi, nobud ham bo'lmaydi?

Botirjonga bu hodisani qanday tushuntirgan bo'lar edingiz.

javoblar _____

Jasur darsdan keyingi bo'sh vaqtlarida bobosiga tomorqa ishlarida yordamlashadi. Bobosi Jasurning qiziqishini inobatga olib, tomorqadan kichkina joy ajratib berdi. Jasur bu joyga ekin ekib, parvarish qila boshladi. Ekinlar yaxshi o'sishi, hosili yaxshi bo'lishi uchun uyda boqadigan qushlarining go'ngidan ham solib turdi. Lekin ekinlar qurib qola boshladi. Ekinlarning qurib qolish sababini qanday izohlaysiz.

javoblar _____

Tabiiy fanlarga oid topshiriqlarni bajarish o'quvchilardan u yoki bu hodisani tushuntirib berishni, asosli xulosalarni isbotlashni, tabiiy fanlarning turli sohalariga oid bilimlarni umumlashtirish va birlashtirishni talab etadi. Didaktik material TIMSS (Trends in Mathematics and Science Study) tadqiqoti yondashuvlarining o'ziga xos xususiyatlarini tushunishga yordam beribgina qolmay, o'quvchilarning tabiiy fanlardan savodxonlik darajasini baholash usullarini takomilllashtirish imkonini ham beradi. Yuqorida aytib o'tilganlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi mamlakatimiz ta'lim tizimining xalqaro ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvini ta'minlaydi. Shu bilan bir qatorda sohadagi bo'shliqlarni aniqlashga, yangi vazifalarni belgilab olishga xizmat qiladi. Eng muhimi, biz pedagoglar o'quvchilar bilimini adolatli va shaffof baholashga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Til va adabiyot ta'limi jurnali. 2018. 5-son.
2. "Boshlang'ich ta'limda integratsiyaviy-innovatsion yondashuvlar mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya" to'plami. TDPU 2019-yil.
3. Manba: uzedu.uz
4. Ziyonet.

UO‘K 372.862

RIVOJLANGAN DAVLATLARDA TEXNOLOGIYA FANINI TASHKIL ETILISHI HAMDA RIVOJLANISHI

Turg‘unova Shoxista Inamovna

Namangan viloyati, Norin tumani, 5-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi texnologiya fani o‘qituvchisi, O‘zbekiston, E-mail: t_shohista@inbox.uz

Annotatsiya. Maktabda o‘quvchilar tanlagan kasbi bo‘yicha zarur nazariy bilimlarni oladi. Bundan tashqari, kasb-hunar maktabi amaliy mashg‘ulotlarni to‘ldirib boradi.

Kalit so‘zlar: AQSH, Germaniya, texnologiya, maktab, kasb-hunar.

UDC 372.862

ORGANIZATION AND DEVELOPMENT OF TECHNOLOGY CLASSES IN DEVELOPED COUNTRIES

Turgunova Shokhista Inamovna

Teacher of technology, secondary school No.5, Naryn district, Namangan region, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. At school, students gain the necessary theoretical knowledge in their chosen profession. In addition, the vocational school complements the practical training.

Key words: USA, Germany, technology, school, profession.

Respublikamiz o‘qituvchilari oldida umumiy ta‘lim, hunar maktabini isloh qilish, yangi davr talabiga mos yetuk kishilarni, bozor iktisodi talabiga javob beradigan ta‘lim-tarbiya jarayonini yanada takomillashtirish, maktab xaqidagi konsepsiyani amalga tadbir qilishdek muhim vazifalar turibdi.

Birinchi darajali vazifa o‘rta maktabni bitirgan o‘quvchilar fan asoslaridan chuqur bilim olishlari, ommaviy ishchi kasblaridan 2-3 tasini egallashlari, o‘qish bilan birga ishlab-chiqarishda ham ishtirok etishlari lozim. O‘quvchilarni mehnat va kasb olamiga olib kirishning har xil yo‘llari orasida “Texnologiya” fani muhim o‘rin tutadi. Uning metodikasini takomillashtirish, moddiy jihozini mustahkamlash, maktabni o‘z atrofidagi sanoat ishlab chiqarish sohasi bilan aloqasini mustahkamlash, ijtimoiy foydali, unumli mehnatni tashkil etish, uning tarbiyaviy iqtisodiy samaradorligini oshirish, ta‘lim bilan qo‘shib olib borish, o‘quvchilarni mehnatga tayyorlashni yaxshilash bilan shug‘ullanadi.

Texnologiya fani darsi maktabdagi boshqa fanlar uchun umumiy didaktik prinsiplarni qo‘llasada, uning o‘ziga xos xususiyatlari ham mavjud. O‘quvchilar bilish faoliyati bilan emas, balki yaratish faoliyati bilan shug‘ullanadilar.

Texnologiya fani predmetlari, kurollari, jarayonlari oddiy o‘rganish obyekti sifatida emas, balki o‘quvchilar ishlarini faollashtiruvchi ko‘rsatmalilik vositasi, didaktik material, ta‘limning texnik vositasi sifatida xizmat qiladi.

Texnologiya fani o‘quv fani sifatida ana shu va boshqa xususiyatlarini o‘rgatadi. Mustaqillik yillarida mamlakatda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurishga, erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalq osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, ta‘lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san‘at va sport sohalarini rivojlantirishga, xalqaro maydonda O‘zbekiston-ning munosib o‘rin egallashiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarorning qabul qilinishi ta‘lim tizimini tubdan modernizasiya qilinyotganligidan dalolat beradi, deb o‘ylaymiz.

1. Amerika qo‘shma shtatlari ta‘lim tizimi. Amerika qo‘shma shtatlari (AQSH)da ta‘lim tizimining tuzilishi quyidagicha: bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha tarbiyalanadigan maktabgacha tarbiya muassasalari; 1-8-sinflargacha bo‘lgan boshlang‘ich maktablar (bunday maktablarda 6 yoshdan 13 yoshgacha o‘qiydilar); 9-12-sinflardan iborat o‘rta maktablar (bu maktablarda 14-17 yoshgacha bo‘lgan bolalar ta‘lim oladilar). U quyi va yuqori bosqichdan iborat. O‘quv yili 180 kunni tashkil qiladi. Amerika qo‘shma shtatlarida navbatdagi ta‘lim bosqichi oliy ta‘lim bo‘lib, u 2 yoki 4 yil o‘qitiladigan kollejlarda hamda dorilfununlardir. AQSHda majburiy ta‘lim 16 yoshgacha amal qiladi. Bu mamlakatdagi o‘quv yurtlari davlat, jamoa tasarrufida, xususiy va diniy muassasalar ixtiyorida bo‘lishi mumkin. Amerikada 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar tarbiyasi bilan onalar shug‘ullanadilar, lekin ularga hech qanday imtiyozlar berilmagan. 5 yoshdan esa “Kindergarten” deb ataluvchi tayyorlov muassasalarida ta‘lim boshlanadi. Boshlang‘ich maktab 6 yoshdan to 13-15 yoshgacha bo‘lgan “Middle school” bolalarni qamrab oladi. Bu boshlang‘ich maktablarda

umumiy savodxonlik va kasbga yo'naltirish vazifalari hal etiladi. Sinf-dan-sinf-ga ko'chish o'quvchining o'zlashtirganlik darajasiga bog'liq. Maktablarda texnologiya faniga oid turli xil to'garaklar, uchrashuvlar, shoular va sayohatlar uyushtiriladi, ammo ularning hammasiga haq to'lash lozim. O'rta maktablar quyi va yuqori bosqichlardan iborat. 9-sinfni bitirgan o'quvchilar tanlov asosida o'rta maktabga qabul qilinadi. O'rta maktablarda to'rt yo'nalishda kasb-hunar asoslari berib boriladi. To'rt yillik kollej yoki dorilfununni tugatgan 3-bosqichni davom ettirishi mumkin. Bu 1-2 yillik magistr maktabi. 4-bosqich esa doktorantura. Oliy ta'limda ikki yo'nalish mavjud: 1-ta'limni individuallashtirish; 2-talabning mustaqil ishlashini amalga oshirish. Bunda o'qituvchi yo'naltiruvchi rolini o'ynaydi. Asosiy maqsad talaba intellektini mashq qildirish va mantiqiy fikrlashga o'rgatishdir. Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, AQSH o'rta maktablarida o'z o'quvchilariga uch yo'nalishda: akademik, kasb-hunar, umumiy yo'nalishlarda bilim beradi. Ayni paytda o'quvchilarga to'rt yo'nalishda: qishloq xo'jaligi, biznes ta'limi, savdo va sanoat qurilishi bo'yicha hunar, kasb-kor asoslari o'rgatiladi. AQSHda har bir o'quvchiga fanlar bo'yicha olgan bilimlari jamlangan attestatlar beriladi.

2. Germaniya ta'lim tizimi. Germaniya ta'lim tizimi hududlar bo'yicha turlicha shakllangan va 4 bosqichdan iborat bo'lib, uning 2-bosqichi 2 turga bo'linadi. Ba'zi federal yerlarda hozirgi kungacha maktabgacha ta'lim tizimi 4 bosqichli ta'lim tizimiga kirmaydi. Ta'lim tizimi bolalar bog'chasi va maktabgacha bo'lgan davrdan keyin majburiy boshlang'ich ta'lim bilan boshlanadi. Birinchi bosqich (Primarbereich) – boshlang'ich maktabdagi (yoki qushimcha ko'mak beruvchi maktabdagi) 4 yillik davrni qamrab oladi. Ba'zi federal yerlarda 6 yillik boshlang'ich maktablar ham mavjud. Maktab turiga bog'liq bo'lmagan yo'naltirish bosqichlari, ya'ni 5- va 6-sinflar ikkinchi bosqich- I (Sekundarbereich I) sanaladi. Ikkinchi bosqich- I (Sekundarbereich I) – asosiy maktab attestati yoki real maktab attestatini olishgacha yoki gimnaziyaning yuqori sinfigacha bo'lgan davrni qamrab oladi va asosiy maktab, real maktab va gimnaziya yoki bitta birlashtirilgan maktablarda amalga oshiriladi. Ikkinchi bosqich- II (Sekundarbereich II) – ikkinchi bosqich- I dan keyin boshlanadi, u gimnaziyaning yuqori sinflari yoki kasb-hunar maktablarini qamrab oladi. Qisqartirilgan gimnaziyalarda 10-sinf ikkinchi bosqich- II ning bir qismi hisoblanadi. Uchinchi bosqich (Tertiärbereich) – oliy o'quv yurtlariga kirish huquqini olish bilan boshlanadi va oliy o'quv yurtlari hamda kasbiy akademiyalarda amalga oshiriladi. To'rtinchi bosqich (Quartärbereich) – kasb-hunar ta'limidan keyingi xususiy va kasbiy malaka oshirish (misol uchun: kasbiy tayyorgarlik kurslarini o'tkazadigan muassasalar va xalq universitetlari).

Germaniya ta'lim tizimi fuqarolarning butun umri davomida o'qishi uchun imkoniyatlar yaratadi. Odatda korxonalar va kasb-hunar maktabining vazifalari quyidagicha taqsimlangan: korxonalar amaliy ko'nikmalarni o'rgatishga, kasb-hunar maktabi esa nazariy bilimlarni berishga mas'ul. Real hayotda korxonalar nazariy mashg'ulotlarni ham o'tkazadi, kasb-hunar maktabida esa nazariy mashg'ulotlarga qo'shimcha ravishda amaliy mashg'ulotlar ham o'tkaziladi. Bundan kelib chiqish aytish mumkinki, dual tizimida bir-birini takrorlash o'rniga, bir-birini to'ldirib borish juda muhimdir. Kasb-hunar maktabda o'quvchilar tanlagan kasbi bo'yicha zarur nazariy bilimlarni oladi. Bundan tashqari kasb-hunar maktabi amaliy mashg'ulotlarni to'ldirib boradi. Misol uchun: maktabning o'quv ustaxonasida avtomobilning tuzilishini ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari, kasb-hunar maktabi nemis tili, siyosatshunoslik, dinshunoslik va jismoniy madaniyat kabi umumta'lim fanlarni o'qitadi. Ko'pgina kasblarni egallash uchun ingliz tili ham o'qitiladi.

Korxonalar va kasb-hunar maktabi o'rtasidagi hamkorlikdan bir misol keltirsak. Korxonaning ustaxonasida o'quvchi "Ford" va "Folksvagen" avtomobil modellari asosiy qismlarining tuzilishi va vazifasini o'rganadi. Kasb-hunar maktabida o'quvchi avtomobilning ehtiyot qismlarini almashtirish bo'yicha nazariy bilimlarni o'rganadi va bo'lajak mehnat faoliyatida boshqa firma avtomobillari modellarining ehtiyot qismlarini ham almashtira olishi kerak. O'quvchi nazariy mashg'ulotlarda nimani o'rgansa, shuni amaliy mashg'ulotlarda qo'llay olishi lozim. O'quvchi avtomobil asosiy qismlarini ko'rishi yetarli emas, balki uni o'rnata olishni ham bilishi kerak. Bundan tashqari o'quvchi o'rgangan bilim va ko'nikmalarini shunga o'xshash vazifa va mashqlarda ham qo'llay olishi lozim. Germaniyada kasb-hunar ta'lim tizimi asosan o'quvchilarning korxonadagi kasbiy faoliyati bilan boshlanadi. Germaniyada davlat tomonidan tan olingan 350 ta kasblar bo'yicha korxonalarda o'quvchilarga kasb-hunar ta'limi beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Sharipov Sh.S., Qo'ysinov O.A., Ergashev Sh.T., va b. Texnologiya fanini o'qitish va psixologik xizmatni tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. //O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: 2017 y.
2. Qo'ysinov O.A., Tohirov O.O., Mamatov D.N., Aripova D.F. Mehnat ta'limi. 9-sinf. // O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: 2016.- 136 b.
3. Qo'ysinov O.A., Tohirov O.O., Mamatov D.N., Aripova D.F. Polimer materiallarga ishlov berish texnologiyasi. // O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – T.: 2017.-50 b.

PIRLS – TA‘LIM TARAQQIYOTI MEZONI

Egamqulova Nodira Turdaliyevna

*Namangan viloyati Mingbuloq tumani 7-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi,
O‘zbekiston, E-mail: egamqulova_nodira@inbox.ru*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta‘lim sifatini yaxshilashda xalqaro baholash dasturi hisoblangan PIRLSning ahamiyati va uning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matn bilan ishlashdagi o‘qish va tushunish ko‘nikmalarini hamda nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishdagi o‘rni borasida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: PIRLS, o‘qish savodxonligi, boshlang‘ich sinf, xalqaro baholash, kompetensiya.

PIRLS – CRITERIA FOR EDUCATIONAL DEVELOPMENT

Egamqulova Nodira Turdaliyevna

Teacher of secondary school No.7, Namangan region, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. This article discusses the role of PIRLS, an international assessment program in improving the quality of education, and its role in shaping reading and comprehension skills and speaking competencies of primary school students in working with text.

Keywords: PIRLS, reading literacy, elementary school, international assessment, competence.

“Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo‘ygan hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha sohalarida keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ana shu islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi avvalo ilm-fan va ta‘lim-tarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatdosh bo‘la olishimiz bilan uzviy bog‘liq...”

Shavkat Mirziyoyev

Ta‘lim tizimi kun sayin yangilanib, isloh etib borilayotgani natijasida fanlarni o‘qitishga yondashuv ham o‘zgarib bormoqda. Xususan, ona tili fanini o‘qitish boshqa chet tillarini o‘zlashtirishning asosi ekan, avvalo, o‘quvchi milliy tilda nutqini aniq, ravon va ifodali bayon etishi talab etiladi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosidagi davlat ta‘lim standartlari bo‘yicha 2017-2018-o‘quv yili uchun 4-6-7-10-sinf ona tili darsliklari yangitdan o‘zgartirishlar kiritilgan holda nashr etildi. Darsliklarda berilgan mavzular va topshiriqlar, mashqlar o‘quvchilarda lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish bilan bir qatorda ularning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishni ham nazarda tutadi.


Ona tilini emas, ona tili haqida ma‘lumotlarni o‘qitish tilni o‘zlashtirishga yordam bermaydi, aksincha o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqining rivojlanishida to‘siq bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham o‘quvchilarga o‘z fikrlarini bayon eta olishlarida matn tuza olishlari muhim hisoblanadi.

Yangi darslikda berilgan matnlar ta‘limiy maqsad bilan birgalikda tarbiyaviy maqsadlarni ham amalga oshirishga mo‘ljallangan bo‘lib, o‘quvchi dunyoqarashini kengaytirishga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, uyga berilgan topshiriqlarda bunga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘quvchi matn tuzish jarayonida o‘tilgan mavzu yuzasidan o‘zlashtirgan grammatik bilimlarini shu matnda qo‘llashga va mustaqil ravishda tahlil qilishga harakat qiladi. Bu o‘quvchilarda yozma nutqning yaxshi shakllanishiga ko‘mak beradi.

Matn bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarda **axborotni ajratib olish** va **qayta ishlash, bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash**, bu jarayonda **ijodiy va tanqidiy qarashlarini** namoyon etish ko‘nikmalari shakllanadi. Ta‘lim sifati va samaradorligini oshirish yo‘lida va o‘quvchilarda yuqorida ta‘kidlangan malaka talablarini tarkib toptirishda xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahami yatga ega. Bu borada PIRLS xalqaro tadqiqotini ta‘limga joriy etish o‘rinlidir.


“PIRLS – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnini o‘qib tushunish darajasini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqot dasturidir. Boshqacha qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish ko‘nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma‘lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o‘qish va o‘qitishni yaxshilash uchun ta‘lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma‘lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir.

Shuningdek, PIRLS, yosh o'quvchilar tomonidan maktabda va maktabdan tashqarida ta'lim olishning katta qismini tashkil etuvchi, ya'ni badiiy tajriba orttirish, ma'lumot olish va undan foydalanish ko'nikmalarini baholash kabi ikkita keng qamrovli maqsadlarni ifodalaydi²⁰.



O'qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Ushbu nuqtayi nazar o'quvchilarning o'qishdan olingan ma'lumotlardan foydalanish qobiliyatiga tobora ko'proq e'tibor qaratadigan zamonaviy jamiyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda.

O'qish savodxonligida matnni rushunish jarayoni quyidagicha:



PIRLSda ishlatiladigan badiiy matnlarning asosiy shakli – bu badiiy to'qimaga asoslangan hikoyalardir. Shuning uchun ham boshlang'ich sinfdan o'quvchilarni ona tili va o'qish darslarida matnlar bilan ishlashga o'rgatish lozim.

PIRLSda axborot matnlarining maqsad va vazifalari turli xil bo'ladi. Axborot matnining asosiy vazifasi axborotni taqdim etish bo'lsa-da, mualliflar ko'pincha o'zlari tanlagan mavzularni yoritishda turli maqsadlarni ko'zda tutadi. Ko'pgina axborot matnlarining maqsadi to'g'ridan to'g'ri ma'lumot berish, masalan, biografik ma'lumotlar yoki vazifani bajarish bosqichlarini taqdim qilishdir, shu bilan birga, ko'p hollarda matnda muallifning subyektiv qarashlari ham aks etadi. Masalan, muallif fakt yoki tushuntirishlarning qisqacha xulosasini taqdim etishi, o'z dalillariga o'quvchini ishontirishga harakat qilishi yoki turli nuqtayi nazarlarni keltirishi mumkin.

Yosh o'quvchilar ilmiy, tarixiy, geografik yoki ijtimoiy, shu jumladan, bir qator ma'lumotlarni qamrab olgan, turli shakldagi axborot matnlarini o'qishlari mumkin.

Fikrlarimizni xulosalab aytishimiz mumkinki, ta'lim sifatini baholashga yo'naltirilgan PIRLS kabi baholash dasturlari O'zbekiston ta'lim tizimi uchun yangilik hisoblanadi va kelgusida tizimdagi o'qitish bilan bog'liq muammolarning hal etilishida, sifatli va natijaviylikka asoslangan ta'limni tashkil etishda taraqqiyot sari odimlash mezonini bo'lib xizmat qiladi. Bu borada xalq ta'limi tizimida faoliyat yuritayotgan barcha pedagog xodimlarni shijoat bilan mehnat qilishga chorlab qolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

3) ko‘nikish – yangi muhitning qadriyatlarini tan olish va qabul qilish;

4) o‘xshatish – individning psixik qayta orientatsiyasi, avvalgi qarashlar, orientatsiya, ustanovkalar transformatsiyasi. Kasbiy bilim – aniq mehnat faoliyati doirasida bajariladigan ishlar uchun zarur bo‘lgan axborotlar va o‘zlashtirilgan nazariy ma‘lumotlar birlashmasidir. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy moslashtirish jarayoniga qo‘yiladigan zamonaviy talablardan biri bu innovatsiyalarni faol o‘zlashtirish va

amalgam tatbiq etish ko'nikmalaridir. Innovatsion tayyorgarlik – mutaxassis shaxsidagi pedagogik faoliyatga nisbatan aksiologik, akmeologik, kreativ, reflektiv yondashuvning shakllanganligi, ta'lim jarayonida ijodiy hamkorlik muhitining yaratilishi, o'qitish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish, innovatorlik faoliyatiga bo'lgan faol motivatsiyaning qaror topganligi bilan belgilanuvchi kasbiy tayyorgarlik mezonlaridan sanaladi. Oliy ta'lim muassasalarining pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimining o'ziga xosligidan kelib chiqib, quyidagi pedagogik psixologik shart-sharoitlarning ta'minlanishi kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi:

1. Axborotli-mazmunli sharoit. Ma'lumki, ta'lim mazmuni bo'lajak mutaxassis o'zlashtirishi lozim bo'lgan kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarining oldindan loyihalashtirilgan tizimi bo'lib, bunda DTS, o'quv rejalari, takomillashtirilgan ta'lim dasturlari, ma'ruza matnlari, ta'lim texnologiyalari asosidagi o'quv-metodik majmualar, ilmiy va o'quv-metodik, elektron darsliklar, nazorat vositalari: ijodiy pedagogik topshiriqlar, vaziyatli masalalar, masofali nazorat, ijodiy loyiha ishlari, mutaxassislik yo'nalishlari bilan bog'langan kurs va loyiha ishlari alohida o'rin tutadi.

2. Texnologik sharoit. Bunda kasbiy moslashtirish jarayonida:

- muammoli o'qitish;
- o'yinli texnologiyalar (rol-i ishchan o'yinlar, tadbirkorlik o'yinlari); - trening, videotreninglar,
- muammoli-seminarlar;
- pedagogik muammoli vaziyatlarni yechish va tahlil qilish, "Keys-stadi"; - kichik guruhlarda o'qitish, mikro-darslar;
- ijodiy tadqiqotchilik metodlari;
- dars va tarbiyaviy tadbirlarni loyihalash metodlari;
- autotreninglarni tashkil etish va o'tkazish metodikasining ishlab chiqilishiga alohida e'tibor qaratildi.

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirishning texnologik sharoiti nazariy asoslanganlik; o'quv-tarbiya jarayoni mazmuni va tashkiliy jihatlariga axlit yondashuv, tizimlilik, o'qitishda ta'lim oluvchilarning individualligi, kasbiy yo'nalganligi e'tiborga olish kabi tamoyillariga asoslanadi.

3. Reflektiv sharoit. Yaratilgan pedagogik shart-sharoitlarning natijaviy mahsuli sifatida reflektiv (refleksiya-ortga nazar, tahlil, o'zgarishlar, shaxsning o'z faoliyatini baholay olish darajasi) sharoit muhitining yaratilishiga alohida e'tibor berildi. Kasbiy bilim – aniq mehnat faoliyati doirasida bajariladigan ishlar uchun zarur bo'lgan axborotlar va o'zlashtirilgan nazariy ma'lumotlar birlashmasidir. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirish jarayoniga qo'yiladigan zamonaviy talablardan biri bu innovatsiyalarni faol o'zlashtirish va amalga tatbiq etish ko'nikmalaridir. Innovatsion tayyorgarlik–mutaxassis shaxsidagi pedagogik faoliyatga nisbatan aksiologik, akmeologik, kreativ, reflektiv yondashuvning shakllanganligi, ta'lim jarayonida ijodiy hamkorlik muhitining yaratilishi, o'qitish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish, innovatorlik faoliyatiga bo'lgan faol motivatsiyaning qaror topganligi bilan belgilanuvchi kasbiy tayyorgarlik mezonlaridan sanaladi. Aynan shu nuqtayi nazardan zamonaviy axborot texnologiyalarining tatbiq etilishi yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni maqbul tarzda hal qilish, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashda ahamiyati juda katta. Ta'limda innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo'llari izlanmoqda, ta'limda yangi axborot texnologiyalarni joriy etish masalasi ommalashmoqda. Bu esa o'qituvchilarning o'z mehnati faoliyatiga yangicha yondashuvini talab etadi. O'quv jarayonida yangi texnologiyalarning joriy etilishi, o'qituvchini texnikaviy vositalar tomonidan siqib chiqarilishiga emas, balki o'qituvchining vazifalari va rolini o'zgartiradi.

Zamonaviy o'qituvchi kelajak bunyodkori, yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, kontseptsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisidir. Zero, o'qituvchi ta'lim islohotining bosh ijrochisidir. Bunda har bir o'qituvchini qisqa vaqt ichida juda katta miqdordagi axborot to'plamini o'zlashtirish, qayta ishlash va amalda qo'llay olishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Uni hal qilishda o'qituvchiga o'qitishning an'anaviy usullari bilan birga zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, komp'yuterlardan foydalanish yordam beradi. Darsda kompyuterdan foydalanish o'qitish jarayonini qiziqarli olib borish, har bir o'quvchiga individual yondashish imkonini beradi. Ta'lim-tarbiya jarayonidagi innovatsiyalar, ilg'or pedagogik texnologiyalar, yangiliklar, dars o'tishning interfaol usullari o'z-o'zidan ta'limga kirib kelmaydi.

Demak, o'qituvchidan bilim, ijodiy mehnat va kasb mahorati talab qilinadi. Chunki o'qituvchi faoliyati yangilan-masa ta'limda samaradorlikka erishib bo'lmaydi. O'qituvchi tomonidan bolalarni ijodiy izlanish, faollik, erkin fikr yuritishga yo'naltiruvchi ta'lim shakli, metod va vositalarining to'g'ri tanlanishi darslarning qiziqarli, bahs-munozaralarga boy bo'lishi, ijodiy tortishuvlarning yuzaga kelishiga turtki beradi. Mana shu holatdagina bolalar tashabbusni o'z qo'llariga oladilar, o'qituvchining zimmasida esa

ularning foliyatini ma'lum yo'nalishga solib yuborish, umumiy faoliyatni nazorat qilish, murakkab vaziyatlarda yo'l-yo'riq ko'rsatish, maslahatlar berish hamda ular faoliyatini baholash kabi vazifalar qoladi. Berilayotgan bilim oddiygina xotira yordamida emas balki, bolaning o'z fikrlash sa'y-harakatlari bilan egallangandagina mustahkamlanadi. Bolaning erkin fikrlash, ayniqsa tasavvur etish, faraz qila olish qobiliyatini rivojlantirish, ko'nikma va malakalarni vujudga keltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun har bir o'qituvchi o'z darslarida bolalarga chuqur bilim berishi uchun axborot va pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Dars o'tishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash natijasida samarali natijalarga erishadi. Bugungi kunda boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganining asosiy sababi quyidagilardir:

birinchidan, innovatsion texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida.

ikkinchidan, innovatsion texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

uchinchidan, innovatsion texnologiya o'qituvchini ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi. To'rtinchidan, innovatsion texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo'llashga asoslanganligi sababli, ularning qo'llanilishi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarini amalga oshirishni ta'minlaydi. Har qanday innovatsion texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy harakterdan kelib chiqqan holda, bolani kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimni tarbiyalayotganiga bog'liq. Innovatsion texnologiya asosida o'tkaziladigan mashg'ulotlar bolalarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtayi nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun ham ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Innovatsion texnologiya va ularning ta'limda qo'llanilishiga oid bilimlar, tajriba bolalarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini tahminlaydi. Shu bilan birga, ta'lim-tarbiya jarayonlarida yangi pedagogic texnologiyalarni qo'llashda allomalarimizning g'oya va qarashlaridan foydalanish o'quvchi-talabalarni o'qitish va tarbiyalashni yanada samarali bo'lishiga olib keladi.

Xulosa. Yangicha fikrlash, o'z fikriga ega, bozor sharoitlarida muvaffaqiyatli ish yuritadigan, yuksak malakali, chuqur bilimli yoshlarni tarbiyalash yumushi o'qituvchilarning innovatsion faoliyatini jadallashtirish samarasi o'laroq rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat.– Toshkent: 2003.-174-b.
2. Tolipov O'., Usmanova M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: —Fan, 2005.-206 b.
3. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. – Toshkent.

UO'K 371.322.3

STEAM TA'LIMINI TASHKIL ETISHDA MUAMMOLI TA'LIMNING ROLI

Jumabayev Abdulxamid To'xtanazarovich

Namangan viloyati XTXQTMOHM katta o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasi

E-mail: Jumaboyev_a@inbox.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada STEAM darslarini tashkil etishda muammoli ta'limdan foydalanish bo'yicha zaruriy ko'rsatmalar, hayotiy muammolar va ularning turlari hamda STEAM ta'limini amalga oshirishda ushbu muammolardan foydalanib, oquv mashg'ulotlarini amalga oshirish bo'yicha fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: STEAM ta'limi, texnologiya, muammolar, texnik ijodiyot, STEAM muammolari, mahalliy muammolar, global, ekologiya, muhandislik, muhandislik muammolari.

UDC 371.322.3

THE ROLE OF PROBLEMATIC EDUCATION IN ORGANIZATION OF STEAM TECHNOLOGY

Jumabayev Abdulkhamid Tukhtanazarovich

Senior lecturer of Namangan Regional Center for Upgrading and Retraining of Public Education

Employees, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. This article provides the necessary guidelines for the use of problem-based learning in the organization of STEAM lessons, everyday problems and their types, as well as ideas for conducting training sessions using these problems in the implementation of STEAM education.

Keywords: STEAM education, technology, problems, technical creativity, STEAM problems, local problems, global, ecology, engineering, engineering problems.

Bugungi davr talabi dunyo ta'limi oldiga katta vazifalarni qo'yimoqda, ya'ni bolani kelajakda jamiyatda yashashga tayyorlashi kerak. Bunda birinchi navbatda tez o'zgarayotgan, yangilanib borayotgan axborotlar bilan uyg'un holda faol ishlaydigan kasb egalari timsolini bugungi o'quvchi yoshlarda shakllantirish lozim. Axborotni olish, qayta ishlash va amaliyotda foydalanish STEAM ta'limi dasturining asosini tashkil etadi.

STEAM ta'limi texnologiyasi loyihalash metodiga tayangan holda uning asosida bilish va badiiy izlanish yotadi. Bunday izlanish amaliy faoliyat jarayonida bilimlarni olish, so'ngra ulardan amaliyotda qayta foydalanish, ya'ni o'yinlarda konstruksiyalar tuzish, texnik ijodiyot elementlarini qo'llab, bilim olishga oid tadqiqot ishlarida amalga oshiriladi.

STEAM ta'limi asosida yondashuv o'quvchi yoshlarga dunyoni tizimli ravishda o'rganishga, atrofda ro'y berayotgan jarayonlarni mantiqiy mushohada qilishga, ulardagi o'zaro aloqani anglab yetishga o'zi uchun yangi, noodatiy va qiziqarli narsalarni kashf qilishga imkon beradi. Qandaydir yangilikni kutish orqali o'quvchi yoshlarda qiziquvchanlikni rivojlantiradi, o'zi uchun qiziqarli masalani aniqlab olishni, yechimini topishning algoritimini ishlab chiqishni, natijalarni tanqidiy baholashni, fikrlashning muhandislik jihatlarini shakllantirishga olib keladi.

Boshlang'ich maktabda, o'rta va o'rta maktabda STEM o'quvchilarning har xil bilim va ko'nikmalariga muvofiq amalga oshirilganligi aniq, ammo barcha darajalarda bolalarda qiziqishni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, fan, texnologiya, muhandislik va bizning aloqalarimizni namoyish etish kabi vazifalar mavjud. kundalik hayot. Integratsiyalashgan sinflar tufayli o'quvchilar ilmiy bilimlar ruhini his qila oladilar, alohida-alohida nomutanosib faktlardan dunyoning har tomonlama tasavvurini qanday qurishni o'rganadilar, ilmiy bilimlarning obyektivligi, tekshiruv va tizimli tabiatiga tayanadilar, fan texnologik taraqqiyot va haqiqatni o'zgartirishning eng muhim omili ekanligiga ishonch hosil qiladilar.

Maktab haqiqatan ham STEMdan foydalanayotganligini qanday aniqlash mumkin? Ushbu uslub bo'yicha darslarda shou emas, balki ta'lim jarayoni ustuvor hisoblanadi, har bir keyingi qadam o'quvchilar tomonidan aniq tushuniladi, laboratoriya asboblari va robot asboblari darsning tuzilishiga bevosita jalb qilinadi. STEM darsi quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

- **Amaliy muammolar va tashvishlarga e'tiboringizni qarating.** O'quvchilar ilmiy bilimlar, texnologiyalar, muhandislik va matematikani qo'llash orqali haqiqiy ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik muammolarni hal qiladilar.

- **Muhandislik dizayni jarayonidan foydalanish.** Ushbu ish shakli o'quvchilarga muammolarni aniqlash va ularni hal qilish yo'llarini izlash, o'z ishlanmalarini yaratish imkoniyatini beradi. O'quvchilar dastlabki o'rganishni o'tkazadilar, bir nechta echimlarni ishlab chiqadilar, prototiplar tayyorlashlari, sinovlarni o'tkazishlari, tahlil qilishlari va rivojlanishlarini yaxshilashlari mumkin. Bunday tadbirlarning natijasi- bu o'zlarining tadqiqot g'oyalari va muhandislik echimlari.

- **O'quvchilarni amaliy va vizual izlanishlarga jalb qilish.** Nazariy bilimlar va taxminlarning amaliy sinovi o'tkaziladi, o'quvchilar o'z mahoratini laboratoriya va seminarlarda sinab ko'rishadi.

- **Jamoada samarali ishlash.** Sifatli mahsulot ishlab chiqarish uchun o'quvchilar yagona mexanizm sifatida ishlashlari, o'zaro vazifalarni taqsimlash, qisqa va uzoq muddatli maqsadlarni belgilash, oraliq natijalarni tahlil qilish va ichki aloqalarni yaxshilash kerak. Ba'zi joylarda darslarning ushbu komponenti maktab o'quvchilari uchun eng qiyin.

- Fan va matematikaning mavzulari bo'yicha yuqori sifatli ma'lumot manbalaridan foydalanish, shuningdek, bir nechta echimlarni ta'minlaydigan vazifalar bilan ishlash.

Muammolarni yechish bu STEM tekshiruvlarining yuragi, ammo shunchaki har qanday eski muammolarni hal qilmaydi. STEM o'quvchilarning qiziquvchanligini kuchaytiradigan haqiqiy loyihalarga qaratilgan- bu bolalar haqiqatan ham muhim bo'lgan ishlarni bajarishda ishtiyoq va hamdardlik tuyg'ularini keltirib chiqaradigan muammolar.

O'quvchilar mahsulotni xavfsizroq yoki iqtisodiy jihatdan samaraliroq qilish uchun yechimlar ishlab chiqishi va yaratishi mumkin. Ular o'zlarining mahalliy atrof-muhitiga yetkaziladigan zararni minimallashtirish usulini ishlab chiqishlari mumkin. Ular sog'liq muammolari yoki foydalanish imkoniyati muammosini hal qilish ustida ishlashlari mumkin. Ular birgalikda ishlash jarayonida ular sinfda o'rganadigan tarkibiy qismlarning amaliy dasturlarga ega ekanligini tushunishadi.

STEM haqiqiyiligini tanlash mezonlari

O'quvchilar tushinishi mumkin bo'lgan real muammolarni aniqlash va yechimlarni loyihalashtirish loyihani yaratishning eng qiyin qismlaridan biri bo'lishi mumkin. STEM loyihagini tanlash yoki ishlab chiqishda ko'rib chiqadigan bir nechta maslahatlar:

- *Muammo haqiqiy ekanligiga ishonch hosil qiling.* Bu odamlar hayoti va jamoalariga tegishli bo'lgan muammolarga asoslanishi kerak. Agar siz ishonadigan stsenariyni (kosmik begonalar, multfilm qahramonlari, xayoliy hayvonlar va boshqalar) ishlatadigan loyihaga duch kelsangiz, uni o'ting va qarab turing.

- *Muammoni hal qilishda davom eting.* Ushbu loyiha o'quvchilarni boshdan kechiradigan muammolarga qaratilgan bo'lishi kerak. Bolalar loyihaga yechimlarni tanlash va sinab ko'rish uchun zarur bo'lgan bilim va mahorat to'plami bilan kelishlari kerak.

- *O'quvchilar muammoga aloqador ekanligiga ishonch hosil qiling.* Ular bu masala haqida qayg'urishlari kerak. Agar o'quvchilar u bilan tanish bo'lmasa, muammoni kontekstda video, xizmat safari, ma'ruzachilar va boshqalar bilan hal qiling.

- *Bir nechta maqbul yondashuvlar va yechimlarni topishga imkon beradigan muammolarni tanlang.* Muammoni bitta, oldindan belgilab qo'yilgan yondashuv yoki bitta "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" javob bilan ham o'ylamang.

- *Muhandislikka asoslangan muammoni tanlang.* Shuni esda tutingki, o'quvchilar ushbu muammoning yechimini loyihalash va qurish uchun muhandislik jarayonidan foydalanadilar. Va muhandislarga o'xshab, ular yechimlarni taklif qilish va yaratish uchun jamoalarda ishlashadi.

- *O'quvchilarni muammoni o'ylab topishga undang.* Ushbu yondashuv odatda o'quvchilarda eng ko'p ishtiyok va qiziqishlarni keltirib chiqaradi. O'quv dasturida belgilangan cheklavlar doirasida echishni istagan muammolarni aniqlash uchun ularga iloji boricha ko'proq erkinlik bering. Siz o'quvchilardan o'z uylarida, maktablaridagi yoki jamoalaridagi muammolar haqida ogoh bo'lishni so'rashdan boshlashingiz mumkin. Masalan, o'quvchilar maktab hovlisida eroziyani payqashlari yoki bolalar uy vazifalarini boshqarish uchun raqamli vositaga ehtiyoj borligini aniqlashlari mumkin. Atrofingizdagi fuqarolarning hayotini yaxshilash uchun nima bo'lishi kerakligini so'rang. Shunchaki o'quvchilarni o'zlarining darajalari va bilimlari darajalariga mos keladigan muammolarga yo'naltirishni unutmang.

- *Onlayn qidiruvni amalga oshiring.* Qidiruv tizimiga "haqiqiy muammolar" ni shunchaki kiritish shunchaki g'oyalarni amalga oshirishingiz mumkin bo'lgan ko'plab saytlarni jalb qiladi. Ammo ogohlantiring: "haqiqiy dunyo muammosi" deb nomlangan har bir narsa, STEM real dunyoda muhandislik yondoshuvi bilan bog'liq muammo emas.

- Asosiy muammolar to'rtta asosiy mavzularga bo'lingan: barqarorlik, sog'liq, xavfsizlik va yashash quvonchi. O'rta maktab o'quvchilarini ilhomlantirishi mumkin bo'lgan ba'zi muammolar quyosh energiyasi, toza suv, sog'liqni saqlash (jumladan, oziq-ovqat etishmovchiligi, kasalliklar va foydalanish imkoniyati) va shahar infratuzilmasi (transport tizimlari va munitsipal tuzilmalar).

- **Ta'lim muhandislik** sayti shuningdek, STEM / muhandislik bo'yicha bir qator darslarni taklif etadi – bu **Maker Chaqiriqlarini diqqat** bilan ko'rib chiqing.

- O'rta maktab o'qituvchilari uchun **Rutgers Today bugungi kunda** eng yaxshi zamonaviy muammolarni tavsiflovchi ajoyib manba hisoblanadi. Matematikadan yoki ilmiy darajadan yuqori sinf o'quvchilari ushbu turdagi muammolar uchun echimlarni ishlab chiqish va amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishlari mumkin.

Bu STEM echimlari bilan haqiqiy muammolarni aniqlashga yordam beradigan ko'plab manbalar. Sharhlar bo'limida o'z veb-saytlaringizni yoki STEMni o'qitish uchun boshqa manbalarni baham ko'ring. O'z fikrlaringiz va tajribangizni baham ko'rish orqali siz barcha STEM o'qituvchilariga va o'quvchilarga bilim olishga yordam berishingiz mumkin.

Haqiqiy STEM muammolarining turlari: Sizning loyihangiz qanday muammoni hal qilishi kerak?

O'quv rejangizning maqsadlarini tekshirishdan boshlang. Muammoni maktab tizimining peshqadamlik qo'llanmasidagi matematik va / yoki fan standartlari to'plami bilan sinxronlashtirish kerakmi yoki yo'qligini ko'rib chiqing. Loyihaning qaysi standartlari bilan shug'ullanishini hal qilgandan so'ng, siz ikkita toifadagi muammolarni ko'rib chiqishingiz mumkin- mahalliy va global.

Mahalliy muammolar. Mahalliy muammolarni maktab yoki sinfning onlayn joyiga joylashtirish uchun jamoat a'zolarini taklif qiling; yoki ular "jamoaviy STEM loyihasi" uchun to'g'ridan-to'g'ri o'quvchilarga yozma ravishda takliflar yuborishlari mumkin. **Mahalliy** muammolar banki loyihada bitta maktab mahalliy muammolarni qanday muvaffaqiyatli hal qilganligi to'g'risida tasavvurga ega bo'ling.

O'quvchilaringiz mahalliy muammolarni ham aniqlashlari mumkin. Bular har qanday joyda, shaxsan o'zlariga taalluqli masalalardan tortib, o'quvchilar o'zlarining maktablari va jamoalari bilan yechimini talab qiladigan muammolarni o'rganishlari kerak.

Global muammolar. Dunyomiz oldida turgan haqiqiy muammolarga kengroq qarash uchun Milliy Muhandislik Akademiyasining Buyuk Qiyinchiliklariga qarang. Ushbu saytda sayyoramizda hayotni yaxshilash uchun ba'zi o'yinlarni o'zgartiradigan maqsadlar mavjud. Ushbu maqsadlar bolalar bog'lashi mumkin bo'lgan to'rtta toifaga bo'linadi va shu bilan birga maktabdagi fanning ko'pgina maqsadlariga mos keladi: Barqarorlik, Salomatlik, Xavfsizlik va Hayot quvonchlari.

- **Iqtisodiy quyosh energiyasi.** Bu maydon quyosh energiyasini tortib olish, uni foydali shakllarga aylantirish va foydalanish uchun saqlashni o'z ichiga oladi.

- **Toza suvga kirish.** Ushbu toifada o'quvchilar qayta ishlangan suvni tozalash usulini ishlab chiqishga e'tibor qaratishlari mumkin; yoki ular suv sarfini va chiqindilarni kamaytirish usulini ishlab chiqishga kirishishlari mumkin.

- **Salomatlik va dori-darmonlar.** Bu sohada tibbiy yordam sifati va samaradorligini oshirish, dori-darmonlarni yaxshiroq tayyorlash va sog'liqni saqlash sohasidagi keng tarqalgan favqulodda vaziyatlarga javob berishni o'z ichiga oladi.

- **Ekologik muammolar.** Bular samaraliroq o'g'itlarni loyihalashdan tortib to eroziya to'siqlarini yaratishgacha turli xil shakllarni oladi. Bolalar yog'ning to'kilishi, suvning ifloslanishi, havo sifati, yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlar, oziq-ovqat etishmovchiligi va hokazolar bilan bog'liq muammolar ustida ishlashlari mumkin.

- **Shahar infratuzilmasi.** Bizning jamoalarimiz va mintaqalarimizni qo'llab-quvvatlaydigan ushbu asosiy tizimlar transport tizimlari, elektr tarmoqlari, suv va kanalizatsiya tizimlari, temir yo'l tarmoqlari va boshqa tuzilmalarni o'z ichiga oladi.

Hozir o'quvchilar qanday qilib bunday murakkab muammolarning haqiqiy yechimini topishlari haqida savol tug'ilishi mumkin. Shuni yodda tutish kerakki, o'quvchilarning yechimlari amalda bajarilmasligi mumkin. Umuman olganda, ular bir nechta imkoniyatlar yordamida aqliy hujum qilinadi; keyin muammoni hal qilish uchun prototiplarni loyihalash va sinovdan o'tkazish. (Muhandislar haqiqiy narsalarni yaratmasdan oldin ham prototiplarni ishlab chiqadilar.)

STEM ning haqiqiy muammolarini qanday topish mumkin?

Internetdan haqiqiy muammolarni aniqlashga yordam beradigan ba'zi saytlarni topishingiz mumkin. Ehtimol sizda ularning ro'yxati ham bor. Agar yo'q bo'lsa, qidiruv tizimiga "Asl muhandislik muammolari" yoki "STEM-ning haqiqiy muammolari" yoki "Haqiqiy dunyo muammolari" kabi iboralarni kiriting. Qalqib chiqadigan manbalardan diqqat bilan tanlang. Shuni esda tutingki, "STEM" yorlig'i bilan yozilgan har bir narsa haqiqiy STEM loyihasi bo'lishi shart emas. Shuningdek, muhandislik bilan bog'liq muammolarni izlayotganingizni unutmang.

STEM darslarini tashkil etishda ushbu sakkizta mezonni asosida amalga oshirish mumkin.

1. Fan, matematika va texnologiyani integratsiyalash uchun muhandislik dizayni jarayoni qo'llanilishi.

2. Ilmiy va matematik tarkib standartlarga asoslangan va sinfga mos holda qo'llaniladi.

3. O'quvchilar asosiy muammolarni yoki muhandislik muammolarini hal qilishga e'tibor berishadi.

4. O'quvchilar muntazam ravishda prototiplar va mahsulotlarni rejalashtirish, loyihalashtirish va yaratish, keyin ularni sinash va baholash va qanday yaxshilashni rejalashtirish uchun jamoalarda ishlaydi.

5. O'quvchilar muammolarni tavsiflash va natijalarini asoslash uchun turli xil aloqa usullaridan foydalanadilar.

6. O'qituvchilar savollarga asoslangan, o'quvchilarga yo'naltirilgan o'rganishni osonlashtiradi, bu esa amaliy so'rovni o'z ichiga oladi.

7. Muvaffaqiyatsizlik dizayn jarayonining tabiiy qismi va takomillashtirilgan yoki muvaffaqiyatli echimni yaratish yo'lidagi muhim qadam sifatida qabul qilinadi.

8. O'quvchilar STEM martaba va / yoki hayot uchun qo'llanmalar bilan tanishadilar.

Liderlar STEM maqsadi va sifatli STEM ta'lim dasturining mohiyatlari bilan tanish bo'lishi kerak. Ular o'zlarining STEM dasturidan qanday natijalarni kutishlari kerakligini aniq bilishlari kerak, keyin o'qituvchilarni rivojlantirish, ushbu o'quv jarayonini amalga oshirish uchun imkoniyat yaratadigan manbalar va muhit bilan ta'minlash kerak.

E'tibor bering, bu yagona mezon emas, lekin bu elementlar maktablarda STEM dasturlarini amalga oshirish uchun ishlatilishi mumkin va STEM sinflarida amaliyotning bir qismi bo'ladi. O'quvchilarga samarali ishlashni o'rganishga yordam berish STEM o'quv dasturlarining maqsadi, boshqa har qanday maqsad kabi muhimdir.

Xulosa qilib shuni takidlash mumkinki o'quvchilar muammolarni samarali yechimlarni ishlab chiqishda ijodkorlik, yaratish va muhandislik qilishlari mumkin. Kuchli yangi texnologiyalar o'quvchilarda hech qachon bo'lmagan kabi real hayot muammolarini hal etishda va tarqatishda yordam beradi.

Bolalar uchun haqiqiy va maqsadli o'zgarishlarni amalga oshirishning kaliti xayotiy tajribaning kuchi- qiziqish, munosabatlar, imkoniyatlar ekanligini ta'kidlaydi, shuningdek ular qilayotgan narsalarning ma'nosi va ahamiyati borligini anglash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sanders M. (2009). STEM, STEM education, STEMmania.[Электронный ресурс] // The Technology Teacher. 2009. № 68(4). С. 20–26. URL: http://www.artstem.org/wp-ntent/uploads/2010/09/Sanders_STEM_VTProgram.pdf свободный (дата обращения: 17.09.2015).
2. Supporting Scotland's STEM education and culture. [Электронный ресурс] / Science and Engineering Education Advisory Group. 2012. URL: <http://www.scotland.gov.uk/Resource/0038/00388616.pdf> свободный (дата обращения: 18.09.2015).
3. Tapping America's potential: The education for innovation initiative. [Электронный ресурс] // Business Roundtable. Washington, DC: 2005. URL: <https://www.aau.edu/WorkArea/DownloadAsset.aspx?id=6434> свободный (дата обращения: 10.09.2015).
4. Winning the Race to Educate Our Children. Science, Technology, Engineering, and Mathematics (STEM) Education in the 2012 Budget (White House Office of Science and Technology Policy). [Электронный ресурс]. URL: <https://www.whitehouse.gov/sites/default/files/microsites/ostp/OSTP-fy12-STEM-fs.pdf> свободный (дата обращения: 25.08.2015).

UO'K 371.315.7

O'QUVCHI YOSHLARDA DASTURLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Jumabayev Abdulxamid To'xtanazarovich

Namangan viloyati XTXQTMOHM katta o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi xukumati tomonidan IT sohasini rivojlantirishga va Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkining tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorlarida ko'rsatilgan asosiy vazivalarni bajarilishi boyicha amalga oshirilayotgan ishlar, xamda o'quvchi yoshlarda dasturlash ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari bo'yicha fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: IT-park, dasturiy mahsulotlar, ta'lim, texnologiya, muammolar, startap loyihalari, raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, Scratch loyihasi, dasturlash, dasturlash ko'nikmalari.

UDC 371.315.7

MODERN METHODS OF DEVELOPING OF PROGRAMMING SKILLS OF SCHOOLCHILDREN

Jumabayev Abdulkhamid Tukhtanazarovich

Senior lecturer of Namangan Regional Center for Retraining and Advanced Training of Public Education Employees, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. This article describes the work carried out by the Government of the Republic of Uzbekistan on the development of the IT sector and the implementation of the main tasks set out in the decisions on measures to establish a technology park of software products and information technology, as well as programming skills among students' opinions on modern methods of formation are stated.

Keywords: IT park, software products, education, technology, problems, startup projects, digital economy, information technology, Scratch, Scratch project, programming, programming skills.

Bugungi kunda O'zbekistonda IT sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda, yoshlar orasida AKT sohasiga qiziqish va intilishni rivojlantirishni esa O'rta Osiyoning texnologik markaziga aylanishdek maqsadga erishish uchun eng muhim va asosiy qadam deb hisoblash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasi bilan Hindiston Respublikasi o'rtasida strategik sheriklikni yanada kengaytirish va mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3958-son qaroriga muvofiq, shuningdek, axborot texnologiyalari sohasini va dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Ushbu sohadagi startap-loyihalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ichki va tashqi bozorlarda dasturiy va yuqori texnologiyali mahsulotlar va xizmatlarni targ'ib qilishga ko'maklashish maqsadida Vazirlar Mahkamasining "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkining tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi" 15.07.2019 sanadagi 589-sonli qarorilari qabul qilindi.

Ushbu qarorda Texnoparkning quyidagi asosiy yo'nalishlari ko'rsatib o'tildi:

➤ axborot texnologiyalari sohasida raqobatbardoshli mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqilishini rivojlantirish va ishlab chiqarish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning ichki va tashqi bozorlarga kirib borishi, innovatsion ishlanmalarni rag'batlantirish;

➤ Texnopark rezidentlariga faoliyatni amalga oshirish uchun zarur infratuzilma, shu jumladan, zamonaviy laboratoriyalarni berish, ularga moliyaviy, marketing, yuridik va boshqa konsalting xizmatlari, shuningdek, akseleratsiya dasturlari bo'yicha xizmatlar ko'rsatish;

➤ startap-loyihalarni amalga oshirishda, shu jumladan, venchur moliyalashtirish asosida qo'llab-quvvatlash, axborot texnologiyalari sohasida boshlovchi va kichik korxonalariga innovatsion faoliyat natijalarida ko'maklashish;

➤ shu jumladan, zamonaviy texnologiyalar va dasturiy mahsulotlar transferi hisobiga loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun mahalliy va xorijiy investorlarni jalb etishda rezidentlarga ko'maklashish;

➤ yuqori texnologik mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarish zanjirining uzluksizligini ta'minlash uchun ilmiy, ilmiy-tadqiqot, o'quv va ishlab chiqarish tashkilotlari faoliyati o'zaro integratsiyasiga ko'maklashish;

➤ axborot texnologiyalari sohasida yuqori malakali mutaxassislarning zamonaviy sinfini shakllantirish maqsadida aholi va yoshlar o'qitilishini tashkil etish;

➤ axborot texnologiyalari sohasida yetakchi kompaniyalar va mutaxassislarni jalb etgan holda mahorat darslari, treninglar va malaka oshirish kurslari, shuningdek, ilmiy-amaliy konferentsiyalar o'tkazish.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarga muvofiq hamda iqtisodiyot tarmoqlari va davlat boshqaruvi tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish va telekommunikatsiya tarmoqlarini kengaytirish orqali respublika iqtisodiyotining raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadlari belgilab olindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-son qarorida xam xalq xo'jaligining turli soxalarida raqamli texnologiyalarni qo'llash maqsadida dasturiy mahsulotlarni yaratish va ulardan samarali foydalanish vazifalari ko'rsatib o'tildi.

Ushbu qarorlarda ko'rsatilgan vazifalarni bajarish va zaruriy dasturiy mahsulotlarni yaratish uchun malakali dasturchilar talab etiladi. Xoziirgi kunda bunday malakali dasturchilarni tayyorlash boshlang'ich maktab davridan boshlab tarbiyalash kerak bo'ladi.

Aslida, bugungi kunda dasturlash mavzusiga kirish uchun ko'plab imkoniyatlar mavjud: YouTube-dagi mashhur bloglardan tortib maxsus o'quv dasturlari va bo'limlariga qadar. Eng muhimi, bolaga rivojlanish yo'nalishini tanlashga yordam berish va uning qiziqishini uyg'otish. Bolalar psixikasining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, erta va o'rta yoshda uzoq vaqt biron narsaga e'tibor qaratish qiyin. Bizning vazifamiz bolalarni dasturiy ta'minotni ishlab chiqishga bo'lgan qiziqishi doimiy ravishda kichik yutuqlar bilan qo'llab-quvvatlanishini ta'minlashdir.

Bolaning har qanday tashabbusida eng muhimi uning e'tiborini va qiziqishini saqlab qolishdir. Qiziqish, o'z navbatida, bola natijani ko'rganida paydo bo'ladi. Shuning uchun dasturlashni o'rganishda birinchi qadam uzoq bo'lmasligi kerak, ammo natijasi yorqin, esda qolarli bo'lishi kerak va eng muhimi- uni yanada rivojlantirishni xohlash.

Dasturlashni o'rganish masalasida, birinchi navbatda, bola va ota-ona IT sohasi haqida sodda tilda gapirib berishi kerak. Har qanday IT-loyihalarni, shu jumladan o'yinlarni yaratishda turli xil mutaxassislar jamoasi ishlaydi, ularning har biri o'z vazifasini bajaradi: kimdir jadval uchun, kimdir kod va dasturlash uchun, kimdir skript uchun, kimdir o'z zimmasiga oladi. Loyihalarni yaratish jarayoni unchalik murakkab emasligini ko'rsatib, sodda tilda aytib berish kerak, asosiysi loyihani kichik loyihalarga bo'lish va uni to'g'ri algoritmda amalga oshirishni boshlashdir.

Ikkinchidan, dasturchilar, dizaynerlar va boshqa barcha IT-mutaxassislarning faoliyati natijalari haqida ko'proq ma'lumot berish kerak.

Buning uchun siz bolalarga ish va IT mahsulotlarining namunalarini ko'rsatishingiz mumkin: chiroyli saytlar, taniqli o'yinlarning video-teakerlari, grafikalar bilan ishlash uchun dasturlar (shuningdek dasturchilar tomonidan yaratilgan), grafik rasmlar va animatsiyalar.

Uchinchidan, dastlabki ikki bosqichdan keyin bolaga savol berishni so'rash kerak, u qaerda o'qishni boshlashni xohlayotganini ko'rsatib beradi va bu dasturlash bo'ladi, masalan, jadvalda farq yo'q. Axir, asosiy narsa, bu bolaning individual xususiyatlari va xohish-istaklariga asoslangan o'rganish va IT bilan tanishishdir. Ya'ni, biz IT sohasiga va dasturlashiga kirishda bola uchun eng qulay chegarani yaratamiz.

Bundan tashqari, bolalar yoki o'smirlar dasturlash tillaridan birini kodlashni yoki maxsus dasturlarni (Photoshop yoki After Effects) chizish va jonlantirishdan oldin, bolani dasturchi sifatida algoritmik fikrlashni

o'rganishga o'rgatadigan dasturlar bilan tanishtirish maqsadga muvofiqdir. bu nafaqat kod yozishda, balki har qanday loyihalarni yaratishda ham foydali bo'ladi.

Buning uchun siz Scratch, Code Combat, Tynker kabi manbalardan foydalanishingiz mumkin. Bularning barchasi- bolalarni dasturlash va algoritmik fikrlashni o'rgatishga qaratilgan vizual dasturiy paketlar, lekin shu bilan birga, bolalar dasturlash tili (kodi) sintaksisiga murojaat qilishlariga to'g'ri kelmaydi. Ushbu muhitda siz o'yinlar, animatsiyalar yaratishingiz va o'zingizning harakatlaringiz natijalarini darhol ko'rishingiz mumkin (bu bolalar uchun nimadir qiziqish uyg'otganda muhimdir).

O'quvchi yoshlarni maktab davrida dasturlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun bir necha zamonaviy usullarni taklif etamiz:

Scratch yordamida boshlang'ich dasturlash ko'nikmalarini shakllantirish.

Scratch yordamida o'quvchilar o'zlarining ineraktiv hikoyalarni, animatsion roliklarini va o'yinlarini dasturlashda foydalanishi mumkin. Ta'lim jarayonida ular ijodiy fikrlash, tizimli ravishda asoslash va jamoaviy ishlash kabi bugungi jamiyatda barchaga zarur bo'lgan ko'nikmalarni o'rganadilar. Muallimlar esa Scratchni turli xil mavzular va yoshlar guruhlariga birlashtiradilar.

Scratch yordamida interaktiv hikoya, o'yin va animatsiyalar yaratishingiz hamda ularni onlayn hamjamiyat foydalanuvchilariga ulashishingiz mumkin.

Scratch loyihasi yoshlarni ayniqsa 21-asrda insondan talab qilinadigan asosiy bilimlar-ijodiy fikrlash, tizimli mulohaza yuritish va hamjihatlikda ishlashga o'rgatadi.

Scratch – bu MIT Media Lab laboratoriyasidagi Lifelong Kindergarten Group loyihasidir. U bepul taqdim etiladi.

Scratch nafaqat dasturlash muhiti, balki keng jamoatchilik hamdir. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida bolalar va kattalar, o'qituvchilar va maktab o'quvchilari Scratch dasturini o'rganish, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, o'yinlar va interfaol animatsiyalarni yaratish, shuningdek, bir-biri bilan aloqa o'rnatish, bir-birlarining loyihalarini o'rganish va ishlatish uchun foydalanadilar.

Hamjamiyat va dasturlash sayti <https://scratch.mit.edu/> da joylashgan . Bu global ijtimoiy tarmoq bo'lganligi sababli, sayt interfeysi tili ingliz tiliga aylanishi mumkin. Uni o'zbek tiliga o'zgartirish uchun sahifani pastga aylantirish va ochiladigan ro'yxatda o'zbekchani tanlang.

Scratch loyihasi 2003-yilda Science Foundation, Intel Foundation, Microsoft, MacArthur Foundation, LEGO Foundation, Code-to-learn Foundation, Google, Dell, Fastly, Inverso va MIT Media Lab tadqiqot konsortsiumlarining moliyaviy ko'magi bilan boshlangan.

Scratch yaratuvchilari uni 8-16 yoshdagi bolalar uchun maxsus ishlab chiqdilar. Biroq, sichqonchani o'qiy oladigan, sanaydigan va ishlatadigan 6-7 yoshli bolalar oddiy loyihalarni ham yaratishi mumkin.

Scratchda dasturlash juda qiziqarli faoliyatdir, shuning uchun buni guruhlarda qilish yaxshidir, shunda bolalar darhol o'z loyihalarini baham ko'rishlari, muhokama qilishlari, birgalikda hikoyalar qilishlari mumkin.

Skratch boshlang'ich sinflarda (kengaytirilgan kun guruhlarida) sinfdan tashqari darslarda foydalanish uchun juda mos keladi. Bolalar loyihalarni yaratishga juda qiziqishadi, shuning uchun ularning xatti-harakatlari yaxshilanadi.

Skratch kompyuter bilan jihozlangan kutubxonalarda ishlatilishi mumkin. U erda bolalar o'qish kitoblari qahramonlari haqida loyihalar yaratishlari, birgalikda ishlashlari mumkin.

Skratch uzluksiz ta'lim muassasalarida yosh dasturchilar guruhlarini tashkil qilish uchun juda mos keladi.

Uyda Scratchdan foydalanganda, saytda ro'yxatdan o'tib va u erda barcha loyihalarni joylashtirishingiz mumkin. Saytda katta bir jamoa mavjud bo'lib, unda bolalar tengdoshlarni topishlari, savollar berishlari va loyihalarni muhokama qilishlari mumkin.

Zamonaviy raqamli asrda dasturlash haqidagi bilimlarni o'qish bilan taqqoslash mumkin. Farzandlarimizga o'qish va yozishni, qo'shishni va olib tashlashni o'rgatganimizda, ularga tashqi dunyo bilan qanday munosabatda bo'lishni o'rgatamiz. Dasturlash asosiy mahoratga aylangan zamonaviy dunyo. Va buni qanchalik tez anglasak, farzandlarimizni kerakli vositalar bilan tezroq jihozlay olamiz. Ota-onalar va o'qituvchilar sifatida biz bolalarga tadbirkorlik va innovatsion jamiyatda rivojlanishiga yordam beradigan eng yaxshi ta'lim va vositalarni berishga intilishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4699-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-iyuldagi "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkining tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 589-sonli qarori.
3. Yuldashev U.Yu, Boqiev R.R., Zokirova F.M. Informatika o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent. «Talqin» 2004. 187-b.
4. Xodjaev B.X. Innovatsion ta'lim texnologiyalari modulidan ma'ruza matnlari.-T.:2015

5. <http://www.ye-school.for.uz> – Umumiy o‘rta ta’lim maktablari masofaviy ta’lim uchun mo‘ljallangan platforma portali.
6. <http://www.informatika.ru>
7. <http://www.infojournal.ru>
8. <http://www.robokidz.uz>

UO‘K 371.123

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA MAKTAB O‘QITUVCHILARINING PEDAGOGIK IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH TIZIMI

Najmiddinova Yoqutxon Ruxiddinovna
PhD, Namangan muhandislik-qurilish instituti, O‘zbekiston Respublikasi
Ibragimov Doniyor Xoshimjonovich
Namangan muhandislik-qurilish instituti, O‘zbekiston Respublikasi
E-mails: yokuthongano@bk.ru, doniyor211185@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada malaka oshirish jarayonida maktab o‘qituvchilarining pedagogik ijodkorligini rivojlantirishda maqsadning qo‘yilishi, jarayonning tashkil etilishi va natijaning aniqlanishi komponentlari asosida ishlab chiqilgan pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning klasterli modelini ishlab chiqishligi to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: malaka oshirish, maktab o‘qituvchilari, rivojlantirish, pedagogik ijodkorlik, rivojlantirish tizimi.

UDC 371.123

DEVELOPMENT AND STRUCTURE OF PEDAGOGICAL CREATIVITY OF SCHOOL TEACHERS IN THE PROCESS OF HIGHER QUALIFICATION

Nazhmiddinova Yoqutkhon Rukhiddinovna
PhD, Namangan Engineering Construction Institute, Republic of Uzbekistan
Ibragimov Doniyor Khoshimjonovich
Namangan Engineering Construction Institute, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. This article discusses the development of a cluster model for the development of pedagogical creativity, based on the components of setting goals, organizing the process and determining the results in the development of pedagogical creativity of schoolteachers in the process of professional development.

Key words: professional development, schoolteachers, development, pedagogical creativity, development system.

Maktab o‘qituvchilari pedagogik ijodkorligi rivojlanishi uchun malaka oshirish jarayonida quyidagilarga alohida e‘tibor qaratilishi lozim:

1. Maktab o‘qituvchisining pedagogik ijodkorligi rivojlanishi uning qanday pedagogik muhitda faoliyat ko‘rsatayotganligiga, u bilan o‘zaro hamkorlik qiladigan rahbarlar, hamkasb o‘qituvchilarning pedagogik ijodkorligining o‘zaro ta‘siriga bog‘liqligi.

2. Maktab o‘qituvchisining kasbiy-pedagogik ijodkorligi rivojlanishida umumiy dunyoqarash, yaxlit yondashuv muhim ahamiyatga ega, ular bir-biriga zid bo‘lishi mumkin emas. Shu bois maktab o‘qituvchilarining pedagogik ijodkorligi va kasbiy faoliyatining rivojlanishi jarayoni yaxlit tarzda o‘rganiladi.


Pedagogik adabiyotlar tahlillaridan ko‘rinadiki, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida, qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonida maktab o‘qituvchilarida kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning metodik tizimi bir necha bosqichlarni nazarda tutadi. Ularning har biri o‘z maqsadi, vazifasi, mazmuni va metodiga ega. Maktab o‘qituvchilarining pedagogik faoliyati hamda qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonida ular pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning pedagogik tuzilmasi rasmda tasvirlangan (rasmga qarang). Malaka oshirish tizimida maktab o‘qituvchilarida pedagogik ijodkorlikni uzluksiz rivojlantirishning pedagogik tuzilmasi komponentlar, vositalar, ta’lim mazmuni, uni joriy etish va natijani baholash mezon va ko‘rsatkichlaridan iborat [1].

Ushbu pedagogik tizimning asosiy mazmuni bir nechta komponentlardan tashkil topgan (1-rasm). Pedagogik ijodkorlikni rivojlantirish jarayoni quyidagi vazifalarni bajaradi:

- o'qituvchilarni pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishga qiziqtirish (motivatsiya uyg'otish), pedagogik faoliyat hamda qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonida maktab o'qituvchilarini pedagogik ijodkorlik to'g'risidagi bilim va tushunchalar bilan boyitish;

- o'qituvchilarni pedagogik ijodkorlik bo'yicha metodik ishlarga yo'naltirish va tayyorlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishga, metodik ishlarni bajarishga tayyorlash, ularga ilmiy-pedagogik izlanishlarga oid mavzular (ijodiy ishlar yo'nalishlari)ni tanlashlarida yordam berish.

Maktab o'qituvchisining o'zi haqidagi tasavvurlarini doimiy ravishda aniqlab borishi, unga o'z oldiga muayyan talablar qo'yish imkonini beradi.



1-Rasm. Malaka oshirish jarayonida maktab o'qituvchilarining pedagogik ijodkorligini rivojlantirish tizimi

Buning natijasida maktab o'qituvchisi o'zining yutuq va kamchiliklarini aniq bilib oladi, o'z oldiga yangi maqsadlar qo'yadi. O'zining faoliyati natijalarini anglash, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini, jodiy ishlari namunalarini, shaxsiy metodikalari va dars o'tish usullarini hamkasblariniki bilan qiyoslash, o'z kasbiga oid qo'shimcha ma'lumotlar olish, o'zining kasbiy-pedagogik faoliyatini doimiy ravishda baholab borish, o'z faoliyatini loyihalash, o'z oldiga pedagogik maqsad qo'yish va boshqalar uning pedagogik ijodkorligini rivojlantirish omili hisoblanadi.

Ilmiy izlanishlar natijasida quyidagilar aniqlandi va tahlil qilindi: 1) maktab o'qituvchilarida pedagogik o'z-o'zini va ijodkorligi mohiyatini anglash ko'nikmasi rivojlanishining boshlang'ich darajasi; 2) maktab o'qituvchilarining pedagogik ijodkorlikka munosabatlari; 3) maktab o'qituvchilarining pedagogik innovatsiyalarga munosabatlari; 4) maktab o'qituvchilarida pedagogik tajriba va ijodkorlikning rivojlanganligi darajasi.

Pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning pedagogik tizimini, maktab o'qituvchilarining o'zi haqidagi tasavvurlarini aniqlash bizga ularning pedagogik ijodkorligini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni samaradorligi darajasini aniqlashga imkon beradi.

Kasbiy-pedagogik ijodkorlik pedagogik tizim ichida kechadi, lekin bu tizim faoliyatining samarali bo'lishi uchun uni o'rab turgan ijtimoiy-madaniy muhit talab darajasida bo'lishi, ya'ni moddiy-ma'naviy, ijtimoiy-pedagogik va boshqa shart-sharoitlar yaratilishi zarur [2].

Malaka oshirish jarayonida maktab o'qituvchilarining pedagogik ijodkorligini rivojlantirishda maqsadning qo'yilishi, jarayonning tashkil etilishi va natijaning aniqlanishi komponentlari asosida ishlab chiqilgan pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning klasterli modelini ishlab chiqish mumkin. Klasterli model- ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish muammosining yirik hamda kichik qismlarga bo'lingan xolda o'rganilishi, umumiy global maqsadga yo'naltirilgan xolda bosqichma-bosqich ta'lim natijalariga erishish hamda yaxlit bir butun xolatda jarayonni yuritish va nazorat qilish imkoniyatidan foydalangan xolda yaxlit maqsadga hamda natijaga erishishdir [3].

Malaka oshirish jarayonida maktab o'qituvchilarining pedagogik ijodkorligini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari (SMART texnologiyasi, CASE study, "IQ" aniqlovchi ijodiy mashqlar, muammoli videotopshiriqlar, algoritmik xaritalar) asosida mashg'ulotlarni tashkil etish, boshqarish va natijalarni aniqlash zarur. Bundan tashqari, malaka oshirish jarayonida maktab o'qituvchilarining pedagogik ijodkorligini rivojlantirishning algoritmik xaritasini ishlab chiqish samarali natijalar beradi.

Malaka oshirish jarayonida o'qituvchi tomonidan mustaqil ishlar, muammoli vaziyatli topshiriqlar, ijodkorlikka yo'naltirilgan masalalar yechimini topishda noan'anaviy, o'ziga xos g'oyalarning qo'llab-quvvatlanishi, interfaol metodlarning qo'llanilishi kabi yechimlarni taklif etish imkoniyati berildi. Maktab o'qituvchilari o'z "MEN"ini namoyon etib, topshiriqlarni faol bajarishga kirishdi. Amaliy mashg'ulotlar maktab o'qituvchilarida mustaqil harakat qila olish, o'z fikrini bayon qila olish, xulosalar chiqarishda analiz va sintez qilish, baholay olish kompetentsiyalarini shakllantirishga yo'naltiriladi.

Malaka oshirish jarayonida maktab o'qituvchilarining pedagogik ijodkorligini rivojlantirishning birinchi bosqichida reproduktiv ijodiy ishlarni bajarish hamda tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish orqali pedagogik ijodkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishda reproduktiv darajadagi topshiriqlar berildi. Maktab o'qituvchilari ijodiy yondashgan holda auditoriyada va auditoriyadan tashqarida ularning yechimlarini topishlariga yo'naltiriladi va samarali natijalarga erishiladi. Bunda maktab o'qituvchilarining ta'limiy mashg'ulotlarni tashkil etishga tayyorgarligi, texnik ob'ekt va texnologik jarayonlarni amalga oshirishda kirish yo'riqnomasi asosida tashkiliy masalalarni hal etish bo'yicha pedagogik ijodkorlik kompetentsiyalari rivojlantirildi.

Malaka oshirish jarayonida maktab o'qituvchilarining pedagogik ijodkorligini rivojlantirishning ikkinchi bosqichida produktiv ijodiy faoliyat kompetensiyalarini rivojlantirishda ularning pedagogik ijodkorligini rivojlantiruvchi muammoli topshiriqlar, ijodkorlikka yo'naltirilgan masalalar asosida pedagogik-texnik jarayonlarni boshqarishda joriy yo'riqnomalar asosida interaktiv metod va usullardan foydalangan xolda muammolarning optimal va samarali yechimi topildi. Malaka oshirish jarayonida maktab o'qituvchilarining ta'lim jarayoni va texnologik vaziyatlarni nazorat qilish orqali tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda kichik guruhlarda ishlash samaradorli ekanligi aniqlanadi. Bunda SMART texnologiyasi, CASE study, IQni aniqlovchi ijodiy mashqlar va muammoli videotopshiriqlar, algoritmik xaritalardan foydalanildi.

Malaka oshirish jarayonida maktab o'qituvchilarining pedagogik ijodkorligini rivojlantirishning uchinchi bosqichida qisman- izlanuvchilik faoliyat jarayonlarini tashkil etishda maktab o'qituvchilarining muammoni yechish va innovatsion g'oyalarni ilgari surish jarayonidagi ijodiy fikrlashlariga urg'u berildi. Texnik ob'ekt va pedagogik-texnologik jarayonda mehnat usullarini bir ob'ektdan boshqa ob'ektga ko'chirishga qisman ijodiy yondashgan xolda mashg'ulotlar tashkil etildi. Mashg'ulotni loyihalashda topshiriqlarni tahlil va sintez qilish natijasida samaradorlikni oshirish maqsadida qisman o'zgartirishlar kiritildi. Ushbu jarayonda mashg'ulot natijasi o'rganildi va yakuniy yo'riqnoma asosida baholandi hamda xulosalar chiqarildi.

Malaka oshirish jarayonida maktab o'qituvchilarining pedagogik ijodkorligini rivojlantirishning to'rtinchi bosqichida kreativ (ijodkorlik faoliyati natijasida hal etishga qaratilgan) metodik ishlanmalardan foydalanishda o'qituvchilar kreativ fikrlashga va ijodiy yechimlar topishga yo'naltirildi. Malaka oshirish mashg'ulotlarida maktab o'qituvchilari yangi g'oyalar va xulosalarga ega bo'ldi. Texnik ob'ekt va pedagogik-texnologik jarayonda ish samaradorligini oshiruvchi navatorlik ishlanmalari taklif etildi.

Xulosa qilib aytganda, SMART texnologiyasi, CASE study, IQni aniqlovchi ijodiy mashqlar va muammoli videotopshiriqlar ijodkorlikni rivojlantirishning algoritmik xaritalari kabi texnologiyalar o'rganilgan material bo'yicha bilimlarni mustahkamlash, muammolarni tahlil qilish kompetensiyalarni shakllantirish, mustaqil ravishda muammoni hal qilish bo'yicha maqbul qaror qabul qilish, mas'uliyatlilik, mustaqillik hamda kommunikativlik qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. I. Raximov., Yo.R.Najmiddinova. Bo'lajak mutaxassis modelini pedagogik loyihalash asosida kasbiy kompetentligini shakllantirish.- Malaka oshirish va qayta tayyorlash tinglovchilarini innovatsion faoliyatga yo'naltirishning respublika ilmiy-amaliy anjumani G'G'. 2020-yil, Toshkent.
2. Бабанский Ю.К. Методы обучения в современной общеобразовательной школе – М.: Просвещение, 1985. – 208 с.
3. Qo'ysinov O.A. va b. "Kasb ta'limi metodikasi" fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish. – T.: "Yusuf yangi nashr", 2012. – 60 b.
4. Pozilova Sh.X. Oliy ta'lim muassasalari tinglovchilarini qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida kreativ o'qitish metodikasi. Diss.... 2019-yil. Toshkent.

UO'K 372.3/4

O'QUVCHILARNING BILISH FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MUAMMOLI TA'LIM

Oripov Xakimjon Tursunovich

Namangan viloyati XTXQTMOHM o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasi

E-mail: horipov@inbox.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada komil insonni tarbiyalashda boshlang'ich ta'limning roli, muammoli ta'limning vazifalari va uni qo'llash oqibatlari, amalga oshirish shart-sharoitlari, darajalari, bosqichlari hamda muammoli o'qitish bilan aloqador tushunchalar haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: komil inson, ijodiy imkoniyat, ta'lim-tarbiya jarayonini faollashtirish, ijodkorlik, ta'lim sifati.

UDC 372.3/4

THE PROBLEM OF EDUCATION IN THE FORMATION OF STUDENTS' COGNITIVE ACTIVITY

Oripov Xakimjon Tursunovich

Namangan Regional of Retraining and In-service Training of Public

Education Employees, Uzbekistan

Brief abstract. This article discusses the role of primary education in the development of a mature person, the challenges of problem education and the consequences of its application, conditions, levels, stages of implementation and concepts related to problem education.

Keywords: ideal person, creative opportunities, activation of the educational process, creativity, quality of education.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan soha xodimlariga yo'llagan tabrigida O'zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar muvaffaqiyati, mamlakatimizning rivojlangan davlatlar qatoridan munosib o'rin egallashi, avvalo, ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasining rivoji bilan bog'liq ekani alohida ta'kidlandi. Shu nuqtayi nazardan, keyingi bir yil davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining ta'lim-tarbiya sohasiga oid 74 farmoni, qaror va farmoyishi qabul qilingani bejiz emas. Maqsad farzandlarimizning zamon talablari darajasida, xalqaro andozalarga mos ta'lim-tarbiya olishi, kasb-hunar egallashiga erishish hamda yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash orqali mamlakatimiz taraqqiyotini ta'minlashdir.

Komil insonni voyaga etkazishda boshlang'ich ta'lim shubhasiz mustahkam poydevor rolini o'taydi. Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o'qish darslarida amalga oshiriladi. Ona tili va o'qish darslarida olib boriladigan barcha mashg'ulotlarning etakchi o'rni nutq o'stirish bo'lib, u savod o'rgatish, chiroyli yozish ko'nikmalarini shakllantirish va o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi.

Muammoli ta'lim o'qituvchidan aniq harakat qilishni, darsning har bir minutini hisobga olishni, ushbu vaqtda kerakli samara hosil bo'lishi uchun o'zining barcha imkoniyatlarini va mahoratini ishga solishni talab etadigan metodlar sarasiga kiradi. Bu masalani hal etishning muhim sharti o'qituvchining bo'lajak o'quv mashg'ulotiga tayyorgarligidir. Tayyorgarlik jarayonida muammoli ta'limning barcha ko'rinishlarini hisobga olish va uni uslubini ishlab chiqish zarur. Muammoli ta'limga tayyorgarlik ko'rishda o'qituvchilar qator qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu qiyinchiliklarni yengishda o'qituvchi innovatsion ijodiy imkoniyatining ahamiyati katta.

Muammoli ta'lim boshlang'ich ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonini faollashtirish, o'quvchilarning o'quv-biluv jarayoniga ehtiyoji, qiziqishi va hohishlarini ortirishga sabab bo'ladi.

Muammoli ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

1. O'quv materialini muammolashtirish.
2. O'quvchining faol ishtirok etishini ta'minlash.
3. O'qitishning bola hayoti, yashash, turmush tarzi bilan, mehnati, o'yin bilan o'zaro aloqasini bog'lash.

O'quvchini fikrlashga yo'naltirilgan maxsus vositalarni qo'llab, uni fanga qiziqtirish, erkin fikrlashga o'rgatish, rivojlantirish tizimi yaratib borilsa, buni muammoli ta'lim deyish muumkin.

O'quvchini faollashtirishda samarali ta'limmetodini amalga oshirishda yangicha didaktik yondashuv asosida olib borilishi tushuniladi.

An'anaviy ta'limning bosh maqsadi oldindan fanga ma'lum bo'lgan, bilimlarni o'zlashtirish, o'quvchini fanga ma'lum ma'lumotlar bilan qurollantirish, ular haqida tushuncha, ko'nikma va malakalar hosil qilishdan iborat.

Olimlarimiz muammoli ta'lim darajalarini quyidagicha belgilashgan:

Birinchi bosqich. O'qituvchi muammoni to'liq yoritadi va uni yechimini topib beradi. Qarshi savollar yordamida o'quvchilarni fikrlashga ixtiyoriy majbur etadi.

Ikkinchi bosqich. O'qituvchi muammoni qo'yib, uning mazmun – mohiyatini ifodalaydi. Keyin o'quvchilarni muammo yechimini mustaqil izlashga yo'naltiradi.

Uchinchi bosqich. O'qituvchi muammoni bayon etmaydi, balki muammoli vaziyat yaratadi. O'quvchilar mustaqil fikr yuritib, muammoli vaziyatdan chiqish yo'llarini izlab topadilar.

To'rtinchi bosqich. Bunda o'qituvchi izlanish sohasini belgilaydi xolos, muammoga yaqinlashib boradi, lekin uning mazmuni yoki yechimini ko'rsatmaydi. O'quvchini mustaqil faoliyatga yo'naltiradi.

Muammoli ta'limda o'qituvchi o'quvchini murakkab tushunchalar mazmuni bilan tanishtirish jarayonida unga sistemali ravishda muammolar qo'yib boradi, o'quvchiga axborot beradi, o'quvchi mustaqil xulosalar chiqaradi, umumlashtiradi va o'qituvchi yordamida ma'lum tushuncha, qoidalar, xulosalar chiqaradi.

Muammoli ta'limning bosqichlari:

1. Muammoli vaziyatni yaratish;
2. Muammoli vaziyatni asoslash, tushuntirib berish;
3. Muammoli vaziyatni o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilish;
4. Muammoli vaziyat yechimining bir necha usullarini aniqlash va ishlab chiqish;
5. Muammoli vaziyatning samarali yechimini dalillar bilan asoslash berish;
6. Muammoning natijaviy yechimini tanlab, qaror qabul qilish va har tomonlama baholash.

Metodist-olimlarimizning fikricha, muammoli vaziyatlarni hamma o'quv faoliyatlariga nisbatan quyidagi tiplarga bo'lish mumkin:

Birinchi tip. Agar o'quvchilar oldiga vazifalar qo'yilib, qo'yilgan masalalarga hayotdan o'quv materialini asosida javob talab qilinsa, muammoli vaziyat kelib chiqadi.

Ikkinchi tip. O'quvchilar ilgari darslarda olgan bilimlarini yangi mavzuni o'zlashtirish zarurligiga uchrab qolsalar. Yangi mavzuning yechimi ilgari olgan bilimlarini o'zlashtirganliklarini talab etib, vaziyatdan chiqa olmay qolsalar.

Uchinchi tip. Muammoli vaziyat shunday hollarda ham uchrashi mumkinki, o'quv topshirig'ini amalda bajarish uchun o'qituvchida isbot, nazariy asos bo'lmasa.

Muammoli ta'lim sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan M. I. Maxmudov, M. N. Sketkin, A. M. Matyuvgikven, I. Y. Lanker kabi olimlarning xulosalariga ko'ra quyidagi muammoli ta'lim metodlarini keltirish mumkin:

- tushuntirish, namoyish etish;
- muammoli bayon qilish;
- reproduktiv;
- ilmiy izlanish.

Yuqoridagilar asosida shunday xulosa chiqarish mumkinki, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda nafaqat yuqori sinflarda balki quyi sinflarda ham muammoli o'qitish metodlari juda muhim rol o'ynaydi. Chunki muammoli ta'lim o'quvchini izlanishga, ijodkorlikka, erkin fikr yuritishga o'rgatadi. O'quvchida bunday sifatlarning shakllanishi, o'quv-biluv mas'uliyatini oshiradi, mustaqil bilim olish, izlanish uning kundalik odatiy ishiga aylanadi. Bu esa o'z navbatida, ta'lim mazmunini, takomillashgan standartlar, moderinizatsiya qilingan dasturlarni to'la o'zlashtirib olishga kafolat bo'ladi. Shuning bilan

o'quvchilarda mustaqillik, ijodkorlik hamda yakuniy to'g'ri qaror qabul qilish kabi hislatlarni tarkib toptirishga sharoit yaratiladi.

Agar o'qituvchi o'quvchilarning ana shunday qobiliyatlarini rivojlantirishni bosh maqsad qilib olsa, unda o'quvchilarning muammoli ta'lim asosida faoliyat yuritish ko'nikma va malakalarini shakllantirishi zarur bo'ladi.

Muammoli o'qitishni ta'lim jarayoniga tatbiq etishda o'qituvchi ilmiy va o'quv muammolar orasidagi umumiylikni va farqni ajratishi lozim. Ularning umumiyligi– har ikkalasida ham ob'yektiv zidliklar mavjudligi bo'lsa, ilmiy va o'quv muammolarini farqi shuki, ilmiy muammoda qo'yilgan masala hali yechilmagan, o'quv muammoda esa masala yechilgan, uni yechish yo'li va natijasi ma'lum. Faqat bu yo'llar va natijalarni o'quvchilar izlab topishi kerak. Muammoli o'qitishning yakuniy maqsadi – o'quvchilarni muammolarni ko'rish va yechishga o'rgatishdan iborat bo'lib, bu faqat fikrlash faoliyati jarayonida amalga oshirilishini nazardan qochirmaslik kerak.

Muammoli ta'lim jarayonida o'quvchi tahlillar asosida qo'llash, sintez qilish, umumlashtirish, faktik materialni aniqlashtirish, o'zi mustaqil izlanish orqali yangi axbo-rotlarni o'zlashtiradi. Boshqacha aytganda, ilgari olgan bilimlarini kengaytiradi, chuqurlashtiradi, o'zlashtiradi va amalda qo'llay bilishga harakat qiladi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Fanda muammoli o'qitish bilan aloqador ikkita tushuncha ishlatiladi: "muammo" va "muammoli vaziyat" tushunchalari. Ayrim hollarda ular sinonimdek tushunilsada, lekin bu atamalar bilan belgilangan ob'yektlar o'z hajmi bilan farqlanadi. Muammo muammoli masalalar ketma-ketligiga ajraladi. Demak, muammoli masalani muammoning oddiy, xususiy bir masaladan iborat holati sifatida ko'rish mumkin bo'ladi.

Muammoli o'qitish ijodiy faoliyatni hamda unga ehtiyojni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu jarayonda o'quvchilar ijodiy fikrlashining rivojlanishi an'anaviy o'qitishdagiga nisbatan jadalroq rivojlantirish mumkin bo'ladi. Lekin muammoli o'qitishning bu funksiyasi oshishi uchun o'quv jarayoniga muammolarning tasodifiy majmuasini kiritish yetarli emas. Muammolar tizimi bilimning mazkur sohasiga xos muammolarning asosiy turlarini qamrab olishi kerak. Bu esa o'z navbatida o'qituvchidan ijodkorlikni talab etadi.

Foydalangan adabiyotlar/References

1. Tolipov U., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari (o'quv qo'llanma).- T.: «Fan» nashriyoti, 2006.
2. Tolipova J.O. Pedagogik texnologiyalar – do'stona muhit yaratish omili.-T.: YUNISEF, 2005.
3. N. Saidaxmadov, M. Ochilov. "Yangi pedagogik texnologiya moxiiyati va zamonaviy loyixasi".- T.: XTB RTM, 1999.
4. N.N. Azizxo'jayeva. "O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi".- T. 2000.

UDC 378.147.88

USING STEAM EDUCATION AND SMART EDUCATION TECHNOLOGIES

Khamdamov Oybek Abdulkayevich

RC for Retraining and In-Service Training of Public Education Employees of Namangan, Uzbekistan

Brief abstract. In this article it is written about the importance of using modern innovations in using STEAM education and Smart education.

Keywords: STEAM education, Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics.

STEAM Education is an approach to learning that uses Science, Technology, Engineering, the Arts and Mathematics as access points for guiding student inquiry, dialogue, and critical thinking.

In addition, STEAM approaches can help students learn skills relevant to the 21st-century, including innovation and cultural sensitivity. The study reports that a well-rounded approach to education also better enables teachers to use differentiated instruction to meet the needs of diverse learners. These findings are significant because they highlight the perspectives of teachers who are practicing STEAM in the classroom and seeing the benefits firsthand.

STEAM utilizes the arts along with traditional STEM subjects as “access points for guiding student inquiry, dialogue, and critical thinking,” according to EducationCloset, a digital learning hub for educators. “The end results are students who take thoughtful risks, engage in experiential learning, persist in problem-solving, embrace collaboration, and work through the creative process,” EducationCloset continues. STEAM works by leveraging the benefits associated with STEM with the accessibility of visual art, poetry, music, and drama. Students can make connections and learn in a variety of ways, reaping the benefits that a STEAM education can provide.

STEAM’s Impact in the Classroom

As a result of the adoption of STEAM in classrooms across the country, new teaching methods have emerged. These approaches combine subjects and disciplines that have been siloed from one another traditionally, says Maureen Creegan-Quinquis, associate professor within Lesley University’s Graduate School of Education. And according to *The Washington Post*, STEAM promotes “skills seen as important in academic and life success.”

Here are some of the skills the *Post* says students stand to gain from STEAM. Here we can see four beneficial sides of STEAM education

Creativity

Teaching students to think ‘outside of the box’ causes them to approach tasks differently. They learn to be creative by utilizing a wide variety of thought processes and skills throughout a classroom day.

Confidence

Approaches grounded in visual art, drama, and creative writing give students hands-on training in delivering a message and doing so with confidence. When combined with science, mathematics and technology-based topics, students learn to tackle tough subjects with self-assurance.

Problem-Solving

Learning new skills, whether technical or artistic, teaches students to approach new, potentially challenging situations with a positive attitude. Using STEAM, teachers can help students solve problems creatively using a variety of methods.

Collaboration

STEAM classrooms are highly collaborative, with students working together to grasp new information using multiple access points. They learn to share responsibility and compromise by working on group projects that incorporate multiple disciplines.

For Creegan-Quinquis, the effectiveness of STEAM is no surprise: “Science, technology, engineering, mathematics, and the arts all have very similar intellectual ancestors: some of the same philosophical underpinnings, some of the same inquiry questions. There’s always been connection between the arts and these other domains ... the difference is that now you will see deliberate as opposed to accidental cross-pollination between the subjects and a lot of it is about making learning accessible.”

She points out that one of STEAM’s central benefits is that it provides multiple access points, giving students with different learning styles and backgrounds ample opportunities to learn in the way that is best for them.

The STEM to STEAM movement has been taking root over the past several years and is surging forward as a positive mode of action to truly meet the needs of a 21st century economy. STEM alone misses several key components that many employers, educators, and parents have voiced as critical for our children to thrive in the present and rapidly approaching future.

Much has been proclaimed about the need for more STEM “programs” in our schools. The logic is simple: the wave of future economic prosperity lies in a workforce that is well versed in rising job markets like science, technology, engineering and math. Thus, there has been an increased investment in STEM initiatives in schools. This includes (but is not limited to):

- providing mobile devices for students (sometimes in the forms of computer labs, and other times in the form of 1:1 – a single device for each student)
- after-school STEM clubs or programs
- STEM curriculum, where projects using STEM practices are embedded
- BYOD initiatives (bring your own device)
- STEM days to encourage hands-on exploration within each of these disciplines
- robotics programs

While these initiatives are a wonderful start into the exploration of these four areas of study, the critical process of creativity and innovation is missing. Students in STEM programs may have more experiential learning opportunities, but they are limited to only science, technology, engineering and math.

Our economy requires so much more than an understanding of these areas – it requires application, creation and ingenuity. STEM alone does not foster these essential nutrients.

STEAM is a way to take the benefits of STEM and complete the package by integrating these principles in and through the arts. STEAM takes STEM to the next level: it allows students to connect their learning in these critical areas together with arts practices, elements, design principles, and standards to provide the whole pallet of learning at their disposal. STEAM removes limitations and replaces them with wonder, critique, inquiry, and innovation.

The pathway to STEAM is exciting, but can also be dangerous without an understanding of what STEAM truly means in both its intention and its implementation. Like its STEM predecessor, STEAM can stop short of its best manifestation without several core components:

STEAM is an integrated approach to learning which requires an intentional connection between standards, assessments and lesson design/implementation

True STEAM experiences involve two or more standards from Science, Technology, Engineering, Math and the Arts to be taught AND assessed in and through each other

Inquiry, collaboration, and an emphasis on process-based learning are at the heart of the STEAM approach

Utilizing and leveraging the integrity of the arts themselves is essential to an authentic STEAM initiative

In order to accomplish these goals, schools must consider a variety of factors, including:

Collaborative planning, including a cross-section of teachers on each team

Adjusting scheduling to accommodate a new way of teaching and learning

Professional development for all staff in STEAM practices and principles

STEAM schema-mapping for the curriculum and assessment design process

Alignment and unpacking of standards and assessments

Seamless lesson implementation processes and strategies

The STEAM Process

There are actually 6 steps to creating a STEAM-Centered classroom, no matter what area you teach. In each step, you're working through both the content and the arts standards to address a central problem or essential question.

What's great about this process is that you can as easily use it to help plan for a lesson as you can to facilitate the actual learning process in your STEAM classroom. Let's take a look at each step.

1. Focus

In this step, we are selecting an essential question to answer or problem to solve. It's important to have a clear focus on both how this question or problem relates to the STEM and the Arts content areas you've chosen.

2. Detail

During the detail phase, you're looking for the elements that are contributing to the problem or question. When you're observing the correlations to other areas or why the problem exists, you begin to unearth a lot of key background information, skills or processes that students already have to address the question.

3. Discovery

Discovery is all about active research and intentional teaching. In this step, students are researching current solutions, as well as what ISN'T working based on the solutions that already exist. As a teacher, you can use this stage to both analyze the gaps your students may have in a skill or process and to teach those skills or processes explicitly.

4. Application

This is where the fun happens! After students have dived deep into a problem or question and have analyzed current solutions as well as what still needs addressed, they can begin to create their own solution or composition to the problem. This is where they use the skills, processes and knowledge that were taught in the discovery stage and put them to work.

5. Presentation

Once students have created their solution or composition, it's time to share it. It's important that the work is presented for feedback and as a way for expression based on a student's own perspective surrounding the question or problem at hand. This is also an important opportunity to facilitate feedback and help students learn how to give and receive input.

6. Link

This step is what closes the loop. Students have a chance to reflect on the feedback that was shared and on their own process and skills. Based on that reflection, students are able to revise their work as needed and to produce an even better solution.

In conclusion, I can say that the STEAM movement is an important trend in education because of the rapid pace of innovation and the changing nature of the job market. "Education is under pressure to respond to a changing world. As repetitive tasks are eroded by technology and outsourcing, the ability to solve novel problems has become increasingly vital," according to Jeevan Vasagar at the *Financial Times*. This puts STEAM at the forefront of education, and teachers who can successfully incorporate these approaches into their curriculum can help students prepare for the challenges and innovations of the modern world.

References

1. Celce-Murcia. M. 2001. Teaching English as a Second or Foreign Language (3rd ed). USA: Heinle&Heinle.
2. Abuhewaj, Marwan. Principles of Modern Educational Psychology. USA: Trafford Publishing, 2010. ISBN 978-4269-4749-6.
3. Blight, Caroline. The Silent Experiences of Young Bilingual Learners: A Sociocultural Study into the Silent Period. Rotterdam: Sense Publishers, 2014.

UO'K 372.881.1

INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ataxanova Gavharxon Avazbekovna

Namangan shahar 59-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy ta'lim va unga qo'yilgan talablar hamda ona tili va adabiyot darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim, metod, interfaol metod, dars, o'quvchi, o'qituvchi, ta'lim jarayoni.

UDC 372.881.1

FEATURES OF THE USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES

Atakhanova Gavharxon Avazbekovna

Teacher of secondary school No.59, Namangan city, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. The article gives an idea of modern education and requirements, as well as the peculiarities of using innovative technologies in the lessons of native language and literature.

Keywords: modern education, method, interactive method, lesson, pupil, teacher, educational process.

O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturida insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy tarbiyalash bilan uzviy bog'langan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish nazarda tutilgan. Ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan istiqbolli dasturlarning yaratilishi va amalda tatbiq etilishi natijasida ta'lim jarayoni ko'proq o'quvchi shaxsiga yo'naltirilmoqda. Bu esa, mustaqil fikrlovchi, ijodkor, milliy g'oyalarga sodiq va yuksak kasb mahoratiga ega bo'lgan shaxsni shakllantirish sohasidagi pedagogik intilishlarning asosini tashkil etadi. Buning uchun o'quv-tarbiya jarayoni sifatini takomillashtirish va kafolatlangan natijaga erishishni ta'minlash lozim.

Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar egallanayotgan bilimlarni o'quvchilar tomonidan mustaqil o'rganishlari, tahlil qilishlari, to'g'ri xulosalar chiqarishga qaratilgan.

O'quv jarayonlarini loyihalashtirishda ta'lim maqsadi, kutilayotgan natijani to'g'ri belgilash, ta'lim metodlari, shakllari va vositalarini to'g'ri tanlash, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashni aniq mezonlarini oldindan ishlab chiqish, mashg'ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni to'g'ri amalga oshirish va uzviyligiga e'tiborni qaratish lozim. An'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, rivojlantiruvchi ta'lim mezonlariga muvofiq bilimlarni o'quvchilarning o'zlari mustaqil o'rganishi, tahlil qila olishi, xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga yo'naltirilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Odatda dars jarayonida tanlanayotgan har qanday usul xoh u an'anaviy usul, xoh u innovatsion usul bo'lsin ta'lim oluvchilarning yoshi, ehtiyoji, qabul qilish darajasiga asoslangan holda tanlanmog'i lozim.

Dars jarayonida o'tilgan mavzular takrorlanadi, yangi bilimlar beriladi, mustahkamlanadi, fikrlar va tajribalar almashiniladi. O'zaro tushunish va tushuntirish, anglash va anglatish, qiziqish va qiziqitirish bilan

bilim uzatiladi va qabul qilinadi. O'quvchilarga bilim berishdagi murakkab jarayonning soddalashuvi yuz beradi. Chunki, bilim o'zlashtirilmasa, tushunilmasa, amaliyot bilan, fanlar bilan bog'lanib o'tilmasa mavzularni o'rganish va tushunish o'quvchi uchun murakkablik qilishi mumkin.

Ta'lim-tarbiya jarayonining doimiy ravishda optimallashtirib borishi dars berish jarayonida qo'llanilayotgan yangi va takomillashib borayotgan pedagogik texnologiyalarni turli yo'nalish va maqsadlarda qo'llanilayotganligiga bog'liq. Hozirgi kunda ishlab chiqarish texnologiyalari tezlik bilan rivojlanayotgan bir davrda ta'lim sohasi ham boshqa ishlab chiqarish sohalari kabi ilmiy, asoslangan yangi pedagogik texnologiyalar, informatsion ma'lumotlarni qo'llagan holda malakali mutaxassislar faoliyat yuritadigan raqobatbardosh, ilmiy kishilarni Vatan ravnaqi uchun tayyorlab beradigan soha sifatida rivojlanib bormoqda.

Ta'lim jarayonida shaxsga murojaat qilmaslikning iloji yo'q. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi bola shaxsini butun bir ta'lim tizimining markaziga qo'yadi va unga tabiatan berilgan o'z qobiliyatini ro'yobga chiqarishi uchun har tomonlama qulay, xavfsiz, erkin shart-sharoit yaratadi.

Pedagogik texnologiyaning yana bir muhim tarafi ta'lim jarayonidagi bolaning o'rni va unga kattalarning munosabatidir. Pedagogik texnologiyani loyihalashtirishda o'quvchi shaxsining individual hamda yosh xususiyatlari, uning tayyorgarlik darajasi hisobga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi insoniylik falsafasi, psixologiyasi va pedagogikasining uyg'unligini namoyish etadi. Pedagogning diqqat markazida o'zining maksimal imkoniyatlarini ishga solib bilim olishga intilayotgan, yangi tajriba-sinovlarni qabul qila oladigan va hayotning har xil holatlarida mustaqil, ongli va mas'uliyat bilan qaror qabul qilishga qodir bo'lgan o'quvchining shaxsi turmogi lozim. O'quvchiga ijtimoiy talablar asosida bilim beruvchi an'anaviy pedagogik texnologiyalardan farqli o'laroq shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasida yuqorida qayd qilingan yo'nalish(sifat)larni shaxs tomonidan zabt etilishi tarbiyaning asosiy maqsadi qilib belgilanadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchi shaxsidagi mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlarini tarbiyalaydi. Bunda o'quvchini ta'lim tizimiga moslashtirmay, balki o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlanishi uchun imkon beriladi, uning o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil o'qish, o'zligini namoyon etish, faollashtirish xususiyatlari asosida anglash, mushohada qilish, o'z amaliy faoliyatida sinab ko'rish, yangi g'oya va fikrlarni bildirish, mavjud muammolar yechimining samarali yo'llarini qidirish uchun erkinlik berish, o'quvchining ijodiy, tanqidiy tafakkurini rivojlantirish uchun sharoit yaratiladi. Har qanday o'quvchi o'ziga xos takrorlanmas tabiati, xarakter xususiyatini faollashtirishga, namoyish qilishga intiladi. O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullar (muammoli-izlanish, tadqiqot, dialog, evristik suhbat, munozara, guruhlarda ishlash)dan foydalanib, shunday shart-sharoitlarni tarkib toptirishi lozimki, natijada o'quvchi uchun dastlab neytral bo'lgan obyekt kutilmaganda subyektiv xususiyat kasb etsin. Buning uchun o'quvchining materiallari mazmuni o'qituvchi tomonidan o'quvchini qiziqtiradigan, uning shaxsiy tajribasiga mos keladigan, fikrlashga undaydigan, ijodiy yondoshgan holda qayta ishlanadi. Har bir o'quvchining psixologik xususiyatlarini hisobga olib, individual ishlash uchun o'quv jarayonini o'zgacha tashkillashtirish lozim bo'ladi. O'quv matnlari, didaktik materiallar, ulardan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalar, o'quvchilar bilimini nazorat qilish shakllari maxsus loyihalashtirilib, o'quvchilarning bilim olishi va rivojlanishiga qaratiladi.

Pedagogik jarayon bu belgilangan maqsadga erishish hamda shaxsning xususiyat va sifatlarini ijobiy tomonga o'zgartirishga qaratilgan tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi aniq bir muddat va ma'lum tarbiyaviy tizimda maxsus tashkil etilgan o'zaro munosabat. Jarayon holat davomiyligi, insonning rivojlanishi, biror bir natijaga erishishi yo'lidan uzviy davom etayotgan harakatlar jamlanmasi. Pedagogik jarayon-tarbiya jarayonining asosiy tizim birligi. Uning xususiyati shundan iboratki, u o'qituvchi va o'quvchining pedagogik munosabat tizimini belgilaydi. Agar tarbiya jarayoni tushunchasi maqsadga yo'naltirilgan shaxsga ma'lum sifatlarini shakllanish ta'sirini amalga oshirishga qaratilgan harakat bo'lsa, pedagogik jarayon tushunchasi oldindan tashkil etilgan tarbiyaning o'zaro ta'sir tizimini bildiradi.

Ma'lumki, inson o'z nutqi yordamida fikrlarini, his-tuyg'ularini bayon etadi va shu bilan birga boshqalarning fikrlari, his-tuyg'ularini anglab yetadi. Yosh avlodga nutq madaniyatini singdirish ularni yuksak madaniyatli, barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Nutq shaxsning barkamolligini ta'minlovchi muhim hodisadir. Yaxshi, ravon nutq tinglovchiga ma'naviy ozuqa beradi. Kishi nutqini boyitish uning bolaligidan boshlanadi va umri davomida uning nutqi takomillashib boradi.

Nutq og'zaki va yozma bo'lib, og'zaki nutqqa qaraganda yozma nutq tuzish o'quvchidan har bir so'zni o'z o'rnida to'g'ri qo'llashni, imlo va tinish belgilariga rioya qilishni talab etadi. O'z fikrini ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan o'quvchini zamon talabi darajasidagi o'quvchi deb bo'lmaydi. Bu esa o'z navbatida ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi. O'quvchining bilimi, dunyoqarashi rivojlangan sari, uning nutqi ham o'sib boradi. Shuning uchun ona tili va adabiyot darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga va o'z fikrlarini og'zaki va yozma tarzda erkin ifoda etishga

o'rgatish asosiy vazifamizdir. Shuning uchun ona tili darslarida qo'llanadigan metodlar nazariy bilim berish bilan birga, o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga, o'z fikrini erkin og'zaki va yozma shaklda ifoda eta olishga, tasavvuri va tafakkurini kengaytirishga, har tomonlama yetuk shaxs bo'lib kamol topishlariga xizmat qilmog'i lozim. Masalan. «Aqliy hujum», «Zakovat», «Modulli dars», «Zigzak», «Interfaol», «O'yin dars», «Munozarali-bahsli dars», «Sayohat dars», «Musobaqa dars» kabi usullardan foydalanamiz. Darslarda o'zimiz o'rgatgan manbalardan, savollar yoki testlardan unumli foydalanamiz.

Ta'lim har doim takomil va yangilanishga mushtoqdir. Shuning uchun, ilojini boricha, ta'limning yangi usullari ustida izlanishimiz talab etiladi. Chunki o'quvchilarga ham bir xil qolipdagi darslar yoqmaydi, ularni zeriktiradi. Natijada o'quvchi darsni yaxshi o'zlashtira olmaydi. Har bir usuldagi darslar ikki-uch marta o'tilganda o'zini oqlaydi. Me'yoridan oshmasligi, o'quvchilarni zeriktirmasligi uchun usullarning turlicha bo'lishi darsning samaradorligini yanada oshiradi. Dars jarayonlarida notiqlik, suhbat, hikoya, mustaqil ish, yozma ish, zamon bilan bog'lash, mustaqil fikrga tayanish shakllariga katta e'tibor berishimiz lozim. Har bir o'tilayotgan darsga o'quvchilar tomonidan berilayotgan baho biz uchun qadrlidir.

Masalan, mavzuni o'rganishda quyidagi topshiriqlarni bajarish qo'shma gaplarning sodda gapdan farqini va ularning turlarini o'rganish hamda sekin-asta bu gaplarni nutqda qo'llashga qaratilgan. Bunda uch daqiqa ichida quyidagi zakovat savollariga javob berib, o'z guruhlarini aniqlab oladilar. Topshiriqni to'g'ri bajargan o'quvchi tarqatma olish huquqiga ega bo'ladi. Dars so'ngida tarqatmalar yordamida g'olib guruh aniqlanadi. Topshiriqlarni bajarish vaqtini mustaqil belgilab olish mumkin.

Zakovat savollari:

1. Sodda va qo'shma gaplar qaysi xususiyatlariga ko'ra farqlanadi?
2. Qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarni bog'lovchi vositalarni ayting.
3. Qaysi qo'shma gaplarning qismlari shaklan mustaqil bo'ladi?
4. Qo'shma gaplarning qaysi turida sodda gaplar o'zaro teng bog'lovchi va bog'lovchi vazifasidagi yordamchilar yordamida birikkan?
5. Biriktiruvchi bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplar qismlari o'zaro qanday vositalar bilan birikadi?
6. Faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplarda qaysi tinish belgilari qo'llanadi?

Bu kabi savollar bilan murojaat qilish o'quvchilarda oldingi bilimlarni mustahkamlanishiga hamda o'tilgan mavzular takrorlanishiga yordam beradi.

Bugungi taraqqiyot har bir o'qituvchidan o'ziga xos ijodkorlikni, malaka va tajribani taqozo etmoqda. Bu, o'z navbatida, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Eshmuratov M.T. Innovatsion texnologiyalar o'quv jarayonida.–Toshkent.: 2011.
2. Nazirov A.H. O'qitishning yangi pedagogik texnologiyalari. –Toshkent.:2008.
3. To'xliyev B., Shamsiyeva B., Ziyadova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. –T.: Yangi asr avlodi, 2006.
4. G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni. –Toshkent, 1995.
5. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Universitet, 2001.

UO'K 8.1751

ONA TILI DARSLARIGA INNOVATSION YONDASHUV

Po'latova Gulhayo G'ofurjon qizi

*Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanidagi 15-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasi*

Email: GulhayoPolatova@mail.ru

Annotatsiya. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar har bir sohada o'zining yorqin ifodasini ko'rsatmoqda. Yoshlarni har tomonlama barkamol avlod qilib tarbiyalash uchun ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan yangiliklarning o'rni va ahamiyati kattadir. Ushbu maqolada 8-sinf o'quvchilariga ona tili fanidan innovatsion yondashuv asosida dars berish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion yondashuv, hol, “tushunchalar tahlili”, “charxpalak”, “raqamli test”.

Teacher of Uzbek language and literature of secondary school No.15, Namangan region, Uzbekistan

Brief abstract. The reforms being carried out in our country are reflected in every sphere. Innovations in the education system play an important role in educating young people to become a harmoniously developed generation. This article discusses how to teach 8th grade students in their native language based on an innovative approach.

Keywords: innovative activity, innovative approach, case, “concept analysis”, “wheel”, “digital test”.

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarda bo‘layotgan tezkor o‘zgarishlar ta‘lim tizimini ham tubdan isloh qilishni taqozo qilmoqda, chunki mukammal ta‘lim tizimi respublikamizning kelajak intellektual imkoniyatlarini va uni gullab yashnashini belgilab beruvchi yoshlarni har tomonlama ijodkor, mustaqil faoliyat yuritadigan qilib tarbiyalashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.[3] Yurtboshimiz ta‘kidlaganlaridek,- “Jamiyatimizda sog‘lom fikr, sog‘lom kuch ustuvor bo‘lishi uchun biz ma‘naviy hayotimizni yuksaltirish, aholi, avvalo yoshlarimizni turli zararli ta‘silardan asrash, ularni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash haqida muntazam o‘ylashimiz, faol ish olib borishimiz zarur”.[1]

Ma‘lumki, dars jarayoni qanchalik qiziqarli va puxta tashkil etilsa natija ham shunchalik yuqori bo‘ladi. O‘quv jarayonida o‘quvchilarda motivatsiyasini shakllantirish uchun o‘qituvchidan yuqori malaka, tajriba va, albatta, mukammal bilim talab etiladi. Lekin hozirgi kunda ta‘lim jarayonini rivojlantirishda barcha pedagoglar ham innovatsion yondashadi, deya olmaymiz. Buning uchun o‘qituvchi darslarni hayot bilan bog‘lashi hamda yangiliklarni ta‘lim jarayoniga tatbiq etishi maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, ona tili darslarini o‘zlashtirish uchun innovatsion yondashuv muhim ahamiyatga egadir.

Innovatsiya (inglizcha – “innovationas”) kiritilgan yangilik, ixtiro va shu bilan birga uning turli sohalarda qo‘llanishi. «Innovatsiya» tushunchasi birinchi marta XIX asrda madaniyatshunosik sohasida paydo bo‘lib, bir madaniyat elementlarini boshqasiga joriy qilish ma‘nosini bildirgan. [4]

Hozirgi kunda bu tushuncha kirib bormagan soha qolmadi desak ham bo‘laveradi. Qayerga qaramaylik, qaysi sohani o‘rganmaylik, avvalo, u sohaning ildizini, kelib chiqish tarixini o‘rganamiz va albatta, uning istiqbolini ham rejalarini tuzamiz, yangiliklar kiritishga harakat qilamiz. Har bir dars jarayonini tashkil etishda har xil innovatsion usullardan foydalanamiz. Quyida 8-sinf ona tili darsi “Hol haqida umumiy ma‘lumot” mavzusini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etishning samarali yo‘llari haqida to‘xtalib o‘tamiz va bunda mashqlarni. Qodirov M., Ne‘matov H.Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 8-sinf uchun darsligi keltirilgan mashqlardan foydalanish taklif qilinadi.

Ushbu mavzuni o‘zlashtirishda quyidagi maqsadlarga erishish ko‘zda tutiladi:

- o‘quvchilarga hol haqida umumiy ma‘lumot berish, hol va uning turlari, holning grammatik ma‘nolari haqida bilim berish;
- o‘quvchilarga Ona vatanga muhabbat, yurtga sadoqat tushunchalarini singdirish, milliy qadryatlarimizni e‘zozlashga o‘rgatish;
- o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, erkin fikrlashga o‘rgatish;

Asosiy tushunchalar va atamalar:

Holning ma‘naviy guruhlari, ularning gapdagi vazifalari.

Darsni tashkil etish texnologiyasi:

Metod: “Raqamli test”, “Tushunchalar tahlili”, “Charxpalak” metodi

Shakl: Slaydlar asosida

Usul: matn va mashqlar asosida

Vosita: darslik, elektron darslik, videoproyektor, monitor, slayd

Darsning borishi: O‘tilgan mavzuni takrorlash, o‘quvchilar tomonidan (darslikning 79 –sahifasidagi 103-topshiriq) maqollardagi bo‘sh qoldirilgan o‘rinlarga mos keladigan so‘zlarni to‘ldirib o‘qish tavsiya etiladi.[4]

Avvalgi mavzular yuzasidan o‘quvchilarga quyidagi mazmundagi raqamli test taklif qilinadi:

Raqamli test:

Savollar	Javoblar
1. Ega va kesimdan yoki faqat kesimdan iborat gap qaysi?	1. Ikkalasiham chiqib ketishdi.
2. Bir so‘z «qotib qolgan» birikma shaklida bo‘lib, boshqaso‘z bilan kengayish imkoniyatiga ega bo‘lmagan gap qanday ataladi?	2. Bog‘lamalar

<p>3. So‘zlovchi ko‘z o‘ngida biror voqea hodisani, narsa-buyum yoki davrni gavdalantirishga, xotira yoki xayolida ular bilan aloqador voqea-hodisani tiklashga xizmat qiluvchi vosita qaysi?</p> <p>4. Sayl. Hammayoq odamlarga to‘lib, g‘ala-g‘ovur, o‘yin-kulgi boshlanib ketdi. Ushbu gap qanday gap hisoblanadi?</p> <p>5. Gap kesimidan anglashilib turgan harakatning bajaruvchisini, belgining sohibini bildirgan bo‘lak qaysi?</p> <p>6. Doimo bosh kelishik shaklida keluvchi gap bo‘lagi qanday ataladi?</p> <p>7. Ega son bilan ifodalangan gapni toping?</p> <p>8. Istamay mutolaa qilayotgan talaba – qanotsizqush. Ushbu gapda kesim qaysi so‘z turkumi bilan ifodalangan?</p> <p>9. edi, ekan, emish, bo‘lmoq, hisoblanmoq, sanalmoq, kerak, zarur, darkor, lozim. Bular qanday so‘zlar hisoblanadi?</p> <p>10. Kesimlar tuzilishiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?</p>	<p>3. Atov gap</p> <p>4. Sodda, murakkab</p> <p>5. Ega</p> <p>6. Ot</p> <p>7. Sodda yig‘iq gap</p> <p>8. So‘z-gap</p> <p>Javoblar: 1-7, 2-8, 3-3, 4-3, 5-5, 6-5, 7-1, 8-6, 9-2, 10-4.</p>
---	---


“Tushunchalar tahlili” metodi orqali o‘tilgan mavzular mustahkamlash tavsiya etiladi.

Sinf ikki guruhga bo‘linib, musobaqa tashkil etiladi. 1-guruh – “Bosh bo‘laklar”, ikkinchi guruh – “Ikkinchi darajali bo‘laklar” deb nomlanadi. Guruhlarga o‘tilgan mavzular yuzasidan tayyorlangan tarqatmalar beriladi. O‘quvchilar tarqatma savollar yoniga javobini yozadilar:

1-guruh uchun tarqatma:



2-guruh uchun tarqatma:




O‘quvchilar avvalgi o‘tilgan mavzular yuzasidan bilimlarini mustahkamlab olganlaridan keyin yangi mavzu tushuntirib beriladi.

Hol kesimga bog‘lanib, ish-harakat va holatning bajarilish o‘rnini, paytini, holatini, bajarilish sababini, maqsadini, daraja-miqdorini bildiradigan ikkinchi darajali bo‘lakdir. Holning gapdagi ahamiyati kattadir. U gapning mazmuniga qo‘shimcha ma‘no yuklaydi. Holquyidagicha so‘roqlarga javobbo‘ladi:



Hol qanday so‘roq olishiga ko‘ra 6 turga bo‘linadi:



Hol ravish, kelishik shaklidagi va ko‘makchili otlar, olmoshlar, sifat, son, taqlid so‘z va fe‘lning xoslangan shakllari bilan ifodalanishi mumkin. Bir mustaqil so‘z bilan ifodalangan hol sodda, kengaygan birlikma bilan ifodalangan hol **murakkab hol** sanaladi. Ushbu qoidani yaxshiroq tushunish uchun darslikdagi 106-mashq bajarish tavsiya etiladi. 1-guruh “Bosh bo‘laklar” guruhi uchun mashqda berilgan sodda hollarni,

2-guruh “Ikkinchi darajali bo‘laklar” uchun esa murakkab hollarni aniqlash vazifasi topshiriladi. Birinchi bo‘lib va to‘g‘ri bajargan guruhga ball beriladi. Mashq quyidagicha bajarilishi kerak:

SODDA HOL	MURAKKAB HOL
1. Harakat inson qiyofasini ochib beruvchi eng aniq vositadir. Inson qanday harakat qilsa, o‘shandaydir.	4. Inson fe‘l-atvorini to‘g‘riroq tushunish uchun boshqa vositalar bo‘lmaganda uni ranjitadigan hazildan foydalanish mumkin.
2. Inson o‘zga kishi oldida ayblariga iqrar bo‘lgach, ularni darhol unutadi. Ammo o‘zga kishi uning ayblarini yodida saqlab qoladi.	5. Insonning haqiqiy fe‘l-atvori mayda-chuydalarda: ular inson o‘zini nazorat qilishdan to‘xtaganda yuzaga chiqadi
3. Haddan ortiq yuksak fazilatlar ham ba‘zan insonni jamiyat uchun yaroqsiz holga keltirib qo‘yadi	

Yangi mavzuni mustahkamlash uchun “Charxpalak” metodidan foydalanish samarali natija beradi.

Savollar	O‘rin holi	Payt holi	Sabab holi	Daraja-miqdor holi	Maqsad holi	Ravish holi
Tez yurmoq						+
Ichkari	+					
Ilgari		+				
Ko‘p				+		
Tinchlik tufayli			+			
Tinchlik uchun					+	

Ushbu mavzuni mustahkamlash uchun darslikda berilgan 107 va 108-mashqlarni uyga vazifa sifatida berilganda o‘quvchilar lug‘at boyligi oshadi va mustaqil ishlanish ko‘nikmasi shakllantiriladi. Guruhlar ballari hisoblanadi va g‘olib guruh aniqlanadi. Darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari berilib rag‘batlantiriladi.

Zamonaviy ta‘limga xos muhim jihatlardan biri – pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishi sanaladi.[2]

O‘qituvchi bu jarayonda o‘quvchining shaxsiy rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Bugungi kunda pedagoglarning innovatsion faoliyat ko‘nikma, malakalariga ega bo‘lishlari muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat, ko‘nikma, malakalarini o‘zlashtira olishlarida ularning innovatsion yondashuvga ega bo‘lishlari talab etiladi.

Yuqoridagi usullardan foydalanilganda quyidagi natijalarga erishildi:

O‘quvchilar mustaqil fikrlash doirasi kengaydi, so‘z boyligi oshdi. O‘quvchining olgan bilim, ko‘nikma, malakalari darsning o‘zidayoq aniqlandi. O‘quvchilar mavzu yuzasidan keng ko‘lamli tushuncha va ma‘lumotlarga ega bo‘ldilar.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-avgustdagi PF-5172-son farmoni.
2. Abdullayeva Sh. “Yangi pedagogik texnologiyalar” (ma‘ruzalar matni) T – 2009.
3. Xurboev D. “Ta‘limda innovatsion texnologiyalar” referat Andijon – 2014.
4. Qodirov M., Ne‘matov H. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik “Cho‘lpon” – 2019.
5. uz.wikipedia.org

UO‘K 371.321.5

ADABIY TA‘LIM JARAYONIDA MODULLI TA‘LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Yusupov Abrorjon Nosirjonovich

Namangan v. Yangiqo‘rg‘on tumani 16-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi rus tili o‘qituvchisi, O‘zbekiston

Boltabayev Kamoliddin Yo‘ldashevich

Namangan v. Uychi tumani 2-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi rus tili o‘qituvchisi, O‘zbekiston

Sharipova Anisa Ahmadjonovna

Namangan v. Yangiqo‘rg‘on t. 4-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi ingliz tili o‘qituvchisi, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada modulli ta‘lim texnologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari, adabiy ta‘lim jarayonida modulli ta‘lim texnologiyasidan foydalanish usuli bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: o‘quv elementi, modulli ta‘lim, faoliyat, ta‘lim amaliyoti.

USING OF MODULAR EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN THE PROCESS OF LITERARY EDUCATION

Yusupov Abrorjon Nosirjonovich

Russian teacher of secondary school No.16, Namangan region, Republic of Uzbekistan

Boltabayev Kamoliddin Yo'ldashevich

Russian teacher of secondary school No.2, Namangan region, Republic of Uzbekistan

Sharipova Anisa Ahmadjonovna

English teacher of secondary school No.4, Namangan region, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. The article deals with the using of modular educational technology in the process of literary education.

Key words: educational element, modular education, activity, educational practice.

Modulli ta'lim pedagogik texnologiyani tashkil etuvchi tarkibiy bo'laklarni ifodalaydi. Modul lotincha *modulus* so'zidan olingan bo'lib qism, bo'lak, blok ma'nolarini anglatadi. Ushbu ta'lim texnologiyasi dars jarayonini tashkil etishdagi eng kichik ish turlaridan hamda ularning turli miqdordagi to'plamlaridan iborat bo'ladi. Bunda eng kichik faoliyat turi eng kichik modul sanalib, boshqalari qancha modulni qamrab olishiga qarab o'ziga mos darajadagi modullar sanaladi.

Modulli ta'lim texnologiyasi deyilganda, adabiy ta'lim jarayonini modullar asosida loyihalashtirish nazarda tutiladi. Ajratilgan har bir modul bo'yicha uning o'zigagina xos bo'lgan faoliyat mazmuni va ta'sir doirasi mavjud bo'ladi.

Adabiy ta'lim jarayonida modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanilganda o'rganiladigan mavzu mantiqiy tugallangan bo'laklarga, ya'ni modullarga ajratiladi. Har bir bo'lak o'quvchilar mustaqil ishlashlari uchun maxsus topshiriqlarga aylantiriladi.

Badiiy asarlarni bo'laklarga bo'lib o'rganishda, ya'ni darsni modullar asosida tashkil etishda, istalgan joydan, istalgan matnni olishga yo'l qo'yilmaydi. Buning o'ziga xos pedagogik, psixologik sabablari bor. Masalan, o'qituvchi katta hajmli epik asarlarni uning boblariga tayanib, dasturda belgilangan soatlarda o'rganishni rejalashtirib olishi va har darsda o'qilgan bo'laklardagi yetakchi fikrlarni modullashtirib olishi maqsadga muvofiqdir.

Modulning mazmunini belgilashda, dastlab adabiy ta'limning bosh maqsadi- ma'naviy barkamol avlodni shakllantirish va bu yo'lda xizmat qiladigan o'quv materiallari (mazmun)ni tayyorlashga e'tibor qaratiladi. Modullar bilan ishlash yakunidagi natija esa, ya'ni o'quvchi egallagan bilim, ko'nikma, malaka va shaxslik sifatleri mazkur maqsadga erishilganlik darajasini ko'rsatadi. Modulli adabiy ta'limning maqsadi ham barcha ta'lim texnologiyalari singari adabiy ta'lim bo'yicha davlat standartiga tayanadi. Mazkur ta'lim texnologiyasining maqsadi qancha aniq bo'lsa, unga erishish darajasi shuncha oson bo'ladi. Ushbu bosqichdagi dastlabki vazifa – o'quv materialini mazmuni va undagi muhim jihatlarni anglash, badiiy asardagi ma'lum ijobiy iz qoldiradigan jihatlarni umumlashtirish, ularni o'quvchi hayoti bilan bog'lashga yo'naltirish, o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari tabiatini belgilab olishdan iboratdir. Adabiy ta'lim jarayonida modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish uchun avval mazkur yo'nalishning xususiyatlarini ochib beradigan metodik majmualar yaratiladi, ta'lim jarayonini tashkil etish uchun uni zaruriy didaktik ashyolar bilan ta'minlanadi, so'ngra ta'lim amaliyotini nazariy-metodik va amaliy-tashkiliy jihatdan to'g'ri tashkil etiladi.

Modulli ta'lim texnologiyasida o'quvchilar tomonidan amalga oshirilayotgan har qanday faoliyatga o'quv elementi deb qaraladi. O'quv elementi o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: o'quvchi faoliyatining aniq elementlarini o'rgatish bilan bog'liq nazariy va amaliy ma'lumot; o'quvchining o'quv faoliyatini ta'minlovchi ma'lumotlar; aynan o'xshash maqsadlar yig'indisi; o'quvchi ishlashi lozim bo'lgan zaruriy materiallar to'plami; o'quvchining ish faoliyati, nazarda tutgan farazlari, buning uchun zamin bo'lgan shart-sharoit va topshiriqning bajarilganlik darajasini nazorat qiluvchi materiallar [3, 174].

Modulli ta'lim texnologiyasi adabiyot o'qitishda ta'limning belgilangan tamoyillariga muvofiq tarzda rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Bunda motivatsiya (o'quvchining bilishga bo'lgan ichki ehtiyoji), modullilik, muammolilik, hamkorlikka asoslanish, didaktik o'yinlar, audio-vizual va hk. tamoyillar nazarda tutiladi.

Adabiyot darslarida modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanishning amaliy namunasi sifatida umumta'lim maktablari uchun yaratilgan 11-sinf «Русский язык» darsligidagi «Литературное чтение» bo'limida o'rganish uchun berilgan Maksim Gorkiy hayoti va uning «Сказки об Италии» asarini tavsiya etish mumkin. Chunki yozuvchi va uning asarini mukammal o'rganish modulli ta'lim texnologiyasi asosida amalga oshirilsa, 2 soat yetarli hisoblanadi. Bu jarayonda quyidagi izchillikka amal qilinadi: modulli ta'lim uchun zarur shart-sharoitni yaratish; modulning maqsadi va mazmunini belgilash; nazariy va amaliy ma'lumotlarni ajratish; ta'lim amaliyotini rejalashtirish; o'quv hamda didaktik materiallar, texnik vositalarni

tayyorlash; amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish; zaruriy nazariy bilimlarni mustahkamlash; o'quvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini aniqlash; o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni baholash.

Adabiyot darslarini modulli ta'lim texnologiyasi asosida tashkil etish uchun zarur shart-sharoit yaratish deganda, avvalo, o'quvchilarni ham aqlan, ham ma'nan mazkur darsga tayyorlash nazarda tutiladi. Qolaversa, darsni tashkil etish uchun zarur bo'lgan shart-sharoit va o'quv materialini vaziyat taqozosiga moslashtirish ishlariga ham e'tibor qaratiladi.

Modulning maqsadi va mazmunini belgilashda asarni o'rganishga yo'naltiruvchi talqin rejalashtirib olinadi. Masalan, darsda o'rganilayotgan asar bo'yicha quyidagi mavzularda suhbat olib borish tavsiya etiladi: ***"Insonparvarlikning yorqin ifodasi; ona-yurtga muhabbat; ayollarga hurmat; ona matonati, insoniy munosabatlar tasvirida Amir Temur shaxsi; asarning tarbiyaviy ahamiyati"***.

Nazariy va amaliy ma'lumotlarni ajratish bosqichida asarni o'rganishdan avval o'quvchilarga Amir Temur va uning shajarasi tarixini bilib kelish topshirig'i beriladi, chunki asardagi qahramonlar nutqiga izoh berishda o'quvchining mustaqil fikri baholanadi. Shuningdek, asardagi ayrim notanish so'zlar lug'atini tuzish ham muhim. Chunki asar tilini tushunish uchun ruscha-o'zbekcha lug'at kerak bo'ladi, masalan, ushbu asardagi лохмотья – juldur kiyim, неиссякаемый источник – bitmas-tuganmas manba, уста – og'iz, возвестить – hammaga e'lon qilmoq kabi.

Ta'lim amaliyotini rejalashtirish bosqichida dastlab, Maksim Gorkiy hayoti va adabiy merosi haqidagi slayd namoyishi, so'ngra adib asarlarida ilgari surilgan g'oyaviy-tematik mazmun yoritiladi. Adibning "Сказки об Италии" asari yozilishi tarixi aytib o'tiladi: "В 1906 году Максим Горький уезжает на лечение в Италию, на остров Капри, где проживёт семь следующих лет. Впечатления от увиденного легли в основу "Сказок об Италии". So'ngra asar haqida qisqacha ma'lumot beriladi: "Сказки об Италии" Максима Горького – цикл из 27 небольших рассказов. Ниже дана IX глава этого произведения, которая начинается словами: "Прославим женщину – Мат!". Asarning ayrim o'rinlarini rollarga bo'lib ijro etish; asardagi she'rni ifodali o'qib berish topshiriqlari bajariladi. Asar qahramonlarining o'ziga xos xarakter xususiyatlarini yoritishda yozuvchi mahoratini ochib berish; asar yuzasidan tuzilgan tezkor savol-javoblar hamda tarqatma materiallar javobini tinglash; asar bo'yicha hamda mavzuga aloqador savollar bilan o'quvchi dunyoqarashini sinash kabi masalalar darsning ikkinchi soatida amalga oshiriladi.

O'quv hamda didaktik materiallarni o'quvchiga namoyish etishda texnik vositalardan ham unumli foydalanish vaqtini tejashga olib keladi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda o'quvchilar bilim saviyasi ham inobatga olinadi va ularga sinfda, uydaj bajaradigan topshiriqlarning mazmun-mohiyati tushuntiriladi.

Zaruriy nazariy bilimlarni mustahkamlash bosqichida Maksim Gorkiy yaratgan asarlar mohiyati, Amir Temur haqida yaratilgan badiiy va tarixiy asarlar nomi hamda ularning ilm-fandagi ahamiyati ma'lumot sifatida eslatiladi. Mustaqillik yillarida Amir Temur shaxsiga bo'lgan munosabat u haqda ilm-fan orasidagi dastlabki qarashlar bilan qiyoslanadi.

O'quvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini aniqlash bosqichida asar yuzasidan tayyorlangan tarqatma materiallardagi quyidagi savollar o'quvchilarga tarqatiladi:

1. О каком правителе идет речь в этом рассказе? 2. Почему сердце правителя было закрыто для сострадания? 3. Перед кем преклонился Тамерлан? Найдите в тексте и прочитайте данный отрывок. 4. Где он пирувал с военачальниками? 5. Почему женщина требовала, чтобы царь искупил свою вину? 6. В какой части отрывка выражена главная мысль? 7. О ком рассказала женщина Тимурленгу? 8. Чему удивился властитель? О чём он её спросил? 9. Как характеризует великого Амира Тимура его отношение к мудрому и смелому поэту Кермани и к женщине-Матери? 10. Зачем Тимур отправил всадников во все концы земли?

Savollarga to'g'ri javob bergan o'quvchilarga rag'bat kartochkalari beriladi.

O'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni baholash uchun o'quvchilarga dars davomida berilgan rag'bat kartochkalar soni, o'quvchilarning bilimi, savodxonligi, nutqi, o'z fikrini ifodalay olishi, asar mazmunidan chiqargan xulosalari, dunyoqarashi, vatanparvarlik pozitsiyasi ham inobatga olinadi.

Har qanday asar matni o'qituvchi tomonidan o'qib berilayotgan paytda o'quvchilar ham u bilan birga o'z darsliklaridan asarni ichdan o'qib borishlari tavsiya etiladi. Bu usul, avvalo, o'quvchilarni eshitish orqali ifodali o'qish ko'nikmasini egallashga yo'naltiradi, o'zlari o'qish asnosida esa o'qituvchidan ortda qolmaslikka intilib tezo'q ish ko'nikmasini ham egallab boradilar. Asar to'liq o'qib bo'lingandan so'ng, ikkinchi darsda uning tahliliga kirishiladi.

Afsuski, darslikda taqdim etilgan savol-topshiriqlar o'quvchilarning asar mohiyatini anglashlari uchun yetarli emas. Shuning uchun o'qituvchi asar matnidagi diqqatga sazovor o'rinlarni modullashtirishi, ularni ekranda namoyish etishi yoki kichik guruhlarda ishlayotgan o'quvchilarga taqsimlab berishi va har bir qism zamiridagi muhim jihatlarni savol yoki topshiriqqa aylantirib, ularga o'quvchilarning e'tiborini qaratishi kerak bo'ladi.

Asardagi: «Поклонимся Той, которая неумоимо родит нам великих! Аристотель сын Её, и Фирдуси, и сладкий, как мёд, Саади, и Омар Хайям, подобный вину, смешанному с ядом, Искандер и слепой Гомер – это все Её дети, все они пили Её молоко, и каждого Она ввела в мир за руку, когда они были ростом не выше тюльпана, – вся гордость мира – от Матерей!» yoki «– Я, раб божий Тимур, говорю, что следует! Вот – сидит предо мною женщина, каких тьмы, и она возбудила в душе моей чувства, неведомые мне. Говорит она мне, как равному, и она не просит, а требует. И я вижу, понял я почему так сильна эта женщина, – она любит, и любовь помогла ей узнать, что ребёнок её – искра жизни, от которой может вспыхнуть пламя на многие века. Разве все пророки не были детьми и герои – слабыми?» kabi fikrlarga munosabatingizni bildiring kabi topshiriqlar berish bilan ushbu fikrlar alohida modullashtirilganda o'quvchilar asar matniga qayta murojaat qilishlari kerak bo'ladi. Asardagi bu savol-topshiriqlar qaratilgan lavha mazkur ish uchun modullik vazifasini bajaradi.

O'quvchilarga uy vazifasi sifatida o'z tasavvuridagi Amir Temur siymosini gavdalanitirish yoki u haqda tarixiy manbalar asosida esse yozib kelish topshirig'i berilishi mumkin. Har ikkala topshiriqning natijasi ham ijod mahsuli hisoblanadi. Ijod esa mustaqil va ijodiy fikr natijasi bo'lib, o'quvchida ma'naviy sifatlarning shakllanishiga turtki bo'ladi.

Xullas, mazkur modulli ta'lim texnologiyasidan foydalanish o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va shaxslik sifatlarini egallashida, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishida, mustaqil fikrlashga odatlanishida, badiiy tahlil malakalarini egallashida, o'z bilim va qobiliyatlarini baholay bilishida, o'zining xato-kamchiliklarini anglash va ularni bartaraf qila bilishida o'ziga xos o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013.
2. Husanboyeva Q. Adabiy ta'limda mustaqil fikrlashga o'rgatish asoslari. – Toshkent: O'zimga, 2003.
3. Husanboyeva Q., Niyozmetova P. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Barkamol-fayz media, 2018. – 352 b.

UO'K 373.32

BOSHLANG'ICH SINFLARDA HARAKATLI KO'RGAZMALARNING AFZALLIGI

Toshboyeva Dilfuza To'xtanazarovna

*Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani 28-umumiy o'rta ta'lim maktabi
I-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasi
E-mail: toshbojevadilfuza1975@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda har bir o'qituvchi o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda ularning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'z fikrini og'zaki va yozma bayon eta olish, yangi bilimlarni mukammal egallash, darsda o'quvchilarning faolligini oshirish va fikrlash orqali o'zlashtirishlarini ta'minlash maqsadida innovatsion texnologiyalarni qo'llash muhimligi haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, innovatsiya, harakatli ko'rgazma, ijodkorlik.

UDC 373.32

THE ADVANTAGE OF MOVING EXHIBITIONS IN PRIMARY SCHOOL

Tashbaeva Dilfuza Tukhtanazarovna

1st category primary class teacher of school No.28, Turakurgan district, Namangan region, Uzbekistan

Brief abstract. In the article is said about the importance for every teacher to use innovative technologies in teaching to expand their thinking, to think freely, to express themselves orally and in writing, to acquire new knowledge, to increase students' activity in the classroom and to help them learning through thinking.

Keywords: pedagogical technology, innovation, mobile exhibition, creativity.

Mamalakatimiz kelajagi bugun maktablarda ta'lim-tarbiya olayotgan farzandlarimizga ularning har tomonlama yetuk va barkamol insonlar bo'lib yetishishlariga bog'liq. Bu mas'uliyatli vazifani bajarish hozirgi zamon o'qituvchisi, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda ta'lim beruvchilardan o'z kasbiy mahoratlarini doimiy tarzda oshirib borishlari, ilg'or pedagogik texnologiyalarning izchil metodlari mohiyatini to'liq anglashlari va uni o'z darslarida mohirona foydalanishlarini taqozo etadi. Bugun ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyo qarashlarini o'stirish, ularni mustaqil fikrlaydigan, erkin ishtirokchiga aylantirish nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi, o'quvchilar esa ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashga innovatsiya

faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi. Boshlang'ich sinflarda ko'proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o'yin mashqlaridan foydalanib, darslar o'tish yaxshi samara beradi. Ko'proq atrof-muhit bilan bog'lab o'tilgan mashg'ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatlarini, mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri an'anaviy ta'limda o'quvchilar tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun boshlang'ich sinflarida ta'lim jarayonini amalga oshirish, ta'lim-tarbiya ishlarini yaxshilash, zamonaviy pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiiq etishning ahamiyati benihoya kattadir.

Innovatsiya (ingl. *innovation* – kiritilgan yangilik, ixtiro) – yangilanishni, o'zgarishni amalda joriy etish jarayoni va faoliyatidir. “Innovatsiya ta'lim”ning o'ziga xos xususiyati: oldindan ko'ra bilish, ya'ni o'quvchini avvalgi va hozirgi tajribasi asosida o'qitish emas, balki uni uzoq kelajakni mo'ljallashga o'rgatishdan iborat bo'lib, o'quvchi ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyatda taxmin qilish, ko'zlash, modellashtirish hamda loyihalashtirishni amalga oshira olishi lozim.

O'quvchining hamkorlikda ta'lim olish va muhim qarorlarni qabul qilish (lokal va xususiydan tortib, madaniyat, sivilizatsiya rivojlanishini hisobga olgan holda global muammolarni hal etish) da faol ishtirok etishini ta'minlash.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritishni nazarda tutadi, uni amalga oshirishda, asosan, interfaol uslublardan foydalaniladi. Interfaol (“Inter” – o'zaro, “act” – harakat qilmoq) – o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat muloqot tartibida bo'lishni anglatadi.

Yangi tahrirdagi DTS asosida o'quvchilarning ko'nikma va malakalarini shakllantirishda ilg'or innovatsion g'oyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich sinflarda innovatsion g'oyalardan foydalanish: vaziyatga moslashuvni, muloqot qobiliyati, axborot savodxonligi, ko'nikma hosil qilishni, haqiqiy bilim manbayini oshiradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy salohiyati va ma'lumot darajasi, bolalar psixologiyasi, hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim metodikasini bilishi boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim sifatini va samaradorligini oshirish uchun dars o'tish jarayonida ko'rgazmalilik juda zarur. O'quv jarayonida ko'rgazma vositalaridan o'rinli foydalanish kata ahamiyat kasb etib, o'quvchi diqqat-e'tiborini, nutqini, erkin fikrlash salohiyatini yuksaltiradi. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda tumanimizda yangi innovatsion g'oyalarga tayanib “Harakatli ko'rgazmalar” tanlovi tashkil etildi. Unda ko'plab boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'zlarining yangi innovatsion g'oyalari asosida tayyorlagan ko'rgazmalari bilan tanlovda ishtirok etdilar. Masalan: “Aql charxi”, “Dengiz sayohati”, “Bilimdon”, “Bilag'onlar musobaqasi”, “Cho'qqini kim zabt etadi”, “Zukko o'quvchilar”, “Nurli kelajak” kabilardir. Tanlovda ishtirok etgan o'qituvchilar o'zlari tayyorlagan harakatli ko'rgazmalarining afzalligini tushuntirib o'tdilar. Tanlov o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalab bilim berayotgan biz kabi izlanuvchan o'qituvchilarni yanada fidoiy bo'lishga o'rgatdi. Men ham o'quvchilarning darslardagi faolligini oshirish, o'tilgan darsda olgan bilimlarini mustahkamlash va yangi darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida, barcha fanlardan darsning hamma bosqichlarida foydalaniladigan “Xazinani top” nomli tayyorlagan harakatli ko'rgazmam bilan ishtirok etdim.

“Xazinani top” deb nomlangan ushbu harakatli ko'rgazmadan o'qituvchilar barcha fanlarni o'qitishda foydalanishlari mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilari turli xil mo'jizalarni, sayohatlarga chiqishni yoqtiradilar. Ushbu ko'rgazmadan foydalanish ularning faolligini oshiradi, olgan bilimlarini mustahkamlaydi. “Ilm baxt kaliti” degan naqlni tushuntirilib, kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlari kuchaytiriladi.

Bajarilish tartibi: ko'rgazmadan foydalanish uchun darsning tashkiliy qismida o'quvchilarni guruhlarga bo'lib “Bilimlar mamlakati” ga sayohat qilinadi. Sayohatda o'quvchilar “Xazina” nomli uychaga kirish uchun zinalar oldida turgan savatlardagi savollarga javob berishadi. Zinalar oltita bo'lib darsning barcha bosqichi asosida savollar tayyorlanadi. Birinchi zina oldida Prezidentimiz ilgari surgan 5 ta muhim tashabbuslariga oid baraban bo'lib, undagi savollarga darsning tashkiliy qismida o'quvchilar barabanni aylantirib aniqlaydilar va javob beradilar. Barabanning harakatlanganini ko'rgan o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi ortadi.



Ikkinchi zina oldidagi savatda o‘tilgan mavzuga oid savollar bo‘lib, uchinchi zina oldidagi savatda yangi mavzuni mustahkamlovchi test savollari bo‘ladi. To‘rtinchi zina oldidagi savatda esa o‘quvchilar bilimidagi bo‘shliqlarni to‘ldiruvchi savollar yoki topshiriqlar bo‘ladi. Savatdagi savollar rangli qog‘ozlardan tayyorlangan qo‘ng‘iroqlarga yozilgan bo‘ladi. O‘quvchilar sayohat davomida savoliarga javob berib qo‘ng‘iroqlarni uycha oldidagi archa daraxtiga ilib borishadi. Archa daraxtining to‘rtta tomoni bo‘lib, guruh a‘zolari daraxtdagi o‘zlarining tomonlariga javob bergan qo‘ng‘iroqlarini ilishadi. Beshinchi zina oldidagi savatda rag‘batlar bo‘lib, o‘qituvchi faol qatnashgan o‘quvchilarga tarqatib, ularni baholaydi. Oltinchi zinada uychaning eshigini ochish uchun kalit so‘zi yashirilgan qo‘ng‘iroqdagi savolga javob beriladi. Kalit so‘zi “Kitob” bo‘lib, u haqida topishmoq yoki maqollar bo‘lishi mumkin. “Qat-qat qatlama, aqling bo‘lsa tashlama”. Uycha eshigi ochilganda uning ichidagi lampa yonadi va daraxt aylanib o‘quvchilarni hayratlantiriladi. Uycha ichidagi “Xazina” bu kutubxona bo‘lib o‘quvchilarning kitobxonligi oshiriladi.

Darsning so‘ngida g‘olib guruh aniqlanib ularga kutubxonadagi kitoblardan o‘qish uchun beriladi. Sayohat so‘ngida o‘quvchilarga uy vazifasi bilan birgalikda badiiy kitob o‘qish topshiraladi. Bu ko‘rgazmadan savatdagi savollarni almashtirib, boshqa fanlarda ham guruh bo‘lib, yoki yakka tartibda ham qo‘llash mumkin. Archa daraxtini fasllarga moslab mevali daraxtga almashtirish mumkin. Harakatli ko‘rgazmaning afzalligi shundaki darsning oxirigacha o‘quvchilar diqqat e‘tibori sayohatdagi savol va topshiriqlarni bajarib xazinaga ega bo‘lishga qaratiladi. Ular ko‘rgazmalarining harakatlariga qiziqadilar.

Dars so‘ngida rag‘bat va sovg‘a olish uchun harakat qiladilar. Harakatli ko‘rgazma o‘quvchilarning xotirasini kuchaytiradi, diqqat-e‘tiborini oshiradi. Sayohat darsi davomida o‘quvchilarning tabiatga bo‘lgan mehr-muhabbatlari oshiriladi. O‘quvchilarga o‘qish fanidan o‘tilgan she‘r, hikoya, ertaklar mazmunini tushunish va tasavvur qilishga yordam beradi. Matematika fanida masalalarni tezroq tushunib, unung yechimini topib mantiqiy fikrlashga o‘rgatadi. Ona tili darslarida o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirib mustaqil fikrlarini bayon qilishga yordam beradi. Ko‘rgazma savollarga to‘g‘ri va aniq javob berish, muammolarni mustaqil yecha olish, o‘quvchilarning yangi mavzuga bo‘lgan qiziqishlarini oshirib boradi.

Aniqroq qilib aytganda, harakatli ko‘rgazmalar ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchining maqsadga erishishda muhim ahamiyatga egadir. Bunday innovatsion g‘oyalar ta‘lim jarayonining unumdorligini oshiradi. O‘quvchilarning mustaqil fikrlashishini rivojlantiradi, ularda bilimga ishtiyoq va qiziqishni yuksaltiradi, bilimlarni mustahkamlash, o‘zlashtirish ulardan amalyotda erkin foydalanish ko‘nikma hamda malakalarini shakllantiradi. Innovatsion g‘oya, interfaol o‘yinlar samaradorligi boshlang‘ich sinflarda o‘quv jarayoniga qay darajada singdirilishiga bog‘liq.

Umuman olganda, o‘qituvchi har bir darsning muhim vazifalarini oldindan belgilab olmasa, o‘z maqsadiga erisha olmaydi. Qolaversa, o‘qituvchi dars o‘tish jarayonida belgilangan talablar asosida o‘z ishlari natijasini nazorat qilib borishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. U.Masharipova, M.Umarova, D.Baynazarova, M.Nabiyeva. “Ona tili o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma”. Toshkent – 2014.
2. H.Saidov. “Boshlang‘ich ta‘lim jurnali”. – 2019.
3. G.Boymurodova, X.Sattarova, F. Karimova. “O‘qish o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma”. Toshkent – 2014.
4. T.G‘afforova. “Boshlang‘ich ta‘limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”. Toshkent – 2011.

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy raqamli ta'limni joriy etish, STEAM ta'limining zaruriyligi va ahamiyati, uning afzalliklari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, muhandislik, aniq fanlar, STEAM, Prezident maktablari, texnologiya.

Brief abstract. This article discusses the introduction of modern digital education, the need and importance of STEAM education, its advantages.

Keywords: digital education, engineering, exact sciences, STEAM, Presidential schools, technology.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 05.09.2018-yildagi PF-5538 Farmonida, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zamonaviy maktab» Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori loyihasi kiritilishi haqida so'z boradi. Bunda ekologik jihatdan toza materiallar va energiyaning muqobil manbalaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan namunaviy loyihalar asosida zamonaviy maktablar qurish; o'quv rejalari va dasturlarini optimallashtirish, innovatsion, shu jumladan, masofaviy pedagogik usullardan keng foydalanish, ushbu jarayonning samaradorligini butunlay oshirishni nazarda tutadi. Ayni paytda uzluksiz ta'limda pandemiya sharoitida masofaviy ta'limning eng optimal yo'llarini amalga oshirish, yoshlarning ilmiy-texnik bilimlarini oshirish, ixtiroga yo'naltirish, yangicha o'qitish tizimini shakllantirish, raqamli ta'lim istiqboli uchun yangi chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan.

Shunga ko'ra, Respublikamizning har bir hududida iqtidorli yoshlarni aniqlash maqsadida Prezident maktablari ochilmoqda. Ular STEAM fanlarini o'qitishga ixtisoslashgandir. STEAM — maktab o'quvchilarini yangi o'qitish metodikasi bo'lib, an'anaviy o'qitish tizimiga muqobil tizim hisoblanadi. U bolalarni bir vaqtning o'zida Science (tabiiy fanlar), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (sanhat) va Mathematics (matematika) bo'yicha o'qitish tizimiga asoslangan, bunda o'quvchilar amaliy va ko'ngilochar loyihalar mashg'ulotlari yordamida saboq oladilar.

STEAM ta'limi texnologiyasi loyihalash metodiga tayangan holdauning asosida bilish va badiiy izlanish yotadi. Bunday izlanish amaliy faoliyat jarayonida bilimlarni olish, so'ngra ulardan amaliyotda qayta foydalanish, ya'ni o'yinlarda konstruktiviyalar tuzish, texnik ijodiyot elementlarini qo'llab, bilim olishga oid tadqiqot ishlarida amalga oshiriladi.

STEAM ta'limi o'quvchi yoshlarning rivojlanishini tashqi olam bilan bevosita bog'laydi. Ma'lumki, tabiiy fanlar atrofimizdagi olam bilan bevosita bog'liq texnologiya kundalik hayotimizda doimiy ravishda qo'llaniladi, muhandislik esa uylar, yo'llar, ko'priklar va mashina mexanizmlarda o'z aksini topgan, biror bir kasb, kundalik mashg'ulotlarimiz ozmi-ko'pmi aniq fanlar bilan ham bog'langandir. Ta'lim berishni o'quv fanlari bo'yicha emas, balki mavzular bo'yicha integratsiyalab olib borish kerak. STEAM ta'limining afzalliklari:

1. STEAM ta'limida fanlararoaloqa va loyihalash metodi birlashtirilgan bo'lib, uning asosida tabiiy fanlarni texnologiyaga, muhandislik ijodiyotiga va matematikaga integratsiya qilish yotadi. Bunda muhandislik bilan bog'liq kasblarga bo'lgan tayyorgarlik amalga oshiriladi. Ayniqsa, Sirdaryo viloyati Sardoba tumani suv omborida bo'lib o'tgan ofat muhandislik kasbining hayotimiz uchun qanchalik zaruriy ahamiyatga molik ekanini isbotladi.

2. Ilmiy-texnik bilimlarni realhayotda qo'llash. STEAM ta'limida amaliy mashg'ulotlar yordamida bolalarga ilmiy –texnik bilimlardan real hayotda foydalanish namoyish qilinadi. Har bir darsda o'quvchilar zamonaviy industriya modellarini ishlab chiqadi, quradiva modelini rivojlantiradi. Ular aniq loyihani o'rganadi, natijada real mahsulotning prototipini yaratadilar.

4. Tanqidiy tafakkur ko'nikmalarni rivojlantirish va muammolarni yechish. STEAM dasturi, bolalarkundalik hayotlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yengishga zarur bo'ladigan tanqidiy tafakkur va

muammolarni yechish ko'nikmalarni rivojlantiradi. Masalan, bolalar tez yuradigan mashina modelini yig'adilar, so'ngra uni sinovdan o'tkazadilar.

5. O'z kuchiga ishonish hissining ortishi. Bolalar ko'prik qurish, mashina va samoliyot modelini ishga tushirishda har safar maqsadiga yaqinlasha borishadi. Har bir sinovdan so'ng modelini takomillashtirishadi. Oxirida barcha muammolarni o'z kuchlari bilan yengib, maqsadga erishiladi.

6. Faol kommunikatsiya va jamoada ishlash. STEAM dasturi faol kommunikatsiya va jamoada ishlash bilan farqlanadi. Muloqot davrida o'z fikrini bayon qilish va bahs-munozara olib borish uchun erkin muhit vujudga keltiriladi. Ular gapirishga va taqdimot o'tkazishga o'rganishadi. Bolalar doimo o'qituvchi va sinfdoshlari bilan muloqotda bo'lishadi. Bolalar jarayonda faol qatnashsalar mashg'ulotni yaxshi eslab qoladilar.

7. Texnik fanlarga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish. Boshlang'ich ta'limda STEAM ta'limining vazifasi, o'quvchilarni tabiiy va texnik fanlarga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishdan iborat. Mazkur ta'limda tabiiy va texnik fanlar uyg'unlikda, integratsilashgan tarzda olib boriladi.

8. Loyihalarga kreativ va innovatsion yondashuv. STEAM ta'limi oltita bosqichdan iborat: savol (vazifa), muhokama, dizayn, qurish, sinovdan o'tkazish va rivojlantirish. Bu bosqichlar tizimli loyihalash yondashuvining asosi hisoblanadi. Turli imkoniyatlarning birgalikda mavjud bo'lishi yoki birgalikda ishlatilishi o'z navbatida kreativlik va innovatsiyaning asosi bo'lib hisoblanadi. Shunday qilib, fan va texnologiyaning birgalikda o'rganilishi ko'pgina yangi innovatsion loyihalarni yaratishga olib keladi.

Ta'lim va karyera orasidagi ko'prik. Turli xil baholanishlarga ko'ra hozirgi kunda talabgor eng ko'p bo'lgan 10 ta mutaxassisdan 9 tasida aynan STEAM bilimlari zarur bo'ladi. Bunday kasblarga: muhandis-texnik, muhandis-energetiklar, kompyuter tizimlarianalitiklari, robototexniklar kabilar kiradi.

8. O'quvchi yoshlarni texnologik innovatsion hayotga tayyorlash. STEAM ta'limio'quvchi yoshlarni texnologik rivojlangan dunyoda yashashga tayyorlaydi. Keyingi 60 yil davomida texnologiyalar jadal darajada rivojlandi: Internetning ochilishi (1960), G'S texnologiyalar (1978) dan DNKni skanerlashgacha va albatta I'od (2001). Texnologiyalar bundan keyin ham rivojlanishda davom etadi va STEAM ko'nikmalar bu rivojlanishning asosi bo'ladi.

9. STEAM maktab dasturlariga qo'shimcha sifatida STEAM dasturlari 7-14 yoshdagi o'quvchilarning mustaqil ravishda o'tkaziladigan mashg'ulotlarga qiziqishlarini orttiradi. Masalan, informatika va axborot texnologiyalari darslarida biror bir qurilmaning modellashtirish yoki uning ishlash algoritmini o'rganilganda doskada algoritmik ketma-ketlikdagi dasturiy modelini yozib tushuntirilsa, STEAM to'garaklarida raketalar, samolyotlar, parashyutlar, robotlar qurib, ishga tushirib, o'z bilimlarini mustahkamlaydi. O'quvchilar o'zlari ko'rmagan yoki eshitmagan atamalarni har doim ham tez anglab yetmaydilar. STEAM mashg'ulotlarida ular qiziqarli eksperimentlarni o'tkazganlarida bu atamalarni osongina tushunib olishlari mumkin. Masalan, mana shu COVID-19 tarqalgan, infeksiya butun dunyoni vahimaga solgan davrda o'quvchi yoshlar, ayniqsa, talabalar tomonidan izolyatsiya skafandrlari, "Aqlli maskalar", termometrlar, yangi antiseptik purkagichlar, turli robotlarning yaratilishi va ishga tushirilishi misolida qaraylik. Buning qanchalik hayotimiz va xalqimiz uchun ahamiyatli ekanligi ma'lum.

STEAM yondashuvining asosiy g'oyasi: amaliyot nazariy bilim kabi juda muhimdir. Ya'ni, o'rganish vaqtida biz nafaqat miya, balki qo'llarimiz bilan ham ishlashimiz kerak. Dars vaqtida bilim olish tez o'zgaruvchan dunyo bilan mos kelmaydi. STEAM yondashuvi bilan an'anaviy yondashuv o'rtasidagi asosiy farq, bolalar turli mavzularni muvaffaqiyatli o'rganishi uchun ularning aqli va qo'llarini baravar ishlatishidir. Ular bilimlarni o'zlari uchun o'zlari o'rganadilar. O'quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga o'rgatishdan maqsad quyidagicha:

- o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatiga o'rgatish ko'nikmalarini hosil qilish;
- o'quvchilarni o'quv dasturidan tashqari bo'lgan yangi bilim olishga qiziqtirish;
- ijodkorlik va kashfiyot yaratishni o'ziga xos tomonlarini o'rgatish; o'quvchilarning yangi bilimlarni egallashlariga erishish;

- ularning me'yoriy hujjatlar (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, tegishli qonunlar, har bir fan bo'yicha yaratilgan kontseptsiya, davlat ta'lim standartlari va h.k.), o'quv adabiyotlari, badiiy-ilmiy asarlar, amaliy materiallar, statistik ma'lumotlardan foydalanishga o'rgatish;

- zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish, asosiy kompyuter dasturlari bilan ishlash layoqatlarini tarkib toptirish hamda internet axborot tizimidan foydalanishga o'rgatish;

- yig'ilishlarda yaratayotgan ilmiy maqolalari bilan chiqish (taqdimot) qilish, o'z fikrini bildirish, tinglovchilarga o'z fikrini yetkaza bilish va uqtira olish, fikrlarini asoslash, o'z fikrlarini auditoriya bilan o'rtoqlashishga o'rgatish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, STEAM yondashuvi nafaqat o'rganish, balki fikrlash usuli hamdir. STEAM ta'lim muhitida bolalar bilimga ega bo'lib, shu bilimdan foydalanishni darhol o'rganadilar. Shuning uchun

ular o'sib, haqiqiy dunyoda istalgan hayot muammosiga duch kelganda, bu xoh ifloslanish yoki iqlimning global o'zgarishi bo'lsin, xoh texnikaviy muammolar bo'lsin, bunday murakkab masalalarni faqat turli fanlardan olgan bilimlarga tayanish va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Faqat bitta fandan olingan bilimga tayanish yetarli emas. STEAM yondashuvi o'rganish va ta'limga bo'lgan munosabatimizni o'zgartiradi.

O'quvchilar amaliy ko'nikmalarga e'tibor qaratish orqali irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o'rganadi. Ushbu ko'nikmalar va bilimlar asosiy ta'lim vazifasini tashkil etadi, ya'ni ta'lim tizimining bosh maqsadi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. S.T.Turg'unov, B.X.Daniyarov, D.M.Otajonova. "O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ta'lim muassasasi rahbarlarining funktsional vazifalari". Toshkent-2011.
2. Pirmuhammedov M. Pedagogik mahorat asoslari . – T.: 2000.
3. Yo'ldoshev J., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar.– T.: "Moliya-iqtisod" nashriyoti, 2009.
4. Yo'ldoshev J.G'. Xorijda ta'lim. –T.: Sharq, 1995.
5. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A. B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari .- T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015.
6. Muxina S.A., Solovyova A.A. Sovremennie innovatsionnie texnologii obucheniya. – M.: "GEOTAR-Mediya", 2008.
7. <http://mschool.kubsu.ru/> - Elektron qo'llanmalar kutubxonasi. Sirtqi matematik olimpiadalar.
8. www.tdpu.uz, www.pedagog.uz

UO'K 371.398

ONA TILI DARSLARIDA O'QITISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Rasulova Dildora Yakubovna

Namangan shahar, 48-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya. Maqolada ona tili darslarida interfaol metodlarni qo'llash va uning afzalliklari hamda ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: interfaol metod, zamonaviy ta'lim, dars, o'quvchi, ta'lim jarayoni.

UDC 371.398

MODERN METHODS OF TEACHING IN NATIVE LANGUAGE LESSONS

Rasulova Dildora Yakubovna

Teacher of secondary school No.48, Namangan city, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. The article provides an idea of the application of interactive techniques in the lessons of mother tongue and its advantages, as well as the joint activities of the teacher and the student in the educational process

Keywords: interactive method, modern education, lesson, educational process.

Insonning ma'naviy to'kislik sari intilishi – tabiiy jarayon. Shu tabiiy taraqqiyotga tayangan holda fuqarolar erkinligini ta'minlash, xalqining ham moddiy, ham ma'naviy to'kisligiga erishish har qanday mamlakatning kuchli bo'lishi garovidir. Shu ma'noda, mamlakat ta'lim-tarbiya tizimida ham pedagogik tafakkur sharoiti yangilandi, o'z qarashiga ega bo'lgan, e'tiqodi sog'lom fuqaroni shakllantirish yo'lida ish olib borilmoqda. Ya'ni inson ma'naviyatining sog'lomlashuviga, uning yaxshi sifatlar bilan to'yinishiga birlamchi yumush sifatida yondashish ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi [1].

Bizga ma'lumki, ta'lim jarayoni murakkab jarayon bo'lib, bugungi kunda o'qituvchi o'qitishdan o'qishni o'rgatishga, bilim berishdan o'quvchilarning bilimlarni mustaqil egallashlariga yo'naltirish kerakligi taqozo etilmoqda, ya'ni o'qituvchi tomonidan ta'lim jarayonida yaratilgan muhit o'quvchilarni mas'uliyatni to'liq his qilgan holda mutaqil ishlashga undasin. Bunday jarayonlarni doimiy tashkil etib borish hozirgi zamon o'qituvchisi, ayniqsa, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilardan o'z kasbiy mahoratlarini doimiy tarzda oshirib borishlari, o'z ustida muntazamishlashlari, ilg'or pedagogik texnologiyalarning mazmun-mohiyatini anglagan holda o'z darslarida ulardan mohirona foydalanishlarini talab etadi.

Maktab davrida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda adabiy ta'lim o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ma'lumki, boshqa o'quv fanlari bo'yicha o'tiladigan darslardagi izlanishlar natijasida o'quvchilar avvaldan ayon bo'lgan yagona xulosaga kelishadi. Masalan: to'qqiz karra to'qqiz dunyoning hamma burchagida, qaysi tilda, qanday yo'llar bilan yechilishidan qat'i nazar, natija, to'g'ri javob bitta-

sakson bir. Bu mutaxassislar tomonidan qat'iy belgilab qo'yilgan haqiqat-xulosa. Yoki ona tili darslarida «kim?», «nima?» so'roqlariga javob bo'ladigan so'z turkumi hamisha ot deyilishi qabul qilingan. O'quvchilar gapning morfologik tahlili jarayonida qanday misol berilishidan qat'i nazar, bu so'roqlarga javob bergan so'zlarni ot ekanligini aniqlaydilar. Bu ham avvaldan aniqlab qo'yilgan yagona haqiqat. Ammo adabiy ta'limning o'ziga xosligi shundaki, unda har bir o'quvchi o'z oldiga qo'yilgan muammoni tegishli maqsad va vazifalarini belgilagan holda bilimi, hayotiy tajribasiga tayanib turli yo'l, usul, vositalar yordamida mustaqil ravishda hal qilib, faqat o'zining badiiy haqiqatini chiqarishi mumkin [1.b 74-75].

Bugungi ta'lim jarayonida interfaol metodlarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish hozirgi kunning eng muhim dolzarb vazifalaridan biridir. Chunki o'quvchilarning fikr doirasini, ongi va dunyoqarshlarini o'stirish, ularni mustaqil fikrlaydigan, erkin ishtirokchiga aylantirish nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi, o'quvchilar esa ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani amalga oshirishda innovatsiyon faoliyat ustunligi samara keltiradi. O'quv mashg'ulotlari jarayonida kichik guruhlarda ishlash samarali natija beradi. Sinfdagi o'quvchilardan kichik guruhlar tashkil etishda quyidagilarga amal qilinadi:

1. Guruhlar o'qituvchi tomonidan belgilanadi.
2. Guruhga rahbarlik qila oladigan o'quvchi va guruh a'zolari oldindan aniq belgilab olinadi.
3. Har bir guruhga zehni va qobiliyatli hamda bo'shroq o'zlashtiradigan o'quvchilar, imkon qadar, teng taqsimlashga harkat qilinadi. Guruhlar bir-biriga munosib a'zolar bilan to'ldiriladi va vazifalari belgilanadi.
4. Guruh rahbari va a'zolariga vazifalari tushuntiriladi.
5. Har bir guruh doira shaklida o'tirishi, guruhning har bir a'zosi bir-birini ko'rib turishi shart.
6. Ish jarayonida har bir guruhning faoliyatiga, g'oyalarga e'tibor berib boriladi. Yaxshi g'oya egalari rag'batlantiriladi [1].

Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish jarayonlarida ko'proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularda qo'llanadigan interfaol metodlar oddiy va shu bilan birgalikda, samarali bo'lishi ham kerak, bunda oson va vaqt kam sarflanadigan usullardan foydalanib, darslar o'tish yaxshi samara beradi. Ayniqsa, ona tili darslarida mustaqil fikrlashga o'rgatish, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish lozim hamda ularning nutqiy malakasini rivojlantirishni yuzaga keltiruvchi jarayonlarni ko'proq tashkil etish kerak.

Quyida sinflarda ta'limni tashkil etishda turli xil ta'limiy o'yinlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Ta'limiy o'yinlar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, ularning amaliy ko'nikma va malakalarga aylanishini ta'minlaydi, ta'lim oluvchilarda muayyan axloqiy sifatlarni ham tarbiyalashga o'z ulushini qo'shadi. D.B. Elkonin fikriga ko'ra, "Xuddi shu oddiygina o'yin orqali o'sib kelayotgan bolaning tasavvuri ilk marotaba qaror topa boshlaydi". Yuqori sinflarda esa, o'qitishning interfaol metodlardan foydalanish yaxshi natija beradi.

Interfaol metodlar – ijodkor shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, jamoada sog'lom muhitni yaratish orqali talim sifati va samaradorligini oshirish, o'zaro hamkorlik asosida muammolarning yechimlarini topish, aniq maqsadli natijalarni kafolatlash demakdir. Ijodkorlik – kishining o'z qiziqishi, ijodiy namunalari yangiliklar kiritishga keng imkoniyatlar ochadigan mashg'ulotlar bilan shug'ullanishga intilishlarida o'z aksini topadi. Bu yo'nalish bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan kishilar doimo o'zlari qiziqqan sohaga ijodiy faoliyatida biron bir o'zgarish yasash, yangilik kiritishga harakat qidadilar. Darslarni interfaol metodlar yordamida tashkil etishning o'ziga xos afzallik tomonlari bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- mavzu mazmunini yaxshi o'zlashtirilishiga olib keladi;
- o'z vaqtida o'quvchi-o'qituvchi-o'quvchilar o'rtasida hamkorlik aloqalar o'rnatiladi.
- o'qitish jarayonida barcha o'quvchilar ishtirokini ta'minlashga erishiladi;
- o'quvchilar da yuqori motivatsiya yuzaga kelishiga yordam beradi;
- axborot berish, olish, qayta ishlash orqali o'quv materialini yaxshi esda qoladi;
- muloqotga kirishish, fikr bildirish, fikr almashish ko'nikmalari shakllanadi.
- o'quv jarayonida o'quvchining o'z-o'ziga baho berishi, tanqidiy qarashi rivojlanadi.

Interfaol metodlar yordamida tashkil etilgan o'quv jarayonlari o'quvchi uchun o'qitilayotgan predmet mazmuniga aylanadi. O'qish jarayoniga ijodiy yondashuv, ijodiy fikr namoyon bo'ladi hamda har bir o'quvchining o'zi mustaqil fikr yuritishga, izlanishga, mushohada qilishga olib keladi.

Bugungi kunda bizga ma'lum va keng qo'llanadigan usullardan "Aqliy hujum", "Klaster", "VENN diagrammasi", "BBB", "FSMU" kabilar dars jarayonida o'zlaning samarali natijalarini ko'rsatib kelmoqda. Shuningdek, "Qiyoslash" metodi, "Davra suhbat" metodi, "6x6x6" kabi metodlarning dars samaradorligini ta'minlashda o'ziga xos o'rni bor. Xususan, "Qiyoslash" metodidan Ona tili fanini o'tish jarayonida

mustaqil va yordamchi soʻzlarni oʻrganilgandan soʻng, mavzuni mustahkamlash maqsadida foydalanilsa, maqsadga muvofiq boʻladi. Buning uchun oʻquvchilar uch guruhga boʻlinadi. Birinchi guruhga mustaqil soʻzlar va yordamchi soʻzlarning oʻzaro oʻxshashliklari, ikkinchi guruhga ularning farqli tomonlari, uchinchi guruhga shu soʻzlarni qatnashtirib matn tuzish beriladi. Bu metod oʻquvchilarda mavzu boʻyicha olgan bilimlarini yanada mustahkamlashga yordam beradi.

Ona tili darslarida foydalanish mumkin boʻlgan metodlarning yana biri “6x6x6” metodidir. Taʼim jarayonida mazkur metoddan foydalanish fan oʻqituvchisidan pedagogik mahorat va ziyraklik, guruhlarni oqilona shakllantira bilishni talab etadi. Bu metodda sinfdagi oʻquvchilar oltita-oltitadan olti guruhga boʻlinadi. Jami 36 oʻquvchi ishtirok etadi. Oʻqituvchi istasa guruhlarni nomlashi ham mumkin. Dars mavzusi eʼlon qilinib, maʼlum vaqt belgilanadi. Oʻquvchilar mavzu atrofida bahslashadilar, oʻz munosabatlarini bildiradilar. Mavzu boʻyicha belgilangan vaqt yakunlangach, oʻqituvchi guruhlarning aʼzolarini almashtiradi. Yangi guruhda avvalgi guruhdan bitta vakil qoladi va u oʻz guruhining mavzu yuzasidan chiqargan xulosalarini yangi guruhga bayon etadi. Yangi guruh aʼzolari avvalgi guruhning fikr va xulosalarini oʻrganadilar, unga oʻz munosabatlarini bildiradilar. Shu tariqa qisqa vaqt oraligʻida oʻquvchilar tomonidan ham mavzu yuzasidan fikr bildiriladi, ham bu fikrlar ularning oʻzlari tomonidan tahlil qilinadi. Sinfdagi oʻquvchilardan kichik guruhlar tashkil etishda quyidagilarga amal qilinadi:

1. Guruhlar oʻqituvchi tomonidan belgilanadi.
2. Guruhga rahbarlik qila oladigan oʻquvchi va guruh aʼzolari oldindan aniq belgilab olinadi.
3. Har bir guruhga zehni va qobiliyatli hamda boʻshroq oʻzlashtiradigan oʻquvchilar, imkon qadar, teng taqsimlashga harkat qilinadi. Guruhlar bir-biriga munosib aʼzolar bilan toʻldiriladi va vazifalari belgilanadi.
4. Guruh rahbari va aʼzolariga vazifalari tushuntiriladi.
5. Har bir guruh doira shaklida oʻtirishi, guruhning har bir aʼzosi bir-birini koʻrib turishi shart.
6. Ish jarayonida har bir guruhning faoliyatiga, gʻoyalariга eʼtibor berib boriladi. Yaxshi gʻoya egalari ragʻbatlantiriladi [2].

Shuningdek, ona tili darslarida mavzu yuzasidan muammoli vaziyat yaratish bilan oʻqituvchi oʻquvchilarni tafakkur jarayonining tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, tizimga solish singari jihatlaridan biri yoki bir nechasi bilan foydalanishga yoʻnaltiradi, oʻquv materialini eslab qolishlariga yordam beradi. Buning uchun oʻqituvchi topshiriqlarga mantiqiy asoslash, dalil keltirish, taqqoslash, maʼlumotlarni umumlashtirish kabi talablarni ham kiritishi mumkin. Topshiriqlarni har bir oʻquvchi imkoniyatidan kelib chiqib tayyorlash ham hamma oʻquvchilar belgilangan vaqt oraligʻida oʻz imkoniyatlari doirasidagi vazifani muvaffaqiyatli bajarishlarini taʼminlaydi va oʻzlariga boʻlgan ishonchni orttiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Husanboyeva Q. Adabiyot oʻqitish metodikasi. –T.: Barkamol fayz media, 2018, -352 bet.
2. [https://ru.wikipedia.org/wiki. Википедия. Свободная энциклопедия.](https://ru.wikipedia.org/wiki.Википедия.Свободная_энциклопедия)

UOʻK 372.882

ADABIYOT DARSLARIDA MUAMMOLI TAʼLIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Karimova Guzalxon Gapirjanovna

Namangan shahar 48-umumiy oʻrta taʼlim maktabi, Oʻzbekiston Respublikasi

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy taʼlimni tashkil etish hamda adabiyot darslarida mummoli taʼlim texnologiyalaridan foydalanishning oʻziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit soʻzlar: zamonaviy taʼlim, adabiyot, muammoli taʼlim, bilim, koʻnikma.

UDC 372.882

ADVANTAGES OF USING PROBLEMATIC EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN LITERATURE LESSONS

Karimova Guzalxon Gapirjanovna

Teacher of secondary school No.48, Namangan city, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. The article gives an idea of the organization of modern education and the features of the use of mummified educational technologies in Literature lessons.

Keywords: modern education, literature, problematic education, knowledge, skills

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish hamda egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat talab etadi. Bu muhim vazifani amalga oshirish umumta'lim muassasalarida o'qitishning an'anaviy metodlarini ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan qo'shib olib borishni taqazo etadi.

Ta'limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim beruvchi ham yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni amalda qo'llay oladigan bo'lishi kerak.

Ma'lumki, adabiyot xalqimizning milliy boyligidir. Adabiyot asrlar mobaynida to'plagan madaniy-ma'naviy boylıkları hamda umuminsoniy qadriyatlar, insoniyat tamadduni erishgan yutuqlarni ham o'zida mujassam etganligi tufayli, u barchani ma'rifatli va ma'naviyatli qilish, yoshlarni tarbiyalashda muhim yo'naltiruvchi vosita hisoblanadi. Umumta'lim maktablarining 5-sinfidan boshlab o'quvchilarga adabiyotshunoslikka oid ilk ma'lumotlar berib boriladi. Maktabda, so'ng o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida adabiyot o'qitish dasturlari o'quvchilarga bosqichma-bosqich badiiy adabiyotning mohiyati, adabiy tur va janrlar, badiiy obraz va obrazlilik, she'r tizimlari, badiiy tasvir va ifoda vositalari kabi adabiy-nazariy tushunchalarni o'rgatib borishni ko'zda tutadi. Adabiyot darslarida o'tiladigan badiiy asarlar yoshlarda insonparvarlik tuyg'ularini, mustahkam iroda va sog'lom fikrni kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bizga ma'lumki, har qanday badiiy asarning asosiy manbasi hayotdir. Ayni shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, badiiy asarning mazmun-mohiyatini uning syujeti, voqealar rivojini shakllanishida jamiyat va ijodkor o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik muhim o'rin tutadi. Adabiyot darslarida aynan anashu munosabatlar tahlilini ongli tarzda amalga oshirish zarur. O'quvchi shaxsi, uning mustaqil bilish faoliyati ta'lim jarayonida rivojlanib borishi tufayli ta'lim metodlarini takomillashtirishga ehtiyoj tug'iladi. Shuning uchun ham ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar jadal sur'atlar bilan kirib bormoqda.

Adabiyot fanini o'qitishda "Guruhlar bilan ishlash", "Munozara", "Muammoli o'qitish", "Aqliy hujum" kabi metodlar, shuningdek jadvallar bilan ishlash, mustaqil fikrlashga undaydigan topshiriqlar o'quvchilar faolligini oshiradi. Bu metodlar asosida olib borilgan darslar vaqt tejamkorligi bilan birga, yangi bilimlarni o'quvchiga yetkazib beradi, shuning bilan birga ularni o'ylashga, chuqur mushohadaga yuritishga undaydi. Ana shunday ta'lim turlaridan biri muammoli ta'limdir.

Muammoli ta'lim – bu mantiqiy fikrlash jarayoni va o'quvchilarning izlanishli faoliyati qonuniyatlarini hisobga olib tuzilgan ta'lim va o'qitishning ilgari ma'lum bo'lgan usullarini qo'llanish qoidalarining tizimidir. Shuning uchun ham u ko'proq o'quvchi fikrlash qobiliyatining rivojlanishini uning umumiy rivojlanishi va e'tiqodining shakllanishini ta'minlaydi. Shuningdek, o'quvchilar o'rtasida muntazam ravishda muammoli vaziyatlar hosil qilib, ta'lim oluvchilarning faoliyatini mustaqil izlanish shaklida tashkil etishga yordam beradi.

Muammoli o'qitishni chuqur o'rganish XX asrning 60-yillarida boshlangan bo'lib, uning asosida "Tafakkur – muammoli vaziyatdan boshlanadi"– degan g'oya yotadi. Muammoli ta'lim turi ilmiy-uslubiy jihatdan 3 xil ko'rinishga ega.

1. Muammoli vaziyatni vujudga keltirish.
2. Muammoning qo'yilishi.
3. Muammoning yechimini topish.

Muammoli vaziyatning ahamiyati shundaki, u o'quvchilar diqqatini bir joyga (muammoga) qaratadi va o'quvchilarning izlanishga, fikrlashga o'rgatadi. Muammoli vaziyatni o'quv mashg'ulotlarining barchasida tashkil etish mumkin. Undan dars jarayonlarida qancha ko'p foydalanish o'qituvchiga bog'liq.

O'qituvchi muammoli vaziyatni yaratib, uni hal qilishga o'quvchilarni yo'naltirar ekan, ularni bilimlarni shunchaki yod olish emas, ongli ravishda tushunish, tahlil qilish, hodisalarni taqqoslash, umumlashtirishga undaydi. Muammoli ta'limda o'qituvchi faoliyati shundan iboratki, u zarur hollarda eng murakkab tushunchalar mazmunini tushuntira borib muntazam ravishda muammoli vaziyatlar vujudga keltiradi, o'quvchilarni dalillardan xabardor qiladi va ularning o'quv bilish faoliyatini shunday tashkil qiladiki, bunda o'quvchilar dalillarni tahlil qilish asosida mustaqil ravishda xulosa qilishga yoki ma'lum bilimlarni yangi vaziyatlarda mustaqil qo'llashni o'rganadi. Natijada o'quvchilarda bilimlarni amaliyotda qo'llanish malakasi hosil bo'ladi, diqqat, iroda, ijodiy tafakkur, faraz qilish rivojlanadi, yangi bilimlarni kashf qilish, g'oyalarni ilgari surish va asoslash yo'li bilan yangi harakat usullarini topish qobiliyati tarkib

topadi. Shu bilan birga, bu kabi texnologiyalarni qo‘llashda, dars va mashg‘ulotda qaysi darajadagi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni nazarda tutilganiga ham e‘tibor qaratish kerak.

Masalan, 6-sinf adabiyotida Turob To‘la hayoti va ijodi hamda uning “Yetti zog‘ora qissasi” nomli o‘ziga xos nasriy asari bilan tanishadilar. “Yetti zog‘ora qissasi” shoir Turob To‘laning nasriy yo‘nalishda yozgan dastlabki asari hisoblanadi. Biroq, shunga qaramay, uning mazmun-mohiyati, kitob qahramonlarining jonli xarakteri, tili va uslubi muallifning bu borada katta muvaffaqiyatga erishganidan dalolat beradi. Asardan berilgan parcha nihoyatda qiziqarli bo‘lib, beixtiyor o‘quvchini o‘ziga maftun etadi. O‘quvchilar darslikda berilgan parcha bilan tanishganlaridan so‘ng ularga quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin?

1. «Do‘nan» asarida Sizga eng kuchli ta’sir qilgan epizod qaysi bo‘ldi?
2. Odam va otning bir-biriga bu qadar mehr qo‘yishining bosh sababi nimada deb bildingiz?
3. Bolaning otasi mehmondan otni qaytarib olib kelmaganini qanday baholaysiz?
4. Asarning bosh g‘oyasi nima?

Muammoli ta’limning o‘ziga xos xususiyatlaridan yan biri shundan iboratki, u o‘quvchiga qo‘yilgan muammo yechimini topish uchun ilmiy-ijodiy tafakkur yuritish, jadal va mantiqli fikrlash, so‘z va atamalar, asar g‘oyasi hamda ma’nosini o‘zaro qiyoslash, o‘zi uchun eng to‘g‘ri yechim tanlash imkoniyatlarini beradi. Bu texnologiya o‘quvchining o‘z imkoniyatlaridan unumli foydalanish, olgan bilimlarini o‘rnida eslash orqali izchil va mantiqiy fikrlash darajasini yaxshilaydi hamda ta’lim oluvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlanishiga yordam beradi, shaxs sifatida o‘zligini anglashga, o‘z bilimi va iqtidorini o‘zgalarga namoyish qilish imkonini beradi.

8-sinf adabiyot darsligida S.Ahmadning "Ufq" romanidan berilgan parcha "Qochoq" matnini tahlil qilishda quyidagi muammoni aniqlash texnologiyasidan foydalanish mumkin:

Muammo turi	Muammoning kelib chiqish sababi	Muammoning yechimi
“...ota diydoridan, ona mehridan, yor birodarlari davrasidan olisda, chaqirsa ovoz yetmaydigan joyda quvg‘in bo‘lib, olamdan o‘tgan...” yigit kim edi va uning taqdiri ayanchli tugashiga kim aybdor?		

O‘quvchilar berilgan muammoli savol yuzasidan o‘z fikrlarini bildiradilar. Bundan ko‘rinadiki, muammoli ta’lim o‘qituvchi va o‘quvchining mustaqil aqliy faoliyat ko‘rsatishi uchun imkoniyat yaratadi.

O‘qituvchning faolligi muammoli vaziyatni to‘g‘ri yaratishda, o‘quv muammosi ustida o‘quvchilarning faolligini uyushtira bilishda, uning natijasini to‘g‘ri tashkil eta bilishda namoyon bo‘lsa, o‘quvchining faolligi muammoning maqsadini to‘g‘ri anglash, uni yechishda zarur bilimlarni ishga solish, muammoni yechish usullarini to‘g‘ri belgilash, o‘z ishini o‘zi nazorat qilish, ishni nihoyasiga yetkazish kabilarda namoyon bo‘ladi. Bunday jarayonda egallangan bilimlar o‘quvchining shaxsiy mulkiga aylanadi va u bu bilimlardan yozma va og‘zaki nutqda bemaolol foydalana oladi. O‘quvchi bilimlarni muammoli yo‘l bilan qabul qilgan bo‘lsa, zaruriyat tug‘ilganda uni yangi sharoitda bemaolol qo‘llay oladi.

Xulosa qilib aytganda, rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalarining muammoli ta’lim yo‘nalishi keng qamrovli bo‘lib, o‘quvchilarni o‘ylashga, muhim xulosalar chiqarishga qaratilgan. Dars jarayonlarida o‘qitishning muammoli topshiriqlardan foydalangan holda darslarni tashkil etish o‘quvchilarning mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini oshirish bilan birga, ularda tashabbuskorlik, yaratuvchanlik xislatlarini tarkib toptiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006.
2. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: Oliy pedagogika instituti, 2003.
3. Tolipov O‘. Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari – T.: Fan. 2006.
4. www.ziyounet.uz, www.kitob.uz

TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IJODKORLIK FAOLIYATLARINI
RIVOJLANTIRISH

Dehqonova Dilfuza Uzoqovna

*Namangan viloyati Norin tumani 26-umumiy o'rta ta'lim maktabi
Tasviriy san'at fani o'qituvchisi, O'zbekiston*

Annotatsiya. Ushbu maqoladatasviriy san'at darslarida o'quvchilarning qiziqishlari va ijodkorliklarini oshirishga doir fikrlar tahlil etilgan. Shuningdek, muallif san'at asarlarini mohiyatini aniqlashga, badiiy tahlil qilishga doir samarali metodlarni ochib bergan.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, grafika, natura, kompozitsiya, badiiy materiallar, tabiiy materiallar.

UDC 76.01

DEVELOPMENT CREATIVE ACTIVITIES OF STUDENTS IN THE LESSONS OF FINE ARTS

Dekhkanova Dilfuza Uzokovna

*Teacher of Fine arts, secondary school No.26, Naryn district,
Namangan region, Republic of Uzbekistan*

Brief abstract. This article analyzes the interest and creative activity of students in the art classes at school. Effective methods of forming students' skills of perceiving the essence of works of art and their artistic analysis are determined.

Key words: art, graphics, nature, composition.

Tabiat va borliqni kuzatish jarayonida bolalarni uni sevishga, asrashga o'rgatiladi. Tabiatga qilingan sayohatlarda ularning ayrim jihatlari fasllarga bog'liq holda o'zgarib turishligi bolalarga tushuntiriladi. Shuningdek, bunda bolalarni fazoziy tasavvurlari ham o'stiriladi va planlik, chiziqli va havo perspektivasiga qam e'tibor beriladi. Borliqni kuzatish bevosita tasviriy ijodiy faoliyat bilan bog'liq ekanligi, borliqni bilmasdan turib sifatli tasviriy ishlarni bajarish mumkin emasligi bolalar ongigi yetkaziladi. Yuqorida qayd qilinganidek, bunday mashg'ulotlardan maqsad bolalarni borliqni bilish, undagi narsa va hodisalarni o'ziga xos xususiyatlarini, ayniqsa, tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari, o'lchov nisbatlari, fazoviy holatlari, ularni yil fasllariga qarab o'zgarishlarini anglab yetishlariga erishishdan iboratdir. O'rganish zarur bo'lgan obyektlarni naturadan kuzatishning imkon bo'lmagan taqdirda o'qituvchi darsda bolalarni san'at asarlarining reproduktiviyalari, slaydlari, foto nushalarini namoyish etish orqali o'z maqsadiga erishadi.

Boshlang'ich sinf tasviriy san'at darslarida o'quvchilarning qiziqishlari va ijodkorliklarini oshirish va rassomchilikda ishlatiladigan turli materiallar bilan kengroq tanishtirish maqsadida badiiy qurish-yasash ishlari ham olib boriladi. Tasviriy faoliyatning bu qiziqarli turi uchun dasturda alohida soatlar ajratilgan bo'lib, ular mashg'ulotlar mazmunini yanada boyitadi. Qurish-yasash uchun asosan uch xil materiallardan foydalanish nazarda tutiladi:

1. Badiiy materiallar (rangli qog'ozlar, fol'ga, gulqog'ozlar, plastilin, loy va boshqalar).

2. Tabiiy materiallar (daraxt barglari, shoxlari, ildizlari, po'stlog'lari, meva va sabzavotlarning urug'lari, rangli toshchalar, bug'doy va arpa poyalari va boshqalar).

3. Tashlandiq materiallar (ichimlik va dori darmondan bo'shagan sintetik idishlar, gugurt qutichalar, po'kak, penoplast, idish qopqoqlari). Badiiy qurish-yasash mashg'ulotlarida bolalarni qaychi bilan ishlash, kley yordamida yelimplash, qog'ozlarni narsalar shakliga mos holda buklash, o'rash, ayrim badiiy tashlandiq va tabiiy materiallarni bir-birlariga yaqinlashtirish, qo'shish orqali tasvir yaratish kabi malakalar hosil qilinadi. Bu malakalarni hosil qilish boshlang'ich sinflar dasturida bir qator topshiriqlarni bajarishni nazarda tutadi. Ular quyidagilardan iborat:

Turli shakldagi qalamdon, quticha, havo shari, bayroqcha, choynak, lagan, mashina, samolyot, raketa va shu kabi narsalarni rangli qog'oz va kartondan tasvirini yasash; hashoratlar – tillaqo'ng'iz, ninachi, kapalak va boshqalarni rangli qog'ozlarni qirqish orqali hosil qilish; rangli qog'ozlarni qirqish, buklash va yelimplash yo'li bilan osma o'yinchoqlar tayyorlash; tabiiy materiallar yordamida baliq, hashorat, qush, hayvonlarning tasvirilarini hosil qilish; rangli qog'oz, badiiy va tashlandiq materiallardan applikasiya, kollaj, pap'e-mash'e, aralash usulda mazmunli kompozitsiyalar (masalan, "Ko'chada", "Kosmodromda") ishlash; tashlandiq materiallar – sim, ip, kanop, gazlama parchalari, plasmass idishlar, gugurt qutichalari, po'kak, penoplast, idish qopqoqlari yordamida uncha murakkab bo'lmagan transport (qayiqcha, pirpirak, mashina, traktor va boshqalar), qushlar (qaldirg'och, to'ti, g'oz, chumchuq, laylak, o'rdak, sa'va va boshqalar), hayvonlar (tulki, bo'ri, quyon, ayiq, yo'lbars, it, sher va boshqalar) ning o'yinchoq tasvirilarini ishlash;

quritilgan barglar, rangli qog'ozlar, shohlar yordamida ochilgan gul, gullagan daraxt shohchasi tasvirini tayyorlash va boshqalar.

Badiiy qurish-yasash ishlarida eng muhim vazifalardan biri badiiy, tashlandiq materiallarning o'ziga xos jihatlarini (qattiq, yumshoq, mo'rt, egiluvchan, og'ir, yengil, och, to'q va boshqalar) bilish hamda ular bilan ishlaganda o'lchov va o'lchov nisbatlarini, tuzilishi, shakli ranglarini to'g'ri belgilash talab etiladi. Shuningdek, qurish-yasash ishlarida qo'llanadigan o'quv qurollari va materiallarni bilish, tabiiy, badiiy, tashlandiq materiallarni bir-birlaridan farqlay olish ham talab etiladi. Narsalar shaklini ko'ra olish ham badiiy faoliyatning bu turi vazifasiga kiradi. Bunday ishlarni bajaranda ish joyini ozoda, batartib tuta bilishga ham o'rgatiladi.

San'atshunoslik asoslari bo'limi o'quv predmetining muhim qismlaridan biridir. U dasturda 5-7-sinflarda mustaqil bo'lim sifatida o'zining o'quv vazifalari tizimiga ega va u tasviriy, amaliy-bezak, me'morchilik san'atlari materiallaridan tashkil topadi. Mazkur bo'limning maqsadi o'quvchilar tomonidan san'at asarlarini ongli idrok etish va baholash, uning jamiyat va odamlar hayotidagi ahamiyatini tushunishga yordam berishdan iboratdir. San'atshunoslik asoslari bo'limi o'quvchi shaxsining estetik rivojiga ko'maklashib, uni jahon madaniyatining buyuk durdonalari va san'at asarlari orqali tevarak-atrofdagi hayot go'zalliklari bilan tanishtiradi, badiiy didini shakllantiradi, san'atni sevishtirishga o'rgatadi. O'quvchilar bilan san'atshunoslik asoslari bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarda ular mumtoz madaniy meros bilan tanishtirib boriladi, uning buyuk an'analari va san'atning halq uchun xizmat qilishi, san'atdagi turli oqimlar va yo'nalishlar to'g'risida tushunchalar hosil qilinadi. Tasviriy va amaliy san'at asarlarini idrok etishga oid o'quv materiallari o'quvchilarning amaliy ishlari bilan bog'langandir. San'at asarlarining nusxalarini bolalarga ko'rsatish va ularning tahlili o'quvchilarda san'atga qiziqish uyg'otadi va ularni shu sohaga yo'llaydi. Asarlarni namoyish etishda bolalar unda ifodalangan g'oya, asosiy fikr va qo'llanilgan badiiy-tasviriy vositalar bilan tanishtiriladi.

Dekorativ-amaliy san'atga doir san'atshunoslik asoslari darslarida amaliy-bezak san'ati, halq amaliy-bezak san'ati, o'zbek halq amaliy-bezak san'ati, liboslar, o'zbek va chet el halqlarining milliy liboslari haqida bilimlar berish, xalq ustalari ishlatadigan ish qurollari va materiallari bilan tanishtirish nazarda tutiladi. Bunday darslarda Toshkentdagi xalq amaliy san'ati muzeyi va Respublikamizdagi halq amaliy san'ati rivoj topgan markazlar, o'zbek xalq amaliy san'atining mashhur nomoyondalari hisoblangan Usta Shirin Muradov, Ota Polvonov, Hamro Raximova kabilar haqida ham suhbatlar o'tkazish rejalashtirilgan.

Me'morchilik san'ati borasida esa me'morchilik san'ati va uni atrof-muhit bilan bog'liqligi, me'morchilikda go'zallik, maqsadga muvofiqlik haqida tushunchalar berish, individual va ijtimoiy me'morchilik, ularning turlari bilan tanishtirish, binolarning vazifasi va ularning estetik yechimining o'zaro bog'liqligi, fasad va inter'erdagi dekorativ bezaklarning xarakteri, me'morchilikda qo'llaniladigan asosiy atamalar haqida fikr yuritiladi. Bu vazifalarni bajarish uchun O'zbekiston hududidagi eng qadimgi me'morchilik obidalari, O'zbekiston IX-XIX asr me'morchiligi, Sharq va G'arb mamlakatlarida Uyg'onish davri me'morchiligi, O'zbekiston va jahonning hozirgi zamon ilg'or me'morchiligi yuzasidan mashg'ulotlar olib boriladi. Tasviriy san'atdan davlat ta'lim standartlarida qayd qilinganidek, bolalarga san'atshunoslik asoslaridan quyidagilar haqida bilimlar berishni nazarda tutadi:

1. Tasviriy san'at – san'atning bir turi ekanligi va uning kishilar hayotidagi o'rni va ahamiyati. O'zbekiston xududida tasviriy san'atning taraqqiyoti (Afrosiyob, Varaxsha, Tuproq qal'a va boshqalar joylardan topilgan tasviriy san'at namunalari). Tasviriy san'atning turlari (rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik) va janrlari (manzara, turmush, natyurmort, portret, tarixiy, batal, animal, afsonaviy, marina). Rangtasvir turlari-dastgohli rangtasvir, monumental rangtasvir, miniatyura rangtasviri. Rangtasvir texnikasi-freska, mozaika, vitraj.

2. Haykaltaroshlik turlari – dastgohli haykaltaroshlik, dekorativ haykaltaroshlik, monumental haykaltaroshlik; Rel'ef (barel'ef, gorel'ef); dumaloq haykallar.

3. Grafika turlari – dastgohli grafika, estamp, plakat, kitob grafikasi; gazeta-jurnal grafikasi; targ'ibot va tashviqot grafikasi; etiketka, upakovka va boshqalar.

4. Movaraunnahr miniatyura maktabi; Sharq miniatyura maktablari. Yevropada Uyg'onish davri tasviriy san'ati; O'zbekistonning hozirgi zamon tasviriy san'ati; Jahonning hozirgi zamon ilg'or tasviriy san'ati; jahon tasviriy san'atidagi asosiy oqimlar; dunyoning eng yirik tasviriy san'at muzeylari; O'zbekistonning eng yirik tasviriy san'at muzeyi. Jahonga mashhur eng buyuk rassomlarning hayoti va ijodi (Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, O'rol Tansiqboyev, Chingiz Axmarov v.b.).

Naturaga qarab rasm ishlash mashg'ulotlari narsalarning tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari, ularning xarakterli, tipik belgilarini bilish imkonini beradi. Shu orqali bolalarda kuzatuvchanlik, xotira, estetik did, obrazli tafakkur kabi eng muhim tasviriy malakalar shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Ular tik, yotiq, og'ma, egri, to'liqsimon chiziqchlarni chizish, bo'yoqlar bilan tegishli yuzani bir meyorda bo'yash, och tusdan to'q

tusga va aksincha to'qdan ochga o'tish, o'quvchilar to'g'ri va egri chiziqlarni teng bo'laklarga bo'lish malakalarni o'zlashtiradilar. Chizilayotgan rasm mazmunidan kelib chiqqan holda qog'oz formatini to'g'ri tanlashni hamda rasmni qog'ozda kompozitsion jihatdan to'g'ri joylashtirishni o'rganadilar. Shuningdek, rasmni bosqichlar asosida ishlashni o'zlashtiradilar. Naturaga qarab rasm ishlash mashg'ulotlarida o'quvchilar mo'yqalam, rangli qalamlar, akvarel, guash bo'yoqlari bilan ishlash yo'llarini o'rganadilar, imkoni bor joylarda ko'mir (ugol), sous, pastel, sangina kabi materiallar bilan ham ish olib boradilar. Amaliy ishlarda odam, hayvon, qushlar gavdasining tuzilishi, ular qismlarining o'lchov nisbatlari, shakllarini to'g'ri aks ettirish malakalari takomillashtiriladi.

Tasvirlash jarayonida naturani tahlil qilish, ularning qismlarini bir-biri bilan taqqoslash, umumlashtirish kabilar rasm ishlovchining e'tibor markazida bo'ladi. Bunda, ayniqsa, chiziqlar ravonligi, ranglarning nafis va mutanosibli, ifodalangan go'zallikni zehnlab tasviray olishga alohida e'tibor beriladi. Yuqorida qayd qilingan vazifalar 1-2 soat davomida va qisqa muddatda (5-10 daqiqa) bajariladigan qoralama va ranglamalar shaklida bajariladi. Bu ishlar alohida mavzu asosida yoki mashg'ulot mazmunidan kelib chiqqan holda darsning boshlanish, o'rta yoki oxirida amalga oshiriladi. Naturaga qarab bajariladigan topshiriqlar qush, hayvon, odam tasvirlarini to'la yoki xomaki rasmini ishlashni ham nazarda tutadi. Boshlang'ich sinflarda ko'proq bolalarning tasviriy imkoniyatlariga mos keladigan bayroqcha, soat, havo shari, o'yinchoq mashinalar, ninachi, kapalak, tilla qo'ng'iz kabi hashoratlarni rasmini ishlash nihoyatda qo'l keldi.

Shunday qilib, kompozitsion faoliyat o'quvchilarda badiiy-ijodiy qobiliyatni, o'z fikr va taassurotlarini rasmda obrazli qilib tasvirlash hamda badiiy didni o'stirishni maqsad qilib qo'yadi. Rangtasvir kompozitsiyasi mashg'ulotlari tevarak-atrofdan olingan ko'rinish va hodisalarni uning barcha janrlarida (manzara, turmush, natyurmort, tarixiy, animalistik, afsonaviy, marina) amaliy ishlar shaklida bajarishni nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Bulatov S.S. Tasviriy san'at asarlarining falsafiy va psixologik tahlili.-T.: "Fan va texnologiyalar". 2010.
2. Xalq ta'limi jurnali. 2015-yil, 2-son.
3. 8-sinf. Tasviriy san'at. Maktab darsligi. T.: "Sharq". 2017.

UO'K 372.878

MUSIQA DARSLARINITASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

Axmedova Dilrabo Sadullayevna

Namangan shahar 42-umumiy o'rta ta'lim maktabi musiqa fani o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasi

Obidova Sanobar Alijonovna

Namangan shahar 48-umumiy o'rta ta'lim maktabi musiqa fani o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya. Maqolada musiqa darslari va uni tashkil etishning nazariy asoslari hamda dars jarayonlarida interfaol metodlardan foydalanishning afzalliklari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: musiqa, musiqa madaniyati, ta'lim, san'at, interfaol metod.

UDC 372.878

THEORETICAL BASIS OF ORGANIZATION OF MUSIC LESSONS

Akhmedova Dilrabo Sadullayevna

Music teacher of secondary school No.42, Namangan, Republic of Uzbekistan

Obidova Sanobar Alijonovna

Music teacher of secondary school No.48, Namangan, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. The article provides an idea of the theoretical basis of music lessons and its organization, as well as the advantages of using interactive techniques in the course processes.

Keywords: music, music culture, education, art, interactive method.

Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab, xalq ta'limi sohasiga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi va juda katta islohotlar amalga oshirildi. Qisqa davr ichida O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" tasdiqlandi.

"Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" da ta'lim islohotlari bo'yicha belgilangan vazifalarni amalga oshira borib, mamlakatimiz ta'lim tizimida o'qitishning yangi – innovatsion usullardan foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. Ularning mohiyati shundaki, o'quvchilar ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. O'quv jarayoni o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi ijodiy faoliyatiga sharoit yaratadi.

Interfaol metodlar asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarga tayyor bilimlar berilmaydi, balki ularni izlanishga, mustaqil bilim olishga yo'naltiriladi, o'qitishning turli vositalaridan foydalangan holda yangi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlariga yordam beriladi.

Ta'lim-tarbiya tizimiga nazar tashlar ekanmiz, eng muhim masala "shaxs" masalasi, uni har tamonlama yetuk qilib tarbiyalash hisoblanadi. Birgina musiqa darslarida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar yosh avlodni mustaqil fikrlashini, ohanglarni to'g'ri kuylashni, o'z xatosini sezishni o'rgatadi. Bunday darslar faqat qiziqarli emas, balki, bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda juda katta ahamiyat kasb etadi.

Musiqa darslarini to'g'ri tashkil etish, mavjudimkoniyatlardan foydalanish fan o'qituvchilarning asosiy vazifalaridan biridir. Har bir musiqa fani o'qituvchisi shuni esda tutishi kerakki, dars o'quv-tarbiya jarayonining asosiy shaklidir. O'qituvchi o'quvchilarni dars davomida mustaqil ijod qilishga o'rgatishi lozim. Bugungi kun darsiga qo'yiladigan asosiy talablardan biri har bir darsda o'rganiladigan mavzuning ilmiy asoslangan bo'lishidir, ya'ni dars mavzusining maqsadi va o'quvchilar imkoniyatini hisobga olgan holda mavzu hajmini belgilash, uning murakkabligini aniqlash, avvalgi o'rganilgan mavzu bilan bog'lash, o'quvchilarga beriladigan topshiriq va mustaqil ishlarning uzviyligini ta'minlash, kerakli vositalarni aniqlash va qo'shimcha qo'llanma bilan boyitish, interfaol metodlardan foydalangan holda darslarni tashkil etishdir.

Musiqa o'qituvchisida qobiliyatning ilk va boshlang'ich tarkibiy qismi iste'doddir. U o'zida anatomik-fiziologik belgilar yig'indisining oliy faoliyati turining xususiyatlarini mujassamlashtirgandir. Iste'dodni esa u ustoz yordami bilan rivojlantirishi hamda ayni shu ma'nodagi qobiliyatni yuzaga chiqarish mumkin, lekin oldindan belgilab qo'ya olmaydi.

Iste'dod tayyor holdan rivojlanishga qadar va undan ajralgan holda paydo bo'lmaydi, individning ilk belgisi va o'zgarmas xususiyati emas, u individni tarbiyalash jarayonida shakllanadi. Qobiliyat ham, iste'dod ham ustoz-shogird an'analari orqali davom etadigan jarayon bo'lib, aynan o'qituvchilik sohasida muvaffaqiyatli ish olib borishning dastlabki shartlaridandir.

Bolalarda kuylash ijrochiligining nazariy asoslari, o'ziga xos xususiyatlari, uning badiiyligini o'zlashtirishda o'qituvchi pedagogning ijodiy mahorati muhim rol o'ynaydi. Kuylashda o'quvchidan sezgirlik, diqqat va e'tibor ta'lab etiladi. Umumta'lim maktablarida musiqa darsi jarayonida san'atimiz tarixida iz qoldirgan bastakorlar hayoti va ijodini o'rganib, ularning asarlaridan foydalanishni yo'lga qo'yish hamda unga amal qilinishi shart. Bunday sifatlar nutq madaniyatimizda, kiyinishimizda, o'zimizni tutishimizda, ya'ni o'quvchilarga bo'lgan muloqatimizda mujassam bo'lishi zarur.

Musiqa darslarida jamoa bo'lib kuylash faoliyat turlarining eng muhimi sanalib, unda kuylash texnikasini to'g'ri olib borish zarur. Jamoa bo'lib kuylash texnikasiga, asosan, nafas, tovush hosil qilish, uni cho'zish, dinamika, intonatsiya va diktsiya malakalari kiradi. Ijrochilar yaxshi vokal texnikaga ega bo'lmasa o'z jamoa ijrosida na uygunlik, na tiniq soz, na aniq talaffuz va badiiy ifoda bo'ladi. Shuning uchun ham jamoa bo'lib kuylashda vokal- xor texnikasini rivojlantirish va ularni takomillashtirib borish zarur. Chunki xor ansamblga, sozga, dinamik mustahkamlikka, diktsiya va tembr bo'yoqlariga erishishda vokal "fundament" mustahkam bo'lishi kerak.

O'quvchining darsga yaxshi tayyorlanishi qo'shiqni muvaffaqiyatli o'rgatishning muhim shartidir. U bolalar bilan birinchi marta o'rganiladigan qo'shiqni juda yaxshi bilishi to'g'ri va ta'sirli kuylab berishi kerak. O'qituvchi qo'shiqni mukammal o'rganib chiqqanidan keyingina uni bolalarga o'rgatishi mumkin.

Qo'shiqni o'rgatishda musiqa asboblardan eng asosiysi royal yoki fortepianodir. Bu asboblarda musiqa asarlarini, bolalar qo'shiqlarini kuyini chalishda akkomponiment bilan ijro etsa, musiqa tovushlarining o'zaro uyg'unligini his etishni bolalarda o'stirish mumkin. Xuddi shunday imkoniyat o'zbek milliy cholg'u asboblarda ham mavjud. Kuyni o'rgatish oldidan uni biron bir musiqa asbobida chalib yoki qo'shiqning birinchi bandini aytib bolalarga yaxshi eslatib o'tish kerak. Natijada ular o'rganilayotgan qo'shiq to'g'risida ancha keng ma'lumot olishga erishadilar. Bolalar o'zlariga notanish yangi kuy bilan tanishayotganlarida uning ayrim qismlarini o'rgatishni boshlash mumkin, keyinchalik bolalarda o'sha qismlardan mukammal musiqaviy obraz tarkib topadi.

Qo'shiqni badiiy-g'oyaviy jihatdan tahlil etganda, chorak mavzusidan kelib chiqib, uning badiiy g'oyasi vositasida bolalarga axloqiy-estetik tarbiya berishga e'tiborni qaratmoq lozim. Buning uchun o'qituvchi qo'shiqni ham o'rgatish, musiqani tinglatish va uning badiiy- g'oyaviy mazmunini bolalar ongiga singdirish uchun oldindan puxta tayyorgarlik ko'rishi shart. Shu maqsadda qo'shiq mazmuniga doir rang-barang surat va rasmlardan ham foydalanishi mumkin. O'qituvchi asarning biror bir cholg'u asbobida ijro etishi, qo'shiqni ijro etib berayotganda uning mimikasi, asarni taktlarga bo'lib ijro etishi, qo'l harakatlari, musiqa asboblarning o'zi ko'rgazmalilikka ega desak yanglishmagan bo'lamiz. Asosiy maqsad – o'quvchilarni qo'shiqni o'rganishga ko'proq qiziqтира olish va ularda fikrlay olish qobiliyatini

rivojlantirishdan iboratdir. Shuni unutmaslik kerakki, o'qituvchi qo'shiqni yoqimli ovozda kuylab ko'rsatishi shart. Chunki, o'qituvchining bolalarga tanish va ta'sirli ovozi ularni asarga qiziqtirish uchun jonli vosita hisoblanadi. Qo'shiqning so'zlari kuy ohangi bilan birga, bir necha dars davomida o'rganilib yod olinadi. Har bir jumla so'zi takrorlangach, o'qituvchi uni chiroyli qilib kuylab beradi. O'quvchilar esa uni yakka, guruh va xor bo'lib qaytaradilar. Agar jumlar katta va kuylash uchun qiyin bo'lsa, uni ikkiga bo'lib o'rgatish qulaydir. Qo'shiq o'rgatish uslublarini almashtirib turish sinf xonasida zerikishning oldini oladi. Buning uchun yakka, guruh va umumiy xor bo'lib kuylash, bir guruh kuylasa, ikkinchisi qarsak va turli cholg'u asboblari cholib ritmik jo'r bo'lish yoki raqs harakatlarini bajarish ham yaxshi natija beradi.

Vokal-xor ishlari jarayonida sof unisonga erishish bilan birga ikki ovozlilikni his etish malakalari ham rivojlantiriladi. Buning uchun kuyni bolalar xori ijrosida tinglanganidan so'ng xor qo'shiqlardagi ikki ovozlilik hamohangligiga e'tibor beriladi va unison ijro bilan taqqoslanadi.

Qo'shiq ustida ishlashda, unga badiiy sayqal berishga anchagina o'rin ajratiladi. Ishning ana shu tamoni qo'shiq ustida olib boriladigan butun ish jarayoni bilan birgalikda sodir bo'ladi, faqat eng dastlabki bosqichlardagina bolalarning butun diqqatini shu davrda eng zarur bo'lgan vazifaga – qo'shiqning intonatsiyasini o'zlashtirishga qaratish kerak. Tegishli jumlar ravon yangray boshlagach, diqqatni tovushning xarakteri, (muhim ta'sirli joylarini aniq-ravshan aytish va chalish), tuslar, diktsiya va shu kabilarga qaratish lozim. Bolalar qo'shiqni dadil aytishar ekan, shubhasiz, ular qo'shiqni to'liq ijro etish istagi tug'iladi, agar qo'shiq ko'p bora bo'linaveradigan bo'lsa, bu xol kuylashga bo'lgan qiziqish va havasning pasayib ketishiga olib keladi. Shuning uchun o'qituvchi bu ishda me'yorni bilishi va har safar ma'lum frazani, intonatsiyani, so'zni takrorlash sabablarini tushuntirib borishi muhimdir.

Jamoa bo'lib kuylashda o'quvchilarda musiqa xotirasi va ritm tuyg'usini o'stirish ustida olib borilgan ishga ko'ra ularni notalar cho'zimi bilan tanishtirish ham muhimdir. O'qituvchi o'quvchilarga musiqada tovushlarning ma'lum bir vaqtlarda teng hissalariga bo'linib, almashinib turishi musiqada bir tekis harakatni hosil qilishini tushuntirishi zarur.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, musiqa darslarini tashkil etishda o'qitishning yangi usullaridan foydalanish, sinfdagi barcha o'quvchilarning ishtirokini ta'minlaydi. Ular o'rtasida do'stona muhit yaratiladi. Deyarli barcha o'quvchilar dars jarayoniga jalb etilib, fanga bo'lgan qiziqishlari ortadi. Chunonchi, interfaol usullar ta'lim jarayonida darslarni sifatli bo'lishga, mazmunini boyishiga va samarali tashkil etilishiga, o'quvchilarning tashabbuskorligiga va yangiliklarni tezkor qabul qilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning kelgusida mustaqil bilim olishlariga, axloqiy sifatlarini shakllanishiga imkon yaratadi. Zero, yoshlar faolligini ta'minlaydigan xatti- harakatlarni, intilishlarni to'g'ri yo'naltirgan holda zamonaviy dars tashkil eta olishlari pedagoglarning muhim burchlari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Ortiqov T. Musiqa o'qitish metodikasi. –T.: O'qituvchi. 2012.
2. Sharipova G. Boshlang'ich sinflarda musiqa madaniyati darslari uchun metod. qo'llanma. -T.: 2000.
3. Sharipova G. Musiqa va uni o'qitish metodikasi. –T. Turon- Istiqbol. 2006.

UO'K 37.022

INTERFAOL METODLARNING NAZARIY ASOSLARINI O'RGANISH

Isoqova Muqaddas Ibrohimovna

Namangan v. Yangiqo'rg'on t. 16-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi, O'zbekiston

Ubaydullayeva Mashhura Mamatxanovna

Namangan v. Uychi t. 2-umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi, O'zbekiston

Muhiddinova Nozima Sobirjonovna

Andijon v. Baliqchi t. 14-umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada interfaol metodlar, o'quvchiga yo'naltirilgan ta'limda o'qituvchi mahorati, o'quvchilar tafakkuri va faolligini o'stirishga qaratilgan interfaol metodlarni adabiyot darslarida qo'llash haqida ilmiy-nazariy qarashlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik mahorat, interfaol, "Suhbat", "Bahs-munozara", "Tezkor savol", "Evristik", "Tadqiqot", "Taqqoslash", "Aqliy hujum", "6x6x6", "BBB", "Akula", "Zinama-zina", "Refleksiya".

STUDYING THE THEORETICAL BASIS OF INTERACTIVE METHODS

*Isokova Muqaddas Ibragimovna**Primary school teacher of secondary school No.16, Namangan region, Republic of Uzbekistan**Ubaydullayeva Mashhura Mamatkhanovna**Teacher of Uzbek language and literature of second. school No.2, Namangan region, Republic of Uzbekistan**Muhiddinova Nozima Sobirjonovna**Teacher of Uzbek language and literature of second. school No.14, Andizhan region, Republic of Uzbekistan*

Brief abstract. This article focuses on interactive methods to develop students' thought. Information of the use of these interactive methods was given in literature lessons.

Kalit so'zlar: "pedagogical skills", "interactive," "conversation", "debate", "quick questions" "heuristic", "exploration", "comparison", "mental attack", "6x6x6", "BBB", "shark", "step by step", "reflection".

Adabiyot fanini o'qitishda muayyan nazariy va amaliy bilimlarni o'quvchilarga tushuntira bilish, ularda mavzu yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish hozirgi kun o'qituvchisidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim sohasida mustahkam o'rin egallayotgan pedagogik texnologiya – interfaol usullar qo'llashni talab etadi. Adabiyot fani o'qituvchisi bir qator an'anaviy va mantiqiy metodlar (suhbat, bahs-munozara, evristik, tadqiqot, taqqoslash, induktiv, deduktiv) bilan birga "Aqliy hujum", "6x6x6", "BBB", "Akula", "Zinama-zina", "Refleksiya", "Esse", "Sinkveyn" kabi interfaol usullardan samarali foydalana olishi o'quvchi ma'naviyatining sog'lomlashuvi uchun ham asos bo'ladi.

Ma'lumki, pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari "Umumiy pedagogika" kursida ta'lim metodlari va ularning mazmun-mohiyati haqida batafsil bilim beriladi. Ta'lim metodlaridan foydalanish yo'llarini yaxshi o'zlashtirgan o'qituvchi badiiy asarlarni chuqur o'rgatish davomida darsdan ko'zlagan maqsadiga erishadi.

Interfaol (interaktiv) – "Inter" – o'zaro va "act" – ish-harakat, faoliyat degan ma'nolarni anglatadi. Interfaol usulda o'tiladigan darslar guruh o'quvchilari bilan birgalikda, noan'anaviy metodlar bilan tashkil etiladi.

Ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy toliqishsiz yuqori natijaga erishish ekanini nazarda tutib, belgilangan vaqtdan unumli foydalanishdir. Adabiyot darslarida muayyan mavzu yuzasidan nazariy va amaliy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda yangi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat talab etadi. Adabiyot o'qitish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi muloqotlarining oliy nuqtasi ko'zga tashlanadi. Ulardagi xilma-xil nuqtayi nazarlarining o'zaro ro'para kelishi sodir bo'ladi. Adabiyot darslarini tasnif qilishda bir qator qarashlar mavjud. Ulardan eng keng tarqalganlari sifatida an'anaviy va noan'anaviy adabiyot darslarini ajratib ko'rsatish mumkin. Shunday ekan, adabiyot darsining mazmuni qanday bo'lishi kerak, u qanday tipologik xususiyatlarga ega, adabiyot darsining samaradorligi nimalarga bog'liq, bunda o'qituvchining o'rni va mavqei qanday belgilanadi, o'quvchining adabiy jihatdan rivoji uchun qanday yo'l-yo'riqpar tutiladi, adabiyot darslarining tashkiliy jihatlarida qanday o'ziga xosliklar bor? kabi qator savollar paydo bo'ladi. Garchi adabiyot o'qitish metodikasiga oid ko'plab tadqiqotlarda bu savollarga xilma-xil javoblar berilgan bo'lsa-da, amaliyotchi o'qituvchilar ularga berilgan yaxlit holdagi aniq javob va ko'rsatmalarga muhtoj bo'lib turibdi.

Adabiyotga oid darslarning shakllari ko'p. Eng ko'p tarqalgan turlar sifatida ma'ruza, suhbat, seminar, konferensiya, bahs-munozara, musobaqa va boshqa darslarni ko'rsatish mumkin.

Adabiyot darslarining nazariy jihatlarini haqida M.I.Maxmutov, M.N.Skatkin, YU.K.Babanskiy, V.V.Golubkov, N.I.Kudryashev, O.YU.Bogdanova, G.I.Belen'kiy, L.N.Lesoxina, L.S.Ayzerman, E.N.II'in, A.Zunnunov, M.Mirqosimova, Q.Yo'ldoshev, S.Matjonov va boshqa metodist olimlarning tadqiqotlari mavjud. Ularda adabiyot darslarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari, ularga qo'yiladigan zamonaviy talablar, adabiyot darslarida o'quvchilar faoliyatini yo'lga qo'yish va uni faollashtirish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish, dars samaradorligini oshirish, adabiyot darslarining ma'rifiy, tarbiyaviy, estetik jihatlarini, badiiy asarni tahlil qilishda adabiyot darslarining o'rni va ahamiyati, bunda o'quvchilarning mustaqil, ijodiy ishlarini tashkil etishning yo'l va usullari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Mazkur tadqiqotlar nazariy jihatdangina emas, amaliy jihatdan ham o'qituvchilarimiz uchun dasturlamal bo'la oladi.

Adabiyot darslarida o'quvchilar bilan ishlashning turli shakllaridan foydalanish imkonlari mavjud. Xususan, guruh bilan va har bir o'quvchi bilan alohida ishlashning qo'shib olib borilishi yaxshi samaralar beradi.

Adabiyot darslarida o'qituvchi shaxsining mavqei alohida o'rin tutadi. Aynan mana shu shaxs darsning maqsad va vazifalarini, adabiy materialni tanlashni, qaysi mavzularni o'tishda qanday metod va shakllardan foydalanishni belgilaydi, dars jarayonining tashkil etilishini boshqarib boradi.

Adabiyot darslarning oldiga qo'yilgan pedagogik vazifalarning yechilishidagi vositalar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Adabiy materialning mazmuni.
2. Uni o'rganish usullari.
3. O'qitishning texnik vositalari.
4. O'quvchilarning mustaqil ishlarini amalga oshirish imkonini beradigan didaktik materiallar.
5. O'quvchilar faoliyatini tashkil etish.
6. O'qituvchi shaxsi (M. N. Skatkin) [1, 141].

An'anaviy darslarda, odatda, dastlab uy vazifasi so'raladi, keyin yangi mavzu o'tiladi, u mustahkamlanadi, o'quvchilarga uy vazifasi topshiriladi. Bu jarayonlarni tashkil etish va amalga oshirishda yetakchi shaxs sifatida o'qituvchi maydonga chiqadi. Uzoq yillar davomida hukmronlik qilib kelgan mazkur shakl bugungi kunda zamonaviy talablarga javob bermay qoldi. Shuning uchun ham uning o'rniga yangicha shakl va usullar kirib kelyapti, ta'lim jarayonida yangicha pedagogik texnologiyalar davri boshlandi, deb ayta olamiz. Endilikda ilg'or adabiyot o'qituvchilari darsni uy vazifasini so'rashdan emas, to'g'ridan-to'g'ri uy vazifasini berishdan, yangi mavzuni bayon etishdan, o'quvchilarga mustaqil vazifalar topshirishdan boshlayotganlari odatdagi holga aylanib bormoqda. Bu jarayonlarda, ayniqsa, o'quvchi shaxsining faollashuviga imkon beradigan usul va shakllarga ustivorlik berilayotganligi ochiq seziladi.

Bugun qator rivojlangan mamlakatlarda qo'llanilayotgan "Aqliy hujum", "6x6x6", "Klaster", "Qarorlar shajarasi" singari metodlarning ayrimlaridan adabiy ta'lim jarayonidagi badiiy asar tahlilida ham foydalanish mumkin. Aslini olganda, bu metodlarning ta'limdagi mantiqiy metodlardan farqi uncha katta emas. Ularning barchasi zamirida muammoli metodning unsurlari mavjud. Masalan, "Aqliy hujum" metodining maqsadi o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirish, ularni erkin, mustaqil mulohaza yuritishga undash, hammani bir xil qolipda fikrlashdan qutqarish, ma'lum mavzu yuzasidan har xil fikrlarni to'plash va masalaga ijodiy yondashuvni ta'minlashdan iborat. Bu metoddan foydalanilganda favqulodda, kutilmagan savol yoki topshiriqlar bilan o'quvchilar loqaydlikdan, muvozanatdan chiqariladi va ular boshqacha ruhiyat bilan badiiy muammoga, o'quv topshirig'iga "hujum" qiladilar. Ya'ni har bir o'quvchi o'z bilimi, qobiliyati, iqtidori, dunyoqarashi va imkoniyatlari darajasida uni hal etishga kirishadi. O'quvchilar o'z oldilariga qo'yilgan muayyan masala bo'yicha mulohaza yuritadilar. Bu metoddan foydalanilganda o'qituvchidan masala atrofida ishlayotgan, mulohaza yuritayotgan har bir o'quvchi tomonidan aytilgan fikrni qayd etib borish, har bir ishtirokchining erkinligini ta'minlash, aytilgan fikrlarning asoslanishini talab qilish, toki fikrlar tugamaguncha bahsni davom ettirish talab qilinadi. O'quvchilar tomonidan aytilayotgan fikrlarni alohida baholash, ularni tanqid qilish yoki fikrlardan kulish taqiqlanadi.

"Aqliy hujum" – o'quv muammolarini hal qilishda keng qo'llaniladigan metod. U qatnashchilarning tasavvurlari, bor bilimi va imkoniyatlaridan unumli foydalanishga yo'naltirilgan. Mazkur metod o'quvchi oldiga qo'yilgan har qanday muammoli masalaga ko'p sonli yechimlar topishga imkon yaratadi.

Adabiy ta'lim jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan metodlarning yana biri "6x6x6" metodidir. Adabiy asarlar tahlili jarayonida mazkur metoddan foydalanishda adabiyot o'qituvchisidan pedagogik mahorat va ziyraklik, guruhlarini oqilona shakllantira bilish talab qilinadi. Bu metodda sinfdagi o'quvchilar oltita-oltitadan olti guruhga bo'linadi. Jami 36 o'quvchi ishtirok etadi. O'qituvchi istasa guruhlariga muayyan nomlar berishi ham mumkin. Dars mavzusi e'lon qilinib, ma'lum vaqt belgilanadi. O'quvchilar mavzu atrofida bahslashadilar, o'z munosabatlarini bildiradilar. Mavzu bo'yicha belgilangan vaqt yakunlangach, o'qituvchi guruhlarining a'zolarini almashtiradi. Yangi guruhda avvalgi guruhdan bitta vakil qoladi va u o'z guruhining mavzu yuzasidan chiqargan xulosalarini yangi guruhga bayon etadi. Yangi guruh a'zolari avvalgi guruhning fikr va xulosalarini o'rganadilar, unga o'z munosabatlarini bildiradilar. Shu tariqa qisqa vaqt oralig'ida o'quvchilar tomonidan ham mavzu yuzasidan fikr bildiriladi, ham bu fikrlar ularning o'zlari tomonidan tahlil qilinadi.

Sinfdagi o'quvchilardan kichik guruhlar tashkil etishda quyidagilarga amal qilinadi:

1. Guruhlar o'qituvchi tomonidan belgilanadi.
2. Guruhga rahbarlik qila oladigan o'quvchi va guruh a'zolari oldindan aniq belgilab olinadi.

3. Har bir guruhga zehni va qobiliyatli hamda bo'shroq o'zlashtiradigan o'quvchilar, imkon qadar, teng taqsimlashga harkat qilinadi. Guruhlar bir-biriga munosib a'zolar bilan to'ldiriladi va vazifalari belgilanadi.

4. Guruh rahbari va a'zolariga vazifalari tushuntiriladi.

5. Har bir guruh doira shaklida o'tirishi, guruhning har bir a'zosi bir-birini ko'rib turishi shart.

6. Ish jarayonida har bir guruhning faoliyatiga, g'oyalariга e'tibor berib boriladi. Yaxshi g'oya egalari rag'batlantiriladi [3, 108].

“Noan'anaviy dars” nomini olgan bahs-munozara, musobaqa, ssenariyli dars, konferensiya dars, sayohat darsi, nazm darsi, tahlil darsi kabi dars shakllari 7-9-sinflar adabiyot darslarida samarador bo'lishi mumkin. Bu davrda o'quvchilarning hayotiy, ba'zan, falsafiy xarakterdagi muammolarni hal etishga moyilligi kuchli bo'ladi. Bu darslarning ko'pchiligini “Suhbat” metodining har xil usullari, shakllari deyish ham mumkin. Ularning orasida “Ssenariyli dars” nomi bilan ta'lim amaliyotiga kirib kelgan shakli bevosita o'quvchilarni ijodga undashi bilan ahamiyatlidir.

O'rganilgan asarlar yuzasidan ssenariy tuzish ham o'ziga xos ijod mahsuli. Bu jarayonda o'quvchilar mustaqil fikrlab, ijod qiladilar. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchi ma'naviyatini sog'lomlashtirishning asosi bo'lgan mustaqil fikrlashga o'rgatishda ssenariyli o'qitishdan ham foydalanish mumkin. Masalan, “Kuntug'mish va Xolbeka sarguzashtlari bo'yicha ssenariy yozing” topshirig'i o'quvchilar “Kuntug'mish” dostonidan olingan parchalar bilan tanishib bo'lganlaridan so'ng asar matni tahliliga bag'ishlangan darslarda berilishi mumkin. Avval ssenariy va uning yaratilishi haqida o'quvchilarga maxsus bilim beriladi. Bir qator folklor asarlar va ularni sahnalashtirish uchun yozilgan ssenariylar matni, ularning tuzilishi, asardagi ssenariy uchun muhim jihatlarning ajratilishi bilan bog'liq ma'lumotlar bilan tanishtiriladi. Bundan tashqari, sahna asari ssenariysini tayyorlash uchun o'quvchilarga yo'nalish beruvchi: “Ularning xatti-harakatlari ma'nosini oching. Qahramonlarning so'zlari ortidagi fikr va tuyg'ularini harakatlarga ko'chiring”, “Qahramonlarning o'zini tutishi bilan tabiat hodisalarini mutanosiblashtiring”, “Keyingi sahifalarni o'qimasdan burun Xolbekaning hayotida shunday burilishlar bo'lishini tasavvur qilganmidingiz?” yoki “Mohiboy bilan Gurkiboyda bugungi kitobxon uchun yot bo'lgan qanday sifatlar bor? Bugungi kunda qahramonga xos qaysi sifatlar o'z qimmatini yo'qotmagan?”, “Bu qahramonlarning har biri sizda qanday tuyg'u va fikrlar uyg'otadi?” singari savol va topshiriqlar qo'yilishi maqsadga muvofiqdir.

Maktab amaliyotida usul, ko'pincha, metod bilan bir narsa yoki metodning bir qismi deb qaraladi. Aslida usullar metodlarni yuzaga keltiruvchi, uni tashkil qiluvchi unsurlardir. Masalan, ta'limning muammoli metodi muammoli vaziyat yaratish, o'quv farazlarini shakllantirish, ularni isbotlash singari usullarni o'z ichiga oladi. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'naltiruvchi muammoli, suhbat, evristik, tadqiqot, taqqoslash, induktiv, deduktiv singari ta'limning mantiqiy metodlarida ham o'rganilayotgan o'quv materialidan muhimni ajratish, o'rganilayotgan hodisaning umumiy yoki xususiy jihatlarni topib tasnif qilish, tizimga solish, aniqliklar kiritish, isbotlash singari usullardan foydalaniladi. O'qitishning interfaol metodlari o'quvchilar mustaqil fikrini o'stirish hamda ularning ma'naviy komillik yo'lini tutishlari uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013.
2. Husanboyeva Q. Adabiy ta'limda mustaqil fikrlashga o'rgatish asoslari. – Toshkent: O'zinkomTsentr, 2003.
3. Husanboyeva Q., Niyozmetova P. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Barkamol Fayz media, 2018. – 352 bet.

SECTION 5. O‘QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASH MALAKASINI SHAKLLANTIRISH
TEKNOLOGIYALARI
TECHNOLOGY OF FORMATION OF CRITICAL THINKING SKILLS IN STUDENTS

УДК 004/:002

СИСТЕМНЫЙ АНАЛИЗ, СИСТЕМНОЕ МЫШЛЕНИЕ И СИСТЕМНЫЙ СИНТЕЗ ДЛЯ
ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ

Ганчерёнок Игорь Иванович

директор, доктор физ.-мат. наук, профессор, Белорусско-Узбекский межотраслевой институт прикладных технических квалификаций, г. Минск, Республика Беларусь

Горбачев Николай Николаевич

старший преподаватель, Академия управления при Президенте Республики Беларусь г. Минск, Республика Беларусь

E-mails: gancher62@mail.ru, nick-iso@tut.by

Аннотация. В статье обеспечение инновационного развития обосновывается необходимостью реализации системного подхода в виде триады «системный анализ-системное мышление-системный синтез».

Ключевые слова: системный анализ, системное мышление, системный синтез, инновационное развитие.

UDC 004/:002

SYSTEM ANALYSIS, SYSTEM THINKING AND SYSTEM SYNTHESIS FOR INNOVATIVE
DEVELOPMENT

Hancharonak Ihar

Doctor of Phys.-Math. Sciences, Professor Belarusian-Uzbek Interdisciplinary Institute of Applied Technical Qualifications, Minsk, Republic of Belarus

Gorbachev Nikolay

Senior Lecturer, Academy of Management under the President of the Republic of Belarus, Minsk, Republic of Belarus

Brief abstract. Assurance of innovative development is grounded by necessity of triad “system analysis-system thinking-system synthesis” realization.

Keywords: system analysis, system thinking, system synthesis, innovative development.

*«Муравей знает формулу своего муравейника,
пчела тоже своего улья,
...но человек не знает своей формулы»*

Ф.М. Достоевский, «Дневник писателя»

За прошедшие десятилетия XXI века резко возросла сложность многих видов производственной и социальной деятельности (проектирования, планирования, управления и других), что, естественно, ориентирует на широкое применение широкого спектра средств натурального моделирования, экспертных оценок и различного инструментария моделирования не только для подготовки принятия решений, но и для выявления, постановки соответствующих проблем, а также локализации, идентификации, классификации и описания соответствующих проблемных ситуаций (ПС). Насущные потребности производства, социальной практики, политики и науки (мероприятия, связанные с пандемией коронавируса, тому характерный пример) привели к тому, что в аналитической методологии обозначился устойчивый интерес к выявлению закономерностей корректной постановки проблем, целеполагания и формулировки задач.

Повышение интереса к анализу ПС, выявлению ее специфики и структуры связано и с возможностями цифровизации и интеллектуализации человеческой деятельности [1], которые сегодня таковы, что деятельность человека стала существенным фактором изменений в ноосфере, а сами эти изменения сопоставимы с природными процессами. По расчетам экспертов, пропущенная на стадии исследований ошибка «стоимостью» в одну условную единицу влечёт за собой потери на этапе конструирования ориентировочно на десять единиц, превращаясь в сотню – при изготовлении опытных образцов и в тысячи – при освоении и эксплуатации продукции или оказании услуг.

Проблемной называется обстоятельство, когда цель деятельности становится недостижимой принятыми ранее способами, и способ достижения ее в изменившихся условиях неизвестен. Можно выделить ряд причин, по которым проблемы не решаются:

- отсутствие знаний о методических подходах к решению;
- отсутствие опыта идентификации проблемы;
- недостаток опыта ранжирования проблем;
- отсутствие специальных знаний алгоритмов решения проблем;
- отсутствие навыков эффективного использования соответствующих методов;
- неспособность сочетать творческое и аналитическое мышление;
- использование метода, не предназначенного для решения рассматриваемой проблемы;
- неумение обеспечить результативность принятого решения;
- использование некачественных информационных ресурсов (ИР);
- недостаток опыта визуализации исходных данных, промежуточных результатов и ИР для принятия решения.

Решение проблем связано с их локализацией, идентификацией, и описанием. При этом, как правило, формируется сеть проблем (рисунок 1), определяющих ПС.



Рисунок 1-Сеть проблем

Таким образом ПС можно охарактеризовать следующим образом:

1. Предварительная постановка изобретательской задачи (в данном случае описание ПС обычно содержит ответы на следующие вопросы: в чем состоит главная цель решения задачи; что мешает достижению цели; что нужно для устранения затруднения или препятствующего фактора; что даст решение задачи для человека и общества; какова ее актуальность);

2. Ситуация, характеризующаяся сетью проблем, перед началом поиска решения, когда решение в момент анализа и постановки задач потенциально не известно.

Существует ряд подходов к классификации ПС и проблем, определяющих те подходы к алгоритмам и инструментарию анализа систем, которые позволяют говорить о переходе к системному, визуальному, схематизирующему и когнитивному мышлению [2-4]. В таблице приведена классификация ПС, позволяющая лицу, принимающему решения (ЛПР), систематизировать аналитическую деятельность и получение исходных данных по ПС.

№ п/п	Проблема/ПС	Ценности/ожидаения	Возможные решения	Тип/характеристика ПС
1	Известна	Известны	Известны	Задача, решение которой проще, чем проблемы, и заведомо не требует творческого подхода
2	Известна	Известны	Неизвестны	Структурированная проблема (проблема с хорошей структурой)
3	Неизвестна	Известны	Неизвестны	Неструктурированная проблема (проблема с плохой структурой)
4	Известна	Неизвестны	Известны	Структурированное поле возможностей
5	Известна	Неизвестны	Неизвестны	Неструктурированное поле возможностей
6	Неизвестна	Неизвестны	Известны	Решения, ищущие применения
7	Неизвестна	Известны	Известны	Поиск идей

Современному руководителю необходимо владеть информационными технологиями (ИТ) управления, иметь навыки их применения в информационной среде и информационном обществе (например, в рамках ситуационно-аналитических центров (САЦ)). Ему нужна практика

формирования и организации сетей проблем в рамках сетей влияния и доверия при системном взаимодействии ЛПР разного уровня на основе новейших ИТ. Указанные сети должны обеспечивать ситуационную осведомлённость всех участников решения ПС (рисунок 2), что напрямую связано с интеграцией пространства ИР, формированием и ведением реестров (регистров) чрезвычайных ситуаций (ЧС), формированием и применением системного анализа и синтеза, искусственного интеллекта, а также технологии управления знаниями в обучающейся организации.

Существенным моментом в подготовке управленческих кадров для цифровой экономики является формирование из ЛПР системных экспертов, обеспечивающих как системный подход к интеллектуальному анализу ПС, так и к электронному документированию принимаемых решений, включая подготовку проектов нормативных правовых актов (НПА) и технических нормативных правовых актов (ТНПА), а также других необходимых документов [5]. Основой этой трансформации должны стать персональные мобильные электронные офисы или персональные САЦ с весьма существенной интеллектуальной поддержкой.




Рисунок 2-Структура ситуационной осведомлённости

Развитие должного навыка системного анализа практически все время реализуется с опорой на схематизацию – формирование схематических опорных изображений (СОИ). Фактически, схема (чертёж, эскиз, образ, знак) – это и есть тот объект, который с одной стороны приводится в действие алгоритмами (схематизмами) мышления, а с другой – базируется на наглядности СОИ (рисунок 3). Мышление же, которое раскрывается в плане связей между этими элементами, следует определить, как схематизирующее мышление. Оно несёт в себе достоинства как понятийного мышления (осмысленность), так и визуального мышления (наглядность), обнаруживая их позитивный синтез.

Овладение визуальным и схематизирующим мышлением предполагает целенаправленное освоение ЛПР приёмов и способов схематизации и параллельной визуализации ПС, что может стать одним из важных элементов и общего, и профессионального образования. При этом образовательные технологии будут строиться не только на приоритете соответствующего контента и контроле его усвоения, но и на непосредственно способах получения, анализа (сопоставления) и наглядного представления всё время обновляющихся и быстро устаревающих ИР.




Рисунок 3-Схема взаимодействия элементов визуального мышления

В этом и состоит ответ на вызовы Общества 5.0. К основным приёмам и способам схематизации (а значит, и овладения визуальным мышлением) следует отнести схематизацию собственных представлений и ПС, отображение схемы на конкретные ситуации, подведение под схему, сворачивание и развёртывание схемы (обобщение и детализацию) и, наконец, работу по схеме (рисунок 4)[6].




Рисунок 4-Основные этапы и методы схематизации ПС

При этом в процессе функционирования реальной системы выявляется одна или несколько ПС, как несоответствие оперативного состояния системы требуемому (или нормативному). Для решения ПС проводится системное исследование (декомпозиция, анализ) и синтез системы, снимающей проблему. В ходе синтеза осуществляется оценка анализируемой и синтезируемой систем. Реализация синтезированной системы в виде предлагаемой реальной системы или модели обеспечивает возможность провести оценку степени снятия проблемы практики и принять решение на функционирование модернизированной (новой) реальной системы (рисунок 5).




Рисунок 5-Схема разрешения ПС

Синтез систем состоит в создании систем с наперед заданными свойствами на основе знания об исследованной системе и ПС и опирается на:

- методы натурального эксперимента;
- экспертные методы;
- методы математического и компьютерного моделирования;
- вариационное исчисление;
- методы оптимального управления;
- теорию решения изобретательских задач.

Систему требований к методологии синтеза систем можно представить в следующем виде:

1. **Общетеоретические требования.** Методология синтеза систем должна обладать свойствами: полноты (достаточности для решения задач анализа рисков), непротиворечивости (взаимосвязанности всех ее компонентов, позволяющих создавать единую методическую базу), перспективности (возможности модернизации или реинжиниринга системы).
2. **Прикладные требования.** Методология синтеза систем должна обеспечивать: унифицированность (решение задач независимо от сферы использования систем, существующих технологий и характеристик используемых средств), реализуемость (возможность получения заданного результата), интегрируемость, совместимость, интероперабельность, портабельность.

Методология синтеза систем также должна обеспечивать разработку долгосрочной стратегии их построения и развития, а также реализуемых ими технологий на основе учета реальных потребностей на основе форсайт-технологий. Вместе с тем необходимо отметить, что эта методология также должна отвечать требованиям системного подхода, которые в этом случае предполагают:

THE ROLE OF READING BOOKS IN DEVELOPING THINKING SKILLS IN THE FAMILY

Sobirova Mahbuba Yusufjonovna

PhD, associate professor, Namangan State University, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. The article analyzes the role of books and reading in the development of children's thinking skills, ways to develop a culture of reading in the family: role models, expressive reading, conversation, interest in books through play.

Keywords: knowledge, book, reading, thinking skills, reading culture, methods of development, role modeling, expressive reading, conversation, game, various competitions.

Inson jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi, keng va atroflicha fikrlashi uchun tarbiyasi va, albatta, bilimli bo‘lishi lozim. Bilimni esa biz oiladan, ta’lim maskanlaridan, kitoblardan olamiz. Birmuncha muddat oldin kitobning shaxs kamolotidagi o‘rni xususida “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi (2017-yil, 12-yanvar) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Farmoyishi qabul qilingan edi [1]. Yurtboshimiz “Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma’naviyatga erishib bo‘lmaydi. Kitob o‘qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo‘q”deya ko‘p bor ta’kidlaydilar. “...Bugungi bolalar ertangi kunda xalqqa aylanadi. Yoshlarni kitobga qaytarishimiz kerak. Axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o‘zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishga, ularning kitob bilan do‘st bo‘lishiga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim”-deya alohida ta’kidlab o‘tadilar.

Qadimiy va betakror diyorimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma, adib va mutafakkirlarimizning boy ma’naviy merosini, umumbashariy sivilizatsiya, madaniyat, dunyoviy va diniy ilm-fan taraqqiyotiga

ulkan hissa qo'shgan ulug' ajdodlarimizning noyob asarlarini asrab-avaylash, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish, ularning nodir merosini, ibratli hayoti va ijtimoiy faoliyatini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish, yoshlarimizni o'zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ular o'rtasida kitobxonlik madaniyatini keng ommalashtirish maqsadida "Yosh kitobxon" Respublika tanlovi tashkil qilindi [2]. 10 yoshdan 14 yoshgacha, 15 yoshdan 19 yoshgacha va 20 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar o'rtasida o'tkazib kelinayotgan tanlovni oila davrasida "Mening yurtim" telekanali orqali, shu bilan birga, "Yoshlar" telekanali orqali teleekranlarda ko'rish, faol kitobxonlarning rag'batlantirilishini kuzatish ota-onalarda ham kitobga bo'lgan e'tiborni kuchaytirdi.

Bugun, pandemiya sharoitida farzandlarning ta'lim-tarbiyasi to'la holatda oilaga ko'chdi. Bolani to'laqonli tarbiyalashga, uning xatti harakatini 24 soat davomida kuzatishga, farzandlarning yutuqlari bilan birga kamchiliklarini ham aniqlashga imkon paydo bo'ldi. Farzandlarga kitobning ahamiyatini singdirish imkoni kengaydi.

Darhaqiqat, kitob kishilik jamiyatining qadimiy, ammo hamisha navqiron qadriyatlaridan biridir. Kitobning nafi beqiyos, ammo bu foyda buncha botmonlik kitob shuncha million so'mlik daromad keltirishi bilan emas, mamlakatning rivojlanib, ilg'or davlatlar safiga ko'shilishi [3] bilan, dunyoga ma'rifat ila tanilishi bilan o'lchanadi. Chunki, ma'rifat ziyosining umri cheksiz. Kitob orqali inson ham bilim oladi, ham yangidan-yangi bilimlarni, kashfiyotlarni kelajak avlodga yozib qoldiradi. Bir so'z bilan aytganda, dunyoning sakkizinchi mo'jiza sifatida e'tirof etiladigan kitob inson qalbining chinakam hamrohi, qalb va fikr qayrog'idir. Zero, Respublikamizda koronavirus karantini tufayli e'lon qilingan ta'til mobaynida o'quvchilar va talabalarga masofadan bilim olish imkoniyatlari yaratilmoqda va bugun teleekranlarda kanallar ochilib, teledarslar o'tkazilmoqda. O'quvchilarga topshiriqlar berilmoqda, darsliklarni puxta o'rganishga, qo'shimcha asarlar o'rganishga chorlanmoqda. Kutilmagan, yangicha sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlaridan unumli foydalanib, shaxsni rivojlantirish, mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalash va shu asnoda shaxsga yo'naltirilgan ta'limni kuchaytirish talab qilinmoqda.

Oilada bolaning fikrlash malakalarini shakllantirish va rivojlantirishda kitobning o'rni alohida turadi Bolani kitobga qiziqtirishning yo'llari xilma-xil bo'lib, ular quyida izohlanadi:

1. Namuna bo'lish. Ota-ona va oilaning katta yoshli a'zolarining o'zlari kitob o'qishda namuna ko'rsatishlari bolalarda badiiy asarlarni o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi va oila tarbiyasida yuksak samaradorlikka erishishni kafolatlaydi. Ota-onalar shuni unutmasliklari kerakki, agarda bolalarning badiiy kitoblarni mutolaa qilishlariga oila sharoitida e'tibor qaratilmas, bolalarda bu boradagi dastlabki ko'nikmalar shakllantirilmas ekan, ta'lim muassasalari bu borada hech bir natijaga erisha olmaydi [4, 48]. Farzandlarning savodi chiqqandan keyin ham iloji boricha ota-onalar va katta yoshli oila a'zolarining ovoz chiqarib kitob o'qishlari oila tarbiyasining eng samarali usulidir. Shunga erishish zarurki, kitoblar mutolaasi soatlari bolalar uchun intiqlik bilan kutiladigan bayram kabi bo'lib qolsin. Asta-sekin avvallari ota-onalar tomonidan asarlarning o'qib berilishi o'rnini keyinchalik farzandlarning o'zlariga topshiriladi.[5,184] Jarayonning samarali bo'lishi quyidagicha yo'l tutilishiga bog'liq:

- 1) ota-ona tomonidan asarlarni maxsus o'qib berishda dastlab bolani tinglovchi bo'lishga o'rgatish;
- 2) asta-sekin asarlarning ota-ona yoki yoshi katta oila a'zolarining bolalar bilan birgalikda, o'zaro hamkorlikda (muayyan sahifalarni navbatma navbat) o'qishiga erishish;
- 3) o'qilgan asarni oila davrasida jamoa bo'lib muhokama qilish;
- 4) asar yuzasidan o'zaro fikr almashishga erishish.

Oila davrasida farzandlarning badiiy asarlarni mutolaa qilishga bo'lgan qiziqishini jamoa asosida rivojlantirish hamda ularda o'qilgan asarga tanqidiy yondashish, bayon etilgan voqelikdan xulosa chiqarish, qahramonlarning ijobiy fazilatlarini o'zlashtirishga intilish ko'nikmasini tarbiyalash maqsadga muvofiqdir.

2. Tavsiya berish. Bolalarga tavsiya etiladigan kitob qanday bo'lmasin, albatta, badiiy yuksak saviyada bo'lishi kerak. Kitoblar ota-onaning hamda bolaning o'z oldiga qo'ygan yuksak maqsad hamda vazifalariga mos kelishi; bolaning ma'naviy jihatdan yetuk o'sishiga yordam berishi lozim. Bundan tashqari tavsiya etiladigan kitoblar bolaning yoshi, psixikasi, o'qish va tushunish qobiliyatiga mos bo'lishi maqsadga muvofiqdir. [6, 179]

Kichik yoshdagi bolalar dunyo faqat shodlik uchun, bitmas-tuganmas baxt uchun yaratilgan, deb ishonadilar va bu ishonch ularning ruhan sog'lom bo'lib voyaga yetishida asosiy omildir. Atrof-muhit haqida hali yetarli tasavvuri yo'q kichikintoylarga zarur, ularning didiga, tushunchasiga mos kitoblarni tanlashga o'rgatish ota-onalar zimmasida. Bola kitobning ahamiyati, undan qanday foydalanish, uni qanday asrash haqidagi tushunchani ham dastlab ota-onadan o'rganishi lozim. Yosh kitobxonlarga boshlanishida kitobga tartibli munosabatda bo'lishni, kitob javonlaridan yoki tokchalardan zarur kitobni mustaqil topishni, kitob muallifini eslab qolishni erinmay muntazam o'rgata boriladi. O'qilgan kitobni mazmunan to'g'ri idrok

etishga, asardagi yaxshi-yomon timsollarni, ya'ni ijobiy va salbiy qahramonlarni ajrata olishga o'tiladi. Bolalarning kitobdagi notanish so'z va tushunmagan joylarni aniqlab, o'qishlarini kuzatib boriladi. Bolalarning o'qishi yuzaki bo'lib qolmasligi uchun ularga yoqib qolgan asarlardagi ba'zi joylarni takror-takror o'qishiga va asarning o'zini bir necha marta o'qib chiqishini esa har qandayiga bo'lsa ham rag'batlantirishga urinish kerak. Betakror o'qish o'qilganini chuqurroq tushunishga o'rgatadi. Albatta, yangi fikrlar qahramonlarga nisbatan yangi munosabatlar tug'diradi.

Har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi. Yurish-turishi, qobiliyati va imkoniyatlari – hamma-hammasini uning ota-onasigina ko'proq biladi. Shuning uchun ham kitobni to'g'ri tanlay bilish, undan o'rinli foydalanish ko'p jihatdan ota-onaning qobiliyatiga, ma'lumotiga, bilimiga bola haqidagi tasavvuriga bog'liq.

3. Ifodali o'qish. Ifodali o'qish va hikoya qilib berish bolalarni mustaqil o'qishga tayyorlashdagi dastlabki bosqich hisoblanadi. Bu jarayonni yanada samarador qilish uchun ifodali o'qiyotgan yoki ta'sirchan tarzda so'zlab berayotgan asarning eng qiziq joyiga kelganida to'xtatib, davomini so'zlab berishni bolalarning o'ziga topshirish mumkin. Bu yo'l bilan ham ularni mustaqil o'qishga jalb etish, kitobga qiziqtirish mumkin. Ifodali o'qishni avval ota-onalar olib borsa, keyinchalik esa bu mashg'ulot bolalarning o'ziga topshirilsa, kitobdan olinadigan zavq, his-hayajon umumlashadi, kollektiv ravishda tarbiyalash-tarbiyalanish vujudga keladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ifodali o'qishni tashkil etishda xalq og'zaki ijodi namunalari – ertaklar, hikoyalarga keng o'rin ajratish joiz. Bunday asarlar [7] yosh kitobxonlarni sirli tomonlari bilan o'ziga tortadi va shuning vositasida ular tarbiyasiga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, "Bulbuligo'yo", "Badal qaroqchi", "Uch og'ayni botirlar", "Sehri olma" va boshqa xalq ertaklarini kichkintoylar sevib, berilib tinglaydilar. Bundan tashqari, ifodali o'qish uchun A.S. Pushkinning "Baliqchi va baliq haqida ertak", "Shox sulton", Abdulla Avloniyning "Hikoya", "Masal", H.Olimjonning "Oygu bilan Baxtiyor", "Semurg", chet el yozuvchilardan Sharl Perroning "Qizil shapkacha", aka-uka Grimmlarning "Bir hurmacha shavla", G. Andersenning "Dyumachaxon", "No'xat ustidagi malika" asarlarini ham tanlash maqsadga muvofiqdir.

4. Suhbat. Oilada kitob o'qishni uyushtirish yo'llaridan yana biri kitoblar haqida samimiy suhbatlashishdir.[8,5] Suhbat, odatda, ifodali o'qishdan oldin yoki keyin bola kitobni mustaqil o'qiganidan so'ng olib boriladi. Kichik yoshdagi bolalar, ayniqsa, "Zumrad va Qimmat" ertagini sevib o'qiydilar. Chunki ertakning mazmuni xalqchil, ma'nosi chuqur, teran, qiziqarli. Hozirgi ayrim qizlarning fazilati va ba'zilarining nuqsonlariga hamohang, ibratli voqea tiniq ko'rsatib berilgan. Lekin, bu ertak mustaqil o'qilgan bo'lsa-da, uni yana bir bor oila davrasida o'qib, bolalarning muhokama qilishiga yordamlashmoq kerak. Suhbat ota-ona tomonidan hazil-mutoyiba shaklida olib boriladi. Ertakning tarbiyaviy tomoniga doimo urg'u berishni unutmazlik lozim. Xullas, shu kabi ertak va hikoyalar tavsiya etiladi va ular ham yuqorida aytib o'tganimizdek, suhbat orqali tahlil qilinadi. Har bir o'qilgan material oila davrasida muhokama qilib borilishi yoki hech bo'lmaganda bu to'g'rida suhbat uyushtirilishi zarur. Muhokama jarayonida suhbatlar rasmiyatchilikka aylanmasligi kerak. Odatda, oila davrasidagi suhbatlarning maxsus saboq berishga asoslanishi, ezmalik qilish, buyruq, talab ohangida so'zlash bolalar tomonidan o'qilgan materialning tarbiyaviy ta'sirchanligini kamaytiradi. [9,56] Shu bois o'qilgan asar muhokamasi erkin suhbat bo'lishi, munozaraning samimiylik kasb etishiga diqqat qaratilishi kerak. Agarda bu kabi suhbatlar biron-bir uy yumushi bilan bog'liq ravishda yoki oila a'zolaridan biri aytgan fikr bahonasida "bexosdan boshlanib ketguday" bo'lsa, u yanada samara beradi. [10,8]

5. O'yin. Kichik yoshdagi bolalarni kitobxonlikka o'rgatishda o'yinning ahamiyati ham katta. Bolalarga o'yin orqali ko'p narsani o'rgatish mumkin. O'yin metodini oilada, avvalo, topishmoqlar, she'rlar aytishdan boshlash kerak. Bolalar o'qigan kitoblaridagi qahramonlar holatlarini o'yin, xatti-harakatlari orqali ko'rsatishlari mumkin.

Kitob bolalik yillaridan boshlab insonning doimiy hamrohiga aylanishi uchun, shu bilan birga, ota-onalarning e'tiborlariga farzandlarni oila sharoitida kitob, xususan, badiiy asarlarni mutolaa qilishga o'rgatish yuzasidan quyidagi tavsiyalarga rioya qilish maqsadga muvofiq:

1) ota-onalar farzandlarining badiiy asarlar va maxsus adabiyotlarni tanlashini nazorat qilib borishlari va ularni qanday o'qishlaridan xabardor bo'lishlari, zero, bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari, dunyoqarashi, bilim darajasiga mos bo'lmagan adabiyotlar, asarlarni mutolaa qilishlari ularda noto'g'ri tasavvurlarni hosil qiladi, qolaversa, vaqtlarining behuda sarflanishiga olib keladi;

a) ota-onalar bolalar tomonidan badiiy asarlar va maxsus adabiyotlarni tanlashni nazorat qilib borishlari kerak;

b) oilaning katta yoshli a'zolari, xususan, ota-onalar bolalarning badiiy asarlar, maxsus adabiyotlarni qanday o'qishlaridan xabardor bo'lishlari lozim; ular bolalarni kitoblarni o'qishda ularning mazmuniga

e'tibor bermay, sahifama-sahifa tez-tez o'qishdan, qiziqarli voqealarni yuzaki kuzatib borishdan saqlanishga o'rgatib borishlari kerak;

v) ota-onalar va oilaning katta yoshli a'zolari bolalarni kitoblarni ehtiyot qilib tutishga odatlantira olishlari zarur.

2) bolalarni kitoblarga mehr bilan qarashga va ularni ehtiyot qilib saqlashga odatlantirishlari;

3) bolalar uchun intim munosabatlar aks etgan chet el multfilmlari emas, balki kitobga va kitobxonlikka bo'lgan qiziqishni oshiruvchi multfilmlarni ko'rsatishlari; bilimlarni olishga undovchi interaktiv ko'rsatuvlarni birgalikda ko'rishlari, ularni muhokama qilishlari;

4) oilada bolalar xonasini tashkil etish, mabodo buning imkoniyati bo'lmasa, farzandlar uchun kitob burchagini yaratishlari. Bu burchakka har bir bola o'zi yasagan, o'zi chizgan suratlarni osish (bola har ko'zi tushgandao'zidan faxrlanish, o'zidagi noyob qobiliyatlarini anglab yetishi uchun);

5) oila davrasidagi suhbatlarda bolalarning o'qigan kitoblaridan olgantaassurotlarini aytishlariga mos vaziyatlar hosil qilishlari;

6) farzandlar o'rtasida "Oilamizning jajji kitobxon", "Eng kitobxon o'quvchimiz", "Eng kitobxon talabamiz" deb nomlanuvchi tanlovlarni tashkil etish. Mazkur tanlovlarni tashkil etyapganda "Mening yurtim" telekanali orqali, shu bilan birga, "Yoshlar" telekanali orqali televizorda bir necha yildan beri noyabr-dekabr oylari davomida ko'rsatib kelingan "Yosh kitobxon" Respublika tanlovi tajribasini oilaga moslab tashkil qilish. Bunda:

a) oiladagi bolalarni yoshiga qarab (10 yoshdan 14 yoshgacha, 15 yoshdan 19 yoshgacha va 20 yoshdan 30 yoshgacha) ajratish; agar farzand bir nafar bo'lsa, unda tanlovni bola+ona, bola+ota, bola+buvi, bola+bobo shaklida (bunda kattalarning hayot tajribasi ko'pligi e'tiborga olinib, bolaga sezdirmay unga biroz yon bosish) ham tashkil qilish. Oilada farzandlar ikki yoki uch nafar bo'lsa, unda bola+bola tarzida tashkil qilish;

b) "O'zbek adabiyoti" bilimdoni, "Jahon adabiyoti bilimdoni", "Buyuk mutafakkir va adib", "Badiiy asarlar bilimdoni", "She'riyat" "Bahri bayt" kabi shartlarni tashkil qilish;

v) barcha shartlar bo'yicha umumiy ballar qo'shib hisoblanganda eng yuqori ko'rsatkichga erishgan qatnashchini tanlov g'olibi deb topish;

g) tanlov g'oliblarini o'zbek va jahon adabiyotining durdona asarlari bilan mukofotlash, imkoniyatga qarab, uyali telefon, kattaroq yoshdagilarni kompyuter jamlanmasi (monoblok), printer (1x3), zarur ust-bosh yoki o'quv qurollar bilan taqdirlash mumkin.

7) jahon adabiyotining eng sara namunalarining elektron variantlarini hamda til o'rganish uchun mo'ljallangan kitoblarning audio darsliklarini oiladagi kompyuterga joylash va ularni vaqti-vaqti bilan farzandlarning ko'rishini nazorat qilish.

Demak, biz bolalarning fikrlash malakalarini shakllantirish va rivojlantirishda asosiy e'tiborni tarbiyaning g'oyat samarali vositasi – kitob o'qitishni uyushtirishga, kitob orqali bolani tarbiyalashga – unda ezgulikni shakllantirish masalalariga qaratsak, farzandlarimiz biz tavsiya etgan kitoblarni o'qishi orqali maktab ta'limidagi bo'shliq to'lib boradi, dunyoqarashi o'sadi, xarakteri shakllanadi, hayotni o'rganadi, bilimi oshadi, fikrlash tarzi takomillashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Farmoyishi.12.01.2017.
2. "Yosh kitobxon" Respublika tanlovini o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom.05.04.2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi (2017-yil 7-fevral) Farmoni.
4. Hasanboyeva O. va b. Ta'lim pedagogikasi. O'quv qo'llanma.–T.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2007.
5. Sobirova M. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi //VIII Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii «Problemy i perspektivy razvitiya nauki v nachale tretyego tysyacheletiya v stranax Yevropy i Azii». Sbornik nauchnyx rabot. Pereyaslav-Xmelnitkiy, 2014. 182-183 str.
6. Aminov M. Tarbiya /Ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya. "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"–Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. –B. 178-179.
7. Murodov M. "Oltin sandiq ochildi". -Toshkent.1994.
8. Sobirova M. Bolalar-kelajagimiz. Metodik qo'llanma. Namangan, 2018. –80 b.
9. Inoyatov I., Muslimov N., Usmonboyeva M., Inog'omova D. Pedagogika: 1000 tasavolga 1000 tajavob/ Met.qo'l.–Toshkent: Nizomiy nomidagiTDPU, 2012. – 98-bet.
10. Sobirova M. Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish. Metodik ko'rsatma. –Namangan, 2019. –44 b.

UO‘K 159.923.2

KASBIY TA‘LIM TIZIMIDA TALABALARNING MUSTAQIL FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Xashimova Masuda Komiljanovna

Ped.f.n., Toshkent Tibbiyot akademiyasi Pedagogika va psixologiya kafedrasida dotsenti, O‘zbekiston

Annotatsiya. Maqolada talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etish masalasi tahlil etilgan. Mustaqil faoliyatning maqsadi, didaktik vazifalari, shakllari va turlari haqida fikr yuritilgan. Maxsus fanlarni o‘qitish jarayonida magistrnlarni mustaqil faoliyatini tashkil etishga oid misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: mustaqil faoliyat, tamoyil, mustaqil ish, mustaqil ta‘lim, kontseptual jadval, T-sxema.

UDC 159.923.2

ORGANIZATION OF INDEPENDENT ACTIVITY OF STUDENTS IN VOCATIONAL EDUCATION

Hashimova Masuda Komilzhanovna

Cand. ped. sc., ass.prof., Pedagogy and Psychology department, Tashkent Medical Academy, Uzbekistan

Brief abstract. The article considers the issue of organizing an independent student activity. Analyzes the goals, functions, forms and types of independent student activity. Examples of the organization of independent work of masters in the study of special disciplines are given.

Keywords: independent activity, principle, independent work, free education, conceptual table, T-scheme.

Bugungi uzluksiz ta‘lim tizimida erkin va mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli va faol ishtirok etuvchi shaxsni shakllantirish va malakali mutaxassislarni yetishtirish “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan. Bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish esa bevosita mustaqil faoliyat bilan bog‘liq. Shu sababali, ta‘lim jarayonida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishga birinchi darajali masala sifatida qaralishi bejiz emas.

Mustaqil ishlarni o‘tkazilish joyiga, vaqtiga, uni pedagog tomonidan boshqarilish xarakteriga va uning natijalarini nazorat qilish usullariga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

- auditoriyada o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar jarayonidagi mustaqil ishlar (amaliy va seminar mashg‘ulotlar, laboratoriya ishi);
- rejali maslahat (konsultatsiya), ijodiy o‘zaro munosabat, zachet va imtixonlar shaklida, pedagogning bevosita nazorati ostida o‘tkaziladigan mustaqil ishlar;
- auditoriyadan tashqari faoliyat ya‘ni talabalarning o‘quv va ijodiy xarakterga ega bo‘lgan topshiriqlarni auditoriyadan tashqari sharoitda bajarishi.

Talabaniq mustaqil ishi – muayyan fandan o‘quv dasturida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakaning ma‘lum bir qismini talaba tomonidan fan o‘qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Talabalarning mustaqil faoliyatni tashkil etish kelajakda olib boriladigan pedagogik faoliyat davomida mutaxassislik faniga oid auditoriya va auditoriyadan tashqarida talabalarda mustaqil faoliyatni tashkil eta olish ko‘niklarini shakllantirishga yo‘naltirilgan. SHu sababli magistrlar har bir o‘tilgan mavzu bo‘yicha amaliy faoliyatga jalb etiladi. Ular mavzudan kelib chiqqan holda amaliy mashg‘ulotlarda turli jadvallar, sxemalar va diagrammalarni ishlab chiqishga jalp etiladi. Masalan didaktik tamoyillar bilan tanishgandan so‘ng ularga quyidagi jadvalni to‘ldirish tavsiya etiladi.

№	Ta‘lim tamoyillari	Maqsadi va vazifalari	Amalda foydalanish darajasiga baho	Takliflar
1	Nazariya va amaliyot birligi	Bilim, malaka va ko‘nikma-larni kompleks rivojlantirish, ma-lakali mu-taxassisni yetishtirish	Bugungi kunda ta‘limning mana shu ji-hatiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ayrim soha-larda ma‘lum muvaffaqiyaga erishilmoqda. Umuan yetarli emas.	Mavjud ilg‘or tajribani ommalashtirish. Ta‘lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirishga yo‘naltirilgan qarorlar tizimini qabul qilgan holda ishlab chiqarish kor-xonalarining motiv-larini shakllantirish.
2..				

Ta'lim kontseptsiyalarini tahlil etishda "Kontseptual jadval" dan foydalanish qulay. Kontseptual jadvalda tahliliy axborotning anchagina qismi ixcham joylashtirilgan. Bunday jadval mashg'ulotning metodik ta'minoti (slyd, o'quv plakati va h.k.) ga juda qo'l keladi. Muayyan muammo bo'yicha kontseptual jadvallarni kichik guruhlarda aqliy hujumdan foydalanib tuzish va uni guruh bo'yicha muhokama qilib, eng maqbul variantni qabul qilish – amaliy mashg'ulotlarning anglash fazasida yaxshi natija beradi. Talabalar taqqoslash jarayonida ikkala kontseptsiyani barcha yo'nalishlari bo'yicha tahlil etar ekanlar, ularning bilimlari sayqallashadi, mustahkamlanadi va mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

Kontseptsiya-lar	Tavsif, toifa, ajralib turadiganbelgilar			
	Tavsif	Toifa	Ajralib turadiganbelgilari	Natija
1.Reproduktiv ta'lim kontseptsiyasi	Qaytarish va takrorlashga asoslanadi. Bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantiradi.	Bilimlarni tushunish, va qo'llashga qaratilgan Tizimli, Bixivioristik nazariyaga asoslanadi	Axborotni idrok etish orqali bilimlarni egallash. Tayyor bilimlarni idrok etish.	Talabalar bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydi.
2. Muammoli ta'lim kontseptsiyasi	Muammoni aniqlash va uni yechimini topish. Yangi mavzuni o'rganishda talabani faol ishtirokini ta'minlash.	Mustaqil va ijodiy fikrni rivojlantirishga qaratilgan. Talabani mustaqilligiga asoslanadi	Ma'lum mavzudagi muammolarni aniqlash va bartaraf etish asosida bilimlarni egallash.	Talabalarda mustaqil va ijodiy fikr rivojlanadi

Biror obyektning tahlil etishda "T" sxemadan unumli foydalanish mumkin. Bunda talaba tanlab olingan obyektning ikki qarama-qarshi jihatini ajratib belgilash vazifasini bajaradi. Ushbu organayzer talabani obyektning chuqur o'rganishga, uni elementlarga ajratib tahlil qilishga va o'z bilimlarini tizimlashtirishiga yordam beradi. Masalan test nazoratining yutuq va kamchiliklarni aniqlash jarayonida ushbu sxemadan foydalanish mumkin.

Yutuqlari	Kamchiliklari
<ul style="list-style-type: none"> • Vatqni tejalishi • Frontal holda ish olib borish imkoni • Mantiqiy fikrni rivojlantirish. • Baholash qulay 	<ul style="list-style-type: none"> • Nutqning rivojlan-masligi. • Muloqotni yo'qligi. • Hamkorlikda faoliyatning yo'qligi. • Pedagogik ta'sirning sustligi

Talabalar ushbu vazifani bajarish jarayonida individual holda va guruhlarda faoliyat ko'rsatishi maqsadga muvofiq. Yuqorida qayd etilgan mustaqil faoliyat turlari talabalarga nafaqat fanini chuqur o'rganishga, balki o'z sohalariga oid fanlardan dars mashg'ulotlarini tashkil etishda ana shu o'rgangan metodlarni bemalol qo'llash ko'nikma va malakalarini shakllantirishga asos bo'ladi. Bu esa kelajakda mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonini samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Demak, xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, pedagogik fanlarni o'rganish jarayonida talabalar mustaqil faoliyatini tashkil etishga alohida e'tibor qaratish, interfaol metodlardan foydalanish, maqsadli topshiriqlar tizimini shakllantirish lozim. Bunday yondashuv talabalarda nafaqat pedagogik bilimlarni chuqurlashtiradi, balki ana shu bilimlardan amalda foydalanish, taxlil qilish, xulosalar ishlab chiqish, o'z fikrlarini asoslash ko'nikmalairini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Abdullaeva Q.M. Maxsus fanlarni o'qitishda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari: Diss. ... ped. fan. nom.- Toshkent: 2006.
2. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A. Kasb ta'limi yo'nalishi bakalavrlarini tayyorlashda mustaqil ta'limning ahamiyati //Maktab va hayot. – Toshkent, 2004.- № 1. – B. 18-20.
3. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etish. Metodik qo'llanma. – T.: TDPU, 2006. – 46 b.
4. Барышникова З.А. Организация самостоятельной познавательной деятельности студентов – заочников. – М.: 2000. – 196 с.

UO'K 37.025.7

FIKRLASH MALAKASINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK TAFAKKUR VA KITOB MUTOLASI

Mamatqulova Zarifaxon Muhammadsoliyevna

Farg'ona viloyati XTXQTMOHM o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya. Maqolada fikrlash malakasini shakllantirishda kitob mutolaa qilishning o'qituvchi va o'quvchilarning ongi, tafakkurini, ijtimoiy jarayonlarga nisbatan qiziqishlarini kuchaytirish aks etgan. Iqtisodiy, siyosiy va huquqiy savodxonlik darajasini oshirish, individual malaka oshirish, har bir bilim oluvchining ko'nikmalarini tezkorlik bilan, doimiy chuqurlashtirish va yangilashga yo'naltirilgan faoliyat ekanligi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: kitob mutolaa, ong, tafakkur, jarayon, savodxonlik, o'z ustida ishlash, dunyoqarash, tafakkur.

UDC 37.025.7

PEDAGOGICAL THINKING AND BOOK READING IN THE FORMATION OF THINKING SKILLS

Mamatkulova Zarifaxon Muhammadsoliyevna

Ferghana Region Center for Retraining and Advanced Training of Public Education Employees, Uzbekistan

Brief abstract. The article reflects the fact that reading a book in the formation of thinking skills enhances the consciousness of teachers and students, thinking, interest in social processes. It has been analyzed that raising economic, political and legal literacy, improving individual skills, is an activity aimed at rapid, continuous deepening and updating the skills of each learner.

Keywords: reading of books, conscious, thinking, literacy, self-study, worldview, thinking, individuality.

“Fikrlash malakasini shakllantirishda pedagogik tafakkur va kitob mutolasi” mavzusini bitta maqolada ёритиб бўлмади. Kitob mutolaa qilish o'qituvchi va o'quvchilarning ongi, tafakkurini, ijtimoiy jarayonlarga nisbatan qiziqishlarini kuchaytirib, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy savodxonlik darajasini oshirish, individual malaka oshirish, har bir bilim oluvchining ko'nikmalarini tezkorlik bilan, doimiy chuqurlashtirish va yangilashga yo'naltiradi.

Malaka oshirish jarayonlarida, umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik tafakkurni rivojlantirishda kitob mutolaa qilish funksiyasi muhim o'rin tutadi. Chunki, kitob mutolaa qilish o'qituvchi va o'quvchilarda savodxonlik darajasini oshirib, milliy tarixni, madaniy merosni chuqurroq o'rganishga bo'lgan ehtiyojni yanada oshiradi. Tevarak atrofimizda va dunyoda bo'layotgan turli xil voqea hodisalarni teran anglash, ushbu jarayonlarni analiz qilgan holda atrofda qilgan to'g'ri yetkaza olish ko'nikmasini rivojlantiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 4-dekabrda saylovoldi dasturining asosiy yo'nalishlarida “Yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb- hunarlarni puxta egallagan yoshlarni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, yoshlarimiz qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini kamol toptirish, ularning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish, kitobxonlik madaniyatini yanada yuksaltirish” masalalariga alohida e'tibor beradi. Chunki, kitob mutolaa qilish-bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'z ustida ishlashi, dars eshitishi va o'tish usullarini tinimsiz boyitib, kengaytirib, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirib borishda o'z fikri, dunyoqarashi, zamonaviy bilim va tafakkuriga ega bo'lgan yangi avlodni voyaga yetkazishda muhim o'rin tutadi.

Fikrlash malakasini shakllantirishda pedagogik tafakkur va kitob mutolasi ta'lim beruvchida va oluvchida o'tilayotgan darsga nisbatan kuchli ma'suliyat, ijodiy yondashish, erkin fikrlash hamda mustaqil o'z tahlil va xulosalarini bayon eta olish xususiyatini rivojlantiradi. O'qituvchining kitob mutolaa qilishi o'quvchilarni sifatli o'qitish, tarbiyalash va ijodiy rivojlantirish hamda pedagog xodimlarning samarali ishlashi uchun mehnat faoliyati, do'stona munosabatlar va jamoada sog'lom muhitni yaratadi. Kitob mutolaa qilish bilimli, har tomonlama rivojlangan, madaniyatli, o'zining oila, jamiyat, davlat oldidagi mas'uliyatini to'liq his qiladigan shaxslarni shakllantirishda ta'limning uzluksizligi va izchilligi, insonparvarligi va xalqparvarligi, ilmiyligi va dunyoviy yo'nalishini ta'minlash ishlarini muvofiqlashtiradi.

Kitob mutolaa qilish natijasida o'qituvchi va o'quvchilarda tahlil qilish, optimallashtirish, tizimlashtirish, tadqiq etish, rivojlantirish, tashkil etish va boshqarish, qo'llash, aniqlash, tavsiyalar berish, o'qish, qayta ishlash, individuallashtirish, jamoaviylashtirish, o'zlashtirish kabi xususiyatlar rivojlanadi.

Kitob mutolasi asosida o'qituvchi va o'quvchilararo umumiy tafakkur, o'qish va anglash, ehtiyojlari qondiriladi. Ularda talab va taklif mutanosibligi, erkin imkoniyatlar yaratiladi.

Fikrlash malakasini shakllantirishda pedagogik tafakkur va kitob mutolasi bilim olish, xizmat ko'rsatishning yuqoriligi bilan belgilanadi. Kitob inson ruhiyatiga ta'sir etishi bilan birga har bir shaxsda yaxshilik, sabr, e'tiqod, kurashchanlik eng asosiy hayotdagi yo'lini to'g'ri tanlashga o'rgatadi. Kitob mutolasi insonda umumbashariy va milliy qadriyatlarga xurmat tuyg'usini uyg'otadi. Jahon adabiyoti durdonalarini mutolaa qilish orqali o'qituvchi boshqa xalqlar hayoti, madaniyatini o'rganadi, o'zlashtiradi. Badiiy obrazlar hayoti, taqdiri, kechmishlari haqidagi bilimlarini oshiribgina qolmay, unda kelajakka bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi, turli xulosa va tamoyillar shakllanishiga xizmat qiladi.

Ta'lim-tarbiya tizimida umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish funksiyasi pedagogik tafakkurning asosiy negizi hisoblanadi. Chunki, bugungi kunda 130 dan ortiq millat va elat vakillari tinch-totuv hayot kechirish bilan birga mamlakatimiz taraqqiyotida faol ishtirok etmoqdalar. Shu jihatdan ham o'qituvchilarda milliy o'zlikni anglash, millatlar o'rtasida o'zaro hurmat, ishonch, totuvlikni qaror toptirish "O'zbekiston – umumiy uyimiz" albom kitobi, "O'zbekiston – bag'rikeng diyor", "O'zbekiston Konstitutsiyasi – buyuk kelajagimiz kafolati", "Mustaqil O'zbekistonda millatlararo munosabatlar rivoji" kabi tadbirlarni o'tkazish ularda umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Chunki, umuminsoniy qadriyatlarni ta'lim-tarbiya jarayonlarida amalga oshirish o'qituvchida o'quvchilar o'rtasida millatlararo munosabatlarning barqarorligi, teng huquqlilik, o'zaro hurmat, totuvlikni qaror toptiradi. Ularda do'stlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlaydi.

Bugungi kunda O'zbekistonda umuminsoniy qadriyatlarning rivojlanishi uchun barcha shart-sharoit yaratilgan. Insonning jinsi, irqi, millati, tili, shaxsi, ijtimoiy kelib chiqishi va mavqeidan qat'i nazar ularning mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotidagi teng xuquqli ishtiroki kafolatlangan va davlat siyosatining asosiy maqsadi sifatida e'tirof etilgan. Shu nuqtayi nazardan ta'lim-tarbiya maskanlarida umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish, "O'zbekiston – yagona Vatan" degan tuyg'uni qaror toptirish ishlarini mazmunan boy va shaklan rang-barang bo'lishini ta'minlash, targ'ibot ishlarini to'g'ri tashkil etish pedagogik tafakkurning asosi hisoblanadi.

Fikrlash malakasini shakllantirish, pedagogik tafakkurni rivojlantirishda mediatexnologiyalar funksiyasi muhim o'rin tutadi. Mediatexnologiyalar ta'lim mazmunini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan ham pedagogik tafakkurni rivojlantirishda mediatexnologiyalardan foydalanish ijobiy va samarali fikrlash, ijtimoiylashuv va jamoaviylashuvga imkon beradi, intellektual ichki dunyo rivojlanadi. Buning uchun o'qituvchi va o'quvchi diqqati, xotirasida chuqur iz qoldira oladigan, fikrlash darajasini kengaytiradigan ommaviy axborot vositalardan foydalanish, ularning o'z-o'zini tahlil eta olish, o'ziga-o'zi baho berish shaxsiy fikrlarini muhofaza qilish, jamoada o'zaro munosabat omillarini shakllantiradi.

O'qituvchi o'z maqsad va vazifalarini amalga oshirish, yangi shakl va metodlarni izlash, falsafiy va psixologik treninglar, metodologik muammoli seminarlar, individual stajirovkalar ularda ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish, nazariy bilimlarini to'ldirish, o'zlarining tajribalarini ommalashtirish imkoniyatlarini beradi. Pedagogik tafakkurni rivojlantirish – ta'lim va tarbiya jarayonini doimo yuksak darajaga olib chiqish san'ati bo'lib, bu har bir pedagog va o'quvchi uchun xos hisoblanadi. Pedagogik tafakkurga ega bo'lgan o'qituvchilar o'quv-tarbiya jarayonlarini loyihalash, rejalashtirish kabi yondashuvlarni nazariy va amaliy jihatlarini rivojlantirsa, o'qituvchilarning shaxsiy e'tiqodi, ilg'or g'oyalar, faoliyat tamoyillari, vaziyatlarni tahlil qilish va konstruktiv harakatlar tizimini amalga oshirishga sharoitlar yaratiladi. Bu jarayonlar o'qituvchi va o'quvchidan intellektual salohiyatni va shaxsiy his-tuyg'uga ega bo'lishni taqozo qiladi, hamda o'z tafakkurini anglash uchun asosiy vosita hisoblanadi.

O'qituvchilarning pedagogik tafakkurini rivojlantirish dars rejalarini tuzish va mashg'ulotlarni olib borishda o'quvchilarning yoshi, tafakkuri, dunyoqarashi va qiziqishlarini hisobga olish, ta'lim-tarbiyaning ilg'or, ta'sirchan vositalaridan, zamonaviy o'qitish texnologiyasi imkoniyatlaridan keng foydalanish, ta'lim jarayonida tazyiq o'tkazmasdan, ma'rifiy asosda ish tutish, yoshlarning mustaqil va erkin fikrlash, bahs-munozara yuritish ko'nikmalarini oshirishga e'tibor qaratish, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro ishonch va hamfikrlilik muhitini shakllantirish, mavzularni sharhlashda hayotiy va ta'sirchan misollar, bugungi voqealar tahlili va mediatexnologiyalardan keng foydalanish ularning kasbiy mahoratini yanada oshiradi. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalari, ilmiy va ma'naviy dunyoqarashi, shaxsiy psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda noan'anaviy, interfaol shakl va usullar: suhbatlar, savol-javoblar, seminar-mushoira, bahs-munozara, davra suhbatlari, modulli dars, sahnaviy ko'rinishlar shaklidagi darslar, aqliy hujum, dars-matbuot konferensiyasi, quvnoqlar va zukkolar musobaqalaridan ijodiy foydalanish pedagogik tafakkurni rivojlantirishda fikrlashni, ijodiy yondashishlarni talab etadi.

Fikrlash malakasini shakllantirishda individual (yakka tartibdagi dastur asosida) gi kitob mutolasi funksiyasi muhim hisoblanadi. Chunki, individuallik faoliyatning negizini tashkil qiladi. Individuallik bilim va ko'nikmalarni tezkorlik bilan, doimiy chuqurlashtirish va yangilashga hamda umumiy bilimlarni

saviyasini kengaytirib borishga yo'naltirilgan faoliyatdan iborat bo'lib, tinimsiz mustaqil mutolaa qilishni talab etadi. Bunda ularning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, milliy istiqloq g'oyasi, mafkurasi va boshqa sohalardagi bilimlarni yangilash, chuqurlashtirish, kengaytirish, ijodiy faoliyati samaradorligini ko'rsatadi. Chunki ijodkorlik pedagogik tafakkurni shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Ijodkorlik maktab o'qituvchilari faoliyatining o'ziga hos bo'lgan zamonaviy izlanishlarni yetarli darajada amalga oshirishni talab etadi. Bundagi ilmiy izlanish ba'zi bir maummolarni hal etadi.

Demak, fikrlash, ijod va pedagogik tafakkur uzviy ravishda bo'lib, barcha munosabatlar va jarayonlar faoliyatida ilmiy-metodologik asos sifatida o'rganuvchi shaxsini rivojlanishini ta'minlaydi. Bunda avvalo pedagogik ijodkorlikka va o'quvchining intellektual faolligiga alohida ahamiyat berish lozim. O'qituvchi va o'quvchida har bir muammoga ijodiy yondashish qobiliyati, uning pedagogik tafakkurini rivojlantirish bilan birga kasbiy va umumiy madaniyatni takomillashtirish, fikrni boshqarish, intellektual faollik o'z samarasini ko'rsatadi. Unda o'qituvchi ijodkorligi o'quvchilarda fanga bo'lgan faollik imkoniyatlarini yaratadi.

Fikrlash malakasini shakllantirishda pedagogik tafakkur va kitob mutolasining maqsadi-o'qituvchining o'z mutaxassisligi, lavozimi, o'qitish metodikasi yuzasidan bilimni kengaytirish, nazariy, amaliy, pedagogika, psixologiya, ma'naviyat, mafkura sohasidagi bilimlarini yangilash, ilg'or tajribani o'rganish va qo'llash, takomillashtirishdan iborat. Shunday ekan, har bir o'quvchining shaxsiy dasturi bo'lishi zarur. To'g'ri xulosalarga kelish uchun mamlakatdagi realliklarga, sayyoramizdagi ahvolga ochiq ko'z bilan qarash, oldindan o'ylab qo'yilgan chizmalar, hayotdan ortda qolgan nazariyalar asosida emas, balki masalalarga mavjudliklardan kelib chiqib yondashish yangicha tafakkurni talab etadi. Malaka oshirishning asosiy bo'g'ini maktab ekan, bu sharoitida individual mutola shaxsiy dastur asosida amalga oshiriladi. Ammo ta'lim-tarbiya maskanlari bunday talabga to'la javob bera olmaydi.

O'qituvchi va o'quvchilarning individual mutolasini tashkil qilish va unda milliy istiqloq g'oyasi va ma'naviyat, mahorat, innovatsiyalar, ilg'or texnologiyalar, pedagogika va psixologiya kabi masalalarni o'rganish ular faoliyati samaradorligini oshiradi. Individual mutola dasturini amalga oshirishda har bir o'qituvchi va o'quvchi o'z faoliyatida innovatsiyalarni tadbqiq qila olishi, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy sohadagi bilimlarni yanada kengaytirish va chuqurlashtirishi, bilim, o'quv ko'nikmalarini raqobatbardosh darajada bo'lishi, o'z faoliyatini o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashtira olishi, o'quv mashg'ulotlarini ilg'or texnologiyalar asosida tashkil etish yo'llarini bilishi, o'rgatish va o'rganish, o'zlashtirib olishini tashkil etish, ta'lim-tarbiya jarayonini Davlat ta'lim standartlari darajasida amalga oshirishi muhim hisoblanadi. Fikrlash malakasini shakllantirishda pedagogik tafakkur va kitob mutolasi davlatimizning kadrlarga qo'ygan zamonaviy talablarini bajarib, Davlat ta'lim standartlari asosida ta'lim sifatini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" nomli ma'ruzasi.- T.: Adolat gazetasi. 2016. 16-dekabr. №53 son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Yangi yil arafasida – 2016-yil 30-dekabr kuni mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan uchrashuvi. O'zbekiston adabiyoti va san'ati.- 2017 y, 1-yanvar, №1.

3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. Milliy tiklanish. 2017. 8-dekabr.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Pedagog kadrlarning tayyorlanganligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari". 2016-yil, 25-sonli Qarori.

5. Matmuratova N.B. O'smir yoshidagi bolalarning muloqot sifatlarini rivojlantiruvchi psixologik trening uchun namunaviy dastur. Uslubiy tavsiyanoma.- T.: TShPKQTMOI, 2008.

6. Umarov A. Mutolaa madaniyati: shaxs, jamiyat, taraqqiyot.- T.: Fan, 2004. – 177 b.

7. Xayotov A.N. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari.-T.: 2001.- 65 b.

O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASH MALAKASINI SHAKLLANTIRISH
TEKNOLOGIYALARI

Safarova Dilnoza Quchqarovna

Toshkent shahar XTXQTMOHM o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasi

E-mail: karimova_gavxar@mail.ru

Annotatsia. Maqola o'quvchilarda tanqidiy fikrlash malakasini shakllantirish texnologiyalari mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, o'quvchilarga tanqidiy fikrlashning ta'siri, olimlarning fikrlari, tanqidiy fikrlash – faol jarayon hisoblanishi, tanqidiy fikrlash bilimni o'zlashtirish va mustaqil fikrlashning yuqori darajasi haqidagi ma'lumotlar bilan yoritilgan.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, fikr, o'qituvchi, mustaqil fikrlash, tarbiya, qobiliyat.

TECHNOLOGIES FOR THE FORMATION OF CRITICAL THINKING SKILLS IN STUDENTS

Safarova Dilnosa Kuchkarovna

Lecturer of Regional Center for Retraining and Advanced Training of Public Education Employees of Tashkent city, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. The article is devoted to the topic of technology for the formation of critical thinking skills in students and provides students with information about the impact of critical thinking, the views of scientists, critical thinking – an active process, critical thinking and a high level of independent thinking.

Keywords: critical thinking, thinking, teacher, independent thinking, education, skill.

Bugungi kunda oilaviy tarbiyaning qiyinlashuvi shundaki, birinchidan, jamiyat taraqqiy etib borgani sari har tomonlama yetuk insonni shakllantirish talablari ortib boraveradi. Bu esa oilada bolaga estetik, jinsiy tarbiya, ahloqiy tarbiya berish sifati va ko'lamini oshirish talabini qo'yadi. Ta'lim-tarbiya, odob-axloq bolalikdan berilgani ma'qul. Rasululloh (s.a.v): "Birontangiz o'z farzandlaringizni tartib-intizomga o'rgatsangiz, bu har kuni sadaqa bergandan yaxshiroqdir", deya marhamat qilganlar. Bolalarni intizomga o'rgatish oila mustahkamligiga asos bo'ladi. Islom shu ma'noda ota-onalarni o'z farzandlariga sog'lom tarbiya berishga rag'batlantiradi. Hadisi sharifda "Farzandlaringizni hurmat qiling va ularni yaxshi xulq bilan xulqlantiring" deb ta'kidlangan. Farzand tarbiyasi jarayonida bola xuquqlarining kamsitilmasligi talab etiladi. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg'ulariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak? degan savol ko'pchilikni o'ylantiradi. Ko'pchilik olimlar unga turlicha javob berib kelganlar. Xususan, Ibn Sino bola tarbiyasi bilan uning tug'ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlaboq shug'ullanish lozim, deb javob bergan. Yana shu so'zga qo'shimcha qilib taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha bo'lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o'ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o'tgan. Bu xaqida u shunday deb yozgan: "...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo'lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90% ni tashkil etadi, keying tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi". Mana shu jarayonda bola tarbiyasiga o'ta e'tiborli bo'lish lozim.

Bugun barcha davlatlar ta'limga imkon qadar ko'p yangilik kiritishga, uning sifatini oshirishga intilmoqda. Chunki ta'lim millat ko'zgusi bo'lib, jamiyat va davlatning yuksalib borishini ta'minlovchi, xalqqa yaratuvchilik, ijodkorlik xususiyatlarini baxshida etuvchi kategoriyadir.

Bunda innavatsion faoliyat subyektining talablarini qondirishdan innavatsion faoliyat subyektini ehtiyojining majmuaviyligini anglash va shakllantirishgacha bo'lgan amaliy faoliyati jarayonida yuzaga keluvchi subyektning yangilikni yaratish va o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishlarini o'zida ifoda etuvchi, undovchi kuch bo'lmog'i lozim.

Mazkur masalalarni xalq etish borasida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov quyidagilarni ta'kidlab o'tgan: "O'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o'rnini ongli intizom egallashi juda qiyin kechayapti. O'qituvchining bosh vazifasi o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iboratligini yaxshi tushunamiz, lekin afsuski amalda, tajribamizda amal qilmaymiz".

Ma'lumki, har qanday pedagogik texnologiya ta'limning yangi loyihasi rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillariga asoslangan bo'lib, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilmog'i lozim. Ilg'or pedagogik texnologiyaning markazida esa ta'lim jarayonning rahbari hamda shu jarayonning subyektini-yu obyektini bo'lgan o'qituvchi va

o'quvchi turadi. Shunday ekan, bu ikki shaxsning hamkorligi, o'zaro muloqoti, bir-biriga ko'rsatadigan ta'siri eng zamonaviy va milliy talablar asosida tashkil topishi lozim.

Buning uchun birinchi navbatda, o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayoni oldiga qo'yilgan talablar, ta'limni tashkil etish va boshqarish prinsiplari hamda yo'llari, o'quvchini aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish usullari, u bilan hamkorlik qilish, uni o'qishga, o'rganishga yo'naltirish, o'quvchi shaxsi faoliyatini to'g'ri tashkil etish, ular bilan muloqotga kirishish, muammo va kelishmovchiliklarni bartaraf etish, sinfda ijodiy, ishchan muhitni vujudga keltirish, o'quvchi faoliyatini aniq va to'g'ri baholash metodlari bilan qurollangan bo'lishi lozim.

O'qituvchining o'quvchi bilan muloqoti pedagogik xarakterdagi muloqot bo'lishi, aniq pedagogik vazifani bajarishga yo'naltirilishi kerak. Jumladan: optimal, yaxlit, qulay o'quv muhitini, ruhiy vaziyatni, o'quv faoliyatini optimallashtirish, o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi munosabatni tashkil etish va shakllantirish nazarda tutiladi. O'qituvchi va o'quvchi orasidagi munosabat insonparvarlik mezonlari asosida tashkil etilib, nohush hissiyotlarni bartaraf etishga yo'naltirilmog'i lozim. Bu esa o'zaro pedagogik ta'sirni tashkil etish uchun aloqa vositasi, "ko'prikn" vujudga keltiradi. Boshqa bir tomondan olib qaraganda, pedagogik muloqotning tarkibiy qismi bo'lgan kommunikativ faoliyatni quyidagi sxema asosida tadbiiq etish mumkin: pedagogik jarayonni modellashtirish, sinf bilan muloqotga kirishish, bevosita muloqotni (kommunikativ xujumkorlikni) tashkil etish, rivojlantiruvchi pedagogik jarayonda muloqotni boshqarishni tashkil etish, ko'zda tutilgan faoliyatni amalga oshirish davomida muloqot tizimini modellashtirish. Ta'lim-tarbiya ishini tashkil etishda o'qituvchi va o'quvchi orasidagi o'zaro munosabat va muloqotning turli yo'llari (stillari) mavjud. Ularni quyidagilarga o'qituvchining o'quvchilar jamoasiga nisbatan barqaror-ijobiy, sust-ijobiy hamda beqaror munosabatlariga ajratish mumkin.

Hozirgi globallashuv sharoiti, dunyo hamjamiyati xayotidagi iqtisodiy, mafkuraviy, ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashuvi hamda moliyaviy inqirozlar yoshlarni mamlakatning ijtimoiy, ilmiy-ma'rifiy, siyosiy hayotiga chuqur integrasiyalashuvini talab etadi.

Jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq dolzarb muammolarning yechimi esa mustaqil fikrlash ko'nikmasiga ega bo'lgan yangi avlodga bog'liq. Insonning barcha mavjudotlardan yuksak jihati – fikrlash qobiliyatidir. Zotan, insonlar bir-birlari bilan oziga xos o'y-xayollari, mushohadalari, fikr yuritishlari, mustaqil fikrlash qobiliyatlari bilan ajralib turadilar. Shuning uchun ham inson fikrini tarbiya qilish muhim sanaladi.

Abdulla Avloniyning asarlarida fikr tarbiyasiga quyidagicha talqin berilgan: "Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g'ayratlik bo'lishiga sabab bo'latur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so'ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'liqdir".

Ijtimoiy hayot hamkorlikka asoslangan ta'lim jarayoni va ishlab chiqarishda o'zaro munosabatlar, aloqalar, hamkorlikdagi aqliy va jismoniy mehnat mahsuli, muomala maromi mustaqil fikrlash majmuasi tariqasida yuzaga keladi. Tanqidiy fikrlash bu – XXI asr talablarini muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarishimizga imkoniyat yaratuvchi, o'rganayotgan va bajarayotgan ishimizni yanada chuqurroq anglashimizga yordam beruvchi ijobiy ko'nikmadir. Tanqidiy fikrlashga o'rgatish Kadrlar tayyorlash milliy dasturida bayon etilgan yuqori kasbiy madaniyatli, ijodiy va ijtimoiy faol xayotda o'z o'rnini topa oladigan malakali kadrlarni shakllantirish vazifasini hal qilishga ham mos keladi.

Tanqidiy fikrlash – bu hamma narsani tanqid qilish emas. Bu bizga kelayotgan ma'lumotlarni tahlil qilish, uni shubha ostiga olib asoslarini tekshirish va vaziyatni mustaqil baholab qaror chiqarishdir.

Tanqidiy fikrlashning faol metodlarini ishlab chiqishda quyidagi asoslardan kelib chiqadilar: Tanqidiy fikrlash nima?

Fikrlash – o'qish, yozish, so'zlash va eshitishga o'xshash jarayon, u faol, muvofiqlashtiruvchi shunday jarayonki, unda u o'zida biror haqiqat to'g'risidagi fikrlarni qamrab oladi.

Fikrlash kontekstdan tashqarida hosil qilinadigan ko'nikma emas. Tanqidiy fikrlash ta'limiy dastur yoki kundalik hayotning umumiy kontekstdan yiroqlashgan sharoitda o'rganilishi lozim bo'lgan hodisa ham emas.

Maktablarda o'quvchilar darsliklarda berilayotgan ma'lumotlarni yodlashlari kerak emas, ularda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish kerak. Olimlarning ta'kidlashicha "biz bolalarni 1-sinfidan "nima uchun" degan savolni berishga o'qitmaymiz, biz tanqidiy fikrlashga o'rgatmaymiz. Bu yo'nalishdagi tajribalarni o'rganish va tajribani bizning o'qituvchilar uchun moslashtirish kerak. O'qitish metodologiyasi bolalarni mustaqil ma'lumot va bilim olishga o'rgatishi kerak. Agar biz bolalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatsak, internet davrida ular savollarga o'zlari javob olishlari mumkin". Tanqidiy fikrlashga o'rgatishning tarbiyaviy ahamiyati katta bo'lib, bu orqali o'quvchilar ilmiy bilim olish bilan birga fikrlash jarayonida oziga ishonch

hosil qiladi, ishda faol ishtrok etishni o'rganadi, mas'uliyatligi oshadi, do'stlari va o'qituvchi bilan fikr almashishni o'rganadi, o'zgaralar fikrini tinglay olish ko'nikmasi shakllanadi va hurmat qilishni o'rganadi.

“Tanqidiy fikrlash” atamasidan pedagogik muhitda anchadan beri foydalanib kelinadi va turli pedagoglar buni turlicha tushunadilar. Ko'pchilik o'qituvchilar va uslubiyotchilar uchun tanqidiy fikrlash “yuqori tartibdagi” fikrlashni bildiradi – yuqori degani shu ma'nodaki, u Benjamin Blumm tizimiga ko'ra o'rganish qobiliyatlarining so'nggi oliy pog'onasida turadi. Faylasuflar tanqidiy fikrlash deganda, odatda mantiqiy fikrlash va isbotlash ko'nikmalarini tushunadilar, uning yordamida talabalar diqqat bilan o'qish, chuqur munozaralar yuritish va yozuvda o'z fikrlarini aniq va ifoda etish imkonini oladilar.

Tanqidiy fikrlash ta'lim jarayoniga jo'shqinlik baxsh etadi, mashg'ulotlarni o'qituvchi va o'quvchi uchun quvonchga aylantiradi.

Tanqidiy fikrlashga oid qarashlar:

Resnik: “O'quvchilar o'z bilimlarini muayyan masalalarni yechishda tadbiiq eta olsalargina ularda bilim va ijodiy fikrlash rivojlanadi”.

Ros “o'quvchilarning oldin egallagan bilimlariga va tajribalariga asoslangan o'qish mustahkam bo'ladi. Bularning hammasi o'quvchiga yangi axborotni bilganlari bilan bog'lash imkoniyatini beradi”.

Dayana Xalpern “Psixologiya kriticheskogo mishleniya” kitobida tanqidiy fikrlash “fikr yuritishning shunday ko'rinishini anglatadiki, u vazminlik, mantiq va maqsadga yo'naltirilganlik bilan ajralib turadi”,- deb yozadi.

Djeni Stil, Kert Meredis, Charlz Templarning “Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o'qish va yozish” loyihasida quyidagicha ta'kidlanadi: “Odam tanqidiy fikrlar ekan, u yoki bu g'oyalari bilan tanishadi, ularni amalga oshirishdagi mumkin bo'lgan oqibatlarini ham e'tiborga oladi. Bunda odam bu g'oyalarni dastlab ma'lum darajadagi ishonchsizlik bilan idrok qiladi va qarama-qarshi nuqtayi-nazarlar bilan taqqoslaydi. Ularni asoslash uchun qo'shimcha mulohazalar tizimidan foydalanadi va bular asosida o'z nuqtayi-nazarini ishlab chiqadi”.

O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda: birinchidan, zamonaviy ta'lim berishda asosiy urg'u o'quvchilarning tanqidiy fikrlashlarini shakllantiradigan o'quv materiallarni tanlashga qaratilishi lozim bo'lsa, ikkinchidan o'qitish jarayonini didaktik loyihalashda o'quvchilar intellektualini oshiruvchi innovatsion metodlardan foydalanish lozim. Uchinchidan, o'quvchilarning eng muhim psixologik xislatlarining alohida ahamiyatga ega ekanligini inobatga olish (chunki tanqidiy fikrlash aqliy faoliyat, qiziqish, munosabat, xulq-atvorning tashqi shakllari, ijtimoiy-ahloqiy sohada o'z ifodasini topishi muqarrardir) zarur.

Tanqidiy fikrlash faol jarayon hisoblanib, bunda o'quvchilar o'ziga ishonchni orttirish va o'z fikri hamda g'oyalarining qadrini tushunishi, o'quv jarayonida faol ishtrok etishi, turlicha fikrlarni e'tibor bilan tinglashi, o'z hukmlarini shakllantirishi lozim. Bizningcha tanqidiy fikrlash – bilimni o'zlashtirish va mustaqil fikrlashning yuqori darajadagi tarkibiy qismi bo'lib, shaxsning voqea, hodisa, borliqni ob'yektiv idrok etish imkoniyatini kengaytiruvchi aqliy hodisadir.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, tanqidiy fikrlashga o'rgatishning tarbiyaviy ahamiyati katta bo'lib, bu orqali o'quvchilar ilmiy bilim olish bilan birga fikrlash jarayonida o'ziga ishonch hosil qiladi, ishda faol ishtrok etishni o'rganadi, mas'uliyatligi oshadi, do'stlari va o'qituvchi bilan fikr almashishni o'rganadi, o'zgaralar fikrini tinglay olish ko'nikmasi shakllanadi va hurmat qilishni o'rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. 2-nashr. – T: “Ma'naviyat”, 2015.
2. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi.–T.: “O'zbekiston”,1997.
3. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari /- T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015.
4. Muslimov N.A. va b. Kasbiy malaka va pedagogik mahorat. Uzluksiz malaka oshirish yo'nalishi bo'yicha o'quv materiallari. –T., 2009.
5. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. – T.: “Fan”, 2009. – 168 b.
6. Do'stmuhammedova SH.A., Nishonova Z.T. va boshqalar “Yosh davrlari va pedagogik psixologiya” T.: Fan va texnologiyalar 2013.
7. Abdullayeva. Sh. D. Ta'limda o'qituvchi va o'quvchi shaxsi faoliyatini uyg'unlashtirish texnologiyalari 2016. — № 9.5 (113.5). — C. 57-60. — URL: <https://moluch.ru/archive/113/2972>

UO‘K 378.046.4

**BIOLOGIYA O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI
TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI**

*Bekmatova Umida Toshqulovna
Djumoboyeva Yanglish Egamnazarovna*

Sirdaryo viloyati XTXQTMOHM “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasida o‘qituvchilari, O‘zbekiston

Annotatsiya. Maqolada biologiya fanini o‘qitishda axborot texnologiya dasturlaridan, elektron darsliklar va virtual laboratoriyalardan foydalanish to‘g‘risida ma‘lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: MSWord, MSExcel, MSPowerPoint, Photoshop, Flash, Movie Maker, o‘quv film, fanga oid kompetentsiya, virtual va vizual laboratoriya.

UDC 378.046.4

**THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE PROFESSIONAL
COMPETENCE OF BIOLOGY TEACHERS**

*Bekmatova Umida Toshqulovna
Djumoboyeva Yanglish Egamnazarovna*

*Lecturers of Department of exact and natural sciences, Syrdarya Regional Center for Upgrading and
Retraining of Public Education Employees, Republic of Uzbekistan*

Brief abstract. The article is said about the information about the usage of informational technological programmers, electronically subjects and virtual laboratories in teaching biology.

Keywords: MSWord, MSExcel, MSPowerPoint, Photoshop, Flash, Movie Maker, educational film, subject competencies, virtual and visual laboratories.

Inson, uning har tomonlama uyg‘un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlarini va ta‘sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o‘zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruv-chi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Bo‘ljak biologiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish texnologiyasining shakllanishiga yo‘naltirilgan faoliyat samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiluvchi maqbul shakl, metod va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Yangi axborot-kommunikatsion texnologiyalar hozirgi vaqtda eng dolzarb mavzulardan biri bo‘lib, sababi har bir sohani o‘rganish, izlanish va tajriba orttirish uchun turli usullardan foydalanish zarurligidir. Shuning uchun bog‘cha yoshidan to‘ mukammal kasbni egallagunga qadar yangi axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi zamon mutaxassislari faoliyat doiralari qanday bo‘lishidan qat‘iy nazar, informatika bo‘yicha keng ko‘lamdagi bilimlarga, zamonaviy hisoblash texnikasi, informatsion aloqa va kommunikatsiya tizimlari, texnika vositalari va ulardan foydalanish borasida etarli malakalarga ega bo‘lishi hamda yangi informatsion texnika va texnologiya asoslarini, uning ertangi kuni, rivoji to‘g‘risidagi bilimlarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lishi kerak. Zamonaviy hisoblash texnikalari va informatsion texnologiyaning kun sayin rivojlanib, jamiyatning esa tobora informatizatsiyalashib borishi sababli uzluksiz ta‘lim tizimining o‘rta va yuqori bosqichlariga informatika, ishlab chiqarish va boshqarish jarayonlarini kompyuterlashtirish bo‘yicha bir qator o‘quv fanlari kiritilgan.

XX asr o‘rtalariga kelib tezkor mashina mexanizmlaridan foydalana boshlandi, murakkab texnika va texnologiyalar o‘ylab topildi. Ko‘pgina masalalarni hal qilish jarayonida axborot hajmi behisob bir majmuaga aylandi hamda bu axborotlarni yig‘ish va uzatish vositalarini yaratish, ularni vaqtida qayta ishlab, boshqarish uchun zarur bo‘lgan choralarni belgilab chiqish kerak bo‘lib qoldi. Ko‘pchilik vazifalarni bajarishda boshqarish jarayonlarini takomillashtirish, axborot tizimini joriy etish, mutaxassislarni kompyuterda ishlashga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, AKT vositalari biz uchun quyidagi imkoniyatlarni yaratib bera oladi:

❖ AKTo‘quvchilarni rag‘batlantiradi va ularning qiziqishini oshiradi.

❖ AKT o‘quvchilarni kelajakdagi faoliyatiga tayyorlashga ko‘mak beradi. Hozirgi zamonda mehnat faoliyati o‘quvchilar qoniqish bilan ishlatayotgan kompyuterlar, texnologiyalar, dasturlar va qurilmalar yordamida boshqariladi.

- ❖ AKT o'rganish va o'qitishning yangi imkoniyatlarini ochib beradi.
- ❖ AKT o'qituvchilarning kasbiy o'sishi uchun ularga o'z fanlari bo'yicha o'qitishning yangi usullarini kiritishga, yangi yondashuvlarni qo'llashga, g'oyalarni ro'yobga chiqarish va yangi ko'nikmalarni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

- ❖ AKT o'z resurslaridan oqilona foydalanishga imkoniyat yaratadi

- ❖ AKT o'quv jarayonini oqilona boshqarish va nazorat qilish orqali vaqtni hamda mablag'ni tejaydi. AKT darslarga tayyorgarlik jarayonini qisqartiradi va o'qish jarayonini o'quvchilar uchun qiziqarli hamda ko'ngilochar qiladi.

- ❖ AKT moslashuvchidir. AKT turli yoshdagi o'quvchilar, turli darajadagi o'qituvchilar uchun moslashtirilishi mumkin hamda ta'lim jarayonida o'qituvchilar va o'quvchilar uchun ko'makdir.

Bizga ma'lumki, bundan 3500 yil oldin Xitoy faylasufi Konfutsiyini " Eshit-ganimni yodimdan chiqaraman, ko'rganimni eslab qolaman, mustaqil bajarsam tushunib yetaman", degan iborali so'zlari bugungi kunda ham o'z ifodasini topmoqda. Ta'limda informatsion hamda pedagogik texnologiyalarni qo'llaganda talaba eshitis, ko'rish, ko'rganlari asosida mustaqil fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda darslarni tashkilashtirish uchun ma'lum bir shartsharoitlar mavjud. Birinchidan, axborot resurslari bulishi kerak.

Bularga,

- Shaxsiy kompyuter
- Proektor
- Multimedia vositalari

- Skaner (murakkab sxemalar va chizmalarni, negativ plyonkadagi tasvirlarni kompyuterga utkazish uchun)

- Raqamli fotoapparat

- Video kamera (video konferentsiyalar o'tkazish uchun va yana boshqa maqsadlarda)

- Printer, nusxa ko'chiruvchi qurilma (tarqatma materiallarni qog'ozga tushirish va ko'paytirish va yana boshqa maqsadlar uchun) va boshqa resurslar.

Ikkinchidan, maxsus dasturiy ta'minotlar hisoblanadi. Ta'lim tizimda multmediya elektron o'quv adabiyotlar, ma'ruzalar, virtual laboratoriya ishlari, xar hil animatsion dasturlar va yana boshqa ishlarni yaratishda kerak bo'ladigan maxsus dasturlar hisoblanadi. Bu dasturlar juda ko'p bo'lib, misol uchun: Animatsion roliklar yaratish uchun Macromedia Flash MX dasturidan foydalaniladi. Multmediali taqdimot ma'ruzalarini yartishda hammamizga ma'lum bo'lgan Power Point dasturidan foydalaniladi.

Bir o'lcham tasvirlariga ega darslik yordamida o'rganishda barcha organlar qismlarini va ularning funktsiyalarini tushunish qiyin. Endi odam tanasining uch o'lchamda tasvirlangan va har bir organ faoliyati aks etilgan virtual taqdimotini tasavvur qiling. Bu holat talaba miyasiga uzoq vaqt ta'sir ko'rsatadi va odam organlari tizimi tasvirini ancha vaqtga eslab qoladi.

Biologiya tirik mavjudodlarning atrof-muhit bilan o'zaro aloqalarini o'rganuv-chi ilmiy tadqiqot hisoblanadi. U tasvirlarga va diagrammalarga to'la. Urug'lar unib chiqishi jarayonini kitobdan o'qish orqali tushunish qiyin. Ko'rgazmali tasvirlardan foydalanilsa, tasavvurlar yanada yorqin va tushunarli bo'ladi. Hatto biologiyaga qiziqmaydigan talabalar ham fanga qiziq boshlaydilar. Avvalgi sinf taxtasida bo'r bilan yozish va ko'rgazma rasmlardan foydalanish vaqti o'tdi. O'qituvchilar yanada samarali o'qitish uchun proektorlar va AKT dan foydalanib, jonli o'quv sinflarini tashkil etishlari kerak.

AKT dan foydalanish kundalik hayotimizning dolzarb talabi hisoblanadi va jamiyatni globalashtirishda muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar yangi tushunchalar haqida rasmiy bilimlarni to'plamasdan, balki, ularni tushunib olishlari juda muhim. Biologiya fanini o'qitish yanada samarali bo'lishi uchun o'quv mashg'ulotlari davomida o'qituvchilar AKT ni ishlab chiqish va foydalanishlarini rag'batlantirish zarur.

Biologiya fani o'qituvchilari dars o'qitish uchun samarali AKT yaratishlari uchun MS-Word, MS-Excel, MS-PowerPoint, Photoshop, Flash, Movie Maker kabi turli dasturiy ta'minotlardan va boshqa veb vositalardan foydalanishlari mumkin. Masalan:

- MS-Word dasturidan so'rovnomalar, matnlar, tasvirlar va boshqa elektron hujjatlar ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

- MS-Excel dasturidan tirik va jonsiz organlar o'rtasidagi farqlarni chizib ko'rsatish kabi ustunli taqdimotlar talab etiladigan joylarda foydalanish mumkin.

- Photoshop dasturida yuqori sifatli tasvirlar tuzilishi mumkin.

- Power Point taqdimot dasturidan turli kontseptsiyalarni o'qitish uchun foydalanish mumkin.




Ushbu taqdimotlarda Photoshop dasturida ishlab chiqilgan fotosuratlar yoki Flash dasturi bilan yaratilgan


animatsiyalarni osongina joylashtirish mumkin. Jonli tajribalarni suratga olish va biologiya fanini o'qitishda talabalarning qiziqishlarini oshirish uchun ularni o'quvchilarga namoyish etish mumkin.

Yuqorida taqdim etilgan dasturlardan foydalanib, yaratilgan animatsiyalar, filmlar va taqdimotlar o'qituvchilar tomonidan biologiya fanini o'qitishda samarali qo'llanilishi mumkin.

Biologiya fanini o'qitishda elektron darslik va o'quv qo'llanmalardan foydalanish dars samaradorligini yanada oshiradi. Biologiya fanidan o'tkaziladigan laboratoriya mashg'ulotlari uchun kerakli jihozlar etishmaganda, virtual va vizual laboratoriyalardan foydalanilsa, o'quvchilarda fanga oid umumiy kompetensiyalar rivojlanib, mustaqil shakllanib boradi.

Masalan, virtual laboratoriyalarda berilgan videolardan quyidagicha foydalanishimiz mumkin:





Xulosa qilib aytganda, axborot-kommunikatsion texnologiyalari biologiya fan o'qituvchilarining ta'lim berishida kasbiy rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratadi. AKT asosiy afzalliklari: fan o'qituvchilar tomonidan o'quvchilar ishini samarali boshqarish, saqlash va olib borish hamda vaqtni tejashdan iborat. Vaqtni tejash mashg'ulotlarga yaxshi tayyorlanish imkoniyatini beradi. Biologiya fan o'qituvchilari AKT resurslaridan foydalangan holda nafaqat o'z bilimlarini yangilaydilar, balki nazariy bilimlarini ham orttirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. "O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi".- "O'zbekiston", Toshkent-1997.
2. "AKT yordamida biologiyani o'qitish".-O'qituvchilar uchun qo'llanma, Toshkent-2010 y.
3. Ergasheva M.T. Biologiyadan virtual laboratoriya ishlari. Umumta'lim mak-tablarining 6- sinfi uchun elektron multimedia resursi. Toshkent – 2011.
4. Ergasheva M.T. Biologiyadan virtual laboratoriya ishlari. Umumta'lim maktablarining 8- sinfi uchun elektron multimedia resursi. Toshkent- 2011.
5. Tolipova J.O. Biologiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalar.- T.:- 2003 y.
6. S.T.Turg'unov, B.X.Doniyorov, M.A.Umaraliev, Sh.S.Shodmonova Sh.Sh. Turg'unova, N.M.Tojiboeva "O'qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentligini rivojlantirish". Toshkent 2012. "Sano-standart" nashriyoti.
7. www.pedagog.uz, www.uzedu.uz

UO'K 371.315

INTERFAOL TA'LIMNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Djumoboyeva Yanglish Egamnazarovna

*Sirdaryo viloyati XTXQTMOHM, Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi,
O'zbekiston Respublikasi
E-mail: yanglish@list.ru*

Annotasiya. Uzluksiz ta'lim jarayonini isloh qilishda multimediali interfaol o'quv-uslubiy majmualar yaratish, ularni loyihalash usullari, shuningdek, yaratishga qo'yiladigan asosiy psixologik-pedagogik talablar keltirilgan.

Kalit so'zlar: veb-manba, multimediali dars, multimediali darslik, multimediali kurs.

UDC 371.315

DIDACTIC POSSIBILITIES OF INTERACTIVE EDUCATION

Djumoboyeva Yanglish Egamnazarovna

Senior lecturer of department of exact and natural sciences, Syrdarya Regional Center for Upgrading and Retraining of Public Education Employees, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. Creation of multimedia interactive teaching methodological complexes in reforming the process of continuing education, its design, as well as the basic psychological and pedagogical requirements for its creation.

Keywords: web resource, multimedia lesson, multimedia textbook, multimedia course.

O'zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev o'z nutqida "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga

hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" deb ta'kidlab o'tdi.

Bugungi kunda sir emaski, mamlakatimizda barcha sohalar kabi uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish orqali umumta'lim maktablarini yangi sifat bosqichiga ko'tarish shu kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qoldi. Ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, jahon ta'lim tizimiga raqobatbardosh milliy ta'lim tizimini yaratishga juda katta amaliy ishlar olib borilmoqda. Ta'limni rivojlantirish darslarni qiziqarli, amaliy hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni taqazo etadi. Ayniqsa, mustaqil ta'lim hamda masofaviy ta'limga e'tibor qaratilayotgani, endilikda o'quvchiga oson va qulay bo'lishi uchun multimediali interfaol o'quv uslubiy majmualar (MIO'UM) yaratish davr talabi bo'lib qoldi.

MIO'UM – davlat ta'lim standarti asosida sinflar kesimi bo'yicha fanlarning alohida muhimroq bo'limlariga oid electron nashr bo'lib, quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- Fanning dasturiga mos kelishi va oquv-uslubiy nashrlarga qo'yilgan talablarga javob berishi kerak;

- U mutloq yangi yoki birinchi marta e'lon qilinayotgan bo'lishi, shuningdek, umumiy, maxsus va fakultativ darslarga mo'ljallangan bo'lishi ham mumkin;

- sinf yoki bo'limning mazmunini ochib berishi, o'quv-uslubiy maqsadga erishish uchun yetarli hajmga ega bo'lishi lozim;

- o'quv-uslubiy maqsadlarga erishishga xizmat qiluvchi ovozi, illyustrativ elementlarni o'z ichiga olish, ya'ni undan kompyuterning multimediali imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish lozim;

- MIO'UMda boshqa boblar, mavzular, kerakli atamalarga gipermurojaat qilish, zarur bo'lganda tashqi veb manbalarga va resurslarga murojaat qilishni o'zida jamlashi kerak;

- o'quvchining o'quv materialini o'zlashtirish va mustaqil baholash uchun o'z-o'zini tekshirish imkonini beruvchi nazorat savollariga ega bo'lishi kerak.[1]

MIO'UMni yaratish jarayoniga turli yo'nalish bo'yicha mutaxassislarni jalb etish zarur. Hech bo'lmaganda, ularning fikrlarini o'rganib chiqish kerak. Bu mutaxassislarga o'qituvchi, psixolog, testolog (o'qitish natijalarini nazorat qilish usullari bo'yicha mutaxassis), shakllar dizayneri yoki veb-usta, dasturchilar kiradi.

MIO'UM ham xuddi boshqa qo'llanmalar singari ta'lim mazmunini tashuvchi va o'qitish omili bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda MIO'UMning multimediali dars, multimediali darslik, multimediali kurs turlari mavjud.

MIO'UMni yaratishni loyihalashda quyidagi asosiy psixologik talablar qo'yiladi:

- mazmunning ilmiyligi;

- ochiqlik;

- maqsadga yo'nalganlik;

- motivlashtirishni ta'minlash;

- kirish nazoratini mavjudligi;

- o'qitishni individuallashtirish;

- o'qitishni hamkorlikda olib borishni ta'minlash;

- mantiqiy va tizimli fikrlashni shakllantirish;

- tizimli teskari aloqani ta'minlash;

- rivojlangan yordam tizimining mavjudligi;

- o'quv materialini to'liqligi;

- intellektual yadroning mavjudligi;

- pedagogik egiluvchanlik;

- ikki tomonlama muloqatni ta'minlash;

- orqaga qaytish imkoniyati;

- o'quvchining refleksi uchun maxsus ajratilgan joyning mavjudligi;

- o'qitish jarayonining borishi va uning natijalarini hujjatlashtirish imkoniyati;

- tuhunarli, qulay interfeysning mavjudligi;

- dasturning statistik (matnli, grafik, illyustrativ) qismlarning aniq nusxasini olish imkoniyatini ta'minlash;

- rivojlangan qidiruv tizimining mavjudligi.

Keyingi bosqichlarda MIO'UMni bezash usullari ishlab chiqiladi. Bezash jarayonida ham, albatta, mutaxassislar bilan hamkorlikda ish olib borish maqsadga muvofiqdir.

Interfaol metodga ham to'htalib o'tamiz. Bu o'quvchilarga nima beradi darsga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi va mustaqil ishlashga ko'nikma hosil bo'ladi.

Sinkveyn metodi

Metodning maqsadi: “Sinkveyn” soʻzi frantsuzcha soʻzdan olingan boʻlib, “besh misradan iborat sheʼr” tarjimasini beradi. Amaliyotda “Sinkveyn”: murakkab axborotlarni sintezlash quroli va tushunchalar zahirasini baholash vositasi; ijodiy ifodalilik vositasi sifatida juda foydalidir. “Sinkveyn” tayanch kasbiy tushunchalar va axborotlarni refleksiylash, sintezlash va umumlashtirishda tezkor vosita hisoblanadi.

“Sinkveyn” tuzish qoidasi quyidagicha:

- birinchi qatorda bir soʻz bilan mavzu yoziladi- odatda ot turkumidagi oid soʻz bilan;
- ikkinchi qatorda mavzu ikki soʻz bilan taʼsvirlanadi- sifat turkumiga oid ikki soʻz bilan;
- uchinchi qatorda ushbu mavzu boʻyicha xatti-harakatlar uch soʻz bilan taʼsvirlanadi;
- toʻrtinchi qatorda mavzuga aloqadorlikni koʻrsatuvchi toʻrtta soʻzdan iborat gap yoziladi;
- beshinchi qator mavzu mohiyatini takrorlovchi bir soʻzdan iborat sinonim shakllantiriladi.

Sinkveyn Excel dasturida tuzilgan

Ot	<i>MS Excel</i>
Sifat	<i>Matn, raqam</i>
Feʼl	<i>kiritadi, hisoblaydi, qayta ishlaydi,</i>
Jumla	<i>maʼlumotlarni grafik koʻrinishda tasvirlaydi,</i>
Sinonim	<i>jadval</i>

SWOT – tahlil metodi

Gʻoya, jarayon, tajriba hamda ish natijalarini tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yoʻllarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, analitik tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

SWOT – tahlil toʻrt yoʻnalishda olib boriladi:

S – (strength) – kuchli tomonlari

W – (weakness) – zaif, kuhsiz tomonlari

O – (opportunity) – imkoniyatlari

T – (threat) – toʻsiqlar

Misol: Ms Excel dasturidan foydalanishning SWOT tahlili.


S – kuchli tomonlari. Jadvalli protsessor, elektron jadvallarni yaratish va qayta ishlash uchun dastur. Dasturning kuchli matematik va muxandislik funktsiyalari tabiiy va ijtimoiy fanlar sohalorida ham koʻplab vazifalarni hal qilish imkoniyatlarini beradi.	O – imkoniyatlari. Hamma sohalarda ishlatilishi, Ishlashda qulaylik uchun bir nechta kitoblarni ishchi maydonda birlashtirish mumkin va uni bitta fayl deb hisoblash mumkin.
W – zaif, kuhsiz tomonlari. Faqat elektron jadval koʻrinishida ifodalash mumkin boʻlgan masalalarni echish uchun moʻljallangan	T – toʻsiqlar. Matematik va shu kabi ayrim soxadagi ifodalarni yozishdagi noqulayliklar mavjud.

Nilufar guli metodi

Рисунок	Картинка	Фигура	Сумма	Мин	Макс	Анимация	Дизайн	Переходы
Гиперссылка	Word	Диаграмма	Средн	Excel	COS	Шаблон	Power Point	Стили фона
Закладка	Верхний колонтитул	Надпись	Если	Счет	ABS	Видео	Аудио	Формула
Картинка	Доступ	Найти	Word	Excel	Power Point	Таблица	Форма	Модуль
Учеба	OneNote	Дата Время	OneNote	Office пакети дастурлари	Access	Запрос	Access	Схема данных
Видео	Аудио	Рисование	Outlook	InfoPath	Publisher	Отчет	Макрос	Шаблон
Календар	e-mail	Год	Конструктор форм	Визуал компотента	База данных	Бланка	Буклеты	Календар
еремия	Outlook	Мессеж	Меню	InfoPath	Форма	Плакат	Publisher	Шаблон
Шаблон	Заметка	События	Просмотр	Шаблон	Библиотека	Меню	Каталоги	Рекоменд

KLASTER TEKNOLOGIYASI

Fikrlarni tarmoqlash – bu pedagogik strategiya bo‘lib, u tinglovchilarning biron bir mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam berib, mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog‘lagan holda tarmoqlashlariga o‘rgatadi.



Keys metodi


1-keys metodi: Bizga ma'lumki Informatika va axborot texnologiya modulining Word matn muharriri imkoniyatlarini ochib berishda bu amaliy dasturlar paketi orqali foydalanuvchi amaliy topshiriqlarni osongina echimini olish va undan unumli foydalanishni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'lgan.

Keys savollari:


1. Matnga rasmlar qo'yish qanday bajariladi.
2. Gipersso'lkalar bilan ishlash usullarini ko'rsating.
3. Murakkab jadvallar bilan ishlash usullarini ko'rsatib bering.

Keysni echish jarayoni:

1. Hujjatga rasm qo'ying. Hujjatga rasm qo'yish uchun ikki xil usuldan foydalanamiz. 1. Buning uchun **Vstavka – Risunok** buyruq'i bajariladi. Natijada quyidagi oyna hosil bo'ladi. U erda kompyuter hotirasidagi yani **Rabochi stoldami**, yoki **Lokalniy disk (D)**, **Moi dokumenty** da turgan rasmni tanlanlasangiz **Imya fayla** degan joyga nomi tushadi va **Vstavit'** tugmasining ustida sichqoncha chap tugmasini bir marta bosning.



Quyidagi oyna hosil bo'ladi.




2. Buning uchun **Vstavka-Risunok-Kartinka**-buyruqlar ketma-ketligi bajariladi. Natijada ekranning o'ng tomonida quyidagi oyna hosil bo'ladi. **Nachat'** tugmasini bosib. Kerakli rasmini tanlab, uning ustida sichqoncha chap tugmasini bir marta bosib.




Keysni yechish jarayoni:

1. Matn bilan gipersso'lkalar bilan ishlashni ko'rsatib berib. **Vstavka** menyusidan **Ssilki** bandiga kirib uning ichidan **Giperssilka** tugmasini bosib. Natijada quyidagi oyna hosil bo'ladi.




Sarlavhani ssilka qilish uchun quyidagi oyna hosil bo'ladi.




Kerakli faylni tanlab OK tugmasi bosiladi.

Keysni echish jarayoni:

1. Matnga jadval qo'yish uchun **Vstavka-Tablitsa-Vstavit tablitsu** buyruqlar ketma-ketligini bajaring.



2. **Chislo stolbtsov** – maydoniga jadvaldagi ustunlar soni, **chislo strok** maydoniga jadvaldagi qatorlar soni kiritiladi va OK tugmasi bosiladi.



3. Jadval o'lchamini o'zgartirish uchun kerakli ustun chizig'i ustiga sichqoncha tugmasi olib kelinadi. Sichqoncha chap tugmasini bosgan holda kerakli o'lchamga keltiriladi.

№	F.I.SH	Qilingan ishlar	Bajariladigan ishlar			Natija
			2018	2019	2020	

4. Jadvalga satr qo'shish uchun TAB tugmasi bosiladi. Jadvalga kataklarni (yacheyka) birlashtirish uchun kataklar belgilanadi va **Tablitsa – Ob'edinit yacheyki** buyruqlar ketma-ketligi bajariladi.

O'quvchilar uchun ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini etarlisha anglab oling.
2. Muammoning echimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida echimni asoslashga urining.
5. Echimni bayon eting.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim olish jarayonida MIO'Umlardan foydalanish o'quvchilarni mustaqil bilim olishi, mantiqiy firklashi, faqat o'quv muassasalarida emas balki, istalgan joyda bilim olishlarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Fizika, matematika va informatika. Ilmiy-uslubiy jurnal. Toshkent-2019. №1, B-67-80.
2. N.I.Taylaqov. Elektron darslik yaratishga qo'yiladigan talablar// Xalq ta'limi.-2005.-№2. – B. 17-20.
3. Fizika, matematika va informatika. Ilmiy-uslubiy jurnal. Toshkent-2019. №2, B. 18-25.
4. Boltayev B.B. Informatika darslik-T.: «O'qituvchi», 2010 y.
5. Abduqodirov A., Xaitov A., Rashidov R. Axborot texnologiyalari.- T.: «O'qituvchi», 2002 y.
6. Qodirov T., Ernazarov A. Kompyuterda ishlashni o'rganamiz. Metodik qo'llanma. A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI, 2006 y.

UO'K 159.923.2

O'QUVCHILARNI O'Z-O'ZINI ANGLASHGA O'RGATISHNING ICHKI OMILLARI HAMDA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

P.f.n.dotsent, Djurayev Qambarali Baxramovich
Namangan viloyati XTXQTMOHM o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasi
PhD, Inamov Dilmirza Dadamirzayevich
Namangan viloyati XTXQTMOHM, kafedra mudiri, O'zbekiston Respublikasi
Tajibayeva Ma'mura Tojidinovna
Namangan viloyati XTXQTMOHM o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya. Maqolada o'quvchining o'zini jamiyat a'zosi deb bilishni anglash, atrof-olam, jamiyat a'zolari bilan o'zaro munosabatlarini boshqarishga o'rgatish aks ettirilgan. Shuningdek, o'zlikni anglash – o'zini jamiyat a'zosi deb bilish, atrof-olam, jamiyat a'zolari bilan o'zaro munosabatlari, kuchi, xatti-harakatlari, fikrlari va tuyg'ularini anglab yetish hamda o'ziga bir butun ongli mavjudot sifatida munosabatda bo'lish yoritilgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, o'zlikni anglash, jamiyat a'zosi, fikr, tuyg'u, axloq, shaxs, g'urur, vijdon, yolg'on.

UDC 159.923.2

INTERNAL FACTORS AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR TEACHING STUDENTS TO CONSCIOUSNESS

Associate-professor, Djurayev Qambarali Bakhramovich
Namangan Regional of Retraining and In-service Training of Public Education Employees, Uzbekistan
Head of the Department, PhD, Inamov Dilmirza Dadamirzayevich
Namangan Regional of Retraining and In-service Training of Public Education Employees, Uzbekistan
Lecturer, Tajibayeva Mamura Tojidinovna
Namangan Regional of Retraining and In-service Training of Public Education Employees, Uzbekistan

Brief abstract. The article deals with the understanding of the student and his perception of being a member of the society, the management of the environment, and the interaction with the members of the society. In addition, self-awareness is the perception of oneself as a member of society, the relationship with the environment, members of society, power, behavior, thoughts and feelings, and the integration into oneself to be treated as a conscious being.

Keywords: society, self-awareness, member of society, thought, feelings, moral, pride, conscience, lie.

O'zlikni anglash – o'zini jamiyat a'zosi deb bilish, atrof-olam, jamiyat a'zolari bilan o'zaro munosabatlari, kuchi, xatti-harakatlari, fikrlari va tuyg'ularini anglab yetishdir. Bu o'zini anglash va o'ziga bir butun ongli mavjudot sifatida munosabatda bo'lishdir.

O'z ustida muvaffaqiyatli ishlash, birinchi navbatda, o'zini, o'zining kuchli va zaif qirralarini tushunib yetish, jamoadagi mavqei, o'rni va ahamiyatini anglab yetish, kelajagini mustaqil belgilay olish, ya'ni o'zligini anglashning muayyan darajasini nazarda tutadi.

O'zlikni anglash shaxs va jamiyat hayotida turmush tarzi, jamiyat a'zolari bilan munosabatlarni to'g'ri tashkil qilish, muloqotning turli shakllarida o'z axloqini boshqarishda muhim o'rin tutadi. O'zlikni anglash darajasining yuqori bo'lishi ijtimoiy me'yorlarni bilish va jamiyat a'zolarining ijtimoiy fikrga hurmat bilan qarash atrof-dagilarning axloqiy tubanlashuviga to'siq bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari

o'zlikni anglash darajasining yuqori bo'lishi g'ayri ijtimoiy individlarning salbiy ta'siridan saqlaydi. Vijdon azobidan qo'rqish, atrofdagilar nazarida o'ziga ishonch va g'ururining poymol qilinishini xohlamaslik, shaxsni noloyiq, axloqsiz xatti-harakatlardan tutib turadi. g'ururli, vijdonli inson yolg'onning kishilar va jamiyat uchun naqadar katta kulfat keltirishi mumkinligini yaxshi anglaydi va hech qachon haqiqatga xilof ish qilmaydi. Bunday shaxs jamiyat a'zolari o'z-o'zini hurmat qilishga qodir bo'ladi. Tuban hislar va mayllar quli bo'la olmaydigan insongina shaxs bo'la oladi, jamiyatning ma'naviyatli, ma'rifatli a'zosi bo'lib yetishadi.

O'zlikni anglash ham xuddi ong kabi tarbiya va insonning faol harakati jarayonida muntazam rivojlanib boradi. S.L.Rubinshteynning ta'kidlashicha: «Inson shaxsining shakllanishi o'zida o'zining uzviy qismi sifatida shaxs ongi va uning o'zligini anglashning shakllanishini mujassamlashtiradi. Bu ongli shaxsning rivojlanish jarayonidir» [109-676]. O'zlikni anglashning shakllanishi shaxs ma'naviy rivojlanishining negizidir. Bu shaxs ongining ijtimoiy yo'nalganligiga bog'liqdir.

O'zlikni anglash bilish hosilasidir. Bilish jarayoni uchun esa shaxsning o'z kechinmalarini ijtimoiy borliq bilan bog'liq ekanligini anglash talab qilinadi. Shunday qilib, o'zlikni anglash ikki tarkibiy qismdan iborat: anglash («men yomonman») va bilish («nima uchun men yomonman va bu nimaga bog'liq»). O'z-o'zini bilish birdaniga, to'satdan namoyon bo'lmaydi. Inson o'zini bilishga bilimlarni egallash, kishilar bilan muloqot, faoliyat jarayonida o'rganadi. U kishilar xarakteri, ularning axloq motivlarini qanchalik ko'p bilsa, turli hayotiy vaziyatlarda odamlarni qanchalik ko'p kuzatsa, atrofdagilar, tarixiy shaxslar hayoti, badiiy asarlar qahramonlarini qanchalik ko'p o'rgansa, o'zining mohiyatini ham shunchalik teranroq tushunadi.

Shakllanib, rivojlanib boradigan anglash-murakkab hodisadir. Chunki, bu yerda bilishning o'ziga xos shakli namoyon bo'ladi: shaxs bilishning ham obyekt, ham subyekt sifatida namoyon bo'ladi. So'z shaxs xarakterining salbiy qirralarini bartaraf qilish to'g'risida ketganda, o'zlikni anglash kishidan o'ziga qat'iy va ayovsiz munosabatda bo'lishni talab qiladi. Chunonchi, kimlardir ish yoqmaslik odatini yengish uchun o'zini ikki-uch marta ko'proq hajmda ish bajarishga majbur qiladi, o'zini idora qila bilishni tarbiyalash uchun esa ko'ngil ochar tadbirlar, turli mayl, xoyu-havaslardan o'zini tiyishga, xafagarchilik hissini so'ndirishga harakat qiladi.

O'z axloqi mexanizmini tushunib yetish, o'zining har bir xatti-harakati, mayllari mohiyati va oqibatini chuqur anglashi uchun sezgi jismlariga ega bo'lishning o'zi yetarli emas. Jism yuzasidagi eng mayda zarralar, gullarning eng nafis jilolarini ilg'ab olishga qodir ko'rish qobiliyatiga ham ega bo'lish va ayni paytda o'zining harakatlaridagi qo'pollikni ko'ra olmaslik mumkin. Kishi eng mayin, nafis tovushlarni eshitishga qodir bo'lsa-da, o'zgalar iztirobi, ularning qalb nolalarini eshita olmasligi mumkin. Demak, sezgi jismlaridan tashqari or-nomus, vijdon, hozirjavoblik, adolat, burch, insoniylik kabi ma'naviy xislatlarni ham tarbiyalash, ya'ni o'zlikni anglashning muayyan darajasiga erishmoq lozimdir. Bunda shaxs shakllanishi jarayonining uzviy qismi bo'lgan o'zlikni anglash yuqoriroq darajaga ko'tariladi. Pedagogik nuqtayi nazardan o'zlikni anglash ko'nikmasining rivojlanishi birinchi navbatda, kishi dunyoqarashi bilan bog'liq bo'lgan o'z-o'zini baholash va tahlil usullarini egallab olish demakdir.

O'zlikni anglashning rivojlanishi inson mohiyati qirralarining har tomonlama qamrab olinishi, ularning har birini teran tahlil etishi bilan rivojlanuvchi tarmoq bo'ylab harakat qiladi: bilmaslikdan bilishga, ya'ni shaxs rivojlana borgani, hayotiy tajribasi ortgani sari o'zlikni anglash ko'nikmasining takomillashuvi shiddatliroq va serqirraroq bo'la boradi. Shu sababli o'smirlik yoshi boshlanishi bilan o'z-o'zini bilish tugal holatda namoyon bo'lmaydi, balki bir necha bosqichlardan o'tadi.

O'smirlarda o'zligini anglash darajasini o'rganish, ular o'zligini anglashining o'ziga xos qirralari, zaif bo'g'inlarini aniqlash tarbiya yo'nalishlarini belgilab olish imkonini beradi. Shuningdek, bu shaxs tomonidan axloqiy me'yorlarning anglanish darajasini belgilash, mazkur bosqichda kam rivojlangan xislatlarni aniqlash va shu asosda o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash, ayniqsa, zarur ma'naviy xislatlarni shakllantirish bo'yicha muayyan maqsadga yo'naltirilgan pedagogik tadbirlarni amalga oshirish imkonini beradi.

O'smirlarning o'zligini anglash darajasini o'rganishning qator metodlari mavjud. Bular: anketa so'rovi (4-ilovaga qarang), yozma ishlar.

Yozma ishlarni quyidagi mavzularda o'tkazish maqsadga muvofiqdir: «Sen kimga o'xshashni xohlarding va nima uchun?», «Sen o'zingda qanday xislatlarni tarbiyalashni xohlaysan?», «Sen o'z do'stingda qanday xislatlarni ko'rishni istaysan?», «Sen nimaga intilayapsan?».

Anketa savollariga javoblar va yozma ishlar boshqa metodlar uyg'unligida shuni ko'rsatdiki, ilk o'smirlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash bo'yicha dastlabki qadamlari kattalar, tengdoshlari, aniq timsollarga taqlid qilishdan boshlanar ekan. Odatda, o'quvchilar bu yoshda maktab va uyda maqtov eshitish uchun o'zlarida mehnat va o'quv ko'nikmalarini hosil qilishga intilishadi. Bu ko'proq faoliyatning alohida turlari bilan bog'liq eng oddiy xislatlar va ko'nikmalari: o'z vaqtida o'rindan turish,

uydagi eng oddiy foydali ishlarni bajarish, kun tartibiga rioya qilish, o'quv fanlarini o'zlashtirishni yaxshilash kabilar.

Ilk o'smirlik yoshidagi o'quvchilar dastavval o'zlariga ko'ngilsizlik keltiruvchi kamchiliklar (ishyoqmaslik, besaramjonlik, qat'iyatsizlilik, va besabrlik)ni tezroq anglab yetishadi. Bu kamchiliklarni his qilish ularning o'zlari ustida ishlashlarining dastlabki ko'rinishidir. U yoki bu xatti-harakatlar to'g'risida ular alohida xislatlarning tashqaridan namoyon bo'lishiga qarab, ularni chuqur idrok etmay hukm chiqarishadi. Shu sababli kichik yoshdagi o'smirlarda o'z-o'zini tanqid juda zaif rivojlangan, ular ko'proq ota-onalari, kattalar ko'rsatgan kamchiliklarni idrok qilishadi («Onam o'jarsan» deydi, shunaqa bo'lsam kerak).

Ilk o'smirlik yoshidagi o'quvchilarning javoblarida axloqiy sifatlarni chuqur anglashdan guvohlik beruvchi qirralar hali juda oz. Alohida xislatlarni tarbiyalash esa ularning natijalari tezda his qilinsa, intilishlar namoyon bo'lgandagina muvaffaqiyatli kechishi mumkin. Demak, bu yoshda o'z ustida ishlash yaqin maqsadlarga erishishga qaratilgan, shu bilan bir qatorda tarbiyachining muntazam undab turuvchi nazorati va yordami zarur. Agar ilk o'smirlik yoshidagi o'quvchilarning o'z ustida ishlash faoliyati yo'naltirilmasa, bu jarayon to'xtab qolishi mumkin. Bu hol amaliyotda yaqqol ko'rinadi.

O'smir yoshidagi o'quvchilarning rivojlanishida burilish davri birinchi navbatda o'zlikni anglashning shakllanishi bilan bog'liq. Bu davrda bolalikdan kattalar holatiga, g'o'rlikdan balog'atga kabi o'ziga xos o'tish jarayoni yuz beradi. O'smir o'zining axloqi, atrofidagilar bilan o'zaro munosabati ustida bosh qotira boshlaydigan davr boshlanadi. U o'zini shaxs sifatida angelay boshlaydi. Ma'naviy idealni izlash, o'z orzusini amalga oshirishga intilish uning asosiy maqsadiga aylanadi, ilk intim hislar uyg'onadi, shu sababli ular ulg'aygach ularning axloqiy sifatlari doirasi ilk o'smirlik yoshidagi o'quvchilarga nisbatan ancha kengayadi. O'smir yoshdagi o'quvchilar shaxsdagi mas'ullik, insoniylik, boshlagan ishni oxiriga yetkazish, bir so'zlik kabi hislatlarni tushunishlarini namoyon qila boshlaydilar.

«Do'st birinchi navbatda bir so'zli, odil bo'lishi kerak, - deb yozadi Namangan tumanidagi 21-umumiy o'rta ta'maktabning 8-sinf o'quvchisi Aziza, aytishadiki, do'stlar bir-biriga yon berishi, shirin gaplarni gapirishlari kerak. Lekin qanchalik og'ir bo'lmasin hal qiluvchi paytda hamisha haqiqatni gapirish kerak, bo'lmasa qanday do'st bo'lding?».

«Sen qanday salbiy odatlardan qutulishni istaysan?»,- degan savolga berilgan javoblardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, o'smirlar ulg'aygan sari salbiylarga qaraganda ko'proq ijobiy xislatlarni anglab yetishgan, salbiy odatlar sirasiga asosan qaysarlik, ishyoqmaslik, irodasizlik, qiziqqonlik, o'zbilarmonlik kabilarni kiritishgan.

O'smir yoshdagi o'quvchilar hayotiy maqsad, kelajak, kasb, fuqarolik burchi va hokazolar to'g'risida o'ylay boshlaydi. Turli xildagi faoliyat turlariga qiziqish paydo bo'lgani sababli mustaqil ma'lumot olishga bo'lgan extiyoj kuchayib boradi. Ular o'zlarini qiziqtirgan savollarga o'zlari javob axtaradilar, ilmiy-metodik, memuar, badiiy adabiyotlarni o'qiydilar. Intensiv ichki faoliyat kuzatiladi. Natijada o'z hayot yo'lini belgilashga intilish paydo bo'ladi va shu asosda o'z-o'zini takomillashtirishga ongli qadam qo'yadilar. Bu yoshdagi bolalar uchun o'z ustida ishlash, bilim doirasini kengaytirish, faoliyatning asosiy turlari bilan qiziqish kuchayadi. Bilish faoliyati bilan bir qatorda ijtimoiy-axloqiy muammolar ham ko'proq o'rin egallay boshlaydi, mehnat malakalarini egallashga intilish faollashadi.

O'smir yoshdagi o'quvchilar oldilariga yaqin maqsadlar bilan bir qatorda uzoq maqsadlarni ham ham qo'yishadi. Ularning o'zlari ustida ishlash rejaları kasb tanlash, xarakter va ma'naviy xislatlarni shakllantirish bilan bog'liq istiqbolli yo'nalishga asoslangan. Ular o'z axloqlarini faolroq tahlil qiladilar, kuchli va zaif tomonlarini belgilaydilar, qanday xislatlarni rivojlantirib, qaysilardan xalos bo'lish kerakligini angelay boshlaydilar. Bu yoshda idealga bo'lgan intilish juda kuchli bo'ladi, natijada salbiy xislatlarni bartaraf qilish istagi ham kuchayadi. Kamchiliklarni tuzatish kattalar ko'rsatmasi bilangina emas, balki ichki undovlar bilan ham yuz beradi, chunki ular o'z xatti-harakatlarini anglab yetadilar va axloqlarini baholay oladilar. Axloqiy xislatlar mavhum tarzda emas, balki o'zlari qo'llagan holda anglana boshlaydi, ya'ni o'zining shaxs sifatidagi ahamiyati, qiziqishlarini aniq-ravshan tushunish sodir bo'ladi. O'zlikni anglash asta sekin, tadrjijiy rivojlana boradi.

O'zlikni anglashning asosiy qismlari va uning mezonlari o'z-o'zini baholash va o'z-o'zini tahlil qilishdir. Shuning uchun o'zlikni anglashni rivojlantirish birinchi navbatda o'z axloqi va faoliyatini obyektiv, xolis baholash va tahlil qilishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Yuqori sinf o'quvchilarida o'zlarining va atrofdagilarning xatti-harakatlarini tanqidiy baholashga intilish yaqqol namoyon bo'ladi. O'z-o'zini baholash o'z-o'zini tarbiyalashga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. O'z shaxsini to'g'ri baholashni shakllantirish o'z-o'zini tarbiyalash, o'zlikni anglash sari qo'yilgan ilk qadamdir. O'z-o'zini baholash shaxsning hayotdagi o'rnini aks ettiradi, shaxsning vazifasi sifatida axloqqa nisbatan bo'lgan taktikasini belgilaydi va uni hal qilishning tarkibiy qismi deb hisoblaydi.

O'smir yoshdagi o'quvchilar o'zlarini qanday baholaydilar? Ularning o'z-o'zlarini baholashlarida qanday ko'rsatkichlar asosiy mezon bo'lib hisoblanadi? Bu baho qay darajada xolis va faoliyatning qaysi turlarida to'laroq namoyon bo'ladi? Kuzatishlar, o'quvchilar bilan suhbatlar, yozma ishlar, anketa so'rovlari va tadqiqotning boshqa usullari o'smirlarning o'z-o'zini baholashiga nima ko'proq ta'sir ko'rsatishi va nimalar uning asosiy mezoni ekanligini aniqlashga yordam beradi.

O'smir yoshdagi o'quvchilar uchun baholashda mustaqillikka intilish, olam va o'ziga o'zining va tengdoshlarining ko'zi bilan qarashga intilish xarakterlidir. Bu yoshda barcha obro'lar gumon ostiga olinadi, yangidan tekshirilib ko'riladi. Xususiy fikr va mulohazalar shakllantiriladi. «Inson bo'lish uchun dastavval o'zingni tekshirib ko'r, o'zingning qarashlaring, baholaring, fikrlaringni tekshirib ko'r, hamma narsaga o'z qarashlaringni shakllantirishing kerak. Shu narsa bo'lmas ekan, sen xali inson emassan» (8-sinf o'quvchisining inshosidan).

O'quvchilarning o'z-o'zini baholashi bilan pedagogik baholar qiyoslab ko'rilganda ma'lum bo'ldiki, ko'p hollarda o'smir yoshdagi o'quvchilarning o'z-o'zini baholashi, o'z-o'zini tanqid kuchli bo'lgani uchun past baho qo'yishga mayl kuchli ekan. Doimo maqtaladigan, erkalatib yuborilgan o'smirlarda esa manzara aksincha, ular o'zlarining sifatleri, iqtidori va imkoniyatlarini oshirib baholashgan.

Tarbiyaning vazifasi – o'quvchilarni o'z ustida ishlashga yo'naltirish, ularning haqiqatga mos keluvchi o'z-o'zini baholashga o'rgatishdir.

O'smirlar o'zlarining o'rtoqlari fikrlarini juda qadrlashadi. Baholarni aniqlashda sof tashqi tomonlarning ta'siri kuzatiladi. O'rtoqlariga baho berishda ular birinchi o'ringa «Kuchli, jasur, hech nimadan qo'rqmaydi» kabi xislatlarni qo'yishadi, bu xislatlardangina «ko'p biladi, hamma narsani qila oladi, hozirjavob, nomusli, adolatli» kabi xislatlar ko'rsatiladi. Ota-onalarning fikri ko'proq ular o'z ishlarini sevsalar, yuqori axloqiy xislatlarga ega bo'lsalar obro'li bo'ladi.

O'smir yoshdagi o'quvchilar faoliyatning qaysi turida va qay darajada o'zlarini yaxshiroq anglashlarini aniqlash maqsadida «Sen qachon o'zingdan norozi bo'lasan va qaysi hollarda senda o'z axloqingni o'zgartirish istagi tug'uladi?» mavzusida o'tkazilgan yozma ishlar yaxshi natija berdi.

Ta'kidlash joizki, 5-6-sinf o'quvchilari o'zlarining faoliyatini 1 yoki 2 turda baholashadi. (masalan, o'quv, o'yin turlarida) 7-8-sinf o'quvchilari esa bir necha turlarda: o'quv, ijtimoiy foydali, sport, o'yin, ijodiy va boshqalarda. Bu yoshda ma'naviy muammolar va shaxsning o'zini tasdiqlashi bilan bog'liq bo'lsa barchasi jamoadagi o'zaro munosabatlar, o'rtoqlari bilan muloqot, ijtimoiy faoliyat, jamoat ishlarida oldingi rejaga chiqadi.

Demak, o'smir yoshdagi o'quvchilar shaxsiy sifatlarining anglanishi ko'proq jamoa manfaatleri bilan bog'liq o'quv faoliyati, oiladagi o'zaro munosabatlar ko'pincha keyingi rejaga tushib qoladi.

O'zlikni anglashning rivojlanishi va o'z-o'zini baholashning shakllanishiga jamoa juda katta ta'sir ko'rsatadi. Juda ko'p hollarda esa o'quvchilarning o'z-o'zini baholash darajasi sinf jamoasining rivojlanganligi darajasiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq. Yaxshi uyushgan o'quvchilar jamoasida o'z-o'zini baholashning xarakteri ham o'zgaradi, uning chegaralari kengayadi.

O'z-o'zini shakllanishda jamoa beradigan baho muhim ahamiyatga ega. Odatda jamoa bahosi juda hissiy va axloqiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham jamoa bahosining ehtiyotkorlik bilan qo'llash va birinchi navbatda sinf jamoasi rivojlanganligini hisobga olish kerak. Uyushmagan, noahil jamoada natija butunlay aksincha bo'lib chiqishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Umumiy psixologiya. A.V.Petrovskiy tahririda. "O'qituvchi" nashr., T., 1992.
2. V.M.Merlin. Ocherk teorii temperamenta M., "Pross-e"., 1964.
3. Merlin V.S. Ocherk integral'nogo issledovaniya individual'nosti- M., 1986.
4. A.G.Kovalev. Psixologiya lichnosti, X bob. M., "Pros", 1970.
5. V.M.Karimova, F.A.Akramova. Psixologiya. T., 2000.
6. Nemov R.S. Psixologiya- V 2-x kn. Kn.1.- M., 1998.
7. S.A.Rubinshteyn. Основы общей psixologii "Pros-e" M. 1989.
8. Populyarnaya psixologiya. Xrestomatiya B.V.Mironenko. M., 1990

UO'K 159.928.235

O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH VA O'RGATISHNING MUHIM JIHLTLARI

Ismatov Ahadjon Mo'ydinjonovich

NamDU mustaqil izlanuvchisi, Namangan viloyati XTXQTMOHM Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta'lim metodikasi kafedrasi mudiri, O'zbekiston Respublikasi

E-mail: ahadjon_ismatov@inbox.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quv mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish, rivojlantirish shakllari, yo'llari, interfaol usullari, imkoniyatlari xususida batafsil ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, ta'lim jarayoni, mustaqil fikrlash, interfaol usullar.

UDC 159.928.235

IMPORTANT ASPECTS OF DEVELOPING AND TEACHING CRITICAL THINKING IN STUDENTS

Ismatov Akhadjon Muydinjonovich

Independent researcher of NamSU (Phd student), Namangan Regional IRCFPES, head of department of methodology of practical sciences and out-of-school education, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. This article discusses the formation of critical thinking in the learning process. In addition, the article presents examples of interactive methods and provides information on the forms, methods and possibilities of developing critical thinking in students.

Keywords: critical thinking, learning process, independent thinking, interactive methods.

Buyuk mutafakkirlarimiz Xorazmiy, Farobiy, ibn Sinolar ta'kidlagandek, bolaning mustaqil tanqidiy fikrlashi jarayonida o'zlashtirilgan bilimlari biror-bir manbadan tayyor holda olingan bilimlar bilan qiyoslaganda katta afzallikka ega. To'liqroq va tezroq rivojlangan bu bilimlar o'quvchilar e'tiqodiga, ular tafakkuri hamda faol amaliy-tanqidiy fikrlashi quroliga aylanadi. Tanqidiy fikrlashning ijodiy manbalari qadim zamonlarga borib taqaladi. Uning faolligi yaxshi xotiralanishga imkon yaratishi, narsalar, jarayonlar va hodisalar mohiyatiga chuqur kirib borishiga yordam berishi ko'hna zamonlardayoq ma'lum bo'lgan. [1]

Tanqidiy fikrlovchi o'quvchi atrof-olaning keng qamrovli tafakkur maydonidan umuminsoniy qadriyatlar doirasidagi turfa nuqtayi nazarlarni ilg'ay biladi. Ta'lim sifati haqida so'zlar ekanmiz, biz aksariyat olinadigan ta'lim darajasining zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga muvofiq kelishini, istiqbolda ushbu shart-sharoitlarning o'zgarishini hisobga olishni, ta'limning qadr-qimmatini oshiruvchi qo'shimcha parametrlar (qo'shimcha ta'lim, ta'limning boshqa sohalar bilan aloqadorligini ta'minlash va h.k.) ni nazarda tutamiz. Tanqidiy tafakkurni shakllantirish o'z-o'ziga va olamga nisbatan variativ, mustaqil, ongli nuqtayi nazarga ega tayanch munosabatlarning tarkib topishini nazarda tutadi. Bu xil nuqtayi nazar ta'limning ishonchli bo'lishini ta'minlaydi, chunki u haqiqatan ham ongli va reflektiv bo'lib, shaxsning kommunikativ imkoniyatlarini kengaytiradi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim texnologiyasini ishlab chiqishda tanqidiy fikrlashning o'ziga xos qator jihatlarni inobatga olish zarur. [2]

Texnologiya fani misolida kreativ kompetentlikni shakllantirish uchun o'quvchilar ijodiy qobiliyatini samarali rivojlantirishga yo'naltirilgan quyidagi omillarni taklif qilaman:

a) O'quv mashg'ulotlari davomida o'quvchilarni o'zlari tayyorlagan buyumlari bo'yicha o'z-o'zini namoyon qilishga imkoniyat yaratish.

b) Dars mashg'ulotlarida ijodiy tavsifga ega bo'lgan mahsulotlari to'g'risida o'z-o'zini baholashni yo'lga qo'yish.

v) O'quvchini tayyorlagan buyumi yuzasidan o'z-o'zini tanqid qilish yo'nalishini yo'lga qo'yish.

E'tibor bergan bo'lsangiz, taklifni uchinchi bandida o'quvchini tayyorlagan buyumi yuzasidan o'z-o'zini tanqid qilish yo'nalishini yo'lga qo'yish deb ta'kidlab o'tilgan. Tanqid qilish 3-qismga bo'lish mumkin:

1. Jamoa orasida tanqid qilish.

Ushbu fikrga ikki tomonlama yondashish mumkin:

A) Jamoa orasida tanqid qilishda o'quvchini ruhiyatiga salbiy ta'sir qilish ehtimoli yuqori darjada bo'lishi, natijada ushbu omil o'quvchini fanga bo'lgan qiziqishini susaytirish mumkin.

b) O'quvchining tengdoshlari oldida nutq so'zlashi, sinf o'quvchilari tomonidan bildirilgan fikrlarni nuqtayi nazarini isbotlashi, keyinchalik mashg'ulot jarayonida tegishli auditoriyalar oldida hech

ikkilanmasdan, hayajonlanmasdan nutq so'zlashi ko'nikmasi shakllanadi. Demak, ushbu vaziyatda o'qituvchiga psixologik tomondan yondoshish talab etiladi.

2. Pedagog tomonidan o'quvchini induvidial (yakka tartibda) tarzda tanqid qilish.

Pedagog tomonidan o'quvchini induvidial (yakka tartibda) tarzda tanqid qilinishi o'quvchi va o'qituvchi orasidagi muomala qilish layoqati, ya'ni o'quvchini o'qituvchi tomonidan rag'bat olishga bo'lgan ishonchini pasaytirishi mumkin. O'quvchini darsga yoki mashg'ulotga qiziqtirish yo'llaridan biri rag'batlantirish. (baholash yoki boshqa turdagi, misol uchun qarsak, so'z ifodasi orqali).

3. O'z-o'zini tanqid qilish.

O'z-o'zini tanqid qilish esa o'qituvchi tomonidan bildirilgan fikr yoki munosabat orqali namoyon bo'lib, ancha samarali bo'ladi (sinfdozlarning tayyorlagan mahsulotlarga e'tibor ber va o'zing tayyorlagan mahsuloting bilan solishtirib kamchiliklaringni aniqla. O'zing tayyorlagan mahsulotingga yana qanday o'zgartirish yoki yangiliklar kiritishing mumkin kabi savollar bilan murojaat qilish orqali).

Olib borilgan ko'p yillik kuzatishlardan shu ma'lum bo'ldiki, texnologiya fani dars mashg'ulotlarida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etish pedagogik va psixologik tomondan o'quvchilar uchun juda murakkab bo'lgan jarayondir. Chunki bunda biror yangi buyumni yasashda o'quvchi texnik tafakkur qila olish qobiliyatiga ega bo'lishi, ya'ni topshiriqning mohiyatini anglash, fikrlash, buyum shaklini tasavvur etish va uni amalda tayyorlay olish kabi aqliy va jismoniy ishlarni bajarish qobiliyatini talab etadi. Shu sababli o'quvchilarga mana shunday ijodiy ishlar jarayoniga osonlik bilan kirib keta olmaydilar. O'quvchilarni bunday ijodiy amaliy faoliyatga jalb etish ishlarini yengillashtirish uchun avvalo ularni shu jarayonga tayyorlash, ijodiy fikr yuritishga, tasavvur qilishga va ishlashga yordam beruvchi usullardan foydalanish zarur.

O'quvchilar muayyan muammo bilan shug'ullana boshlasalargina, ularda tanqidiy fikrlash paydo bo'ladi. Buning uchun pedagog "Muammoli ta'lim" metodidan foydalansa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. O'quv jarayonining ya'ni mavzuga aloqador, biror vaziyat yoki hodisaga tegishli bo'lgan eng muhim savol yoki hodisa qanday muammoni vujudga keltirishini anglatadigan savoldir. Faqatgina muayyan muammo bilan kurashib, murakkab vaziyatdan chiqish uchun o'zining shaxsiy fikrlash yo'lini izlagandagina, o'quvchi haqiqatan ham fikrlay boshlaydi. Bu esa o'z navbatida ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlash darajasini rivojlanishiga muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Chunki, tanqidiy fikrlash mustaqil fikrlashning tarkibiy qismidir. Mening fikrimcha esa tanqidiy fikrlash – bilimni o'zlashtirish va mustaqil fikrlashning tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchining voqea, hodisa, borliqni idrok etish imkoniyatini kengaytiruvchi aqliy hodisadir. O'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining shakllanishi ularga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- o'quvchilarning mustaqil fikrlashi kengayadi va shakllanadi;
- o'quvchilar o'z oldilariga aniq maqsadlar qo'ya boshlaydi va ushbu maqsadga erishish yo'llarini, imkoniyatlarini izlaydilar;
- o'quvchilar o'zaro faol muloqotga kirishish ko'nikma va malakasini egallay boshlaydilar;
- o'quvchilarda yangi axborotlarni qidirish va olgan bilimlarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- o'quvchining auditoriyada vujudga kelgan turli fikrlarni tinglash va mushohada qilish ishtiyoqi kuchayadi;
- o'quvchilarda o'z fikrlarini erkin va dadil bayon qilish ehtiyoji vujudga keladi.

SHuning uchun ham o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish jarayonini tizimli tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Tanqidiy fikrlash faol jarayon hisoblanib, bunda o'quvchilar o'ziga ishonchni orttirish va o'z fikri hamda g'oyalarning qadrini tushunishi, o'quv jarayonida faol ishtirok etishi, turlicha fikrlarni e'tibor bilan tinglashi lozim.

Masalan, «Muammoli vaziyat» metodi. Bunda quyidagilar amalga oshiriladi. Ma'lumot yig'ish, ya'ni muammo bilan bog'liq barcha ma'lumotlarni baholab, yangi bilimlarni hosil qilinadi. Vaziyatni aniqlash, hodisa yoki muammoning ko'lami, ijobiy yoki salbiy omillarni ko'zdan kechirgan holda vaziyatni har tomonlama o'rganiladi. Hodisani aniqlash, turli omillarni baholagandan so'ng, mavzuning asosiy xulosasi va ta'rifini bayon qilinadi.

«Muammoni hal qilish», bunda esa quyidagilar amalga oshiriladi. Maqsadni belgilash, ya'ni muammoni qanday hal qilishga doir maqsad qo'yiladi. Maqsadga eltuvchi bilimlarni yig'ish, erishiladigan maqsadga daxldor ma'lumotlarni baholab, mavzu borasida yangi bilimlarni hosil qilinadi. Taklif kiritish, imkon doirasida, maqsadga eltuvchi takliflar kiritiladi. Uslubni tanlash, imkon doirasida takliflar ichidan eng to'g'ri, eng qulay, eng tezkor va eng tejimli afzalliklarga ega bo'lgan taklifni tanlanadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, yaxshi o'ylab topilgan tizim va tanqidiy fikrlash usullaridan oqilona foydalanilish ham o'qituvchining o'quvchiga rejalashtirgan ta'sirlarini mos ravishda qabul qilishi yaxshi natijalar beradi. Shu bois, tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi imkoniyat va vositalar bilan bir qatorda o'quvchilar ichki ruhiyatini ham o'rganish zarur. Pedagogning o'quvchini ixtiyoriy tanqidiy fikrlashini

shakllantirishi, ijobiy ta'sir natijasida ta'limning sifat-samaradorligi oshirishi lozim. Shu boisdan o'quvchilarni darslarda o'zaro hamkorlikda ko'proq bahsli tortishuvlarga sabab bo'ladigan muammolar yechimini topishga jalb etish lozim. Ta'lim jarayonini to'laqonli tarzda o'quvchiga yo'naltirish, uning ehtiyoj va imkoniyatlari, qiziqishlari, iqtidorini hisobga olgan holda muayyan tamoyillar asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quv mashg'uloti mazmuniga mos ravishda o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga undovchi o'quv topshiriqlari tizimini shakllantirish va o'quv jarayoniga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Arabova M, Berdieva F. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy asoslari. Zamonaviy ta'lim. 2014 y.
2. Xodjiev F.O. O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish. Monografiya. – T.: «Fan», 2008 y.

UO'K 374.1

YUQORI SINIF O'QUVCHILARI TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA PSIXOLOGIK METODIKALARDAN FOYDALANISH YO'LLARI

Jo'rayeva Iqbolxon Po'latovna

Namangan viloyati XTXQTMOHM, O'zbekiston Respublikasi

Jo'rayeva Dilafruz Po'latovna

Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumani 14-umumiy o'rta ta'lim maktabi, O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya. Maqolada o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish va mustaqil, tanqidiy fikrlashga o'rgatishda psixologik metodikalardan foydalanish yo'llari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: yuqori sinf o'quvchilari, intellektual salohiyat, mantiqiy fikrlash.

UDC 374.1

WAYS OF USING PSYCHOLOGICAL METHODOLOGIES TO DEVELOP THINKING OF HIGH SCHOOL STUDENTS

Jo'rayeva Iqbolxon Pulatovna

Namangan region XTXQTMOHM, Republic of Uzbekistan

Jo'rayeva Dilafruz Pulatovna

Secondary school No.14, Uchkurgan district, Namangan, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. The article analyzes the ways of using psychological methods in developing students' thinking and teaching them to think independently and critically.

Keywords: high school students, intellectual potential, logical thinking.

Bizga ma'lumki, yuqori sinf o'quvchilarining mantiqiy, mustaqil va o'z navbatida tanqidiy fikrlashlari ularning qay darajada tafakkurini rivojlanganligiga bog'liq bo'ladi. Bilish jarayonlari bo'lgan sezgi idrok, tasavvur, xotira va individual psixologik hususiyatlari o'quvchilarning tafakkurini rivojlanib borishiga yordam beradi. Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur orqali biz sezgi a'zolarimiz bilan bevosita aks ettirib bo'lmaydigan narsa va hodisalarni ongimizda aks ettiramiz. Umuman olganda tashqi muhitdagi narsa va hodisalar o'rtasida ko'z bilan ko'rib, quloq bilan eshitib bo'lmaydigan ichki munosabatlar hamda qonuniyatlar mavjud. Ana shu ichki bog'lanish hamda qonuniyatiami biz tafakkur orqali bilib olamiz. Demak, tafakkur deb narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar va munosabatlarning ongimizda aks ettirilishiga aytiladi. Aynan tafakkur orqali biz moddiy olamdagi narsa va hodisalarning mohiyatini bilish imkoniga ega bo'lamiz. Shu bois dunyoni bilishda bevosita sezish, idrok, tasavvur va bevosita tafakkur muhim rol o'ynaydi.

Tafakkur jarayoni insonning bilishga bo'lgan ehtiyojlari, tevarak-atrofdagi olam va turmush to'g'risidagi o'z bilimlarim kengaytirishga va chuqurlashtirishga intilish sababli vujudga keladi. Fikr qiluvchi kishining tafakkuri-ob'yektini anglashi, bilishi tafakkur jarayonining xarakterli xususiyatidir. Odam o'zi idrok qilayotgan narsalar to'g'risida fikr qiladi. Shuning uchun tushunchalar narsalarning butun bir sinfi, turkumi to'g'risida fikr qiladi, ya'ni bular tafakkurning obyekti bo'ladi. Bir narsaga tayanmagan quruqdan quruq tafakkur bo'lishi mumkin emas. [5]

O'quvchi dars mashg'ulotlarini o'zlashtirish jarayonida aqliy operatsiyalarning analiz, sintez, taqqoslash, abstraksiyalash va umumlashtirish, tasniflash va tizimga solish asosiy turlaridan o'rni kelganda foydalanadi. O'quv mashg'ulotlarini o'quvchilar xotirasida uzoq vaqt davomida saqlanib qolishida aqliy operatsiyalarning hizmati katta.

O'smirlik yoshida fikrlash faoliyatida muhim siljishlar yuz beradi. Kichik maktab yoshida erishilgan tafakkur taraqqiyotining darajasi o'smirlar fan asoslarini muvaffaqiyatli va sistemali o'rganish imkonini beradi. O'rganiladigan fanlarning mazmuni va o'quv kurslari tuzilishining mantiqi bilimlarni o'zlashtirishning yangi xarakterini, mustaqil tafakkurga tayanishni talab etadi, abstraktsiyalash va umumlashtirish, taqqoslash, mulohaza yuritish, xulosalar chiqarish, isbotlash qobiliyati zarur bo'ladi. Biroq, shuni nazarda tutish kerakki, hamma o'smirlar ham isbotlovchi tafakkurga osongina o'tavermaydilar. [1]

Umumlashtirilgan va muhokamali tafakkurni taraqqiy ettirish uchun matematikani o'qitish juda muhimdir. Algebrani sistemali tarzda o'rgana boshlash umumlashmani umumlashtirish bilan bog'lik bo'lgan yuqoriroq darajasiga o'tishga yoki ikki baravar abstraktsiyaga o'tishga rag'batlantiradi (arifmetika predmetidan soni abstraktsiyalashdir). Geometriyani o'rganish fikrlash, isbot qila bilish, mantiqan qat'iy asoslash ko'nikmalarini o'stiradi. Ona tili darslarida esa mashqlar bajarishda oddiy bir gap berilgan bo'lsin uni gap bo'laklari, so'z turkumlari bo'yicha tahlil qilishda ham analiz, sintez va boshqa tafakkur operatsiyalidan foydalaniladi. Boshqa dars mashg'ulotlarida ham osondan murakkabga qarab o'zlashtirish jarayonlarida foydalaniladi.

Biz tavsiya etayotgan "S.Medlikning verbal kreativlikni aniqlash" metodikasi o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatadi va shu bilan birga ularning tafakkurini egiluvchanlik darajasini, kreativlik qay darajada ekanini o'rganishimizga yordam beradi.

Mazkur metodika T.V.Galkina, E.G.Alekseyeva va L.K.Xusniddinova tomonidan moslashtirilgan. Qo'zg'atuvchi material sifatida testda 40 ta so'zli treading(uchlik) lardan foydalaniladi. Har bir treadingga kirgan so'zlar bir-biridan assotsiativ sohasiga ko'ra yiroqdir. Test sinovi ikki bosqichda amalga oshiriladi, I-bosqichdan oldin mashq qildiruvchi bosqich o'tkaziladi. I-bosqichdan keyin 3-5 kun o'tkazib II-bosqich o'tkaziladi. [4]

Test sinovlari yakka tartibda yoki 5-7 kishidan iborat guruhlarda amalga oshirilishi mumkin. Test topshiriqlari alohida varaqlarda javobini yoniga yozish mumkin bo'lgan holda taqdim etiladi.

Yo'riqnoma. Hozir sizga so'zli topshiriqlar taqdim etamiz uni bajarishdan avval, bir oz mashq qilishimizga to'g'ri keladi. Sizga ikkita so'zni taklif etaman, siz ularga mos uchunchi so'zni topasiz. Ularning har birlari bilan birgalikda so'z birikmasi hosil qilsin. Tekshiriluvchilarga mashq qilish uchun bir necha so'zlar tavsiya etiladi.

I-bosqich: topshiriqlarning mohiyati mashq qilish bosqichiga to'g'ri keladi, faqat bu yerda 2 ta emas, 3 ta so'z taklif etiladi. Siz shunday to'rtinchi so'zni topingki, qolgan 3 ta so'z bilan so'z birikmasi hosil qilsin. Siz so'zlarga grammatik qo'shimchalar qo'shishingiz mumkin. Agar sizda bir emas, bir necha javob variantlari bo'lsa, ularning hammasini varag'ga yozishingiz mumkin. O'zingiz uchun qulay bolgan vaqtda va sharoitda ishlashingiz mumkin. Muhimi sizning shaxsiy natijalaringiz. Chalg'imay yakka tartibda ishlashingiz mumkin.

I-bosqich uchun qo'zg'atuvchi materiallar.

1. ovoz, haqiqat, sekin
2. sovuq, ko'k, xira
3. o'tmish, dengiz, do'stlar
4. o'tkir, kiprik, shishasimon
5. yorqin, inglizcha, yangilik
6. kino imtixon, chipta
7. xona, holat, daryo
8. qiyin, o'tdi, oltin
9. mundir, shaharcha, bilet
10. tasodifan, odam, ko'cha
11. sovuq, tutun, shafqatsiz
12. aqlli, sovuqqon, yorqin
13. o'tmish, qiyinchilik, davr
14. bobo, ko'zoynak, mehribon
15. uzoq, kecha, do'stlar
16. yomon, ko'z, dengiz
17. fil, uy, bahaybat
18. qor, non, ayiq
19. doimo, uyga, orqaga

Uchta so'zga mos to'rtinchi bir so'zni nechta bo'lsa o'shancha topish mumkin. Bu o'quvchining so'z boyligiga va albatta, fikrlash darajasiga bog'liq bo'ladi. O'qituvchi metodikani o'tkazish jarayonida har bir o'quvchini kuzatib borishi kerak, chunki ba'zi bir o'quvchilar so'z topishga qiynalishi mumkin. Mana

shunday o'quvchilar bilan yakka tartibda olib borish yoki ularga ko'proq e'tibor berishi natijalarning yanada yaxshiroq chiqishiga yordam beradi. Quyida berilgan so'zlarga mos tushuvchi to'rtinchi so'zni topamiz.

- Masalan: 1. ovoz, haqiqat, sekin-harakat, "ovozi harakat", "haqiqiy harakat", "sekin harakat";
 2. sovuq, ko'k, xira-suv, "sovuq suv", "ko'k suv", "xira suv";
 3. o'tmish, dengiz, do'stlar-qaytish, "o'tmishga qaytib", "dengizdan qaytish", "do'stimning qaytishi";
 4. o'tkir, kiprik, shishasimon-ko'z, "o'tkir ko'z", "ko'zning kiprigi", "shishasimon ko'z";
 5. yorqin, inglizcha, yangilik-hayot (gazeta), "yorqin hayot", "inglizcha hayot", "yangicha hayot";
 6. kino, imtixon, chipta-qiziqarli, "qiziqarli kino", "qiziqarli imtixon", "qiziqarli chipta";
 7. xona, holat, daryo-shovqinli, "shovqinli xona", "shovqinli holat", "shovqinli daryo";
 8. qiyin, o'tdi, oltin-davr (vaqt), "qiyin davr", "davr otdi", "oltin davr";
 9. mundir, shaharcha, bilet-qalin, "qalin mundir", "qalin shaharcha", "qalin bilet";
 10. tasodifan, odam, ko'cha-uchrashuv, "tasodifan uchrashuv", "uchrashuvdagi odam", "ko'chadagi uchrashuv";
 11. sovuq, tutun, shafqatsiz-holat, "sovuq holat", "tutunli holat", "shafqatsiz holat";
 12. aqlli, sovuqqon, yorqin-inson, "aqlli inson", "sovuqqon inson", "yorqin inson";
 13. o'tmish, qiyinchilik, davr-uzoq, "uzoq o'tmish", "uzoq davr", "uzoq qiyinchilik";
 14. bobo, ko'zoynak, mehribon-usta, "usta bobo", "ko'zoynak ustasi", "mehribon usta";
 15. uzoq, kecha, do'stlar-kutmoq, "uzoq kutmoq", "kechagi kutish", "do'stlarni kutmoq";
 16. yomon, ko'z, dengiz-ko'rmoq, "yomon ko'rmoq", "ko'zning ko'rishi", "dengizni ko'rmoq";
 17. fil, uy, bahaybat-odam, "fildagi odam", "uydagi odam", "bahaybat odam";
 18. qor, non, ayiq-oq, "oppoq qor", "oppoq non", "oq ayiq";
 19. doimo, uyga, orqaga-qaytish, "doimo qaytish", "uyga qaytish", "orqaga qaytish";

Hamma bo'lgandan so'ng, quyidagi jadvalga javoblarni yozib chiqib, formulalarga solamiz. Ikkala bosqich uchun ham bir xil.

№	O'quvchilar nomi (Qatnashuvchilar)						
	Asadbek	Gulida	Ma'mura	Nozimjon	Asrorbek	r	ZI
1	Uchrashuv	Vaqt, soat	Voqea, uchrashuv	Uchrashuv, qiyofa	Gul	3	1/3
2							
3							
4							
5							
N							

Formula

"N"-assotsiatsiyalar soni

"ZI"= bir so'zning necha marta $\frac{N=X}{Y}$ takrorlanishi nisbati.

"r"= bitta javobni hammada necha marta takrorlanishi.

NY=unikalnik

$$\frac{NY}{i/20}$$

"i"- original hech kimda takrorlanmagan

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yuqori sinf o'quvchilar tafakkurini rivojlanishida psixologik metodikalar va pedagogik texnologiyalardan foydalanish yaxshi natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Karimova V.M. Psixologiya. T.: 2002.
2. Qosimova K va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. T.: Noshir, 2009.
3. Sharipov M, Fayzixo'jayev D. Mantiq. T.: 2004.
4. Xaydarov F, Xalilova N. Umumiy psixologiya. T. 2010.
5. Е.П.Ильин. Психология творчества, креативности, одаренности: Питер; СПб.; 2009.

UO'K 373.3

BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA KASBIY REFLEKSIYANING AHAMIYATI

Karimova Nilufar Raimjanovna

Namangan viloyati XTXQTMOHM o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasi

E-mail: niluboshlang@inbox.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarimizning mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishida pedagogik mahorat qirralarini hozirgi zamon talablari darajasida takomillashtirish masalalari haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, o'zaro xurmat, hissiy yaqinlik, refleksiv qobiliyat, xotirani rivojlantirish.

UDC 373.3

THE IMPORTANCE OF PROFESSIONAL REFLECTION IN THE PROCESS OF PRIMARY EDUCATION

Karimova Nilufar Raimjanovna

Teacher of Namangan Regional In-Service Retraining Center for

Public Education Employees, Uzbekistan

Brief abstract. This article discusses the issues of improving the skills of pedagogical mastership at the level of modern requirements in the ability of our students so that they think independently and broadly.

Key words: education, upbringing, mutual respect, emotional intimacy, reflexive ability, memory development.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev "Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini chuqur egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb masala hisoblanadi".³² Zero, yosh avlod tarbiyasi insoniyatning kelajak taqdirini belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan, so'nggi yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining ta'lim-tarbiya sohasiga oid 74 farmoni, qaror va farmoyishi qabul qilingani bejiz emas. Maqsad farzandlarimizning zamon talablari darajasida, xalqaro andozalarga mos ta'lim-tarbiya olishi, kasb-hunar egallashiga erishish hamda yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash orqali mamlakatimiz taraqqiyotini ta'minlashdir.

Yosh avlodni hozirgi zamon fani bilan qurollantirish orqali ularning aqliy jihatdan yuksak darajada rivojlanishlariga erishish umumiy o'rta ta'lim maktablari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va muabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish-(ta'lim-tarbiya sohasida fidokorona mehnat qilayotgan o'qituvchilarning asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi kerak). Bu ulkan javobgarlik hissi o'qituvchilarda pedagogik mahorat qirralarining turli jarayonlarini hozirgi zamon talablari darajasida takomillashtirishni talab etadi. So'nggi yillarda pedagog va psixolog olimlar o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida fikrlash hamda analitik qobiliyatlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlamogdalar. Bu qobiliyatlar asosini esa, o'qituvchining kasbiy refleksiyasi tashkil etadi.

Refleksiya (lot.«reflexio»-orqaga qaytish)- «har tomonlama barkamol rivojlangan insonning o'z xatti-harakatlari va ularning qonuniyatlarini anglashga qaratilgan nazariy faoliyat shaklidir; inson ma'naviy dunyosining o'ziga xos yashirin hislatlarini ochib beradigan o'z-o'zini bilishga va anglashga qaratilgan faoliyatdir». Ilk bor refleksiya tushunchasi qadimgi Yunon falsafasida yuzaga kelgan va insonning o'z ongida kechayotgan mulohazalari haqida, o'zi fikr yuritishi jarayoni. O'z fikrlari mazmunini tahlil qilishga e'tiborini jalb qilishni anglatgan (Dekart). Sokrat, Platon, Lokk va boshqa yunon faylasutlari refleksiyani insonning o'z-o'zini bilishga, nimalarga qodir ekanligini e'tirof yetishga qaratilgan faoliyati ekanligini ta'kidlashadi. Ushbu falsafiy kategoriya sifatida o'rganilayotgan refleksiya psixologiya, sotsiologiya, sinergetika, mantiq, andrologika, evkistika, kibernetika va boshqa ko'plab murakkab fanlarning tadqiqot

³²Shavkat Mirziyoyev. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz", Toshkent - "O'zbekiston", 2017.

obyekti sifatida e'tirof etilib tadqiq qilinmoqda. Biz «refleksiya» kategoriyasiga pedagogika va psixologiya nuqtayi nazaridan ta'rif berar ekanmiz uning mohiyatini o'rganishda o'qituvchilar kasbiy faoliyatidagi o'rini tahlil qilishga batafsil to'xtalamiz.

Psixologiyada refleksiya «subyekt tomonidan o'zining ichki psixik jarayoni va holatlarini bilish, nazorat qilish» mazmunida talqin qilinadi. O'qituvchining pedagogik faoliyatida, refleksiyaning shaxsga nisbatan ahamiyatini o'rganishda bu tushunchaning ijtimoiy psixologik nuqtayi nazardan ta'rifi mukammal ekanligi e'tirof etiladi, unda refleksiyaga insonning borliqda boshqa insonlar tomonidan qanday qabul qilinishi va baholanishi sifatida qaraladi, refleksiya-«shunchaki subyektning o'z-o'zini bilishi yoki tushunishi emas, balki boshqalar tomonidan «refleksiyalanuvchini» qanday bilishi» va uning shaxsiy xususiyatlarini, emotsional reaksiyalarini va kognitiv tasavvurlarni ham tushunishini o'z ichiga oladi. Hozirgi zamonaviy pedagogik ilmiy-tadqiqot ishlarida ko'plab olimlar refleksiyaning I.N.Semyonov tomonidan taklif qilingan tasnifiga tayanadilar. U refleksiyaning quyidagi turlarini taklif etib sharhlaydi:

1. Intellektual refleksiya: Muammolarni fikrlash asosida ijobiy hal qilishni belgilaydi.
2. Shaxsiy refleksiya: O'qituvchining nizoli (konfliktlar) pedagogik ziddiyatlardan janjalsiz chiqishni fikran zlanish asosida bartaraf qilishni ta'minlaydi.
3. Kommunikativ refleksiya: Muloqot jarayonida sheriklarining o'zaro bir-birlarini tushunib munosabat qilishni ta'minlaydi.
4. Kooperativ refleksiya: Jamoa a'zolarining birgalikdagi o'zaro muntazam mehnat faoliyatlarini muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat.

O'qituvchining kasbiy mahoratini rivojlantirishda pedagogik refleksiyaning ahamiyati Y.N.Kulyutkina, Y.S.Turbovskiy, P.V.Xudominskiy kabi tadqiqotchi olimlar tomonidan talqin etib kelingan, ularning fikricha, o'qituvchining doimiy pedagogik faoliyati, mazmuman refleksiv xususiyatga ega bo'lib, u barcha refleksiv jarayonlarni qamrab oladi. Qayd etish joizki, hozirgi kungacha pedagogik refleksiya tushunchasining mukammal tasnifi mavjud emas. Ehtimol mazkur hodisani o'rganish psixologiya, pedagogika, pedagogik psixologiya, falsafa kabi fanlarning o'zaro aloqadorligida amalga oshirilishi bilan bog'liq holda hal qilinar. G.M.Kodjaspirova o'qituvchining pedagogik faoliyati barcha qirralari bilan refleksiv hodisa bo'lsa, demak bu pedagogik refleksiya, degan fikrni ilgari suradi. Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, o'qituvchining kasbiy faoliyatida refleksiya muhim rol o'ynaydi. B.Z.Vulfovning fikriga ko'ra, kasbiy refleksiya jarayonida o'qituvchi o'zi tanlagan pedagogik kasbi talab qiladigan darajada o'z imkoniyatlarini, u haqdagi mavjud tasavvurlarini pedagogik tajribasining muhim jihatlari bilan nisbatlaydi va ixtiyoriy ravishda shaxsiy pedagogik mahorat zanjirini hosil qiladi. Uning fikr mulohazasi L.S.Rubenshteynning pedagogik faoliyatdagi tashqi sabablarning ichki shart-sharoitlar asosida bilvosita harakati haqidagi mashhur qoidasini tasdiqlaydi. O'qituvchi pedagogik mahoratining asosiy xususiyatlaridan bin uning rivojlanishida uzluksizlikning mayjudligidir. Demak, refleksiv jarayonda o'qituvchining kasbiy mahorati, kasbiy sifatleri mavjudmi yoki yo'qmi deb qayd etish kerak emas, balki ularning rivojlanishini, boyib borishini, kuchayishini rag'batlantirish, mehnati inobatga olinishi lozim.

Ta'lim jarayoni aynan shunga xizmat qilishi kerak, qachonki bilimlar, ko'nikma va malakalar ongli ravishda o'z-o'zini takomillashtirishga ichki undov bilan qabul qilinsagina undan foydalaniladi. O'qituvchining o'z-o'zini kasbiy jihatdan har tomonlama mukammal takomillashtirishi, hamisha amalga oshadigan faoliyat emas. Shunga qaramay, o'qituvchining o'zi haqidagi deyarli har qanday fikr-mulohazasi, kasbiy refleksiyaning deyarli har bir jarayoni, kasbiy faoliyatni qiziqarli qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki, chin ko'ngildan bajariladigan og'ir mehnat ham kasbiy faoliyatni osonlashtiradi, bu esa refleksiyaning asosiy mazmun va mohiyati asoslaridan biridir. Pedagogik refleksiya o'qituvchiga o'z-o'zini kasbiy jihatdan takomillashtirish manbalarini o'z bilimi va imkoniyatlandan izlab topishda ko'maklashadi hamda uning rivojlanishini ta'minlaydi.

O'qituvchining kasbiy kompetentligi – bu ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etish, boshqarish va takomillashtirishda innovatsion yondashuvlarga asoslanadigan, kasbiy ahamiyat kasb etuvchi shaxsiy sifatlarga ega bo'lgan, yuqori darajada o'zini o'zi nazorat qila oladigan, boy falsafiy va ma'naviy dunyoqarashga, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyatga ega bo'lgan, shuningdek, shaxslararo munosabatlarda tarbiyaviy munosabatlarni e'tiborga oladigan hamda vaziyatlarga ko'ra turli xil muammolarni hal etishda mavjud huquqiy-me'yoriy mezonlarga asoslanadigan, ta'lim jarayoni subyektlari faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish, muvofiqlashtirish, faolligini ta'minlash, ta'lim muassasasi ilmiymetodik ta'minotini yaxshilash, innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etish orqali umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish yo'nalishida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan mutaxassis shaxsini tavsiflaydi.

Aynan shu mutaxassisga o'qituvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish va tizimli rivojlantirib borish jarayonlari bog'liq va aloqador bo'ladi. Chunki murakkab pedagogik tizim hisoblanayotgan refleksiv

ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari nafaqat dars mashg'ulotlari, balki darsdan tashqari, sinfdan tashqari, maktabdan tashqari kabi mashg'ulotlar jarayonlarini, shuningdek, turli uchrashuvlar, davra suhbatlari va ko'pgina ma'naviy va ma'rifiy tadbirlarni ham qamrab olgan holda innovatsion murakkab pedagogik tizimni tashkil etadi. Demak, mazkur jarayonlar samaradorligini ta'minlash, pedagog xodimlar kasbiy kompetentligini rivojlantirish, o'zaro obyektiv munosabatlar xukm surishi uchun jamoada zaruriy shart-sharoitlarni, qulay ta'limiy muhitni yaratish, subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ta'lim muassasasi, mahalla va ota-onalarning uzviy va tahliliy-ijodiy hamkorliklarini ta'minlash zarur.

Shuningdek, refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari samaradorligi ta'lim-tarbiya jarayonlari subyektlaridan biri bo'lgan pedagog o'qituvchilarning kasbiy kompetentlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, eng asosiysi ta'lim-tarbiya jarayonlari subyekti hisoblanayotgan (o'z vaqtida ta'lim-tarbiya jarayoni obyekt bo'lgan) o'quvchilarda o'qish va o'rganish yo'nalishlarida zaruriy ehtiyojlarni shakllantirib va muntazam rivojlantirib borish uchun ularda o'quv motivlarni shakllantirish, dars jarayonlarini o'rganish, tahlil qilish va eng asosiy omil sifatida bilim olishga qiziqish uyg'otish zarur. O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish samaradorligi ularning o'z refleksiv faoliyatlari natijalaridan qoniqish hosil qilishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, do'stona munosabatlarga asoslangan o'qituvchi-o'quvchi hamkorligi faoliyatini tashkil etish, ya'ni innovatsion jarayonlarni tashkil etish orqali subyekt-subyekt munosabatlarini ijodiyligini ta'minlashga bevosita bog'liq bo'ladi.

Refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida barcha o'quvchilarning fikrini o'rganish va takliflarini inobatga olish ixtiyoriy voqea yoki hodisaning vujudga kelishi, uning salbiy yoki ijobiy oqibatlarini o'rganish va tahlil qilish jarayonlarida barcha o'quvchilar faolligini ta'minlashga xizmat qiladi. Barcha o'quvchilar uchun bunday qulay ta'limiy muhitni vujudga keltirish refleksiv ko'nikmalar shakllantirish jarayonlari subyektlaridan biri bo'lgan pedagog xodimlar kasbiy kompetentligi darajasiga bog'liq bo'ladi. O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari samaradorligi nafaqat o'rganilayotgan mavzuning mazmun-mohiyati va ahamiyati darajasiga yoki ularning faolligiga, balki mazkur jarayonni tashkil etishga mas'ul hisoblangan mutaxassislarining o'z funktsional vazifalari mazmun-mohiyatini to'g'ri tushunib yetishi va uni amalga oshirish yo'nalishidagi kompetentligi darajasiga ham to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Shavkat Mirziyoyev. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz", Toshkent- "O'zbekiston", 2017.
2. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari.-T.: 2005.
3. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat- T.: Fan, 2006.
4. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. — T.: O'qituvchi, 2004.
5. Бизяева А.А. Психология думающего учителя: педагогическая рефлексия-Псков: ПГПИ им.С. М. Кирова, 2004.-216 стр.

UO'K 002.2

KITOBXONLIK SHAKLLANISHINING IJTIMOIIY-TARIXIIY AN'ANALARI HAMDA ZAMONAVIIY YONDASHUVLARI

Muminova Dilafro'z Akbaraliyevna

Namangan viloyati XTXQTMOHM maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedراس katta o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasi, E-mail: 2008@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada kitobxonlikni shakllantirishning ijtimoiy-tarixiy manbalari, kitobni ulug'lash, bolalar o'rtasida ilm-ma'rifat asoslarini targ'ib qilish, jahon miqyosida yoshlar o'rtasida kitob o'qishni targ'ib qilish hamda bir qator xorijiy davlatlarning bu boradagi tajribalarini o'quvchilarda kitobga muhabbat uyg'otish bo'yicha olib brogan ilmiy-tadqiqot ishlari, kitobxonlik, kitobxonlikka qiziqishlarini oshirishga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: insoniyat, tarixiy, xorijiy, kutubxona, kitobxonlik, nutq, axborot-kutubxona, badiiy adabiyot, ta'lim, savodxonlik, shaxs, mutolaa madaniyati.

UDC 002.2

SOCIO-HISTORICAL TRADITIONS AND MODERN APPROACHES OF FORMATION OF BOOK WRITING

Muminova Dilafroz Akbaraliyevna

Senior Lecturer of Department of Preschool, Primary and Special Education Methodology, NamanganRCURPEE, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. This article discusses the socio-historical sources of the formation of reading, the glorification of books, the promotion of the basics of science and education among children, the promotion of reading among young people around the world and a number of foreign countries in this regard, the information of research work on arousing students' love for books, reading, and increasing their interest in reading are presented.

Keywords: humanity, historic, foreign, library, reading books, speech, information-resource library, fiction, education, literacy, personality, reading culture.

Globalashuv sharoitida intellektual mulk jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Insoniyat tomonidan yaratilgan umumbashariy kashfiyot va innovatsiyalarning asosini intellekt (inson tomonidan yaratilgan g'oya) tashkil etadi. Ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy taraqqiyotni belgilab beruvchi kreativ va innovatsion g'oyalarni asoslashda shaxsning kreativ, innovatsion fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Har qanday jamiyatda shaxsning fikrlash malakasi bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda badiiy, ilmiy va ilmiy-ommabop asarlarni o'qishga nisbatan ijobiy munosabatga egaliklariga bog'liq.

Insoniyat tarixida dinlarning vujudga kelishida ham kitob asosiy vosita bo'lganligini ko'rish mumkin. Xususan, Muso alayhissalom "Tavrot", Iso alayhissalom "Injil" ("Bibliya") hamda payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) "Qur'on" kabi muqaddas kitoblar orqali kishilar o'rtasida o'zlari mansub bo'lgan din asoslarini targ'ib etgan.

Markaziy Osiyoda kutubxonalar o'tmishdayoq rivojlangan bo'lib, ular asosan xon saroylari va madrasalar tasarrufida bo'lgan. Mamlakat hukmdorlari kutubxonalarning ravnaqi, ularni boyitish, xattotlar bilan ta'minlash sohasida doimiy g'amxo'rlik qilib kelganlar.

Qadimgi kutubxonalar orasida eng mashhurlari Aleksandriya (Iskandariya), Buxoro amirligi hamda Bog'dod kutubxonalari bo'lgan. Biroq, XX asrga qadar kutubxonachilik pedagogikasi u qadar rivojlanmagan edi.

Tarixiy manbalarda X-asrning ulug' olimlaridan biri bo'lgan andalusiyalik Ibn Rushdning umri davomida faqat ikki kungina, ya'ni birinchisi uylangan va ikkinchisi otasi vafot etgan kechada kitob o'qimaganligi, tobe'inlardan Urva ibn Zubayr roziyallohu anhunging esa hayotida bir marta – qorason boshlangan oyog'i narkozsiz kesib tashlanganda hushdan ketib, kitob (Qur'on) o'qiy olmaganligiga oid ma'lumotlar keltiriladi [13].

Kitobni ulug'lash, bolalar o'rtasida ilm-ma'rifat asoslarini targ'ib qilish maqsadida kutubxona tashkil etishda jadidchilik harakatining vakillari ham ibrat ko'rsatgan. Masalan, namanganlik ma'rifatparvarlardan biri Is'hoqxon Ibrat o'z uyida "Kutubxonai Ishoqiya" deb nomlangan kutubxona tashkil qilgan. Ushbu kutubxona fondidan o'zbek, rus, turk, tatar, fors-tojik tillarida yaratilgan adabiyotlar o'rin olgan. Is'hoqxon Ibratning kutubxonasi nafaqat u o'qitgan o'quvchilarga, shuningdek, qishloq aholisiga ham xizmat qilgan. Kutubxonadagi kitoblar ularning xarakteri, yo'nalishiga ko'ra bir necha bo'limlarga ajratilgan. Xususan, maktab o'qituvchilari uchun mo'ljallangan bo'limdan S.Saidazizovning "Ustodi avval", Abdulla Avloniyning "Birinci muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq", R.Yusufbek hoji o'g'lining "Rahbari hisob" kabi darslik va o'quv qo'llanmalari o'rin olgan. Ibrat kutubxonasi doimiy ravishda boyib borgan. Ma'rifatparvar tomonidan kutubxona faoliyatining yo'lga qo'yilishi, kitobxonlar tomonidan kitoblarning olinishi va topshirilishi qayd etilgan daftarlarning yuritilishi, shuningdek, o'quvchilarning kitob mutolaa qilishlari, o'qishlari shaxsan nazorat qilib borilgan [2].

Jahon miqyosida bugungi kunda yoshlar o'rtasida kitob o'qishni targ'ib qilish, ularning faol kitobxon bo'lishiga erishishda davlatning faol aralashuvi, ijtimoiy ishtiroki asosida bu yo'nalishda dasturiy-loyihaviy faoliyatni rivojlantirish, internet-texnologiyalaridan faol foydalanish hamda kitobxonlik faolligini oshirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni izlab topish zamonaviy an'ana tusini olmoqda [3, 16].

Rivojlangan davlatlarda mavjud sharoitda asosiy e'tibor kutubxona-axborot tarmoqlarini rivojlantirish, ularni an'anaviy va zamonaviy kitoblar hamda kitob mahsulotlari bilan boyitish, aholi, shu jumladan, yoshlarda kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni rivojlantirishga qaratilgan targ'ibotning innovatsion shakl, metod va vositalarini yaratishga qaratilgan. [13].

"Finlyandiyada barcha bolalarning o'rganishi va rivojlanishi uchun teng imkoniyatlar yaratish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Mamlakat madaniyat jamg'armasi tomonidan uyushtirilgan 1,2 million evro miqdoridagi qiymatga ega bo'lgan aksiyaga ko'ra 2019-2021-yillarda tug'iladigan barcha chaqaloqlar sovg'a sifatida kitob oladi [17].

Kitoblarni chop etish va ularning savdosini izchil yo'lga qo'yishda Norvegiya tajribasi ham boshqa davlatlar uchun namuna bo'la oladi. Mazkur davlatda ushbu soha "ijtimoiy-madaniy rivojlanishning alohida

yoʻnalishi sifatida eʼtirof etilgan. Mualliflar, nashriyotlar hamda davlat oʻrtasida oʻzaro mustahkam aloqa mavjud boʻlib, unga koʻra yangi kitob chop etilsa, uning 1000 nusxasi (agar bolalar adabiyoti boʻlsa 1500 donasi) hukumat tomonidan sotib olinadi. Sotib olingan kitoblar mamlakatdagi barcha kutubxonalarga teng taqsimlangan holda tarqatiladi” [9].

Sharq davlatlari qadimdan kitobga boʻlgan ijtimoiy-tarixiy munosabatning ijobiyligi bilan jahon hamjamiyati eʼtiborini tortib kelgan. Bugungi kunda ham “kitob targʻibotining eng yaxshi namunasi Eron Islom respublikasida amalga oshirilmoqda. Mamlakatda turli mavzularda choʻntak kitoblari nashr etilgan boʻlib, mazkur tadbir oʻqishga boʻlgan qiziqish pasayishining oldini olishga yordam bergan” [16].

Jahonning rivojlangan davlatlari tajribasida global axborotlashuv muhitida aholi, xususan, yoshlarda kitob oʻqishga boʻlgan ijobiy munosabatni qaror toptirishga qaratilgan keng koʻlamli ijtimoiy harakatlar negizida targʻibotning innovasion vositalarini izlash yetakchi oʻrin tutadi. Ayni oʻrinda bir qator davlatlarning bu boradagi tajribalarini misol sifatida keltirish maqsadga muvofiq sanaladi.

Amerikada kitob oʻqishga boʻlgan qiziqishni kuchaytirish yoʻlida amalga oshirilgan choralardan biri – kitob oʻqilayotgan holatni ifodalovchi reklama plakatlarida taniqli shaxslar qiyofasining berilishi sanaladi [16].

Seul shahrida “Kitob oʻqishni rivojlantirish va uning kitob bozoriga taʼsiri” nomli kitob koʻrgazmasida “Chu San Deyli” gazetasining muxbiri Kim Ki Chul xonadonlardagi mehmonxonani kutubxonalarga aylantirish kitobxonalar sonini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilishini taʼkidlab oʻtadi [16].

Vetnamda “kitob koʻchalari” tashkil etilgan boʻlib, ushbu koʻchalarda doimiy ravishda turli mavzularda chop etilgan kitoblarning mualliflari bilan uchrashuv, seminar va konferensiyalar uyushtiriladi... Nashriyotlar va kitobxonlar oʻrtasidagi oʻzaro aloqani mustahkamlash yoʻlida koʻplab yuridik va jismoniy shaxslar oilaviy kutubxonalarni hamda oʻzlari joylashgan hududlarda “kitobxonlik muhiti”ni hosil qilishda faollik koʻrsatmoqda [4].

Rivojlangan mamlakatlarda oʻquvchilarga ijtimoiy, pedagogik hamda madaniy kutubxona xizmatini koʻrsatish ularning asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirish [5, 16]ga yoʻnaltirilgan muhim soha sanaladi. Markaziy Osiyoda milliy kutubxonani barpo etish va uning fondini tarixiy hamda zamonaviy asarlar bilan toʻldirishga qaratilgan umum milliy harakatning yorqin namunasi sifatida Tojikiston tajribasini misol qilib keltirish oʻrinlidir.

Tojikiston milliy kutubxonasining binosi 2012-yil 20-martda, Navroʻz bayrami arafasida ochilgan. Bu voqea arafasida mamlakatda kitob toʻplash umummilliy aksiyasi oʻtkazilgan va unda davlat, jamoat tashkilotlari, aholi faol ishtirok etgan. Natijada 3 millionga yaqin kitob topshirilgan. Hozirda kutubxona fondida 6 milliondan ortiq kitob, gazeta-jurnal, elektron materiallar saqlanadi. Ochiq kitob shaklida qurilgan toʻqqiz qavatli bino (uzunligi 167 metr, balandligi 52 metr, umumiy maydoni 45 ming kvadrat metr) Markaziy Osiyodagi eng katta kutubxona sanaladi. Bu yerga kiraverishda tojik xalqining 22 nafar atoqli fan, adabiyot va siyosat arbobi byusti joylashgan. Ular sirasida Firdavsiy, Saʼdiy, Hofiz, Rudakiydan tortib Mirzo Tursunzoda va Emomali Rahmongacha bor.

Imkoniyati cheklangan kishilar uchun alohida boʻlim xizmat qiladi: bu yerda ovozli nashrlar va Brayl alifbosidagi kitoblar saqlanadi. Milliy kutubxonaning yangi binosi qurilishi boshlangan kun — 4-sentyabr mamlakatda “Kitob kuni” deb eʼlon qilingan [10].

Soʻnggi yillarda yuzaga kelgan yangi internet hodisa – chellenj (ingl. “challenge” – daʼvat) ham aholi, yoshlar oʻrtasida kitob oʻqish va kitobxonlik gʻoyalarini axborot texnologiyalari orqali keng targʻib etishda alohida oʻrin tutmoqda. Chellenj – oʻyin shaklidagi bahsning qandaydir harakatlar asosida amalga oshirishni taklif qilish hisoblanadi. Ayni vaqtda yoshlarning kitobxonlik faoliyatini kuchaytirish, ragʻbatlantirish maqsadida “nashriyotlar, kitob doʻkonlari, ijtimoiy tashkilotlarning tashabbuslariga muvofiq chellenj yoʻlga qoʻyilmoqda” [3, 20].

Mutolaaga qiziqishning susayishi, oʻz navbatida, aholi savodxonligi darajasining pasayishi jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishi uchun katta tahdidlardan sanaladi. Shuning uchun ham koʻplab rivojlangan mamlakatlarda bu salbiy holatning oldini olishga qarshi qatʼiy chora-tadbirlar koʻrilmoqda [6].

Yozuvchi va millioner Stiv Sibold dunyoning eng boy odamlaridan baʼzilari bilan 30 yildan ortiq suhbatlashdi va ularning koʻpchiligini mutolaaga boʻlgan muhabbat birlashtirib turishini aniqladi. “Oʻrta sinf romanlar, tabloidlar va koʻngilochar jurnallar oʻqiydi. Badavlat odamning xonadoniga kirsangiz, birinchi koʻzingizga tashlanadigan narsalardan biri uni muvaffaqiyatga olib kelgan ulkan kutubxona boʻladi”,- deydi yozuvchi. Mashhur milliarderlarning koʻpchiligi ushbu nuqtayi nazarni tasdiqlaydi. Masalan, Bill Geyts yiliga 50 ga yaqin kitob oʻqiydi, Uorren Baffett ish kunining 80 foizini mutolaa uchun sarflaydi. Ilon Maskdan u raketa qurishni qanday oʻrganganligi haqida soʻrashganda, u “Men kitob oʻqiyman” deb javob bergan [14].

Xalqaro miqyosda turli davlatlarda kitob o'qishga bo'lgan munosabatni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshiriladi. Ana shunday tadqiqotlardan biri "NOP World" xalqaro reyting agentligi tomonidan o'tkazildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, 2016-yilda haftasiga eng ko'p kitob o'qiydigan mamlakatlar ro'yxatida Hindiston yetakchi o'rinni egallagan. Ushbu davlatda aholi haftasiga o'rtacha 10,7, - Tailandda 9,4, Xitoyda 8, Filippinda 7,6, Chexiyada 7,4, Rossiyada 7,1, Shvesiyada 6,9, Fransiyada 6,9 va Vengriyada 6,8 soat kitob o'qiladi [6].

Shu bilan birga qator agentliklar izchil ravishda jahon mamlakatlari aholisining kitobga bo'lgan talab va ehtiyojini o'rganib boradi. Agentlik tomonidan e'lon qilingan jahonda kitobga bo'lgan talabni o'rganishga doir tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, so'nggi 30 yilda bir nomdagi kitob mahsulotlarini chiqarish uch baravar, adadi bo'yicha 4 baravar ko'paydi. Bugungi kunda dunyoda har yili qariyb bir million nomda kitoblar chop etiladi. Masalan, AQShda kishi boshiga 10 ta, Rossiyada 9,5 ta, Fransiyada 5 ta, Xitoyda 3,5 ta kitob bosilmoqda [6].

So'nggi ikki yil ichida O'zbekistonda jamiyatni har tomonlama rivojlantirishda kitob mahsulotlarini chop etish, tarqatish, aholi o'rtasida kitob mutolaasini keng targ'ib etish, yoshlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish yo'lida turkum amaliy ishlarning olib borilayotganligini ko'rsatish mumkin. Bu boradagi tizimli ishlarning asosini esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi (2017-yil 13-sentyabr) Qarori [1] tashkil etadi.

Qarorda jamiyatda kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, aholi, xususan, yoshlarda kitob o'qish hamda kitobxonlikka bo'lgan ijobiy munosabatni qaror toptirish, kitob mutolaasini kundalik faoliyatga aylantirishga erishish mohiyatini yorituvchi qator vazifalar belgilab berilgan. Chunonchi:

- kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish, nashirlik va matbaa sohalarini yanada rivojlantirishga oid normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kitoblarni, ayniqsa, bolalarga mo'ljallangan adabiyotlarni chop etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash; kitob mahsulotlari bo'yicha davlat buyurtmasining asosiy yo'nalishlarini shakllantirish, adabiy-badiiy, o'quv-uslubiy, ilmiy-nazariy, ilmiy-ommabop va ko'rgazmali adabiyotlarni chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, ixtisoslashtirilgan kitob do'konlari faoliyatini rivojlantirish;

- nashriyotlar va matbaa sohasi mutaxassislarini, badiiy va texnik muharrirlar, grafikachi rassomlar, axborot-kutubxona xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish; lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosidagi ilmiy-texnik, adabiy-badiiy va ensiklopedik adabiyotlarni yanada ko'paytirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish;

- mazmunan sayoz, milliy ma'naviyat va qadriyatlarimizga, axloq me'yorlariga mos kelmaydigan, yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan adabiyotlarni tayyorlash, bosib chiqarish va tarqatishning oldini olish choralari ko'rish;

- kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir targ'ibot ishlarini tizimli va samarali tashkil etish, bu borada kitobxonlar, kutubxonachi va targ'ibotchilar o'rtasida "Eng kitobxon maktab", "Eng kitobxon mahalla", "Eng kitobxon oila", "Eng faol kutubxonachi" kabi ko'rik-tanlovlarning saralash va respublika bosqichlarini yuqori saviyada o'tkazishni yo'lga qo'yish [1].

Ma'lumki, jamiyat hamda shaxsning kitobxonlik madaniyatiga egaligi tegishli davlat hududida kutubxona, axborot-resurslari markazlarining mavjudligi, ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati, ijtimoiy sub'ektlarda kitob o'qishga bo'lgan qiziqish hamda ehtiyojni qaror toptirishdagi ishtiroki bilan belgilanadi. Ushbu sohaning O'zbekistondagi ahvoli qanday?

Agar 1991-yilga qadar respublikada atigi to'qqizta nashriyot faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, oradan chorak asr o'tib, ularning soni 118 tani tashkil etdi. Mustaqillikkacha bo'lgan davrda 149 ta matbaa korxonasi mavjud bo'lgani holda, hozirgi kunda bunday korxonalar o'n barobardan ziyod ko'payib, 1 ming 677 taga yetdi [15].

2018-yilga holatiga ko'ra O'zbekistonda 1760 ta matbaa korxonasi, 146 ta nashriyot faoliyat yuritmoqda. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi, 14 ta viloyat axborot-kutubxona markazi, tuman, shaharlardagi ta'lim muassasalarida 200 ga yaqin axborot-resurs markazi, "Kitob olami", "Sharq ziyokori", "O'zdvakitobsavdota'minoti" majmualari tomonidan yoshlarga sohaga doir xizmatlar ko'rsatilmoqda [7]. Birgina A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi fondida qariyb 8 millionta kitob va kitob mahsulotlari, jumladan, 450 mingtadan ortiq kitobning elektron shakli, elektron darslik va qo'llanmalar mavjud. Ushbu maskanda elektron kutubxonaning ma'lumotlar bazasi o'zbek, rus va ingliz tillarida yaratilgan.

Har qanday tashkilot, korxonalar, birlashma hamda idoralar xodimlarining o'z ustida ishlashlarini ta'minlash, mehnat jamoasida yuqori natijalarni qo'lga kirish, mehnat unumdorligi va samaradorligini oshirishni ko'zlar ekan, o'z kutubxonasiga ega bo'lishi lozim. Bugun respublikada "20 ta turli vazirlik va

idoralarga qarashli 12 mingdan ziyod kutubxona mavjud. Ularda jami 23 milliondan ortiq kitob saqlanadi” [9].

Birgina Xalq ta’limi vazirligi tizimida 9 ming 570 dan ortiq axborot-kutubxona muassasasi mavjud. Ularga 4 milliondan ziyod o’quvchi a’zo bo’lgan. Ushbu muassasalarning kitob fondi 23 milliondan oshadi [12].

Respublika Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan A.Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasining “O’smirlarga xizmat ko’rsatish bo’limi fondi” negizida 1965-yilda viloyatlardagi bolalar kutubxonalari uchun ilmiy-uslubiy markaz sifatida Respublika bolalar kutubxonasi tashkil etilgan. 220 mingdan ortiq kitob zahirasiga ega bo’lgan ushbu kutubxona bog’cha yoshidagi bolalardan tortib umumta’lim maktablarining yuqori sinf o’quvchilarigacha faoliyat ko’rsatadi [9].

O’zbekiston matbuot va axborot agentligi tizimidagi nashriyot-matbaa ijodiy uylari esa “O’zbekiston pochta” bilan hamkorlikda “Pochta orqali kitob” aksiyasini yo’lga qo’ydi. Aksiya doirasida Toshkent, Nukus shahri hamda viloyatlar markazlaridagi ko’chalar, hiyobonlar, bozorlar, metro, avtobus bekatlari, maktab, lisey, kasb-hunar kollejlari, oliy o’quv yurtlari va boshqa aholi gavjum joylarga kamida 2 tadan kitob targ’ibotiga bag’ishlangan zamonaviy dizayndagi ijtimoiy reklama bannerlari joylashtirildi. Bannerlarda “Matbuot va axborot agentligi tavsiya etadi” ruknida “Bolangizga kitob sovg’a qiling!”, “Farzandingizga kitob o’qib bering!”, “Nabirangiz bilan birga kitob o’qing!” da’vati ostida oilaviy kitobxonlik madaniyatini oshirishga targ’ib etilgan [8].

Har bir milliy jamiyat ravnaqi umuminsoniy taraqqiyot bilan bevosita bog’liq. Shu nuqtayi nazardan hozirda respublikada ham “2- aprel – Bolalar kitoblari xalqaro kuni” (mashhur ertakchi adib Gans Xristian Andersenning tug’ilgan kuni), “23- aprel – Butunjahon kitob va mualliflar huquqlari kuni” (1995-yili YUNESKO tomonidan joriy etilgan), “14-fevral – Kitoblar sovg’a qilish xalqaro kuni” [15] kabi dunyo miqyosida keng nishonlanadigan sanalarda ommaviy “Kitob bayrami” [15], “Yoshlar o’rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish” mavzuida respublika seminarlari [11] ning tashkil etilishi yo’lga qo’yilgan bo’lib, ular bolalar, o’quvchilar, talabalar o’rtasida kitob o’qishga bo’lgan qiziqish va ehtiyojni qaror toptirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Yozuv paydo bo’lganidan boshlab kitob tarixiy taraqqiyoti davomida insoniyatga, uning ma’naviy ehtiyojini qondirishga xizmat qilib kelmoqda. O’tgan vaqt davomida uni tayyorlashda ishlatilgan xomashyoning turi ijtimoiy taraqqiyotga mos, mutanosib ravishda shakli, hajmi, dizayni va turi ham izchil o’zgarib bordi. Shaxsda kitob o’qish va kitobxonlikka ijobiy munosabatni qaror toptirish o’z-o’zidan ro’y bermaydi. Buning uchun har bir shaxsni maktabgacha ta’lim yoshidan boshlab, kitoblar bilan tanishtirish, ularning jamiyat va inson hayotidagi ahamiyati, amaliy qiymatini tushunishlari uchun zarur pedagogik shart-sharoitni yaratish lozim. Shaxsni kitoblar bilan tanishtirishda uzluksiz ta’limning izchil, tizimli va maqsadli amalga oshiriladigan dastlabki bo’g’ini – boshlang’ich sinflar o’ziga xos o’rin tutadi. Boshlang’ich sinflarda tashkiliy-metodik jihatdan pedagogik, psixologik talablar negizida tizimli faoliyatning yo’lga qo’yilishi boshlang’ich sinf o’quvchilarida kitobxonlik ko’nikmalarini samarali rivojlantirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ’ibot qilish bo’yicha komissiya tuzish to’g’risida”gi F-4789-son Farmoyishi, O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017-yil., 38-son, 1029-modda.

2. Ibrat. Ajziy. So’fizoda. – T.: Sharq, 1999. – 38 b.

3. Хафизов Д.М. Социокультурные практики повышения читательской активности молодежи: стимулирующие возможности моды: Автореф.дис... канд.наук. культурологии. – Челябинск: 2017. – 27 с.

4. Юматова М.А. Интерес к чтению: как его пробудить? //открытыйурок.рф/статьи/501680.

5. O’zbek tilining izohli lug’ati. N – Tartibli / 5 jildli. Uchinchi jild. A.Madvaliev tahriri ostida. – T.: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – 416 B.

6. Abdullayev A. Mutolaa madaniyati intellektual salohiyatni belgilab beradi //https://kun.uz/13172148.

7. Amaliy konferensiyada kitobxon ehtiyojini qondirish borasida taklif va tavsiyalar berildi // https://m.kun.uz/news/2018/11/16/amaliy-konferensiyada-kitobxon-etieezini-kondiris-borasida-taklif-va-tavsiyalar-berildi.

8. Bek U. Bugungi bolalar – ertangi kun xalqining kitobxonlik madaniyati qanday? //http://qalampir.uz/news/bugungi-bolalar-28094-ertangi-kun-xalqining-kitobxonlik-madaniyati-qanday-12485.

9. “Bolalarsiz” bolalar kutubxonasi //https://kun.uz/news/2019/01/21/ bolalarsiz-bolalar-kutubxonasi.

10. Dovrug'i doston Dushanbe yoki mo''jaz poytaxt mo''jizalari // <http://google.com/amp/s/daryo.uz>
11. Yoshlar va kitobxonlik madaniyati // <http://old.xs.uz/index.php/homepage/madaniyat/item/9576-joshlar-va-kitobkhonlik-madaniyati>.
12. Kitobxonlik: an'ana va zamon uyg'unligi // <https://soglom.uz/nigoh/kitobxonlik-anana-va-zamon-uygunligi>.
13. Kitob o'qimagan xalq johillikka mahkum // <http://ufq.uz/2017/11/13/548>.

UO'K 372.851

MAKTAB MATEMATIKA KURSIDA MANTIQIY FIKRLASHNING DOLZARBLIGI

Nabiyev Farrux Abduraximovich

*Namangan viloyati XTXQTMOHM Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasida
matematika fani o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasi*

E-mail: f_nabiyev@list.ru

Annotatsiya. Umumiy qilib aytganda mantiqiy fikrlash to'g'ri mulohaza yuritish, to'g'ri fikrlash usullarini, ya'ni to'g'ri fikrlardan to'g'ri xulosalar chiqarish usullarini o'rganadi.

Kalit so'zlar: matematika, mantiqiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, mulohaza, xulosa, o'quvchi, o'qituvchi.

UDC 372.851

THE IMPORTANCE OF LOGICAL THINKING IN MATHEMATICS LESSONS AT SCHOOL

Nabiyev Farrux Abduraximovich

The teacher of Department of exact and natural sciences, Namangan Regional Center for Upgrading and Retraining of Public Education Employees, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. In general, logical thinking is the study of how to think correctly, how to think correctly, that is, how to draw the right conclusions from the right thoughts.

Key words: mathematics, logical thinking, critical thinking, reflection, conclusion, student, teacher.

“Matematika hamma aniq fanlarga asos.

*Matematikani yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'ladi
va istalgan sohada ishlab ketadi”.*

Sh.Mirziyoyev

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy istiqlol g'oyasi Respublika Konstitutsiyasida e'tirof etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va jamiyatni barpo etish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishning yuqori bosqichlariga ko'tarish, jahon hamjamiyati safidan munosib o'rin egallashga yo'naltirilgan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo'lishi, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o'rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini hosil qilish, ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bilan bog'liqdir. Zero, yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug' ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish mustaqil O'zbekiston Respublikasining rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashini ta'minlash yosh avlodni komil inson hamda malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bog'liqdir.

Jahonda matematikaga daxldor barcha fanlarni o'kitishda ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni ko'llash hamda shu orqali ta'lim sifatini ta'minlash, ta'lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, matematikaning amaliy tatbiqlari samaradorligini oshirish va fanlararo aloqadorlik asosida o'quvchilarni kasbga yunaltirish kabi masalalarni qamrab olgan ilmiy tadqiqotlar keng ko'lamda olib borilmokda.

Bu o'z navbatida, innovatsion strategiyalarni matematika fani o'quv mashg'ulotlariga qo'llash, chuqurlashtirilgan maktab o'quvchilarining faolligini oshirish, mustaqil bilim olish va o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga keng tatbiq etish borasida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda fan, ta'lim va ishlab chikarish sohalarida olib borilayotgan islohotlar natijasida ta'lim tizimida barcha fanlar qatori matematika fanining ham o'quv-me'yoriy hujjatlari, moddiy-texnik bazasi yangilanmokda.

O'qitishning kompyuter texnologiyalariga asoslangan metodlarini tatbiq etish natijasida o'quvchilarning matematika faniga bo'lgan qiziqishlari ortib, iqtisodiyotning real sektoriga malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishilmoqda. Tabiiyki, bunday innovatsion metodlarni qo'llash negizida matematika fanini o'qitish uchun pedagoglar tomonidan o'quv jarayonini oldindan loyihalashtirish zarurati kuzatilmokda. Matematika ta'limini yanada rivojlantirishning chora- tadbirlarida «... matematika, fizika, kimyo, biologiya, informatika va chet tili kabi muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish»³³ ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu borada matematika fanlarining tarkibiy qismi sanalgan umumiy o'rta ta'lim maktablarining matematika darslarida fanlararo ta'lim texnologiyalari asosida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashlarini takomillashtirish hamda ilg'or ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchilarning matematika fani asoslarini o'qitishda yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etish, ta'lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarning puxta, chuqur o'zlashtirilishi, ularda amaliy ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishining kafolati bo'la oladi.

Antik davr olimlari va o'rta asrlarda yashagan buyuk bobokalonlarimiz mantiqiy fikrlashga katta e'tibor berilgan.

Mantiqiy fikrlash o'zi bu har bir kishiga uning yoshidan qat'i nazar zarur bilim hisoblanadi. Mantiqiy fikrlash qobiliyati sizni tezroq qaror qabul qilish, mantiqiy zanjirlar yaratish, turli obyektlar orasidagi munosabatlarni topish va natijani qisqa muddatda oldindan belgilash imkonini beradi. Bundan tashqari, har bir kishi boshqalarning xatti-harakatlarini tahlil qilib, ularning harakatlarining sabablarini aniqlay olishi bu unda mantiqiy fikrlash rivojlanganligidan dalolat beradi. Albatta bu tug'ma sovg'a emas, balki maxsus bilimlar, o'yinlar va mashqlar orqali erishiladigan qobiliyatdir.

Mantiqiy fikrlash- bu xulosaga kelish uchun mulohaza yuritishda fikrlar ketma-ket foydalaniladigan jarayon hisoblanadi.

Matematika fanini yaxshi o'zlashtirgan har bir o'quvchining mantiqiy fikrlashi va ijodiy yondashuvi yuqori darajada bo'ldi. U olgan bilimlari nafaqat misol va masalalar yechishda, balki hayoti mobaynidagi turli vaziyatlarda tezkorlik bilan mulohaza yuritib xulosa chiqarishga asos bo'ladi. Matematika darslarida o'quvchilar o'qishning dastlabki kunlaridanoq mustaqil ravishda xulosa chiqarishga o'rganadilar. Ular avvalo kuzatishlar natijasida, so'ngra esa mantiqiy tafakkur qilish natijasida xulosa chiqaradilar. Ana shu chiqarilgan xulosalar matematik qonuniyatlar bilan tasdiqlanadi. Buning natijasida matematiklarga xos mantiqiy fikrlash uni kelajakda amalga oshirmoqchi bo'lgan ishlar, borliqda sodir bo'layotgan voqea-hodisalar rivojini bashorat qilish darajasiga olib chiqadi.

Matematikaning mantiqiy fikrlashni rivojlanishi uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi qadim zamonlardanoq ma'lum edi. Fikrlashning matematik ko'rinishi haqida, ixtiyoriy ixtisoslikdagi mutaxassislarining uni bilishi kerakligi haqida gapirar ekanmiz, bunda mantiqiy fikrlashning yuqori sifatleri, qisqalik, tartiblanganlik hatto kichkina bo'lsa ham soxtalikka yo'l qo'ymaslik to'la dalil keltirish va hokazolarni tushunamiz. Ko'p kishilar bu qobiliyatlarni ko'pchiligi til, adabiyot, tarix hamda boshqa fanlarni o'rganish jarayonida ham rivojlanadi deyishlari mumkin.

Ammo, mantiqiy tafakkurning shakllanishida matematika fani so'zsiz birinchi darajali ahamiyatiga egadir, chunki u soxta ma'lumotlar bilan kelisha olmaydi, u so'zlarni, fikrlashni haqiqatga o'xshatib ko'rsatishdan ko'ra rad qilishni afzal ko'radigan noyob hamda yagona fanlardan biridir. Shuning uchun ham matematika o'qituvchisining jamiyat oldida mas'uliyati juda katta hisoblanadi.

Matematika o'qituvchisining vazifasi o'quvchilarda mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bilan birga ularda matematikaning qonuniyatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalashdan iboratdir.

Matematika darslarida o'rganiladigan har bir matematik xulosa qat'iylikni talab qiladi, bu esa o'z navbatida juda ko'p matematik tushuncha va qonuniyatlar bilan ifodalanadi. O'quvchilar ana shu qonuniyatlarni bosqichma-bosqich o'rganishlari davomida ularning mantiqiy tafakkur qilishlari rivojlanadi, matematik xulosa chiqarish madaniyatlari shakllanadi. O'quvchilarni biror matematik qonuniyatni ifoda qilmoqchi bo'lgan fikrlarni simvolik tilda to'g'ri ifodalay olishlari va aksincha simvolik tilda ifoda qilingan

³³Ўз.Рес.През.нинг 2019 йил 9 июлдаги «Математика таълими ва фанларини янада ривожлантиришни давлат томонидан қўллаб қувватлаш, шунингдек, В.И.Романовский номидаги математика институти фаолиятини тубдан такомиллаштириш тўғрисида»ги ПК-4387-сонли Карори. Ўзбекистон Республикаси Конун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 2019 йил, 07/19/4387/3397-сон.

matematik qonuniyatni o'z ona tillarida ifoda qila olishlariga o'rgatish orqali ularda matematik madaniyat shakllantiriladi.

Maktabda o'quvchilar mantiqiy fikrlashlarini rivojlanishi asosan, geometriya darslarida o'z aksini topadi desak, biroz yanglish yo'nalishda qolib ketamiz. Har qanday matematik material xoh arifmetik, xoh algebrlik ma'lumot bo'lsin, mantiqiy fikrlashni tarbiyalash uchun yaxshi asos hisoblanadi. O'quvchilarning mantiqiy fikrlari arifmetik va algebrlik masalalarni yecha borgan sari o'z-o'zidan rivojlanaveradi deyish ham noto'g'ri hisoblanadi. Chunki o'qituvchi o'quvchilardan faqat masala hamda misollar yechtiradigan bo'lsa, o'quvchilarning mantiqiy fikrlashlarining rivojlanishi yuz bermasligi mumkin. Natijada ma'lum tipdagi masalalarni rasman o'zlashtirib olgan o'quvchilar masalalarning sharti bir oz o'zgartirilganda, uning yechilishini asoslab bera olmasdan shoshib qoladilar.

Shuning uchun matematika ta'limining dastlabki dastlabki yillaridanoq o'quvchilarda masalada berilganlarni hamda uning shartlarini shoshilmasdan, puxta tahlil qilish ko'nikma hamda malakalari hosil qilish muhimdir. Bunday malakaning yetishmasligi natijasida, ayrim o'quvchilar o'zining fikrlash qobiliyatini ishga tushurmasdan, o'zini qiynamasdan berilgan topshiriq yoki masalaning savolini o'qituvchi o'qib bo'lmasdanoq noto'g'ri javobini aytib qo'ya qoladi. Shuning uchun har bir o'qituvchi o'qishning birinchi yilidanoq matematik masalaning sharti ustida o'ylashga o'rgatish hamda mantiqiy fikrlashni shakllantirishga katta e'tibor berish lozim.

Maktab o'quvchisi kitob-daftarida raqam, har xil hisoblashlarni emas, balki oddiy hayotni, kelajagini ko'ra olishi kerak. O'qituvchi o'z o'quvchilarini mustaqil izlanish, tadqiqot olib borish, eng asosiysi mantiqiy fikrlashlarini shakllantirish hamda rivojlantirish va o'zi ham ana shunday qonuniyatlarni ongli ravishda topishga jalb qilishi katta samara beradi.

Biz maktab matematika kursida fikrlashlarini o'stirish uchun yana bir fikrlash mahsuli, ya'ni tanqidiy fikrlashni unutilib qo'yamsligimiz lozim. Chunki tanqidiy fikrlash jarayonida biz odatlanib qolgan taxmin qilish va fikrlash doirasidan chekingan holda yangicha fikrlashga undaydi. Bunday fikrlashlar natijasi bizni kashfiyot qilishga, izlanishlar va katta orzularni amalga oshirishga asos bo'ladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish yo'lida bir necha sabablarga ko'ra ushbu savollardan foydalanamiz: ular dunyoqarashni kengaytirish va borliqqa boshqa ko'z bilan qarashimizga ko'mak beradi. Shuningdek, bu turdagi savollar bizni tasavvurimizni kengaytirish va ich-ichimizdagi savollarga javob qidirishga undaydi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda quyidagi savollarni keltirsak bo'ladi:

- "Nima uchun?";
- "Qanday qilib?";
- "Agar ... bo'lsa, unda ...".

Bizga ma'lumki, matematika tabiiy ravishda tanqidiy fikrlashni o'z ichiga olgan fan sifatida tanilgan.

Quyida bu qiziqarli fan bo'yicha bir nechta ajoyib savollar keltirilgan.³⁴

1. Dunyoni yanada yaxshilash uchun matematikadan qanday foydalanishimiz mumkin?
2. Matematika jamiyatimizga qanday foyda keltirdi?
3. Qachon va qanday qilib matematika butun dunyo tarixida muhim rol o'ynagan?
4. Matematikadan muloqot vositasi sifatida foydalanish mumkinmi? Qanday qilib?
5. Hayotdagi qanday vaziyatlarda matematik formulalar muhim ahamiyatga ega?
6. Qachon "to'g'ri" degan javob eng yaxshi yechim bo'la olmaydi?
7. Qanday qilib hayotdagi muammolarni hal qilishda raqam va diagrammalardan foydalanish mumkin?
8. Matematikadan vaziyatlar va hodisalarni baholash yoki taqqoslashda qanday foydalaniladi?
9. Biror hodisa sodir bo'lish ehtimolligi qanday aniqlanadi va xabar qilinadi?
10. Muayyan matematik muammoni yechishda eng yaxshi strategiyani qanday aniqlash mumkin?

Ushbu berilgan ma'lumotlardan o'quvchilaringiz, farzandlaringiz yoki o'zingizning tanqidiy fikrlash ko'nikmalaringizni shakllantirish va kelgusi jarayonlarda rivojlantirish uchun foydalanishingiz mumkin.

Bugungi kunda maktab bitiruvchilariga qo'yiladigan talablar o'zgardi, maktab nafaqat bilim bilan ta'minlabgina qolmay, balki olingan bilimni hayotda qo'llay olish(kompetentsiya), mustaqil hamda mantiqiy fikrlash, tanqidiy fikrlash ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishi kerak. Bularni amalga oshirishda nafaqata matematika fani o'qituvchisi, balki barcha fan o'qituvchilarining o'rni beqiyos hisoblanadi.

³⁴ https://medium.com/@blog_62129/tanqidiy-fikrlashni-rivojlantiruvchi-100-ta-savol

Foydalanilgan adabiyotlar va internet manbalari/References and Internet resources

1. Ўз.Рес.През.нинг 2019 йил 9 июлдаги «Математика таълими ва фанларини янада ривожлантиришни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш, шунингдек, В.И.Романовский номидаги математика институти фаолиятини тубдан такомиллаштириш тўғрисида»ги ПК-4387-сонли Қарори. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 2019 йил, 07/19/4387/3397-сон.
2. Alixonov S. «Математика о'қитиш методикаси». Qayta ishlangan II nashri. Т., «О'қитувчи» 1997-йил.
3. Kolyagin Yu.N. va boshqalar. Metodika prepodavaniya matematiki v sredney shkole. Obshaya metodika., М., «Prosveshenie», 1988.
4. https://medium.com/@blog_62129/tanqidiy-fikrlashni-rivojlantiruvchi-100-ta-savol.
5. <http://www.ziyonet.uz>.- Ijtimoiy axborot ta'lim portal.

UO'K 372.857

БИОЛОГИЯ ТА'ЛИМИ ЖАРAYONIDA MASALA VA MASHQLAR YECHISH ORQALI O'QUVCHILAR KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Niyozov Qahramon Adashaliyevich

Namangan viloyati XTXQTMOHM katta o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada biologiya ta'limi jarayonida masala va mashqlaryechishorqali o'quvchilar kompetentligini rivojlantirish hamda ushbu jarayonda yuzaga kelayotganmuammolar va ularning yechimlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: genetika, irsiyat, gen, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya.

UDC 372.857

DEVELOPING STUDENTS' COMPETENCE THROUGH DOING SUMS AND EXERCISES IN THE BIOLOGY LESSONS

Niyozov Qahramon Adashaliyevich

Senior lecturer, Namangan Regional Center for Retraining and Advanced Training of Public Educators, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. This article focuses on developing students' competencies through solving problems and exercises in biology, as well as the problems that arise in the process and their solutions.

Keywords: genetics, heredity, gene, knowledge, ability, skills, competence.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartining maqsadi – umumiy o'rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat³⁵.

Biologiya darslarida o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lish, har bir guruh uchun alohida vazifalar berish, ish jarayonida olingan natijalarni himoya qilish ko'nikmalarini rivojlantirish asosida ta'lim samaradorligini oshirishga erishiladi. Bu jarayon o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini va faolligini o'stiradi, dars jarayonida olgan nazariy bilimlarini yanada mustahkamlaydi.

Biologiya fanining murakkab bo'limlaridan biri bo'lgan genetika asoslari bo'yicha masala va mashqlarni bajarishda o'quvchilar qiynchiliklarga uchraydilar. Ya'ni genetika asoslari bo'limi yuzasidan berilgan masala va mashqlarni yechishda o'quvchilarga qulay bo'lgan ishlash printsiplari, algoritmik ketma-ketlik asosidagi texnologiyalar hamda ma'lum bir qonuniyatlar asosida formulalar ishlab chiqilmaganligi sababli o'quvchilarda masala va mashqlarni yechish kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida muammolar yuzaga kelmoqda. Hozirgi ta'lim-tarbiya jarayoni o'quvchilar kompetentligini shakllantirishda pedagogik, psixologik va texnologik yondashuvga asoslanib ish olib borishni taqazo etmoqda.

³⁵Umumiy o'rta ta'limning DAVLAT TA'LIM STANDARTI. Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6-apreldagi 187-son Qarorining 1-ilovasi.

Quyida biologiya fanidan 9-sinflarda “Birikkan holda irsiylanish va jins bilan bog‘liq holda irsiylanishga doir masalalar yechish” mavzusidagi amaliy mashg‘ulotida berilgan ayrim masala va mashqlarni o‘ziga xos usullar yordamida yechishni tavsiya etamiz.

1. Pomidor o‘simligida shoxlarining uzunligi bilan mevasining shaklini ifodalovchi genlar birikkan bo‘lib, bir xromosomada joylashgan. Seleksioner uzun poyali (H) va yumaloq mevali (R) gomozigota pomidor bilan kalta poyali (h) va noksimon mevali (r) pomidorni chatishtirib, F₁ da 110 ta, F₂ da 1200 ta o‘simlik yetishtirgan: a) F₂ da uzun poyali va yumaloq mevasi qancha? b) F₁ da necha xil gameta hosil bo‘ladi? d) F₂ da necha xil genotipik sinf yuzaga keladi? e) F₂ da necha o‘simlik kalta poyali noksimon mevali bo‘ladi?



Yechilishi

H — uzun poyali

h — kalta poyali

R — yumaloq mevali

r — noksimon mevali



F ₂		♂	$\begin{array}{c} \text{H} \mid \\ \text{R} \mid \end{array}$	$\begin{array}{c} \text{h} \mid \\ \text{r} \mid \end{array}$
		♀	$\begin{array}{c} \text{H} \mid \\ \text{R} \mid \end{array}$	$\begin{array}{c} \text{h} \mid \\ \text{r} \mid \end{array}$
	$\begin{array}{c} \text{H} \mid \\ \text{R} \mid \end{array}$	$\begin{array}{c} \text{u.yu} \\ \text{H} \mid \text{H} \\ \text{R} \mid \text{R} \end{array}$	$\begin{array}{c} \text{u.yu} \\ \text{H} \mid \text{h} \\ \text{R} \mid \text{r} \end{array}$	
	$\begin{array}{c} \text{h} \mid \\ \text{r} \mid \end{array}$	$\begin{array}{c} \text{u.yu} \\ \text{H} \mid \text{h} \\ \text{R} \mid \text{r} \end{array}$	$\begin{array}{c} \text{k.n} \\ \text{h} \mid \text{h} \\ \text{r} \mid \text{r} \end{array}$	

Javob:

a) F₂ da uzun poyali va yumaloq mevasi qancha?

4 ta ——— 1200

$$x = \frac{3 \times 1200}{4} = 900 \text{ ta}$$

3 ta ——— x

b) F₁ da necha xil gameta hosil bo‘ladi? 2 xil

d) F₂ da necha xil genotipik sinf yuzaga keladi? 1:2:1 ya’ni 3 xil

e) F₂ da necha o‘simlik kalta poyali noksimon mevali bo‘ladi?

4 ta ——— 1200


$$x = \frac{1 \times 1200}{4} = 300 \text{ ta}$$

1 ta ——— x

2. Drozofila meva pashshasida ko'zning qizil rangini ifodalovchi allel-W, oq rangini ifodalovchi allel-w ustidan dominantlik qiladi. Ular jinsiy xromosomalarda joylashgan. Tajribada qizil ko'zli gomozigota urg'ochi drozofila oq ko'zli erkak drozofila bilan chatishtirilgan. Olingan F₁ dagi erkak va urg'ochi formalar o'zaro chatishtirilib, F₂ da 300 ta drozofila olingan: a) ulardan nechitasi erkak va nechitasi urg'ochi; b) erkak drozofilalarning qanchasi qizil ko'zli, qanchasi oq ko'zli bo'lgan?

Yechilishi:

W-ko'zning qizil rangini ifodalovchi gen
w-ko'zning oq rangini ifodalovchi gen



Javob:

a) Ulardan nechitasi erkak va nechitasi urg'ochi?

F₂ da 300 ta drozofila olingan bo'lsa, ulardan 150 tasi erkak va 150 tasi urg'ochisi bo'ladi.

b) erkak drozofilalarning qanchasi qizil ko'zli, qanchasi oq ko'zli bo'lgan?

2 ta ——— 1 ta

$$x = \frac{150 \times 1}{2} = 75 \text{ ta}$$

150 ——— x

Demak, 75 tasi qizil ko'zli, 75 tasi oq ko'zli.

Yuqoridagi masala yechish usullarining muvaffaqiyati o'quvchilar masala va mashqlarni yechish jarayonida nafaqat ma'lum bir izchillik, tegishli formulalar va printsiplar orqali berilgan masala va mashqlarni yechishi, qolaversa ushbu yo'nalishdagi masala va mashqlarni yechishdagi kompetentsiya instrumentiga ega bo'lishlariga erishiladi.

Xulosa qilib aytganda, genetika asoslari bo'yicha masala va mashqlar yechishning o'ziga xos usullari o'quvchilarda ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda hamda fanga oid kompetentsiyalarni egallanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, o'quvchilar ma'lum qonuniyatlar va algoritmik izchillik orqali masala va mashqlarni mazmun-mohiyatini to'liq idrok etadilar. Bundan tashqari, biologiya fanining matematika, fizika va kimyo fanlari bilan integratsiyasi amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" 187-son qarori.

2. Zikryayev A va boshqalar. Biologiya (Sitologiya va genetika asoslari). O'rta ta'lim muassasalarining 9-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik. "Yangiyul poligraph service". Toshkent, 2019.

3. G'ofurov A., Fayzullaev S., Xolmatov X. Genetikadan masala va mashqlar. –T.: «O'qituvchi», 1991.

UO'K 373.3

INNOVATSION TEXNOLOGIYA VA INTERFAOL METODLAR ASOSIDA O'QUVCHILAR IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH

Abdullayeva Kibriyo Ravshanbekovna

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti, O'zbekiston Respublikasi

E-mail: Kibi2206@yandex.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlarni o'quv jarayoniga joriy etish va zamonaviy yondashuv asosida dars samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: strategiya, innovatsiya, ta'lim sifati, aktyor, rejissyor, yangi tipdagi o'qituvchi, fasilitator.

UDC 373.3

INCREASING STUDENT SOCIAL ACTIVITY ON THE BASIS OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES AND INTERACTIVE METHODS

Abdullayeva Kibriyo Ravshanbekovna

Doctoral student of Namangan State University, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. In this article, it is written about innovational technologies applying interactive methods to teaching, and ways of making lessons more effective with the help of modern approaches.

Keywords: strategy, innovation, education quality, actor, producer, modern teacher, facilitator.

Ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish ta'lim natijalari sifatini oshirish imkonini beradi. Shu jihatdan, innovatsion texnologiyalar asosida ta'lim jarayonlari sifat va samaradorligini oshirish muammosi ta'lim siyosatining bugungi kundagi muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari amaliyotida innovatsion jarayon rahbar va pedagoglarning innovatsion faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasasiga innovatsiyalash tatbiq etishdan ko'zlangan asosiy maqsad:

- ta'lim sifatini yanada yuqori bosqichga ko'tarish;
- ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish;
- o'quvchilarning funksional savodxonligi, ijodiy, tanqidiy fikrlashini rivojlantirish;
- o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash;
- fan va amaliyotning yangi yutuqlaridan foydalanib, o'quvchilarda faoliyatni motivatsiya qilish ko'nikmasini rivojlantirish;
- o'quvchilarda ma'lumotlarni mustaqil qabul qilish va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish;
- o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish hisoblanadi.

So'nggi yillarda uzluksiz ta'limni yangi sifat bosqichiga ko'tarish va uning samaradorligini oshirish, bunda innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalasining nazariy tadqiqiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur yo'nalishda bir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirildi. Ulardagi asosiy g'oya va natijalar barcha turdagi ta'lim muassasalari faoliyatining sifat va samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlarni olib borishda poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida innovatsion texnologiyalar asosida ta'lim jarayonlari sifat va samaradorligini oshirishda, innovatsion texnologiyalar asosida ta'lim jarayonlari sifat va samaradorligini oshirishning mazmun-mohiyati va ahamiyatini ilmiy asoslash, "yangilik", "yangilik kiritish", "yangilanish", "innovatsiya", "innovatsion faoliyat", "innovatsion jarayon", "innovatsion madaniyat" kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini izohlash;

- umumiy o'rta ta'lim muassasalariga innovatsiyalarni tatbiq etish imkoniyatlari va shart-sharoitlarini aniqlash;
- umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonlari sifat va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan pedagogik innovatsiyalar mazmuni va mezonlarini aniqlash, tayanilishi lozim bo'lgan tamoyillarni belgilash;
- umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifat va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan innovatsion pedagogik jarayonning tarkibiy tuzilishi tizimini ishlab chiqish, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati, komponentlarini ilmiy asoslash, maqsad va vazifalarini belgilash;
- umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash mexanizmini ishlab chiqish, uning mazmun-mohiyati va ahamiyatini ilmiy asoslash hamda amaliyotga tatbiq etish yo'llarini belgilash;

- umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilarining innovatsion madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish va ilmiy asoslash;

- umumiy o'rta ta'lim muassasalarida innovatsion texnologiyalar asosida ta'lim jarayonlari sifat va samaradorligi oshirishga yo'naltirilgan modelni ishlab chiqish, ilmiy asoslash va kelajakda takomillashtirilgan yo'llarni belgilash muhimdir.

Umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash, innovatsion madaniyatini shakllantirish, ularga amaliy-metodik yordam ko'rsatish yo'nalishida o'quvchilarni metodik mahsulotlari bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda barcha ta'lim, fan, madaniyat va ma'rifat muassasalari ta'lim portali va internetga ulangan. Bu esa ta'lim jarayoniga masofadan turib o'qitish usullarini, o'quvchi yoshlar uchun axborot-kommunikatsiya xizmatlarining keng majmuini joriy etish imkonini bermoqda. Har bir ta'lim muassasasida yaratilgan bunday sharoitdan unumli va samarali foydalanish, o'qituvchi va o'quvchining ta'lim-tarbiya jarayonida vaqtning aniqliligi tartibiga ko'ra axborot tizimi orqali faol axborot va ma'lumotlarni egallash, hamda ularga zamonaviy texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish imkonini beradi.

Ta'lim sifati jamiyatning sifatini ham belgilash, nafaqat ta'lim tizimi uchun, balki davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun ham eng asosiy muammo hisoblanadi. O'quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko'nikmalar ko'p yillarda ularning moddiy va ma'naviy sohalaridagi imkoniyatlarini belgilaydi hamda ularning muvaffaqiyati ijtimoiylashuvini ta'minlaydi.

Xususan, yangi elektron o'quv adabiyotlar ishlab chiqilishiga, elektron darsliklar, multimediali dasturlar yaratilishiga puxta zamin yaratadi. Ammo ta'lim sohasida elektron darslik yoki qo'llanma yaratishda ilmiylik, tushunarlik va qiziqarlilik, muntazamlilik, mazmuni puxta o'zlashtirish, o'quvchi va talabaning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, unda belgilarni ongli ravishda o'zlashtira olishini va ko'rgazmalilik kabi pedagogik tamoyillarga tayanilishi kerak. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun yaratilgan har bir darslik, o'quv qo'llanma yoki multimediali dars turlarni sohalariga joylashtirishdan oldin ushbu soha mutaxassislari maslahatlariga tayanish zarur.

Pedagogik faoliyatini endigina boshlagan yosh o'qituvchi hali yaxshi natijalarga erisha olmasligi mumkin. Buning sababi unda pedagogik qobiliyatining yo'qligi emas, balki pedagogik ko'nikma va malakasining yetarli bo'lmasligidir. Agar o'qituvchi havas bilan aql yuritib astoydil ishlasa kasbiy mahoratini oshirishga harakat qilsa, bunday ko'nikma va malaka albatta paydo bo'ladi. O'qituvchining kasbiy mahoratini takomillashtirish yo'nalishlari orasida uning innovatsion faoliyati yetakchi o'rinni egallaydi. Innovatsiya – bu yangi texnologiyalarga, yangi ishlab chikarish omillariga tatbiq etilgan yangi bilimlardan foydalanish (yoki ma'lum bilimlardan yangicha foydalanish) yuli bilan yangi ehtiyojni qondirishga qaratilgan harakat yoki bunday harakat natijasi (yoki avvalgi ehtiyojni ancha samarali qondirishning yangi yo'lini taklif etish)dir.

Innovatsiya keng va tor ma'noda ishlatiladi. Birinchi ma'noda innovatsiya – biror bir yangi ijtimoiy ehtiyojni qondirish uchun yangi ilmiy, amaliy vosita, ya'ni yangilik yaratish, tarqatish va qo'llashni o'z tarkibiga oladigan kompleks jarayon sifatida qaraladi.

“Innovatsiya” ikkinchi ma'noda biror bir jamoa faoliyatini takomillashtirish uchun kiritilayotgan va bu innovatsiya subyekti tomonidan yangilik deb qabul qilingan yangi vosita, uslub, yondashuvlar tizimiga nisbatan ishlatiladi.

Har qanday yangilik kiritilishining, shu jumladan pedagogik texnologiyalarning joriy qilinishi va zaruriy samara berishi pedagogik jamoa a'zolarining yangilikni qanday qabul qilishi unga bo'lgan munosabatiga bog'liq bo'ladi. Yangilikning, ya'ni pedagogik texnologiyaning pedagogik jamoada muvaffaqiyatli joriy qilinishi va ko'zda tutilgan samara berishi bir qator omillarga bog'liq.

O'qituvchining innovatsion faoliyati quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi:

- kasbiy faoliyatning ongli tahlili;
- me'yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;
- kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik;
- faoliyatga nisbatan ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo'lish;
- o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish,
- o'z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatida mujassam qilish.

Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta'lim taraqqiyoti sharoitida o'qituvchi innovatsion faoliyatiga bo'lgan zaruriyat quyidagilar bilan o'lchanadi: ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta'lim tizimi, metodologiya va o'quv jarayoni texnologiyasining tubdan yangilashni talab qiladi. Bunday sharoitda o'qituvchining innovatsiya faoliyati pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va foydalanishdan iborat bo'ladi;

- ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish doimo o'qitishning yangi tashkiliy shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi;

- pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining munosabati xarakteri o'zgarishi.

Shunday qilib, har bir zamonaviy o'qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, kontseptsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi sifatida faoliyat ko'rsatishi zarur. Bu innovatsion kompetentlik pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta'limni jahon talablari darajasida tashkil etish, axborot kommunikatsion vositalar yordamida takomillashtirish, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda infaol ta'lim usullarini qo'llash muhimdir. Bu o'quvchilarda fan asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi, faolliklarini oshiradi, mustaqil adabiyotlar ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi, masala va muammolar yechimlarini izlashga jalb qilib, ta'limning samaradorligini oshiradi

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch." Toshkent. "Ma'naviyat", 2009 y. 61-bet).
2. Azizxodjaeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi –T., 2000.
3. Saidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar-T: Moliya nashr., 2003.
4. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining metodik guruhlarini o'qitish uchun seminar modullari «Ta'limni rivojlantirishdagi o'zgarishlar» (1-modul) Toshkent 2010.
5. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining metodik guruhlarini o'qitish uchun seminar modullari «Samarali maktab va hamkorlik madaniyati» (2-modul) Toshkent, 2010.
6. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining metodik guruhlarini o'qitish uchun seminar modullari «O'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim» (3-modul) Toshkent, 2010.

UO'K 371.3

INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA MUL'TIMEDIALI ELEKTRON O'QUV-USLUBIY MAJMUALAR YARATISH

Taylakova Dilnoza Norbekovna

Toshkent shahar 134-maktab direktori, Toshkent, O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya. Maqolada innovatsion yondashuv asosida Multimedial elektron o'quv-uslubiy majmualar yaratish texnologiyalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Axborot texnologiyalari, innovatsion yondashuv, multimedia, elektron o'quv-uslubiy majmualar.

UDC 371.3

CREATION OF MULTIMEDIAL ELECTRONIC EDUCATIONAL AND METHODOLOGICAL SETS ON THE BASIS OF INNOVATIVE APPROACH

Taylakova Dilnoza Norbekovna

Director of secondary school No.134, Tashkent city, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. The article describes the technology of creating multimedia e-learning complexes based on an innovative approach.

Keywords. Information technology, innovative approach, multimedia, electronic teaching aids.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyundagi "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-5099-sonli Farmonini ta'minlash maqsadida ta'limi muassasalari uchun DTS va o'quv dasturlariga mos zamonaviy dizayn talablari asosida barcha fanlardan Multimedial elektron o'quv-uslubiy majmualar (MEO'UM)lar yaratish lozim.

Zamonaviy axborot texnologiyalarni ta'lim tizimida qo'llanishi mavjud bo'lgan ko'pgina tushunchalarni ham mazmunan, ham mohiyatan innovatsion yondashuv asosida qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Shu bois, ta'lim va o'qitish jarayonlariga boshqacha yondashuv hamda e'tibor bilan qarala boshlandi. Ta'lim jarayoni deyilganda, o'qituvchi va o'quvchi o'zaro munosabatidagi yaxlit jarayon ko'z oldimizga keladi. Endilikda ushbu jarayon elektron o'quv-uslubiy majmualar – elektron darsliklar, video va audio kassetalar, kompyuter dasturlari, televizion va radio o'quv kurslari bilan uyg'unlashib bormoqda. Bu jarayonda o'qitish o'quvchining ko'proq ichki imkoniyatlari, intellektual potentsiali, axborotni qabul qilish va o'zlashtirish xususiyatlariga bevosita bog'liq.

Innovatsion yondashuv asosida tayyorlangan Multimedial elektron o'quv-uslubiy majmualarning afzalliklaridan biri mustaqil ta'lim olishni, ijodiy fikrlashni, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish orqali o'quv materiallari va ilmiy ma'lumotlarni har tomonlama chuqur o'zlashtirilishiga mo'ljallanganligidadir.

Shuningdek, ushbu turdagi majmualar ilmiy ma'lumotlarning jamlanganligi, ko'rgazmalarga boyligi, ya'ni turli xil animatsiyalardan foydalanganligi, interaktivlik xususiyatlarini hisobga olinganligi bilan an'anaviy o'quv-uslubiy majmualardag afzalroqdir [1-3].


MEO'UMLarda matnlar jozibali, ta'sirli shaklda bayon etiladi, asosiy tushuncha va ta'riflar aniq va ravshan yoziladi, shu bilan bir qatorda foydalanuvchilarning bilimlarini nazorat qilish imkoniyatiga egadir.

MEO'UMda axborotlar zamonaviy usulda multimediya va animatsiya vositalari yordamida to'laonli yoritiladi. Uning asosiy e'tiborli jihati olingan bilimlarni interaktiv usulda nazorat qilish imkoni mavjudligidadir. MEO'UMni yaratish jarayoniga turli yo'nalish bo'yicha mutaxassislar jalb qilinadi (1-rasm).



1-rasm. MEO'UMni yaratish jarayoniga jalb qilinadigan mutaxassislar

Faqat tajribadan o'tgan axborot texnologiyalari va pedagogik uslublar orqaligina yaxshi MEO'UMni yaratish mumkin. MEO'UM ham xuddi boshqa qo'llanmalar kabi – ta'lim mazmunining tashuvchisi va o'qitish omili bo'lib xizmat qiladi. O'quv materiali singdirilgan MEO'UMning tuzilishini sxema ko'rinishida quyidagicha tasvirlash mumkin (2-rasm).



2-rasm. MEO'UM tuzilishi.

Multimediali elektron o'quv-uslubiy majmua resurslari ta'lim jarayonini individuallashtirish va differentsiyalash, o'quvchining o'quv faoliyatini o'zi nazorat qilish va to'g'ri yo'naltirish, kompyuterning hisoblash imkoniyatlaridan foydalanish tufayli o'quv vaqtini tejash, o'quv materiallarini vizuallashtirish, o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish, ularni imitatsiyalashtirish, turli pedagogik vaziyatlarda optimal qaror qabul qilish malakasini shakllantirish, fikrlashning aniq bir shakli (ko'rgazmali-obrazli, nazariy)ni rivojlantirish, bilish faoliyati madaniyatini shakllantirish kabi imkoniyatlarni beradi.

MEO'UMLar asosida o'quv jarayonini tashkil etish multimedia texnologiyalarini qo'llanilishi o'quvchilarda o'qishga qiziqishni orttirishi, ta'limning interaktiv xususiyati asosida o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishi va o'quv materiallarini o'zlashtirilishining samaradorligini oshirishi, real holatlarda namoyish qilinishi qiyin, yoxud murakkab bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va kuzatish imkoniyatini berishi; o'quv materiallarining o'zlashtirilishi nafaqat darajasiga ko'ra, balki o'quvchilar erishgan mantiq va qabul qilishlari darajasiga ko'ra ham samarali bo'lishini ta'minlashi, an'anaviy hamda masofali o'qitish o'quv-metodik ta'minotining samarali integratsiyasini ta'minlashi, o'quvchilarga mustaqil izlanish yo'li bilan materiallarni topish, o'rganish hamda muammoli masalalarni hal etish orqali ularda ma'lum tadqiqot ishlarini amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirishi, o'quvchilarning kurs, malakaviy bitiruv ishlarini bajarishda, magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlashda o'quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlab olish, axborot hamda ma'lumotlarni tahlil eta olish kabi malakalarni shakllanishi uchun sharoit yaratishi kabi didaktik vazifalarni amalga oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. – Toshkent: “Fan”, 2007. – 160 b.
2. Краснова Г.А., Беляев М.И., Соловьев А.В. Технологии создания электронных обучающих средств: 2-е издание. – Москва: МГИУ, 2002. – 304 с.
3. Taylaqov N.I. Elektron darslik yaratishga qo'yiladigan talablar // Xalq ta'limi. –2005. – № 2. – B. 17-20.

UO'K 372.41

BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

To'rayeva Nargiza Zokirjanovna

Namangan viloyati XTXQTMOHM katta o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quvchilarni muammoli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish, o'quvchilarning ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, muammoli ta'lim texnologiyalari qo'llanilganda o'quvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o'rganish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: o'quvchilar, o'qituvchi, muammo, texnologiya, muammoli vaziyat, ijodiy tafakkur, faoliyat, ong, yosh.

UDC 372.41

APPLYING PROBLEMATIC EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN PRIMARY SCHOOL LESSONS

To'rayeva Nargiza Zokirjanovna

Senior Lecturer, Department of Preschool, Primary and Special Education Methodology, Namangan RCURPEE, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. This article focuses on activating and accelerating student activity through problem-based learning technologies, developing students' creative thinking and creative abilities, helping students to think independently when using problem-based learning technologies, the causes and consequences of the problem. There is an idea to study the analysis, to find the solution.

Keywords: students, teacher, problem, technology, problem situation, creative thinking, activity, mind, age.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev: “Yurtimizda ilm-fan, sog'liqni saqlash, ma'daniyat va san'at, sport kabi muhim sohalar faol tarzda rivojlanmoqda”,- deb ta'kidlagan edi³⁶. Darhaqiqat, Respublikamizda ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar keng doirada amalga oshirib kelinmoqda. "Hozirgi kunda innovatsion texnologiyalar va ilm fanni yanada rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishlari uchun ularga zarur shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim siyosatining muhim maqsadlaridan biri yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalashdir. Barkamol inson deganda ma'naviy jihatdan yetuk, o'z vatanining tarixi, buguni va kelajagi uchun qayg'uradigan, shuningdek iqtisodiy taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shish ishtiyoqida yonib yashaydigan shaxsni tushunish bugungi kun talabiga mos keladi. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz aholisining 321 foizini yoki 10 millionini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarimiz tashkil etadi. Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo'lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi. Bu sohada olib borayotgan keng miqyosli ishlarimizni, xususan ta'lim tarbiya bo'yicha qabul qilingan umumilliy dasturlarimizni mantiqiy yakuniga yetkazishimiz zarur. Shu maqsadda hukumatning, tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta'lim tizimining, hurmatli domlalarimiz,

³⁶ Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent : O'zbekiston, 2016. - 56 b.

professor-o'qituvchilarimizning eng muhim vazifasi yosh avlodga puxta ta'lim berish, ularni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iborat" deb aytgan muhtaram prezidentimizning ta'sirli jummalari har bir o'qituvchini olg'a intilishga undaydi. Yurtimizda bugungi kunda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar yosh avlodning dunyodagi eng ilg'or davlatlardagi tengdoshlaridan aslo kam bo'lmasligiga xizmat qilmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim sohasida ulkan o'zgarishlar sodir bo'layotgan bir davrda ta'lim tuzilishida innovatsion jarayonlar pedagogika fani oldiga yuqori malakali, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlovchi shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish, hayotga tayyorlash masalalarini ko'ndalang qo'ymoqda. Shunday muammolarni yechishda ta'lim tizimiga pedagogik texnologiyaning kirib kelishi ta'lim tizimi va jamiyat oldida turgan muhim masalalarni yechishga imkon yaratadi. Pedagog texnologiyalar o'quv jarayonida o'quvchi va o'qituvchi doimiy izlanishga, uzuluksiz o'z ustida ishlashga undaydi.

Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi nafaqat o'qituvchi kasbiy mahoratining o'sishiga, pedagogik faoliyatda zarur bo'lgan axborot manbalarini izlashga, izohlashga, pedagogik muammolar yechimini topishga, balki pedagogik vaziyatlarning barcha nozik tomonlarini tushunish, izohlash, tahlil va talqin etish va anglashga ijobiy yordam beradi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi keng ko'lamlı, serqirra tushuncha bo'lib, u ta'lim-tarbiya amaliyotini rivojlantirish ehtiyojlari asosida kelib chiqqan va hozirda barcha fanlarda o'z o'rniga ega. O'qitish jarayonini yangilanishi va rivojlanishi faqatgina bilim berish sifatini oshirib qolmay, balki bilim berishni tashkil etishning ilmiy darajasini, uning uslub va qoidalarida ham aks etadi. Shu ma'noda, muammoli ta'lim texnologiyasidan darslarni o'tishda foydalanish ijobiy natijalarni kafolatlab beradi. Ma'lumki, bu ta'lim turidan aniqrog'i uning ayrim elementlaridan qadimdan pedagoglarimiz foydalanib kelishgan.

Muammoli ta'lim texnologiyalari o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Muammoli ta'lim o'quvchilarning ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda jiddiy ahamiyatga ega. Muammoli ta'limning bosh maqsadi o'quvchilarning muammoni to'liq tushunib yetishiga erishish va ularni hal eta olishga o'rgatishdan iborat. Muammoli ta'limni amaliyotda qo'llashda asosiy masalalardan biri o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq muammoli vaziyat yaratishdan iborat.

Turli o'quv fanlari bo'yicha o'qituvchilar darslar jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilishni va ularni yechish usullarini oldindan ko'zda tutishlari kerak.

Muammoli ta'limning asosiy g'oyasi bilimlarni o'quvchilarga tayyor holda berish emas, ular tomonidan dars mavzusiga tegishli muammolar bo'yicha o'quv-tadqiqotlarini bajarish asosida o'zlashtirilishini ta'minlashdan iborat. Muammoli vaziyat hosil qilishda quyidagilar hisobga olinishi lozim: Muammolar nazariy yoki amaliy yo'nalishda bo'ladi. Darsda hosil qilinadigan muammoli vaziyat hamda o'quvchilarga hal etish taklif etiladigan muammoga qo'yiladigan eng asosiy talab o'quvchilarning qiziqishini oshiradigan, eng kamida esa o'quvchilarda qiziqish hosil qiladigan bo'lishi kerakligidan iborat. Aks holda ko'zda tutilgan natijaga erishish imkoni bo'lmaydi. Muammo o'quvchilarning bilim darajalariga hamda intellektual imkoniyatlariga mos bo'lishi shart.

Muammoni yechish taxminlarini shakllantirishda o'quvchi o'zlashtirgan bilimlari asosida kuzatish, solishtirish, tahlil, umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi aqliy faoliyatlarni bajaradi. Aqliy faoliyatdagi asosiy jarayon fikrlash jarayoni bo'lib, fikrlashning sifati uning mantiqiyliги, mustaqilligi, ijodiyliги, ilmiyligi, asosliliги, uzviyligi, tejamlliligi, maqsadliliги, tezliги, tahliliyligi, qiyosiyliги, umumlashtirilganliги, kengliги, chuqurligi, ishonarliligi, haqqoniyliги darajasi bilan belgilanadi.


Shu nuqtayi-nazaridan darslarni o'tishda muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanishda quyidagilarni e'tiborga olish lozim deb o'ylaymiz.

1. Har bir dars aniq maqsadga yo'naltirilishi va puxta rejalashtirilishi lozim.
2. Fanlararo aloqalarga, o'tilgan mavzularga mantiqiy bog'langan muammoli savol, vaziyatlar tanlanishi lozim (ishlab chiqilishi).
3. Muammoli savollar, vaziyatlar o'qitish usullariga muvofiq kelishi lozim.
4. O'quvchilar faolligini oshirish maqsadida muammoli rasmlar, she'rlar, muammoli ko'rinish va vaziyatlarni fan doirasi va maqsadidan chetlamagan holda qo'llash kerak.
5. Mavzuning mazmunidan kelib chiqqan holda tabiat, jamiyat, inson tafakkuri, taraqqiyoti haqidagi ilmiy bilimlar, o'quvchida yurtimiz kelajagiga ishonch va e'tiqodini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi maqsadga muvofiq.

6. Darsning mazmuni, muammoli texnologik usullar o'quvchi talabalarda estetik va ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga va umuminsoniy ahloqni tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi muhimdir.

Muammoli ta'lim texnologiyalari – o'quvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning echimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

Muammoli ta'lim texnologiyalari uchun tanlangan muammoning murakkabligi o'quvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak.



Ular qo'yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, o'quvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi. Muammoli ta'lim texnologiyalari qo'llanilganda o'quvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o'rganadilar.

Muammoli ta'lim texnologiyalari bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. O'qituvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. O'qituvchi o'quvchilarga muammoni bayon qiladi.

2. O'qituvchi o'quvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

3. O'qituvchi o'quvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.

4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.

5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to'g'risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.

6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo'llarini ishlab chiqadilar.

7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

Demak, barcha narsa o'qituvchining kasbiy layoqati, qiziqishi, bilimi aniqrog'i muammoli ta'lim texnologiyasi haqidagi bilimiga, metodik jihatdan ta'minlanganlik darajasiga borib taqaladi. Shuni ta'kidlash lozimki, o'qituvchi muammoli ta'lim texnologiyasidan darsni o'tishda foydalanar ekan metodik bazaga (muammoli savollar, vaziyatlar, testlar, rasmlar) ega bo'lib boradi va keyinchalik muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish uning uchun qiyinchilik tug'dirmaydi.

Men aynan o'z soham misolida oladigan bo'lsam, har bir o'qituvchi doimiy ravishda o'z ustida ishlashi kerak. U "men o'z fanimda hamma yutuqlarga erishganman, o'z fanimni chuqur bilaman" deb bir xilda bir joyda qotib tura olmaydi. U doimo intilishda, izlanishda bo'lishi kerak. O'quvchilarning o'z ustilarida ishlashlari uchun ham o'qituvchi yo'llanmasi, ko'rsatmasi, topshiriqlari muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun, o'qituvchi doimo izlanishda bo'lishi, fanga qandaydir bir yangiliklar olib kirishga intilishi, o'zining odobi, kasbiy sifatlari bilan boshqalarga o'rnak bo'lishi darkor. O'z ustida ishlaydigan ijodkor o'qituvchilarning obro'-e'tibori, martabasi ulug' bo'ladi. Ular doimo el nazarida, hurmatida bo'ladi. Xalq hurmatida, e'tiborida bo'lishining o'zi eng katta baxtdir.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Sh.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T: "O'zbekiston" 2016-yil.

2. Sh.Mirziyoyev. "Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2017-yil 8-dekabr. 247-son.

3. R.Ishmuxammedov, A.Abduqodirov, A.Pardaev. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste'dod, 2008.- 180 b.

4. A.Abduqodirov, R.Ishmuhammedov, "Ta'limda innovatsiya" T; Istedod – 2010.
5. J.G'. Yo'ldoshev, S.A.Usmonov. "Pedagogik texnologiya asoslari". –T.: O'qituvchi, 2004.
6. R.Mavlonova, O.To'raeva, K.Xoliqberganov. Pedagogika. –T.: O'qituvchi, 2001.
7. R.Mavlonova, N.X.Raxmonqulova. Boshlang'ich ta'limda innovatsiya. Metodik qo'llanma, TDPU, 2007.

UO'K 373.31

BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARINING IJODIY VA SALBIY FIKRLASHLARINI SHAKLLANTIRISHDA PISA XALQARO BAHOLASH DASTURINING O'RNI

Xodjayeva Mashhura Mirzaabdullayevna

Namangan viloyati Namangan tumani 8-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi, "Shuhrat" medali sohibasi, O'zbekiston Respublikasi

Usmonov Oybek Ulug'bekovich

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bosh mutaxassisi, E-mail: oybekrtm@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Respublikamizda ta'lim oluvchi o'quvchilarni PISA xalqaro baholash dasturida ishtirok etish ta'lim tarbiya jarayonida qo'llash hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijobiy va salbiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishlariga bag'ishlangan. Shuningdek darslarda ijodiy, salbiy fikrlashni tashkil etishning mohiyati, samaradorligi erishish usullari o'z fikrini mustaqil bayon qila olish, egallagan bilim, ko'nikma, malakalarini ijtimoiy faoliyatda qo'llash masalalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: PISA axborotlar bazasi, konsepsiya, kompetensiya, hayotiy vaziyatlar, innovatsiya, kreativ fikrlash, AKT, mahorat, ilg'or tajriba, zamonaviy o'qituvchi.

UDC 373.31

THE ROLE OF THE INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM IN FORMATION OF THE CREATIVE AND NEGATIVE THOUGHTS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Khodjayeva Mashhura Mirzaabdullayevna

Primary class teacher of secondary school No.8, Namangan district, Namangan region, holder of "Shuhrat" Medal, Republic of Uzbekistan

Usmanov Oybek Ulug'bekovich

Chief Specialist of the State Inspectorate for Quality Control in Education under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan

Brief abstract. The article is devoted to the participation of students studying in the republic in the international PISA assessment program in the educational process and the development of positive and negative thinking skills in primary school students. Classes also cover the essence of the organization of creative, negative thinking, ways to achieve its effectiveness, the ability to express oneself, the application of knowledge, skills in social activities.

Keywords: PISA database, concept, competence, life situations, innovation, creative thinking, ICT, skill, best practices, modern teacher.

O'zbekiston innovatsion taraqqiyot yo'lida rivojlanib borayotgan davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan o'quvchilarning ijodiy fikrlash g'oyasi, ijodkorligini har tamonlama qo'llab quvvatlanmoqda.

So'zinning isboti sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirishni o'rinli deb topdim. "... mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o'rin egallashi, avvalo ilm, fan va ta'lim tarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatdosh bo'la olishimiz bilan uzviy bog'liq..."

Shunday ekan, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilm-fan tajribasini o'rganib Respublikamiz o'quv maskanlarida PISA, TIMSS, PIRLS dasturlarini qo'llash muhimdir. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 5712-sonli Farmonida 2030-yilga kelib, PISA xalqaro dasturchi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishga erishish, hamda xalq ta'lim tizimida ta'lim tizimini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. Konsepsiya doirasida o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyasi va malakalarining rivojlanishiga alohida zamonaviy innovatsion

iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standarti joriy etildiki, bu esa ta'lim oluvchining bilim darajasini baholashda xalqaro PISA dasturida ishtirok etish imkonini berdi.

PISA xalqaro dasturi haqida qisqacha to'xtalib o'tsak.

PISA – (*inglizcha*, Programme for International Student Assessment). O'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholovchi dastur. Bu dastur dunyoning barcha davlatlaridagi o'quvchilarning savodxonligini baholash va ushbu bilimlarini amaliyotda qo'llashning bilish darajasini baholovchi testdir.

PISA 3 yilda 1 marta o'tkaziladi. Bunda 15 yoshli o'smirlar qatnashadi. Bu dastur 1997-yilda ishlab chiqilgan, 2000-yilda birinchi marotaba qo'llanilgan. Unda 5 yo'nalish bo'yicha ish olib boriladi.

1. O'qish savodxonligi
2. Matematik savodxonlik
3. Tabiiy fanlar savodxonligi
4. Kompyuter savodxonligi
5. Moliyaviy savodxonlik

O'zbekistondagi maktab o'quvchilari birinchi marotaba 2021-yil PISA dastur yo'nalishining 3 turi bo'yicha qatnashishlari ko'zda tutilgan.

1. O'qish savodxonligi
2. Matematik savodxonlik
3. Tabiiy ilmiy fanlar savodxonligi

O'qish savodxonligi o'quvchini o'qigan badiiy asaridan parcha,ro'znomalardagi maqolalar, turli qo'llanmalar tarkibidagi matnni tushunishi, mazmuni haqida fikr yurita olish, unga baho berish. O'qiganlari haqida o'z fikrini bera olishi asosiy maqsadidir.

Matematik savodxonlik matematik bilimlardan turli xil hayotiy vaziyatlarda fikrlash, qaror qabul qilish, to'g'ri va to'liq asoslay olishni tekshiradi. Insonning matematikadan yaratuvchanlik, qiziquvchanlik, fikrlovchi, undan ehtiyojini qondira oladigan darajada foydalana olishni ta'minlash asosiy maqsadidir.

Tabiiy ilmiy fanlar savodxonligi kuzatuv, tajribalar asosida atrofimizdagi olamni tushunish, inson faoliyati natijasida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni anglab yetish, unga ko'ra qarorlar qabul qila olish asosiy maqsadidir.

Bu o'z-o'zidan o'quvchining darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchini esa har tamonlama ta'lim tarbiyaga e'tiborni kuchaytirish talab etiladi. PISA dasturida o'quvchi asosiy tushunchalarni bilishi, bazaviy bilim, ko'nikma, malakani egallagani, ulardan hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishiga qaratilgan. Bu dastur sinovida 4 xil usuldan foydalaniladi.

1. Bir javobli testlar
2. Bir necha javobli testlar
3. Qisqa yoki batafsil javob yoziladigan savollar
4. Biror muammoning yechimi bo'yicha o'quvchi fikri. (Bunda o'quvchining ijodiy fikrlashiga ham e'tiborni qaratiladi)

XXI asr – informatsion texnologiyalar asri. Shunday ekan, bu asr ta'lim beruvchi, oluvchilari oldingidan farq qiluvchi kompetensiyalar o'ylashni talab qiladi. XXI asrda qidiruv tizimlari, mukammal onlayn bazasi yaratildiki, undan maktab o'quvchilarining haqiqiy hayotda kerak bo'ladigan hodisalarni tahlil qilish, xulosa chiqarish, muloqatga kirishish ko'nikmasini qay darajada egallayotganini ta'lim tizimidagi o'zgarishlardan bilsak bo'ladi. PISA dasturi barcha fan o'qituvchisidan o'z ishlariga yangicha yondashishni talab qiladi. Bu tizim endi mamlakatimizda boshlanayotganini nazarda tutsak,u bilan chuqurroq tanishish, uning talab va imkoniyatlarini bilmog'imiz darkor. Bu dasturga poydevorni boshlang'ich ta'lim jarayonlarida qo'llab, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarimizda bilim, ko'nikma, malakani hosil qilish yaxshi natija beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun elektron o'quv modullar, ko'rgazmali qurollar, didaktik materiallarni ilmiy-ommabop, tushunarli, sodda, ravon, oson o'zlashtira olish va qiziqarli tarzda tayyorlash, yaratish darkor. Boshlang'ish sinf o'qituvchisi ota-onalar bilan elektron hamkorlikning turli variantlarini ishlab chiqishi,uni ish jarayonida qo'llay bilishi o'ta muhimdir.

Boshlang'ich ta'lim jarayoniga yangiliklarni tez-tez joriy etish, bir xil dars o'tishdan qochish, malakali o'qituvchining ish tajribasini o'z pedagogik faoliyatida qo'llay bilish o'ta muhimdir. Bugungi kunda boshlang'ich ta'limning asosiy maqsadi bolani o'qishga bo'lgan ijodiy munosabati, o'qish savodxonligi, turli ma'lumotlar bilan ishlashi, matematik amallarni bilishi, ularni kundalik hayotda qo'llay olishi, mantiqiy va erkin fikrlashi, o'z-o'zini boshqarishi, jamoada o'zini tuta bilishi, yozma, og'zaki muloqat madaniyat qoidalarini egallashi, chet tillarini puxta o'rganishi ta'lim poydevorini mustahkamlashdagi omildir.

Ta'limiy faoliyatni tashkil etishda o'quvchilarning kreativ fikrlashini shakllantirish usulini qo'llash, undan unumli foydalanish ta'lim oluvchining bilim, malaka, ko'nikma o'zlashtirish jarayonini qulaylashtiradi. Bu tajribalarni karantin davrida qo'llab onlayn tarzda o'tdim. O'quvchilarimning ota-onalari bilan farzandining onlayn darslarga qatnashishi, uy vazifalarini bajarishi haqidagi telefon orqali muloqat yaxshi natija berdi.

Kulol loyga ishlov berganda uning ishi go'zallashib, sayqal topib borganida uning yasagan mahsuloti ochiladi. Xuddi kuloldek boshlang'ich sinf o'qituvchisi ham o'zining bor mahorati, qobiliyati, faniga qiziqishi, izlanuvchanligi, erk bilan hamnafas bo'lib qadam tashlab ilg'or tajribalarni qo'llay olishi kerak.

Bu borada mamlakatimizning ta'lim tizimida ishlashi, o'qishi uchun o'quvchi, o'qituvchilarga keng imkoniyatlar yaratilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib fanga oid mustaqil axborotni topishi, mavzuga oid ijobiy, salbiy fikr bildira olishi, musiqa, animatsiya yaratish yordamida estetik, emotsional muhit yarata olish imkonini beradi. Boshlang'ich ta'lim jarayoniga yangiliklarni tez-tez joriy etish, bir xil dars o'tishdan qochish, malakali o'qituvchining ish tajribasini o'z pedagogik faoliyatida qo'llay bilishi kerak.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'limning asosiy maqsadi bolani o'qishga bo'lgan ijodiy munosabati, o'qish savodxonligi, turli ma'lumotlar bilan ishlashi, matematik amallarni bilishi, ularni kundalik hayotda qo'llay olishi, mantiqiy va erkin fikrlashi, o'z-o'zini boshqarishi, jamoada o'zini tuta bilishi, yozma, og'zaki muloqat madaniyat qoidalarini egallashi, chet tillarini puxta o'rganishi ta'lim poydevorini mustahkamlashdagi omildir. Ta'limiy faoliyatni tashkil etishda o'quvchilarning kreativ fikrlashini shakllantirish usullarini qo'llash, ulardan unumli foydalanish ta'lim oluvchining bilim, malaka, ko'nikma o'zlashtirish jarayonini qulaylashtiradi.

Atrofga boqsak, har tamonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli, aql, idroki, fikrlashi, tasavvur qilishi orqali yaratilgan namunalarga duch kelamiz. Har bir sohada ijodiy fikrlovchi, yangilik yaratuvchanlik qobiliyati bor insonlarga talab katta. Bu jarayonlarga beg'ubor qalb egalarida qiziqish, ularga intilish hissi tez uyg'onadi. Shunday ekan, o'z-o'zidan savol tug'ilishi tabiiy.

“Xo'sh, ta'lim oluvchini qanday qilib kreativ fikrlashga o'rgatish mumkin?”

Bu savolga javob berish uchun o'quvchida esa yangi fikr, yangi g'oya paydo bo'lishi shart. Yuqoridagi savolga quyidagicha javob oldim.

Matematika darsligining **“Takrorlash”, “Mustahkamlash”** qismida quyidagi noodatiy savollarni berdim.

1. *“Sizga 10 000 so'm berilsa, uni nimalarga sarflardingiz?”*

2. *“Sizga 2 soat vaqt berilsa, nimalar bilan mashg'ul bo'lardingiz?”*

Ulardan bu savollarga kichik guruhlarda ishlash orqali yozma, og'zaki javoblar oldim. Birinchi savolga o'quvchilar ijobiy va salbiy fikrda yondashgan. Ba'zi o'quvchi pulni faqat o'z ehtiyoji uchun ishlatishini, maqsadsiz foydalanishini bayon qilgan.

Bu salbiy fikr. Yana bir o'quvchi o'z ehtiyojidan orttirib kitob, yangilik yaratish uchun turli buyum narsalar sotib olishini yozgan. Bu ijobiy fikr. Bu savol orqali o'quvchida topqirlik, bilag'onlik, ijodkorlik masalaga turli nuqtayi nazaridan qaray olish, yashirin jihatlarni ochish, savdo muomilasidagi madaniyat kabi xislatlar rivojlandi.

Ikkinchi savolga ham yuqoridagidek tartibda javob oldim.

Agar o'quvchi savolni to'la anglab yetmasa, undagi javob past natija bilan yakunlanib, salbiy munosabatligicha qolar ekan. Ikkinchi savolga javob olish orqali o'quvchiga bir kundagi soniyalar qiymati anglatildi, uni behuda sarflamaslik uqtirildi. Bu natijalarga o'quvchilar bilan individual ishlash, sinfda do'stona, hamkorlik muhitini yaratish orqali erishdim.

Texnologiya, tasviriy san'at darslarining **“Amaliy mashg'ulot”** soatida erkin mavzuni tanladim. Texnologiya darsida **“Orzular kemasi”** didaktik o'yinini qo'lladim. O'quvchilar bu darsda xayoliga kelgan fikrlarni e'tiborsiz qoldirmay, turli xil shakldagi narsa buyum, qurilish ishini yangi g'oyalar orqali yaratdi va kemaga yasaganlarini soldilar.

“Nima uchun shu g'oyani yaratdingiz?” savoliga o'quvchilar ijobiy, salbiy javob berdi. Bunda o'quvchining o'qish, o'rganishga qiziqishi, mustaqil, erkin fikrlashi ortdi, ma'naviy, ilmiy dunyoqarashi kengaydi.

Tasviriy san'at darsining yuqoridagi mavzusida **“Sirli sandiq”** usulini qo'lladim. Sinfni 4 guruhga bo'ldim va **“Siz qaysi ertak qahramonining salbiy va ijobiy fazilatlarini yoqtirasiz?”** savolini berdim. **“Sirli sandiq”** ichiga o'quvchi erkin fikrlab, ko'rgan, bilgan ertak qahramonlarining harakatini salbiy tamonini chizib soldi. Ijobiy fikr bildirgan ertak qahramonlarining suratini o'zlarida olib qolib, guruhlar

o‘rtasida bahs – munozara bildirdilar. Bunda o‘quvchi tushuncha va bilimini, o‘z fikrini to‘la bayon qilishni, o‘rtoqlari tamonidan bildirilgan noto‘g‘ri fikrlarga erkin qarshi chiqq olishni o‘rgandi.

2-sinf Atrofimizdagi olam darsligidagi “Suv – hayot manbayu” mavzusini o‘tishda “Muammo” usulini qo‘lladim. Ularning erkin fikrlashi uchun quyidagi muammolarni o‘rtaga tashladim.

1. Toza ichimlik suvining kamayib borayotganligi.
2. Suvni toza saqlashga e‘tiborsizlik.
3. Ona tabiat in‘om etgan suvni ifloslantirish.
4. Sog‘lom turmush tarzini yaratishda suvning o‘rni.
5. Elektr energiyani tejamaslik nimalarga olib keladi?

Yuqoridagi savollarga barcha o‘quvchilar o‘z fikrini og‘zaki, yozma bayon qilishdi. O‘quvchilarning bir-birlariga aytgan fikri ijobiy, salbiy bo‘ldi. Ularning fikrini umumlashtirib, jamlab to‘ldirdim. Bu usulni qo‘llashda hech bir o‘quvchining fikri tanqid qilinmadi. Shunda o‘quvchi qo‘rqmay, hayajonlanmay o‘z fikrini erkin bayon qildi. Xatosi bo‘lsa, muammolarni bahs-munozara orqali erkin so‘zlab, o‘z fikri bilan o‘rtoqlashdi. Mavzuga ijodiy yondashildi. O‘quvchilarda targ‘ibot, tashviqot qilish ko‘nikmalari shakllandi. Mavzu hayotga bog‘landi. Muammolar har bir o‘quvchida mustaqil tahlil qilindi. O‘quvchilarda erkin fikrini bayon qilish, ijodkorlik, izlanuvchanlik layoqatlari rivojlandi. Ularda ekalogik muhitni toza saqlashga e‘tibor kuchaydi. Bu usul mavzuning asosiy tushunchalarini chuqur o‘zlashtirishga imkon berdi. O‘quvchining yangi g‘oyalarga intilishi, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqara olishida namoyon bo‘ladi.

Ona tili fanining “Takrorlash” mavzusida “So‘zlar o‘ynadi” o‘yinini tashkil etdim.

NOK o‘ngdan chapga o‘qilganda o‘quvchini fikrlashga undayman. KON

FAN yana shu takrorlanadi. NAF, BOBUR-RUBOB, NODON-NODON, AIYIQ-QIYA, AZIZA-AZIZA, OMMA-AMMO

Bu kabi o‘yinlarni tashkil etish o‘quvchilarda qiziquvchanlikni oshiribgina qolmay, tez fikrlash, ephillik, so‘zamolik san‘atini kuchaytiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta‘lim-tarbiya berish jarayonida yuqoridagi kreativ fikrlash usullarini qo‘llash kutilgan natijani beradi. O‘quvchi o‘zini doimo ishonchli xis qilishi uchun kattalar tamonidan ularni rag‘batlantirib borish darkor. Shundagina farzandlarimiz o‘zi qilayotgan ishga, gapirayotgan so‘ziga ishonch bilan munasabatda bo‘lib qaraydigan, qo‘rqmaydigan, jasur inson bo‘lib yetishadi. Shunday o‘quvchilarni tarbiyalashda PISAning o‘rni katta.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. O‘quvchilarning ta‘limiy yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro dastur (PISA) Toshkent, 2019-yil.
2. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash. Toshkent, 2019-yil. “Sharq” nashryot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.
3. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent, 2017-yil.
4. www.uzedu.uz internet ma‘lumotlari.
5. O‘z ish tajribalarimdan.

UO‘K 37.026

ADABIYOT DARSLARIDA O‘QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Sultanova Nasiba Muxamadjanovna

Pop tumani 11-DIMI o‘qituvchisi, “Shuhrat” medali, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibasi, O‘zbekiston

Annotatsiya. Maqolada adabiyot darslarida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning metodik jihatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: adabiyot, dars, texnologiya, tanqidiy fikrlash, metod, ta‘lim beruvchi, o‘quvchi.

UDC 37.026

TECHNOLOGIES OF INCREASING PUPILS’ CRITICAL THINKING SKILLS IN LITERATURE LESSONS

Sultanova Nasiba Muhammadjanovna

Teacher of SSB school No.11, “Shuhrat”, “Mehnat shuhrati” medals holder, Namangan region, Uzbekistan

Brief abstract. The article focuses on the methodological aspects of developing critical thinking techniques in students in Literature lessons.

Keywords: literature, lesson, technology, critical thinking, method, educator, student.

Jamiyatda mustaqil fikrlaydigan, ma'naviy sog'lom avlodni shakllantirishda adabiyotning o'rni muhim ekanligi barchamizga ma'lum. U hayotimizning ajralmas bir qismi bo'lish bilan birga har bir shaxs, jumladan, umumta'lim maktablari o'quvchilarida yuksak axloqiy fazilatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi, desak mubolag'a bo'lmasa kerak.

O'quvchilarning adabiyot orqali ma'naviy shakllanishi oiladan, shuningdek, ta'lim muassasalaridan boshlanadi. Bu esa, o'z navbatida fan o'qituvchisini darsga puxta tayyorgarlik ko'rishi, o'quvchilarni fanga qiziqitira oladigan ilg'or pedagogik usullardan foydalanishni talab etadi. Buning uchun adabiyot o'qituvchisida nafaqat pedagogik mahorat, balki ijodkorlik qobiliyati ham bo'lishi kerak. Ya'ni adabiyot o'qituvchisida o'quvchilarni tushuna olish hamda asar tahlili yuzasidan o'z nuqtayi nazarini ham bildira olish salohiyati bo'lishi lozim. Shunday o'qituvchigina o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishi mumkin.

Adabiyot san'atning bir turi bo'lib, u o'quvchining tafakkuriga qalbi orqali ta'sir ko'rsatadi, qalbi bilan anglaganini esa hissiyoti yordamida tabiatiga singdirib olishiga xizmat qiladi. Adabiyot fani o'quvchining og'zaki va yozma nutqini, tasavvuri va tafakkurini o'stirishning hamda tanqidiy fikrlashga o'rgatishning eng qulay, ta'sirchan va samarali vositalardan biridir. Chunki badiiy asarni o'qish va uni tahlil qilish bevosita nutqiy jarayondir. Shuning uchun ham unda mana shu jarayonni o'quvchilarga yetkazish imkoniyati mavjud bo'lib, ushbu imkoniyatlardan foydalanish, ularni boricha yuzaga chiqarish esa faqat o'quvchining o'ziga emas, balki adabiyot o'qituvchisining shaxsiy fazilatlariga, undagi pedagogik mahoratning darajasiga ham bog'liq.

Tanqidiy fikr – bu qo'yilgan masala yoki muammo yuzasidan o'z fikrini bayon etish, o'zgalarning fikrini tanqidiy qayta idrok etish, o'z nuqtayi nazarini asoslab berish va saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lishga asoslangan bo'lib, quyidagilar bilan ahamiyatlidir:

- hayotning murakkab o'zgaruvchanlik ma'nosini tushunib yetishga yordam beradi;
- jamoaning ochiq fikrini rag'batlantiradi;
- aloqa va tushunish, hurmatning ikki tomonlamaligini anglatadi;
- shaxsning rivojlanishiga sharoit yaratadi va boshqalar [1].

Adabiyot darslarida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish uchun o'qitishning ilg'or usullaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Masalan, "Burchaklar" metodi. Ushbu metoddan badiiy asarlarni tahlil qilish jarayonida foydalanish mumkin. G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasini o'rganish jarayonida ham foydalanish mumkin. Metodni o'tkazish bosqichlari:

O'qituvchi:

1. Yozuv taxtasiga "Shum bola" qissasining bosh qahramoni qanday obraz? degan mulohazani yozadi.

2. O'quvchilardan mazkur mulohazaga nisbatan munosabatlarini bildirishlari so'raladi.

3. O'quvchilardan munosabatlari so'raladi va asoslab berish talab qilinadi.

4. Dars yakunida o'quvchilar eshitgan ma'lumotlaridan kelib chiqib fikrlari o'zgargan yoki o'zgarmaganligi so'raladi.

5. Umumiy xulosa shakllantiriladi.

O'quvchi:

1. Berilgan muhokamaga nisbatan o'zining yakuniy munosabatini bildiradi.

2. Yangi mavzu bilan to'liq tanishishga erishadi.

3. Olgan ma'lumotlarini tahlil qiladi.

Kutiladigan natija: o'quvchilar "Shum bola" qissasi bilan kengroq tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar, asar voqealari va qahramonlar xarakterlari bilan tanishadilar, o'zlarini asar va uning qahramonlari haqidagi fikrlarini bildira oladilar.

Yana shunday innovatsion metodlardan biri "Aqliy hujum" hisoblanadi. "Aqliy hujum" metodi va termini amerikalik olim A.F. Osborn tomonidan tavsiya qilingan. Hozirgi kunda uning bir necha qo'llanish usuli ishlab chiqilgan bo'lib, undan maqsad g'oyalarni yig'ish, muammoli masalalar yuzasidan har tomonlama fikr almashishdir. Mazkur usulning asosiy tamoyili va qoidasi – ishtirokchilar taklif qilgan g'oyani umuman tanqid qilmaslik, turli hazil, e'tirozlarni rag'batlantirish, ularni fikrlashga undash. Ushbu usulni muvaffaqiyatli amalga oshirish bahs-munozarani olib borayotgan o'qituvchiga bog'liq bo'lib, u munozarani to'g'ri tomonga yo'naltirib borishi lozim.

"Aqliy hujum"ning davomiyligi 15 daqiqadan bir soatgacha davom etishi mumkin. So'ng g'oyalar yig'ib olinadi va ular ichidan eng ma'qullari tanlanadi. Masalan, 11-sinfda "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni o'tiladi. Dostonni o'rganishda "Aqliy hujum"dan foydalanib, uni quyidagi bosqichlarda bajarish mumkin:

1-bosqich – kichik guruhlarni shakllantirish;

2-bosqich – muammoli masalaning dastlabki ko'rinishini shakllantirish;

- 3-bosqich – “Aqliy hujum” qoidalariga ko‘ra g‘oyalarni yig‘ish;
- 4-bosqich – g‘oyalarni tizimlashtirish va tasniflash;
- 5-bosqich – g‘oyalarni amalga oshirish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish;
- 6-bosqich – tanqidiy fikrlarni baholash.

“Aqliy hujum”ning nomidan ma’lumki, aql vositasida bitta muammo yechimiga “hujum” uyushtiriladi. Hamma birgalikda bir hodisaga yoki bir muammoga fikrini qaratsa, shu muammoning yechimini topish yengillashadi. Agar muammoni yechish og‘irroq bo‘lsa, hujumni ketma-ket uyushtirish mumkin. O‘quvchilar o‘zaro bir-biriga aqliy hujum qilmay, birgalikda bitta muammoga hujum qiladilar.

Masalan: A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanini tahlilga jalb etish mumkin. O‘quvchilar o‘rgangan sujet turlaridan kelib chiqib, kichik guruhlarini nomlashlari ham mumkin. So‘ng guruhlar oldiga quyidagicha muammo qo‘yiladi: “Mazkur asardagi qahramonlar xarakteriga munosabatingiz”. Muammo yechimi haqida barcha qatnashchilar o‘z fikrlarini bildiradilar. Bu bosqichda hech kim o‘zganing g‘oyalari hujum qilmaydi yoki munosabat bildirmaydi. Bunday usul vositasida o‘nlab yangi g‘oyalarni yuzaga chiqarish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bunda har bir o‘quvchi quyidagi talablarni bajarishi lozim:

- dars jarayoniga qatnashishga erishish;
- fikr bildirishda faol bo‘lish;
- ilgari surilgan g‘oyalarni tanqid ostiga olmaslik;
- muammo yechimidan uzoqroq g‘oyalarni ham qo‘llab-quvvatlash;
- barcha g‘oyalar (farazlar)ni yozma qayd etish.

Navbatdagi bosqichda muammoning yechimiga yaqin bo‘lgan 5–6 asosiy g‘oya tanlab olinib, baholanadi. “Aqliy hujum” usuli qo‘llanilishiga ko‘ra universal bo‘lib, o‘quv materiallarini tezkor o‘zlashtirish, faol va keng doirada fikr yuritishga imkonini beradi.

“Aqliy hujum” uchun adabiyotshunoslikka oid har qanday mavzuni olish mumkin, masalan: asar mavzusidan kelib chiqib, asarlarni qiyoslashda yoki asar janrining yuzaga kelishi, qahramonlar xarakteri kabilar. Axborotlarni izlash, o‘ylab ko‘rish, fikrlash vatahlil qilish quyidagi muhim vazifalarni yechish imkoniyatini beradi:

- o‘quvchilarga mavzuni to‘liq anglab olishlariga yordam beradi;
- mashg‘ulotlarda faol qatnashishlarini ta’minlaydi;
- munozaraga chorlaydi va auditoriyada ijobiy muhit yaratiladi;
- o‘quvchilarni tahliliy va tanqidiy fikrlashga undaydi;
- o‘quvchilarga o‘z shaxsiy bilimlarini namoyon qilaishlariga yordam beradi.

Ma’lumki, inson tafakkuri yordamida ko‘zi bilan ko‘rganlaridan ko‘proq narsalarni bilib oladi. Adabiyot darslarida ham u yoki bu bilimlarni o‘quvchilarga tayyor holda berishdan ko‘ra mustaqil o‘zlashtirishlariga yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir. Badiiy asarlarni har xil metodlar ko‘magida o‘quv tahliliga tortishda, ular bilan ishlashda o‘quvchilarning tasavvurlarini uyg‘otadigan, mantiqiy mulohaza yuritishga undaydigan, fikr va xulosasini aytishga yordam beradigan metodlardan foydalanish lozim. Ular shaklan ssenariy tuzishga yo‘naltirilgan tarzda bo‘ladimi, muammo ko‘rinishida bo‘ladimi, birgalikda ishlashga undovchi vazifalar bo‘ladimi, yakka ishlash tartibiga qaratilganmi ekanidan qat’i nazar, barchasi zahirida o‘quvchining ma’nan sog‘lomlashuvi, ruhiy erkinligi, fikr mustaqilligini ta’minlash yotadi[2]. “Ilmiy asarlar g‘aflat va jaholatdan qutqarsa, badiiy asarlar dag‘allik va razolatdan xolos etadi. Unisi ham, bunisi ham kishilarning ma’rifatli, baxt-saodatli bo‘lishi uchun bab-baravar foydali va zarurdir”[3]. Badiiy asardagi kitobxon shaxsiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan jihatlari, matnda aks etgan hayotiy va badiiy haqiqatlarni ilg‘ash, ularning ko‘ngilni tozalashga xizmat qiladiganlarini topib, o‘z tabiatiga singdirish, shakllanayotgan shaxsda osonlik bilan kechadigan jarayon emas. Ta’lim-tarbiya tizimida bu kabi murakkab va mas’uliyatli ishlarni amalga oshirish adabiyot o‘qiyuvchisidan o‘z fani va o‘z kasbini sevishni, shuningdek har bir dars jarayoniga puxta tayyorgarlik ko‘rishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Omonov X., Xattabov M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.-T.:Iqtisod-Moliya, 2016 -200.
2. Husanboyeva Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: Barkamol fayz media, 2018, -352 bet.
3. Safo Matjon. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. (O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma). –T.: O‘qituvchi, 1996. 37-bet.

UO‘K 376.37

**BOSHLANG‘ICH SINIF LOGOPAD BOLALARINI OTA-ONALAR VA LOGOPED
HAMKORLIGIDA RASM CHIZDIRISH ORQALI RUHIYATINI O‘RGANISH VA
TARBIYALASHGA YANGICHA YONDASHUV**

Vayitova Tohira Yuldashaliyevna

To‘raqo‘rg‘on tumani 32-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi Logoped-defektologi, O‘zbekiston Respublikasi

E-mail: tohiravayitova@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinif logopad bolalarga rasm chizdirish orqali ruhan dalda bo‘lish, chizgan rasmlarini bo‘yashlarida rang tanlashlariga qarab, ota-onalar va logoped bola ruhiyatini o‘rganib, to‘g‘ri tarbiyalashga doir ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: logopad, logoped, ota-ona, rasm, rang, chizish, tarbiya, ruhiyat.

UDC 376.37

**A NEW APPROACH TO THE STUDY AND EDUCATION OF THE SPIRIT OF PRIMARY
SCHOOL LOGOPAD CHILDREN THROUGH DRAWING IN PARTNERSHIP AND LOGOPED**

Vayitova Tohira Yuldashaliyevna

Speech Therapist-Defektologist, school No.32, Turakurgan d. Namangan region, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. This article provides information on how to properly educate primary school speech therapists by encouraging children to draw spiritually, by studying the psyche of children and speech therapists, depending on their color choices when painting their drawings.

Keywords: speech therapist, speech therapist, parent, painting, color, drawing, upbringing, psyche.

“Tasvirlash jarayonida, buyumlarning qanday dunyoga kelishini, ularning qanday rivojlanishini, o‘shini, gullab-yashnashini ko‘rasan. Bu borliqni kuzatish orqali, avvalo, “ichki” dunyosini, so‘ngra “tashqarisini” o‘rganish natijasida amalga oshiriladi, buyunning haqiqiy go‘zalligini, avvalo, tashqarisiga e‘tibor berib, so‘ngra chizish davomida uni sinchiklab kuzatish, idrok etish orqali, uning yuragiga yo‘l topishgacha borish mumkin. Tasvirlash – bu kuzatish, yaratish, ixtiro qilish demakdir...”

Le Korbyuze

Barchamizga ayonki, yurtimizda kechayotgan karantin davrida ta‘lim sohasida faoliyat yuritayotgan barcha pedagog-xodimlar farzandlarimiz ta‘lim-tarbiyasini masofaviy ta‘lim tizimi orqali tashkil etmoqdalar. Jumladan, Namangan viloyati XTBga qarashli maktablarda ochilgan logopedik-shahobcha Logoped-defektologlari ham guruh bolajonlariga onlayn video mashg‘ulotlar tashkil etib, jarayonni faollik bilan samarali tashkil etib bormoqdalar.

O‘qitish, tarbiyalash, nutq nuqsonlarni bartaraf etish, logopad bolalarni elementar bilimlar sistemasi bilan tanishtirishda, reja bo‘yicha ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda masofadan ishlash yetakchi rol o‘ynaydi. O‘qitish, tarbiyalash va bolalar nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etish uch tomonlama jarayon. Logopedlarning masofadan turib bolalarga ta‘sir etish imkoniyatlarining samaradorligini oshirish hozirgi kunda ota-onalarga ko‘proq ma‘suliyat yukini ortayotgani barchamizga ayondir. Endilikda, ota-onalar bolalar hayotiga faollik bilan kirib borib, masofaviy ta‘lim-tarbiya jarayonlarida jonli ishtirok etayotganliklari quvonarli hol.

Biz farzandlarimiz haqida nimalarni bilamiz?

Albatta, insonni o‘z ota-onasidan boshqa kimsa yaxshiroq bilolmaydi. Lekin, ilmiy asosga ega bo‘lgan fanning ayrim faktlarini bilish bolajonlarimizning bizga hech qachon aytib tushuntirib bera olmaydigan ichki dunyosini bilishimizga yordam beradi. Ayniqsa, logopad bolalar nutq nuqsonlari tufayli biroz tortinchoq, uyatchan, ichki kechinmalrini nutqida ifodalay olmaydilar. Bunday bolalar rasm chizib, bo‘yash orqali o‘z his-tuyg‘ularini ifodalaydilar. Barchamizga ravshan, bolalarning eng sevimli mashg‘ulotlaridan biri bu-rasm chizish.

Farzandimiz chizgan rasmlar bizga nimalarni “so‘zlaydi”?

Tasviriy faoliyatning 4 turi bo‘lib, bular-rasm, applikasiya, qurish-yasash va loy ishi. Bolalarimiz bu faoliyat turlari bo‘yicha bajonidil shug‘ullanadilar va mayda qo‘l motorikalarini, tasavvurlarini, tafakkurlarini rivojlantiradilar. Logopad bolalarda ushbu faoliyat turlari bolalarning xususiyatlariga ko‘ra, faoliyat markazlarida, mashg‘ulotdan tashqari vaqtlarda ularning eng sevimli, qiziqarli va foydali faoliyat turi sifatida muntazam tashkil etib boriladi. Bolajonlarimiz uchun tashkil etayotgan mashg‘ulotlarimizning muvaffaqiyati asosiy 2 shartga bog‘liq:

2. Tarbiya usulini to'g'ri qo'llay bilishimizga;

3. Farzandlarimizning individual xususiyatlari va imkoniyatlariga mos ravishda nutqini tuzatishimizga bog'liq.

Pediatrlarning fikricha, sog'lom bola deb, yaxshi o'ynaydigan, yaxshi gapiradigan va yaxshi chizadigan bolaga aytilar ekan. Huddi til va o'yin kabi rasm bolaning ichki dunyosini ochib beruvchi vosita ekan. Shuning uchun, bola o'z ichki kechinmalarini, hissiyotlarini ifoda eta olishi uchun unga chizish imkoniyatini yaratib berish lozim. Rasm orqali bola o'z xursandchiligi va hafagarchiligini, qo'rquvlari va fantaziyalarini, atrof-muhitga munosabatini ifoda etishi mumkin. Psixologlar fikricha, chizmaydigan bola bo'lmaydi, agar bola chizishni istamasa, demak unda ma'lum bir psixologik stress mavjud.

Farzandimizning chizgan rasmi bizga nimalarni "anglatadi"?

Chizish paytida logopad bolalar his-tuyg'ularini boshqarmaydilar, ular aqlni emas, balki ruhning "asari"ni yaratadilar. Shuning uchun ular chizgan barcha tafsilotlarga e'tibor qaratish juda muhim. Chunki, bu bolaning ruhiy holati va uning atrofidagi narsalarga bo'lgan munosabati haqida aniq xulosalar chiqarishga imkon beradi. Keling, bolalarning chizgan rasmlarini va tanlagan ranglar orqali tahlil qilib ular nimalarni his qilishini bilib olasiz:

1. Agar farzandimiz shoshqaloq, sabrsiz, haddan tashqari maqtovg'a o'ch, o'yinchoqlarni buzib o'ynaydigan bo'lsa, e'tibor bersak, uning eng ko'p ishlatadigan rangi qizil rang bo'ladi. Bu bolaning o'zigagina xos hususiyat bo'lib, ta'lim-tarbiya va muhit ta'sirida bola tarbiyalanib boradi. Buning tashvishlanarli jihati yo'q. Bunday bolalar juda kuchli nerv sistemasiga ega bo'lib, kelajakda katta muvaffaqiyatlarga erishadigan, qiyinchiliklardan qo'rqmaydigan, boshlagan ishini oxiriga yetkazadigan insonlar sirasiga kiradilar.

Oilasida tez-tez janjallar bo'lib turadigan, o'zini yolg'iz, himoyaga muhtoj sezadigan, bolalar qizil rangni deyarli ishlatmaydilar.

2. Pushti rangni ko'p ishlatadigan bolalar kattalarning qo'llab-quvvatlashlariga muhtojlik sezadilar. Tabiatlari nozik, ularda boshqalarga qaramlik bor. Ular doimiy qo'llab-quvvatlovchini qidiradilar, ota-onasining mehr-muhabbat ko'rsatishini kutadi. Bunday bola bilan doimiy taktik aloqada bo'lish kerak, ya'ni ularni ko'p o'qib, quchish kerak.

3. Agar farzandlarimizga yetarlicha e'tibor, muhabbat bilan qaramasak, ular yaratgan narsalarida to'q-yashil rang ustunlik qiladi. Aslida tabiatan qat'iy va o'jar insonlar yashil rangni xushlaydilar. Yashil rangning ochiq tusi himoyaga muhtojlikni bildiradi. Odatda onalik mehrini tuymagan bolalar bu rangni ko'p ifodalaydilar, kelajakda esa yuksak intellektual qobiliyatlarga ega bo'lishlariga qaramay, yangilik va qiyinchiliklardan qo'rqib, xavfsizlikni ustun qo'yadigan bo'lib qoladilar. Bunday bolajonlarimizni o'zini havfsiz va himoyalanganlik hissini tuyib ulg'ayishlariga e'tibor qaratishimiz kerak.

4. Chizgan rasmlarida sariq rang ko'proq ustunlik qilgan bolajonlarimiz ijodkor, qiziquvchan, tasavvuri boy bo'ladi. Bunday bolalar oddiy predmetlar (oddiy tayoq, tosh,..) ni ham o'zlarini hayolan turli o'yinchoqqa o'xshatib o'ynayshlari mumkin. Yolg'iz o'ynasalar ham zerikmasliklari mumkin. Chunki ular hayolparastlik (o'zini ertaklar olamida tasavvur qilish) va o'ziga xoslik bilan ajralib turadilar.

5. Agarda, bolajonimiz chizgan suratlarida to'q-sariq, zarg'aldoq ranglar ustunligi sezilsa, darhol ularning uyqu vaqtiga diqqat qaratishimiz kerak. Ko'proq uyqusizlik ularda yuqori asabiylik, sababsiz qiyqirishlarga sabab bo'ladi. To'q-sariq va zarg'aldoq (apelsin) ranglarni haddan tashqari ko'p ishlatishsa, ehtiyotkorlikni oshirishimiz kerak. Bunday bolalarni tinchlantirish mushkulroq, yaxshisi, ularning kuchlarini ota-onalarga yordam berish uchun uy atrofidagi ishlarni bajarishga yo'naltirgan ma'qulroq.

6. Chizgan rasmlarida ko'k rang ko'proq ustunlik qiladigan bolajonlarimizning his-tuyg'ulari hotirjam, shov-shuvli, fidoiylikka moyil bo'lib, bunday bolajonimizni dam olishga muhtojligini inobatga olish kerak.

7. Agar bola haddan tashqari siqilgan, erkinlik va rag'batlantirishlarga muhtoj bo'lsa, chizgan rasmlarida ko'k-yashil rangning ustunligi sezilib turar ekan. Bunday bolalarga qo'yilgan talablarni ham bir oz kamaytirish kerak. Chunki, bu bolalar shundoq ham tabiatan boshqalarga g'amxo'r va halol bo'ladi. Ortiqcha talablarga ular muhtoj emas.

8. Binafsha rangni ko'p hushlaydigan bolalarning ichki dunyosi ham, tasavvuri ham boy bo'ladi. Bolalar ko'pincha bu rangdan o'zlarini yolg'iz his etishganda, o'zlarini kuchsiz va himoyasiz his etganlarida ishlatadilar. Bu paytda bola ko'proq mehr va daldaga muhtoj bo'ladi.

9. Bola jigarrang rangni juda ko'p ishlatganida, uning sog'ligida, oilasida muammolar bo'lishi mumkin. Bunday bolalarga jiddiy e'tibor qaratilmasdan, ularning muammolari davom etaversa, ko'plab ruhiy zarbalar natijasida salbiy hissiy holatlar paydo bo'lishi mumkin.

10. Kul rang. Bola shunchaki juda toliqib charchaganida, xafsalasizlik holatida ham kul rangni ko'p ishlatishi mumkin. Lekin muntazam ravishda bu rangdan foydalanish bolani doim rad etilishi, tortinchoqlik, yakkalanish, o'z qobig'iga o'ralib olish hususiyatlari bilan ifodalanadi.

11. Qora rangni muntazam ravishda ko'p ishlatishi esa bolaning stressni boshidan kechirayotganini bildiradi. O'ziga ishonchi yuqori.

12. Oq rangdan, ko'pincha, bola yolg'zlikni his qilganda, asabiy charchash va ruhiy bezovtalikni boshdan kechirganda foydalanadi. Ularda hayotga qiziquvchanlik yo'q.

Agar bola qalamni kuchli bosim bilan bosib chizsa, unda hissiy zo'riqish kuzatiladi. Bosim judayam kuchayib qog'oz yirtilish holatiga borsa, unda bolamizda ziddiyatli holatni ustun bo'lib turganiga ishoradir. Zaif bosim bilan chizilgan chizgilar toqatsizlik va passivlikni bildiradi.

Logopad, ayniqsa, duduqlanuvchi bolalar shaxslararo munosabatlarda, o'z fikrlarini to'g'ri ifodalab bera olmaslik bilan birga, vaziyatga ham to'g'ri baho bera olmaydilar. Bolaning chizgan rasmlaridagi narsalarning joylashuvi, ishlatgan ranglaridagi ustunlikni tahlil qilish orqali siz hech qachon bolaning o'zidan eshitmaydigan narsalar haqida bilib olasiz. Chunki, bolalar chizgan paytda ruhiyatdagi borini tasvirlaydilar.

Tartibsizlik qilgan logopad bolalarni o'qituvchilar hech qachon urushmaslik kerak!

O'qituvchi logoped bilan maslahatlashib, birgalikda bolani yoniga o'tirg'izib, bolaning qo'liga qogoz-qalam berib istalgan narsani chizishga ruhsat berishi kerak. Bola o'z fikrlarini, ichidagi kechayotgan his-tuyg'ularini rasmda ifodalaydi. So'ngra bolaning chizgan rasmi asosida u bilan muloqotga kirishilsa va bolani oldiga kelib, nega bunday yomon bola bolayotganini so'rab, bu yaxshi emasligini tushuntirish kerak. Bu juda yaxshi usul. Boladagi barcha bilish jarayonlari ijobiy tomonga o'zgarib, rasm chizishga qiziq boshlaydi. Bunday tarbiya usulini faqat logopad bolalarda emas balki, sog'lom bolalarda ham qo'llash va samarali natijaga erishish mumkin. Rasm chizgan bolada badiiy-ahloqiy madaniyat shakllanadi, estetik didi o'sadi, ijodga qiziqadi va barkamol shaxs bo'lib shakllanadi.

Ana endi, qadrlil ota-onalar, farzandlarimizning chizgan rasmlariga qarab, oz bo'lsada, ularning ichki kechinmalarini "o'qib" olishimiz mumkin bo'ladi. Albatta, bolalar rasmlarini tahlil qilib xulosa berish faqat tajribali logopedning ishi. Ammo bolalar ijodkorligini rivojlantirishda, ularni jismonan va ruhan sog'lom bo'lib kamolga yetishishlarida fanning ilmiy asoslarini, ayrim muhim jihatlarni bilish hech kimga zarar qilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. M.Yu. Ayupova. "Logopediya". O'zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti. Toshkent – 2014.
2. B.N. Oripov. "Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi". "ILM ZIYO" nashriyot uyi. Toshkent – 2012.
3. O. Hasanboyeva, G. Shomaribxo'jayeva, Sh. Egamnazarova, N. Qayumova. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi". "ILM ZIYO" nashriyot uyi. Toshkent – 2013.
4. O'. Nurtoev. "Rangshunoslik asoslari". "ILM ZIYO" nashriyot uyi. Toshkent – 2008.
5. E.G'. G'oziyev. "Psixologiya". "O'qituvchi" nashriyoti. Toshkent – 2010.

UO'K 39

"O'QISH KITABI" DARSLIGIDA XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARI

Abduraxmonava Dinora Yusupovna

Jizzax davlat instituti 2-kurs magistranti, O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya. O'sib kelayotgan yosh avlod bizning kelajagimiz poydevori. Buning uchun biz boshlang'ich ta'limga katta e'tibor qaratmog'imiz lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o'qish darslarida amalga oshiriladi. Darsliklarda o'quvchilar sevib o'qiydigan xalq og'zaki asarlariga ham keng o'rin berilgan. Xalq og'zaki ijodi ertak, doston, afsona, rivoyat, qo'shiq, lapar, topishmoq, masal, latifa va naqlarni o'z ichiga oladi. Xalq og'zaki ijodi azaldan tarbiya manbai hisoblangan.

Kalit so'zlar: o'qish darsi, o'qish kitobi, xalq og'zaki ijodi, ertak, doston, rivoyat, topishmoq, masal.

UDC 39

EXAMPLES OF FOLKLORE IN A TEXTBOOK "O'QISH KITABI"

Abduraxmonava Dinora Yusupovna

2nd year master student, Jizzakh State Pedagogical Institute, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. The rising generation is the foundation of our future. That's why we need to pay more attention to primary education. The main part of the important task of educating primary school

students is carried out in the reading class. The reading class textbook gives a wide place to the folklore that pupils love to read. The folklore includes fairy-tales, epics, legends, narrations, songs, lapars, riddles, anecdotes, and parables. The folklore has always been a source of education.

Keywords: reading lesson, reading textbook, folklore, fairy-tale, epic, narrations, riddle, parable.

Jamiyat taraqqiyotida, yurt, millat taqdirida o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma'naviy barkamolligi, intellektual salohiyati muhim o'rin tutadi. Zero, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir"³⁷.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida bir qancha muhim hujjatlar qabul qilindi, amaliy ishlar yo'lga qo'yildi, muayyan natijalarga erishildi. Shunday bo'lsa ham, bu borada bajariladigan ishlar hamisha keng ko'lamli bo'lib, o'z dolzarbligini saqlab qolaveradi. Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimiz rahbarligida 2019-yil 19-martda "Yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o'qishga qiziqishini oshirish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni amalga oshirish to'g'risida" o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida yoshlarni rivojlantirishga qaratilgan masalalar muhokama qilindi va sohalarga taalluqli 5 ta muhim tashabbus ilgari surildi. Bular quyidagilar:

Birinchi tashabbus – yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus – yoshlarni jismoniy chiniqtirish, sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

Uchinchi tashabbus – aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To'rtinchi tashabbus – yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Beshinchi tashabbus – xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

To'rtinchi tashabbus bo'yicha yoshlarda bolalik chog'idan kitobga mehr uyg'otish, mustaqil fikr va keng dunyoqarashni shakllantirish ularning hayot yo'llarida mustahkam zamin bo'ladi.

Maktab ta'lim-tarbiya maskani bo'lib, shaxsning kelajagi shu maskanda uning qanday amalga oshirilishiga, tarbiyachi hisoblanmish o'qituvchining o'z burch, vazifalariga qanday munosabatda bo'lishiga bog'liqdir. Barkamol insonni, avvalo, o'zi yashab turgan jamiyat, xalq uchun fidoyi shaxs qilib tarbiyalashga ham shu yerda zamin qo'yiladi.

Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o'qish darslarida amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsligi ham "O'qish va nutq o'stirish" dasturi Davlat ta'lim standartlari talablariga javob beruvchi konsepsiya asosida tuzilgan. Unda g'oyaviy tematik, estetik, qisman mavsimiy, tizimlar hisobga olingan. U o'z navbatida bolaning tevarak atrofni idrok etishni ko'zda tutadi.

Darsliklarda o'quvchilar sevib o'qiydigan xalq og'zaki asarlariga ham keng o'rin berilgan. Xalq tomonidan yaratilgan og'zaki badiiy adabiyotga folklor deyiladi. "Folklor" asli inglizcha so'z bo'lib, "Folk"-xalq, "Lore"- donolik so'zidan yasalgan bo'lib. "Xalq donoligi", "Xalq donishmandligi" ma'nolarini anglatadi³⁸.

O'zbek xalq og'zaki ijodi xilma-xil janrlardan tarkib topgan og'zaki so'z san'ati bo'lib, o'zbek xalqining dunyoqarashi, orzu va intilishlarini o'zida aks ettiradi. Xalq og'zaki ijodi ertak, doston, afsona, rivoyat, qo'shiq, lapar, topishmoq, masal, latifa va naqlarni o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich sinf o'qish dasturlari o'qish darslari oldiga o'quvchilarni yaxshi o'qish sifatlariga ega bo'lishdek murakkab vazifani qo'yadi. Bunday vazifalarni amalga oshirishda xalq og'zaki ijodi materiallari katta ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tabiatan maqol, topishmoq, ertaklarni sevadilar va ularni zo'r qiziqish bilan o'qib o'rganadilar. Bundan tashqari xalq og'zaki ijodi azaldan tarbiya manbai hisoblangan.

³⁷ Sh.Mirziyoyev

³⁸ O'zbek tilining izohli lug'ati "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari eng avvalo ertak bilan tanishadilar. Ma'lumki ertaklar xalq og'zaki ijodining eng qadimgi ommaviy va keng tarqalgan janrlaridan biridir. Ertak atamasi Mahmud Qoshg'ariyning XI-asrda yozilgan "Devonu lug'atit turk" asarida "etuk" shaklida uchraydi va biror voqeani og'zaki tarzda bayon etish ma'nosini bildiradi³⁹. Hozirda folkloristik atama sifatida ertak so'zi qabul qilingan bo'lsada, O'zbekistonning turli hududlarida matal, ushuk, varsaqi, cho'pchak nomlari ham uchraydi. Ertaklar xalq og'zaki ijodining epik turiga kiradi. Uning o'ziga xos xususiyati-voqea bandligi, biron voqeani mukammal hikoya tarzida bayon qilinishidir. Ertaklar turmush voqeligini ajoyib va g'aroyib, jozibali qilib aks ettiradi.

Ertak folklor asar. Shuning uchun ham xalq og'zaki ijodiga xos ijodiy mahsulot bo'lib, ko'pchilik tomondan aytilishi, og'zaki yo'l bilan tarqalishi, an'anaviylik, ijodchisining noma'lumligi, bir syujetning xalq orasida bir qancha variantlarda ijro etilishi-ertaklarga xosdir. Ertaklarning badiiy shakli va poetikasi o'ziga xos bo'ladi. Fantastik uydirmalar, hayot haqiqati bilan aloqador bo'lib, qadimiy tushuncha, urf-odat, marosimlarning o'zlarini o'zida aks ettiradi.

Ertak ijrochiligining xarakterli belgilaridan biri shundaki, hikoya qilinayotgan voqea va hodisalar aytuvchi va tinglovchi tomonidan "Bo'lgan voqea" deb emas, balki, "Muqarrar bo'lmagan hodisalar" deb tushuniladi. Shuning uchun ham ertaklarda voqea va hodisalarda bo'lib o'tgan o'rni va zamoni noaniq umumiy tarzda ifodalanadi. Bundan tashqari, ertaklarning zamon va makon e'tibori bilan yuzaga kelgan o'rni ham turlicha. Shundan ko'rinadiki, ertaklar o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa xalq og'zaki ijodi janrlaridan ajralib turadi.

Ertaklar olamiga kishi bolalik chog'laridayoq sayohat qiladi, u dastlab hayvonlar haqidagi ertaklarni eshitadi. Har xil toifa xarakterdagi aqlli va ahmoq, saxiy va qizg'anchiq, zolim va odil odamlar dunyosi bilan tanishadi. Ertaklarda xalq hayoti, uning adolat, haqiqat yo'lidagi orzu-umidlari, yovuz kuchlarga nisbatan qahr-g'azabi, yaxshilarga bo'lgan mehr-muhabbati tasvirlanadi. O'quvchilar xalq ertaklarini o'qib chiqqach, o'rtoqlari, aka-uka va opa-singillariga aytib beradi, muhimi o'quvchi o'zi sevib qolgan ijobiy qahramonlaridan o'rnak olishga, halollikda, to'g'ri so'zlikda, mehnatsevarlikda ularga o'xshashga harakat qiladi. Salbiy qahramonlardan esa, nafratlanib, o'xshamaslikka harakat qiladi.

Demak, o'quvchilarning ham bilimga qiziqishini oshirishda, ham komil inson qilib tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish ijobiy natija beradi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar "O'qish kitobi" darsliklari orqali ko'plab xalq og'zaki ijodi asarlaridan namunalar bilan tanishadilar. Bu asarlarni o'qib-o'rganish uchun boshlang'ich sinf o'quv dasturida muayyan vaqt ajratib ko'rsatilgan bo'ladi.

1-sinfdan tortib 4-sinfgacha "O'qish kitobi" darsliklarida xalq og'zaki ijodi alohida bo'lim sifatida ko'rsatilgan va ularni o'rganish uchun muayyan bir soatlar belgilangan.

Xususan, 1-sinf "O'qish kitobi" darsligining "Xalq o'giti – baxt kaliti" bo'limini o'rganish uchun o'quv dasturida 9 soat ajratilgan⁴⁰.

"Xalq o'giti – baxt kaliti" bo'limiga bolalar qalbiga ona allasi bilan kirib kelgan og'zaki ijod namunalari kiritilgan bo'lib, ezgulik, to'g'ri so'zlik, sofdillik, nafosat, do'stlik, o'rtoqlik, ahillik haqida tasavvur hosil qiladi. O'quvchilarning sinfda va mustaqil o'qishlari lozim bo'lgan asarlar:

1. "Sher va sichqon" ertagi.
2. "Maymun va duradgor" ertagi.
3. "Rostgo'y bola" ertagi.
4. "Laylakkeldi-yozbo'ldi" qo'shigi.
5. Latifalar.
6. Maqollar
7. Topishmoqlar

2-sinf "O'qish kitobi" darsligidagi "Ertaklar – yaxshilikka yetaklar" bo'limini o'rganish uchun 15 soat ajratilgan⁴¹. Bu bo'lim orqali o'quvchilar ertaklar olamiga sayohat qilishadi. Nima yaxshi-yu, nima yomonligini ertaklardagi voqea-hodisalar orqali o'qib oladilar. Ertak qahramonlarining holatini so'zlab berish, voqealarni rasmda ifodalashga alohida e'tibor qaratiladi.

O'quvchilarning sinfda va mustaqil o'qishlari lozim bo'lgan ertaklari:

1. "Tansihatlik-tuman boylik", "Kenja o'gil", "Eng yaxshi sovg'a", "Aqilli bola", "Hakka bilan tulki" kabi o'zbek xalq ertaklari. "Somon cho'g' va loviya" Aka-uka Grimm ertaklari, "Tulki va xo'roz" Eron xalq ertagi, "Qarg'a bilan tulki", "Mushuk va sichqon" kabi ertaklarni sevib o'qishadi.

³⁹ M. Qoshg'ariy "Devonu lug'atit turk"

⁴⁰ O'qish kitobi 1-sinf uchun darslik

⁴¹ O'qish kitobi 2-sinf uchun darslik

3-sinf “O‘qish kitobi” darsligidagi “Xalq og‘zaki ijodi” bo‘limini o‘rganish uchun 17 soat ajratilgan⁴². Bu bo‘limda xalq og‘zaki ijodiga oid qo‘shiq, ertak, rivoyat maqol, latifa, topishmoqlar kiritilgan. Ular orqali o‘quvchilarga xalqning orzu – umidlari, do‘stlik, ahillik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, fazilatlar ulug‘lanishi, salbiy xislatlarning qoralanishi uqtiriladi. O‘quvchilar qo‘shiq bilan tanishadilar. ”Halollik”, “Donishmand yigit” kabi o‘zbek xalq ertaklarini, “Ahillik-ulug‘ baxt” qirg‘iz xalq ertagini o‘qiydilar. Shuningdek, “Qush ini” rivoyatini o‘rganadilar. Maqol, iboralar, latifalar, topishmoqlar, tez aytishlarni ham o‘qiydilar.

4-sinf “O‘qish kitobi” darsligidagi “Xalq og‘zaki ijodi” bo‘limini o‘rganish uchun esa 29 soat ajratilgan⁴³. Bunda o‘quvchilar xalqimizning ming yillar mobaynida yaratgan sehrli-fantastik ertaklari, xalq dardi, istak-xohishi, orzu-umidlari ifodalangan qo‘shiqlar, bolalarning quvnoq o‘yin-qo‘shiqlari, hozir javoblik, topqirlikni taqozo etadigan topishmoqlar, xalqning hayotiy xulosasi tarzida yuzaga kelgan purhikmat maqollar, sehr-jozibaga yo‘g‘rilgan rivoyatlarni o‘qib-o‘rganadilar.

Bo‘limning o‘zi 5 qismdan iborat:

1-qism “Qo‘shiqlar qanotida” deb ataladi. Bunda “Boychechak”, “Oftob chiqdi olamga”, “Xo‘p hayda” qo‘shiqlari berilgan.

2-qism “Ertaklar mamlakatida” deb nomlanadi. Undan “Davlat”, “Ilm afzal, “Ko‘zacha bilan tulki”, “Ochko‘z boy”, “Hiylagarning jazosi”, “Ziyrak uch yigit”, ”Hunarsiz kishi o‘limga yaqin” ertaklari o‘rin olgan.

3-qism “Adabiy ertaklar” bo‘lib, unda Anvar Obidjonning “Bo‘rining tabib bo‘lgani haqida ertak”, Shukur Sa’dullaning “Laqma it”, A.Abdurazzoqning “Baqa bilan taqa” ertaklari o‘rin olgan.

4-qism “Maqollar” bo‘lib, bu yerda 17 ta maqol mavjud.

5-qism “Topishmoqlar”. Bunda 5 ta topishmoq berilgan.

Boshlang‘ich sinf ”O‘qish kitobi” darsligidagi xalq og‘zaki ijodiga mansub asarlar mundarijasi tahlilidan ham ko‘rinadiki, o‘quvchilar maktabga qadam qo‘ygan davridanoq xalqning o‘lmas merosidan, ma‘naviyat sarchashmasidan, ya‘ni og‘zaki ijodi namunalaridan bahramand bolar ekan. Bu asarlarni o‘rganish jarayonida ularning tarbiyaviy jihatlari diqqat qilish, ulardan yosh avlodning insoniy fazilatlarini shakllantirishda unumli foydalanish esa har bir o‘qituvchining eng mas‘uliyatli vazifasi bo‘lib qolaveradi.

Boshlang‘ich sinflarda ertaklarni o‘rganishda quyidagicha maqsadlar ko‘zda tutiladi:

1. Bolalarni barkamol inson ruhida tarbiyalash, Vatan, jamiyatga muhabbat hissini tarbiyalash.
2. O‘quvchilarga xalq ertaklari materiallari bo‘yicha davlat ta‘lim standartlari asosida bilim berish.
3. O‘quvchilarda ertak materiallarini o‘qishga havas uyg‘otish.
4. O‘quvchilarning o‘qish, og‘zaki nutq malakalarini rivojlantirish.

Ertaklarni o‘qish darslarida asosiy tarbiyaviy vazifa ularni barkamol inson ruhida shakllantirishga qaratiladi. Shuning uchun boshlang‘ich sinflarda ertaklarni o‘qish orqali o‘quvchilarning umumiy kamolotiga, ularda vatanparvarlik, do‘stlik, o‘rtoqlik qadriyatlarini shakllantirish, jamoa ichida o‘zini boshqarish, mehnatsevarlik, halollik, rostgo‘ylik, o‘qishga ongli munosabatda bo‘lish kabi ijobiy xususiyatlarni tarbiyalashga alohida e‘tibor berish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Mirziyoyev Sh.M.” Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga qiramiz”.-Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. 488-b.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti.
3. M.Qoshg‘ariy. “Devonu lug‘atit turk” asari.
4. Jo‘rayev M., Eshonqulov E. Folklorshunoslikka kirish (O‘quv qo‘llanma).-T.: “Barkamol fayz media”, 2017
5. Gafforova T., Shodmonov E. “O‘qish kitobi” 1-sinf. Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2018.
6. T.Gafforova, Sh.Nurullayeva, Z.Murzahakimova. “O‘qish kitobi”. 2-sinf. Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2018.
7. M. Umarova, X.Xamraqulova, R. Tojiboyeva. “O‘qish kitobi” 3-sinf –Toshkent: “O‘qituvchi”, 2019.
8. Matchonov S., Sojalilov A. va b. “O‘qish kitobi”4-sinf.Toshkent.”Yangiyo‘l poligraf servis” 2017.
9. Jabborov Sh. Xalq og‘zaki ijodidan foydalanish// Boshlang‘ich ta‘lim, 2011, 2- son, 28-29-betlar.
10. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor.- Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.

⁴² O‘qish kitobi 3-sinf uchun darslik

⁴³ O‘qish kitobi 4-sinf uchun darslik

UO‘K 372.462

O‘QUVCHILARDA ONA TILI FANIDAN BILIM, KO‘NIKMA VA MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

Abduxamidova Dilorom Abduvaxobovna

Yangiyo‘rg‘on tumani 19-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi 1-toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, O‘zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tili darslarida o‘quvchilarga kompetensiya asosida bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish yo‘llari, o‘quvchilarni og‘zaki va yozma nutqi ko‘nikmasini, ijodiy fikrlash malakasini o‘stirishga doir ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ta‘lim-tarbiya, kompetensiya, boshlang‘ich ta‘lim, ona tili, nutq, bilim.

UDC 372.462

WAYS OF FORMATION OF KNOWLEDGE AND SKILLS OF STUDENTS AT THE LESSONS OF MOTHER TONGUE

Abdukhamidova Dilorom Abduvahobovna

1st category primary class teacher of general secondary school No19, Yangiurgan district, Uzbekistan

Brief abstract. This article provides information on how to develop students' knowledge and skills based on competence in native language classes, and how to develop students' oral and written speaking skills and creative thinking skills.

Keywords: education, competence, primary education, mother tongue, speech, knowledge.

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo‘lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lmish yoshlarni ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo‘lda xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

Shu maqsadda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi. Shu bilan birga, ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish vazifalari belgilandi:

PIRLS – boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnini o‘qish va tushunish darajasini baholash;

TIMSS – 4- va 8-sinf o‘quvchilarining tabiiy-ilmiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonligini baholash;

TALIS – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida o‘qitish va ta‘lim olish muhitini hamda o‘qituvchilarning ish sharoitlarini o‘rganish;

PISA – 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash.

Ushbu loyihalar o‘quvchi-yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari, egallagan bilimlarini hayotda qo‘llay olish layoqatiga turli xil topshiriqlar orqali baho berish va keyinchalik bu ko‘nikmalar rivojlanishiga turtki berishga xizmat qiladi. Hozirgi kunga qadar Ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hamda Ta‘lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi o‘rtasida imzolangan kelishuvlarga muvofiq 2021-yilda PISA va PIRLS xalqaro dasturlarida ishtirok etish rejalashtirilgan.

Mazkur tadqiqotlar doirasida O‘zbekiston Respublikasi o‘quvchi-yoshlarining savodxonlik darajalari ilk bor sinab ko‘rilar ekan, bunga o‘ta mas‘uliyat bilan tayyorgarlik ko‘rish talab etiladi. Buning uchun, xalqaro tadqiqotlar talablariga mos ravishda ishlab chiqilgan topshiriqlar asosida tajriba sinovlar o‘tkazish, o‘quv jarayonlariga bosqichma-bosqich integratsiya qilib borish orqali o‘quvchilarda maxsus ko‘nikmalarni rivojlantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich sinflarda yangi mavzuni mustahkamlashda o‘quvchilarga mavzuga oid mashqlar bajarish muhim ahamiyatga ega. Chunki, qoida va mavzuga oid grammatik tushuncha o‘quvchilarga o‘rgatilgandan so‘ng mavzuga oid mashqlar bajarilmasa, o‘rgatilgan qoida va grammatik tushunchalarni o‘quvchilar mukammal ravishda o‘rganib, o‘zlashtirib olishlari qiyin bo‘ladi.

Boshlang'ich sinflarda mavzuga oid qo'shimcha mashqlarni bajarishning afzalliklarini tekshirish, tahlil qilish uchun tajriba sinfda mavzuni o'tib bo'lgandan so'ng, uni mustahkamlash maqsadida mavzuga oid ikkita qo'shimcha mashqlarni bajarib ko'rdik.

O'quvchilarning mavzuni o'zlashtirganliklarini aniqlash uchun savollar berganimizda, savollarga berilgan javoblar biz kutgan natijani bermadi. Mavzuni 40% o'quvchilar o'zlashtirganini guvohi bo'ldik. Demak, yangi mavzuni o'zlashtirishda va o'quvchilar tomonidan mustahkamlashda, albatta, mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajarilishi kerak.

2014-yil, 19-fevral kuni tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining PQ-2133 sonli «Sog'lom bola yili davlat dasturi to'g'risida»gi qaroridagi 71, 75-bandlarida e'tirof etilgan vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanmalar yaratish, nashr etish hamda darsliklarning multimediali ilovalarini ishlab chiqib, amaliyotga joriy etishning 2014-2017-yillarga mo'ljallangan rejasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan 2014-yilning 7-mart kuni tasdiqlandi va rejaga asosan ijodiy guruh tomonidan yaratilish muddatlari belgilab olindi.

2014-yilda 1-sinf uchun: Savodga o'rgatish, Ona tili, O'qish, Matematika, Atrofimizdagi olam fanlaridan, 2015-yilda 2-sinf uchun: Ona tili, O'qish, Matematika, Atrofimizdagi olam fanlaridan, 2016-yilda 3-sinf uchun: Ona tili, O'qish, Matematika, Tabiatshunoslik fanlaridan, 2017-yilda 4-sinf uchun: Ona tili, O'qish, Matematika, Tabiatshunoslik fanlaridan ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsion texnologiyalari asosida metodik qo'llanmalar yaratilishi rejalashtirildi.

Mazkur qarorning ijrosi sifatida shu kunga qadar 1-4-sinf ona tili fani bo'yicha multimedia elektron ilovalar, metodik qo'llanmalar yaratildi. Bu metodik qo'llanmalarda ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanib o'qitiladigan dars ishlanmalari, multimedia elektron ilovalar, dars jarayonida qo'llaniladigan metod va usullar, didaktik o'yin texnologiyalar, mantiqiy mashqlar va darslikdagi mualliflar haqida ma'lumotlar o'rin olgan. Ular o'quvchilarni o'ylashga, izlanishga, xulosalar chiqarishga undaydi.

Mazkur maqolada o'quvchilarni o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish, lug'atini yangi so'zlar bilan boyitish, so'zlardan nutqida to'g'ri va o'rinli foydalanishga o'rgatish maqsad qilib olingan. Har bir o'qituvchi 1-4-sinf ona tili fanidan yaratilgan multimedia ilovalari metodik qo'llanmalardan ta'lim sifatini oshirishda o'rinli va maqsadli foydalanishi zarur. Ayniqsa, ona tili darslarida matn ustida ishlashga va ularning xususiyatlari haqidagi mavjud bilimlarini yanada boyitishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Boshlang'ich sinflar ona tili ta'limi o'quvchilarda nutq faoliyatining asosiy turlarini o'stirish bilan bir qatorda, quyidagi muhim masalalarni hal etishni ko'zda tutadi:

Boshlang'ich sinflarda ona tilidan beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi, so'zlarning o'zgarishi va gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi, so'zlarning morfemik tarkibi va so'z yasalishi, so'zlarning leksik – semantik guruhi haqidagi, o'zbek tilining to'g'ri yozuv qoidalari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi bilimlar tashkil etadi. Berilgan bu bilimlar o'quvchilar nutqini o'stirishga xizmat qiladi.

Ona tili o'qitishning mazmuni va metodlari o'quvchilarga dastur talab qilgan hajmda puxta bilim berish, ko'nikma va malakalar hosil qilishga ko'maklashishi lozim.

Maktabni bitirib chiqqan yoshlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning rang – barang jabhalarida, muloqot va munosabatning barcha turlarida o'zbek tilidan bemalol – erkin, samarali va to'g'ri foydalana olish, uning cheksiz imkoniyatlaridan to'laqonli bahramand bo'lish, zaruriy ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari kerak.

Ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi: o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetentsiyani rivojlantirish; o'quvchilarda grammatikaga oid bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) shakllantirish va rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda o'qigan, ko'rgan, eshitganlarini nutqiy to'g'ri va ravon bayon eta olish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetentsiyalarni shakllantirishdan iborat.

Ona tili fanining o'quv dasturi o'quvchilarda kompetentsiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standarti talablaridan kelib chiqib tuzilgan. O'quv dasturida o'quvchilarda fanga doir nutqiy va lingvistik kompetentsiyalarni hamda tayanch kompetentsiyalarning elementlarini shakllantirish ko'zda tutilgan.

Boshlang'ich ta'limda – o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash, og'zaki va yozma nutqida adabiy nutq me'yorlariga rioya qilishni shakllantirishdan iborat.

Yangi tahrirdagi o'quv dasturidagi o'zgarishlar. 1-4-sinflarda —Iqtisod va soliq alifbosi fanining sodda elementlari ona tili fani mazmuniga, ya'ni mavzular kesimida ham singdirib o'qitilishi ko'zda tutilgan.

Shuningdek, 1-4-sinflarda Ona tili fani chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini takomillashtirish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchilardagi qobiliyat va iste'dodni yanada kamol toptirish uchun ixtisoslikka yo'naltirilgan o'quv dasturi kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv dasturiga moslashtirildi. Bunda yillik o'quv soatlari A1 bosqichda 608 soat bo'lsa, A1+ bosqichda esa 680 soatni tashkil etadi.

O'rta umumiy ta'lim mazmunida uzviylikni ta'minlash maqsadida 2017-yilda tasdiqlangan o'quv dasturida 3-sinf ona tili fani mazmunida "O'zak", "O'zakdosh so'zlar" mavzulari —Asos —Asosdosh so'zlar mavzulariga o'zgartirildi.

Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish*): mavzu doirasida o'qituvchi nutqini va sodda audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarini tinglab tushuna oladi; ko'rgan rasmlari va o'qib eshittirilgan matn yuzasidan o'qituvchi yordamida suhbatga kirisha oladi, nutq jarayonida o'zlashtirgan yangi so'zlarni og'zaki nutqda qo'llay oladi. Nutq va matnning gaplardan tuzilishi, matnni mazmunan bog'langan gaplardan tuzilishini aytib bera oladi; kishilarning his-hayajonini bildirgan gaplarni, gaplarni mazmuniga ko'ra farqlaydi, oxiridagi nuqta, so'roq va undov belgilariga qarab o'qiy oladi, ajrata oladi, gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va ifodali o'qiy oladi; gapni bosh harf bilan boshlab yoza oladi, rasmlarga qarab gap tuzadi va yoza oladi, harflarni yozuvda imlo va husnixat qoidalariga amal qilgan holda harflarni bir-biriga ulab, ko'chirib, namunaga qarab yoza oladi. Bir mavzu doirasidagi savollarga javob yoza oladi, 15-20 so'zli diktant yoza oladi.

Lingvistik kompetensiya: o'zbek tilida nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qila oladi, so'zlarni talaffuz me'yorlariga rioya qilgan holda bo'g'inlab ko'chirish qoidasiga rioya qila oladi, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda qo'llay oladi, tinish belgilarini to'g'ri qo'llay oladi.

2-sinf. O'quvchilarda shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari:

Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish*):

- o'qituvchi nutqini, video va audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarini tinglab tushuna oladi; rasmlar asosida va o'qib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha oladi; nutq jarayonida o'zlashtirgan yangi so'zlarni og'zaki nutqda qo'llay oladi; mashq matnidagi so'zlarni qo'shib, gap ohangiga rioya qilib ravon va ifodali o'qiy oladi; shaxs va narsaning sanog'ini bildirgan so'zlar nechta?, qancha? so'roqlariga, shaxs va narsaning tartibini bildirgan so'zlar nechanchi? so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlarni, bir mavzu doirasidagi savollarga javob yoza oladi; 3-4 ta gapdan iborat ijodiy matn yarata oladi; rasmlar asosida qisqa matn tuza oladi, xatboshiga, imlo va husnixat qoidalariga amal qila oladi.

Lingvistik kompetensiya:

o'zbek tilida nutq tovushlarini to'g'ri qo'llay oladi; talaffuz me'yorlariga rioya qila oladi; bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila oladi; mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda qo'llay oladi; tinish belgilarini to'g'ri qo'llay oladi; 30-40 so'zli diktant yoza oladi.

A1+

Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish*): mashq va topshiriqlardagi axborotni tushuna oladi; mashq va topshiriqlarda berilgan matnni orfoepiya qoidalariga rioya qilib ravon o'qiydi; 4-5 ta gapdan iborat ijodiy matn yarata oladi.

Lingvistik kompetensiya:

nutqda so'zlarning grammatik shakllaridan to'g'ri foydalana oladi; 35-45 so'zli diktant yoza oladi.

Nutq o'stirish. Matn. Matnning o'zaro mazmunan bog'langan ikki va undan ortiq gaplardan tuzilishi. So'roqlar yordamida matnni qismlarga bo'la olish. Kichkina matnga va matn qismlariga sarlavha qo'yish.

Bayon haqida tushuncha. Matnni savollar yordamida qayta hikoya qilish. Uncha katta bo'lmagan matn yuzasidan uch-to'rt so'roq gaplardan tuzilgan reja asosida bayon yozish.

Rasmlarga qarab savollar yordamida gaplar tuzish va uni imloviy tayyorlikdan so'ng yozish. O'qituvchi rahbarligida bir mavzuga oid bir necha gap tuza olish. Bolalarning o'yinlari, o'qishlari, qiziqishlari haqida kichik hikoya tuzish.

DARSNING MAVZUSI: GAP

I. Darsning maqsadi:

a) ta'limiy-nutq va gap mazmunini o'tish, nutq va gapning muhim tomonlarini tanishtirish;
b) tarbiyaviy-o'quvchilarga misollar orqali odobli, do'stlik, vatanparvarlik va insoniylik tarbiyasini singdirish.

d) rivojlantiruvchi-o'quvchilarni og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish.

II. Darsning turi: nazariy va amaliy.

III. Dars uslubi: suhbat, tushuntirish, ko'rgazmali.

Fanlararo bog'liqligi: o'qish, atrofimizdagi olam.

IV. Darsning jixazi: turli hil ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, rangli rasmlar.

V. Darsning borishi:

Tashkiliy qism:

- a) salomlashish;
- b) davomatni aniqlash;
- d) o'quvchilarni darsga hozirlash maqsadida kichik suhbat o'tkazish.

VI. Yangi mavzu bayoni:

O'qituvchi: Hurmatli o'quvchilar bugun biz sizlar bilan «Nutq va gap» mavzusida suhbatlashamiz. Sizga shunday savol: maktabda, uyda, hovlida, tabiatda nimalarni ko'ramiz.

O'quvchilar o'qituvchi ko'rsatgan sabzavotlar va mevalar rasmlaridan foydalanib, ularning nomlarini aytib beradilar.

Keyin ularning rangi, ta'mi so'ralib, o'quvchilar javobi tinglanadi.

O'qituvchi o'quvchilarga savol beradi.

-Nutq nima?

O'quvchilar:

-Nutq gapning og'zaki shaklini bildiradi.

Masalan: Bolalar kitob o'qiydilar.

O'qituvchi: shu so'zlar yordamida gaplar tuzamiz, yozamiz.

Gap tugallangan mazmunni bildiradi.

Masalan: Quyosh olamni isitadi va yoritadi. Bir yil to'rt faslga bo'linadi.

O'quvchilarga og'zaki gaplar tuzdiriladi.

161-mashqni bajaramiz.

Mashqning sharti o'qituvchi tomonidan o'qib, avval og'zaki bajariladi, keyin doskaga yoziladi.

So'ngra o'quvchilar daftariga yozdiriladi. Nutq va gaplarni qiyoslanadi. Gaplar ko'chirib yoziladi.

Chiroyli, ozoda, xatosiz, husnixat qoidalariga rioya qilib, yozgan o'quvchilar daftari baholanadi, namuna qilib ko'rsatiladi.

162-mashq.

O'qituvchi: Kitobni yaxshi asrang.

U kishilarga irodasi kuchli hamda g'amxo'r bo'lishni o'rgatadi.


Kitob- bizning do'stimiz.

Har bir gapni bitta o'quvchi o'qib, o'zi doskaga chiqib yozadi, ularga savol beriladi.

Nutqimiz nimalardan tuzilgan?

Nutq so'zlardan tuzilgan.

O'quvchilar tarqatmalar asosida so'zlar tuzadilar.



VII. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Mustahkamlash uchun o'quvchilarga tarqatma materiallar beriladi. Ularga bir oz vaqt ajratiladi. Tarqatma material olgan o'quvchilardan so'raladi. Xato va kamchiliklarni tuzatiladi. Har partaga bittadan rasm beriladi. O'quvchilar rasmlardan foydalanib gap tuzadilar. Tuzgan gaplarni o'qib eshitiladi.

Tayyor ishlangan shablonlarni ko'rsatib, ular nomini o'quvchilar aytib, so'zlardan gaplar tuziladi. Tuzgan gaplarni xato kamchiliklari, yutuqlari aytiladi.

Darsga yakun yasash va uyga vazifa berish.

Uyga vazifa - 164-mashq.

Mashqni sharti tushuntiriladi. So'zlarni bo'g'inlarga bo'lib, chiziqcha bilan ajratib yozish. Darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantirish va baho olgan o'quvchilarni kundaligiga baho qo'yib berish.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, boshlang'ich sinflarda interfaol usullarni hamda multimediyali darsliklarni qo'llashda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olib tashkil etilgan darslar samarali bo'lib, o'quvchilarni bilimlarini to'la o'zlashtirishi hamda fanga bo'lgan qiziqishi va qobiliyatlarini oshirishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Mirziyoyev Sh.M. "Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir" mavzusidagi O‘zbekiston Resp. Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi. Xalq so‘zi. 2017-yil 8-dekabr. 247-son.
2. M.G‘ulomov. Yozuv daftari. T: Ma‘naviyat, 2009.
3. R.Ikromova, X. G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva, D. Shodmonqulova. Ona tili (4-sinf uchun darslik). T.: O‘qituvchi, 2009.
4. R.Safarova va boshq. Savod o‘rgatish darslari (Alifbeni o‘qitish bo‘yicha metodik qo‘llanma).- T.: Ma‘naviyat, 2003.
5. X.G‘ulomova, T.G‘afforova. 1-sinfdaona tili darslari. T.: Sharq, 2003.
6. X.G‘ulomova, Sh.Yo‘ldosheva, U.Shermatova. 4-sinfdaona tili darslari. T.: O‘qituvchi, 2003.
7. X.G‘ulomova. So‘z turkumi sonni o‘rganish. //Boshl. ta‘l. jurnali. Toshkent, 2005. №4. 14-15, 37-betlar.

UO‘K 372.851

MATEMATIKA DARSLARIDA AKTDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Azimova Gavhar Abdurahimovna

Namangan shahar 31-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi 1-toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, O‘zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda matematika darslarini o‘tishda Aktdan foydalanish, o‘qitish jarayonining sifat va samaradorligini oshirishga doir ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: dars, ta‘lim, matematika, AKT, texnologiya, oqitish, bilim, maktab, o‘quvchi.

UDC 372.851

THE IMPORTANCE OF USING ICT IN MATHEMATICS CLASSES

Azimova Gavhar Abdurahimovna

1st category primary class teacher of secondary school No.31 of Namangan city, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. This article provides information on the use of the ICT at teaching mathematics in primary classes, improving the quality and efficiency of the teaching process.

Keywords: lesson, education, mathematics, ICT, technology, teaching, education, school, student.

“Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo‘ygan hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha sohalarda keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ana shu islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi avvalo ilm-fan va ta‘lim-tarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatdosh bo‘la olishimiz bilan uzviy bog‘liq...”

Sh.M.Mirziyoyev

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo‘lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lgan yoshlarni ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini davlat ta‘lim standartlari asosida shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” doirasida O‘zbekistonda ta‘lim sifatini baholashda yangicha monitoring tizimini xalqaro baholash dasturlari yordamida aniqlash va qiyoslashga asoslangan tizim shakllantirilmoqda.

Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro loyihalarni amalga oshirish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev boshchiligidagi hukumatimiz ta‘lim sohasida tub burilishlar qilgan holda ko‘plab farmon va qarorlar chiqardilarki, ularning asosiy maqsadi yosh avlodni yuksak ma‘naviyatli

etib tarbiyalashdan iborat. Shu jumladan 2017-yil 6-aprelda Vazirlar mahkamasining 187-sonli qarori imzolandi. Unga ko'ra:

Davlat ta'lim standartining maqsadi — o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, belgilangan talablarga javob beruvchi, ma'naviy barkamol, kasb mahoratiga ega bo'lgan, mehnat va ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdan iborat.

O'zbekistonda birinchi Prezident I.Karimov rahnamoligida barcha faoliyat sohaslariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) eng so'nggi yutuqlarini joriy etish borasida katta ishlar amalga oshirilmogda.

Mamlakatimizda axborot makonini shakllantirish masalalari O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2002-yil 30-mayda qabul qilingan "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi farmonida o'z aksini topgan. Bu borada 2002-2010-yillarda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturi ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich amalda tatbiq etilmogda. 2008-yilning birinchi yarim yilligida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari muhokamasiga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, yirik ishlab chiqarish korxonalari, shuningdek, mahalliy hokimiyat organlariga kompyuter hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Bunda kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalaridan ishlab chiqarish hamda boshqaruv faoliyatida amaliy foydalanish zarurligi ta'kidlab o'tildi.

Hozir aloqa va axborotlashtirish sohasi zamonaviy axborot texnologiyalari negizida jadal rivojlanib borayotir. Bugungi kunda respublikamiz shaharlari va tuman markazlaridagi barcha tarmoqlar raqamlashtirilgan bo'lib, aholi, korxonalar, tashkilot va muassasalarga yuqori sifatli shaharlararo telefon aloqa va ma'lumotlar uzatish xizmatlari ko'rsatilmogda. Barcha joylarda eng yangi AKT joriy etilmogda, Internetdan foydalanuvchilar soni ortib bormogda, uyali aloqa kompaniyalari abonentlari ham ko'paymogda.

Bu sohada qisqa vaqt ichida mamlakatimizda jiddiy ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Jumladan, odamlar turmush darajasini oshirish bo'yicha asosiy vositalardan biri hisoblangan AKT sohasida ham sezilarli tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Bu Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi rahbariyati tomonidan AKT bo'yicha o'tgan sammitda ham qayd etildi. Bunday sammitlar Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari haftaligi doirasida O'zbekistonda har yili o'tkaziladi. Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi 2015-yilda yer shari aholisini qariyb yarmini zamonaviy AKTdan foydalanish imkoniyati bilan ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. O'zbekistonda ushbu yo'nalishda samarali chora-tadbirlar amalga oshirildi va salmoqli natijalarga erishildi: bugungi kunda aholi faol qismining yarmidan ko'pi, ya'ni davlat muassasalari, universitetlar, kollej va liseylar, maktablar, biznes, ilm-fan, madaniyat, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda AKTdan samarali foydalanilmogda.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda hukumat muassasalari, xususiy sektor, xalqaro hamjamiyat va fuqarolik jamiyati o'rtasida AKT masalalari bo'yicha ochiq muloqot olib borish uchun o'ziga xos shart-sharoit yaratilgan. Bu esa mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qilishi muqarrar. Bu narsa yuqorida keltirib o'tilgan AKT yanada rivojlantirish to'g'risidagi O'zR Prezidenti Farmoni va VMning Qarorlari, XTV me'yoriy hujjatlarida ham keng ko'lamda ta'kidlab o'tilgan.

O'qitishning ko'rsatmali metodlari – o'quvchilarga kuzatishlar asosida bilimlar olish imkonini beradi. Kuzatish hissiy tafakkurning faol formasidir, bunday o'qitishdan keng foydalaniladi. Atrof-borliqdagi predmet va hodisalar, ularning turli-tuman modellari, (har xil tipdagi ko'rsatma- qo'llanmalar) kuzatish ob'ektlari hisoblanadi.

O'qitishning ko'rsatmali va og'zaki metodlari o'zaro chambarchas bog'liqdir. Ko'rsatma-qo'llanmalarni namoyish qilishni har doim o'quvchilar va o'qituvchilarning tushuntirishlari bilan birgalikda olib boriladi

Matematika so'zi qadimgi grekcha - *mathema* so'zidan olingan bo'lib, uning ma'nosi «fanlarni bilish» demakdir.

Muammoli vaziyat – bunda o'qituvchi o'quvchilar oldiga ularning bilimlari yetishmasligi sababli birdaniga to'la javob bera olmaydigan savol qo'yadi. Muammoli vaziyatning markaziy elementi o'quvchilar tomonidan yechilishi kerak bo'lgan noma'lum yoki qo'yilgan muammoni hal qilish uchun zarur bo'lgan bilimlardir.

Matematika o'qitish jarayonining sifati va samaradorligini oshirish maqsadida o'quv metodik kompleksi yaratiladi. Bu kompleks tarkibida darslikdan tashqari o'quvchilar va o'qituvchilarga moslab

yozilgan metodik qo'llanmalar, kartochkalar, bosma asosli daftarlar, mashqlar to'plamlari va boshqalar chop etiladi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash – hozirgi axborot kommunikatsiya texnologiya vositalari kuchli rivojlangan sharoitda ulardan to'g'ri va samarali foydalanish, axborotlarni tanlash, saralash, saqlash, qayta ifodalash ko'nikmalari hosil qilinadi. Bu jarayonda kompyuter savodxonligi alohida ahamiyat kasb etadi.

O'qitishning maqsadlari, mazmuni, metodlari, vositalari va formalari metodik sistemaning asosiy komponentlaridir. A.M. Pishkaloning tushuntirishga ko'ra, metodik sistema murakkab sistema bo'lib, uni o'ziga xos grafik bilan tasvirlasa bo'ladi.

Bugungi kunda o'qitishning metodi va mazmuni muammosini hal etish oldingilardan farq qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini o'stirishda informatikani qo'llash bugungi kun muammolaridan biridir.

Boshlang'ich sinfda o'quvchilar matematikani o'rganishni davom ettirishga tayyorlanadilar. Shuning uchun butun maktab matematika kursi bilan boshlang'ich matematika o'qitish orasida uzluksiz olib boriladi. Son tushunchasi, geometrik figura, ifoda, funktsiya, tenglama, geometrik yasash, koordinat va vektor qaqida boshlanqich tushunchalar boshlang'ich sinfda o'rgatiladi.

Matematikani o'rganish bilan o'qituvchilar matematik bilimlar zapasiga ega bo'la boshlaydi. Buning natijasida o'qituvchilar aniq ob'yektni matematika tilida ifodaligi yoki matematik modellashtirishga kirishadi.

Boshlang'ich ta'lim o'quv darslarida axborot majmui – ma'lumotnomalar, entsiklopediyalar, virtual kutubxonalar, geografik xaritalar, rasmlar, chizmalar, animatsiyalar, matnlar, tasviriy axborotning statistik va dinamik ifodalari, ovozi obrazlar (yozilgan ovoz, musiqa va boshqalar) foydalanish mumkin.

Yuqorida keltirilgan AKT savodxonligi elementlariga ega bo'lishlik – ta'lim jarayoniga AKTni samarali joriy etishning tashkiliy bir qismi hisoblanadi. Bugungi kunda o'qituvchilarning AKT sohasiga oid kasbiy mahoratini oshirish yo'nalishida asosiy e'tibor ularning kompyuterdan foydalanuvchi sifatida tayyorlashga qaratilgan.

O'qituvchilar AKT savodxonligiga ega bo'lish bilan chegaralanib qolmasdan, AKT vositalaridan ta'lim samaradorligini oshirish yo'lida to'g'ri foydalanish metodikasiga ham ega bo'lishlari zarur. Ya'ni, har bir fan o'qituvchisi o'zining darsida AKT vositalaridan didaktik vosita sifatida foydalana olishlari zarur. Shu sababli, malaka oshirish kurslarida nafaqat kompyuter savodxonligiga oid mashg'ulotlarni, balki AKTdan foydalanish metodikasiga oid mavzularni ham o'qitish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kompyuter savodxonligiga ega bo'lgan o'qituvchilar ham dars jarayonida AKT vositalaridan samarali foydalana olmaydilar. Ushbu holat ko'plab davlatlarning ta'lim tizimiga xos bo'lgan muammodir. Ko'rinib turibdiki, aktuallik jihatidan AKTdan dars jarayonida foydalanish metodikasi AKT savodxonligiga ega bo'lishlikdan ko'ra muhimroq hisoblanadi.

AKTdan dars jarayonida foydalanish metodikasiga oid ko'nikmalarga matn va jadval muharrirlari yordamida pedagogik vositalar yaratishda ularning didaktik imkoniyatlaridan foydalanishni (matn muharririda formulalar kiritish, jadval muxarrirlarida funktsiyalarning grafiklarini yaratish va b.) ta'kidlab o'tish mumkin. Bundan tashqari, ushbu metodika AKT vositalaridan darsning qaysi qismida, qancha vaqt davomida foydalanishni nazarda tutadi.

Ushbu fikrlarni tasdig'i sifatida YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan "O'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid bilimlarga ega bo'lishlik bo'yicha tavsiyalari"ni keltirish mumkin. Mazkur tavsiyalarni quyidagi saytdan yuklab olish mumkin: www.iite.ru.

Mazkur tavsiyalarda ham zamonaviy o'qituvchining texnologik jihatdan savodxon bo'lishligi va o'quvchilarda ushbu ko'nikmalarni shakllantirish yetarli emasligi alohida ta'kidlanadi.

Hulosa qilib aytish kerakki, zamonaviy o'qituvchi o'quvchilarda AKTdan foydalanishda hamkorlik qilish, vujudga kelgan muammolarni hal etish, bilimlarni izlash, turli manbalardan olgan ma'lumotlarni tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qila olish va umumlashtirish kabi ko'nikmalarni hosil qilishga ko'mak berishga qodir bo'lishligi kerak bo'ladi.

Har bir fan o'qituvchisi dars jarayoniga AKT vositalarini joriy etar ekan, ularning tuzilishi va ishlash uslublaridan xabardor bo'lishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi. Davlat ta'lim standartlari. Boshlang'ich ta'lim. Toshkent: 2005-yil 5-son. 2-50 betlar.
2. Ahmedov M, Abduraxmonova N, Jumayev M. «Matematika». O'qituvchi kitobi. Toshkent: «Uzinkomtsentr» - 2003-yil.
3. Ahmedov M va boshqalar. «Matematika 1-darslik». Toshkent: «Uzinkomtsentr» - 2003-yil.
4. Bikboyeva N.U. va boshqalar. «Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi». O'quv qo'llanma. Toshkent: «O'qituvchi» - 1996-yil.
5. Bikboyeva N.U. va boshqalar. «Matematika 2-darslik». Toshkent: «O'qituvchi» - 2003-yil.

UO'K 37.022

BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFAT VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING MOHIYATI

Ismoilova Navbahoroy Salaydinovna

Andijon viloyati Oltinko'l tumani 36-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi, O'zbekiston

Annotatsiya. Boshlang'ich ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda didaktik o'yin darslaridan maqsadli foydalanish o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishi, bilimlarni o'zlashtirishi, hamkorlikdagi faoliyat dinamikasining oshirishida ijobiy natijalarga erishishni tahminlaydi.

Kalit so'zlar: motiv, didaktik o'yinlar, o'yin komponentlari, o'yin yo'nalishlari.

UDC 37.022

THE ESSENCE OF DIDACTIC GAMES IN INCREASING THE QUALITY AND EFFICIENCY OF PRIMARY EDUCATION

Ismoilova Navbahoroy Salaydinovna

Teacher of secondary school No.36, Andijan region, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. Targeted use of didactic game lessons to increase the effectiveness of the primary education process presupposes positive results in increasing students' interest in learning, acquisition of knowledge, and dynamics of collaborative activities.

Keywords: motive, didactic games, imitation, components of game, a game direction, game rules.

Umumiy o'rta ta'limda Davlat ta'lim standartlarining yuzaga kelishi mavjud vaziyatni murakkablashtirdi, chunki standartning shartsiz bajarilishini kafolatlaydigan va pedagogik amaliyotga joriy etiladigan texnologiyalar ishlab chiqilmagan edi. Har bir o'quvchi ta'lim standarti darajasiga erishishi uchun o'quv yurtlaridagi mavjud an'anaviy metodikalar o'rniga zamonaviy pedagogik qurollar zarur bo'ladi. O'quv jarayoni loyihasini texnologiya darajasiga chiqarish va bu loyihaning joriy etilishi o'qituvchini yuqori malakali mutaxassisga aylantirish bilan birgalikda o'rganuvchining mavqeini ham kuchaytiradi va ijodiy hamkorlikning yangi ufqlarini ochadi. Boshlang'ich ta'limda motivlar hosil qilishda didaktik o'yinlarning o'zni beqiyosdir. O'yinsiz tom ma'nodagi aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin emas. O'yin o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni uyg'otadigon uchqundir. O'yin – boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'lum sifatlarni shakllantirish uchun kattalar – o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar tomonidan qo'llaniladigan usul. O'yin vositasida o'quvchilarning bilim o'zlashtirish jarayoni qulaylashadi, turli xil predmetlar bilan munosabatda bo'lishga o'rganadi, shuningdek, ular muomala madaniyati shakllanadi. O'yin vositasida bolaning shaxsi shakllanadi, unda kelgusida o'quv va mehnat faoliyatini tashkil etish va insonlar bilan munosabatga kirishishga oid ruhiy xususiyatlar shakllanadi. O'yin orqali bolalar borliqni o'rganadi va dunyoni o'zgartirishga harakat qiladi. Shunday qilib, o'yin inson faoliyatining shakllanishiga asos soladi. O'yinda inson borliqni aks ettirish qobiliyatini namoyon qiladi. O'yinning eng muhim ahamiyati shundaki, unda ilk bor bolaning dunyoga tahsir etish ehtiyoji paydo bo'ladi va shakllanadi. Maktab yillarida o'yin shakllari yanada kengroq rivojlanadi. O'quvchilar o'yin faoliyati juda ko'p soha olimlarini, yahni, faylasuflar, sotsiologlar, biologlar, san'atshunoslar, etnograflar, ayniqsa, pedagoglar va psixologlarni qiziqtiradi. psixologiyada bola psixikasining rivojlanishida o'yinning hal qiluvchi ahamiyatga ega deb qaraladi. Faqat o'yindagina bolada shaxsning hamma tomonlari birlikda va o'zaro ta'sirda shakllanadi. O'yingina bola psixikasida rivojlanishning yuqoriroq stadiyasiga o'tish uchun muhim zamin yaratadi. Didaktik o'yin o'rganilayotgan voqea va hodisalarning imitatsion modeli yaratilishi sohasidagi muhim faoliyatdir. O'yinning boshqa faoliyat turlarida muhim farqi shundaki, uning predmeti inson faoliyatidir. Didaktik o'yinda faoliyatning asosiy turi hamkorlikdagi o'quv faoliyatidir. Didaktik o'yinlarning boshqa

faoliyat turlaridan farqlanadigan muhim belgilari uning tarkibi qat'iyligidir. Didaktik o'yinlarning tarkibiy komponentlari quyidagilar:

1. O'yin mantiqi.
2. O'yinning harakati.
3. O'yin qoidasi.

O'yin mantiqi asosan uning sarlavhasida aks etadi.

O'yin harakati jarayonida o'quvchilarning bilish faolligini oshirishga, o'quvchilarning o'z qobiliyatini namoyon qilishga, o'yin maqsadiga erishish uchun o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini qo'llashga imkoniyat yaratiladi.

O'yin qoidasi o'yin jarayonini to'g'ri tashkil etishga yordam beradi. U o'quvchilar xulqini, ularning o'zaro munosabatlarini tartibga soladi.

Didaktik o'yinlarda ma'lum bir natijaga erishiladi, uning finali uning tugaganligini bildiradi. O'yinda ma'lum bir didaktik maqsad qo'yiladi va bu maqsadga erishilishi o'quvchilarda mahaviy va aqliy qoniqish hissini shakllantiradi. Didaktik o'yinlar hammavaqt o'qituvchi uchun o'quvchilarning bilim o'zlashtirishi yoki o'zlashtirilgan bilimlarni amalyotga qo'llash ko'rsatkichi hisoblanadi.

Didaktik o'yinlarning hamma tarkibiy komponentlari o'zaro bog'liq bo'lib, ulardan birortasining bo'lmasligi mumkin emas.

Xalq pedagogikasida shakllanib kelgan bolalarni o'qitish va tarbiyalashda didaktik o'yinlardan keng foydalanish anhanalari o'qituvchilarning amaliy tajribalari va olimlarning ishlarida rivojlanirildi.

Chex pedagogi Ya.A.Komenskiy o'yinni bola faoliyatining asosiy shakli ekanligini tahkidlab, aynan o'yin bolaning tabiati va qiziqishlariga mos kelishini aytgan edi⁴⁴. Olim o'yin bolaning aqliy qobiliyatlarini har tomonlama o'stirishi, uning atrof-tevarak haqidagi tasavvurlarini kengaytirishi, nutqini o'stirishini tahkidlaydi. Shuningdek, tengdoshlari bilan birgalikdagi o'yin uni tengdoshlariga yaqinlashtiradi. Quyida, didaktik o'yin texnologiyalari amalga oshiriladigan o'yinlarga to'xtalib o'tamiz:

Ishchanlik o'yini darsi — dars mavzusi bo'yicha masalalarni hal etish jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishini tahminlash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish mashqi.

Rolli o'yin darsi — dars mavzusi bo'yicha masalalarni o'rganishda o'quvchilarga oldindan ma'lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rolni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustahkamlash darsi.

Teatrlashtirilgan dars — dars mavzusi bilan bog'liq sahna ko'rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusi bo'yicha chuqur, aniq mahlumotlar berish darsi.

Kompyuter darsi — tegishli o'quv fani bo'yicha dars mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimedia, virtual o'quv kursi va shu kabilar) asosida o'tiladigan dars.

Kim oshdi savdosi darsi — o'quv fani ayrim bo'limi bo'yicha bilimlarni xar bir o'quvchi qanchalik ko'p bilishini namoyish etish darsi.

Yarmarka darsi — dars mavzusini bo'laklar bo'yicha oldindan o'zlashtirgan o'quvchilarning o'zaro muloqot asosida sinfga qiziqarli tushuntirish orqali o'tiladigan dars.

Formulalar darsi — o'quvchilarning formulalarni puxta o'zlashtirishlari bo'yicha turli o'yinlar shaklidagi mashqlar o'tkazish darsi.

“Sud” darsi — o'quvchilar bilan dars mavzusiga mos «sud» jarayonini tashkil etish orqali yangi mavzuni tushuntirish darsi.

Shuni ta'kidlash lozimki, o'qituvchi dars jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanar ekan. Buning uchun albatta o'yin mazmun-mohiyatidan kelib chiqib eng zarur vositalarni tanlay bilishi kerak. Chunki, zaruriy vositalar didaktik o'yin samaradorligini ta'minlaydi.

O'qituvchilar didaktik o'yinlarni tashkillashtirishda ular uchun ishlatiladigan har bir material bilan ishlash, ulardan tegishli didaktik vositalarni tayyorlash xamda xavfsizlikni ta'minlash texnologiyalarini puxta bilishlari va rioya qilishlari lozim. Chunki didaktik vositalarning sifati, ko'zda tutilgan maqsadlarga mosligi, qulayligi va ulardan to'g'ri foydalanish mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan didaktik o'yin darslarini o'qitish jarayonida qo'llashda boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan yuksak mahorat va tashkilotchilik qobiliyati talab qilinadi. Shuningdek, o'qituvchi o'yinli o'qitish texnologiyalaridan foydalanib mashg'ulotlarni tashkil etganda, quyidagi asosiy vazifalarni qat'iy belgilab olishi lozim:

⁴⁴ Зиёмухаммадов Б., Абдуллаева Ш., Илғор педагогик технологиялари. - Т.: “Абу Али Ибн Сино”, 2001. 188-б

Didaktik o'yinda o'quvchi qoidalarga rioya qilishga o'rganadi. Chunki qoidalarga rioya qilish o'yin muvaffaqiyatini ta'minlaydi. O'yinda qatnashish jarayonida ijodiy xulqiy sifatlar, tashkilotchilik qobiliyati shakllanadi.

Foydalanilgan material turlariga qarab ham didaktik o'yinlar uch turga ajratish mumkin:

- *predmetli o'yinlar,*
- *stol ustida o'ynaladigan o'yinlar,*
- *so'zlar vositasida o'ynaladigan og'zaki o'yinlar.*

Predmetli o'yinlar – xalq didaktik o'yinchoqlari, turli tabiiy mozaika materiallari yordamida o'ynaladigan o'yinlar. Bular yordamida o'qituvchi o'yin turlarini belgilaydi. Masalan, tabiiy materiallar bo'laklaridan butun hosil qilish.

Stol ustida o'ynaladigan – atrof muhit haqidagi tasavvurlarning kengayishiga o'quvchilarni bilimga qiziqtirishga, tafakkur jarayonlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Stol ustida o'ynaladigan o'yinlarning bir nechta turlari mavjud: o'xshash suratlar, loto, domino, kesma suratlar, taxlama kubiklar.

So'zlar vositasida o'ynaladigan og'zaki o'yinlar. Bu o'yinlar guruhiga juda katta xalq o'yinlari, yani "Zanjir", "Noto'g'ri jumla", "Bo'lishi mumkin emas", "Tez aytish", "Topishmoqlar", "Aytishuvlar" va shu kabi og'zaki nutq bilan bog'liq o'yinlar kiradi. Bunday o'yinlar diqqatni, xotirani rivojlantiradi, o'quvchilarni fikrlarini to'lashga, tez fikrlashga, bog'lanishli nutqqa, mantiqiy fikrlashga o'rgatadi.

Didaktik o'yinda bola yaxshi xulqiy sifatlarga ega bo'ladi. Didaktik o'yinlar bir nechta bosqichlarga bo'linadi. Har bir bosqichda bolaning ma'lum bir imkoniyatlari namoyon bo'ladi. Tarbiyaning bu bosqichlar xarakterini bilishi didaktik o'yinlarning samaradorligini aniqlashda katta ahamiyatga ega.

Birinchi bosqichda bolada o'ynash ishtiqli bali bali bo'ladi va o'yinda faollik ko'rsata boshlaydi. Anashu bosqichda bolani o'yinga qiziqtirish maqsadida topishmoqlar, tez aytishlar, aytishuvlar yoki suhbatlar tashkil qilish mumkin.

Ikkinchi bosqichda bola o'yin topshiriqlarni bajarish, qoidaga rioya qilishga o'rganadi va o'yinda qatnashishga kirishadi. Bu bosqichda bolalarda to'g'riso'zlik, maqsadga erishishga astoydil kirishish, irodaviylik, o'yinda yutqazish alamini ham yenga bilish, o'z muvaffaqiyatidagina emas, o'rtoqlari muvaffaqiyatidan ham qovona bilish kabi ijobiy sifatlar shakllanadi.

O'yinning **uchinchi bosqichida** bola o'yin qoidalarini yaxshi biladi. U endi o'yinga ijodiy yondashadi, o'zi yangiliklar kiritadi, mustaqil ijodiy izlanadi. O'yinda qatnashish jarayonida u tez javob topish, yashirishlash, yugurish, tasvirlash va boqa shu kabi vazifalarni bajaradi. O'yinning har bir etapi ma'lum bir pedagogik vazifalarni o'z ichiga oladi. O'yinning birinchi bosqichida pedagog bolalarni o'yinga qiziqtiradi, ularda xush kayfiyat, yangi o'yinlarni kutishga ishtiyoq uyg'otadi. Ikkinchi etapda esa u o'yinni kuzatuvchi emas, balki qatnashchisi sifatida faoliyat ko'rsatadi, o'yin davomida bolalarga tez yordamga keladi, bolalarning faoliyatiga to'g'ri baho beradi. O'yinning uchinchi etapida o'qituvchi bolalarni o'yin davomidagi ijodkorligi va faolligiga baho beradi.

Didaktik o'yinlar o'quvchilarda mustaqil fikrlashni tarbiyalashning eng to'g'ri va samarali metodidir. U ma'lum bir materiallar yoki shart-sharoitlarni talab etmaydi, balki o'qituvchida o'yinni tashkil etish sohasidagi bilim va malakalarni talab etadi. O'yinning ma'lum bir tizmi va metodik asosida tashkil etilishigina o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatini tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. O'yin mashg'ulotlari ta'lim jarayonida o'quvchilarning egallangan bilim, ko'nikma va malakalariga tayanadi va shundagina o'quvchilar o'yinning samarali yechimlarini topa biladilar, o'zlari va atrofdagilarga talabchanlik namoyon qiladilar.

O'yindan ta'lim shakli sifatida foydalanish o'qituvchidan o'ziga ishonch va o'yinni qo'llashda mohirlik talab etadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, uzluksiz ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda didaktik o'yin darslaridan maqsadli foydalanish o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishi, bilimlarni o'zlashtirishi, hamkorlikdagi faoliyat dinamikasining oshishida ijobiy natijalarga erishishni tahminlaydi. Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bugungi kun talabi. Ayniqsa boshlang'ich sinfda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib darslarni tashkil etish ta'lim samaradorligini tahminlaydi. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash yo'llari va usullari bayon etilgan bo'lib u boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchilari faoliyatiga amaliy yordam beradi hamda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ta'limni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, o'quvchilarda o'qish motivlarini o'stirish, ta'limning ta'sirchanligi va samaradorligini ta'minlash yo'llari va usullari bilan tanishtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Olimov Q.T. va boshqalar. Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: “Fan”, 2009.
2. Avliyoqulov N.X., Musaeva N.N. pedagogik texnologiyalar.- Toshkent: “Fan va va texnologiya”, 2006. 162 b.
3. Rashidov X. va boshqalar. “Kasbiy pedagogika” blokini o'qitish metodikasi.-Toshkent: O'MKHTTKMO va UQTI, 2007.
4. Ziyomhammadov B., Abdullaeva Sh., Ilg'or pedagogik texnologiyalari.-T.: “Abu Ali Ibn Sino”, 2001.
5. Xodjiev M.T., Olimov Q.T. Elektron darsliklarni yaratish texnologiyasi va sifatini baholash metodikasi.- Toshkent: “Fan”,2005.
6. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: “O'zbekiston”,2008.
7. G'offorova T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: “Tafakkur”nashriyoti, 2011.

UO'K 82-223

O'ZBEK KOMEDIYALARINING JANR XUSUSIYATLARINI O'RGANISHDA TADQIQOT METODINING AFZALLIGI

Isoqova Malohat Ibrohimovna

Yangiqo'rg'on tumani 27-umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, O'zbekiston

Tashtanova Gulnora Manasbayevna

Yangiqo'rg'on tumani 10-umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek komediyalarining o'ziga xos janr xususiyatlarini o'rganishda tadqiqot metodining afzalligi misollar asosida tahlil etilgan. Tadqiqot metodi orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ilmiy izlanishga rag'bat hissi uyg'onishi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: tadqiqot, komediya, komik xarakter, satira, yumor, komik munosabat, kinoya, sarkazm.

UDC 82-223

ADVANTAGES OF THE RESEARCH METHOD IN STUDYING THE GENRE FEATURES OF UZBEK COMEDIES

Isokhova Malohat Ibrahimovna

Teacher of Uzbek language and literature of school No.27, Yangikurgan d. Namangan region, Uzbekistan

Tashtanova Gulnora Manasbaevna

Teacher of Uzbek language and literature of school No.10, Yangikurgan d. Namangan region, Uzbekistan

Brief abstract. This article analyzes the advantages of the research method in studying the specific genre features of Uzbek comedies on the basis of examples. It is emphasized that this method stimulates students to think independently and encourage scientific research.

Keywords: Research method, comedy, comic character, satire, comic attitude, gentle hint, sarcasm.

O'zbek komediyalarining tili va yozuvchining individual uslubi masalalarini o'rganish hamda adabiyot darslarida, fan to'garaklarida dramatik asarlar mohiyatini yoritish uchun o'qitishning interfaol usullaridan unumli foydalanish darkor. Masalan, tadqiqot metodi orqali o'quvchi tahlil, sabab-oqibat orasidagi aloqadorlikni belgilash, taqqoslash, birlashtirish, o'z farazlarini keltirish, isbotlash, rejalashtirish singari usullarni istifoda etishi mumkin. Tahlil va sabab-oqibat orasidagi aloqadorlikni belgilash usuli adabiy ta'limda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ijodiy jarayonda, bilmaslikdan bilishga o'tish yo'lidagi qiyinchiliklarga yo'liqqan o'quvchilarning analiz-sintez faoliyatida bu metodning ahamiyati ko'zda tutilmog'i zarur. Ushbu metodik tavsiyadan ona tili va adabiyot fani oqituvchilari ta'lim jarayonida foydalanishi, o'zbek komediyalarining o'ziga xos janr xususiyatlari haqidagi nazariy ma'lumotlar asosida esa o'z bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishi ko'zda tutilgan.

Eng faol, izlanuvchan o'quvchilar tarkibidan “Yosh tadqiqotchi” va “Yosh akademik” kabi guruhlar tashkil etish va ularga komediya janri xususiyatlari hamda *komediya, komik xarakter, satira, yumor, komik munosabat, subyekt munosabati, kinoya, sarkazm* kabi atamalarni o'rganib kelish topshirig'i avvaldan berilgan bo'lishi lozim.

Dastlab, o'qituvchi komediya janri haqida nazariy ma'lumot berib o'tishi o'rinli: Komediya janrida yaratilgan asarlar dramatik turga mansub bo'lib, qahramonlarning o'ziga xos xarakterini yoritishda yumor va satiraga boy bo'lishi bilan boshqa dramatik asarlardan farq qiladi. **"Komediya"** (yunoncha *komos*-quvnoq marosim, *ode*-qo'shiq) antik davridayoq janr sifatida shakllangan. Komediya dramatik turning komiklikka asoslangan janri bo'lib, unda xarakterlar, holat va voqealar kulgili tarzda, komiklikka yo'grilgan holda taqdim etiladi. Antik zamonlardan to klassitsizm davriga qadar komediya tragediyaning aksi ko'rilgan va adabiyotshunoslikka oid risolalarda tragediyaga yuksak, komediyaga esa tuban janr sifatida qaralgan. Mazkur hol XVIII asrgacha, ma'rifatchilik adabiyotida oraliq janr sifatida drama paydo bo'lgunga qadar davom etgan. Keyingi ikki asr davomida komediya muttasil rivojlandi, turfa janr xususiyatlarini kasb etib, imkoniyatlari kengaydi [4,138].

Darsda o'quvchilar tomonidan to'plangan ma'lumotlar asosida komediya janrining o'ziga xos xususiyatlari muhokama etiladi.

"Yosh tadqiqotchi": *Komediyaning asosida yotuvchi ijobiy kuch–kulgi, u jamiyat hayotida, kishilar fe'l-atvorida mavjud kamchiliklar, idealga nomuvofiq jihatlarga qaratilgan bo'ladi.*

"Yosh akademik": *Komediyaning markazida komik xarakterlar turadi.*

O'qituvchi bu boradagi fikrlarga munosabat bildirib boradi va o'quvchilarga komediya janrining lisoniy xususiyatlari haqida nazariy ma'lumotlar beradi: odatda, komik xarakter deganda, o'zida idealga tamoman zid illatlarni jamlovchi yoki ulardan ayrimlarini namoyon etuvchi personajlar nazarda tutiladi. Bu o'rinda asosiy shartlardan biri shuki, komik personaj o'zining mavjud holatini idrok etmaydi, o'ziga real baho berishga o'zini qiziq. Aksincha, u o'zini bor holiga nisbatan tamoman teskari baholashga moyil: g'irt tentak bo'lgani holda o'zini aqlli sanaydi, ma'nan tuban bo'lgani holda o'zini pokdomon biladi. O'zini o'zgalarga shunday sifatlarda taqdim etishga chiranadi. Masalan, Uyg'unning "Parvona" komediyasidagi *O'tkuriy* ma'nan tuban, axloqan buzuq, oddiy mahmadana-yu firibgar bo'lgani holda o'zini aqlli, so'zamol, uddaburon, yashashni biladigan kabi fazilatlar egasi deb hisoblaydi, shunday ko'rinishga urinadi. Xuddi shu narsa xarakterning mohiyati bilan mavjudligi orasidagi nomutanosiblik komiklikni, xarakter komikligini yuzaga chiqaradi. Komediya holat komikligi asosiga ham quriladi. Masalan, Said Ahmadning "Kelinlar qo'zgoni", "Kuyov" asarlarida holat komikligi ustuvor mavqega ega. Aslida, bu xil farqlashda shartlilik bor, chunki komediyada xarakter komikligi bilan holat komikligi uyg'unlashib keladi, ular bir-birini to'ldiradi, biri ikkinchisini namoyon etadi.

Ushbu janr haqida guruhlar yana muloqotga kirishadi:

"Yosh tadqiqotchi": *Komediya satirik yoki yumoristik ruhda bo'lishi mumkin.*

"Yosh akademik": *Satirik ruhdagi komediya qalamga olingan xarakter yoki holatni to'la inkor qilsa, yumoristik ruhdagi komediya xarakter yoki holatdagi ayrim jihatlarni qisman inkor qilladi. Masalan, Hamzaning "Tuhmatchilar jazosi", "Burungi qozilar yoki Maysaraning ishi", A.Qahhorning "So'nggi nusxalar"(Tobutdan tovush), "Og'riq tishlar", komediyalari, Shuhratning "Besh kunlik kuyov" va Abduqahhor Ibrohimovning "Arra", "Meni aytdi demang", "Sochqi", "Mayli-mayli", "Zo'ldir" kabi komediyalari satirik ruhdagi asarlar sanaladi.*

"Yosh tadqiqotchi": *Abdulla Qahhorning "Ayajonlarim", "Yangi yer"(Shohi so'zana) komediyalari hamda Hamid G'ulomning "Farg'ona hikoyasi", "Toshbolta oshiq", "O'g'il uylantirish", "Ajab savdolar" kabi komediyalari, G'afur G'ulomning "Qayda baxt", Erkin Vohidovning "Oltin devor", Said Ahmadning "Kelinlar qo'zgoni" kabi komediyalarida yumoristik ruh ustivorlik qiladi.*

O'qituvchi: Ma'lumki, badiiy asarlarda yumor hayotning mukammal, insondagi fazilatlarining yanada go'zalroq bo'lishi uchun, yaxshilik uchun kurashadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bu asarlarda oliyjanoblik, ezgulik tuyg'ulariga ega bo'lgan kulgi hosil qiluvchi vositalar yumorning turli qirralarini ochib berishga bo'ysundirilgan. Shu sababli kulgi vositalari o'zining bor jilolari, bo'yoqlari bilan jilvalanib turadi. Shunisi e'tiborliki, yuqoridagi asarlarda insonning inson ustidan quruq kulgisi emas, balki insonga bo'lgan muhabbatdan tug'iladigan o'ziga xos, betakror kulgi vositalaridan o'rinli foydalanilgan. Shu sababli bu asarlar yumorga, yumoristik unsurlarga boyligi, xarakterlar tabiatiga yumor mantiqan singdirib yuborilganligi bilan ajralib turadi.

"Yosh akademik": *Badiiy asarda ijodkor idealiga zid xarakter va hodisalarning kulgi yo'li bilan inkor etilishi komiklik deyiladi. Komiklik obyekt va subyekt birligida namoyon bo'ladi: uni yuzaga kelishi uchun obyektidagi nomuvofiqlikni ko'ra oladigan va ideal nuqtayi nazaridan baholay oladigan subyektning bo'lishi shart. Komiklikning turli ko'rinishlarida uni yuzaga chiqish yo'sini bir xil bo'lmaydi. Masalan, satira va yumorda subyekt munosabati ko'proq obyektidagi ziddiyatni bo'rttirib ko'rsatish orqali namoyon bo'lsa, kinoya va sarkazmda obyektidagi ziddiyat, asosan, muallif munosabati orqali yuzaga chiqariladi. Shuning uchun ham sarkazm va kinoya obyektida nomuvofiqlik yaqqol ko'zga tashlanmaydi, ular ko'p jihatdan kontekst bilan bog'liq bo'ladi. Komik munosabat obyekt o'zida idealga tamoman zid illatlarni yoki*

ulardan ayrimlarini namoyon etadiki, shu jihatdan satira va yumor ko'rinishlari farqlanadi. Satira obyektida idealga mutlaqo zid, jamiyatning joriy holati nuqtayi nazaridan to'la inkor qilinuvchi ziddiyatlarni aks ettirsa, yumorda obyektidagi ayrim jihatlarnigina inkor qilish ko'zda tutiladi.

“Yosh tadqiqotchi”: Yumorda badiiy asardagi kishilar, voqea-hodisalar ustidan yengil, do'stona, beg'araz kulish ko'ngilxushlik maqsadida emas, qisman bo'lsa-da, idealga muvofiq jihatlarni ko'rish, uni mukammallashtirish, nuqsonlarini bartaraf qilish, undagi umuminsoniy tuyg'ularni yuzaga chiqarish maqsadini ko'zlaydi. Shuning uchun ham yumorda nuqsonlar ustidan kulish bilan birga xayrixohlik, achinish ham mavjud. Yumorda kulgi niqobi ostida jiddiylik, kinoyada esa jiddiylik niqobi ostida kulgi yashiringan bo'ladi.

“Yosh akademik”: Kinoyada muallif voqelikka kinoyaviy munosabatda bo'ladi, bu holda badiiy asar kompozitsiyasi kinoyaviy nuqtayi nazarni ifodalashga mos ravishda quriladi.

O'qituvchi: Kinoya usuli til birliklarining nutq jarayonidagi faoliyati natijasida hosil bo'ladigan nutqiy hodisa. Kinoyaviy munosabat ideal va voqelik o'rtasidagi keskin nomuvofiqlikni anglashdan tug'iladi. Shunga ko'ra kinoyaviylikning maqsadi faqat kulgi hosil qilishgina bo'lib qolmay, vaziyatning qanchalik jiddiyligi va hatto fojeiyligini ham ta'kidlab ko'rsatishdan iborat bo'ladi. Masalan, Abdulla Qahhorning “Og'riq tishlar” komediyasida tish doktori Marasul va uning xolasi Zuhra bilan bo'lib o'tgan dialogda ham bu holatni kuzatish mumkin:

Marasul. Sizga o'xshagan “challasavod” aktivlar qo'li bilan mustahkamlaydi!

Zuhra. Men challasavod, sening savoding rosami? Bir ko'zing odamlarning tishida, bir ko'zing cho'ntagida-ku, yana qaysi ko'zing bilan o'qib savod chiqargansan? [1,84]

Challasavod tish shifokori bo'lgan Marasul Zuhra xolasini masxara qilaman deb, o'zi kulgi bo'ladi. Yoki asarda Ahmadjon Zargarov, Marasul Huzurjonovlar nutqida kinoyaviy kulgi o'ziga xos lisoniy birliklar asosida aks ettirilib, kulgi hosil qilinsa ham, o'rta maktab o'quvchisi Nasibani turli yolg'on va'dalar evaziga turmushga chiqishga ko'ndirib, to'ydan so'ng hatto o'qishga ham yubormay, o'z asl basharalarini ko'rsatishgani kitobxon qalbida vaziyatni naqadar jiddiy va fojeiyligini ko'rsatadi. Kinoyada tasdiq orqali inkor yoki inkor orqali tasdiq ma'nosi ifodalanadi. Kinoyaviylik komiklikning alohida turi sifatida yumor va satiradan subyektiv ibtidoning yetakchiligi bilan farqlanadi, ya'ni obyektidagi komik ziddiyat ko'proq muallif munosabati orqali yuzaga chiqariladi. Voqelikni ma'naviy-axloqiy (yumor) yoki ijtimoiy (satira) mavqeyidan idrok etish jarayonida muallifda kinoya va sarkazm tuyg'usi tug'iladi. Ko'p hollarda kinoyaviylikka yumor va satiraning fonida, yumoristik va satirik asarlarning yordamchi vositasi deb qaraladi. Biroq kinoyaviylik yumoristik yoki satirik bo'lmagan asarlarda ham kuzatilishi mumkin. Kinoya so'zlovchi va yozuvchining subyektiv munosabati ifodasi sifatida lisoniy birliklar asosida yuzaga keladi. O'zbek komediyalarida kinoya modallik ifodasi sifatida tilning barcha sathlarida va shu sath unsurlari (tovush, intonatsiya, so'z, jumla va h.) vositasida hosil qilinganligini kuzatish mumkin.

“Yosh tadqiqotchi”: Kulgi asar tilini yumor tiliga aylantirib, lirizm bilan omuxta bir ohang, o'ziga xoslik bag'ishlaydi. O'zbek komediyalarida antroponimlar, laqablar, toponimlar, ko'p ma'noli so'z va iboralar, okkozional frazemalar, mubolag'alardan foydalanish, personajlar nutqida har xil qo'pol so'zlarni ishlatish, asardagi narsa-buyum otlariga boshqacha nom berish, boshqa tildan so'z olish va chet so'zlarni o'zbek tiliga moslashtirish kabilar kulgi uyg'otish vositasiga aylangan.

“Yosh akademik”: O'zbek komediyalarida personajlarning tashqi ko'rinishi yoki xarakter xususiyatlari tasvirlanar ekan ba'zan mubolag'a yordamida ham kulgi hosil qilinadi. Tilshunoslikda bu hodisani **grotesk** deb ataladi. Grotesk satirada haqiqiy holni fantaziya bilan qo'shib, vahimali hamda kulgili tarzda bo'rtirib tasvirlashdir. Masalan, Said Ahmadning “Kelinlar qo'zg'oloni” komediyasida Azimsher haqida yozuvchi quyidagi mubolag'alardan foydalanib, betakror lavha yaratadi:

Farmon. Otang rahmatlik erkaklikni o'rniga qo'yardi. Rahmatlikni hamma Azimsher deb atardi.

Yursa, yer titrardi. Yo'talsa, daraxtdagi qushlar pir etib uchib ketardi. Aksa ursa, osmonda mamaqaldiroq bo'lib, chaqmoq chagardi. Rahmatlik xotin kishini gapini gap demasdi. (Ko'ziga yosh olib) Shundog' odam tuprog'da yotibdi [2, 6].

O'qituvchi: Said Ahmad yumorni g'ayri tabiiy shaklda yana-da ta'sirliroq ifodalagan. Uning kulgisi shaxsning jismoniy kamchiliklari ustidan masxaraomuz, ta'na aralash kuluvchi satiralardan o'zining samimiy ruhi, benish yumori bilan ajralib turadi, shuning uchun samimiyat o'rtadagi iliq munosabatlarga unchalik rahna solmaydi.

O'zbek komediyalarining janr xususiyatlarini o'rganish jarayonida o'zbek tilining kulgi va yumorga boyligi, o'zbek adiblarimiz haqiqatan ham betakror so'z ustasi ekanligining guvohi bo'ldik. Komediylarda yuzaga kelgan kulgi muayyan tarixiy sharoitda jamiyat taraqqiyotining mavjud holati, ideallarga nomuvofiq bo'lib qolgan ijtimoiy faktlar (urf-odatlar, insonlarning xatti-harakatlari, ularning ma'naviy-axloqiy qiyofasi) ustidan kulish sifatida voqe bo'ladi.

O'quvchilar ushbu ma'lumotlar asosida o'z qarashlarini misollar bilan izohlaydilar. Dars yakunida faol qatnashgan o'quvchilar "Eng faol tadqiqotchi" nominatsiyasi bo'yicha rag'batlantiriladi. Yuqorida berilgan ma'lumotlar asosida tadqiqot metodidan foydalanish o'quvchilarning komediya janri haqidagi qarashlarini rivojlantiradi, mavzu yuzasidan keltirilgan nazariy qarashlarga esa badiiy asarlardan misol topish va ularni izohlashga undaydi. Tadqiqot metodi o'quvchilarda o'ziga ishonch va ilm olishga rag'bat hissini uyg'otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Abdulla Qahhor. Og'riq tishlar. – Toshkent: Akademnashr, 1992. – B. 84.
2. Said Ahmad. Kelinlar qo'zg'oloni. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 6.
3. Husanboyeva Q., Niyozmetova P. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Barkamol Fayz media, 2018. – 352 b.
4. Qur'onov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B.138.

UO'K 37.025

O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASH MALAKASINI SHAKLLANTIRISH TEKNOLOGIYALARI

Kotibova Umrixon Sultonmaxmudovna

Namangan viloyati, Chust tumani 40-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya. Maqolada ona tili va adabiyot darslarini tashkil etish va dars jarayonlarida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyalari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: dars, texnologiya, tanqidiy fikrlash, o'qituvchi, ko'nikma, malaka.

UDC 37.025

TECHNOLOGIES OF DEVELOPING THINKING SKILLS OF STUDENTS

Kotibova Umrixon Sultonmakhmudovna

Teacher of secondary school No.40, Chust district, Namangan region, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. In this article, it is given information on technologies of developing critical thinking of students in the process of organizing mother tongue and literature lessons.

Keywords: lesson, technology, critical thinking, teacher, practice, skill.

O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish hamda jahon ta'limi standartlari darajasida shaxsga ta'lim-tarbiya berish samaradorligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Buning amaliy natijasi sifatida ta'lim jarayonini rivojlantirish yuzasidan muhim qarorlar qabul qilinmoqda va bu qarorlar amaliyotga joriy etilib, o'zining ijobiy natijalarini bera boshladi. Undan maqsad yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini oshirishdir. Chunki hozirgi jarayonda barcha sohalarida shiddat bilan kechayotgan taraqqiyot insoniyatning ijtimoiy faolligini taqozo etadi va bunga alohida e'tibor berish davr talabidir. Zero, muhtaram Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masala hisoblanadi [1].

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda axborot texnologiyalari maydonining nihoyatda kengligi pedagogdan o'z faoliyatini to'g'ri tashkil etishni talab etadi. Chunki o'quv fanlarining mazmuni, ta'limni tashkil etish shakl, vosita va texnologiyalarining to'g'ri qo'llanishi o'quv jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Pedagogik texnologiyaning xususiyati shu bilan belgilanadiki, unda qo'yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o'quv jarayoni yaratiladi va ro'yobga chiqariladi. Ishlab chiqarish-texnologik jarayon ma'lum mahsulot uchun ishlanganidek, pedagogik texnologiya ham har qaysi fan uchun o'qitish texnologiyasining asosiy elementlarini o'z ichiga olgan umumiy uslubiyot asosida ishlab chiqiladi. Pedagogik texnologiyaning afzalligi ham, ahamiyati ham shu bilan belgilanadi. Bu ommaviy o'qitish sharoitida, o'quvchilar tomonidan fanlarning to'la o'zlashtirilishini ta'minlovchi yagona to'g'ri yo'ldir [2].

Pedagogik texnologiyada bilimlarni o'zlashtirishda o'quvchining faol ishlashi va fikrlashi zaruriy element hisoblanadi. O'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish o'qitish samaradorligini ta'minlovchi eng asosiy manba hisoblanadi. Pedagogik texnologiyada o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish talab etiladi.

Tanqidiy fikrlash deganda o'rganilayotgan bilimning turli tomonlari haqida mulohaza yuritish nazarda tutiladi. Tanqidiy fikrlashni mulohazali fikrlash deyish ham mumkin. Ta'lim jarayonida o'quvchi

o'rganilayotgan materialni taqqoslash, umumlashtirish, tahlil qilish va xulosa chiqarishni bilishi kerak. Tanqidiy fikrlar shakllanishi uchun o'quvchi o'zi o'rganayotgan sohasini chuqur egallashi, ko'p o'qishi, zarur bilimlarga ega bo'lishi zarur. Chunki tanqidiy fikrlash tafakkurning yuksak darajada shakllanganligini ifodalaydi.

Pedagogik texnologiyalarning ham asosiy maqsadlaridan biri ta'lim oluvchida tanqidiy fikrlashni o'stirish, fikrlashga o'rgatishdir. Chunki faqat mustaqil o'qib, fikrlab o'zlashtirilgan bilim mustahkam bo'ladi va xotirada uzoq vaqt saqlanib qoladi hamda bilim egasi uni turli sharoitlarda qo'llay oladi.

Tanqidiy fikrlash dars jarayonining barcha bosqichlarida amalga oshiriladi. Ayniqsa, o'tilgan mavzularni mustahkamlash bosqichi tanqidiy fikrlashga asoslansa, dars samaradorligi yana ham yuqori bo'lishi mumkin. Bu bosqichda ta'lim oluvchining mustaqilligiga keng yo'l beriladi va u ta'lim jarayonida faol ishtirokchiga aylanadi. Buning uchun ta'lim beruvchi quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

– o'quvchi uchun ahamiyatli bo'lgan muammo yechimini topishni taklif etish yoki muammoli vaziyatni yaratish;

– o'rganilayotgan mavzu yuzasidan o'quvchi diqqatini muammoga qaratish;

– shu muammodan kelib chiqadigan ijodiy natijani ifodalab berish.

Tanqidiy fikrlashga mo'ljallangan ta'lim an'anaviy ta'limdan farq qiladi. An'anaviy ta'limda faqat o'qituvchining ma'ruzachi bo'lib qolishi, ta'lim oluvchiga bilim berishda uning fanga bo'lgan qiziqishi, munosabati kabilarni hisobga olmaslik hozirgi kunda ta'limdagi qiyinchilikni keltirib chiqarmoqda. Chunki an'anaviy ta'limda dars o'tilganda o'quvchilarga ma'lumot berish va uni mustahkamlash asosiy vazifa hisoblangan. Pedagogik texnologiya esa, o'quvchilarni mustaqil ishlashga, o'z fikrlarini erkin ayta olish ko'nikmalarini rivojlantirishga, fanga qiziqtirishga, yangi bilimni o'zlashtirish va uni amaliyotda qo'llashga e'tibor qaratmoqda. Tanqidiy fikrlash strategiyasi ta'limda quyidagi uch bosqich mavjud bo'lishini tavsiya etadi:

– da'vat;

– anglash;

– fikrlash.

Birinchi bosqichda mavzu bayon etiladi va shu sohadagi uning bilimlari aniqlanadi. Ayrim tushunchalarga izoh beriladi. Mavzuga oid ma'lumotlar, qoidalar eslatiladi. Mavzuni o'rganish asosida qanday natijaga erishish ma'lum qilinadi. Da'vat bosqichida mavzu bo'yicha savol-javob o'tkazilishi, klaster tuzish mumkin. Bu bosqichda o'quvchining bilimini aniqlash imkoniyatini beradigan topshiriqlar tuzish, testlardan foydalanish mumkin.

Ikkinchi bosqichda o'rganiladigan mavzu ustida faol ishlanadi. Natijada o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi. Ular bilan individual, juftliklardagi va guruhdagi ishlar amalga oshiriladi. Dars jarayonida aniq topshiriqlar beriladi. Ular faol ishlab, maqsadga erishishlari kerak. Bu bosqichda ma'ruza, suhbat, tushuntirish asosida mustaqil o'qish, juftliklarda va kichik guruhlarda ishlash, yozma ishlar o'tkazish, munozara, konferensiya va boshqa usullardan foydalaniladi. Uchinchi bosqichda erishilgan natija avvalgi bilimlar bilan taqqoslanadi. Yangi o'zlashtirilgan bilim ifodalanadi. O'quvchi o'qish natijasida erishgan darajasi baholanadi. O'rganilgan o'quv materiali umumlashtirish, yozma ish va boshqa ko'rinishda ifodalanadi. Bu bosqichda, albatta, ta'lim jarayonida qo'yilgan maqsadga erishishi lozim. Ta'lim jarayonining bunday bosqichlarda amalga oshirilishi o'quvchining faolligini ta'minlaydi. O'quvchi dars davomida mustaqil bilim olish ko'nikmasini o'zlashtirsa, keyingi hayoti va faoliyatida mustaqil ishlash uning xususiyati bo'lib qoladi. Tadqiqiy bilim va ko'nikma shakllanishida to'laqonli ijodiy yondashishni va uning me'yoriga yetkazilishida rivojlantiruvchi bilim, boshlang'ich, shakl almashtiruvchi bilimlar davomchisi sifatida zarur bo'ladi. Bu bilimlar o'zining tuzilishi jihatidan hali tugallanmagan hisoblanadi, chunki uni yana fanning boshqa qonuniyatlari bilan aloqadorlikda rivojlantirish mumkin. Lekin inson tafakkurining shunday imkoniyatlari mavjudki, u bilimlar saviyasi aniq bir darajaga yetgandan so'ng fanga oid bilimning baholovchi darajasiga o'sib yetadi. U bilim o'quvchilarda qat'iy asoslangan bo'ladi va uni boshqa bilimlar bilan aloqadorlikda qaray oladi hamda to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi haqida mustaqil fikrga ega bo'ladi. Shuning uchun ham baholovchi bilim o'zining tuzilishi jihatdan ancha murakkab va keng qamrovli bo'lib, boshqa bilimlar uchun tashxis vazifasini ham o'taydi.

Ona tili va adabiyot darslarida tanqidiy fikrlashga undovchi texnologiyalardan foydalanish dars samaradorligini yuqori darajaga ko'tarishga yordam beradi. Ayniqsa, adabiyot darslarida bunday texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchini fikrlash qobiliyatini o'sishiga erishish mumkin.

Masalan, muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish mumkin. Muammoli ta'lim deyilganda, o'qituvchi (pedagog) rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltirilib, mazkur muammo o'quvchilarning

faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirish, tanqidiy fikrlashga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi [3].

Ta'limda muammoli o'qitishning uch sharti mavjud:

1. Muammoli ta'limni tashkil etishda o'quv materiallarini tizimli, tartib bilan rivojlantirish.
2. Topshiriq berilganda uni yechish usullarini tanlash imkoniyatini berish.
3. O'quvchilar bilim olishni maqsad qilib qo'yishi va maqsadiga erishishi uchun o'z bilimini to'g'ri baholay olishi.

Ta'lim jarayonida muammoli vaziyatni yuzaga keltirishda bir qator didaktik maqsadlar ham ko'zda tutiladi, ya'ni;

- o'quvchilar diqqatini o'quv materialiga tortish;
- o'quvchilarda fanga nisbatan qiziqish uyg'otish;
- ularni o'zlashtirish faoliyatini jonlantirish;
- ularda tanqidiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantiruvchi masalalar qo'yish;
- o'quv materiallarini tahlil etishga o'rgatish;
- o'qitishdagi muammolarni hal etishning yo'llarini topishda ulatga ko'mak berish.

Jamiyatimizning tez sur'atlar bilan rivojlanishi, xalqimizning milliy qadriyatlari, an'analarning tiklanishi, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarning takomillashishi xalq ta'limi tizimiga murakkab vazifalarni yuklaydi. Shu bilan birga jamiyatimizning rivojlanishi, siyosiy tizim barqarorligi hamda ilmiy-texnik jarayonning yutuqlarga boyib borishi, xalqimizning ma'naviy va ma'rifiy saviyasi, madaniyatining rivojlanishi, hozirgi kunda ta'limga bo'lgan talab va ehtiyojning kundan-kunga ortib borishi shaxsni mustaqil fikrlashini va fikrini erkin bayon eta olish ko'nikmasiga ega bo'lishni asosiy maqsad qilib qo'yadi. Bugun ana shunday ezgu maqsadlarimizni amalga oshirishni mustahkam qaror toptirish va rivojlantirish uchun qulay muhit yaratildi. Jamiyatimiz rivojlanishi va uning moddiy-texnik ta'minoti takomillashishi uzluksiz ta'lim tizimining rivojlanishiga keng imkon yaratdi. Bu o'z navbatida ta'limning nafaqat fundamental yo'nalishda rivojlanishi, balki uni xalqimiz ehtiyojini to'la ta'minlashi uchun zarur bo'lgan sohalarida amalga oshirish bilan birga umumta'lim maktablarida ona tili va adabiyot fanini o'qitishni takomillashtirishni talab qiladi. Buning uchun ta'lim jarayonida dasturlarni mukammal holga keltirish, muammoli va faol metodlardan foydalanish, o'rganilayotgan fanning mazmuni va tuzilishini darslikda berilgan ma'lumotlarga tayangan holda qayta ko'rib chiqib, kengaytirish, zamon talabiga mos keladigan tatbiqiy bilimlar bilan boyitib borish, bevosita o'quvchining ertangi kuni uchun zarur bo'lgan taqozo qiladi. Shu bois mamlakatimizning istiqloq yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq ma'naviyatimizni yuksaltirish, ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T. O'zbekiston, 2017, 157-bet.
2. Avliyakov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiya. –Toshkent: Cho'lpon, 2012.208 b.
3. Omonov X va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.–T.:Iqtisod-Moliya, 2009.-240.

UO'K 37.026

TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARI

Nishanova Dilrabo Alisherovna

Namangan shahar, 48-umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, O'zbekiston

Annotatsiya. Maqolada o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va bunda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: tadqiqot metodi, ta'lim, tanqidiy fikrlash, ta'lim jarayoni, metod.

UDC 37.026

MODERN TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF CRITICAL THINKING SKILLS

Nishanova Dilrabo Alisherovna

Teacher of secondary school 48, Namangan city, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. The article gives an idea of the development of critical thinking skills in students and the advantages of using modern technologies in this area.

Keywords: research method, education, critical thinking, educational process.

Zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan barkamol shaxsni tarbiyalash bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri bo'lib, buning uchun darslarni davr talabi darajasiga ko'tarish kerakligini hayot taqozo etmoqda. Shu ma'noda ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash, fan-texnika yutuqlaridan va zamonaviy axborotlardan voqif bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim jarayonlarida ilg'or texnologiyalarning keng qo'llanilishi va buning natijasida o'quvchilarda bilim va ko'nikmalarning shakllanishi ta'lim sifatini oshirishga asos bo'lmoqda. O'zbekistonning ertangi kuni, ravnaqi, rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan joy olishi, albatta, o'sib kelayotgan barkamol yosh avlodga bog'liq. Buning uchun yosh avlodga dunyo standartlari darajasida zamonaviy bilim berish, ularni har tomonlarga yetuk shaxs etib shakllantirish lozim. Inson qanchalik mustaqil fikrlay olsa, u shunchalik tashabbuskor bo'ladi. Bugungi kunda ana shunday teran fikrlovchi va zamonaviy bilimlarga chanqoq o'quvchi yoshlarni tarbiyalash uchun pedagoglar ham muntazam o'z ustilarida ishlashlari lozim.

Har bir fandan dars beruvchi o'qituvchi haqiqiy ijodkor bo'lishi, ta'lim jarayonida o'quvchining mavzuni tinglash, anglash, erkin va mustaqil fikrlash, qiyoslash, farqlash, tahlil va tasnif qilishga yo'naltirilgan faoliyatini rag'batlantirish, o'z fikri, g'oyalarni o'zgaralarga yetkaza bilish ko'nikma va malakalarning shakllanishini nazorat qilishi, boshqarishi darkor[1]. Shuningdek, u yoshlarning axloqiy-ma'naviy tarbiyasi bilan shug'ullanish, ularga sharqona muloqot odobi, milliy an'analarimizga hurmat, ona Vatanga muhabbat tuyg'usi kabi zaruriy xislatlarni singdira bilishi, shu bilan birgalikda, mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirib borishi lozim.

Tanqidiy fikrlash – bumustaqil fikrlash demakdir. Tanqidiy fikrlash qoidalari asosida tuzilgan darsda o'quvchilarning har biri boshqalarni unga ishonishi yoki baho berishidan qat'iy nazar o'z g'oyasiga ega bo'ladi hamda uni shakllantiradi.

Tanqidiy fikrlashning ijobiy tomonlari qadim zamonlarga borib taqaladi. Buyuk mutafakkirlarimizdan Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sinolar ham o'z asarlarida bolaning mustaqil tanqidiy fikrlashi jarayonida o'zlashtirilgan bilimlar biror bir manbadan tayyor holda olingan bilimlar bilan qiyoslaganda katta afzallikka ega ekanligini ta'kidlashgan. Soha mutaxassislarining fikricha tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan va esdan chiqariladigan vazifa ham emas. Shu bilan birga tanqidiy fikrlashni rivojlantiradigan yagona yo'l ham yo'q. Lekin tanqidiy fikr shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o'quv metodlari mavjudki, ulardan o'z o'rnida to'g'ri foydalanish yaxshi samara beradi. Yana shunisi muhimki, tanqidiy fikrlash o'quvchilarning folligi bilan bevosita bog'liq jarayon hisoblanadi.

O'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish omillaridan biri fikrlash jarayonini qadrlashlaridir. Tashkil etilgan mashg'ulot jarayonida o'quvchilar o'z g'oyalari, fikr–mulohazalarining o'qituvchi tomonidan qadrlanayotganini tushungan chog'idagina shu mas'uliyat va e'tiborga yarasha javob qaytaradilar.

“Aqliy hujum” metodi. Aqliy hujum guruhlararo ishlarda qo'llaniladigan, ko'plab g'oyalarni ishlab chiqish mumkin bo'lgan metodlardan biri hisoblanadi. Bu metod o'quvchining mashg'ulot jarayonida faol ishtirok etishlari, turli g'oyalarni bayon qilish chog'ida boshqalarni ham qizg'in munozaraga tortishlari, ilhom bilan ishlashlariga imkon beruvchi va unga rag'batlantiruvchi metoddir. “Aqliy hujum“ shunday metodki, unda yakka ishlash mumkin emas, birgina g'oya guruhning barcha ishtirokchilarini diqqatini bir joyga to'play oladi.

Qo'llashda dastlab o'qituvchimavzuni yoki savolni ajratib olishi zarur. Masalan, qandaydir mavzuni muhokama qilish uchun, yangi savol qo'yish yoki istalgan qandaydir muammoni hal etish uchun. Ushbu metodninga sosiy qoidalari mavjud bo'lib ular quyidagilar:

1. Aytilayotgan barcha g'oyalar bir–biriga nisbatan muhimlikda tengdir.
2. Kiritilayotgan g'oyalarga nisbatan tanqid mavjud emas.
3. G'oyani taqdim etayotgan paytda so'zlovchining gapini bo'lmaslik.
4. So'zlovchiga nisbatan baholovchi komponent mavjud emas.

"Aqliy hujum" metodi qiyin vaziyatdan qutulish choralari topishga, muammoni chegarasini kengaytirishga, fikrlar xilma-xilligiga erishishga va tafakkur doirasini kengaytirishga imkon beradi. Eng asosiysi, muammoni yechish jarayonida ijodiy hamkorlik kuchayib, guruh (auditoriya) yanada jiplashadi. Ushbu metodning yana bir afzalligi shundaki, o'quvchilarda o'z fikrlarining qimmatli ekanligiga ishonch hosil qildiradi. O'quvchi tushuncha, masala yoki biror bir muammoli vaziyatni muhokama qilish jarayonida o'zining fikri o'ta muhim va yechimga hissa qo'shadi deya o'ylaydi va keying mashg'ulotlarda ham faol ishtirok etishiga zamin tayyorlaydi.

Fikrlash jarayoni o'quvchilarning o'zaro bir-biridan o'rganishdagi o'rtoqchiligiga asos soladi. O'quvchilardan fikrlovchi sifatida o'zlaridagi fikrni ham, oddiy xatoni ham boshqalarga ochib berish talab

etiladi. O‘zaro fikr almashishda o‘quvchilardan diqqat bilan tinglash, o‘zining qarashlarini o‘zgalarga o‘tkazish va so‘zlovchilarni tuzatib turishdan o‘zini tiyib turish ham talab etiladi. Bunga javoban o‘quvchilar boshqalarning umumiy fikrlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

“Nuqtayi nazarining bo‘lsin”metodi. Ushbu metodning maqsadi:

- o‘quvchilar muayyan muammoga o‘z nuqtayi nazarini asosli dalillab, himoya qilishga o‘rganadilar;
- o‘quvchiga muammo muhokamasi jarayonida o‘z fikrini o‘zgartirish imkonini berish;
- o‘qituvchi barcha o‘quvchilarni munozaraga jalb etish va sinfdagi hamma o‘quvchilar o‘rtasida munozara jonlanishini yuzaga keltirishi mumkin.

“Nuqtayi nazarining bo‘lsin” metodi o‘quvchilar o‘rtasida munozara yuzaga kelishi va ular munozara jarayonida o‘z fikrlarini o‘z sinfdoshlaridan ularning nuqtayi nazarini o‘zgartirishga ishontiradigan g‘oyalarni eshitib o‘zgartirish yoki avvalgisini mustahkamlash imkonini berish maqsadida qo‘llanadi. O‘quvchilar shuningdek, o‘z nuqtayi nazarlarini asosli dalillash va himoya qilishga o‘rganadilar.

“Tanqidiy tafakkur” metodi. Bu metod o‘quvchini qo‘yilgan masala yoki muammo yuzasidan o‘z fikrini bayon qilish, o‘zgalarning fikrlarini tanqidiy qayta idrok etish, o‘z nuqtayi nazarini asoslab berish va saqlab qolish imkoniyatiga ega bo‘lishiga asoslangan, shuningdek, ularning o‘z fikrini shakllantirish mahoratini mustahkamlash imkoniyatini beradi. Ushbu metod quyidagicha o‘tkaziladi:

1. O‘quvchilarga mavzu yuzasidan biror bir muammo, topshiriq yoki chalkash masala qo‘yiladi va quyidagi savollar beriladi:

- Nima deb o‘ylaysiz?
- Fikringiz qanaqa?
- Sizningcha qanday?

Bu kabi savollar o‘quvchi o‘z nuqtayi nazarini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

2. O‘quvchiga o‘z nuqtayi nazari, fikrini ishlab chiqish uchun imkoniyat va fursat beriladi.

3. O‘quvchi o‘z fikrini asoslaydi, bunda uning nuqtayi nazarini aniqlab olish uchun quyidagi savollarni berish mumkin:

- Nega bunday deb o‘ylaysiz?
- Nimalar asosida bunday xulosaga keldingiz?

4. O‘qituvchi ko‘rib chiqilayotgan masala yuzasidanboshqa fikrda bo‘lgan ta‘lim oluvchilarga so‘zlash imkoniyatini beradi, bunda quyidagi savollarni berish mumkin:

- Kimda boshqa fikr bor, nega?
- Kim aytilgan fikrni ma‘qullamaydi, nega?

5. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan birgalikda har xil nuqtayi nazarlarni muhokama qilish vositasida barcha fikrlarni tahlil qilib chiqadi, bunda quyidagi savollarni berish mumkin:

- Boshqa o‘quvchining nuqtayi nazariga ma‘qullaysizmi, yoki aksincha?
- O‘z nuqtayi nazariningizni tasdiqlovchi asoslar keltira olasizmi?

6. Muammoni topshiriq, masala, chalkash masala bo‘yicha qabul qilingan qarorga o‘quvchilar tomonidan o‘z nuqtayi nazarlarini qabul qilishi yoki qayta baholanishi bilan erishiladi, bunda quyidagi savollarni berish mumkin:

- Sizningcha, kimning nuqtayi nazari eng maqbul?

“O‘z o‘rnini top” metodi. Agar sinfdagi u yoki bu mavzu bo‘yicha bahs-munozara vujudga kelsa, bu metod yordamida muammoning yechimini topish mumkin. Bunda o‘quvchilar o‘z fikrini bayon qilishi, muloqot ko‘nikmalarini qaytadan tuzatishga imkoniyatlar mavjud bo‘ladi va dars so‘ngida o‘qituvchi tomonidan mavzuni o‘zlashtirish darajasini baholash amalga oshiriladi. Bu quyidagich amalga oshiriladi:

1. Sinfnining qarama-qarshi burchaklariga 2ta plakat osiladi. Ularning biriga “Roziman”, boshqasiga “Rozi emasman” degan so‘zlari yozilishi kerak. Plakatlarda ba‘zi bir mavzuga oid savollar bo‘yicha bildirilgan qarama-qarshi fikrlar ham yozilishi mumkin.

2. Darsni tashkil etish qoidalari muhokama qilinadi.

3. Qaralayotgan muammo yuzasidan o‘z fikrlariga mos keladigan plakat yoniga borish zarurligi taklif etildi.

4. Bo‘lingan o‘quvchilardan o‘z qarashlarini asoslash so‘raladi. Bu paytda bir guruhdan ikkinchi guruhga o‘tishga ruxsat etiladi va shu tariqa sinfga o‘quvchilarning hammasi jalb etiladi.

5. O‘quvchilar ichida muammo yuzasidan eng ishonchli fikr aytganini aniqlash so‘raladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish ularni shaxs sifatida shakllanishlariga yordam beradi. Zero, bugungi kun ta‘limi oldiga qo‘ygan asosiy maqsadi ham mustaqil fikrlaydigan, o‘z fikrini erkin bildira oladigan, o‘zgalar fikrini qadrlaydigan, erkin muloqotga kirisha oladigan shaxslarni tarbiyalashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. –T.: Iqtisod moliya. 2010.
2. Mavlonova R., Xoliqberdiyev K., To‘rayeva O. Pedagogika. “O‘qituvchi”, Toshkent, 2008.
3. Husanboyeva Q., Niyozmetova P. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Barkamol Fayz media, 2018. – 352 b.

UO‘K 372.461.2

O‘QUVCHILARNI MASHG‘ULOTLARDA TANQIDIY FIKRLASH MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Pozilova Gulchehra Sobirjonovna

*Mingbuloq tumani 27-umumiy o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi,
O‘zbekiston Respublikasi*

Annotatsiya. Hammamiz bolalarni hayotimizda sog‘lom fikrlay oladigan hamda oldinga intilgan holda ulg‘ayishini xohlaymiz, shuning uchun ularni kelgusida muvaffaqiyatga erishish yo‘lida muhim harakatlarni amalga oshirishimiz lozim. Shu nuqtayi-nazardan ushbu maqolada bolalarning erkin va mustaqil fikrlay olishi, shu bilan birga tanqidiy fikrlarni to‘g‘ri qabul qilishi haqida so‘z boradi. Tanqidiy fikrlashning elementlari, standartlari va xususiyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: tafakkur, erkin fikrlash, tanqidiy fikrlash, amaliy ko‘nikma, ilm, zakovat.

UDC 372.461.2

ISSUES ON FORMATION OF CRITICAL THINKING SKILLS IN STUDENTS DURING LESSONS

Pozilova Gulchehra Sobirjonovna

Primary class teacher of general secondary school No27, Namangan region, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. We all want our children to grow up to be able to think healthy and move forward in our lives, so we need to make important efforts to help them succeed in the future. In this context, this article discusses the ability of children to think freely and independently, as well as to respond critically. Elements, standards, and features of critical thinking are discussed.

Keywords: thought, free thinking, critical thinking, practical habit, knowledge, intuition.

Eng katta boylik – bu aql zakovat va ilm.

Eng katta me‘ros – bu yaxshi tarbiya.

Eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir.

Sh.Mirziyoyev

Hozirgi kunda yoshlar tarbiyasi biz uchun o‘z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydigan masala bo‘lib qolmoqda.

Yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash jamiyatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Hozir maktablarimizda ta‘lim-tarbiya olayotgan yosh avlod kelgusida ajdodlarining hayrli ishlarini davom ettiradigan, o‘zidan keyingi avlodlarga ozod va obod Vatanni meros qilib qoldiradigan hamda O‘zbekistonning buyuk kelajagini yaratuvchi kishilardir.

Ulug‘ mutafakkir Abdulla Avloniy “Ilm bizni jaholat qorong‘usidan qutqarur, insoniyatni ma‘rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe‘llardan, buzuq ishlardan qaytarur. Yaxshi xulq – odob sohibi qilur. Butun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, himmatimiz, g‘ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog‘liqdir “- degan edi.⁴⁵

O‘quvchilarni har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalash uchun darsda tanqidiy fikrlashni ham shakllantirish kerak. Bu degani tanqid qilishni o‘rgatish emas, balki bolalarni o‘z fikrini erkin bayon eta olishga o‘rgatishdir.

Tanqidiy fikrlashda g‘oyalar va ularning ahamiyati ko‘pfikrlilik nuqtayi-nazaridan ko‘rib chiqiladi, hamda ular boshqa g‘oyalar bilan taqqoslanadi. Bu fikrlashning eng yuqori darajasi aqliy faoliyat bo‘lib, unda tahlil taqqoslash, izohlash, qo‘llash, tortishuv, yangilik, muammolarni hal qilish yoki fikrlash jarayonini baholashga alohida e‘tibor beriladi. Tanqidiy fikrlash muloqot va guruh bilan ishlash malakalarini

⁴⁵ Matematikadan masalalar to‘plami. 4- sinf :/Mirzaahmedov M. A. G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi,- T.,2018 4- bet.

rivojlantiradi. Tanqidiy fikrlash ta'lim jarayoniga jo'shqinlik bahsh etadi, mashg'ulotlarni o'qituvchi va o'quvchi uchun quvonchga aylantiradi. O'quvchilarda tanqidiy fikrlash malakasini shakllantirishda faqat darsda o'yin yoki metodlardan foydalanibgina qolmay, darsning tashkiliy qismida ham qisqacha shakllantirib o'tsa bo'ladi. Masalan, o'qituvchi: Bolalar bugun nechanchi sana? Hozir qaysi fasl?, deb savol beradi. Bolalar qish fasli deb javob beradilar. Qishning yaxshi tomonlarini aytamiz. Qor yog'adi, qorbo'ron o'ynaymiz, muz ustida sirg'anamiz, qorbobo yasaymiz va hakazo. O'qituvchi o'quvchilardan qish fasliga nisbatan tanqidiy fikrlarini bildirishlarini so'raydi. O'quvchilar esa ko'chalar loy bo'ladi, sovuqqotamiz, yer sirg'anchiq bo'lib qoladi, poyabzallarimiz ivib ketadi, shamollab qolamiz, deb o'quvchilar o'zlarining tanqidiy fikrlarini bildiradilar. O'qituvchi ijobiy va tanqidiy fikrlarga xulosa yasab har bir faslning o'z ziynati borligini o'quvchilarga uqtiradi. Darsning tashkiliy qismi yakunlanib asosiy qismiga o'tiladi.

Bu xususiyatlarni shakllantirishda darsda turli metodlardan foydalaniladi.

Misol: Interfaol metodlar talim jarayonida o'quvchilar faolligini oshirish orqali ularning bilimlarini tez va oson ozlashtirishga, shahsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlar o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalarni shakllantiradi:

- O'z oldiga maqsad qo'yishni;
- Erkin va mustaqil fikrlashni;
- Tanqidiy fikrlashni; - Yakka tarzda va juftlikda ishlashni.

Misol: 3-sinf ona tili darsi. Dars boshlashdan avval o'quvchilarni 3 guruhga bo'lib olinadi, 1-guruh- "Bilimdonlar", 2-guruh- "Zukkolar", 3-guruh- "Ekspertlar" guruhi. Har bir guruh eng faol, o'rta darajada bilimli va past o'zlashtiruvchilardan tashkil topadi. Ekspert guruhidagi past o'zlashtiruvchi o'quvchi faollarga qarab fikrlashni o'rganadi. 93-bet, 257-mashq. O'quvchilar mashqni darslikdan ko'chirib yozadilar, sifatni belgilaydilar. Mashqni bajarib bo'lganlaridan so'ng, so'z turkumlarini mustahkamlash uchun o'qituvchi tomonidan qo'shimcha topshiriq beriladi.

"Ta'riflab ber" o'yini o'ynaladi.

1-guruhga Quyon rasmi, 2-guruhga Bo'ri rasmi beriladi. Guruhlar bu hayvonlarni so'z turkumida ta'riflashlari kerak, hamda mavzuni boshqa fanlarga bog'lashlari kerak. Ekspert guruhi ularni ishlarini kuzatib boradi va tanqidiy fikrini bildiradi.

1-guruh: Quyon oq, kulrang, yuvosh, yumshoq bo'ladi (sifat). U tez yuguradi (fe'l). Sabzini yaxshi koradi, xonadonlarda boqiladi (fe'l).

2-guruh: Bo'ri yovvoyi hayvon, u go'shtni yaxshi ko'radi, rangi qora, jigarrang bo'ladi (sifat). Ular 5-6 bola tug'adi (son). Shu orada 1 nafardan o'quvchi doskada sabzi va go'sht rasmini chizadi. So'z ekspert guruhiga beriladi. Bo'ri – ot, so'z turkumi.

1-"Bilimdonlar" guruhi quyon ot – so'z turkumiga misol bo'lishini aytmadi. Son so'z turkumidagi so'zga ta'rif bermadi.

2-"Zukkolar" guruhi esa go'sht rasmini nonga o'xshatib qo'ydi. Shunday tarzda Ekspert guruhi tanqidiy fikrlarini bildiradi.⁴⁶

Bundan tashqari, "Topag'on o'yini" metodidan ham foydalanish tanqidiy fikrlashlarini o'stirishga ijobiy yordam beradi.

Ona tili: 258- mashq.

Qorli tog'lar, keng vodiylar,
Boshqachadir kumush dalalar.
Yashil bog'lar, keng daryolar,
Yasangandir bugun o'zgacha.

O'qituvchi she'rni ifodali o'qib beradi. Sher mazmunini tushuntiradi. She'r orqali dars Tabiat darsiga bog'lanadi. O'qituvchi she'rni diktant tarzida aytib turadi. Har bir guruhdan bittadan o'quvchi doskaga chiqib, ushbu she'rni yozadilar, o'tirgan o'quvchilar yozilgan she'rni xato va kamchiliklarini topadilar, hamda tanqidiy fikr bildiradilar.⁴⁷ She'rni yozgan o'quvchi bundan xulosa chiqarib xatosini o'z o'rnida to'g'rilaydi. O'rtoqlariga do'stona munosabati uchun minnatdorligini bildiradi. Xatoni topgan o'quvchini o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi. Dars davomida o'quvchilarni tanqidiy fikrlash malakasini rivojlantirish bilan birga ularni o'rtalarida mehr-muhabbat tuyg'usini ham shakllantirish lozim. Kunlik kuzatuvlardan kelib chiqib past o'zlashtiruvchi o'quvchini kamsitmay faol o'quvchiga birlashtirish lozim. Past o'zlashtiruvchi o'quvchining kichkina yutug'ini ham ko'klarga ko'tarib, faollashayotganini e'lon qilish

⁴⁶Matematika: 2- sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma/ Abdullayeva B [va boshqalar].-T: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashryoti, 2015.-15-bet.

⁴⁷O'qish: 2- sinf o'qituvchilari ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo'yicha metodik qo'llanma/Boymurodova G. (vaboshqalar).- T.: "O'zbekiston", 2015. -82- bet.

kerak. Bu o'quvchini faollashishida yonidagi o'quvchini xizmati katta ekanligini e'tirof etib turish kerak. Past o'zlashiruvchiga faollashganing uchun deb, faol o'quvchiga esa sinfdoshining faollashishiga yordamlashganing uchun deb rag'batlantirish bola ruhiyatini ko'taradi.

O'quvchilarda tanqidiy fikrlash malakasini shakllantirishda quyidagi "Davom ettir" o'yini ham qo'l keladi. Bunda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan ikki guruhga bo'linadi. O'qituvchi biror narsani nomini 1-guruhga aytadi. O'quvchilar bu narsaga ta'rif beradilar masalan: Ustoz, bayroq deb aytadi, 1-guruh bayroqni ta'riflay ketadi: Bayroq 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan, unda uch xil rang bor va hokazo. Ikkinchu guruh esa bu ta'riflarga tanqidiy fikr bildiradi. Masalan: ranglar to'liq aytilmadi, bayroq o'lchamlari noto'g'ri aytili va hokazo. Tanqidiy fikr bildirgan ikkinchi guruh o'zlari to'liq ma'lumot beradilar. Tanqidiy fikr bildiruvchilar yetarli bilimga ega bo'lishlari va o'z bilimlariga ishonishlari lozim. Bu usul shu tarzda davom etadi. Bu o'yinda faol ishtirok etganlar o'yin davomida rag'batlantirib boriladi.

Bu kabi o'yinlarni matematika fanida ham qo'llasa bo'ladi. O'qituvchi biror son aytadi, o'quvchilar esa uning tashkil qiluvchilarini aytadi: o'qituvchi 20 sonini aytsa, o'quvchilar uni 15 bilan 5 ning yig'indisi, 10 bilan 10 ning yig'indisi, 17 bilan 13 ning yig'indisi ko'rinishida aytadi va hokazo. Bu o'yinga vaqt belgilash zarur. Birinchi guruh bajargan ishni ikkinchi guruh tahlil qiladi. Tahlil qilishda vaqtga e'tibor berishlari, noto'g'ri javoblarni isboti bilan ko'rsatishlari va to'g'ri javobni o'zlari aytishlari kerak. Shu tariqa barcha o'quvchilar sonning to'ldiruvchilarini aytishi mumkin. Bu o'yin orqali o'quvchilarda sonning tarkibi haqidagi bilimlari va og'zaki qo'shish-ayirish ko'nikmasi mustahkamlanadi. Jamoa bo'lib birgalikda ishlash ko'nikmalari shakllanib boradi. Har bir bajarilgan ishga tanqidiy yondashish va o'zaro raqobat rivojlanadi. Tengdoshlari fikrini jazo tariqasida tushunmaslik kerakligini anglatib boriladi.⁴⁸

O'quvchilarni haqiqatan ham dolzarb muamma haqida fikrlash imkoniyatidan mahrum qilib, mantiqiy jarayonlarni mavhum tarzda o'rganish emas, balki o'quvchilarni tezda faol o'ylash jarayoniga kirishishga, uni tajribada amalga oshirishga imkon beradigan metod eng yaxshi hisoblanadi. Bundan tashqari, o'quvchilarni haqiqatda bezovta qiluvchi muammolar haqida so'z borganda tashabbus ularning o'zidan chiqqanda, tanqidiy fikrlash yaxshiroq rivojlanadi.

Xulosa

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu ma'lum yosh davrida o'rgatish tugallanishi va unitilishi mumkin bo'lgan masala ham emas. Tanqidiy fikrlashga olib boradigan aniq- ravshan yo'llar yo'q. Biroq o'qitish shartlarining muayyan to'plami borki, uning yordamida tanqidiy fikrlashni tarbiyalash mumkin.

Sinfda shunday muxitni shakllantirish kerakki tanqidiy fikrni o'quvchi do'stona qabul qilishi kerak "Do'st achitib – dushman kuldirib gapiradi" degan xalq maqoli be'jiz aytilmagan.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: "Men eng katta boyligimni sizlarga ishonib topshiryapman. Mening boyligim bu – bolalarim. Albatta, sizni ishonchimni oqlashingizga ishonaman" – deb biz pedagoglarga bildirgan ishonchiga amal qilgan holda, sidqidildan mehnat qilib, yurtboshimiz ishonchini oqlaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Mirzaahmedov M.A. Matematikadan masalalar to'plami. 4-sinf: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi ., –T.-264 bet. 2018.
2. Abdullayeva B. va boshqalar. Matematika: 2-sinf o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. –T: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. "Davlat ilmiy nashriyoti, 2015.
3. Boymurodova G. va boshqalar. O'qish: 2-sinf o'qituvchilar uchun ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo'yicha metodik qo'llanma. –T.: "O'zbekiston",- 160 bet. 2015.
4. Bikbayeva N.U., Sidelnikova R.I., Adambekova G.A. Boshlang'ich sinflarda Matematika o'qitish metodikasi. –T: "O'qituvchi". 1996.

⁴⁸Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi.-T.: O'qituvchi. 1996. Bikbayeva R.U., (va boshqalar).

UO‘K 372.857

BIOLOGIYA TA‘LIMIDA GRAFIKLIORGANAYZERLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI O‘QUVCHILAR KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Niyozova Gullola Adashaliyevna

Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumani 18-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi o‘qituvchisi, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada biologiya ta‘limi jarayonida grafikli organayzerlardan samarali foydalanish orqali o‘quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, kompetentligini rivojlantirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya, ta‘lim vositalari, o‘quv-uslubiy materiallar, grafikli organayzerlar.

UDC 372.857

DEVELOPING STUDENT COMPETENCE THROUGH EFFECTIVE USE OF GRAPHIC ORGANIZERS IN BIOLOGY

Niyozova Gullola Adashaliyevna

Teacher of secondary school No.18, Turakurgan district, Namangan region, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. This article focuses on developing students' critical and creative thinking skills and competencies through the effective use of graphic organizers in biology.

Keywords: knowledge, ability, skills, competence, tools for teaching, education materials, graphic organizers.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan. Umumiy o‘rta ta‘limning Davlat ta‘lim standartining maqsadi – umumiy o‘rta ta‘lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma‘naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat⁴⁹.

Davlat ta‘lim standartining asosiy printsiplaridan biri o‘quvchilarda fanlarni o‘rganish va ta‘lim olishni davom ettirish uchun tayanch hamda fanlarga oid kompetentsiyalarni rivojlantirishning ta‘minlanganligi⁵⁰ ko‘rsatib berilgan.

O‘quvchilarni tarbiyalashda fanga oid bilim, ko‘nikma va malakalarning dars jarayonida singdirish bilan birgalikda ularda kompetentsiyalarni ham shakllantirish lozim.

Kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan ta‘lim – o‘quvchilarda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish kompetentsiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘limdir.

Bevosita idrok qilish mumkin bo‘lgan narsalar asosida olib boriladigan ta‘lim ko‘rgazmali ta‘lim deb ataladi. Ta‘lim berish vositalarning roli benihoyat katta. Atoqli rus pedagogi K.D.Ushinskiy bolani yodida biror narsaning mahkam o‘rnashib qolishini xohlovchi pedagog bolaning sezgi a‘zolarini mumkin qadar ko‘prog‘ini: ko‘zi, qulog‘i, tovush organi, muskul sezgi va xatto iloji bo‘lsa xidlash va ta‘m bilishi organlarini esda tutib qolish jarayonida qatnashtirishiga harakat qilishi kerak degan edi.

Biologik ta‘lim jarayonida o‘quvchilarda fanga oid tushunchalarni shakllantirish o‘quv materialini sezgi organlari orqali qabul qilish, idrok etish, tasavvur qilish, yodda saqlash, amalda qo‘llash, natijalarni tekshirish, axborotlarni umumlashtirish va xulosa yasash kabi bosqichlarni algoritmik tarzda amalga oshirish orqali samarali bo‘ladi. O‘qituvchi tomonidan tushunchalarni shakllantirish bosqichlariga amal qilinishi o‘quvchilarning tushunchalarni qabul qilishiga, tushunishiga imkon yaratadi.

Biologiya fanidan ta‘lim-tarbiyani yangi bosqichga ko‘tarishda dars, darsdan va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etish jarayonida ta‘lim vositalaridan samarali foydalanish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Ta‘lim vositalari – o‘quv materialini ko‘rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o‘qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi.

⁴⁹Umumiy o‘rta ta‘limning DAVLAT TA‘LIM STANDARTI. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli Qarorining 1-ilovasi.

⁵⁰Umumiy o‘rta ta‘limning DAVLAT TA‘LIM STANDARTI. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli Qarorining 3-ilovasi.

Ta'limning texnik vositalari – o'quv materialini ko'rgazmali namoyish etishga, uni tizimli yetkazib berishga yordam beradi. O'quvchilarga o'quv materialini tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi. Jumladan, doska, flipchart, kompyuter, proyektor, DVD player, televizor va h.k.

Yordamchi ta'limvositalari – Tabiiy yordamchi ta'lim vositalaridan tirik obyektlar, tulup, kolleksiya, ho'l preparatlar, gerbariylar. Tasviriy yordamchi ta'lim vositalari mulyaj, model, foto, chizma, o'quv filmi, diagramma, jadvallar vah.k.

O'quv-uslubiy materiallar – o'quv materiallar, o'zlashtirilgan o'quv materiallarini mustahkamlash uchun mashqlar. Bular o'quvchilarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradi. Masalan, mavzuga oid matnlar, elektron axborot ta'lim resurlari (EATR), nazorat topshirig'i va testlari, eslatmalar va h.k.

Ta'lim vositalarini tanlash va undan foydalanishda avvalambor o'quv maqsadini belgilab olish, ta'lim jarayoni va mazmuniga mos keluvchi ta'lim metodlarini tanlashga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Biologiya fanidan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda grafikli organayzerlar muhim orin egallaydi.

Grafikli organayzerlar– fikriy jarayonlarni ko'rgazmali taqdim etish vositasi hisoblanadi.

Grafikli organayzerlar quyidagi guruhlariga bo'linadi:


1. Ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo'lib chiqish, o'rganilayotgan tushunchalar o'rtasidagi aloqa va o'zaro bog'liklikni o'rnatish usul va vositalari. Masalan: Klaster, toifalash jadvali, insert, B/B/B jadvali

2. Ma'lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash usul va vositalari. Masalan: T-jadvali, Venna diagrammasi

3. Muammoni aniqlash, uni xal etish, tahlil qilish va rejalashtirish usullari va vositalari. Masalan: «Nima uchun?», «Baliq skeleti», «Piramida», «Nilufar guli» sxemalari, «Qanday?» ierarxik diagrammasi, «Kaskad» tarkibiy-mantiqiy sxemasi.

Quyida ayrim grafikliorganayzerlardan biologiya ta'limida qo'llanishi yuzasidan tavsiyalar berib o'tamiz.

Klaster.




Toifalash jadvali

Organik olam xilma-xilligi			
Bakteriyalar	Zamburug'lar	O'simliklar	Hayvonlar
1. Pichan bakteriyasi.	1. Mog'or zamburug'i.	1. Xlorella.	1. Amyoba.
2. Chirituvchi bakteriyalar.	2. Achitqi zamburug'i.	2. Nostok.	2. Evglena.
3. Tuproq bakteriyasi.	3. Oq zamburug'.	3. Xlomidomanada.	3. Qisqichbaqa.
4. Achituvchi bakteriyalar.	4. Qo'ziqorin.	4. Funariya yo'sini.	4. Planariya.
5. Tugunak bakteriyalar.	5. Qo'zi dumba.	5. Qirqbo'g'im.	5. Jigar qurti.
6. Sil tayoqchasi.	6. Qorakuya zamburug'i.	6. Qirqquloq.	6. O'rgimchak.
7. O'lat.	7. Zang zamburug'i.	7. Kurmak.	7. Kolorado qo'ng'izi.
	8. Vertitsil.	8. Pomidor.	8. Yomg'ir
	9. Penitsil zamburug'i.	9. Na'matak.	
		10. Olma.	

8. Terlama. 9. Vabo. 10.G'ozaga gammozi.			chuvalchangi. 9. Baqa. 10. Kaptar. 11. It.
--	--	--	---

«Qanday?» ierarxik diagrammasi



Xulosa qilib aytganda, grafikli organayzerlar o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish hamda fanga oid kompetensiyalarni egallanishida muhimahamiyat kasbetadi. Chunonchi, biologik ta'lim jarayonida tushunchalarni obrazli tarzda shakllantirish orqali o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida samarali natijaga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli Qarori.
2. G'ofurov A.T., Tolipova J.O. va boshqalar. Biologiya o'qitish metodikasi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Toshkent, 2013.
3. Tolipova J.O. Biologiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalar. Pedagogika oily ta'lim muassasalari talabalari uchun darslik. Toshkent-2014 y.
4. <http://ziyonet.uz/>
5. <http://nambilog.zn.uz/>

UO'K 37.02

DARSLARDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHDA O'QITUVCHINING O'RNII

Ashurbayeva Nilufar Sherg'oziyevna

Namangan shahar 57-umumiy o'rta ta'lim maktabi 1-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolada darslarda pedagogik texnologiyalar, bolaning ongi va tafakkuri shakllanishida o'qituvchining mahorati, pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyati hamda dars jarayonida undan foydalanishga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: dars, ta'lim, tarbiya, pedagogik texnologiyalar, o'qituvchi, o'quvchi, shaxs, bola, o'qish.

THE ROLE OF THE TEACHER IN THE USE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN LESSONS

*Ashurbayeva Nilufar Shergoziyevna**1st category primary class teacher of general secondary school No57 of Namangan city, Uzbekistan*

Brief abstract. This article provides information on pedagogical technologies in the classroom, the skills of the teacher in the formation of the child's mind and thinking, the teacher's activities in the educational process based on pedagogical technology and its use in the classroom.

Keywords: lesson, education, upbringing, pedagogical technologies, teacher, student, person, child, reading.

Inson har tomonlama kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlari va mexanizmlarini yaratish, eskicha tafakkur va ijtimoiy xulq-atvor andozalarini o'zgartirish, respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadidir. Xalqning boy zamonaviy madaniyati, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiya sohasidagi yutuqlari asosida mutaxassislar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Bugun ta'lim-tarbiya jarayoniga alohida maqsad qo'yilgan. Bu o'quvchilarga ijodiy jihatdan o'z-o'zlarini namayon qilishlari uchun imkoniyat yaratish va ularda ijobiy-shaxsiy sifatning shakllanishiga ko'maklashishdan iborat. Shu boisdan ham, bugungi kunda o'quvchilarning faolligini oshirish, bilimlarini yaxshilash maqsadida ta'lim samaradorligini oshiruvchi pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchi Prezidentimiz I.Karimov «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yuksaltirishdin mavzusidagi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi nutqida: «Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga etishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz»,⁵¹ degan edi. Bunday ulug' maqsadni amalga oshirish sohasidagi vazifalar «Barkamol avlod yili» Davlat dasturida ham belgilab berildi.

Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyati va o'quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladi. Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyati va o'quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladi. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uni pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tatbiq eta olishi, ta'limning yangi-yangi yo'l va usullarini izlashi, pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. Shuning uchun ham bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kelgusi faoliyatga tayyorlashda, pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishga tayyorlash bugungi ta'limning oldiga qo'yilgan talablardan biridir. Chunki pedagogik texnologiyalar, birinchidan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini oson va qiziqib o'rganishlari uchun imkoniyat yaratsa, ikkinchidan, o'qituvchining ham professional o'sishiga, ham ma'naviy rivojlanishiga yordam beradi.

Pedagogik texnologiyalar ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o'qituvchi tomonidan yaratiladi, ta'lim-tarbiya bosqichlarini o'zaro bog'lashga xizmat qiladi. Uning mazmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchida shakllantirish ko'zda tutilgan ma'naviy sifatlarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan darslarni rejalashtirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Ta'limning barcha bo'g'inlarini shunday tashkil etish kerakki, u yoshlarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatsin. Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati o'quvchilarni qiziqitirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishishdir. Ta'limda berilayotgan bilimlarni o'quvchilarning ko'pchilik qismi puxta o'zlashtirishi pedagogik texnologiya joriy etilishining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining mavjud qonuniyatlariga, mamlakatimiz rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga, tarixiy taraqqiyot tajribalariga asoslanadi. Pedagogik

⁵¹ I.Karimov «Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yuksaltirishdir». T.: O'zbekiston, 2010-y. 48-bet.

texnologiyani yaratish milliylik va muminsoniylik tamoyillariga, insonparvarlik va demokratiya prinsiplariga, ijodkorlik va tashabbuskorlikka tayanadi

Pedagogik texnologiya – bu o‘qituvchining o‘qitish vositalari yordamida o‘quvchilarga muayyan sharoit va ketma-ketlikda ta’sir ko‘rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldinda belgilangan sifatlarni shakllantirish jarayonidir.

Pedagogik texnologiya – bu o‘qitishda o‘ziga xos yangicha (innovatsion) yondashuvdir. U pedagogikadagi ijtimoiy-muxandislik tafakkurining ifodalanishi, ta’lim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi.

Hozir ta’lim-tarbiya rivojlanib borayotgan yo‘nalishlaridan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayonida qo‘llash bo‘lib, uni amalga oshirish dolzarb vazifalardan biridir. Ma’lumki ta’lim-tarbiya jarayoni katta avlod tomonidan o‘z bilim va tajribalarini o‘tib kelayotgan avlodga o‘rganishdan iborat bo‘lib, bu jarayonda inson hayoti uchun zarur axborotlarni avloddan avlodga uzatish amalga oshiriladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonining mazmuni o‘qituvchining o‘quvchiga yetkazayotgan bilim saviyasining samaradorligini tashkil etadi.

Shunday ekan, o‘qituvchi yangi pedagogik texnologiyaning mazmun mohiyatini chuqur anglagan holda, uni asos qilib, yangicha metod va usullar orqali dars o‘tishi zarurdir.

Hozirgi zamon ishlab chiqarishdagi ko‘pgina kasblar faqat ma’lumotni kishilargagina emas, yuksak rivojlangan ijodiy qobiliyatga ega kishilarni jalb qilishni talab qilmoqda.

O‘qituvchi o‘quvchiga zamon talablariga mos bilimlarni berishi uchun, avvalo, o‘zi ana shunday bilimlar bilan qurollangan bo‘lishi kekrak. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda yutuqlarning asosi bolalar bilan o‘tkaziladigan dars jarayonining sifati bilan belgilanadi. Bunda ilg‘or pedagogik texnologiyalar katta ahamiyatga egadir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o‘zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to‘g‘ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi. O‘qish darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning ko‘pgina metodlaridan foydalaniladi.

Bola hayotida bog‘chadan so‘ng maktabning dastlabki davrlari muhim o‘rin tutadi. Shu bois boshlang‘ich ta’lim davri ta’lim jarayonidagi eng mas’uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi.

Bu davrda bolaning zehni o‘stirishga qaratilgan har bir mashg‘ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham bu davrda, avvalo, ta’lim jarayonini qiziqarli, ta’sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e’tibor qaratish lozim. Chunki bu muddat bolaning o‘yin faoliyatidan aqliy faoliyatga, ya’ni o‘quv faoliyatiga o‘tganligi bilan xarakterlanadi.

Bolaning o‘quv faoliyatini rivojlantirishda turli o‘yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar o‘yin orqali o‘z bilimlarini mukammallashtiradilar va uni chuqur o‘zlashtiradilar, ta’im jarayonida o‘quvchilar faolligini, o‘qish motivlarini rivojlantiradi.

Pedagogik texnologiyaning afzalligi zamon sinovidan o‘tib, interfaol usullarning sifat va samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi o‘z isbotini topmoqda. Bu borada, pedagogik texnologiyalar muvofaqqiyatlarni kafolatlovchi omilligini ta’kidlagan holda, izlanishlarimiz, bir qancha tajribalarimizni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish orqali olib bordik va bir qancha natijalarga erishdik. O‘qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida qurish o‘quvchilar bilimini oshirish, og‘zaki nutqini o‘stirish maqsadida “Reklama” metodidan foydalandik. Bu metod boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida qo‘llanilsa o‘quvchilarning kitob o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqi, og‘zaki nutqi shakllanadi, so‘z boyligi oshadi, har bir mavzuga savol tuza olishga, erkin va mustaqil fikrlashga o‘rganadilar. Ushbu metod orqali o‘quvchilar ertaklarni, badiiy asarlarni reklama qiladilar. Reklama qilish jarayonida ertak, asar qahramonlariga xos sifatlarni ochib beradilar. Ya’ni asarni o‘qib, asardagi voqea-jarayonlarni reklama qiladilar. Metodni qo‘llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining darsi qiziqarli, samarali o‘tishi uchun u pedagogik innovatsiyalarning yangi-yangi uslublarini izlab topishi, uni chuqur tahlillar ostida eng samaralisini tanlab olishi hamda amaliyotda qo‘llashi lozim. Buning uchun u eng avvalo, innovatsiyalar haqida aniq ma’lumotlar jamg‘armasini yaratishi zarur. Nafaqat yaratishi, to‘plashi, balki uni tasvirlab, tushuntirib, ifodalab ham bera olishi kerak. Ular yarim yillik bo‘yicha metodik tavsilar va qoidalar sifatida taqdim etilishi ham mumkin. Chunki innovatsion faoliyatning miridan sirigacha hamma yozib kiritmaydi, ular o‘z-o‘zidan ma’lumdek, tushunarlidek taassurot uyg‘otadi. Ularning barchasi jonli faoliyatda namoyish etiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan o‘qish darslari jarayonida erkin va mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadi. Mustaqil fikrlash qobiliyatining shakllanishi

natijasida, o'quvchilar atrof olamdagi, jamiyatdagi qonunlarni, shuningdek, asardagi ijobiy va salbiy qahramonlar orqali lar insoniy fazilatlarini anglash, bilimlarni chuqur o'rganish, keng fikrlash, tegishli qarorlar qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi. Har bir darsga ko'rgazmali qurollar tayyorlash ulardan darsda unumli foydalanish, darsni jonli, qiziqarli olib borishga zamin yaratadi. Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilari sahna ko'rinishlarini juda qiziqib tomosha qilishadi. Ayniqsa, shu sahna ko'rinishlarida o'quvchilarning o'zlari rollarda ishtirok etishni sevadilar. Bu esa ularning mavzuni tez o'zlashtirishiga, og'zaki nutqni o'stirishga, kishilar bilan muomala qilishni o'rganishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinfnin asosiy vazifasi – o'quvchilarning mustaqil izlanishga, bilimlarni o'zlari topishga hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilganligidadir.

O'zlashtiriladigan mavzuni tayyor shaklda emas, balki asosiy tushunchalarni har tomonlama tadbiiq qilish orqali mavzuni o'zlashtirish o'quvchilarning dunyoqarashini o'stiradi, muammoli vaziyatlarni hal qilish yo'llarini topishga o'rgatadi. O'qitishning quyidagi texnologik usullari, masalan, «birlashtirish», «taxmin qilish», «Venn diagrammasi», «Semantik karta», «Erkin yozuv», «Muallif o'rindig'i», «Besh misrali she'r» va shu kabi usullar o'tiladigan mavzuning mazmuni hamda maqsadini yoritishda rejalashtirilgan natijani berishi shubhasiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining erkin mulohaza yuritish asoslarini shakllantirishda o'qituvchining roli yo'naltiruvchi sifatida o'quvchilar bilan birga ishlash, ularga ishonch bildirib, o'z fikrini, o'z so'zini aytishga imkoniyat yaratadi. Bu o'qitish texnologiyasi asosida o'qituvchilarning fikricha, darslarda o'quvchining bilim olish faolligi oshib, mustaqil o'rganishga ta'sir ko'rsatmoqda, o'quvchilar darslarning qiziqarli hamda yengil o'tayotganligini bayon qilishadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, innovatsion faoliyat o'qituvchi ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilib, bunda pedagogik fanda faqatgina yangilik yaratish qobiliyati emas, balki o'z-o'ziga mehnatiga, bolalarga, xalq etishga va umuman hayotga o'ziga xos ijodiy munosabatda bo'lishi tushuniladi. Bular boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun muhim ahamiyatga ega, chunki zamonaviy vaziyatlar murakkabligi undan odatiy mutaxassislik ko'nikmalardan xoli bo'lish, erkinlikni talab qiladi. Shu bilan birga o'qituvchi innovatsion faoliyatini ko'rsatuvchi xususiyatlari bu yuzaga kelgan vaziyatda maksimal ravishda erkin bo'lish va maktabda yangilikni joriy qilinishini o'zi belgilay olish qobiliyati hisoblanadi.

Ta'lim tizimidagi innovatsiyalar, ularni amaliyotga tadbiiq etish innovatsion faoliyatlarni tahlil qilish orqali bu faoliyat tushunchasini ta'riflash imkoniyati paydo bo'ldi. Demak, innovatsion faoliyat pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir. Bu faoliyat uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlab uni takomillashtirib borishdan iboratdir.

Har bir pedagog shuni doim esda tutishi kerakki, dars o'quv tarbiya jarayonining asosiy formasidir. Hozirgi zamon tarbiyasining barcha jarayonlari o'quvchilarni mustaqil fikrlashga va mustaqil ijod qilishga o'rgatishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. I.Karimov «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yuksaltirishdir». T.: O'zbekiston, 2010. 48-bet.
2. Avliyoqulov N.X., Musaeva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2008.
3. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari – Toshkent, 2001.
4. Boshlang'ich ta'lim jurnallari.
5. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim talablari va o'quv dasturi.
6. 2-3-sinf uchun dasturlar.
7. Turkiy guliston yohud axloq. -T.: O'qituvchi. 1992. -62 bet.

UO'K 372.851

MATEMATIKA DARSLARIDA AKTDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Azimova Gavhar Abdurahimovna

Namangan shahar 31-umumiy o'rta ta'lim maktabi 1-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda matematika darslarini o'tishda Aktdan foydalanish, o'qitish jarayonining sifat va samaradorligini oshirishga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: dars, ta'lim, matematika, AKT, texnologiya, oqitish, bilim, maktab, o'quvchi.

Brief abstract. This article provides information on the use of the ICT at teaching mathematics in primary classes, improving the quality and efficiency of the teaching process.

Keywords: lesson, education, mathematics, ICT, technology, teaching, education, school, student.

“Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo‘ygan hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha sohalarida keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ana shu islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi avvalo ilm-fan va ta‘lim-tarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatdosh bo‘la olishimiz bilan uzviy bog‘liq...”

Sh.M.Mirziyoyev

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo‘lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lgan yoshlarni ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini davlat ta‘lim standartlari asosida shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” doirasida O‘zbekistonda ta‘lim sifatini baholashda yangicha monitoring tizimini xalqaro baholash dasturlari yordamida aniqlash va qiyoslashga asoslangan tizim shakllantirilmoqda.

Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro loyihalarni amalga oshirish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev boshchiligidagi hukumatimiz ta‘lim sohasida tub burilishlar qilgan holda ko‘plab farmon va qarorlar chiqardilarki, ularning asosiy maqsadi yosh avlodni yuksak ma‘naviyatli etib tarbiyalashdan iborat. Shu jumladan 2017-yil 6-aprelda Vazirlar mahkamasining 187-sonli qarori imzolandi. Unga ko‘ra:

Davlat ta‘lim standartining maqsadi — o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, belgilangan talablarga javob beruvchi, ma‘naviy barkamol, kasb mahoratiga ega bo‘lgan, mehnat va ta‘lim xizmatlari bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdan iborat.

O‘zbekistonda birinchi Prezident I.Karimov rahnamoligida barcha faoliyat sohalariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) eng so‘nggi yutuqlarini joriy etish borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda axborot makonini shakllantirish masalalari O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2002-yil 30-mayda qabul qilingan “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida”gi farmonida o‘z aksini topgan. Bu borada 2002-2010-yillarda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturi ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich amalda tatbiq etilmoqda. 2008-yilning birinchi yarim yilligida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari muhokamasiga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, yirik ishlab chiqarish korxonalarini, shuningdek, mahalliy hokimiyat organlariga kompyuter hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. Bunda kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalaridan ishlab chiqarish hamda boshqaruv faoliyatida amaliy foydalanish zarurligi ta‘kidlab o‘tildi.

Hozir aloqa va axborotlashtirish sohasi zamonaviy axborot texnologiyalari negizida jadal rivojlanib borayotir. Bugungi kunda respublikamiz shaharlari va tuman markazlaridagi barcha tarmoqlar raqamlashtirilgan bo‘lib, aholi, korxonalar, tashkilot va muassasalarga yuqori sifatli shaharlararo telefon aloqa

va ma'lumotlar uzatish xizmatlari ko'rsatilmoqda. Barcha joylarda eng yangi AKT joriy etilmoqda, Internetdan foydalanuvchilar soni ortib bormoqda, uyali aloqa kompaniyalari abonentlari ham ko'paymoqda.

Bu sohada qisqa vaqt ichida mamlakatimizda jiddiy ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Jumladan, odamlar turmush darajasini oshirish bo'yicha asosiy vositalardan biri hisoblangan AKT sohasida ham sezilarli tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Bu Xalqaro telekommunikasiya ittifoqi rahbariyati tomonidan AKT bo'yicha o'tgan sammitda ham qayd etildi. Bunday sammitlar Axborot-kommunikasiya texnologiyalari haftaligi doirasida O'zbekistonda har yili o'tkaziladi. Xalqaro telekommunikasiya ittifoqi 2015-yilda yer shari aholisini qariyb yarmini zamonaviy AKTdan foydalanish imkoniyati bilan ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. O'zbekistonda ushbu yo'nalishda samarali chora-tadbirlar amalga oshirildi va salmoqli natijalarga erishildi: bugungi kunda aholi faol qismining yarmidan ko'pi, ya'ni davlat muassasalari, universitetlar, kollej va liseylar, maktablar, biznes, ilm-fan, madaniyat, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda AKTdan samarali foydalanilmoqda.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda hukumat muassasalari, xususiy sektor, xalqaro hamjamiyat va fuqarolik jamiyati o'rtasida AKT masalalari bo'yicha ochiq muloqot olib borish uchun o'ziga xos shart-sharoit yaratilgan. Bu esa mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qilishi muqarrar. Bu narsa yuqorida keltirib o'tilgan AKT yanada rivojlantirish to'g'risidagi O'zR Prezidenti Farmoni va VMning Qarorlari, XTV me'yoriy hujjatlarida ham keng ko'lamda ta'kidlab o'tilgan.

O'qitishning ko'rsatmali metodlari – o'quvchilarga kuzatishlar asosida bilimlar olish imkonini beradi. Kuzatish hissiy tafakkurning faol formasidir, bunday o'qitishdan keng foydalaniladi. Atrof – borliqdagi predmet va hodisalar, ularning turli – tuman modellari, (har xil tipdagi ko'rsatma- qo'llanmalar) kuzatish ob'ektlari hisoblanadi.

O'qitishning ko'rsatmali va og'zaki metodlari o'zaro chambarchas bog'liqdir. Ko'rsatma-qo'llanmalarni namoyish qilishni har doim o'quvchilar va o'qituvchilarning tushuntirishlari bilan birgalikda olib boriladi

Matematika so'zi qadimgi grekcha – mathema so'zidan olingan bo'lib, uning ma'nosi «fanlarni bilish» demakdir.

Muammoli vaziyat – bunda o'qituvchi o'quvchilar oldiga ularning bilimlari yetishmasligi sababli birdaniga to'la javob bera olmaydigan savol qo'yadi. Muammoli vaziyatning markaziy elementi o'quvchilar tomonidan yechilishi kerak bo'lgan noma'lum yoki qo'yilgan muammoni hal qilish uchun zarur bo'lgan bilimlardir.

Matematika o'qitish jarayonining sifati va samaradorligini oshirish maqsadida o'quv metodik kompleksi yaratiladi. Bu kompleks tarkibida darslikdan tashqari o'quvchilar va o'qituvchilarga moslab yozilgan metodik qo'llanmalar, kartochkalar, bosma asosli daftarlar, mashqlar to'plamlari va boshqalar chop etiladi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash – hozirgi axborot kommunikatsiya texnologiya vositalari kuchli rivojlangan sharoitda ulardan to'g'ri va samarali foydalanish, axborotlarni tanlash, saralash, saqlash, qayta ifodalash ko'nikmalari hosil qilinadi. Bu jarayonda kompyuter savodxonligi alohida ahamiyat kasb etadi.

O'qitishning maqsadlari, mazmuni, metodlari, vositalari va formalari metodik sistemaning asosiy komponentlaridir. A.M. Pishkaloning tushuntirishiga ko'ra, metodik sistema murakkab sistema bo'lib, uni o'ziga xos grafik bilan tasvirlasa bo'ladi.

Bugungi kunda o'qitishning metodi va mazmuni muammosini hal etish oldingilardan farq qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini o'stirishda informatikani qo'llash bugungi kun muammolaridan biridir.

Boshlang'ich sinfda o'quvchilar matematikani o'rganishni davom ettirishga tayyorlanadilar. Shuning uchun butun maktab matematika kursi bilan boshlang'ich matematika o'qitish orasida uzluksiz olib boriladi. Son tushunchasi, geometrik figura, ifoda, funktsiya, tenglama, geometrik yasash, koordinat va vektor qaqida boshlang'ich tushunchalar boshlang'ich sinfda o'rgatiladi.

Matematikani o'rganish bilan o'qituvchilar matematik bilimlar zapasiga ega bo'la boshlaydi. Buning natijasida o'qituvchilar aniq ob'yektni matematika tilida ifodaligi yoki matematik modellashtirishga kirishadi.

Boshlang'ich ta'lim o'quv darslarida axborot majmui – ma'lumotnomalar, entsiklopediyalar, virtual kutubxonalar, geografik xaritalar, rasmlar, chizmalar, animatsiyalar, matnlar, tasviriy axborotning statistik va dinamik ifodalari, ovozli obrazlar (yozilgan ovoz, musiqa va boshqalar) foydalanish mumkin.

Yuqorida keltirilgan AKT savodxonligi elementlariga ega bo'lishlik – ta'lim jarayoniga AKTni samarali joriy etishning tashkiliy bir qismi hisoblanadi. Bugungi kunda o'qituvchilarning AKT sohasiga oid

kasbiy mahoratini oshirish yo'nalishida asosiy e'tibor ularning kompyuterdan foydalanuvchi sifatida tayyorlashga qaratilgan.

O'qituvchilar AKT savodxonligiga ega bo'lish bilan chegaralanib qolmasdan, AKT vositalaridan ta'lim samaradorligini oshirish yo'lida to'g'ri foydalanish metodikasiga ham ega bo'lishlari zarur. Ya'ni, har bir fan o'qituvchisi o'zining darsida AKT vositalaridan didaktik vosita sifatida foydalana olishlari zarur. Shu sababli, malaka oshirish kurslarida nafaqat kompyuter savodxonligiga oid mashg'ulotlarni, balki AKTdan foydalanish metodikasiga oid mavzularni ham o'qitish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kompyuter savodxonligiga ega bo'lgan o'qituvchilar ham dars jarayonida AKT vositalaridan samarali foydalana olmaydilar. Ushbu holat ko'plab davlatlarning ta'lim tizimiga xos bo'lgan muammodir. Ko'rinib turibdiki, aktuallik jihatidan AKTdan dars jarayonida foydalanish metodikasi AKT savodxonligiga ega bo'lishlikdan ko'ra muhimroq hisoblanadi.

AKTdan dars jarayonida foydalanish metodikasiga oid ko'nikmalarga matn va jadval muharrirlari yordamida pedagogik vositalar yaratishda ularning didaktik imkoniyatlaridan foydalanishni (matn muharririda formulalar kiritish, jadval muxarrirlarida funktsiyalarning grafiklarini yaratish va b.) ta'kidlab o'tish mumkin. Bundan tashqari, ushbu metodika AKT vositalaridan darsning qaysi qismida, qancha vaqt davomida foydalanishni nazarda tutadi.

Ushbu fikrlarni tasdig'i sifatida YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan "O'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid bilimlarga ega bo'lishlik bo'yicha tavsiyalari"ni keltirish mumkin. Mazkur tavsiyalarni quyidagi saytdan yuklab olish mumkin: www.iite.ru.

Mazkur tavsiyalarda ham zamonaviy o'qituvchining texnologik jihatdan savodxon bo'lishligi va o'quvchilarda ushbu ko'nikmalarni shakllantirish yetarli emasligi alohida ta'kidlanadi.

Hulosa qilib aytish kerakki, zamonaviy o'qituvchi o'quvchilarda AKTdan foydalanishda hamkorlik qilish, vujudga kelgan muammolarni hal etish, bilimlarni izlash, turli manbalardan olgan ma'lumotlarni tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qila olish va umumlashtirish kabi ko'nikmalarni hosil qilishga ko'mak berishga qodir bo'lishligi kerak bo'ladi.

Har bir fan o'qituvchisi dars jarayoniga AKT vositalarini joriy etar ekan, ularning tuzilishi va ishlash uslublaridan xabardor bo'lishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi. Davlat ta'lim standartlari. Boshlang'ich ta'lim. Toshkent: 2005-yil, 5-son. 2-50 betlar.
2. Ahmedov M, Abduraxmonova N, Jumayev M. «Matematika». O'qituvchi kitobi. Toshkent: «Uzinkomtsentr» -2003-yil.
3. Ahmedov M. va boshqalar. «Matematika 1-darslik». Toshkent: «Uzinkomtsentr» -2003-yil.
4. Bikboyeva N.U. va boshqalar. «Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi». O'quv qo'llanma. Toshkent: «O'qituvchi» -1996-yil.
5. Bikboyeva N.U. va boshqalar. «Matematika 2-darslik». Toshkent: «O'qituvchi» -2003-yil.

UO'K 372.47

MATEMATIKA DARSLARIDA TA'LIMIY O'YINLARDAN FOYDALANISH AVZALLIKLARI

Djaliboyeva Amina Uralovna

Sirdaryo v. Sardoba tumani 15-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi, O'zbekiston

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich fani o'qituvchilari uchun pedagogik texnologiyalar, ta'limiy o'yinlardan foydalanish to'g'risida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: kognitiv kompetensiya, ta'limiy o'yin, MSWORD, MSPowerPoint, Paint, o'quv filmi.

UDC 372.47

ADVANTAGES OF USING EDUCATIONAL GAMES IN MATHEMATICS

Djaliboyeva Amina Uralovna

Teacher of secondary school No.15, Sardoba district, Syrdarya region, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. The article provides information on pedagogical technologies for primary school teachers, the use of educational months.

Keywords: cognitive competence, educational game, educational film, MSWORD, MSPowerPoint, PAINT.

O'quvchiga bilim berish, har bir dars mazmunini boyitish, qiziqarli mashg'ulotlarni dars jarayoniga singdirishni talab qiladi. Psixologlarning aniqlashicha bolalar o'qituvchining oddiy tushuntirishi orqali egallab olgan ma'lumotlarga qaraganda turli xil ruhiy kechinmalar orqali o'zlari mulohaza yuritib mustaqil bajargan ishlari vositasida o'zlashtirilgan bilimlarini uzoq esda saqlab qoladilar. Chunki o'quvchi mustaqil mashqlarni bajarishda faoliyat ko'rsatib, ilgari olgan bilimlariga tayangan holda ko'plab o'quv materiallarini hayolidan o'tkazadi. O'xshash hodisalarni taqqoslaydi. O'zicha mulohaza yuritib mustaqil hukm chiqaradi. O'qituvchilarning tayyor holda bergan ma'lumotida esa o'quvchi fikrlash faoliyati to'la ishga kirishmasdan to'g'ri javobni o'zlashtirib oladi. O'xshash hodisalarga duch kelishi bilan o'qituvchi bergan bilimni amaliyotga taqbiq qilishda qiynalib qoladi. Davlat ta'lim standarti va amaldagi maktab dasturlarida o'quvchi egallashi lozim bo'lgan materiallar ancha murakkab bo'lib, bolalarning bu bilimlarni bosqichma-bosqich egallab olishlarini, kengaytirib va rivojlantirib borishlarini taqozo etadi.

Bugungi Davlat ta'lim standarti va ta'lim tizimi o'qituvchilar oldiga o'ta ma'suliyatli vazifalar yuklamoda. Muallim har bir o'tilayotgan darsga ijodiy yondashishi, mashg'ulotlarni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida qurishi, darsning har bir minutidan unumli foydalanishi zarur. Mashg'ulotlarni shunday tashkil etish kerakki, o'quvchi har bir dars davomida egallashi lozim bo'lgan bilimlar hajmini, o'zida hosil qiladigan ko'nikma va malakalarni oldindan belgilab olishi lozim. Bu o'z navbatida o'quvchining mashg'ulotlarga aniq maqsad bilan qatnashishini taqozo qiladi. Chunki o'quvchi darsning oxirida belgilangan maqsadga erishganligini bilish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur.

O'yinlar bolalarda jamoatchilikni his etish, intizomli bo'lish, jasur, qat'iyatli bo'lish, qiyinchiliklarni yenga bilish kabi sifatning tarkib topishida yordam beradi. Bola kattalarning kundalik hayotiy faoliyatidagi yumushlarni o'yin orqali bajarishga intiladi. Garchi bolalar o'yinlari mazmunan kattalar faoliyatining bir ko'rinishi bo'lsa-da, uning o'ziga xos jihatlari bor. Birinchidan, bola o'yinni o'z xohishi bilan erkin va ijodiy bajaradi. Bu o'yinlar emotsional bo'lib, bolani o'ziga rom qilib oladi. Bola o'yinga qiziqib ketadi, zavqlanadi, o'rtoqlik hissi kuchayadi. Bolalar o'yinlari mazmuniga ko'ra o'yinchoqli, harakatli va didaktik turlarga bo'linadi. Bu o'yinlarning barchasi bolalarni faoliyat yuritishga chorlaydi. Ta'limiy o'yinlar esa bolaga ta'lim berishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Ta'limiy o'yinlar orqali o'quvchilarda kognitiv kompetensiyani shakllantirish

O'yin kichik maktab yoshidagi o'quvchilar faoliyatida asosiy o'rinni egallaydi. O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, o'yin dunyoni va o'zligini anglashda, qiziqishlarini qondirishda asosiy vosita hisoblanadi. Ta'limiy o'yinlar bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillatish va o'yin orqali bilim berish maqsadida yaratilgan.

«Ta'limiy o'yinlar o'quvchilarni ijodiy faoliyat ko'rsatishga, o'rganilayotgan til hodisalarining mohiyatini anglab, mustaqil ravishda hukm va xulosalar chiqarishga, har bir o'quvchiga o'zligini namoyish etish va mulohazalarini erkin bayon etib, o'z nuqtai nazarini himoya qilishga keng imkoniyat yaratadi. Tezkorlik, sezgirlik, topqirlik, qat'iylik, o'quv qiyinchiliklarini mustaqil yengish kabi fazilatlarini tarkib toptirish, ko'pincha, ta'limiy o'yinlar orqali amalga oshiriladi»

Ta'limiy o'yinlar maktab o'qituvchilari tomonidan ijod qilingan. Bu o'yinlar maktab o'quvchilariga mo'ljallanadi. O'yin orqali bola jamoani tushunadi. O'zi bajarayotgan mashg'ulotga nisbatan ongli munosabatda bo'ladi. Har bir mashg'ulot jarayonida ixtiyoriy diqqatini ishga soladi. O'yinda ilg'orlikka, g'alaba qozonishga intiladi. Maktab bola hayotida juda muhim o'rin tutadi. Shu davrda u atrof-muhit, jamiyat va kishilar mehnati, maktab-maorif haqidagi bilimlarni egallaydi. Kecha o'yin bilan band bo'lib, erkin faoliyat ko'rsatib yurgan bolaning birdan maktabning ichki qonun-qoidalariga moslashishi, belgilangan tartib asosida mashg'ulotlarga o'z vaqtida qatnashishi oson kechmaydi. Shu tufayli kichik maktab yoshidagi bolalar o'yin bilan bog'liq darslarda juda faol qatnashadi. Biz o'qituvchilar buni hisobga olib, darslarga o'yin elementlarini kiritishimiz va undan ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarda samarali foydalanishimiz lozim. Bugun maktabga ilk bor qadam qo'ygan o'quvchining kechagi mashg'uloti o'yin edi. Bolada boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan materiallarni o'zlashtirib olishga yordam beradigan epchillik, hozirjavoblik, voqealarni bir-biriga taqqoslash, sinchkovlik kabi ijobiy xislatlarning shakllanish davri bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan bilimlarning o'zlashtirib olinishiga erishish uchun ana shularga tayanish va uni parvarish qila borish lozim.

Tasavvur qiling, o'quvchi ma'lum amaliy va ruhiy tayyorgarlikdan keyin maktab o'quvchisi bo'ladi. Uning vazifasi o'zgaradi. Bir kecha- kunduzda o'rtacha 4 soat ta'lim oladi. Kechagi o'yinqaroq bola bugun 40-45 daqiqa davomida diqqatini bir joyga joylab o'qituvchi bilan muloqatda bo'ladi. O'quv axborotini qabul qiladi va idrok etadi. Ana shu vaqtda o'qituvchi loqayd, mas'uliyatsizlik qilsa, uning bu holati ota-onalarning holati bilan hamohang bo'lib qolsa, ota-ona ham yordam berishdan ojiz, nazorat qilishga "vaqti yo'q" bo'lsa, o'sha o'quvchilar bo'sh o'zlashtiruvchi, tartibsiz yomon o'quvchilarga aylanadilar. O'z

kasbining mohir ustasi bo'lgan fidokor o'qituvchi ana shu paytda o'quvchilarni qo'lga oladi, ularning mehrini, ishonchini qozonadi: o'quv mashg'ulotlariga qiziqish uyg'otadi.

O'yinga bir-ikki nafar bolaning faol qatnashishi bilan chegaralanib qolmaslik zarur. Unga o'quvchilarning aksariyat qismi, iloji bo'lsa hammasi faol qatnashishi kerak. Chunki o'yin bolalarni jamoatchilik ruhida tarbiyalaydi. O'yinlarni bolalar jamoa bo'lib bajarar ekan, uning barcha a'zolari faol qatnashgandagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Bu mashg'ulotda barcha o'quvchi bir maqsad yo'lida harakat qiladi. Hamma g'olib bo'lishga intiladi. Bunday holat har bir o'quvchining ma'suliyatini oshiradi.

Javob berayotgan o'quvchi o'z guruhining ishonchini oqlashga harakat qiladi. Noto'g'ri javob bersa, bolalar oldida o'zini noqulay sezadi, ayrim hollarda o'zini-o'zi koyiydi. Keyingi o'yinlarga puxta hozirlik ko'radi. Bunday mashg'ulotlar bolalarni ko'proq o'qishga chorlaydi. G'oliblik nashidasini birgalashib surishga undaydi.

“Qo'shningni top” o'yini. «Qo'shningni top» o'yinida birinchi sinf o'quvchilari «O'nlik» mavzusidagi bir xonali sonlar ketma - ketligida har bir (1 va undan boshqa) sonning har ikkala qo'shnisini topish bo'yicha amaliy ishlarni bajaradilar. O'qituvchi sonlar kassasidan biror (masalan, 5) sonni olib, o'quvchilarga ko'rsatib, o'quvchilarga bu (5) sonning o'ng va chap qo'shnisi qanday sonlardan iborat bo'lishini so'rab, ularni topib, sonlar qatoriga qo'yish kerakligini so'raydi. Bu o'yinni sinf o'quvchilarining har biri bilan alohida yoki sinf o'quvchilarini ikki guruhga bo'lib xam o'tkazishi mumkin. Bu o'yindan ko'zlangan asosiy ta'limiy maqsad, birinchi sinf o'quvchilariga bir xonali sonlar xaqidagi tasavvurlarini mustahkamlash va ularni o'ngdan chapga va chapdan o'ngga qarab sanash ko'nikmalarini malakaga aylantirishdan iboratdir.


“Do'konda” o'yini. «Do'konda» o'yini ikkinchi sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, ularning «100 lik» ichida hisoblash ko'nikma va malakalarini mustahkamlash ta'limiy va iqtisodiy tarbiyasini amalga oshirishga mo'ljallangan didaktik o'yindir. O'yindan ko'zlangan asosiy maqsad, ikkinchi sinf o'quvchilari bilan 100 sonini tashkil etuvchilari haqida umumiy tushunchalarni aniq tanlab olingan sonlar misolida tanlash usullari bilan tanishtirishdan iborat.

O'yin davomida o'quvchilar do'kondan bir nechta o'yinchoqlar sotib olishi va ularning jami bahosi 100 dan oshib ketmasligi kerak. Bu o'yinning yechimi ko'p bo'lganligi uchun ham o'yin yanada hayajonli va qiziqarli bo'ladi.

“Nima ortiqcha?” o'yini. “Nima ortiqcha?” o'yini: Bu o'yin jarayonida o'quvchilar qatordagi ortiqcha so'z, harf, son, shakl, narsa-buyum bo'lishi mumkin)ni topadi va nima uchun ortiqcha ekanini izohlab beradilar. Bu esa ularning mustaqil fikrlashlari va fikrlarini bayon qila olish malakalarining shakllanishiga yordam beradi. 75, 44, 8, 37; (8 – ikki xonali sonlar orasiga joylashgan)



“O'zga sayyoralik mehmon” ta'limiy o'yini




2-sinflarda matematika fanidan shakllarga oid mavzu o'rgatishda yaxshi samara beradigan ushbu o'yinni o'tkazish uchun o'qituvchi oldinda plakat va unga yopishtiriladigan rangli shakllar tayyorlab kelishi lozim. O'qituvchi navbat bilan qo'lidagi shakllarni o'quvchilarga ko'rsatadi (masalan: doira, uchburchak, to'g'ri to'rtburchak, kvadrat...) va ulardan ushbu shakllar haqida ma'lumotlar so'raydi. O'quvchilar o'zlari biladigan ma'lumotlarni aytib bo'lgach, o'qituvchi ham bu shakllarga oid yangi tushunchalar bilan ularni tanishtiradi va qo'lidagi shakllarni plakatga yopishtiradi. Natijada, darsda “O'zga sayyoralik mehmon” tashrif buyuradi. O'qituvchi o'quvchilarga darsni so'ngiga qadar faol bo'lishni, “mehmonimiz” oldida yer sayyorasida yashovchi insonlarning bilimi qay darajada ekanligini isbotlab berish kerakligini ta'kidlab o'tadi. Ushbu ta'limiy o'yin o'quvchilarni faollikka undaydi.

“Uychaning tomini yop” o‘yini. “Uychaning tomini yop” o‘yini orqali bajariladi. O‘quvchilar kichik guruhlariga bo‘linadi. Har bir guruhga ifodalar yozilgan 1 tadan uycha va javoblari yozilgan tomni uychaga yopadi.




“Bilim cho‘qqisi” o‘yini




Cho‘qqiga birinchi bo‘lib misollarni yechib chiqqan guruhga bayroqcha beriladi.

«O‘yla, izla, top» o‘yini. O‘yla, izla, top o‘yini orqali yechiladi. Misollarni birinchi bo‘lib yechib ko‘rsatgan o‘quvchi „mohir hisobchi“ rag‘bat kartochkasi bilan taqdirlanadi.



“Doiraviy misollar” o‘yini

«Doiraviy misollar» o‘yinida hamma bolalar misollarni javobini topishadi, keyingi misol shu son bilan boshlanadi. Oxiridagi javob birinchi yozilgan songa mos kelishi kerak. O‘yin shu tariqa davom etadi.



Foydalanilgan adabiyotlar/References

1. Matematika: 2-sinf uchun darslik/N.Abdurahmonova, L.O‘rinboyeva; — Toshkent: Yangiyo‘l Poligraf Servis, 2018.
2. Matematika. 2-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma/B.Abdullayeva (va boshq.) – T.:“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 176 b.
3. Matematika. 3-sinf uchun darslik/S.Burxonov, O‘.Xudoyorov, Q.Norqulova; Toshkent: «SHARQ», 2016.
4. Matematika. 4-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma/B.Abdullayeva (va boshq.) – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 176 b.
5. M.Inoyatova, A.Nosirov, M.Divanova, A.Bahromov va b. Boshlang‘ich ta‘lim sifatini oshirishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash. Toshkent. 2014.
6. R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev. Ta‘lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. T. :2017.
7. Interfaol ta‘lim usullari. Sh.K. Shayakubov. “Tafukkur”. 2012.

UO‘K 76.01

BOLALARGA RASM CHIZISHNI O‘RGATISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH

Siddiqova Xafiza Xamidovna

Namangan v. Norin tumani, 25-umumiy o‘rta ta’lim maktabi, tasviriy san’at fani o‘qituvchisi, O‘zbekiston

Annotatsiya. Maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarni rasm chizishga o‘rgatish va mustaqil fikrlashni shakllantirish to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: bola, rasm, bo‘yoq, qalam, gorizonta, vertikal.

UDC 76.01

FORMING INDEPENDENT THINKING IN CHILDREN BY LEARNING TO DRAW

Siddikova Hafiza Hamidovna

Fine art teacher, secondary school No.25, Naryn district, Republic of Uzbekistan

Brief abstract. The article sets out the questions of teaching to draw a primary school student and the development of independent thinking of young children.

Keywords: child, drawing, paint, horizontal, vertical.

Tasviriy faoliyatga o‘rgatishning asosiy vazifasi – tevarak-atrofdagi borliqni tasavvur qilishda bolalarga yordam berish. Ularda kuzatuvchanlikni rivojlantirmoq, estetik go‘zallik hissini tarbiyalamoq hamda tasvirlab berish usullarini o‘rgatmoqdir. Shu bilan birga, tasviriy faoliyatning eng asosiy vazifasi — ma’lum bir yosh uchun mos tasviriy materiallar bilan bolalarda turli xil predmetlarning turli timsollarini yaratish kabi ijodiy faoliyatini shakllantirish amalga oshiriladi. Psixologlarning qilgan tadqiqotlariga ko‘ra, bitta predmetni boshqa predmetlar orasidan ajratib olish uchun bolaga shu predmetni idrok qilishga, predmetning shaklini bilishga yordam berar ekan. Shakllarning tasviriy jarayonidagi xatoliklar faqatgina bolaning noto‘g‘ri tushunchalari va ko‘nikmalarning yetarli emasligi emas, balki predmetni to‘g‘ri idrok etishni bilmasligi bilan tushuntiriladi. Bolaning tasvirlay olish qobiliyati hali yaxshi rivojlanmagani uchun uning oldida fikr yuritib, tasvirlash kabi qiyinchiliklar ham turadi. Rasmda shakl to‘g‘ri kontur bilan chegaralab chiqilgan, lekin shu bilan birga, ishning 1-bosqichlari chiziqlarni to‘g‘ri, aniq chizish va konturlarning (aniqlash) tasviri, rasmda ishlash jarayonining vazifasi bo‘lib hisoblanmaydi. Agar umumiy shakl topilmagan bo‘lsa, konturni to‘g‘ri chiziq bilan chizib bo‘lmaydi, chunki u har doim o‘zgaruvchan, shunga qarab uni chizish ham o‘zgaradi, ya’ni natijasi, rasmning, oxiri, yo‘nalishi ham o‘zgaruvchidir.

Rassom predmetni tasvirlayotganda avval asosiy shaklning belgilarini qog‘ozda belgilab oladi. 7 yoshli bolaga tasvirlashning bunday usuli juda qiyin, chunki u predmetni butunligicha tasavvur qila olmaydi. Unga predmetni asta-sekinlik bilan bir tomonga chizish osonroq. Tasvirlashning bu usuli bolaning ishini osonlashtiradi. Oldin bitta bo‘lagini tanlab, naturadagi keyingi bo‘lagini eslab yoki ko‘rib, shu bo‘lagini bo‘laklarga bo‘lib, rasm chizishni davom ettiradi. Asta-sekinlik bilan bolalarga rasmning umumiy belgilarini qog‘ozga tushirib chizishni o‘rgatish zarur, chunki rasmni bo‘laklarga ajratib chizishning o‘ziga xos qiyinchiligi bor. Bunda kerakli shaklning asosiy bo‘laklari va ikkinchi darajali bo‘laklarning o‘zaro joylashishlari va fazodagi o‘rinlarini aniq proporsional holatda chizish, aniqlash qiyin bo‘ladi. Hamma yosh guruhlar uchun rasm chizish faoliyatiga o‘rgatishning asosiy umumiy vazifalari quyidagilar:

1. Predmetning shakli va tuzilishini tasvirlashga, ularning qismlarini o‘zaro proporsiyalashni ko‘rsatib berishga, harakat natijasida ulardagi o‘zgartishlarga o‘rgatish.
2. Tasvirini obrazli, yorqin qiladigan ba’zi bir xarakterli detallarni tasvirlashga o‘rgatish.
3. Predmetning rangini, uning mazmuni va obraz xarakterini o‘zaro birlashtirib berishga o‘rgatish.
4. Bo‘yoq, rangli qalam va boshqa materiallar bilan chizishda texnik ko‘nikmalarni rivojlantirish.

O‘qituvchi bola qo‘liga qalam berib, chizish harakatlarini bajartiradi yoki o‘yin o‘tkazadi. Bolalar qo‘l harakatining koordinatsiyasini rivojlantirib borib, o‘qituvchi qog‘oz betida bir xildagi ritmik harakatlarni bajaradi, o‘ngga-chapga keyin asta-sekin murakkab harakatlarni bajarishga o‘rgatadi. Masalan, ip o‘rami yoki tutun chiqyapti va boshqalar.

Rasm chizish materiallari — “qalam, bo‘yoqlar” va ulardan foydalanish usullari bilan tanishtirish. Katta yoshli odam chizgan rasmni, predmetning tasviri deb tushunishni o‘rgatish. Rasm chizishning birinchi mashg‘uloti qog‘oz va qalam bilan tanishtirishdan boshlanadi. Bu materiallarning o‘yinchoqlardan bolalarga malum bo‘lgan turli xil predmetlardan farq qilishini pedagog bolalarga tushuntiradi. Qalamlar bilan turli faoliyat turlarini bajarish mumkin. Qog‘oz toza edi, qalamning harakatlanishidan unda izlar paydo bo‘ldi. Qalamning ochilgan uchi qog‘ozda iz qoldiradi. Ikki uchi esa iz qoldirmaydi. Agar sekin bosilsa, qog‘ozda

uning izlari ko‘rinmaydi. Agar qattiq bosilsa, qog‘oz yirtilib ketishi mumkin. Bunday tushuntirishni va harakatlarni ko‘rsatib berish bolalarda rasm chizishga qiziqishni uyg‘otadi. Bulardan tashqari, oddiy texnik ko‘nikmalarni qalam, mo‘yqalamni to‘g‘ri ushlab, ulardan tartibli foydalanish, bo‘yoqni mo‘yqalamning uchiga olishni bilish kabilarni o‘rgatadi.

